

Pirimqul QODIROV

Olmos kamar



UO'K: 81.512.133-3

BBK: 84(50')1

Q - 53

Qodirov, Pirimqul

Olmos kamar: Tarixiy roman. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019. – 416 b.

ISBN 978-9943-20-542-0

«Olmos kamar» romanida Abror va Sherzodning ma'naviyat, kasb, ruhiyat, shuurdagi kurashlarini, hayot, jamiyat, oila, el-yurtga qarashlari aro ziddiyatlarni ko'rsatish asosiga qurilgan. Ularning ikkovi ham arxitektor – yangi shahar bunyod etuvchi, uni obodonlashtiruvchi mutaxassis. Lekin tarbiyasi, tabiati, burch va mas'uliyatga munosabati, muhabbatga, oilaga qarashda farq kuchli. Abror elparvar, adolatgo'y, maydonlarga ko'rk berishda milliy udumlarimiz, an'analarimizga rioya qilish tarafdori. Bahrom esa ishni o'zboshimchalik bilan do'ndirishga moyil. Yozuvchi ularni murakkab kechinmalar, iztiroblar, adashishlar, to'g'ri yo'lni topa olish natijasidagi yoniq quvonchlar ichida ko'rsatadi. Bu qahramonlar kitobxonni mustaqil mushohada yuritishga, mayda andishalar girdobiga o'ralashib qolmaslikka, hayotda kurashlardan qo'rqmay, el-yurt dardi bilan yashashga o'rgatadi.

UO'K: 81.512.133-3

BBK: 84(50')1

ISBN 978-9943-20-542-0

© Pirimqul Qodirov, «Olmos kamar». «Yangi asr avlodi», 2019-yil.

BIRINCHI BOB

Oftob Chotqol tog'lari ortidan juda katta bo'lib chiqdi-yu, yuqoriga ko'tarilgan sari kichraya boshladi. Toshkentning sharqiy tomonida, uchinchi qavatning ayvonida turgan Abrorning nazarida, quyosh tog' qirrasida bir lahza to'xtab, shaharga sinchiklab qarab olganday ko'rindi. Uning yugurik nurlari tunuka va shifer tomlar, asfalt va beton ko'chalarga yoyilib, daryoday betinim harakatlanayotgan rang-barang mashinalar ustidan sirg'anib o'tadi-da, ko'kalamzor bog'larga, azamat chinorlar va emanlar orasiga singib ketadi. Bodom, o'rik, shaftoli va olmalar allaqachon guldand chiqib, meva tukkan, endi jiydalarning oltinrang gullari atrofga muattar hid taratib, tonggi nurlar bilan sho'x-sho'x o'ynashadi. Toklar bilan anorlar ham shu kunlarda gulga kirgan. Tok gullaganini Abror faqat xushbo'y uzum sharbatini eslatuvchi isidan bilib qoladi, yashilrang sho'ralarini esa tok bargidan ko'pda ajratolmaydi. Ammo anor gullari xuddi yashil barglar orasida yonib turgan olov tillariday uzoqdan ko'zga tashlanadi. Qip-qizil, uzunchoq anor gullari sovuqdan juda qo'rqadi, tungi salqinda harir yaproqlarini yumib, tuguncha bo'lib oladi-yu, ertalab oftob chiqishi bilan yana ochiladi va nur bilan haroratga bag'rini tutadi.

Oftob tog' ustidan balandroq ko'tarilgach, yorug'i ko'zni oladigan darajada o'tkirlashdi. Abror uning issiq taftiga chiday olmay, tez ayvonning soya tomoniga o'tdi. Shunda uning xayoli kechasi o'zi chizgan Bo'zsuv tasviriga ketdi. Bundan ikki ming yil oldingi davr, Toshkentni yam-yashil qilib turgan anhor va ariqlar hali qazilmagan paytlar un-



ing ko'z oldida gavdalandi. Narigi cheti Qizilqum sahrosiga borib tutashgan qaqroq cho'l... Bu yerlarning oftobi shunday saxiyki, osmoni haftalar, oylar davomida bulut ko'rmaydi, yoz bo'yi deyarli yomg'ir yog'maydi, odam issiqdan jon saqlash uchun daraxt soyasiga o'zini oladi. Daraxt esa odam qazigan ariqdan suv ichmasa qurib qoladi.

Inson bilan tabiat shu tarzda bir-biridan najot topib kun ko'radi. Ming yillardan beri davom etib kelayotgan bu ajoyib hamkorlik Abrorning murakkab ijodiy o'ylari orasidan topilgan kalavanning uchidek tuyuldi. U yam-yashil bog'-rog'larga, ekinzorlarga yangitdan ko'z tashlar ekan, ularning hammasida inson tomonidan qayta tiriltirilgan tabiatning ikkinchi umri davom etayotganini endi astoydil his qildi. Qutqarilgan hayot aslidan ham tansiqroq bo'ladi, shuning uchun insonga ergashib, ariqlardan yovvoshgina oqib borayotgan suv ham, sug'oriladigan yerlarda ko'karib turgan har bitta daraxt ham, giyoh ham odamlarga o'zini behad yaqin oladi, doim ulardan himoya kutadi va butun taqdirini ularga ishonib topshiradi.

– Dada, kech qolmaylik tag'in! – Abrorni pastdan qizi Malika chaqirmoqda edi. U hozir aeroportga borishi kerakligini esladi-yu, istar-istamas pastdagi mashinasi oldiga tushdi.

Vazira ertalabki reysda Moskvaga uchishi kerak edi. Abror uni bolalari bilan birga katta ko'chaga olib chiqquncha, mashinani shoshilmay haydab bordi. U shu bugun ertalab ko'nglida paydo bo'lgan ulkan va yaxlit tuyg'uni yo'qotib qo'ymaslikka intilardi. Lekin chorrahadan o'tgandan keyin behisob mashinalar girdobiga tushdi-yu, xayoli ko'cha harakatining ming xil mayda-chuydalariga bo'linib, alahsib keta boshladi.

Ertalab ko'pchilik ishga shoshiladi, Toshkent ko'chalari tirband. Abror mashinasini har qancha qistab haydasa ham, Darxon tomondan borib, shahar markazidan o'tgunlaricha vaqt ketib qoldi. Vokzaldan nari aeroport uncha uzoq emas.



Samolyotlar uchib-qo'nayotgan joydan sal berida temir yo'l ko'rindi. Abror xira miltirab turgan relslar ustidan tezroq o'tib olishga intilib, mashinasini uchirib kelayotganda semofor birdan bekildi-yu, ola yog'och yo'lni to'sib oldi.

Abror shosha-pisha tormozni bosdi, g'ildiraklar chi-yillab, mashinaning oldi yulqinib, ola yog'ochga tegay-tegay deganda to'xtadi.

Poyezd hali ko'rinmasa ham, temir yo'l qorovulxonasida qo'ng'iroq uzluksiz jiringlardi. Ro'parada ko'zday juft turgan ikkita qip-qizil chiroq, biri yonib, biri o'chib, g'ashni keltirardi.

Vazira bilagidagi jajji soatga ko'z tashlab:

– Voy o'lsin, kechikdim! – dedi. – Qaytaga naryoqdagi ko'priktan o'tib kelsak bo'lardi-ya!

Abror qo'l tormozni shaxt bilan tortar ekan:

– Nima, Beshyog'och tomondan aylanib kelaymidi? – dedi.

– Shota Rustavelidan o'tsak ham bo'lardi-ku. Hozir registratsiya tugaydi. Mening samolyotdagi o'rnimni birovga sotib yuborishsa, nima qilaman? Koshki bilek olish oson bo'lsa!

– O'zingizdan ko'ring! Mashina eshikda bir soat turdi. Tezroq chiqing edi...

Vazira orqa o'rindiqlarda jim o'tirgan to'qqiz yoshli Zafar bilan o'n to'rt yashar Malikaga o'girilib qaradi:

– Mana bular-da! «Biz ham boramiz», deb yopishib olishmaganda ertaroq chiqardim. Bularni kiyintirib olib chiqish osonmi?

Abror Malikaning silliq qilib taralgan va chiroyli lenta bog'langan sochiga, o'g'lining hozirgina dazmoldan chiqqan oq ko'yilagi bilan jigarrang shortisiga tez bir ko'z tashlab oldi-da:

– Faqat kiyinish bo'lsa ekan! – dedi. – Albatta yasanish ham kerak. Uch kishini yasantirib chiqquningizcha samol-



yot kutib turarmidi! U men – sizni mudom sarg‘ayib kutadigan!

– Obbo, birpas kutganingizga shuncha minnatmi?

– Qaniydi birpas bo‘lsa... O‘n besh yildan beri ahvol shu.

Ota-onalarining bunaqa aytishuvlariga o‘rganib qolgan bolalar yaqinlashib kelayotgan poyezdga qiziqib qaray boshlashdi.

– Malika, qara, parovozi ikkita ekan! – zavqlanib qichqirdi Zafar.

Malika past tovush bilan:

– Baqirma! – deb ukasini jerkidi. – Parovoz emas bu, teplovoz.

Motorlari qudrat bilan gurillab ishlayotgan qo‘shaloq teplovozlar og‘ir yuk vagonlarini tortib o‘tayotganda mashina turgan yer silkinib, lapanglab ketganday bo‘ldi.

Sirtlarida yog‘li dog‘lar ko‘rinib turgan sisternalar, ochiq platformalarda uzoq o‘rmonlarni eslatadigan qarag‘ay g‘o‘lari, bo‘yog‘i yaltirab turgan och-qizil haydov traktorlari. Stansiya yaqin bo‘lgani uchun poyezd sekinlab borardi. G‘ala‘i yuklarga maroq bilan qarab turgan Zafar:

– Iye, ana, mashina ham bor ekan, dada! – dedi. – Xuddi siznikiga o‘xshagan. «Jiguli!»

Abror indamadi. Malika yana ukasining xatosini tuzatdi:

– Biznikiga o‘xshagan emas. Boshqa markasi.

– Nega? Sen qayoqdan bilding?

– Biznikining farasi ikkita. Poyezddagi «Jiguli» to‘rt farali.

Zafar keyingi platformaga qaradi-yu:

– Buldozer! – deb gapni chalg‘itdi.

Vazira shoshilmay o‘tayotgan platformalar va qizil vagonlarga toqati toq bo‘lib tikildi:

– Bu muncha uzun! Hech oxiri ko‘rinmaydi-ya!

Zafar esa bir-biridan qiziqarli yuklarning mumkin qadar ko‘proq o‘tishini, poyezdning yanada uzunroq bo‘lishini istardi.



Nihoyat, hamma vagonlar o'tib bo'ldi. Ola yog'ochning uchi ko'tarila boshlagan zahoti Abrorning olcharang «Jiguli»si uning tagidan g'izillab o'tib ketdi.

Yo'lovchilar ro'yxatga olinadigan oynavand binoning ichi-tashi odamga to'la edi. Abror mashinasini shu binoga yaqin keltirib to'xtadi.

Vazira eriga:

– Narsalarni Malika olib kirar! – dedi-yu, bileti bilan pasportini qo'lga olganicha ichkariga qarab chopdi.

Abror bolalarini mashinadan tushirib, eshiklarni bekitdi va bagajnikni ochdi. Charm chamadoncha yonida uzun qora g'ilofga o'rog'liq loyihalar bor edi. Abror yengilgina g'ilofni qabzasidan olib, Malikaga berdi. O'zi qo'ngir charm chamadonni ko'tardi. Chamadon uncha katta bo'lmasa ham, zilday og'ir edi. Uning ichidan handalak hidi kelardi. «Sovg'asiz yurolmaydi!» deb g'ijinib qo'ydi Abror ichida.

Oynavand eshikdan kirayotganlarida tepadan suxandon qizning dona-dona qilib aytgan so'zlari eshitildi: «Besh yuz o'n uchinchi reys bilan Moskvaga uchadigan samolyotga passajirlar chiqarilishi to'xtatilmoqda». Abror Malikaga qarab:

– Hali uchmagan ekan-ku! – dedi.


Yuklarni tortadigan doira shakl tarozining oldida turgan Vazira shoshilib kelib, chamadonini Abrorning qo'lidan oldida, taroziga eltib qo'ydi.

– Xayriyat, hamrohlar bor ekan, o'rnimni sotgani qo'yishmapti! – dedi tez-tez nafas olarkan.

Abror yon-veriga durustroq qaradi-yu, Vaziraning biletini ro'yxatdan o'tkazdirayotgan xushqomat odamni zndi tanidi.

– Bahromov ham boryaptimi? – dedi xiyol tovushi o'zgarib.

Ilgari institutda birga o'qib yurgan paytlarida Abror tengdoshi Sherzodni doim oti bilan atar edi. Lekin oradan o'tgan bir qancha voqealardan keyin uni familiyasi bilan ataydigan bo'lgan edi. Hozir Sherzod qo'lida ushlab turgan



ko'k g'ilofli pasport Vaziraniki ekanini tanigan Abror ensasi qotib yerga qaradi.

Bir vaqtlar mana shu Sherzod Vaziraga uylanadigan edi. Uning katta lavozimda ishlaydigan otasi odam qo'yib, Vaziraning ota-onasidan rozilik ham olgan edi. Abror bu ishkallikni bartaraf qilib, Vaziraga yetishguncha tortgan azoblari hali ham esidan chiqqan emas.

Erining avzoyi o'zgarganini sezgan Vazira chetroqda portfel ko'tarib, sigareta chekib turgan o'rta yashar kishini ko'rsatib:

– Sherzod ikkovlari birga ketishayotgan ekan, – dedi.

Vazira buni go'yo hozir bilganga o'xshab gapirgani Abrorga g'alati tuyuldi.

– O'rningizni Bahromov sottirmay turgan bo'lsa, birga ketishini avvaldan bilgan ekan-da.

Vazira: «U bilgan bo'lsa bordir, lekin men bilganim yo'q», demoqchi bo'ldi-yu, lekin o'zini oqlashga uringanday ko'ringisi kelmadi. Abrorning ko'ziga tikilib:

– Buning nima ahamiyati bor? – dedi.

Shu payt Sherzod qo'lida Vaziraning pasporti va bileti bilan shoshilib ularning oldiga keldi.

Sherzod chiroyli kulrang kostyum kiygan edi. Ko'kragida oltinday yaltiragan laureatlik nishoni Abrorning ko'ziga endi tashlandi. Sherzod Abrorning labi qimtilib, qoshi chimirilib ketganini payqadi-da, ovoziga rasmiyroq tus berdi.

– Abror A'zamovich, salom!

Abror unga ataylab qo'l bermadi, faqat bosh irg'ab alik oldi. Vazira bileti bilan pasportini Sherzodning qo'lidan olib, tez sumkasiga soldi.

Shosha-pisha tashqariga chiqdilar. Moskva samolyotiga keng maydonning narigi chetidagi ulkan bino orqali o'tib borilardi.

– Chopsak yetamiz! – dedi Sherzod.

U qirq yoshga kirgan bo'lsa ham, hali xipcha va chaqqon edi. Vazira Abrorning to'ladan kelgan og'ir gavdasiga qaradi. Bolalarini ham yugurtirib yurgisi kelmadi.



– Bo'lmasa shu yerda xayrlasha qolaylik, – deb avval o'g'lini bag'riga bosdi. Shunda Zafar oyisining qulog'iga:

– O'zi yuradigan tank opkeling! – deb shivirlashga ulgurdi.

– Xo'p. Malikaga platforma tuflimi?

Malika bosh irg'ab, Vaziraning bo'ynidan quchoqladi:

– Oyijon, tezroq qayting!

Vazira g'ilofni uning qo'lidan oldi. Ikkinchi qo'lida sumkasi. U Abrorga yaqin borib, sumka tutgan qo'lini uning yelkasiga qo'ydi. Abror xotinining o'pishib xayrlashmoqchi ekanini sezdi-da, boshini xiyol egdi.

Bo'yi eridan ancha past bo'lgan Vazira oyoq uchida ko'tarilib, uning labiga labini qo'ydi:

– Yaxshi qolinglar! Kechqurun uyga telefon qilaman! Xayr!

Shu topda ular bir-birlariga juda munosib er-xotin bo'lib ko'rinishdi-yu, Sherzod yuzini o'girib oldi. Uning hamrohi ancha narida shoshilib bormoqda edi. Sherzod bilan Vazira uning ketidan yugurishdi.

Vaziraning beli ingichka bo'lsa ham, o'zi ancha to'lishgan. Baland poshnasini ehtiyot qilganday mayda qadamlar bilan chopib ketdi. Nariroqqa borganda Sherzod uning qo'lidan sumkasi bilan g'ilofini oldi.

Samolyot markaziy binoga yaqin joyda turgan ekan. Trapni endi olmoqchi bo'lishayotganda ular yetib borishdi va tanbeh eshita-eshita samolyotga chiqishdi. Sherzodning hamrohi oldindagi bo'sh o'ringa o'tirdi.

Styuardessa qiz Sherzod bilan Vazirani er-xotin deb o'yladi chamasi, orqadagi uchinchi salonga boshlab borib, ikkovini yonma-yon o'tqazdi.

* * *

Bolalarini uyga olib qaytayotgan Abror goh tormozni, goh gazni asabiy bosar, muyulishlarda rulni chirpirak qilib, mashinasini keskin burardi. Dadalarining avzoyi buzuqligi-



ni sezgan Malika bilan Zafar orqa o'rindiqla churq etmay o'tirishipti.

Sherzod Bahromov bilan birga chopib borayotgan Vazira Abrorning ko'z oldidan nari ketmas edi. Sherzod avval Vaziraning pasportini qo'lida ushlab turgani, keyin uning sumkasini qo'lidan olgani Abrorning esiga tushganda xuddi ko'ylagining ichiga ari kirib qolgan odamday bezovtalanardi. Ozorli tuyg'ular ta'sirida goho mashina haydab borayotgani ham esidan chiqib ketardi.

U bir chorrahaga yaqinlashganda sariq chiroq yondi. Abror mashinasini to'xtatish o'rniga gazni qattiqroq bosdi. Chorrahadan o'tay deganda orqa oynasiga oq darparda tutilgan yangi «Volga» Abror mingan «Jiguli»ning tumshug'i tagidan qattiq signal berib o'tib ketdi. Yo'l «Volga»niki edi. Agar Abror darhol tormozni bosib, tezlikni pasaytirmaganda «Volga» uni pachoqlab ketishi mumkin edi. Lekin shunda ham Abror aybdor sanalardi.

Chorrahadan o'tgandan keyin Abror og'zining quruqshab ketganini, yuragi qinidan chiqquday bezovta urayotganini sezdi va yoqasining tugmasini yechib qo'ydi. «Xayriyat, militsioner yo'q ekan», – deb o'ziga tasalli berdi va mashinaning tezligini pasaytirdi.

Narigi chorrahaning qizil chirog'i oldida to'xtab turganda orqasiga o'girilib bolalariga qaradi:

– Men hozir senlarni uyning oldiga olib borib qo'yan-da, ishga ketaman. – Abror cho'ntagini kovlab, sertish bir kalit oldi. – Malika, ma, eshikni sen ochasan.

– Men ham birpasdan keyin maktabga ketaman-ku.

– Ketsang, kalit Zafarda qoladi.

Zafar bu gapdan mamnun bo'lib:

– Men ikkinchi smenaga boraman, – dedi.

Malika ukasiga qarab:

– Men kelguncha sen ketib qolsang, kalitni qayerdan olaman? – dedi.



Ko'k chiroq yondi. Abror mashinani yurgizdi-yu, yo'lga qarab borayotib:

- Zafar, - dedi, - sen kalitni qo'shnilarga tashlab ketasan.
- Xo'p, dada.
- Malika, sovutkichdagi kechagi oshni ilitib yeysanlar.
- Dada, men tuxum qovurib yesam-chi? - dedi Zafar.
- O'zingmi? Yo'q, gaz - juda xavfli narsa. Malika ertaroq

kelsa qovurib beradi.

Abror bolalarining tashvishi bilan xayolini band qilishga intilayotgan bo'lsa ham, lekin samolyotda ketayotgan Vazirani notanish odamlar Sherzodning xotini deb o'ylashlari mumkinligi yana ko'ngliga kelib, ko'ylagi ichiga kirib qolgan ariday bezovta qila boshladi. U Vaziraning o'pishib xayrlashayotgandagi nafis lablari taftini xayolida qayta tiklar ekan, arini ko'ylagi ichidan quvib chiqarishga intilib ko'rdi. Axir u xotiniga ishonadi-ku! Sherzodning qarshisida o'zini osoyishta tutsa bo'lmasmidi! O'n besh yildan beri birga hayot kechirishyapti. Vazira darrov Sherzodga qarab og'ib ketmas, axir! Tajribasiz go'r kuyov bolaga o'xshab, bunchalik xavotirga tushib, bezovtalanib qolish zaiflik belgisi emasmi? Bolalari katta bo'lib qolishgan. Ana, Malika: «Dadam rashk qilyapti» deb hayron bo'lishi mumkin. Yo'q, bu ko'yga tushish uyat!

Aqli shunday deydi-yu, lekin ko'ngli bu gapga quloq solmaydi. O'zini yangicha tarbiya ko'rgan ziyoli odam deb biladigan Abrordan tashqari uning ichida o'tgan avlodlarning irsiy tuyg'ulari bilan yashaydigan boshqa Abror ham bor. Ertalabdan shuncha shoshilib, mashinani shunchalik quvib haydab qilgan ishi - jufti halolini alamzada raqibi Sherzodga ishonib topshirib, uzoq safarga birga jo'natgani bo'ldimi? Chapanitabiat Abror buni, «latta erning bema'ni ishi!» deb, ziyoli Abrorni ari kabi chaqadi. Urushdan oldingi Toshkent mahallalarida bunaqa erni yigitlar ikkovora-ga qo'shmay qo'yishardi. Asrlar davomida sharq qizining bokira sadoqatiga o'rgangan yigitlar o'z xotinlarining chi-



royinigina emas, hatto uning ovozidagi nafosatni ham begona erkaklarga ravo ko'rmaganlar. Shuning uchun ayollar yuzlarini berkitishdan tashqari, ovozlarini ham begona erkaklarga eshittirmaslikka harakat qilganlar. Yangicha tarbiya ko'rgan madaniy Abror, albatta, buning hammasini «eskirgan tushunchalar» deb kulgi qiladi. Vaziraning erkaklar qatori institutda o'qishini, yoqtirgan sohasida ishlashini, zarur bo'lganda xizmat safarlariga ham borishini «ko'pga kelgan to'y» deb hisoblaydi. Lekin baribir xotining pokligi va sadoqati unga ham shu darajada azizki, bu sadoqatga biron narsa ozgina soya solguday bo'lsa, to shu soya o'rtadan ko'tarilmaguncha o'zini ari talayotganday bezovta va notinch sezadi. Mana, hozir Vazira Sherzod bilan uzoq safarga birga ketdi. Abror Sherzodning olg'irligini, ayollar bilan muomalaga ustaligini, Abrordan qasdini olish uchun butun mahoratini, bor hunarini ishga solishini yaxshi biladi. Ziyoli Abror: «Vazira ham yosh qizcha emas-ku, o'zini himoya qila bilar», deb uni tinchitmoqchi bo'lganda, bobolardan o'tgan g'ayir bir tuyg'u: «Suygan xotiningni Sherzodday shayton raqibing bilan birga safarga jo'natishga qanday ko'ngling bo'ldi?!» deb uni yozg'iradi.

Abror ko'nglidagi mana shu g'ulg'ulani bosolmay asabiylashgan holda o'zlari turadigan to'rt qavatli uyning hovlisiga mashinani burib kirdi. Bu yerda u tagidan qirqilgan yosh daraxtlarni, do'ppayib turgan tuproq uyumlarini va chang-to'zon ko'tarib o'tayotgan samosvallarni ko'rdi-yu, Sherzodga qarshi isyon qilayotgan tuyg'ulari battar xuruj qildi.

O'shanda ham Vazira: «Sherzod bilan gapirishing, birga o'qigansizlar, oraga tushgan g'uborlar shu bilan tarqab ketadi», deb uni qo'ymagan edi. Bo'lmasa Abror Sherzod Bahromovning kabinetiga hech qanaqa iltimos bilan borishni istamas edi. «O'zingiz uchun emas, mahalla uchun borasiz, – dedi Vazira. – O'sha loyiha Sherzodning ixtiyorida ekan. To'xtataman desa hozir to'xtatadi. Agar uning tas-



dig'idan o'tib, yuqoriga chiqsa, keyin ishingiz o'n barobar qiyin bo'ladi».

O'zi ham loyiha institutida ishlaydigan Abror Vaziraning so'nggi gaplari haqligini yaxshi bilardi. Shuning uchun u murakkab tuyg'ularini ichiga yutib, Sherzodning huzuriga bordi.

Sherzod kabinet to'rida uchta telefon qo'yilgan stol ortida o'tirgan ekan. U boshliq bo'lgan bo'limning loyihachilaridan ikki kishi yangi chizilgan eskizlarni ochib, Sherzodga ko'rsatishayotgan ekan. Sherzod eshikning beruxsat ochilganidan qovog'ini solib, boshini ko'tarib qaradi. Lekin Abrorni ko'rib beixtiyor o'rnidan ko'tarildi. O'ng-u so'lga aylanib turadigan charm kreslosining yonidan ancha beriga kelib, Abror bilan quyuq ko'rishdi. Eskiz ko'rsatayotgan loyihachilar ham o'rinlaridan turishdi. Sherzod ularga:

– Bo'shasam, chaqiraman, – dedi.

Ular boshliqlarining hozir kirib kelgan kishi bilan band bo'lishini sezishdi-da, sekin qog'ozlarini yig'ishtirib chiqib ketishdi. Sherzod kreslosini bo'sh qoldirib, stolga ko'ndalang qo'yilgan kichkina stolchaning bir tomoniga Abrorni o'tqazdi, ikkinchi tomoniga o'zi o'tirdi.

Abror ichida, «juda qoidasini keltiryapti-ku», deb kulimsirab qo'ydi-da:

– Men mahallaning ishi bilan keldim, – dedi.

– Siz... mahallaning ishi bilan?.. – ishonqiramay so'radi Sherzod.

– Biz turadigan mikrorayon eski mahallaning o'rniga tushgan. Ilgarigi mahallaning odamlari qavatlariga ko'chib chiqishgan. Lekin azaldan ochiq joyga o'rgangan odamlar mikrorayonda ham hovlining soya joyiga karavot o'rnatib, ko'rpacha to'shab o'tiradi. Karnay-surnayli to'ylar ham bo'lib turadi.

– Lekin yangi mikrorayonlarga karnay-surnaylar uncha yarashmay qolyaptimi deyman-da!



– Nega? Men shaxsan karnayni yaxshi ko'raman. «Vah-ha-ha hu-uu» deganda ko'nglim yayrab ketadi. Karnayda faqat shodlik kuylarini chalish mumkin. Bu o'zi shunaqa o'yin-kulgi uchun yaratilgan bir narsa. Lekin surnay xursandchilikni ham, ma'yuslikni ham yaxshi beradi. Karnay, surnay, nog'ora – bular Toshkentga juda yarashadi. Bunaqasi dunyoning boshqa qit'alarida yo'q, Sherzod. Takrori yo'q narsalarimizni qadrlashimiz ham kerak!

– E, qanaqasiga takrori yo'q ekan! Mana shu kunlarda har oqshom shaharning o'n-o'n besh joyida karnay-surnay shovqini takror bo'lib turibdi. Yana mikrofon-u ovoz-kuchaytirgich qo'yish odat bo'lgan. Ichib olib, dinamikdan butun shahar eshitadigan qilib aljiydiganlar bor.

– Dinamikni baqirtirib, uyqu bermaydigan odobsizlardan biz ham bezor bo'lganmiz, Sherzod. Lekin karnayning bunga aloqasi yo'q.

– Biri ustiga biri qo'shiladi-da. Ishdan charchab bor-ganda sal dam olay desang, shovqin-surondan qulog'ing qomatga keladi. Toshkentda busiz ham shovqin yetarli. Menga qolsa, katta shaharlarda baqiradigan dinamiklarni ham, karnay-surnaylarni ham man qilgan bo'lardim.

– Rok-n-rol, jaz musiqani-chi? Talabalik paytimizda jazni baqirtirib qo'yib eshitishni yaxshi ko'rardingiz-ku.

– Jaz boshqa. Jaz bilan negrcha ritmlarni hozir butun dunyo yoqtiradi.

– Hamma joyda nuqul amerikacha ritmlar-u jaz musiqa, pop musiqa bo'laversa qizig'i qolmas ekan. Usiz ham jahonda standart ko'p, unifikatsiya kuchli. Odam xilma-xillikni qo'msaydi. Bir joyda negrcha ritmlar-u jaz bo'lsa, boshqa joyda karnay-surnay bilan doira, nog'ora ritmlari bo'lsin.

– Xo'p, bahsni qo'yib, asosiy maqsadga kelaylik-chi. Gap hovli to'g'risida edimi?

– Ha, o'sha hovlini ham standart qilmasdan, o'ziga xos bir oromgohga aylantirmoqchimiz-da. Ko'p qavatli uylar tipovoy loyiha bilan qurilgan, podyezdlar, kvartiralar bir-



birining aynan takrori. Endi hovli o'zgacha bo'lsin deb, uni chorbog' usulida obod qildik. Menda Navoiy davridagi chorbog'larning tarhi¹ bor edi. Bizning hovlimizda unaqa katta maydonlar bo'lmasa ham, anchagina bo'sh yer bor. Ma'lum joyga chorchaman qilib, to'rt xil gulni xillab o'stirdik. Mahalla komissiyasi hamma odamlarni hasharga chaqirdi. Hovli chetlariga soya beradigan tol, terak, chinor o'tqazdik. Derazalarga yaqin joylarda gilos, shaftoli, tok, yana boshqa mevali daraxtlar bo'ldi. Hovli o'rtasida chiroyli hovuzcha. Uning atrofida bolalar o'ynaydigan sport maydonchasi. Ishkomlar tagida to'y-ma'arakalar o'tadigan soya-salqin joy.

– Shahar obodonchilik tashkilotlari ham yordam berishgandir?

– Ular ko'chat berishdi, ariq qazib, suv olib kelishga qarashishdi. Hovli o'rtasida chang bosib, qurib yotgan sement lotoklar bor edi. Ularni ko'chirib olib, boshqa kerakli joyga o'rnatdik. Lekin hashar juda ajoyib odat ekan-da, Sherzod. Odamlar ishdan keyingi bo'sh soatlarda, dam olish kunlarida bir yoqadan bosh chiqarib, shunday katta ishlarni tekinga qilishdi-ya! Qo'shnilar bir-biridan yotsirab, har qaysisi o'z kvartirasiga kirib olib, yonidagi qo'shnisini ham tanigisi kelmay, ichkarida televizorini ko'rib, portveynini ichib: «Bor, hashar-pasharingni bilmayman, tekinga ishlaydigan ahmoq yo'q!» deb yotaversa, nima qilar edik? Har qalay, odamlarimiz to'y-ma'rakada bir-biriga qarashib, mahalla-ko'y bo'lib, qovushib yashashida hikmat katta ekan.

– Bu hammasi o'z-o'zidan ma'lum-ku, – dedi Sherzod zerrikkan bir apozda.

– Lekin hech narsa o'z-o'zidan tayyor bo'lib qolmas ekan-da. Bir mahalla odam shu hovlini obod chorbog'ga aylantirguncha ikki yil jon koyitdi. Hozir mevazori ham, chorchaman gulzori ham, keksalar dam oladigan sersoya sahni ham, bolalar o'ynaydigan maydonchasi ham, to'y-ma'raka

¹Tarh – loyiha, reja.



o'tkaziladigan joyi ham me'yoriga yetdi deb quvonib yurgan edik. Birdan hammasi buziladigan bo'lib qoldi.

– Yo'g'-e! Kim aytdi sizga?

– Matlubotchilar aytdi. Bizning hovliga to'rt qavatli kooperativ uy tushar emish!

– Yolg'on mish-mish bo'lsa kerak.

– Men ham avval shunday deb o'yladim. Lekin o'tgan kuni mutaxassislar hovlining ikki joyidan chuqur «shurp» qazib, tuproq olayotganining ustidan chiqdim. Bilasiz, shurp qazilgan joyda qurilish bo'lishi aniq. Shundan keyin harakatga tushdik. Kim bu yangi uyni bizning hovliga olib kelib qo'ndirmoqchi ekan, deb surishtirsam, kalavaning bir uchi siz boshliq bo'lgan joydan chiqdi.

Sherzod nimanidir eslaganday bo'lib, peshanasini uqaladi-da.

– Hm, ko'raylik-chi, – deb o'rnidan turdi va stolining tortmasidan abrorlar yashaydigan mikrorayonning rejasini qidirib topdi.

Bu yerdagi ko'p qavatli uylar sershovqin katta ko'chadan ichkarida edi. Imoratlar safda turganday qator emas. Zamonaviy uslubda bir-biriga ko'ndalang yoki qiya bo'lib tushganlari ham bor. Shuning uchun ularning hovlilari biri biriga o'xshamas, Abrorga shunisi yoqar edi.

Dasturxonday katta qog'ozni tikka turib ko'rayotgan Sherzod:

– Ha, tushunarli, – dedi. – Mana bu uchta to'rt qavatli uyning oralig'ida bo'sh joy ko'p ekan-da.

Abror ham o'rnidan turib, rejaga ko'z qirini tashladi:

– Qog'ozda bo'sh ko'ringan joylarning hammasi band. Odamlar to'y-ma'arakalarini hovlida o'tkazib o'rgangan emasmi, shu tol-teraklarning orasiga ikki yuz kishi sig'adigan sahn qilishdi. Yangitdan mahalla komissiyasi tuzildi. Odamlardan pul yig'ishib, ma'arakalarga kerak bo'ladigan idish-tovoq, stol-stullarni olib qo'yishdi. Hatto hovliga bitta tandir ham qurdik.



Abror kulib-kulib, bu tandirda non yopadigan novvoyning tarixini aytib berdi. Ilgarigi mahallaning novvoyi zilzilada hovlisi va novvoyxonasi buzilgandan keyin ko'chalarga suv sepadigan mashinani haydaydigan bo'lgan edi. Hovlida yangi tandir qurilgandan keyin nonni yana o'sha novvoy yopadigan bo'ldi. Faqat endi u mashina haydashdan bo'shagan paytida – oqshomlari yoki erta tongda to'y-marakalar uchungina non yopar edi...

– Tandirni menga aytishuvdi, – dedi Sherzod. – Undan tashqari, mana shu bo'sh joyda uch-to'rtta temir garaj ham bor emish.

Telefon jiringladi. Abror qora, ko'k va kulrang apparatlarga ko'z tashlab qaysi biri jiringlayotganini bilolmadi. Sherzod ularni ovoizidan tanisa kerak, darhol ko'k telefonning go'shagini oldi. Past tovush bilan:

– O'n daqiqadan keyin yana qo'ng'iroq qiling, – dedi-da, go'shakni qaytib qo'ydi va o'rnidan turgan Abrorni o'tirishga taklif qildi.

– Avvalgi loyihachilar zilzila to'polonlarida yerni tejashni durust o'ylashmagan ekan, – dedi Sherzod. – Hozir biz ko'pqavatli uylarning orasidagi masofani mumkin qadar qisqartaymiz. Axir har bir qarich yer oltinga topilmaydi. Bu to'g'rida maxsus ko'rsatma bor.

– Bilaman... Siz aytgan ko'rsatma juda to'g'ri. Lekin uni ko'r-ko'rona tatbiq qilish kerak emas-da, axir!

– Hovli, albatta bo'ladi, Abror A'zamovich, busiz mumkin emas. Yangi uy hovlidan ortgan joyga tushadi. Loyihachilar hammasini hisobga olishgan.

Abror Sherzodning stoli ustida turgan rejaga qo'l cho'zib:

– Mumkinmi? – dedi.

– Marhamat.

– Mana, qarang. Hovlining mana bu yeri – bolalar maydonchasi. Bu yeri – sement hovuz. Atrofiga daraxt ekilgan, salqinlab dam oladigan sahn qilingan. Agar to'rt qavatli uy quriladigan bo'lsa, buning hammasi so'zsiz ketadi.



– Hammasi ketmas deyman?

Abror qo'liga qalam oldi va qurilish maydonchasi qoida-ga binoan qancha joyni egallashini, hovli sahnining qancha joyi mexanizmlar g'ildiragi ostida qolishini hisoblab, chizib ko'rsatdi.

– Chatoq bo'larkan-da! – dedi Sherzod va o'zidan oldin-gi boshliqni so'kdi: – O'shanda o'ylashlari kerak edi-da, xomkallalar! Endi ularning xatosini tuzatib bo'lmaydi! Vaqt o'tgan!

– Nega vaqt o'tar ekan, Sherzod? Normaga binoan har bir odamga ellik kvadrat metr yashil zona bo'lishi kerak. Bu mikrorayonda ikki ming odam turadi!

– Abror A'zamovich! Hozir ko'kalamzorlashtirishdan ham oldin hal qilishimiz kerak bo'lgan muammo – odamlar-ni turarjoy bilan ta'minlash!

Talabalikda Abrorni jo'ngina oti bilan atab yurgan Sher-zod endi uni «A'zamovich» deyishi avval g'alatiroq tuyuldi. Lekin buning nimasidir ikkovining hozirgi munosabatlari-ga mos tushishini Abror endi sezdi-yu, o'zi ham:

– Sherzod Islomovich, – dedi, – agar zarur bo'lsa, kooper-ativ uy uchun men xuddi shu mikrorayonda boshqa bir joy ko'rsatishim mumkin.

Sherzod reja ustiga engashdi:

– Marhamat, ko'rsating!

Abror qo'lidagi qalam bilan mikrorayonning narigi che-tini ko'rsatdi.

– Katta yo'l bo'yimi? – dedi Sherzod, – taxminan... to'g'ri keladi. Men umuman qarshi emasman. Lekin koopera-tivchilar ko'nmasligi mumkin.

– Nega ko'nmas ekan?

– Katta yo'lning shovqinini bilasiz. Kooperativchilar dav-latga naqd pul to'lashadi. Ularga hozir e'tibor zo'r. Shuning uchun ichkariroqdan qulayroq joy berilmoqchi.

– Ularga qulaylik tug'diramiz deb, boshqa yuzlab odamlarni noqulay ahvolga solish adolatdanmi?



– Umuman siz haqsiz. Shaxsan men... qarshi emasman. Lekin...

Sherzod talabaligida ham biron narsadan ikkilansa «umuman», «taxminan», «shaxsan» degan so'zlarni ko'p ishlatardi. Hozir shu Abrorning esiga tushdi. U o'rtoqlarcha samimiyat bilan kulimsirab:

– Sherzod, avvalgi «umuman», «taxminan»larni yig'ishtirib qo'yaylik, – dedi. – Siz bilan biz shu ishlarni ipidan-ignasigacha biladigan mutaxassislarmiz. Bu uy bizning hovliga tushsa, noto'g'ri bo'lishini ikkovimiz ham aniq sezib turibmiz. Shundaymi?

– Shundaylikka shundayku-ya!

– Agar siz astoydil kirishsangiz, shu noto'g'ri ishning oldini olish qo'lingizdan keladi. Chunki bu ishni sizga ishonib topshirishgan. Dalillar yetarli. Kooperativ uyga naryoqda joy bor.

– Bo'lmasa, harakat qilamiz-da.

– «Taxminan» emas-a?

– Yo'q, aniq! – deb kuldi Sherzod.

– Endi men... boshqa idoralarga borib yurmayinmi?

– Hozircha hojati yo'q. Keyin mabodo ishkallik chiqsa, men o'zim aytarman.

– Bo'pti, rahmat!

Abror Sherzodga qo'l berib xayrlashar ekan, bundan keyin oralari yaxshilanib ketishiga astoydil ishongan edi.

Shundan keyin yoz o'tdi, kuz o'tdi, qish o'tdi, hovlida qazilgan «shurp» bekilib ham ketdi, lekin qurilishdan gap chiqmadi. Abror, «endi tinchib ketdi, Sherzod so'zining us-tidan chiqdi», deb o'yladi.

Biroq ko'klam kirib, daraxtlar endi barg yozayotgan kunlarning birida Abror ishdan qaytib borsa, ko'p qavatli uylar hovlisida quloqni qomatga keltirib ekskavator ishlayapti. Yoshlar voleybol o'ynaydigan maydoncha allaqachon yo'q bo'lgan. Uning o'rnida odam kirs boshi ko'rinmaydigan katta chuqurlik turibdi. Chuqurlikning bir



cheti tandir turgan joyga yetib qolgan, peshanasi tutundan qoraygan tandirning tagidan tuprog'i ketib, og'zi bir to-monga qiyshaygan. Sement hovuzcha tuproq uyumi tagida qolib ko'rinmay ketgan. Brezent korjoma kiygan quruvchilar ko'targich kranni o'rnatadigan joy tayyorlamoqda edilar.

Kran yuradigan relslar bu yil endi gullay boshlagan yosh-yosh o'rik va olma nihollarining o'rniga yotqizilishi kerak ekan. Quruvchilardan biri boltani qo'liga olib, nihollarni qirqib tashlamoqchi bo'layotganda mahalla komissiyasi-ning a'zolaridan biri yugurib keldi:

– Hey, to'xtang! Biz bu nihollarni ko'kartirguncha ona sutimiz og'zimizga kelgan-a!

– Qiziqsizlar! Kelib-kelib qurilish bo'ladigan joyda ko'kartirasizmi?

– Qurilish tamom bo'lgan edi-ku? Bunisi yana qayoqdan chiqdi? Abror aka, siz o'sha joylarda ishlaysiz. «Tinchitdim» degan edingiz. Biz sizga ishonib, bamaylixotir yurgan edik. Endi bu yog'i nima bo'ldi?!

– Meni ham bir odam ishontirgan edi-da, O'rinboy aka!
– dedi Abror.

– O'sha odamingizga tezroq ayting bo'lmasa, bu ishlarni to'xtatsin!

Boshlangan qurilishni to'xtatish ancha-muncha odamning qo'lidan kelmasligini Abror yaxshi bilardi. Chunki har bir qurilishning loyihasi juda ko'p joylarning tasdig'idan o'tib keladi. Biror narsani o'zgartirish uchun loyihani yana qaytadan o'sha joylarning hammasi ko'rib chiqishi kerak. Busiz ham odamlarning ishi boshidan oshib yotibdi.

Shunday bo'lsa ham, Abror chopib uchinchi qavatga chiqdi-yu, kvartiralaridagi telefon orqali Sherzodning ishxonasiga qo'ng'iroq qildi. Hech kim javob bermagandan keyin telefon kitobidan uning uy nomerini qidirib topdi. Sherzod ovqatlanayotgan ekan chamasi, go'shakni oldi-da, og'zidagini chala yutib:



– Iye... Abror A'zamovich... – dedi. Voqeani eshitayotgan-da tishining orasiga kirib qolgan go'shtni tili bilan chiqarib olishga tirishib:

– Obbo, shunaqami?.. – dedi. – Obbo!.. Men qish bo'yi to'xtatib turgan edim-a! Otpuskaga ketsam, muovininim o'tkazib yuboribdi. Kooperativchilarni bilasiz. Qo'llarida naqd pul bo'lgandan keyin...

– Nega shuni avval aytmadingiz? – dedi Abror, asabi qaqshab. – Axir va'dalashgan edik-ku!

– Aytganim bilan foydasi yo'q edi. Loyiha katta joylarning tasdig'idan o'tib bo'lgan ekan.

– Ammo o'sha dargohlar ham bu ishni sizga ishonib topshirgan edi! Ularga hammasini tushuntirishingiz mumkin edi!

– Qo'limdan kelmadi-da, nima qilay? Endi hech narsa qilib bo'lmaydi. Nozik odamlar oraga tushgan ekan.

– Ehtimol, o'sha nozik odamlardan biri o'zingizning pochchangizdir?

– Qaysi pochcham?

– Kooperativ uydan uch xonali kvartira olmoqchi bo'lgan pochchangiz bor ekan-ku.

– Endi gapni unaqa tomonga burmang-da, o'rtoq A'zamov! Pochcham olsa, bunga qonuniy asosi bordir.

– Ha, siz qonunni yaxshi bilasiz. Lekin odamgarchilik, lafz degan narsalarda sizga ishonish – suvga suyanish bilan barobar ekan, men buni endi yaxshiroq bildim!

Abror go'shakni shaq etkazib joyiga qo'ydi va qaytib pastga tushdi.

Hovlida quruvchilar bilan daraxt ekanlarning bahsi birdan janjalga aylanib ketdi. O'rinboy aka boltani quruvchi yigitning qo'lidan yulqib oldi-yu, tuproq uyumining naryog'iga itqitib yubordi.

– Bu qanaqa bezorilik?! – deb quruvchi yigit Abrorga murojaat qildi. – Axir biz kranni loyihada ko'rsatilgan joyga o'rnatishimiz kerak!



O'rinboy akaning uzun mo'ylabi titrar, rangi yerday o'ngib ketgan edi.

- O'rnatmaysan! - deb baqirdi. - Shaharni ko'klamzorlashtiringlar deb ijroqo'm qaror chiqarib qo'yibdi. Men hali bu loyihani chizgan odamni topib giribonidan olaman!

... Oradan oylar o'tdi. Abror O'rinboy akani mashinasiga o'tqazib bir qancha idoralarga borib ko'rdi. Lekin fursat boy berilgan edi...

Mana, hozir o'sha nihollarning o'rnida osmonga bo'y cho'zgan temir kran qo'ng'irog'ini jiringlatib ishlab turibdi. Faqat balkon taglariga, deraza ro'paralariga ekilgan dov-daraxtlar omon qoldi. Undan u yog'i buldozerlar va og'ir yuk mashinalari bemalol yuradigan qurilish maydoniga aylandi-yu, tevarak-atrofi baland yog'och devor bilan o'rab olindi.

Shu orada hayot Abror bilan Sherzodni avvalgidan ham torroq joyda yanada qattiqroq to'qnashtirdi. Zilziladan keyin qurilgan yangi binolar, bog'lar va maydonlarni loyihalashtirgan me'morlardan bir guruhi respublika mukofotiga nomzod qilib ko'rsatildi. Dastlabki nomzodlar ro'yxatida Abror A'zamov ham bor edi. Me'morlarning yaxshi ishlariga bag'ishlangan maqolalarda Abror qatori Habibulla Ergashev degan yosh me'mor ham ko'p tilga olinardi. Mukofotga taqdim etilganlarning dastlabki ro'yxatida shu Habibulla ham bor edi. Anketalar to'ldirish va hujjat tayyorlash davrida ro'yxatga yana bir qancha nomzodlar kirib, odam ko'payib keta boshladi. Ro'yxat boshiga loyiha institutining direktori Sayfulla Rahmonovich kiritildi, chunki ko'pchilik yaxshi loyihalar uning rahbarigida tayyorlangan edi. Yana bir necha kun ichida nomzodlar ro'yxatida Sherzod Bahromov ham paydo bo'ldi, ayrim loyihalar uning rahbarligida tasdiqdan o'tgan edi. Abror nomzodlarga xarakteristika va hujjat tayyorlash ishlariga boshqalar qatori qarashib yurar edi. Bir kun direktorning



kabinetida bo'lgan o'n kishilik kengashda ma'lum bo'ldiki, mukofotga taqdim etilganlar ro'yxati me'yoridan oshib ketibdi. Bir mukofotni yetti-sakkiz kishi bo'lib olishi mumkin ekan-u undan ortig'i nizomga to'g'ri kelmas ekan. «Ro'yxatga kirgan nomzodlardan bir kishini tushirib qoldirish kerak», – dedi Sayfulla Rahmonovich. «Nahotki meni tushirib qoldirishsa?» deb, Abror avval xavotirlandi. Keyin kimdir nomzodlar ro'yxatini alifbo tartibida tuzishni taklif qildi. Abror A'zamov ro'yxat boshiga chiqdi. Undan keyin Sherzod Bahromov, o'rtarog'ida Sayfulla Rahmonov yozildi... Habibulla Ergashev eng oxiriga surilib bordi-da, ro'yxatdan tushib qoldi.

Ergashev o'ttiz to'rtga kirgan bo'lsa ham, boshqalardan yoshroq edi. «Hali yosh, mukofotni kelgusi safar olar», dedi keksaroq me'morlardan biri. Kengashni olib borayotgan Sayfulla Rahmonovich bu fikrni darhol quvvatlab chiqdi: «Boshqa iloj yo'q, bir kishi tushib qolishi kerak. Ergashev kelgusi safarga qoldirilsin, degan taklif tushdi. Boshqa taklif yo'qmi?»

Oraga noxush jimlik cho'kdi. O'tirganlar birlarining yuziga qaray olmas edi. Abror ham yerga qarab jim o'tiribdi. Lekin bir lahzalik bu jimlik uni xuddi manfaatparast vijdotsiz bir odam qilib ko'rsatayotganday tuyuldi. Habibulla Ergashev shu o'tirganlarning orasida eng iste'dodli, eng mehnatkash, mukofotga eng sazovor me'morlardan ekanini Abrorga o'z ko'ngli aytib turibdi. Nahotki uni surib tashlab, Sherzodday uddaburonlar mukofot olib ketaveradi-yu, Abror bunga rozi bo'lib, jim o'tiradi?

Direktor e'tirozga o'rin qoldirmaydigan qat'iy tovush bilan davom etdi:

– Boshqa taklif bo'lmasa, demak...

Ro'yxatdan o'zim tushib qolmayin deb qo'rqib jim o'tirish Abrorga chidab bo'lmas bir ochko'zlikday va insofsiz-



likday tuyuldi. U o'zidagi bu insofsizlikdan nafasi qaytayotganday bo'g'ilib, talpinib qo'l ko'tardi.

– Sayfulla Rahmonovich, menda taklif bor!

– Marhamat!

Hamma boshlar birdan ko'tarildi, ko'zlar sergaklanib Abrorga tikildi.

– Ehtimol, men ham gapirmasligim kerakdir, – dedi Abror. – Lekin boshqa o'rtoqlardan sado chiqmagani uchun majbur bo'lyapman. Habibulla Ergashevga nisbatan adolatsizlik qilsak, vijdonimiz azobda qoladi, o'rtoqlar. Mukofotga taqdim etilgan eng yaxshi loyihalarning og'ir yukini Habibulla Ergashev yelkasida ko'tarib, marraga yetkazib berdi. Buni ko'pchilik biladi. Ergashev hozir o'tpuskada, bugun kengashda uning o'zi yo'q. Lekin o'zi yo'qning ko'zi yo'q qilsak to'g'ri bo'lmas. Ergashevning ajoyib iste'dodi bor. O'zi juda mehnatsevar, kamtar, haqiqiy inson, o'rtoqlar, uni ro'yxatdan tushirib qoldirish mumkin emas.

– Xo'p, bo'lmasa kimni ro'yxatdan tushirib qoldiraylik? – o'smoqchilab so'radi Rahmonov.

– O'ylab ko'rish kerak. Kimki kamroq mehnat qilgan bo'lsa... Kamroq hissa qo'shganlar... Loyiha chizishdan qo'li chiqib qolgan o'rtoqlar ham bor.

Abror Sherzodni nazarda tutgan edi. Lekin bu gap Sayfulla Rahmonovichga tegib ketdi. Chunki u ham chizmakashlik asboblari anchadan beri qo'lga olmay qo'ygan, loyiha chizishning butun og'ir mehnatini Abror va Habibullaga o'xshaganlar qilar edi. Abror o'zining so'nggi so'zlaridan direktorning rangi o'zgarib ketganini sezdi-yu, izoh berishga shoshildi:

– Sayfulla Rahmonovich, siz albatta ro'yxatda qolishga munosibsiz. Chunki shu loyihalarni yuzaga chiqarishga ko'p hissa qo'shgansiz, bizga yaxshi-yaxshi yechimlar, g'oyalar bergansiz. Lekin durust bir yechim ham bermaydigan, umumiy gapdan nariga o'tmaydigan o'rtoqlar ham bor. Men o'shalardan birini aytmqchi edim.



– Kimni? Qani, anig'ini eshitaylik-chi!

– Sherzod Bahromov... O'zi yaxshi tashkilotchi... Men birga o'qiganman, bilaman... loyiha chizishga ilgari ham uncha hafsalasi yo'q edi. Hozir baland lavozimda bu ishga vaqti ham yo'q. Iste'dod jihatdan ham, mehnat jihatidan ham, mana shu loyihalarga qo'shgan hissasi jihatidan ham Bahromovga nisbatan Ergashev mukofotga munosibroq, shuning uchun men nomzodlar ro'yxatiga Bahromov emas, Ergashev kiritilsin, deb taklif qilaman.

Kengashda Sherzod ham yo'q edi – u boshqa loyiha tashkilotiga boshliq edi. Rahmonovning unga ko'p ishi tushib turar edi. Shu ham sabab bo'ldi-yu, Sayfulla Rahmonovich Abrorga kinoya qildi:

– O'rtoq A'zamovning Ergashevga jon kuydirishi yomon emas-u, lekin Sherzod Islomovichga nisbatan aytgan gaplari o'rinli emas. O'rtoq A'zamov, siz Bahromovni uncha suymasligingiz bizga ma'lum. Lekin bunaqa nozik masalada shaxsiy tuyg'uga erk berish kerak emas...

– Gap mening suyish-suymasligimda emas. Mana, o'rtoqlar aytsin, Sherzod Bahromovga nisbatan Ergashev o'n hissa ko'p mehnat qilgan... Iste'dodi ham unikidan baland...

Abrorning bu gaplari o'tirganlarga juda qaltis tuyuldi chamasi, hech kim uni yoqlab chiqmadi. Shunda yana Sayfulla Rahmonov so'z oldi:

– O'rtoq A'zamov, pichoqni o'zingta ur, og'rimasa, boshqaga, degan maqol bor. Ergashevning iste'dodi-yu, qo'shgan hissasini Bahromovning ishiga solishtirishdan oldin o'zingizning ishingizga qiyos qilsangiz to'g'riroq bo'lmaydimi?

– Xo'p, Ergashevning iste'dodi-yu, qilgan ishi menikiga nisbatan ham katta deb aytaymi? Marhamat, men buni aytдим!

– Aytgan bo'lsangiz, bundan qanday xulosa chiqarish kerak?



Direktorning nima demoqchiligini hamma tushundi: mukofotga nomzodi ko'rsatilganlar orasida Abror ham bo'lgani uchun odob saqlab jim o'tirishi yoki Ergashevni avval o'zining o'rniga, bo'lmasa keyin Bahromovning o'rniga ko'rsatishi kerak edi. Abror ham buni endi tushundi-yu:

– O'rtoqlar mendan ko'ra Ergashev bilan Bahromovni munosibroq deb bilsalar, marhamat, men o'z nomzodimni ro'yxatdan olib qo'yishim mumkin.

Direktor protokol yozayotgan yigitga qarab:

– Yaxshi, bu gaplarni yozib qo'ying, – dedi. – Masala uzil-kesil ko'rilganda, hammasi hisobga olinadi.

Abror kengashdan bo'shashib, tarvuzi qo'ltig'idan tushganday bo'lib chiqdi. Uning bemavrid gapirgan gapi tufayli Sherzod yana g'olib chiqishi mumkinligi yuragini g'ash qilar edi. Chindan ham, masalaning qolgan qismi uning ishtirokisiz hal bo'ldi. Ergashev ham, Bahromov ham mukofot olishdi, Abror esa go'yo o'z ixtiyori bilan mukofotsiz qoldi.

Sherzod va uning tarafdorlari haligacha kinoya qilishib, «birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan», degan maqol-ni takrorlab yurishadi. Abror bugun aeroportda Sherzodning ko'kragida cho'g'day yonib turgan laureatlik nishonini yana bir ko'z oldiga keltirdi. Sherzod aeroportda Abrorni ko'rishini bilib, balki ataylab shu nishonni taqib chiqqandir? Abrorning ko'zi kuygani yoki unga alam qilganini ko'rsa, ehtimol, Sherzodning g'oliblik quvonchi va iftixori yana bir daraja oshar?

Tengdoshlar orasida bo'lib turadigan bunday tirashish ular ikkovi talabalik yillarida shaxmat o'ynagan paytlarida ko'zga yaqqol tashlanar edi. Abror goho ko'rmay qolib filnimi, farzinnimi bekordan-bekorga berib qo'yar, shunda unga alam qilgan sari Sherzodning quvonchi oshar, raqibini qanchalik kuydirsa, ezsa, o'zini shunchalik quvnoq va erkin sezar edi. Bu-ku shunchaki o'yin edi. Mana endi hayotdagi olishuvlarda Sherzod ustalik qilib yutib ketgan paytlar Abrorning diliga qadalgan tikanlarday zirqirab og'riq be-



rardi. Bu tikanlarni olib tashlashning hech iloji yo'q. Aksiga olib, mana bu hovlidagi qurilish ham har kuni Sherzodni uning esiga soladi. Ilgarigi hovli qanchalik toza, qanchalik obod edi! Hozir Abror tuproq uyumlari orasidan mashinasini qiyinlik bilan haydab o'tdi-yu, yog'och devor zehida to'xtatdi. Bolalari podyezd oldida tushayotganda:

– Zafar, samokatingni katta ko'chaga olib chiqma! – deb tayinladi.

– Bo'lmasa qayerda uchaman? – dedi Zafar yog'och devorga noxush ko'z tashlab. – Bu yoqda qurilish bo'lsa...

– Mana shu yo'lka-chi? – deb Abror mashinaning tagini ko'rsatdi. Ilgarigi katta hovliga o'rgangan bolalar yog'och devor bilan derazalar orasidan o'tgan bu tor yo'lkaga sig'ishmas edi. Shunday bo'lsa ham Zafar:

– Xo'p, dada, xayr! – dedi.

Abror soatiga qarab, ishga kechikayotganini sezdi-da, mashinani shosha-pisha qo'zg'atdi. Bu yo'lka uyni aylanib o'tib, katta yo'lga chiqar edi. Lekin muyulishdan narida yerkavlagich traktor ko'rindi. Mashina o'tadigan yo'lak kavlab tashlangan, aftidan, yangi qurilayotgan uyga vodoprovod tushirilmoqda edi.

Abror mashinani orqasi bilan yurgizib, narigi tomondan chiqib ketmoqchi bo'lib borayotganda yog'och devor ortidan vag'illab bir samosval chiqdi. Ustiga tepa qilib tuproq ortilgan, g'ildiraklarining orasidan loy o'tilyapti. Bir parcha loy Abror o'tirgan mashinaning old tomoniga kelib urildi-yu, yopishib qoldi. Abror to'xtadi. Samosval atrofiga tuproq sochib, chang-to'zon ko'tarib uzoqlashib ketdi.

Abror mashinadan tushib, old oynaga yopishgan loyni olib tashlar ekan, ichida, «Bahromovning shaltog'i!» deb so'kindi. So'ng o'sha Bahromov bilan birga samolyotga qarab chopib ketayotgan Vazira ko'z oldida gavdalandi.

Vazira hamma voqeadan xabardor bo'la turib, nega yana shu odamni o'ziga bunchalik yaqin oladi?! Abror shuni o'ylagan sari ko'ngli xufton bo'lar va tajangligi ortib borardi.



IKKINCHI BOB

Vazira tushgan samolyot qavat-qavat bulutlarning ustida – quyosh nur sochib turgan tiniq osmonda uchib bormoqda edi. Bir vaqt kreslolarining orqasidagi stolchalar pastga tushirildi va yengil ko'k patnisda nonushta berildi. Sherzod tirsagini yonida o'tirgan Vaziraga tegizmaslikka tirishib, plastmassa stakanchadagi choyga qo'l cho'zdi. Uning to'rtinchi barmog'ida ko'zsiz silliq oltin uzuk bor edi.

Vazira dimlab pishirilgan gurunch bilan tovuq go'shtidan tatib ko'rdi-da:

– Binoyiday, – dedi. – Samolyotning ovqati bir xil restoranlarning ovqatidan mazaliroq. Yo menga shundaymi?..

– Yo'q, menga ham yoqadi, – dedi Sherzod choydan bir ho'plab.

– Choyi bemazaroq, – dedi Vazira adolat yuzasidan.

– Taxminan... shunday, – dedi Sherzod kulib.

Vazira talabalik paytlarida ko'pchilik bo'lib Chimyonga borganlarini esladi.

– Sherzod, Chimyonda pishirgan kaklik sho'rvamiz esingizdami?

– Qaysi? – deb Sherzod o'girilib qaradi va o'zidan bir qarichgina narida Vaziraning sho'x yiltillagan ko'zlarini ko'rdi.

– Ho', O'n ikki buloqning bo'yida-chi?

Sherzod beixtiyor Abrorni esladi. O'shanda hamma maqtab ichgan sho'rvaning kakliklarini Abror baland qoyatoshlar orasidan otib tushgan edi. Hozir Sherzod Abrorni tilga olgisi kelmadi. Gapni burib:

– O'sha paytlarda kaklik ko'p edi-ya, – dedi. – Hozir Chimyonlardan kaklik topib bo'lmaydi.

– Bulturmidi, Abror Chotqolga borib, yana kaklik otib keldi.

Vazira erini hozir ataylab tilga olganini Sherzod sezdi va ko'zini uning ko'zidan olib, qizil surtilgan lablariga qa-



radi. Vaziraning qo'lidagi tovuq go'shtini suyagiga ham qizil bo'yoq tekkan edi.

– Bilamiz, xo'jayiningiz ovi yurishgan baxtiyorlardan, – dedi Sherzod kulimsirab.

U Vaziraning bir vaqtlar Sherzodga tegmay Abror bilan bo'lib ketganiga ishora qilmoqda edi. «Endi bu uzoq o'tmishga aylandi, yaralar bitib ketdi», deganday beozor jilmaymoqda edi.

Vazira eri bilan Sherzodning orasidagi boshqa xafchiliklarning ham mana shunaqa kulib eslanadigan o'tmishga aylanishini istardi.

Samolyot qanotini mayin egib, garbga burilayotganda illyuminatordan tushgan quyosh nurlari Sherzodning ko'krigidagi oltinrang nishonni yarqiratib o'tdi. Abror agar o'shanda Bahromovga qarshi gapirmaganda hozir ahvol boshqacha bo'lishi mumkinligi Vaziraning ko'nglidan kechdi. U qo'lini qog'oz salfetskaga artar ekan, Sherzodning boyagi so'z ohangiga mos qilib dedi:

– Erimizning kaklik ovi yurishgan bo'lsa, sizning laureatlik ishingiz yurishdi.

– U kishi meni shu mukofotdan ham mahrum qilmoqchi edi.

– Lekin Abror o'ziga o'zi qildi. Rost, men chin ko'ngildan aytyapman! Shunday nozik paytda qaltis yo'l tutgani uchun mukofotdan mahrum bo'ldi. Men necha marta: «Bunday qilmang», dedim. Gapga kirmadi. Mana oqibati.

Vazira gapining samimiyligini isbot qilish uchun sekin qo'lini cho'zib, Sherzodning ko'krigidagi nishonni silab qo'ydi. Sherzodga bu shunday yoqimli tuyuldi, nazarida, nishonga nafis tegingan qo'lning taftini o'z badanida his qilganday bo'ldi.

– Rahmat, Vazira! Siz chinakam mustaqil, tanti odamsiz. Abror sizdek bo'lguncha, e-ha, ko'p qovun pishig'i o'tadi!..

Sherzod uni ataylab eridan baland qo'yayotganday va ikkovini bir-biridan uzoqlashtirishga intilayotganday tuyuldi.



Samolyot motorlarining guvillashi ham u bilan Abror orasi-dagi masofaning daqiqa sayin uzoqlashib borayotganini eslatardi. Sherzodning maqtovi dilining bir chetiga yoqib tushsa ham, ammo ko'nglining boshqa chetida Abrorning ovozi eshitilib ketganday bo'ldi.

– Lekin men Abrorday bo'lguncha ham ko'p gap bor hali, Sherzod.

– Kamtarlikmi bu? Tushunmadim. Qaysi ma'noda?

– Insof, jonkuyarlik ma'nosida. O'shanda Abror mukofot olmasa ham Habibulla Ergashev oldi-ku.

– He, endi, gazetalarda yoziladigan gap-da. Abror o'zini ayamay, fidokorlik namunasini ko'rsatishga harakat qilibdi.

Sherzod Abrorga nisbatan o'zini baland qo'yib shunday kinoyaomuz gapirdiki, Vazira uni sal pastroq tushirgisi keldi:

– Abrordagi fidokorlikdan ozginasi siz bilan bizda ham bo'lsa kosHKiydi.

– Ozgina bor bizda ham, Vaziraxon. Hecham yo'q deb o'ylamang.

– Sizda fidokorlik bo'lganda, bizning hovliga o'sha kooperativ uy bunchalik xunuk bo'lib tushmas edi.

Sherzod o'sha uy tufayli Abrordan telefon orqali eshitgan achchiq gaplarni esladi-yu, yuzi tundlashdi. Yog'li lab-larini qog'oz salfetka bilan artar ekan:

– Qandoq qilaylik? – dedi. – yerni tejab qurilish qilish to'g'risida topshiriq ustiga topshiriq kelib turibdi.

– «Tejaymiz» deb, bizning hovlida bolalar o'ynaydigan maydonchani ham qurilishga beribsizlar-da. Ana shunisi qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish bo'libdi.

– Men bermoqchi emas edim. Lekin kooperativchilar-ning ishbilarmonlari ko'p ekan. «Binolarni tig'izlashtirib qurish kerak» degan ko'rsatmani dastak qilib olishib, o'sha loyihani axiyr o'tkazishibdi. Har bir loyihaga qancha odam imzo qo'yishini bilasiz. Shunday zo'rlar borki, ularning ol-



dida biz – filning qarshisidagi piyodalarga o'xshab qolamiz. Abror shuni tushunmay hammasini mendan ko'rib yuribdi.

Vazira Sherzodga, «bilaman, agar astoydil harakat qilsangiz, siz bu hodisaning oldini olishingiz mumkin edi», demoqchi bo'lib qaradi.

– Abror sizni qattiq turadi deb ishongan edi-da, – dedi.

– Aytishga oson! – deb Sherzod asabiy yelka uchirdi va kinoyali kulimsiradi.

U qattiq turish uchun qancha odamlar bilan munozara qilishi, allakimlar bilan olishishi, kimlargadir yomon ko'rinishi kerak edi. «Abror menga nima yaxshilik qilibdi-ki, men uning ishonchini oqlash uchun o'zimni bunchalik o'tga-suvga urishim kerak?» Sherzod ochiq aytmagan bu gapni Vazira uning gap ohangidan payqadi. «Chindan ham, buning Abrordan qarzdor joyi yo'q», deb o'ylandi Vazira o'zicha va chuqur tin oldi.

Styuardessa qiz ovqatlanib bo'lganlarning patnislarini yig'ishtirib olib ketmoqda edi. Sherzod chala qolgan tovuq go'shtini patnisi bilan birga styuardessa qizga berib yubordi. Keyin u nonushta qilib bo'lgan Vaziraning patnisini ham odob bilan olib, styuardessaga uzatdi. Yig'ma stolchani ko'tarib, oldingi kresloning orqasiga mahkamladi. So'ng:

– Ishonasizmi, Vazira, – dedi, – shu uy-joy loyihalarining mayda-chuyda xafachiligidan juda to'yib ketdim. Axiyri bo'lmadi. Hozir boshqa ishga o'tdim.


– Shahar irrigatsiyasigami?

– Eshitganmidingiz?

– Ha, martabangiz yana bir daraja oshibdi. Tabriklaymiz!

– Rahmat, Vazira. Lekin gap martabada emas. Bu zilzila Toshkentning ilgarigi sug'orish tizimini ishdan chiqarib ketganini bilasiz.

Vazira tizzasi ustida turgan sumkachasidan kichkina oyna oldi. Illyuminator tomonga o'girilib, o'zini oynaga solib qarar ekan, kulimsirab gapirdi:



– Bilmagan odam, «zilziladan yerlar yorilib, ariqlarni yutib ketibdimi?» deb o‘ylashi mo‘mkin.

– Aslida, ahvol undan ham battar, – dedi Sherzod. – Qaq-roq cho‘lni o‘zlashtirish katta shaharni qayta qurishdan bir necha barobar oson bo‘lsa kerak. Chunki cho‘l hali hech narsa yozilmagan oq qog‘ozday bo‘ladi. Shaharda esa qayta qurish uchun avval buzish kerak. Faqat yerning ustida emas, yerning ostida ham bir dunyo narsa bor: issiq suv, sovuq suv, gaz, kanalizatsiya, necha xil kabellar. Hammasini yangidan o‘tkazish uchun kavlanmagan joy qolmaydi. Eski ariqlarga suv ochsangiz, ana shu kavlangan joylarga kiradi-ketadi. Yerosti kommunikatsiyalari buziladi. Ba’zi yangi uylarning tagiga suv kiraverib, poydevorlarini cho‘ktirib qo‘yadi. Avariya, janjal...

– Ekilgan nihollarga bo‘lsa suv yetib bormaydi, – dedi Vazira.

– Chunki ariq bekitilmasa, butun suv podvallarga ketib qoladi...

Vazira oynachasini sumkasiga qaytarib soldi-da, uni qirs etkazib yopdi. So‘ng samolyot shovqinida ovozini sal ko‘taribroq gapirayotgan Sherzodga tomon o‘girildi.

Vaziraning ko‘zlari tim qora, kipriklari xuddi qizlik paytidagidek tig‘iz, qoshlari mayin. Bu hammasi Sherzodga al-lanechuk zavq berganday bo‘ldi. Uning Vaziraga ko‘nglini ochib gapirgisi va uni o‘ziga iloji boricha rom qilgisi keldi.

– Men ilgari bilmas ekanman, Vazira, Toshkentning suv xo‘jaligi juda katta ekan. Bu yoqda Qorasuv, Salor. U yoqda Kaykovus, Bo‘rijar, Ko‘kcha arig‘i, Janggoh arig‘i, Chorsu arig‘i, Botirma, Qayirma, Yalang‘och degan ariqlar bor ekan. Tol ariq, Ro‘mol ariq, Gurunch ariq.

– Chindan ham shunaqa ariqlar bor ekanmi? – kulib so‘radi Vazira.

– E, undan ham g‘alatiroqlari bor!

– Men Qiyot, Yalang‘och degan ariqlarni bilar edim.



– Bunaqa ariqlar Toshkentda saksondan ortiq. Shuning ko'pchiligini betonlashtirib chiqmasak, yangi qurilgan mas-sivlarga suv bormaydi. Qorasuv tomonda bitta Pulyemas degan ariq bor ekan. Shuni qayta qurib, betonlab chiqish qanchaga tusharkin deb xomcho't qilib ko'rdik: bir million so'm! Ana sizga bitta Pulyemasning bizdan yeyishi kerak bo'lgan puli!

– Dahshat-ku, – dedi Vazira jiddiy ohangda. – Saksondan ortiq ariqqa buncha pulni shahar kengashi qayerdan topib beradi?

Vaziraning shahar kengashiga qarashli boshqarmalar-dan birida ishlashi Sherzodning esiga tushdi.

– Boshqarmamizning irrigatsiyaga ajratadigan mab-lag'lari urvoq ham bo'lmaydi, – dedi Sherzod. – Shuning uchun biz Suv xo'jaligi ministrligidan yordam so'rayapmiz.

Sherzod oldingi salonda ketayotgan hamrohi tomonga ishora qildi. U odam o'sha ministrlikdan ekanini endi pay-qagan Vazira:

– Demak, Moskvaga shu ish bilan ketayotgan ekan-siz-da? – dedi.

– Ha, kattalarimiz hozir o'sha yerda. Biz kerakli mate-riallarni olib boryapmiz.

– Xullas, Bo'zsuv bilan Salor ham sizlarga aloqadormi?

– Ha, hammasi, – dedi Sherzod.

Vazira Abrorni esladi. Bugun kechasi ham Abror uydagi chizmakashlik stolining ustiga Bo'zsuvning rangli tasvirini yoyib, allanarsalarni chizib o'tirgani ko'z oldiga keldi. So'ng o'zicha bir kulimsirab qo'ydi-da, Sherzodga yuzlanib dedi:

– Unday bo'lsa, Abror bilan ikkovlaringiz hali yana ma-sala talashsalarangiz kerak?

Abror Bo'zsuv va Salor bo'ylarini Toshkentga husn be-radigan oromgohlarga aylantirish harakatida ekanini Sher-zod ham bilar edi. Abror bu to'g'rida arxitektorlar uyush-masining katta yig'inida gapirgan edi ham Sherzod ham



o'sha yig'inda bor edi. U Vaziraning gapini Abrorga qarshi kinoyaga aylantirgisi kelib gapirdi:

– Xo'jayiningiz so'zlagan alangali nutqlar esimda bor... U kishi sal osmonda yuradilar. «Men dissertatsiya yoqlaganman, menga yangi kafedra ochib beringlar», degan talab bilan ministrga borganlaridan ham xabardormiz.

Gap bu yoqqa burilib ketganidan taajjubga tushgan Vazira Sherzod tomonga o'girilib, uning ko'zlariga tikildi. Nahotki Sherzod Abrorni faqat baland mavqe uchun kurashib yurgan manfaatparast deb o'ylasa?

– Kim sizga shunday dedi o'zi?

– Eshitdim-da.

– Sir bo'lmasa aytinch, kimdan? Balki Abror bilan sizni bir-birlaringga ataylab yomon ko'rsatib yurgan odamlar bordir?

Vazira eri bilan Sherzodning chap bo'lib, dushmanlashib yurishini sira-sira istamas edi. Bu chaplik Abrorga doim dilsiyohlik keltirar, Vazirani esa ko'p bezovta qilardi. Mana bu bezovtalikdan qutulish uchun ham Vazira ikki oradagi g'uborni tarqatib yubormoqchi bo'lar, Sherzod bilan ochiqchasiga gaplashsa hamma chigal tugunlar yechiladiganga o'xshar edi.

Buni sezgan Sherzod miyig'ida kulib, bir lahza o'ylanib qoldi...

Abror «Landshaft arxitektorlari tayyorlaydigan kafedra ochish kerak» degan taklifiga institut rektorini ishontirib, uning nomidan ministrga xat yozdirganda Sherzod avval bu ishga aralashmay yurdi. Keyin masala yuqori tashkilotlardan biriga chiqqanda Sherzod tanish bo'lim boshlig'ining huzuriga bordi. Gapni aylantirib, shu mavzuga borgan edi, bo'lim boshlig'i:

– Darvoqe, siz ham bu sohaning eng katta mutaxassislaridansiz, – dedi va stolining tortmasidan uch-to'rt betlik xatni oldi. – Bir o'qib ko'rib fikringizni aytolmaysizmi?



- Qani, - deb, Sherzod xatga shoshilmay ko'z yugurtirar ekan, Abrorning sug'oriladigan o'lkalarda landshaft me'morchiligining an'alariga va istiqboliga bag'ishlangan maqolalarini esladi. Agar bunaqa yangi kafedra ochilsa, Abror uning asoschisi va boshlig'i bo'lishi mumkin, chunki Toshkentda undan boshqa odam hali landshaft arxitekturasini bo'yicha diplom ham, dissertatsiya ham yoqlagan emas. Hozir Toshkentning suv inshootlarini loyihalashtirish bobida Sherzodga ko'p xalaqit berib yurgan Abrorning bu amaliy ishdan kafedraga o'qituvchi bo'lib keta qolgani ma'quldek ko'rindi. Lekin Abror kafedra ochib, o'ziga o'xshagan mahmadona landshaft arxitektorlarini ko'paytirib yuborsa, Sherzodning ariq va kanallarni betonlashtirish bo'yicha qilayotgan ishlarini yomonga chiqaradiganlar ham ko'payib ketishi aniq. Sherzod bundan bezovta bo'layotganini bo'lim boshlig'iga sezdirmaslikka tirishib, osoyishta so'z boshladi.

- Orzuga ayb yo'q. Vaqti kelib Toshkentda ham landshaft arxitekturasini bo'yicha kafedra ochilishi mumkindir. Lekin hozir hamma joyda shtatlarni ixchamlashtirish to'g'risida gap borayotgan paytda... bilmadim...

- Bular juda kerak deb rektorni ishontirishibdi-ku. Dalillariga e'tibor berdingizmi?

- Lekin hali Moskvada ham landshaft arxitekturasini bo'yicha fakultet ochilgani yo'q.

- Bunaqa fakultetlar Bolgariyada, Chexoslovakiyada bor, deb yozishibdi-ku mana bu xatda. Har holda, sotsialistik mamlakatlar...

- Lekin Yaponiya, Amerika, Fransiyaga o'xshagan kapitalistik mamlakatlarda landshaft arxitektorlari undan ham ko'p. Nega desangiz, puldor boylar dengiz bo'yida yoki Viktoriya sharsharasi yaqinida go'zal villalar qurib, tabiat manzaralariga me'morchilik san'atini qo'shib, rosa davron surishdi. Ilgari o'zimizda ham xonlar, podsholar ishratxo-



nalar qurib, kayf-u safo qilgan-ku. Sinfiy nuqtayi nazardan qaraganda bu...

Bo'lim boshlig'i birdan jiddiylashib, xatni Sherzoddan qaytib oldi-da, uni yana bir varaqladi:

– Iye, a, bu yerda boshqacha tushuntirilgan-ku. Mana, Navoiy bilan Ulug'bekdek buyuk odamlar ham bog' me'morchiligi bilan shug'ullangan ekan. Tabiat bilan hamkorlikda go'zal oromgohlar, chorbog'lar yaratish bizda ko'p asrlardan beri yaxshi an'ana bo'lib kelgan ekan. Oddiy mehnatkashlar ham hovlilaridan kichkina ariq o'tkazib, uning bo'ylarida gulmi, rayhonmi, tokmi, mevali daraxtmi – hammasini tartibi bilan o'stirgan. Shuning hammasi landshaft arxitekturasiga kirmaydimi?

– Kirishga kiradi.

– Bu san'at bizda xalq ijodi tarzida qadimdan borligi mana bu xatda asoslab yozilgan emasmi?

Sherzod bo'lim boshlig'ining ishonchini yo'qotib qo'yishdan cho'chib, darhol uning fikrini quvvatlashga tushib ketdi:

– Siz mutlaqo haqsiz. Ilgari landshaft arxitekturasiga bir tomonlama qarashlar bo'lgan. Bir vaqtlar yigitlarning galstuk taqishini ham «burjuyluk» deb qoralashgan emasmi? Hatto, «burjuylar qurgan temir yo'llarni buzib tashlab, o'rniga o'zimizning ishchi-dehqon temir yo'lini quraylik», degan chaqiriqlar ham eshitilgan.

– Ha, ana qarang! Landshaft arxitekturasini ham temiq yo'lga o'xshab, avvalo mehnatkash xalqqa xizmat qilishi kerak-da. Obodonlashtirish san'atidan, go'zal bog'-rog'lardan faqat boylar foydalansin, deb bu san'atni ularga berib qo'yaylikmi?

– Yo'q-yo'q, bizda tabiat go'zalliklariga oro berib yaratilgan bog'lar ham, oromgohlar ham xalqqa xizmat qiladi. Bu san'at hozir bizga kerak. Shuning uchun Moskvada landshaft arxitekturasini bo'yicha fakultet bo'lmasa ham, maxsus kafedra ochildi. Abror A'zamov ham o'sha kafedrada dissertatsiya yoqlab kelgan.



– Siz uni yaxshi bilasizmi?
– Institutda besh yil birga o'qiganmiz. Hozir ham soharimiz bir.

– Qalay, o'sadigan odammi?
– Endi... Hamkursim bo'lgani uchun men uni... himoya qilishga tirishaman...

Sherzod hamkursini himoya qilgan kishi bo'lib, keyin uning nuqsonini aytsa ishonarli chiqishini o'ylab shunday dedi. Ammo bo'lim boshlig'i uning o'rtoqchilikka borishiga yo'l qo'ygisi kelmay sergaklanib so'radi:

– Nima... A'zamov shunaqa himoyaga muhtoj odammi?
– Ha, endi... tabiati yengilroq... ishkal ishlarga ko'p aralashadi... kuchi yetmaydigan narsalarni qo'zg'aydi.

– Qanaqa ishkal ishlar?
– Me'morchilikda milliy an'analar deydimi-ey... An'analarning ketidan quvib, mahdudlik tomoniga sirg'alib ketadigan paytlari bo'ladi.

– Shunda ham siz uni himoya qilasizmi?
– Yo'q, nega? Tanqid qilaman! G'oyaviy masalalarda keli-shuvchilik ketmaydi.

– Mana bu fikringiz to'g'ri. Demak, bizda hali shu A'zamovdan boshqa landshaft arxitektori yo'q?

– Ha, hozircha shu bitta...
– Bu ham hali xomroq odam bo'lsa... demak, kafedra ochishga tayyor emas ekanmiz-da?

– Afsuski, shunday, – Sherzod jo'rttaga og'ir tin olib qo'ydi. Shunda bo'lim boshlig'i:

– Bir iltimos bor, – dedi. – Hozir aytgan fikrlaringizni menga qisqacha qilib yozib bersangiz...

Sherzod xavotirga tushib, taraddudlanib qoldi. Uning bu yozuvi Abrorga o'xshagan odamlarning qo'liga tushsa, nima bo'ladi?

– Siz tashvishlanmang, yozuvingizni yopiq saqlaymiz.
– Oramizda qoladimi, axir?



– Ha, faqat xizmat bo'yicha men o'zim foydalanaman.

Sherzod shundan keyin og'zaki aytgan fikrini yaxshilab yozib berdi. «Ana endi A'zamov oldi to'silgan suvday to'gongabosh urib orqaga qaytaveradi», degan o'y hozir ham uning xayolidan o'tdi. Bu o'y unga Abror bilan shaxmat o'ynaganda uning farzinini bir burchakka qamab, yurolmaydigan qilib qo'ygandagi kabi yoqimli tuyulardi. Sherzod Abrorni shaxmatda yutgandagi kabi hayotda ham yutsa g'oliblik zavqini surib, dili yayraydi. Hozir samolyotda u bilan yonma-yon o'tirib suhbatlashayotgan Vazira bunaqa murakkab zavqdan mutlaqo bexabar. Shunday bo'lgani Sherzod uchun ma'qulroq. U ayollardagi soddalikni va ishonuvchanlikni yaxshi ko'radi. Vazira ikki oradagi g'uborni tarqatmoqchi bo'lib, o'zini Sherzodga yaqin olyaptimi, qo'yib berish kerak. Yanada yaqinroq kelsin, sirdosh bo'lsin.

– Men bu gaplarni... fakultetda eshitdim, Vazira... Nomlarini aytolmayman... Tushunasiz, chaqimchi bo'lgim kelmaydi...

– Lekin «Abror o'zi uchun kafedra ochtirmoqchi» deb, gapni chappa qilib yetkazish insofsizlik emasmi?

So'nggi so'zlar Sherzodga tikanday qadaldi. Lekin u o'zini darhol bu tikandan olib qochdi:

– Gap boshqa yoqda, Vazira. Eringiz o'zini olovga uradigan parvonaga o'xshab, ishkal masalalarga ko'p qo'l uradi. «Me'morchilikdagi o'ziga xoslik», «milliy an'analar» degan gaplar odamni mahdudlikka olib ketib qoladi...

– ... Lekin bunaqa mahdudlik Abrorda hecham yo'q, – deb Vazira uning so'zini kesdi. Sherzod unga quloq solmay avvalgi fikrini davom ettirdi:

– Holbuki, biz – ko'pmillatli mamlakatmiz. O'zbekistonda yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Biz uchun internatsionalizm birinchi o'rinda turadi.

– Juda to'g'ri. Abrorning e'tiqodi ham xuddi shunday.

– Biroq, o'zaro gap-ku, Vazira, eringiz milliy an'analarga ham ko'p e'tibor beradi-da.



– Chunki dengizlar alohida daryolarning qo‘shilishidan paydo bo‘ladi. Moskva arxitekturasida buyuk rus xalqining milliy ruhi, Kavkazda arman, gruzin, ozarbayjon xalqlari yaratgan me‘morchilik an‘analari, bizda O‘rta Osiyo xalqlarining me‘morchilikdagi o‘ziga xos tajribasi – bular bir-birini inkor etmaydi-ku! Aksincha, bir-biriga qo‘shilib, bir-birini boyitib, butunittifoq yoki umumjahon ahamiyatiga ega bo‘ladi.

– E, bu hammasi ma‘lum gaplar!

– Bo‘lmasa siz nega unday dedingiz? Yo Abrorning kitobini o‘qimaganmisiz?

– Ha, o‘qiganmiz, bilamiz.

– O‘qigan bo‘lsangiz bir eslang. Abror shu kitobni yozaman deb butun mamlakatni kezib chiqdi-ya. Bu yog‘i Qozog‘iston, O‘zbekiston, bu yog‘i Ukraina, Stavropol o‘lkasi, bu yog‘i Tojikiston, Qirg‘iziston, u yog‘i Kavkaz, Qrim – qayerdagi sug‘oriladigan yerlar bo‘lsa, Abror shularning hammasida landshaft arxitekturasini rivojlantirishga intilib, o‘sha kitobni yozdi. Keyin shu asosda dissertatsiya yoqladi. Buning nimasi mahdudlik? Aksincha, Moskva olimlari Abrorning kitobini «Butunittifoq ahamiyatiga ega», deb matbuotda maqtab chiqishdi-ku.

– Ha, endi eringizning kitobi durust. Lekin mana bu Toshkentdagi arig‘-u kanallarni qayta quraylik desak, mudom torlik qiladi. Axir hozir biz ilmiy-texnika davrida yashayapmiz. Ilgarigi juda ko‘p an‘analar endi ish bermay qo‘ydi. Hamma yoq mashina-mexanizm. Urbanizatsiyaning surati zo‘r. Uning og‘irligini endi faqat temir-beton konstruksiyalarigina ko‘tarishi mumkin. Shuning uchun hamma arig‘-u kanallarni betonlashtirmasak bo‘lmaydi.

– Lekin odamning o‘zi temirdan emas-da, Sherzod. Qayerda dam olamiz? Bizning issiq iqlimimizda soya-salqin suv bo‘ylari inson uchun juda kerak.

– Vazira, siz nuqul eringizning gapini ma‘qullayapsiz.



– Erim haq bo'lsa-chi?

– Agar Abror shu gaplarni bundan ellik yil oldin aytganda men ham qo'shilar edim. Chunki u paytda vodoprovod juda kam edi. Odamlar ariqdan suv ichar edi. Ariq-hovuzlarni toza tutish – ovqat yeydigan idishni toza tutishday zarur edi. Ariq-hovuzlarni har yili tozalab turishardi. Ularni bulg'ash yeydigan ovqatni bulg'ashday yomon bir uvol, gunoh hisoblanardi.

– Bu yaxshi an'ana emasmid?

– Bu yaxshi odat edi, lekin hozir uning zarurati qolmadi. Hamma joyda vodoprovod bor. Odamlar endi ariqdan suv ichmaydi. Ularni tozalab, tuzatib yurishga vaqt, hafsala yo'q, odam yetishmaydi.

– Unday bo'lsa, ariqlardan voz kechish kerakmi? Sug'orish nima bo'ladi? Hamma yoq qurib ketmaydimi?

– Sug'orish uchun beton lotoklar juda qulay. Suv yerga singib ketmaydi. Mashina o'tsa ariqning qirg'og'i o'pirilib buzilib tushmaydi. Lotoklarni tozalash ham oson.

– Men bu beton lotoklarni Mirzacho'lda ko'rdim. U yoqlarda bu narsa chindan ham juda kerak. Suv urib ketmaydi, dehqonning mehnatini osonlashtiradi. Shuning uchun dehqonlar beton lotoklarni qidirib yurishadi. U yoqlarda bu narsa talash. Lekin Toshkentning yangi qurilgan uylari oldiga shuncha keraksiz beton lotoklar o'rnatib ketishadiki, odam achinadi. Axir beton – qimmat narsa-ku. Metro qurilishiga beton yetishmaydi. Bu yerda bekorga chang bosib yotipti. Chunki hali ko'pchilik mahalla ariqlari tuzatilgan emas, hovlilardagi beton lotoklarga suv kelmaydi. Changga, qog'ozga, xazonga to'lib yotadi. Yozda isib, pechkaga aylanib ketadi... Biz hovlimizdagi bir dunyo beton lotokni ko'chirib olib, boshqa kerakli joylarga berdik.

– O'rnini nima qildilaring?

– Chim bosib, yaxshi ariqlar qildik. Mashina yurmaydigan joyda tirik qirg'oqlarni saqlab qolgan ma'qul-da. Hovlidan shunaqa ariq o'tsa, havoni tozalab, salqin qilib turadi.



Abror bunaqa tirik ariqlarni odamning tabiatga otgan ildizlari deb ataydi.

– Esimda bor, eringiz ariqlarni xuddi Leonid Leonov ulug‘lagan rus o‘rmonlariga o‘xshatib maqtaydi, – deb kuldi Sherzod.

Vazira ham bu kulgiga qo‘shilar ekan:

– Ariqlarni o‘rmonlarga qiyos qilish kulgili eshitalishi mumkin, – dedi. – Lekin bitta nuqtada o‘xshashlik ham bor. Leonovning romanida loqayd odamlar o‘rmondagi ming-minglab daraxtlarni o‘rinsiz qirqib, bu ishini texnika taraqqiyoti bilan oqlamoqchi bo‘ladilar. Bizda ham ariqlarning qancha-qancha tirik qirg‘oqlarini o‘rinsiz buzib, buni ham texnika taraqqiyoti bilan oqlamoqchi bo‘layotgan odamlar bor.

– Ishoning, Vazira, men ham tabiatni yaxshi ko‘raman. Lekin gap Toshkentday katta shahar haqida boryapti. Ikki million aholi, shunga yarasha texnika, asfalt, po‘lat, shisha! Axir me‘mor ham realist bo‘lishi kerak-ku. Bunaqa katta shaharda tabiat manzaralari nima qilsin?

– Ishonsangiz, men ham Abror bilan shu to‘g‘rida bahslashgan paytlarim bo‘ladi. Lekin uning dalillari ko‘p.

– Qani bilaylik-chi, qanaqa dalillar ekan? – deb Sherzod bu dalillarni chilparchin qilgisi kelib so‘radi.

– Abrorning eng katta dalili – suv! Kanallarda, ariqlarda oqayotganidan tashqari shaharning tagida ham suv ko‘p ekan-ku.

– E, bu ikki karra ikki – to‘rt deganday gap!

– Yo‘q, siz naryog‘ini eshiting. Bu suvlar shaharga tirik tabiat bo‘lib tarqalishini o‘ylang. Markaziy maydondagi ulkan sharshara favvorani eslaysiz-a? Biz o‘zimiz uncha qadriga yetmas ekanmiz. Bultur saraton issig‘ida Boltiqbo‘yidan kelgan mehmonlarni olib yurish menga topshirildi. Qandaydir seminar kengash bo‘layotuvdi. Toshkent mehmonxonasida turishdi. Issiq qirqdan oshib ketdi. Salqinlaydigan joy qidirib, o‘sha sharshara-favvoraning oldiga bordik.



Rigada, Vilnyusda o'sgan me'morlar. Ancha-munchaga qoyil bo'lishi qiyin. Lekin sharshara-favvoramizga mahliyo bo'lib qolishdi. O'zi ham tog'dan otilayotgan daryoday guvillaydi. Atrofi salqin. Pastda hovuzi bor, shuning ustidan marmar yo'lka o'tgan. Mehmonlar bu yo'lkadan o'tayotib, sharshara favvoraga «Niagara» deb ot qo'yishdi. Keyin majlislardan bo'shagan paytlarida: «Yuringlar, Niagaraning soyasiga boramiz!» deydigan bo'lishdi.

- Soyasi? Suvning ham soyasi bo'ladimi?

- Qizig'i shunda-da, Sherzod. Agar tushdan keyin sharsharaning pastidagi marmar yo'lkadan o'tsangiz, olti metr balandlikdan otilayotgan ulkan shalolaning soyasi ustingizga tushadi. Nurday lip-lip qilib turadigan suvning soyasida kamalaklar ko'rinib ketadi. Suv zarralari odam bilan o'ynashib, kulmayin desangiz ham kuldiradi. Har qanday qovog'i soliq odam ham yozning issig'ida kamalaklari tovlanib turgan sharshara tagidan, suv zarralari orasidan bir yurib o'tsa, o'zidan-o'zi jilmayishga tushadi. Keksalar yosharib ketganday bo'ladi. Mana shu Niagara – favvoramiz tabiatning Toshkent markazidagi go'zal bir manzarasi emasmi?

- Bu favvora texnika taraqqiyotining nimalarga qodirligini isbot etadi, Vazira. Chunki uni yangi texnika bilan qurollangan inson qurgan, mana, biz qurganmiz!

- Siz favvorani emas, uning tagidagi konditsionerlarni loyihalashtirgansiz shekilli, Sherzod?

Ular ikkovi bir lahza jim qolib, bu favvoraning qurilish tarixini eslab ketishdi.

Zilzila yili edi, ishlar shoshilinch. Bir guruh injenerlar va me'morlar Sherzod Bahromov boshchiligida Toshkentning markaziy maydonidagi olti qavatli ma'muriy binoning oldiga havoni tozalab beradigan ulkan konditsionerlarni joylashtirish bo'yicha loyiha chizmoqda edilar. Ularning orasida Abror ham bor edi. Ma'muriy bino juda katta, un-



dagi barcha xonalarni saraton jazirasida ham yigirma darajadan oshirmay salqin tutish uchun g'oyat zo'r konditsionerlar o'rnatilishi kerak edi. Konditsionerlar esa faqat suv yordamidagina havoni tozalab, salqini va namligini me'yoriga yetkazib bera olardi. Demak, katta konditsionerlarga o'shanchalik katta oqar suv kerak. Avval bunday suvni Bo'zsuvdan olishmoqchi bo'lishdi. Keyin zilziladan buzilgan eski binoning tagidan juda katta yerosti suvi topildi. Oradagi masofa uncha uzoq emas edi, o'sha yerosti suvini quvur bilan Lenin maydoniga olib keladigan bo'lishdi.

Endigi vazifa – suv kelib quyiladigan havzani va konditsionerlarni yer relyefiga moslashtirib o'rnatish va me'morchilik san'atining talabiga javob beradigan qilib qurish edi. Me'morlarning boshini qotirayotgan narsa – yerning past-u balandligi edi. Ilgarigi Samarqand ko'chasi pastdan o'tadi. Maydon esa balandlikda. Orada tuprog'i to'kilib turgan qiyalik bor. Eng oson yo'li – bu qiyalikka chim bosib, uni ko'klam qilish, archalar va plafoni chiroyli yoritqichlar o'rnatish edi. Sherzod Bahromov xuddi shuni taklif qilmoqda edi. U chizgan ilk rejaga binoan ko'klamzor qiyalikning pastiga – yo'l bo'yiga katta marmar hovuz qurilishi kerak edi. Quvurdan keladigan yerosti suvi faqat konditsionerlarga xizmat qilishi, so'ng marmar hovuz orqali jimgina oqib chiqib ketishi kerak edi.

Bu rejaga Abror qo'shilmadi. Chunki yaxshilib ko'klamzorlashtirilgan, chiroyli plafonlar o'rnatilgan, archalar ekilgan go'zal qiyalik – anhor bo'yidagi narigi olti qavatli ma'muriy binoning oldida bor edi. Takror bor joyda san'at yo'qoladi.

Yer ostidan topilgan zilolday tiniq suv Abrorning ko'z oldidan ketmas edi. Nahotki undan durustroq foydalanib bo'lmasa? Kechasi qo'sh karavotda Vazira bilan yonma-yon yotgan Abror allamahalgacha shuni o'ylab, goh u yoniga, goh bu yoniga ag'darilar edi. Bu bilan Vaziraning ham uyqusini buzdi. «Tag'in nima bo'ldi sizga?» – deb Vazira



uyqu aralash erini jerkib bergani esida. Abror esa o'zicha g'udranib: «Tabiat yaratib qo'yibdi-ku!» – dedi-da, o'rnidan turib ketdi.


Yer tubidan chiqqan suvni tabiat o'zi yaratib qo'ygan balandlikdan pastga sharshara qilib otiltirish fikri Abrorning xayoliga o'sha uyqusiz tunda birinchi marta kelgan edi. Vazira ertalab tursa, Abror chizmakashlik stoli yonida o'tiribdi. Bo'lajak favvoraning xomaki tasviri o'sha kecha ilk bor qog'oz yuziga tushgan edi. Abrorning sharshara-favvora haqidagi taklifiga Sherzod qattiq e'tiroz bildirdi: «Masalani murakkablashtirmaylik, vaqt ziq, qiyalikka chim bosib, ko'kalamlashtiraveraylik», dedi. Lekin iqlimi issiq Toshkentda suvdan va yerning past-u balandligidan san'atkorona foydalanishga intiluvchilar axiyri g'olib chiqdi. Abrorning xomaki fikrini boshqa hamkasblari davom ettirib, to'ldirishdi. Ilk rejaga talay o'zgarishlar kiritildi. Maydon juda ulkan bo'lgani uchun sharshara-favvora ham shunga yarasha ulkan qilib qurildi.

Vazira Sherzodning avval sharshara-favvoraga qarshi turganini, endi esa «biz qurganmiz!» deb ko'krak kerayotganini ochiq aytishdan andisha qildi. Sherzod bu andishani uning ma'nodor sukutidan sezdi-yu, Vaziraga yon berganga o'xshab dedi:

– O'shanda Abror tabiatni texnikaga qarshi qo'ymagani uchun shu yaxshi yechimni topdi. Axir o'ylang: katta konditsionerlar bo'lmasa, bunaqa katta suvga ehtiyoj ham bo'lmas edi. Maydonga bunaqa suv keltirilmasa, o'sha Niagara favvora ham bo'lmas edi. Aytmoqchimanki, hammasi bir-biriga bog'liq.

Vazira endi Sherzodni murosaga keltirganday yengil tortdi:

– Shuni bilsangiz, nega hadeb Abror ikkovingiz olishave-rasizlar? Xuddi ikkita qo'chqorga o'xshab, duch kelgan joyda bir-birlaringizga shoxlaringizni to'g'rilab, suzishasizlar!..



– Endi buning sababini eringizdan so‘rang! – deb Sherzod boshini kresloning suyanchig‘iga qo‘ydi-yu, shiftga tikildi.

U Vazira bilan boshqa mavzuda gaplashishni istardi. Oraga hadeb Abror tushaverib, uning g‘ashiga tegmoqda edi. Bir vaqtlar muhabbatda g‘olib chiqqan Abrorni Vazira ijodda ham undan ustun qo‘ymoqchi bo‘layotgani unga tikkan bo‘lib qadalyapti. Samolyotning noxush shovqini ham unga endi qaytadan eshitila boshladi. O‘tirgan kreslosining tutqichlari shovqinning zo‘ridan titrab borardi.

Salon birdan qorong‘ilashdi, samolyotning titrashi kuchaydi. Ular bulutlar qatlamini yorib o‘tmoqda edilar. Samolyot yana bir silkinganda tepada turgan qora g‘ilofning uchi pastga osilib qoldi. Vazira po‘lat qanotlarga urilib o‘tayotgan pag‘a-pag‘a bulutlarga illyuminator orqali sergaklanib qarab turardi. G‘ilof pastga tushib ketadigan bo‘lganda Sherzod tez qaddini tiklab, uni yuqoriga mahkamlab joyladi. So‘ng Vaziraga yuzlandi:

- Agar sir bo‘lmasa, bu qanaqa loyiha?
- Siz uchun sir emas. Lekin avval o‘zingiz bir narsani ayting.
- Marhamat, nimani?
- Mening shu reys bilan ketayotganimni kimdan eshitdingiz?

- Kecha tushdan keyin boshqarmalaringizga borgan edim. Siz yo‘q ekansiz.

- Yo‘l tayyorligini ko‘rgani ketuvdim-da.
- Menga ham shunday deyishdi.
- Nima ish bilan ketayotganimni aytishmadimi?

Samolyot boyagiday titrab silkinib borayotgan bo‘lsa ham, suhbat Sherzodni qaytadan nafasat olamiga olib kirayotganday tuyuldi. Bu olamda faqat Vazira ikkovlari qolgandek, boshqa hamma narsa uning e‘tiboridan uzoqlasha boshladi.



– Yo‘q, aytishmadi, – deb Sherzod sho‘x jilmaydi: – Lekin o‘zini taxminan sezib turibman. Toshkent metrosining in-jerlari sizlarda-ku.

– Ha, eksteryerlari ham bizga topshirilgan. Lekin bu biz uchun yangi soha. Tajribamiz oz. Moskvaga borib maslahat so‘raymiz. U yerda katta mutaxassislar ko‘p.

Sherzod Vaziraning hozir qaysi murakkab masala bilan ketayotganini aniqroq bilgisi kelardi. Lekin samolyotda ko‘pchilikning orasida o‘tirganlari uchunmi, Vazira umumiy gapdan nariga o‘tmadi.

– Hali kelajakda metrochilarning bizga ham ishlari tushsa kerak, – dedi Sherzod.

– Qaysi ma‘noda?

– Metroning tunnelini Bo‘zsuvning ostidan qanday o‘tkazish muammosi bor-ku.

– Ha, bizni o‘ylantirib yurgan murakkab ishlardan biri shu.

– Bo‘zsuv bizga qaraydi. Hamkorlik qilamiz desalaringiz, doim tayyormiz, Vaziraxon.

– Juda soz!

– Moskva metrosini loyihalashga qatnashgan bir tanishim ham bor. Pavel Danilovich Katinov degan. Balki bilarsiz?

– Qaysi Katinov? Metroning tunnelini Moskva-rekaning tagidan o‘tkazishda tanilgan odammi?

– Xuddi o‘zi! Menga bu to‘g‘rida gapirib ham beruvdi. Biz u bilan Parijga birga safar qilgan edik-da. Bir xonada yotib, erta-yu kech birga yurib, qadrdon bo‘lib qolganmiz. Telefonlarini bergan. Agar sizga shunaqa mutaxassisning maslahati kerak bo‘lsa, marhamat...

– Bo‘pti, kerak bo‘lsa, aytaman. Parijga yaqinda borgan-midilaringiz?

– Bultur yozda.

Vazira zavqli tovush bilan:

– Parij deganlaricha bor-a? – dedi.

Uning ham Parijda bo‘lganini gap ohangidan sezgan Sherzod:



– Siz qachon borgansiz? – deb so‘radi.

– To‘rt yil bo‘ldi. Paroxodda Yevropani aylangan edik.

– Yelisey dalalari esingizdami? Sena bo‘ylari...

– Ha, Sena bilan Luvr daryolarining ustiga qurilgan ko‘priklarni qarang! – dedi Vazira. – Qasrlar, bulvarlar...

U xayoliga yopirilib kelgan Parij xotiralaridan ko‘zlari yonib, Sherzodga juda chiroyli ko‘rindi. Sherzod suhbatning taftini yana bir daraja yuqoriga ko‘targisi kelib:

– Yaponiya undan ham g‘alatiroq, borganingiz yo‘qmi? – dedi.

– Yo‘q. Nimaydi?

– Toshkent markazini yetmishinchi yilda Yaponiyadagi jahon ko‘rgazmasida juda yaxshi ko‘rsatishgan edi-da.

– Ha, o‘zim borolmaganman-u, lekin maketi uchun materiallar tayyorlaganman. Sankt-Peterburglik maketchilar plastirol degan chiroyli narsadan ishlashgan edi. Men o‘sha yili Sankt-Peterburgga ham mana bugungiday xizmat safarlariga borgan edim.

– Lekin mehnatlaringiz bekor ketmagan ekan. Yaponiya-da Toshkentning maketi sovet pavilonining katta bir zalini egallapti. Xaloyiq keti uzilmay kirib turibdi. «Toshkent» mehmonxonasi, Navoiy teatri, Markaziy maydon, yigirma qavatli bino – hammasi xuddi kaftda turgandek aniq ko‘rinadi. Hammasi juda ustalik bilan ichidan, tagidan, yonidan yoritilgan. O‘zbekistonni eslatadigan chiroyli bir musiqa eshitiladi. Vataningizni uzoq joyda shunaqa e‘zozlashganini ko‘rsangiz ko‘nglingiz ko‘tarilib, g‘alati bo‘lib ketar ekansiz, Vazira. Etlarim jimirlab, ko‘zlarimga yosh keldi-da, ishonasizmi?

– Ishonaman, – dedi Vazira, – Toshkent markazining jahon ko‘rgazmasida ko‘rsatilishini eshitib, men ham shunaqa quvonganman.

– Zilzila nimaligini boshqalar bilmasa ham, yaponlar bilishadi. Osakodagi Toshkent maketi shuni hisobga olib ishlangan ekan-da.



– Men zilziladan buzilgan uylarning fotolarini Moskvaga eltib bergan edim.

– Hammasi Osakoda turibdi. Yorilib ketgan devorlarning suratlari bir-ikki daqiqa davomida ko‘rinib turadi-da, keyin maket sekin ag‘dariladi-yu, yangi Toshkent paydo bo‘ladi. O‘sha kichik ko‘chalar-u pachoq uychalarning o‘rnida hozirgi «O‘zbekiston» mehmonxonasi, kelajakda quriladigan Navoiy kutubxonasi, yangi parklar, xiyobonlar ko‘rinadi.

– Zilzila bo‘lmasa ham Toshkent o‘zi baribir qayta qurilishi kerak edi-da, – dedi Vazira.

Sherzod uning ko‘nglidagi gapni topishga intilib, dedi:

– Zilzila oqibatlariga qarshi kurash shu ishni tezlashtirib yubordi-da. To‘g‘rimi?

Vazira kulimsirab:

– Tushundim, – dedi. U Sherzodning minbarda nutq so‘zlayotganga o‘xshab gapirganiga ishora qilmoqda edi. «Buni hammamiz bilamiz, sen o‘z aqling bilan o‘ylab topgan yangi daliling bo‘lsa ayt», deyayotganga o‘xshardi. Sherzod Vaziraning aytilmagan bu so‘zlarini kulimsirashidan payqadi-da, davom etdi:

– Toshkent markazi yigirmanchi asr talablariga javob beradigan qilib qurilyapti.

Sherzodning nazarida, Vazira Toshkent bahonasi bilan uning saviyasini va mustaqil fikrlash darajasini sinab ko‘rayotganga o‘xshardi. Sherzod bu sinovdan yaxshi o‘tishga astoydil harakat qilayotganini Vazira endi sezdi-yu, kuldi:

– Tushundim, boshqa savollar yo‘q, – dedi.

Gapning hazilga burilganidan Sherzod ham yengil tortib kuldi:

– Balki qo‘shimcha savol berarsiz?

– Demak, «besh» olgingiz bor. Mayli, bitta qo‘shimcha savol. Yaponiyada ayollar juda go‘zal bo‘larmish. Borganlar hammasi maqtab kelishadi. Sizningcha qanday?



– Go‘zallikka go‘zal. Dunyoga juda dong‘ilari ketgani bejiz emas. Lekin shaxsan men uchun bizning Toshkent qizlari ulardan ham go‘zalroq!

Vazira bu maqtoovning o‘ziga qaratilganini sezdi-da, yuziga shafaq qizili tushganday bo‘ldi. Shu topda u birdan o‘n yetti yosh yasharganday va Sherzod oshiq bo‘lib yurgandagi ko‘hlik qizga aylanganday ko‘rindi. So‘zlarni ham xuddi talabalik paytidagiday sho‘x talaffuz qilib:

– Bo‘pti, bahoingiz «besh», – dedi.

Shu bilan hazil-mutoyibaga yo‘l ochildi-yu, vaqt yanada xushchaqchaq o‘ta boshladi.

Samolyot o‘ng qanotini baland ko‘tarib chapga burildi. Ilyuminatordan tushgan oftob nuri Vaziraning yuzini, baland ko‘kraklarini silab o‘tdi.

– Iye, bu yoqlarda havo ochiq ekanmi? – deb Vazira pastga qaradi.

– Ha, ana, o‘rmonlar qorayib ko‘rinyapti!

Bu ham Sherzodning kayfiyatini yanada chog‘ qildi.

Bir payt salonning eshigi ustida ruscha va inglizcha yozilgan «Chekilmasin, kamarlar bog‘lansin!» degan nurli yozuv paydo bo‘ldi. Sherzod soatiga qaradi-da, mamnun bo‘lib:


– Darrov yetib kelibmiz-a! – dedi.

Odatda, u Moskvagacha bo‘lgan masofani – to‘rt-besh soatlik yo‘lni juda zerikib o‘tkazardi. Bugun Vaziraning yonida vaqt qanday o‘tganini sezmay qolibdi. «Dilkash ayol-da!» – dedi u ichida. Kulrang brezent kamarning ikki uchi kresloning ikki tomonidan pastga osilib turardi. Vazira kamarning to‘qali uchini Sherzod o‘tirgan tomondan olayotganda qo‘li bexosdan uning qo‘liga tegib ketdi. Sherzod buni allanechuk yoqtirib:

– Kamaringizni bog‘lab qo‘yaymi? – dedi.

– Yo‘q, rahmat, o‘zim.

Vaziraning qulog‘i bitib, ko‘zi xiyol tinganday bo‘ldi. Samolyot pastlayotganda u o‘zini noxush sezardi. Shuning



uchun kresloga yaxshiroq o'rnashib, boshini uning su-yanchig'iga qo'ydi. So'ng qimirlamay o'tirishga tirishdi.

Sherzod esa Vazira tomonga engashib, illyuminatordan yerni tomosha qildi:

– Bu yoqlarda hali bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k. Odam-ga salqini yoqadi-da, Vazira. Qaysi mehmonxonaga tush-moqchisiz?

– «Rossiya»ga.

Sherzod quvonib ketdi:

– Bizga ham «Rossiya»dan o'rin olib qo'yishgan. Telefon-da aytishdi. Uchovimiz bitta taksida bora qolamiz.

Vazira allanarsadan tortinganday bo'lib:

– Qani, avval yerga tushaylik-chi, – dedi.

Sherzodga uning tortinishi ham yoqimli tuyulardi. Bir mehmonxonada turganlaridan keyin, nomerlari alohida bo'lsa ham ovqatga birga borishlari mumkin... Qahvaxona, balki restoran... Sherzodni oldinda shirin damlar kutayot-ganday kayfi yanada chog' bo'ldi. U bo'lajak shodliklarining cho'qqisidan pastga qarab, uzoqlarda go'yo g'ivirlab yurgan Abrorni xayol ko'zi bilan ko'rdi-yu, ich-ichidan kulib qo'ydi.

UCHINCHI BOB

Chizmakashlik stoli ustidan go'yo Bo'zsuv oqib o'tmoqda edi. Yomg'ir paytlarida loyqalansa ham ko'pincha ko'kimtir bo'zliklarday tiniq oqadigan bu go'zal suv o'z nomiga juda munosib edi. Bolalik paytlaridan Bo'zsuvda cho'milib o'sgan Abror uning Anhor degan ikkinchi nomi keyin paydo bo'lganini bilardi. Rasmiy hujjatlarda hozir ham Bo'zsuvning Toshkent markazidan o'tgan qismi – O'rdadan to Beshyog'ochgacha Anhor deb ataladi. Aslida bu ham Bo'zsuvning o'zi edi. Shuning uchun chizmakashlik stolini enlab yotgan rangli tasvirda bu katta suv boshdan oxirigacha «Bo'zsuv anhuri» deb atalgan edi.



Stol atrofiga Abror boshliq bo'lgan me'morlik ustaxonasining o'nga yaqin xodimlari yig'ilgan. Oq qog'ozda ko'm-ko'k qilib tasvirlangan Bo'zsuv o'z yo'lida uchragan tepaliklarni xuddi tabiiy daryoday aylanib o'tgani Farhod degan ingichka, novcha yigitning e'tiborini tortdi:

– Abror A'zamovich, Bo'zsuv aslida tabiiy daryomi yo kanalmi?

Abror unga sinovchan nazar bilan tikildi:

– Bu tasvirdan nimaligini bilib bo'lmaydimi?

– Bunga qarab tursangiz xuddi daryoga o'xshaydi.

– Aslida Bo'zsuv – xuddi tabiiy daryoga o'xshatib qazilgan anhor. Chunki ming yil oldingi odamlarda bugungidaqa texnika bo'lmagan.

– Ming yil? – deb Farhod ishonqiramay so'radi. – Shu o'zimizning Bo'zsuv mingga kirganmi, Abror A'zamovich.

– Men tarixiy manbalarda o'qidim. Bo'zsuv bundan bir ming uch yuz yillar avval qurila boshlangan ekan. Toshkentku, ikki ming yoshga kirdi. Lekin shaharning eng avvalgi markazlari Jo'n, Salor kanallarining bo'yida Shoshtepa, Mingo'rik degan joylarda bo'lgan ekan. Mingo'rikni arab bosqinchilari buzib, yondirib tashlaganlaridan keyin shahar markazi Bo'zsuvning o'ng tomoniga, hozirgi Xadra, Ko'kaldosh madrasasining o'rniga, Janggoh tomonlarga ko'chgan ekan. Qadimgi Toshkent mana shu joylarda bo'lgan ekan. Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil oldin mana shu shaharni bugungi nomi bilan «Toshkent» deb ataydi. Bo'zsuv bo'lmasa suvsiz adirlarda shunday ulkan shahar paydo bo'larmidi?

Chakka sochlari tushib, tepakal bo'lib qolgan qirq besh yoshlardagi kishi Abrorga e'tiroz qildi:

– Qadimiylikka kelganda, Bo'zsuvdan ham Kaykovusning yoshi katta, Kaykovus podsho qachon o'tgan, bilasizmi?

– Karim aka, mana bu rejaga yana bir qarang, – dedi Abror. – Kaykovus ham, Qorasuv ham Bo'zsuvdan ajralib



chiqqan. Agar Bo'zsuv bo'lmasa, Kaykovusga suv chiqarib bo'lmas edi.

– To'g'ri, Bo'zsuv ho' yuqorida Chirchiq daryosidan boshlanadi, – deb Farhod Abrorning yonini oldi. – Lekin meni bir narsa hayron qoldirdi, Abror aka. Ming yillardan beri oqib turgan shunday katta suv tagini o'yib jar qilib yubormagani g'alati. Hozir qirg'og'iga borib, qo'lingni shunday cho'zsang, kaftingga suv olasan. Odamga yaqinligini aytmoqchiman. Xuddi qo'lga o'rgatilgan kiyikdek.

– Holbuki, – deb Abror Farhodning gapini quvvatlab ketdi, – Bo'zsuv ham yovvoyi tog' daryolaridan boshlanadi. Toshdan toshga sapchib oqadigan Ugamni ko'rganmisizlar? Toshni o'yib, o'ngir qilib yuborgan Ko'ksuvni bilasizlarmi? Ana shu asov daryolar Toshkentga kelganda Bo'zsuvga aylanib, shahar markazidan yovvoshgina oqib o'tishi odamni hayratga solmaydimi?

Abror bu so'zlar bilan Bo'zsuvni qurgan bobokalonlarning ijodiga tahsin aytmoqchi edi. Chunki Bo'zsuvni had-dan tashqari dam qilib, sekin oqizsalar, tagiga loyqa cho'kaverib, o'zani asrlar davomida bekilib ketishi mumkin edi. Yo'q, agar uni me'yoridan ortiq nishab qilib qursalar, suv tez oqishi natijasida tagi va qirg'oqlari o'pirilib, shahar markazidagi qismlari ham jar bo'lib ketishi mumkin edi. Lekin Bo'zsuvni qurgan qadimgi toshkentliklar yer bilan suvning tabiatini nihoyatda donolarcha hisobga olishgan va eng yaxshi bir me'yorni topib, shunday katta suvni hozirgi izidan san'atkorlarcha olib o'tgan edilar.

– Chindan ham san'at asaridek qurilgan.

– Lekin ajdodlarimiz bu asarni tabiat bilan hamkorlikda yaratgan, – qo'shimcha qildi Abror. – Tabiatning ra'yiga qarashgan, u bilan iloji boricha inoq bo'lishga intilishgan.

– «Tabiatga qarshi kurashaman», deb qosh qo'ymoqchi bo'lib, ko'z chiqarganlar yo'q emas, – dedi Lena ismli yuzida sepkili bor qiz. – Undan ko'ra, tabiat bilan til topishib, inoq bo'lib yashagan ming marta yaxshi.



So'nggi gapga ko'pchilik bir kulib oldi-yu, lekin Karim Mahkamov qovog'ini soldi. Direktorning yaqin qarindoshi bo'lgan bu odam o'zini boshqalardan balandroq tutib o'rgangan edi. Hozir ham sigareta tutatar ekan:

– Bo'zsuvni juda ideallashtirib yubordilaring, – dedi. – Yuqori tomonida, «G'alaba» o'rmon-parkining yuqorisida, yerni o'yib jar qilib yuborgan joylari ham ko'p. Beshyog'ochdan naryog'ida ham mashhur Bo'rijar bor.

– Biz shahar markazini aytyapmiz, Karim aka, – dedi Farhod. – Bo'zsuvning shahar markazidagi go'zalligi nahotki sizni quvontirmaydi?

– Sal narsaga «oh, voh!» deb, quvona veradigan sentimental davrdan o'tganman. Menga Bo'zsuvning shahar markazidan egri-bugri bo'lib o'tishi yoqmaydi.

– Sizga egri-bugri ko'ringan joylarida katta daryoning halqalanib oqishiga o'xshagan tabiiy bir ko'rkamlik bor. Biz landshaft me'morchiligi bilan shug'ullanamiz. Biz uchun mana shunaqa tabiiy relyef kerak.

– Sizga shunday tabiiy go'zallik bo'lib ko'ringan «halqalar» qancha ortiqcha yerni band qilib yotganini bir o'ylang, o'rtoq A'zamov.

Abror ham sovuq rasmiy ohangga o'tdi.

– O'rtoq Mahkamov, sizningcha, bu «halqa»larni qirqib tashlab, sixday to'g'ri beton o'zan qurish kerakmi?

– Buni mendan yaxshiroq biladigan kattalar bor, – deb Karim Mahkamov qaynog'asi bo'lgan direktorni eslatib qo'ydi.

– Lekin biz ham ijodkorlar bo'lganimiz uchun yangi g'oyalarni o'rtaga tashlashimiz mumkinmi-yo'qmi?

– Men tushunmayapman, Abror A'zamovich. Mana bu stol ustida yotgan tasviringizning g'oyasi nima?

Abror Lenaga qaradi:

– Balki sen tushuntirib berarsan? – Lena shu rangli tasvirni chizishda Abrorga yordam bergan, ikkovi bu to'g'rida ko'p gaplashgan edi.



– Karim Mahkamovich, bu tasvir orqali o'rtaga tashlana-yotgan g'oya shuki, Bo'zsuv – qadimiy bir madaniyat obidasi. Bu obidani mehnatkash xalq yaratgan. Shuning uchun biz bu xalq ijodini ham Samarqand bilan Buxoroning qadimiy yodgorliklariday qadrlashimiz kerak.

– Xo'p, qadrlang. Kim bunga qarshi?

– Qarshilar yo'q, ammo loqaydlar bor, – deb davom etdi Lena. – Toshkentga mehmon kelsa-yu, tarixiy joylarni ko'rsatish kerak bo'lsa, Ko'kaldosh madrasasiga, boshqa madaniy obidalarga boshlab boramiz. Lekin Bo'zsuvni ham ming yillik tarixiy yodgorlik tarzida ko'rsatish nega esimizga kelmaydi? Buni xalqdan chiqqan iste'dodlar zo'r san'at asariga o'xshatib qurganini marmarga yozib, qirg'og'iga haykalday o'rnatib qo'ysak bo'ladi-ku. Ko'p tarixiy obidalar muzeyga aylanib qolgan, ularda birov yashamaydi. Lekin Bo'zsuv hozir ham kecha-yu kunduz mehnat qilyapti. Balki shuning uchun uning tarixiy obidaligi esimizdan chiqib ketgandir? Lekin ming yillardan beri tinimsiz ishlab, insonga hamon xizmat qilib kelayotgan bu madaniy obidani biz kelajak avlodlarga butunicha yetkazib berishimiz kerak. Uning qirg'oqlarini tuzatganda xuddi Samarqanddagi qadimiy yodgorliklarni ta'mirlaganday ehtiyot bilan aslini qayta tiklashimiz kerak.

Mahkamov Lenaning Abrorga ixlosmand shogird ekanini va hozir uning fikrlarini aytayotganini sezib turardi. Abror go'yo Karim Mahkamovni o'ziga teng ko'rmagani uchun uni shu yosh qiz bilan bahslashtirib qo'yib, bir chetda qarab turganga o'xshardi. Shuning uchun Mahkamov Lenaning gapini pisand qilmasdan Abrorga kinoya bilan gapirdi:

– O'tgan asrda Bo'zsuv bo'ylarida odam kirolmaydigan yovvoyi to'qayzorlar bo'lgan. Bu to'qaylarda yirtqich yo'lbarslar yurgan. Men buni ishonchli manbalarda o'qidim. Agar Bo'zsuvni o'sha davrdagi asliga o'xshatib tiklaydigan bo'lsalaringiz, to'qay o'stirib, biror yoqdan yo'lbars topib kelib qo'yib yuborasizlar chamasi, a?



Abror ham kinoya bilan kulimsiradi-yu:

– To‘qaylar Bo‘zsuv bo‘ylari qarovsiz qolgan og‘ir davrlarda paydo bo‘lgani rost, – dedi. – Biz Bo‘zsuv bo‘ylarini mehnatkash xalq yashnatib obod qilgan yaxshi davrlarning an‘analarini davom ettirmoqchimiz. Bo‘zsuv Chirchiq daryosidan boshlanadi. O‘sha tomonlarda bir vaqtlar yo‘lbarslar yurganiga kelsak, bu hodisa Bo‘zsuvning obro‘cini tushirmaydi, Karim aka. Aksincha, mana hozir Amur daryosi bo‘ylarida, Ussuriy o‘lkasida yo‘lbarslar borligi o‘sha joydagi tabiatning obro‘cini oshiradi. Agar o‘tgan asrlarda ham tabiatning qizil kitobi bo‘lganda edi, Bo‘zsuvning yuqori tomonlarida yurgan yo‘lbarslar saqlab qolinaridi. Bugungi avlodlar buning uchun rahmat aytarmidi yoki sizga o‘xshab norozi bo‘larmidi, a Karim aka?

Eshlar bu gapdan kulib yuborishdi. Karim Mahkamovning pastki jag‘i keskin silkindi:

– E, unaqa yirtqicq darranda uchun siz rahmat aytavering! Mening bunaqa safsatalar uchun vaqtim yo‘q!..

Karim Mahkamov deraza oldiga qo‘yilgan chizmakashlik kombayni tomon asabiy yurib o‘tdi. U to‘xtab qolgan ishiga kirishar ekan, bilagidagi oltin soatga tikilib qarab oldi. Uning butun vajohati Abrorning ish vaqtida boshqa narsalarga xayolini bo‘layotganidan norozi ekanini, agar ahvol shunday bo‘laversa uni direktorga borib aytajagini ko‘rsatib turardi.

Bu odam aslida Sherzod Bahromovning maslakdoshi edi. Abror uning Sherzod bilan bir mahallada o‘sganini, bolalikdan qil o‘tmas o‘rtoq ekanini, oilaviy bordi-keldisi ham borligini bilardi. Karim Mahkamov qaynog‘asi Sayfulla Rahmonov bilan Sherzod Bahromovni bir-biriga bog‘lab turadigan «ko‘prik» vazifasini ham o‘tar edi. Sherzod Bahromovning nomzodi mukofotga qo‘yilganda mana shu Karim Mahkamov uni direktor qaynog‘asi orqali qattiq himoya qilgan, Abrorning nomzodi o‘tmasdan, Sherzodning nomzodi o‘tganda do‘ppisini osmonga otib quvongan edi.



Abror qo'lidan durust ish kelmaydigan bu odamni o'z ustaxonasidan boshqa bo'limga jildirmoqchi ham bo'ldi. Lekin institut direktori Sayfulla Rahmonov bunga rozilik bermadi, ikkovini kabinetiga chaqirib, «mayda-chuyda tuyg'ularga berilmanglar, bir yoqadan bosh chiqarib ishlanglar, biz hammamiz bir jamoaning a'zolarimiz, bir aravaga qo'shilgan otlarday yukni baravar tortishimiz kerak», deb nasihat qildi. Lekin Karim Mahkamov aravani tortishdan ko'ra, uning ustiga chiqib, minib yurishga ustaroq edi. Qaynog'asining direktorligidan ham u xuddi mana shu tarzda foydalanardi. Ammo buni Rahmonovga aytib tushuntirib bo'lmas, qarindoshining aybini aytgan odam uning o'zini ayblayotganday yomon ko'rinar edi. Shuning uchun Abror tishini tishiga qo'yib, Karim Mahkamov bilan birga ishlab kelardi. Erta-yu kech shu odam bilan bir xonada o'tirar ekan, Karim Mahkamov uning har bir gapini direktorga chappa qilib yetkazishi mumkinligini, barcha ijodiy sirlarini raqibi Sherzod Bahromovga borib aytishga tayyorligini sezgan sari chigal va murakkab tuyg'ulardan iztirob chekardi. Uning bu iztirobini shogirdlari ham sezishar, ayniqsa, Farhod bilan Lena doim uning og'irini yengil qilishga intilishar edi. Hozir ham ular Karim Mahkamov pisand qilmagan Bo'zsuv tasvirini e'zozlab devorning baland joyiga suratga o'xshatib mahkamlab osishdi.

Bo'zsuv endi devordan oqib o'tayotganday ko'rina boshladi.

– Qani endi ishga! – dedi Abror. Hamma o'z chizmakashlik stoli oldiga o'tdi. Ular shahar markazidagi gulzor maydonchanning obodonlashtirishga oid loyihalarini chizmoqda edilar. Abror maydoncha chetlariga o'tkaziladigan daraxtlarning o'rnini va turini aniqlashga tushdi.

U bir taxta oq qog'oz olib, katta ko'chani qo'sh chiziq bilan belgiladi-da, uning berigi tomoniga eman, arg'uvon, chinor daraxtlarini o'rnatib ko'rdi. U daraxtlarning shaklini xuddi ha'flarni yozganday oson va tez chizar edi. Bir-ikki



qo'l harakati bilan qog'oz yuzida chinor yoki eman belgilari tanisa bo'ladigan shaklda ko'rinib qolardi. Abror maydonchani kengligini-yu, chinorlarning balandligini xayolan bir-biriga taqqoslab ko'rdi. Qandaydir nomunosiblik bordek, maydoncha bunday ulkan daraxtlarning shoxlari soyasida qolib ketadigandek tuyuldi. Shundan keyin ularni o'chirdi-da, yana oq qog'oz olib, mirzateraklarning rasmini chizib ko'rdi. Ular ham balayd o'sadi, lekin shoxi tikkaga ketadi, demak, gulzorga uncha ko'p soya solmaydi. Balki majnuntollar durust bo'lar? Abror yana bir taxta oq qog'oz olib, majnuntollarning rasmini chizayotganda stoli ustidagi telefon jiringlab qoldi. Bu – pastiga uch xonali raqam yozib qo'yilgan ichki telefon edi. Abror xayolini buzgan jiringlashdan ensasi qotib, go'shakni istar-istamas oldi. Go'shakdan salmoqli tanish ovoz eshitildi:

– Allo!.. Abror A'zamovich!

Abror institut direktorini tanib go'shakni qulog'iga mahkamroq bosdi:

– Eshitaman, Sayfulla Rahmonovich.

– Bir daqiqaga kira olasizmi?

– Hozirmi?

– Ha yoki bandroqmidingiz?

Odatda, juda muhim va zarur ishi bo'lmasa, direktor o'zi telefon qilmas, qabulxonadagi kotibasi orqali chaqirtirar edi. Abror shuni o'yladi-yu:


– Yo'q, mayli, hozir kiraman, – dedi.

Xonada ishlayotganlar direktorning nomini eshitib sergaklanib qoldilar. Hammaning xayoli Bo'zsuvga oid gaplarga ketdi. Abror eshikdan chiqayotganda Lena unga:

– Omad tilaymiz, Abror A'zamovich! – deb qo'ydi.

Direktorning kabineti beshinchi qavatda edi. Uchinchi qavatda ishlaydigan Abror marmar zinapoyadan shoshilmay yuqoriga chiqdi. Qabulxonada uch-to'rt kishi navbat kutib o'tirgan ekan, kotiba qiz Abrorga:

– Siz kiravering! – deb eshikni ko'rsatdi.



Sayfulla Rahmonovich to'rdagi stol yonida o'tirgan ko'yicha Abrorning salomiga alik oldi-da, qo'li bilan bo'sh kresloga taklif qildi. Ikkinchi kresloda institut bo'limlaridan birining boshlig'i bo'lgan o'rta yashar ko'hlikkina ayol o'tirardi. Abror kelganda direktor o'sha ayolga qarab:

– O'rtoq Ilhomova, gapiravering, – dedi.

– Sayfulla Rahmonovich, men sizning xizmat safaridan qaytishingizga muntazir edim. Kislovodskka yo'llanma bor ekan... Biletlarni ham oldik. Endi, iltimos qilaman, otpuskamni bersangiz... Mana, arizam.

– Arizani qoldiring. O'ylashib ko'ramiz.

Abrorning oldida shaxsiy ishi to'g'risida gapirishdan iymanayotgan ko'hlik ayol:

– Vaqt oz qolgan-da, Sayfulla Rahmonovich, – dedi. – Iltimos... Hozir shuni...

Direktor osoyishta, past tovush bilan:

– Keyin kirasiz, – dedi.

– Ertagami?

– Dam olish kunidan keyin.

Ayol hayajonlanganidan qizarib ketdi:

– Dushanbadami? Biz seshanba kuni jo'nashimiz kerak, Sayfulla Rahmonovich! Bilet kuyadi-ku, qandoq qilamiz?

Ko'hlik ayol bezovta bo'lgani sari Sayfulla Rahmonovich o'zini osoyishta tutar edi.

– Biz siz bilan avval davlat topshiriqlarini bajarishimiz kerak, – dedi u bosiq tovush bilan. – Dushanba kuni kirasiz.

Ayolning qandaydir topshiriqni vaqtida bajarmaganini Abror endi sezdi. Sayfulla Rahmonovich u bilan bo'ladigan gapni tezroq tugatishni istar, shuning uchun uning ustiga Abrorni chaqirgan edi. Ortiqcha e'tirozga o'rin qolmaganini sezgan ayol:

– Xayr, mayli, – dedi-da, bo'shashib chiqib ketdi.

Sayfulla Rahmonovich boshini solintirib bir lahza o'ylanib turdi. Uning o'siq g'ayir sochlari oppoq oqarib ketgan. Lekin yoshi hali ellikka borgan emas. Yuzlari ajinsiz. Pe-



shanasiga qayrilib tushib turgan qalin oq sochlari tagidan qoshlari qop-qora bo'lib ajralib ko'rinadi.

Abror hozir uning Bo'zsuv haqida gap ochishini kutib, yuragi gupillab ura boshladi. Sayfulla Rahmonovich – xodimlarini juda qattiq tutadigan odam. Abror buni hozirgi ayol bilan bo'lgan muomaladan yana bir sezdi.

– Maydonchanning loyihasini qachon topshirasiz? – to'satdan so'radi direktor.

– Yana uch-to'rt kunlik ishi qoldi.

– Bizga talablar yo'qmi?

Abror Bo'zsuvga oid takliflarini Sayfulla Rahmonovga bundan bir oycha oldin yozib bergan edi. Shuning javobini so'ragisi keldi-yu, lekin boyagi ayolga qilgan muomalasini eslab ikkilandi.


Uning qandaydir andishaga borayotganini sezgan Sayfulla Rahmonovich:

– Aytavering! – deb kulimsiradi. U qisiq ko'zli odam edi. kulimsiraganda ko'zlari qisilib, yopilay-yopilay deb qolar, shu bilan yuzi juda beozor ko'rinardi.

Abror endi dadillandi-yu:

– Men boshqa bir narsani so'ramoqchi edim, – dedi. – Har bir ijodkorning ko'ngliga tugib yurgan rejalari bo'ladi. Men ko'pdan beri Bo'zsuv bo'ylarini o'ylab yuraman.

– Ha, aytmoqchi, – deb Sayfulla Rahmonovich peshanasini qashidi, so'ng stolining tortmasidan Abrorning o'ram qilingan loyihasini va ularning ichidagi yozuvlarni oldi: – Bo'zsuv haqidagi fikrlaringizni o'qib chiqdim. Umuman... yomon emas. Bo'zsuvni men ham yaxshi ko'raman, Abror A'zamovich. Bunaqa ajoyib anhor na Samarqandda bor, na boshqa katta shaharlarimizda. Bo'zsuvdan tog'larning suvi oqib keladi. Yana shu bilan birga tog' havosi ham Toshkentga kirib keladi. Bo'zsuv tog' havosiga yo'l ochib, ketidan ergashtirib kelsa kerak. Shuning uchun Bo'zsuv bo'yida birpas o'tirsangiz, qushday yengil bo'lasiz.



– Gap shunda-da, Sayfulla Rahmonovich. Toshkent-day shahri azimda, behisob mashinalarning dudi orasida yashagan har bir odam Bo'zsuvning havosidan nafas olib turmasa bo'lmaydi.

– Biz buning uchun Bo'zsuv bo'ylarida dam oladigan oromgohlarni iloji boricha ko'paytiramiz. Har ikki qirg'oq keta-ketguncha odamlar piyoda yurib istirohat qiladigan joylar bo'ladi. Hozircha Gagarin parki-yu, olti qavatli ma'muriy binoning etaklari o'shanaqa yaxshi sayilgohga aylandi. Yuqorida «G'alaba» o'rmon-parkning bir tomoni – Ko'rgazma joylashgan qirg'oq bo'ylari ham durust-a?

Sayfulla Rahmonovichning gap ohangidan, «ortiqcha tashvishga o'rin yo'q», degan bir ma'noni sezgan Abror:

– To'g'ri-yu, – dedi, – lekin Ko'rgazmadan to Ganchtepagacha qirg'oqning qancha joyi hali qarovsiz yotibdi-da. Arpapoya arig'idan Bo'rijargacha qilinadigan ishlar ham ko'p. Qirg'oqning go'zal bir joyini pivzavod egallab turibdi. Boshqa joyida...

– Hammasi o'z navbati bilan hal bo'ladi, Abror A'zamovich. Hali anhorning tagidan metro yo'l solib o'tishi kerak. Narigi tomonlariga yangi teatr binosi tushadigan bo'lyapti. Ilgarigi egar-jabduq fabrikasining o'rnida Yozuvchilar uyushmasi katta qurilish qilyapti. Qirg'oqning o'sha joylari keyinchalik o'sha binolarga moslab obod qilinadi.

– Tushunaman, Sayfulla Rahmonovich. Lekin har bitta obyektning qurilib bitishini kutish, keyin qirg'oqni moslab obod qilish quroq bir uslubga yo'l ochadi. Siz o'zingiz ham quroq uslubga qarshi gapirganingiz esimda bor. Bo'zsuv bo'yida yagona me'morlik ansambli barpo qilinadi, degan edingiz.

– Quroq uslubga yo'l qo'ymaslik ham bizning o'zimizga bog'liq. Bekorga bu yerda o'tiribmizmi? Koordinatsiya qilamiz!



– Lekin har safar loyihalarni anhor landshaftiga moslab qayta ko'rib chiqquncha, Bo'zsuvning qirg'oqlarini mustaqil obyekt tarzida obod qilish yaxshi emasmi, Sayfulla Rahmonovich? Bo'zsuv – katta bir tarixiy obida, uning qayta tiklanadigan joylari ko'p. Toshkentning ikki ming yillik tarixini ko'rsatadigan chorbog'lar, shiyponlar, boshqa etnografik narsalarning hammasini Bo'zsuv bo'ylariga qurib, takrori yo'q bir ansambl yaratish mumkin.

– Endi buni aytish oson, Abror A'zamovich. Amalda siz aytgandaqa qilish uchun necha million pul, necha yil vaqt kerak.

Hech bo'lmasa Bo'zsuvni kelgusi yil rejalariga qaratish to'g'risida gap bo'lishi mumkin emasmi?

– Mumkin. Faqat Bo'zsuvning qayerini?

– Masalan, ilgari Qaymoq bozor bo'lgan Ganchtepani oling. Shaharning eng ko'krakdor joylaridan biri shu. Bo'zsuv Ganchtepaning yon-veridan xuddi daryoday halqalanib, aylanib o'tadi. Landshaft me'morchiligi uchun bu juda qulay. Bo'zsuv aylanib o'tadigan joydan Ganchtepa ustiga keng ko'prik qurilsa... Tepalik hozir suvsiz taqir bo'lib changib yotibdi. Lekin nasoslar bilan suv chiqarish hech gap emas. Bir gekardan ortiq yer maydoni bor, tuprog'i juda yaxshi. Gullar o'stirib, daraxtlar ekib, nihoyatda obod manzilga aylantirish mumkin. Tepalikning eng ko'zga ko'rinarli joyiga klassik uslubda bitta bino qurilsa, koshinlar bilan bezatilsa...

– Bu tepalikda nikoh saroyi qurilsin, degan taklif tushgan edimi?

– Ha, meningcha, bu binoni Toshkent muzeyiga aylantirish ham mumkin. Qadimgi zamonlardan hozirgi kunlarga cha shaharning ikki ming yillik tarixi Bo'zsuvga aloqador bo'lgan. Bunday muzey Bo'zsuv bo'yiga tushgani yaxshi.

– Lekin bu to'g'rida boshqa fikrlar ham bor.

– Bu fikrlardan birinchi men ham eshitganman.

– Qaysisini?



– Bo'zsuvning halqalanib oqqan joylarini to'g'rilab, tayoqday tik beton o'zan qurish haqidagisini.

«Tayoqday tik» degan so'zlardagi istehzo Sayfulla Rahmonovichga yoqmadi. U aftini burishtirib:

– Lekin siz ba'zan sal torlik qilasiz-da, – dedi. Abror direktorning kuyovi Karim Mahkamovni esladi-yu, gapiga aniqlik kiritmoqchi bo'ldi:

– Men Sherzod Bahromovni nazarda tutgan edim. Bu o'rtoq hamma arig'-u kanallarning o'zanini to'g'rilab, betonlashtirib chiqish niyatida.

– Bahromovni oraga suqmang, siz u bilan mudom cho'qishib o'rganib qolgansiz, – dedi Sayfulla Rahmonovich. «Cho'qishib» so'zi orqali Abrorning boyagi istehzosini uning o'ziga qaytarganday bo'ldi-da, yana muloyimlashdi. – Men o'zimning fikrimni aytmoqchiman, Ganchtepani obod qilib, Bo'zsuvning bu yerdagi halqasini saqlab qolish kerak. Bu jihatdan siz haqsiz. Faqat tepalikning kun chiqish tomonidan boshqa o'zan qazib, suvning yarmini o'sha o'zandan olib o'tilsa, Ganchtepa o'rtada chiroyli bir orolga aylanib qoladi.

– Yaxshi fikr... Biroq...

Sayfulla Rahmonovichning o'ng tomonida – qator turgan telefonlarning yonida lampochka bir necha marta o'chib yondi. Uning telefonlari jiringlamasdi. Go'shakni qabulxonadagi qiz olar, zarur deb hisoblagan paytda maxsus tugmani bosar, ichkarida lampochka yonar va direktor go'shakni olar edi. Lekin hozir Sayfulla Rahmonovich lampochkaning yonishiga ham e'tibor bermay so'zida davom etdi:

– Ganchtepa ustiga esa biz xalqlar do'stligini ulug'laydigan bir bino qurishimiz kerak. Chunki Toshkentning zilzila paytida ko'rsatgan jasoratiga atab «Mardlik» degan monument qo'yiladi. Og'ir paytda Toshkentga yordamga kelgan barcha qardosh xalqlarning bizga qilgan yaxshiliklari shu haykal yonida granitga o'yib, abadiy o'chmay-



digan qilib yoziladi. Sizga maslahatim, Abror A'zamovich, ijodiy rejalarangizning g'oyaviy tomoniga ko'proq e'tibor bering. An'analar o'z yo'liga, ammo biz uchun yangi sotsialistik g'oyalar birinchi o'rinda turadi.

– To'g'ri, men aytgan fikrlar ham yangi Toshkentning ko'rkini ochishga qaratilgan, Sayfulla Rahmonovich. Chunki yangilik yaratish uchun xalqimizning asrlar davomida o'tirgan yaxshi an'analaridan ijodiy foydalanish ham kerak.

– An'analardan foydalanishga hech kim qarshi emas, lekin...

Telefonlar yonidagi lampochka yana o'chib yona boshladi. Sayfulla Rahmonovich stol ustida turgan reproduktorga o'xshash oq qutichaning tugmasini bosdi-da, og'zini unga yaqinlashtirib dedi:

– Tamara, men bandman, tushundingizmi?

Oq qutichadan qabulxonadagi qizning sarosimali ovozi eshitildi:

– Tushundim, Sayfulla Rahmonovich, kechirasiz!

Direktor yana Abrorga yuzlandi:

– Bunday kelishaylik, Abror A'zamovich. Siz ijodkor odamsiz, o'ylab yurgan rejalarangiz bo'lishi tabiiy. Uyda, bo'sh vaqtlarda pishitib yuravering. Vaqti kelganda bu loyihalaringiz ham kun tartibiga qo'yiladi. O'shanda hammasini batafsil muhokama qilib, eng yaxshilarini albatta amalga oshiramiz. Hozir esa siz bilan bizga davlat tomonidan topshirilgan juda katta bir ishni qilishimiz kerak.

Sayfulla Rahmonovich baland po'lat sandiqni ochib, undan qog'ozi qizg'ish katta loyiha – rejani oldi. Uning qatlari-ni ochib, stoli ustiga ehtiyot bilan yozdi.

– Taniyapsizmi? – so'radi direktor.

Loyiha – reja turli-tuman, murakkab chiziqlardan iborat bo'lsa ham, Abror bir qarashda uni tanidi. Bu Markaziy maydonning kengaytirilgan yangi loyihasi edi, uning mualliflari orasida Sayfulla Rahmonov ham, Abror ham bor edi. Bu maydonni avvalgisidan bir necha barobar katta qilib



sharq tomonini Navoiy ko'chasigacha kengaytirish haqidagi fikr ancha munozaralarga sabab bo'lgan edi. Chunki hali bu yerda ellikdan ortiq turli binolar, Injenerlar ko'chasi, Kommunalchilar maydoni, Kino xodimlari uyi, pasport stolining ikki qavatli g'ishtin binosi, bir talay turarjoylar, idoralar bor edi. Bir yilda hammasini ko'chirib olib tashlab, o'rniga ulug'vor maydon qurish Abrorga ushalishi qiyin bo'lgan bir orzuday tuyulardi.

– Lekin mana, qaror chiqdi, bizning takliflar o'tdi! – dedi Sayfulla Rahmonovich tantanali tovush bilan. – Bu maydonning zilziladan oldingi ko'rinishi esingizdami? Eng baland bino uch qavatli edi. Bir qavatli pastak uylar ko'p edi. Endi bir qarang.

Abror loyihalarga qarab turib, yigirma qavatli ma'muriy binoni ko'z oldiga keltirdi. Kelajakda hali Oliy Kengashning ko'p qavatli binosi qurilmoqchi.

– Xullas, – deb davom etdi direktor, – ilgari eng baland uch qavatli bino endi mana bu yangi imoratlarning hammasidan past bo'lib qoldi. Maydon ham avvalgidan bir necha barobar katta. Uning markaziy «o'q»i hozir boshqa nuqtaga ko'chdi. Favvoralar bo'lsin. Chiroyli yo'lkalar bo'lsin. Eng nodir daraxtlar, eng chiroyli o'simliklar o'ssin. Har bitta daraxtga yer ostidan quvur bilan suv olib kelamiz, yomg'ir suviga o'xshatib tomchilatib sug'oradigan purkagichlar o'rnatamiz. Bu ishning eng zo'r mutaxassislari sizning ustaxonangizda. Shuning uchun bu katta ishning amaliy loyihasini sizga topshirmoqchiman.

– Ishonchingiz uchun rahmat.

– Yashang!

– Muhlati necha oy?

– Boshqa vaqt bo'lsa, bir yil berardik. Lekin yubiley yaqin. Quruvchilarga vaqt ko'proq qolishi kerak. Shuning uchun loyihani olti-yetti oyda tugatishingiz kerak.

– Olti oyda bunday katta ishni qanday tugatib bo'ladi?



– Siz yolg'iz bo'lmaysiz. Injenerlar bor. Obodonlashtiruvchilar bor. Hammamiz bir tan, bir jon bo'lib ishlaymiz. Mana, loyihani olib borib, bo'limingizga ko'rsating.

Sayfulla Rahmonovich avval unga loyihani tutqazdi-yu, keyin stolining chetida turgan Abrorning Bo'zsuvga oid yozuvlarini o'ram qilib berdi:

– Ammo mana buni uzoqroq joyga tashlab qo'ying, asosiy ishga xalaqit bermasin. Abror A'zamovich, men sizga ishning eng nozik badiiy qismini topshirdim. Biron ish-kallik chiqsa, tortinmay kelib ayting! Qabulxonada navbat kutib o'tirmay to'g'ri kiravering. Bo'zsuv loyihasiga keyin masala pishganda qaytamiz.

Abror yozuvlarini uning qo'lidan indamay olib chiqib ketar ekan: «Shu-da, – deb ichida g'ijinib qo'ydi. – Nuqul olma pishib, og'zimizga tushishini kutamiz. O'zimiz jon koyitib pishiray demaymiz».

* * *

Ishdan keyin bozorga va magazinga kirgan Abror ikkita qo'ng'ir qog'ozxaltani yegulik narsalarga to'ldirib, uyiga qaytdi. Eshikni ochgan Malika dadasining qo'lidan qog'ozxaltalarni ola turib:

– Viy-y, shirmoy! Bodring! Gilos! – dedi quvnoq tovush bilan.

Oshxona tomondan Zafar chopib chiqdi:

– Qani gilos?

– Mana! – dedi Malika. – Dada, muncha kech qoldingiz?

– Magazinda odam ko'p ekan...

Uchovlari kefir va qaymoq shishalarini, uchburchak qog'oz idishga solingan sutni, sosiska, pishloq, yana bir talay yeguliklarni olib, oshxonadagi sovutkich tomonga o'tdilar. Zafar sabri chidamay gilosdan bir kaft oldi.

– Yuvib ye! – dedi Malika unga.



Zafar gilosdan yuvib yer ekan, danagini labiga qisib, axlat chelagiga uzoqdan otib tushirib o'ynay boshladi.

Abror uchinchi qavatga yuk ko'tarib chiqquncha ancha hansirab qolgan edi. Stulga o'tirib, horg'in bir mamnunlik bilan bolalariga qaradi.

– Tinchlikmi, Malika?

Sut-qatiqlarni sovutkichga joylayotgan Malika:

– Bobom keluvdilar, – dedi. – Sizni ancha kutib o'tirdilar.

– Ketib qoldilarmi? Qachon?

– Yarim soatcha bo'ldi. Choy damlab berdim. Bir piyola ichdilar, xolos. Qovoqlari soliq.

– Biron gap bo'lmaganmikin? Senga aytmadilarmi?

– Yo'q, nuqul uh tortadilar. Sizni «borsin», deb ketdilar.

Abror xavotirlanib o'rnidan turdi:

– Obbo!.. Men borib kelay bo'lmasa.

– Ujin qilmaymizmi, dada? – so'radi Malika.

Zafar esa ovqatdan ham oldin tomoshaga qiziqib:

– Dada, mashinada borsangiz, meni ham olib boring, – dedi.

Abror derazadan tashqariga qaradi. Qorong'i tushib qolgan, oshxona shiftida chiroq yonib turibdi.

– Malika yolg'iz qoladimi? – dedi Abror.

– Sen ham birga yur! – dedi Zafar opasiga.

Malika o'tgan gal buvisi bilan ko'rishganda Hanifa xola: «Katta qiz bo'lib qolding, ko'ylagingning etagini uzunroq qilib kiy, tizzangdan pastga tushib tursin!» deb tayinlagan edi. Malika esa etagi uzun ko'ylakni yomon ko'radi, shuning uchun hozir ham yubkasini tizzasidan bir enli baland qilib kiyib yuribdi. Oyisi – Vazira bunga rozi bo'lgan. Lekin buvisining oldiga borsa, o'sha gap yana qo'zg'aladi. Buni istamaydigan Malika:

– Men shu yerda televizor ko'rib o'tiraman, – dedi.

– Yolg'iz qo'rqmaysanmi? – so'radi Abror.

– Qo'rqsam, qo'shnimizning qizini chaqiraman.



Abrorning tili tanglayiga yopishib qolayotganday qiyinlik bilan aylanar edi. U juda chanqaganini endi sezdi. Choy qo'yay desa, qaynaguncha kutishga sabri chidamadi. Sovutkichdagi kefirni bittasini olib ochdi. Piyolaga quyib ichayotganda qo'lidan benzin hidi keldi. Boya mashinasiga benzin olgan edi, qo'l yuvish ham esidan chiqibdi. Abror oshxona yonidagi vannaxonaga kirdi. Malika uning ketidan:

– Dada, ujin qilamizmi? – dedi.

– Ha, aytganday, – Abror issiq suvda qo'lini sovunlab yuvar ekan, vannaxonada turib, ovozini ko'taribroq gapirdi: – Pishloq yeyaqolaylik. Yo sosiska qaynatasanmi?

– Sosiska! – xitob qildi Zafar. Malika ham shuni istar edi.

Oshxona devoriga yuvib osib qo'yilgan oq kastyulkani oldi-da, krandan suv ochib bir chayib tashladi. Keyin gazni yoqib, yarim kastyulka suvni qaynatishga qo'ydi.

Abror otasining oldiga tezroq borishi kerakligini o'ylar, lekin kechki ovqatni bolalari bilan birga o'tirib yemasa ham bo'lmasligini sezib turardi.

Malika vannaxonadan beridagi omborchadan bir banka ko'k no'xat oldi.

– Dada, shuni ochamizmi?

– Ha, sosiska bilan yaxshi ketadi. Ochqichni ber... Choy qo'ydingmi?

– E, esimdan chiqibdi, Hozir.

Malika sirlangan yashil choynakka krandan suv ola boshladi. Ro'zg'orning mayda ishlaridan boshi qotgan Abror ochqichni izlab, bufetning katta-kichik tortmalari-dan uchtasini ketma-ket ochib ko'rdi.

– Mana-ku! – deb Malika ochqichni dadasi yopayotgan uchinchi tortmadan topdi.

Taqsimchalarga uch-to'rt qoshiqdan ko'k no'xat solindi, ustiga ikki-uchtadan sosiska qo'yildi. Endi o'tirib ovqat yeyayotganlarida Abror shoshib o'rnidan turdi:

– Mashina ko'chada qoluvdi-ya!



Mashina ham shu oilaning sertashvish bir a'zosiga o'xshardi. Bultur mana shunday qorong'ida Abror beshinchi qavatdagi bir o'rtog'inikiga kirib, kechki ovqatni yeb chiqquncha ko'chada – daraxt tagida qolgan mashinaning orqasidagi chiroyli podfarniklarini va o'ng-u so'lga burilganda yoqiladigan oldingi kichkina chiroqlarini kimlardir o'g'irlab olib ketgan edi. Mashinaning bu narsalari bo'lmasa, ko'chada yurib bo'lmaydi – avtoinspektor ushlaydi. Abror goh piyoda, goh taksida shaharning turli tomoniga yugurib, bu narsalarni magazindan ham, ustaxonalardan ham topolmadi, axiyr qo'ldan bir necha baravar qimmatga olishga majbur bo'ldi. Shundan beri yuragini oldirib, ehtiyotkor bo'lib qolgan. Abror hozir mashinasini ko'chaning katta fonari yorug'i tagiga – o'zlarining balkonidan yaxshi ko'rinadigan joyga qo'yib kelgan edi. U, qo'lida vilkasi, og'zidagi ovqatni chaynay-chaynay, oshxonadan balkonga chiqib, pastga qaradi.

Mashina tepadan pachoqqina ko'rindi. Aftidan, tinch. Abror hali mashinani bu yerdan bir yarim chaqirimcha naridagi garaiga qo'yib, uyga piyoda qaytishi kerak. «Ish chivinday qaynab chiqadi-ya!» – dedi o'zicha. «Avval dadamni borib ko'rishim kerak. Nima bo'ldiykin-a?»

Abror ovqatni bolalaridan oldinroq yeb bo'ldi-yu, bo'sh turgan qog'ozxaltaga shirmoydan to'rttasini soldi. U ota-onasini ko'rgani quruq bormas edi. Sovutkichni ochib, Vazira g'amlab ketgan qo'y go'shtidan ikki kilochasini ajratib oldi. Bufetdan yiltiroq sellofan xaltacha topib, go'shtni soldi. Gilosdan ham olmoqchi bo'lib chamalab ko'rdi. Lekin gilos hammasi bo'lib yarim kilogina edi. Bolalar gilosga ko'zlari to'rt bo'lib qarab turishibdi.

– Mayli, gilos senlarga qolsin, Malika, ol, yarmini yuv.

Yashil choynak qaynab, uchidan bug' vishillab chiqmoqda edi. Malika gilosning bir qismini kosaga solib yuvdi.



Abror yuvilib, rangi ochilgan qora gilosdan uch-to'rttasini olib, tikka turganicha yedi.

Malika choy damlamoqda edi.

– Choyni o'zing icha qol, qizim. Yeganim ichimga tushmayapti. Men boray, Zafar, qani yur!

Abror yo'lakdan o'tayotganda kvartira unga odatdagidan ko'ra bo'shab, hatto huvillab qolganday tuyuldi. Yotoqxonaning eshigi ochiq. Yo'lakdan tushgan yorug'da atlas ro'yjasi ochilib qolgan karavot va uning chetiga nari-dan-beri tashlab qo'yilgan guldor ipak xalat ko'rindi. Vazira ertalabki shoshilinchda to'shagini yig'ishtirishga ulgurmagani edi. Abrorga xotinining o'rni go'yo endi bilindi, kvartira. Vazirasiz bo'm-bo'sh bo'lib, mung'ayib turganga o'xshaydi. U to'xtab orqaga o'girildi:

– Malika, oying telefon qilmadimi?

– Yo'q, – dedi Malika oshxonadan chiqib kelib.

Abror bilagini ko'tarib, soatiga qaradi. To'qqizdan o'nta o'tibdi. Moskvada hali soat olti.

– Xo'p, biz ketdik!

* * *

Ish kuni tugab, shahar ko'chalari ancha bo'shab qolgan. Abror mashinasining kichik chiroqlarini yoqib, radiosini qo'yib, yop-yorug' markaziy ko'chalardan kechki konsertni tinglab o'tdi-da, Usmon Yusupov ko'chasiga chiqdi. «Ishchilar shaharchasi» deb ataladigan joydan narida o'ngga burildi. Bir-ikkita asfaltlangan ko'chadan o'tgandan keyin o'nqir-cho'nqirlar ko'payib, tun qorong'usi quyuqlashib ketganday bo'ldi. Abror mashinasining hamma chiroqlarini yoqsa ham yoritilmagan eski ko'chaning past-balandini vaqtida ko'rmas, g'ildiraklarining goh unisi, goh bunisi gursillab chuqurga tushib o'tardi.

Shifer bilan yopilgan bir qavatli uylar, loysuvoq devorlar, ariq bo'ylaridagi kekxa tollar qishloqni eslatardi. Faqat uy



va hovlilarning g'uj-g'uj bo'lib, juda tig'iz turgani bu yerning eski shahar mahallalaridan ekanini aytib turardi.

Abror mashinasini qator mirzateraklar tagida - ko'k rangga bo'yalgan ikki tavaqali darvoza oldida to'xtatdi. U bilan Zafar mashinadan tushib, darvozani ochishlari bilan yo'lakda boshiga oq doka ro'mol o'ragan, chit ko'ylak ustidan qora baxmal nimcha kiygan bo'ydor Hanifa xola ko'rindi.

- Voy, Abrormisan? Dadang bormasa, xabar olay ham demaysan-a, bolam!

Zafar buvisiga salom berib, qog'ozxaltani uzatdi:

- Sizga!

- Buving aylansin sendan! - deb Hanifa xola nevarasini quchog'iga bosib, peshanasidan o'pdi, sovg'asini qo'lidan oldi.

A'zam ota hovlidagi baland chorpoyada xontaxtaga qo'llarini qo'yib, xayol surib o'tirgan edi. Abrorlarni ko'rib, qaddini tikladi-da, tizzasini ko'rpachaga tirab, cho'kkaladi. Abror yetmishga borib qolgan otasini o'rnidan qo'zg'atmaslik uchun tez borib u bilan ko'rishdi.

Hovli anchagina keng, ikki tomonida ikkita peshayvonli, dahlizli uy. Ayvondan tushgan yorug'likda olma-o'riklarining barglari orasiga yashiringan mevalari ko'rinib qoladi. Bo'g'ot tagidan osma gaz quvuri o'tkazilgan. Hovlida vodo-provod kolonkasi bor. So'ri qilib tom ustiga chiqarib yuborilgan toklar devorlarni yam-yashil qilib yashnatib turibdi.

Abror chorpoyaga chiqib, yo'l-yo'l ko'rpachaga o'tirar ekan, muattar gulday yoqimli tuyuladigan bir hid havoda suzib yurganini sezdi. Yoshlikdan tanish bu hid har yili bir marta - tok qiyg'os gullaganda paydo bo'lardi. Kechasi toklarning sho'ralari ko'rinmasa ham, hammasi gul-lab yotganini Abror shu hiddan sezdi. Hovli to'rida devor yo'q, uning o'rniga sim to'r tutib qo'yilgan. To'rdan narida Bo'zsuv oqib turibdi. Hovli uning qirg'og'ida bo'lsa ham bu



yerlardan jimib oqadigan ulkan suvning ovozi eshitilmaydi, faqat sarin nafasi kelib turadi.

Abror hovliga kirgan zahoti tok gulining hidi bilan musaffo suv shabadasi nafas yo'llari orqali butun badaniga tarqayotganini va ajib yengillik berayotganini sezdi-da, bir lahza hamma narsani unutdi.

Odatdagi hol-ahvol so'rashishlardan keyin A'zam ota kampiriga qarab:

– Shokirni chaqir, – dedi.

Hanifa xola nimqorong'i uyda televizor ko'rib o'tirgan kichik o'g'lini chaqirib chiqquncha, A'zam ota kalta oq so-qolining uchini chimchilab sukut saqladi.

Zafar har kelganida hovlidagi mushuk, tovuq va qo'ylar bilan o'ynab yozilib ketardi. Hozir u mushukni qidirib topolmadi. Tovuqlar qorong'i tushishi bilan katagiga kirib, qo'ndiqqa chiqib ketishgan.

– Mushuk qani, buvi?

Hanifa xola bu savolni eshitmadimi, javob bermadi. Zafar hovli chetidagi bostirmaga qarab o'tdi. Bo'rdoqiga boqilayotgan ikkita to'qli bo'ynidagi arqonlarini siltab, Zafarga tomon o'girildi. Ularning oldilarida yemish qolmagan edi. Bostirma chetida bir bog' o't turibdi. Zafar undan ikki tutamini olib, qo'ylarning oldiga soldi. Qo'ylar o't yeyayotganda, Zafar bo'yinlarini, bellarini silab, o'ynay boshladi. To'qlilarning juni yaqinda olingan, ustlarida qaychi izlari bilinib turibdi.

Shokir ichkaridan chiqib, akasi bilan ko'rishdi-da, chor-poyaning bir chetiga chordana qurib o'tirdi. Uning o'siq qora sochi bo'ynining orqasini qoplab olgan. Nozikkina mo'ylovi lablarining ustini bezab turibdi. Yelkalari keng, beli xipcha. Egnidagi ko'ylagi ham modaga moslab, xipchabel qilib tikdirilgan. A'zam ota yigirma yettiga kirgan bu kenjatoyini kuzda uylantirish niyatida. Bostirmadagi



qo'ylarni shu to'yga atab boqmoqda edi. Abror to'y maslahatiga chaqirishlarini kutib yurardi.

Biroq hozir A'zam ota hovliga g'amgin bir ko'z yugurtirib chiqdi-da, «uh» tortdi:

– Mulla Abror, bu hovli peshanamizga sig'maydigan ko'rinadi.

Abror Bo'zsuvga juda yaqin turgan bir qator hovlilarning ko'chirilishi haqidagi gaplarni zilzila paytidan beri eshitib yurardi.

– Yana o'sha eski gapmi? – dedi u otasiga.

– Gap bo'lib yurgani ham holva ekan, o'g'lim. Bugun ijroqo'mning qarorini olib kelib o'qib berishdi.

Abror boya Sayfulla Rahmonovichning kabinetida bo'lgan gaplarni eslab:

– Hali bu yerlarda qurilish bo'lmasligi kerak edi-ku, – dedi ukasi Shokirga.

Qurilishda prorab bo'lib ishlaydigan Shokir:

– Bizdan nariroqqa ko'prik tusharmish, – dedi. – Ko'prikning yuqorisidagi tepalikka allaqanaqa saroymi, qasr qurmoqchi emishsizlar-ku?

– Hali bu aniq emas. Nikoh saroyi quraylik degan taklif tushgan. Masala o'rganilyapti.

A'zam ota o'g'illarining gapiga birpas jim quloq solib o'tirdi-da, Abrorga umidlanib qaradi:

– O'g'lim, biron xatolik o'tgan bo'lsa oldini olinglar, – dedi. – Bu hovlilar bekorga buzilmasin.

– Bu hovlilar baribir ketadi, – dedi Shokir. – Eski Qashqar mahallasi, Turk yangi shahar, Chempion ko'chasi... E-he, Bo'zsuvning bo'yida biznikiga o'xshab turgan qancha hovlilar bor edi. Hammasi ketdi. O'rinlariga katta-katta ko'chalar, to'qqiz qavatli uylar tushdi. Qayta o'sha joylar ochilib, shahar yaxshi bo'ldi.

– Ko'prik bu yerga tushmaydigan bo'lsa, bizni ko'chirib nima qiladi? – dedi A'zam ota.



– Gap faqat ko‘prikda emas, – dedi Shokir. – Undan ancha beryoqlardagi qirg‘oqlarni ham ochishmoqchi ekan.

– Senga kim aytdi buni? – dedi Abror.

– Rejasini o‘zim ko‘rdim.

– Tasdiqdan o‘tibdimi?

– Ha, quruvchilar tasdiqdan o‘tmagan loyihani olishar-midi?

– Unday bo‘lsa tamom! – dedi Abror.

– To‘xtatishning iloji yo‘qmi? – so‘radi yana A‘zam ota.

Shokirning ensasi qotib:

– Qanaqasiga to‘xtatadi, ada? – dedi. – Abror akamning o‘zi ham: «Bo‘zsuv bo‘ylari – butun aholi dam oladigan joy-lar bo‘lishi kerak», deb ko‘p gapiradilar. Loyihalar chiza-dilar. Bu loyihalarning amalga oshishi uchun qirg‘oqlarda shaxsiy hovlilar bo‘lmasligi kerak-da.

– Shundaymi? – deb A‘zam ota o‘g‘liga tikilib so‘radi.

Otasining savolida: «Nahotki sen qilib yurgan ish-lar o‘zing tug‘ilib o‘sgan shu hovlining buzilishiga sabab bo‘lsa?!» degan ma‘no bor edi. Abror ukasi aytgan loyihani boshqa institutning odamlari chizganini otasiga tushuntir-moqchi bo‘ldi. Loyiha tashkilotlari ham ko‘p, biri qilayot-gan ishini boshqalariga ko‘pda aytavermaydi, ba‘zi narsalar sir tutiladi. Shu sabablarga ko‘ra, Abror Bo‘zsuvning shu qirg‘og‘ida qurilish bo‘lishini hozir ukasidan bildi. Bu unga juda og‘ir ta‘sir qildi. Lekin buni otasiga aytsa, gap may-dalashishini sezdi. Gapning po‘skallasi shu ediki, bugun tasdiqlangan loyiha o‘tganda ham, Abror chizgan loyiha o‘tganda ham bu uylarning buzilishi muqarrar edi. Abror shuni o‘ylab, og‘ir tin oldi:

– Menga ham kindik qonim tomgan shu hovli juda aziz. Buzilishini o‘ylasam mening ham ko‘nglim vayron bo‘lib ketadi. Lekin kuyib-yonishning foydasi bo‘lsa ekan! Bitta bizmizmi? Zilziladan keyin butun-butun mahallalar yangi uylarga ko‘chdi-ku?!



– Zilzilani bahona qilib buzmagani joylaring qolmayapti! – dedi Hanifa xola chorpoqa chetiga qo'lini qo'yib tikka turganicha. – Bu zilzila emas, bir baloyi azim bo'lgan ekan. Yetti yildan beri haligacha ko'ch-ko'chi tugamaydi-ya!

– Bu hovlilar zilzila bo'lmasa ham ko'chirilar edi, oyi, – dedi Abror mumkin qadar osoyishta tovush bilan. – Bundan o'n yil oldingi umumiy rejada ham Bo'zsuv bo'ylarini qaytadan obod qilish masalasi qo'yilgan edi.

A'zam ota Abror bilan Vaziraning shunaqa masalalarni ko'tarib chiqadigan odamlar ekanini o'yladi-yu, kuyunib gapirdi:

– Qaytadan obod qilaman deb, biz kovlagan qancha ariqlarni bekitdilaring! Men Toshkentda o'ttiz yil sug'orib o'stirgan daraxtlarni qirqadilaring. «Puf sassiq» deb bekitgan ariqlarningning o'rniga oqizib qo'ygan suvlaring qani? Yangidan obod qilgan bog'-rog'laring qani?!

Abror otasining ko'nglidagi dardni ich-ichidan yaxshi tushunsa ham uning hovurini bosish uchun:

– Asta-sekin hammasi bo'ladi, ada, – dedi. – Bu sohadagi kamchiliklarni biz o'zimiz ham tanqid qilib yuribmiz. Katta ishlar tez bo'lmas ekan-da.


A'zam ota zilziladan oldingi Toshkentni obod qilib tanilgan miroblardan edi. Uning qo'l ostida yangi shaharning ko'chalariga suv taraydigan yigirmadan ortiq odam ishlardi. Oqar suv bormaydigan ko'cha, kvartal, hovli yo'q edi. Umrida oqar suv ko'rmagan joylarga ham A'zam ota yo'lini topib, allaqayoqlardan aylantirib kelib, suv chiqargan va daraxt o'stirgan edi. Ba'zi mo'ysafidlar, «A'zam mirobga duo ketgan, suvni tepaga boshlasa ham oqib chiqib ketaveradi», deyishardi. Abror o'z otasining miroblik iste'dodiga qoyil bo'lgan paytlarida: «Bo'zsuvni ham hozirgi izidan shunday san'atkorona olib o'tganlar xalq orasidan chiqqan otam-daqa tug'ma miroblar bo'lsa kerak», degan gap ko'nglidan o'tardi.



A'zam ota mirobligida Toshkent ko'chalarida piyoda yurishni yaxshi ko'rardi. Yozda ikki chetidan sharqirab suv oqib turgan ko'chalarning yo'lkasidan – qator o'sgan baland daraxtlarning quyuq soyasidan yurgan sari yurgisi kelardi. Har bir ko'chaning suviga va daraxtini sug'orib turishga javobgar odam bo'lardi. A'zam ota yo'lkalardan piyoda borayotganda bironta ko'chaning chetidan ariqning tovuhi eshitilmay qolsa, darrov burilib borib qarardi. Ko'cha chetidan suv oqmayotgan bo'lsa yoki chanqab so'ligan daraxt ko'rinsa, A'zam ota darrov o'sha yerning suvchisini qidirib topardi.

Har bir suvchining ish joyi, ko'chasining chegarasi aniq. Ariq kimning chegarasidan urib ketgan bo'lsa yoki oldi bekilib, toshib chiqqan bo'lsa, A'zam ota o'sha odamdan darhol tuzatishni talab qilar, kerakli yordamini berardi. Ko'p o'tmay ariqdan yana suvning mayin shildirashi eshiti-la boshlardi-yu, A'zam otaning ko'ngli joyiga tushib, boshqa ko'chalarga o'tib ketardi.

U Gogol ko'chasiga ham ko'p borardi. Bir vaqtlar shu ko'chada ishlagan va yashagan Usmon Yusupov uni ta-nib qolgan edi. Yo'lkada duch kelib qolsa, A'zam ota bilan ko'rishib, so'rashib, Katta Farg'ona kanalini, Farhod GESi-ni birga qurgan yillarini eslab gaplashib qolishardi. O'sha qurilishlarda A'zam ota ariq qazib, cho'llarga suv chiqarib ordenlar olgan, bulardan birini Oxunboboyev, birini Usmon Yusupovning o'zi uning ko'kragiga taqib qo'ygan edi. Abror landshaft me'morchiligidagi xalq an'analarini yoqlab oldin-ga surayotgan g'oyalar unga otasidan o'tgan va mana shu Bo'zsuv bo'yida kechirgan hayotiga ildiz otib o'sgan edi. Endi bu ildizlarni tug'ilib o'sgan joyidan sug'urib olib keti-shi kerakligini o'ylasa vujudida og'riq qo'zg'alardi. Buning ustiga, A'zam ota o'g'lini shu ko'chirish-u qayta qurilishlar-ga sababchi bo'layotganlardan biri deb yozg'irmoqda edi.



– Bizning miroblik davrimiz o'tdi! – dedi u Abrorga armon to'la ko'z bilan qarab. – Hozir yer ostidan quvur qazib, purkagich bilan daraxt sug'orish odat bo'lyapti. Endi suvchi ham jo'n suvchi emas, islesar-suvchi bo'lyapti. Biz islesar bo'lolmay o'tdik. Lekin mana shu hovli... Hozir ko'karib, obod bo'lib turibdi... Biz ko'chgandan keyin senlar buni ham qancha vaqtgacha cho'l qilib tashlab qo'yanlar! Yo bironta temir-beton narsani olib kelib o'rnatasanlar! Men ana shunisiga kuyaman!

Abror qilt etib yutindi.

– Siz meni o'zim yomon ko'rgan odamlarga o'xshatmang, ada. Men mana shu Bo'zsuv bo'ylarini avvalgidan o'n barobar obod qilishga butun vujudim bilan intilyapman. Bugun ham shu to'g'rida direktorimiz bilan qancha tortishdim.

– Quruq gapdan nima foyda! – dedi Shokir yerga qarab. – Biz baribir ko'chishimiz kerak.

– Xo'p... endi... kvartirani qayoqdan olmoqchisizlar?

– Yunusobod tomondagi yangi massivdan berilar emish, – dedi Shokir.

Oilaviy maslahatning eng nozik qismi endi boshlanishini sezgan Hanifa xola chorpoyaning bo'sh tomoniga chiqib o'tirdi.

– Tayyorgina joy, – dedi Abror oyisiga qarab. – Qishda o'tin-ko'mir deb o'tirilmaydi. Issiq-sovuq suvi, gazi bor.

– Yozi-chi? – dedi Hanifa xola. – To'rtinchi-beshinchi qavatga chiqib tushishi-chi?

– Pastroq qavatdan so'rasak berishar, – dedi Shokir. U ham kvartira olish tarafdori ekanini Abror endi sezdi.

A'zam ota soqolining uchini chimchilab, boshini egib, jim o'tiribdi.

– Men shunday hovlini tashlab, yozda do'zaxga o'xshaydigan domga boramanmi? – dedi Hanifa xola. – To'y-ma'raka bo'lishi bor. Bizning uchovimizga ikkita xona



berisharkan. Unga nechta odam sig'adi? Ko'rpacha to'shab o'tiradigan ochiq sahni bo'lmasa!

– Balkoni bo'lar, – dedi Abror.

– E, qo'y o'sha semun balkonini! Bittasi senikimi? Chiqib o'tiray desang, ko'chaning changi bilan shovqinidan bezor bo'lasan... Kechasi nafasing qisilib uxlo olmay chiqasan!

– Bo'lmasa qayerga ko'chmoqchisizlar, ada?

A'zam ota boshini endi ko'tardi:

– O'g'lim, chol-kampir ikkovimizning necha kunlik umrimiz qoldi, Xudo biladi. Shu hovlida yashab o'tsam-u naryog'imizdagi Minor qabristoniga qo'yilsam, deb niyat qilgan edim, bo'lmaydiganga o'xshaydi. Biz onang ikkovimiz yerdan o'sib chiqqan daraxtga o'xshab qolganmiz, yerdan uzilsak, ko'pga bormay xazon bo'lamiz... Rost, uchastka olish mushkul, yangidan uy-joy qurishning tashvishi undan qiyin... Lekin qandog' qilaylik?

– Uchastka bermaguncha men bu uydan ko'chmayman! – dedi Hanifa xola gapni cho'rt kesib.

– Yaqin atrofda uchastka qolgani yo'q-da, – dedi Shokir. – Berishsa ham, Qurbaqaobodning naryoqlaridan – avtobus bormaydigan chekka joylardan berishadi. Men har kuni ishga qatnashim kerak.

– Abror bilan dadang kirib yaqinroq joydan so'rasin bo'lmasa! Axir dadalaring qirq yil Toshkentning xizmatini qildi. Oxunboboyevning o'zi dadangning ko'kragiga orden taqqanini ko'rganlar tirik yuribdi, so'rasa aytib beradi!

– E, gap ordenda emas! – dedi A'zam otaning ensasi qotib. – Hozir ordenni pesh qilib bo'larmidi?

– Shahar chegarasida bo'sh yer qolmayapti-da, – dedi Abror. – Ko'p qavatli uylar ham avvalgidan zichroq qilib qurilyapti. Uchastkaga yer qani? Hozir uchastka berish deyarli to'xtagan.

Hanifa xola o'g'liga zarda qilib:

– Bizga qolganda hammasini to'xtatasanlar! – dedi. – Lekin pulga olaman deganga uchastka to'lib yotipti!



Abror o'zini tutolmay keskinroq gapirdi:

– Bo'lmasa siz ham tayyorini sotib oling!

A'zam ota o'g'liga qarab:

– Bo'pti, olamiz! – dedi.

U buziladigan hovli uchun davlat hozir yaxshigina pul to'lashini odamlardan eshitgan edi. Kecha ijroqo'mning qarorini olib kelib ko'rsatgan odam hovlida qancha daraxt va tok borligini, uylarga qancha yog'och ishlatilganini, shiftlarga qancha vassa ketgani-yu, devorlar ichidan qanaqa sinchkorlik qilinganini hisoblab, o'zicha xomcho't qilib ko'rdi-da: «Kam deganda o'n ming, bo'lmasa o'n besh ming olasiz, ota», – deb ketdi. A'zam ota hozir buni o'g'illariga aytib o'tirmadi-yu:

– O'zimni garovga qo'ysam ham uchastka qilaman! – dedi. – Juda bo'lmasa, chala yotgan uchastkalardan sotib olaman. Poydevorlarini qilib, tashlab qo'ygan joylar bo'ladi.

Shokir yuragi bezillab dedi:

– Zaharday qimmat! Yana uni qidir, ol, rasmiylashtir, material top, qur... Undan ko'ra, keksa odamlar, tayyor kvartirada tinchgina turavermaysizlarmi?

– Sen o'zingning tinchingni o'ylasang, bor, kvartira olaver! – dedi A'zam ota. – Uchastkani men o'zim qilaman!

Shokir keksa otasini loyga solib qo'yib, o'zi kvartirada cho'zilib yotadigan yigitlardan emas edi. A'zam ota Abrorning ham yordam bermay turolmasligini bilardi. Shuning uchun o'z niyatini qattiq turib amalga oshirmoqchi bo'lar edi.

Shokir ota-onasini bu fikrdan qaytarolmasligini sezdi-da:

– Xo'p, – dedi. – Bu yerdan ikki oyda ko'chadigan bo'lsak... Uchastka bir yilsiz qurilib tayyor bo'lmaydi... To'qqiz-o'n oy qayerda turamiz?

Abror jim. Hanifa xola unga yer ostidan bir qarab oldi-da, ataylab katta qizini o'rtaga soldi:

– Mukambarnikiga borsak, boshpana berar, o'ldimi!



Mukambar to'rt bolasi va qaynonasi bilan to'qqiz qavatli uyning oltinchi qavatida turishardi. Kichik qizlari Risolatning Ko'kcha tomonda hovli-joyi bor, lekin u yaqinda birinchi farzand ko'rgan, Hanifa xola hali beshik to'yi qilib bergani yo'q. Shuning uchun uni tilga olmay qo'ya qoldi.

– Mukambar opamlar yetti jon, uch xonali kvartirada turadi, – dedi Shokir hayron bo'lib. – Buning ustiga, biz yana uch kishi qo'shilsak...

– Ko'ngil keng bo'lsa, sig'ishib ketaveramiz, – dedi A'zam ota.

Abror istehzoli kulimsirab dedi:

– Oyim hozirgina, «kvartirada turmayman», degan edilar-ku.

– Nima, uchastka bitguncha ko'chada turaymi bo'lmasa?! – dedi Hanifa xola achchig'lanib.

Abror ota-onasining kuyovlarinikiga sig'indi bo'lib bor-gilari yo'qligini sezib turardi. «Abrorday o'g'li turganda qizinikiga kelib tiqilishibdi-da!» degan malomat oilalarining sha'niga to'g'ri kelmasligini hammalari yaxshi bilishardi. Lekin onasi buni ochiq aytmadan gapni qizi orqali aylantirib olib kelayotgani Abrorning g'ashiga tegdi.

– Aylanma gapning nima keragi bor, oyi? – dedi u. – Qo'rqmang, ko'chada qolmaysiz! Bizning uy bor. Istagan xonalarigizni bo'shatib beramiz. Qancha vaqt tursalaringiz, marhamat.

A'zam ota o'g'lidan xuddi shu gapni kutgan edi:

– Ha, sen turganda kuyovniki bizga to'g'ri kelmaydi, o'g'lim, – dedi yengil bir so'lish olib.

Shokir akasining qanday og'ir vazifani bo'yniga olayotganini sezib turardi. Hanifa xola bilan Vaziraning munosabatlari yaxshi emas edi. Abror shu hovlida uylangan, Zafarlar ham shu yerda tug'ilgan, qozon-tovoq birga bo'lgan yillar davomida qaynona-kelin orasida ancha-muncha xafachiliklar bo'lgan edi. Axiyri Abror bilan Vazira alohida



kvartira olib chiqib ketishdi-yu, xiyla tinchishdi. Endi agar yana birga yashaydigan bo'lishsa, shunday keng hovlida chiqqan g'idi-bidi gaplar uchinchi qavatning kvartirasida battar ko'payishi mumkin.

– Xotining yana Maskopga ketibdimi? – dedi Hanifa xola.

U o'g'liga «bechora bolam» deganga o'xshab, achinib ko'z tashladi. Vaziraning otini aytmay, «xotining» deyishi bilan esa bolalarini tashlab safarlarda yurgan kelinidan norozi ekanini sezdi. Onasining mana shunaqa aralashish va tergashlaridan bezib qolgan Abror gapni qisqa qilib:

– Ha, ketgan, – dedi.

– Qachon qaytadi?

– Uch-to'rt kunda... Ada, bo'lmasa gap shu! Men ertaga kerakli joylarga uchrayman.

– Hammasini o'zing yana bir surishtirgin, o'g'lim. Ko'chirishi aniqmikin? Uchastka berarmikin, yo'qmi?

– Bo'pti, hammasini so'rab bilgandan keyin yana kelaman. Hozir menga javob...

A'zam ota o'g'illarini duo qilib, qo'lini yuziga surtdi.

– Omin, ishqilib, omadlaringni bersin! – dedi Hanifa xola ham yuziga fотиha tortib,

Abror so'ridan tushib, Zafarni ko'zlari bilan qidirdi:

– Zafar, qanisan?

Zafar bostirmaning orqasidan ola mushukni qo'llarida ko'tarib chiqib keldi.

– Axiyri topibsan-da... Yur, ketaylik. Mushukmi-itmi, darrov qo'lini tekkizadi.

– Dada, mushukni olib ketaylik!

– Yo'q! Joyiga qo'y!

– Nega?

– Hovliga o'rgangan, biznikida turolmaydi.

– Bo'lmasa, men qolay.

– Maktabing nima bo'ladi? Bu yer juda uzoq, borib kelolmaysan.

Nevarasining ketgisi kelmayotgani Hanifa xolaga yoqib tushdi:



- Tilingdan buving aylansin! Qola qol!

- O'qishi chatoq bo'ladi, - dedi Abror. - Chorak yakunlanadigan. Uch-to'rt kundan keyin kanikulga chiqadi. O'shanda kelar.

Zafar dadasining ketidan istar-istamas ko'chaga chiqdi.

Abror mashinasini yurgizayotib, ochiq darvozadan bir cheti ko'rinib turgan qadrdon hovliga ko'z tashladi-da, bexosdan uh tortdi. Ko'chish muammosining butun og'iri hozir go'yo otasining yelkasidan uning yelkasiga o'tgan edi. Tor ko'chaning o'nqir-cho'nqirida silkinib, mashina haydab borar ekan, uni goh ertaga kiradigan idoralari va uchraydigan odamlarining g'ami bosar, goh kvartirasidagi kabinetinimi, yotoqxonasinimi ota-onasiga qanday bo'shatib berishini o'ylab, tashvishi ortar edi. Hali u yoqda Shokir ham bor, uchovlari bir xonaga sig'ishmasa kerak. Demak, yana bir xonani Shokirga bo'shatib berishlari kerak. Qolgan ikki xonaga o'zlari qanday joylashishadi? Malika bo'y yetib qolyapti, alohida yotmasa bo'lmas... Hali bu gaplarga Vazira nima deydi?

Ertalab Abror xotinini kuzatgandagi noxush tuyg'ular endi go'yo uzoqlarda qolib ketgan va hozir boshiga tushayotgan tashvishlar qarshisida ahamiyatsiz bo'lib qolgan endi. Hozir u Vaziraga ko'nglini ochib gapirgisi, u bilan dardlashgisi, maslahatlashgisi kelardi.

Abror katta ko'chaga chiqqanda soatini yorug' tushayotgan tomonga tutib qaradi. O'n yarim. Moskvada hali yetti yarim. Vazira uyga telefon qilmoqchi edi. Ungacha balki Abror yetib borar?

U gazni bosib, mashinasini tungi ko'chalardan uchirib o'ta boshladi.



TO'RTINCHI BOB

Vazira «Rossiya» mehmonxonasining o'n birinchi qavatiga derazasidan Kreml ko'rinadigan ikki kishilik xonaga joylashdi. Hamxonasi – ellik yoshlardagi novcha va ozg'in latish ayol teatr jamiyatidan kelgan ekan, tushga yaqin chiqib ketdi. Vazira ustki kiyimlarini yechib karavotga endi cho'zilgan edi, bosh tomoniga qo'yilgan tumbochka ustidagi havorang telefon jiringlab qoldi. Vazira yotgan ko'yicha qo'lini cho'zib go'shakni oldi.

– Vaziraxon, joylar durustmi?

Vazira Sherzodning ovozi tanib, joyidan turib o'tirdi:

– Rahmat, yaxshi.

– Administrator maqtaganicha bormi?

Boya administrator Vaziraga o'n uchinchi qavatdan yomonroq joy bermoqchi bo'lganda Sherzod oraga tushgan edi. «Bizga har qanaqa xona ham bo'laveradi, lekin shunday go'zal ayolni o'ziga yarasha xonaga joylashtirmasangiz bo'lmaydi!» deb, hazil-mutoyiba bilan administrator ayolni yumshatgan edi. Administrator hozirgi xonaga qog'oz yozib berayotganda Vaziraga: «Mana, derazasidan go'zal manzaralar ko'rinadigan eng ajoyib xonada turasiz!» degan edi. Vazira shuni eslab:

– Maqtaganidan ortiq! – dedi. – Spasskiy minorasidagi soat ham ko'rinib turibdi. Soatimni shunga to'g'rilab oldim.

– Unday bo'lsa, tabriklayman!

Go'shakdan ovoz juda yaxshi eshitar, Sherzod yonma-yon turganday, nafas olishi ham sezilardi.

– Sizlar ham shu qavatdamisizlar? – dedi Vazira.

– E, so'ramang!

– Ha?

– O'n uchinchidamiz. Sherigim bu raqamni yomon ko'rar ekan. Ko'cha tomon shovqin. Derazadan ko'rinadigan manzara... Qandaydir bir cherkov.



– Menga yaxshilik qilaman deb, o'zingizga yomon bo'lib-di-da, Sherzod!

– Hechqisi yo'q. «Gilam sotsang, do'stingga sot, bir chetida o'zing o'tirasan», degan maqol bor. Taklif qilarsiz axir!

– Albatta!..

Sherzod Vaziraning: «Hozir kelavering», deyishini kutib bir lahza jim qoldi. Lekin Vazira uni o'ziga bu darajada yaqinlashtirishni istamas edi.

– Hozir hamxonam... dam olib yotibdi, – deb Vazira beixtiyor yolg'on gapirganidan o'zi o'ngaysizlandi.

– Mayli, zarari yo'q, – dadillanib dedi Sherzod. – Bo'lmasa, ovqatga chiqaylik.

– Yaqinda ovqatlangan edik-ku.

– Yo'lning ovqati nima bo'lardi? Men och qoldim.

– Sherzod, siz bahuzur ovqatlaning. Uzoq yo'l meni urintirganga o'xshaydi.

– Biror soat dam olasizmi?

– Ha, keyin kunning ikkinchi yarmida uchrashadigan odamlarim bor.

– Taksida olib borib qo'yaymi? A, Vaziraxon?

«Talabaligida ham shunaqa suykanchiq edi», degan o'y Vaziraning ko'nglidan o'tdi. U «suykanchiq» deb ataydigan yigitlar qiz bolaning ra'yiga qaramasdan, nuqul uni o'z yo'liga yurgizishga intilayotgandek bo'lardi. Bunday paytda Vazirada qarshilik qilish istagi kuchayib ketardi.

– Rahmat, Sherzod, sizning ham ishlaringiz ko'pdir. Xizmat yuzasidan kelganmiz. Har birimizning ixtiyorimiz o'zimizda bo'lishi kerak.

Sherzod sal shaxti qaytibroq dedi:

– Albatta, ixtiyor o'zingizda bo'lgani uchun so'rayapman-da. Unday bo'lsa, sizni kechki ovqatga kutaylikmi?

– Kutib ovora bo'lmang. kutish-putishlar bilan bir-birimizni bog'lab qo'ymay, erkinroq yuraylik. Mening dugalalarim bor. Tutilib qolishim mumkin.



Sherzod endi sal ranjib so'radi:

– Nima, shu bilan boshqa uchrasholmaymizmi?

– Nega endi? Bugun bo'lmasa erta bor. Menga telefon nomeringizni bering, bo'shasam o'zim qo'ng'iroq qilaman.

Sherzod yumshagan tovush bilan telefon nomerini ayt-di-da:

– Vazira, – dedi, – taxminan siz... qandaydir andishaga borayotganga o'xshaysiz.

Vazira gapni hazilga burib, Sherzodning odatiga taqlid qildi:

– O'zingiz «taxminan» tushunsangiz kerak.

– Tushunaman... Lekin siz... umuman shu eskicha andishalardan yuqori turadigan erkin qizlardan edingiz-ku, axir!

– Erkinlikning ham o'ziga yarasha chegaralari bor, – dedi Vazira.

– E, qo'ying, xo'jayiningiz sizni juda chegaralab tashlaganga o'xshaydi.

– Sizning ham xotiningiz bor. Abrorning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring-chi?

– Mening xotinim artistka, bir oydan beri gastrolda yuribdi. Men bir narsa debmanmi? Erki o'zida!

– Lekin shu erkning hayo degan bir chegarasi bo'lishini siz ham istasangiz kerak. Yo istamaysizmi?

Sherzod bir vaqtlar mana shu chegarani buzgan, Vazirani qorong'i yo'lakda kuch bilan quchoqlab o'pmoqchi bo'lganda qizdan qattiq shapaloq yegan, shundan keyin ikkovining orasi buzilib ketgan va Abror g'olib chiqib, Vaziraga uylangan edi. Sherzod hozir shuni esladi shekilli.

– Mayli, Vazira, bu narsalarni siz mendan yaxshiroq bilasiz, – dedi. – Men faqat talabalik do'stligimiz davom etishini istayman, xolos. Yoshimiz qirqdan oshib qoldi, odam odamga g'animatligini endi bilyapmiz.



Sherzod bu gaplar bilan Vazira ko'rsatgan chegarani go'yo tan oldi, uning ra'yiga qarashga so'z bergandek bo'ldi. Vaziraga bu juda yoqdi. Sherzodning do'stlik, g'animatlik haqida ovozi allanechuk olinib aytgan so'zlari esa Vazirada rahm-shafqatga o'xshash bir tuyg'u uyg'otdi. U endi Sherzodning ko'nglini ko'taradigan biron narsa degisi keldi:

– Odam odamga g'animatligi rost. Yo'lda siz bilan juda yaxshi keldik. Bir o'zim bo'lsam qancha qiynalar edim.

– Men ham bugun siz bilan vaqt qanday o'tganini sezmay qolibman, Vazira.

– Aytmoqchi, Katinov degan bir metrochini aytgan edingiz. Menga shunaqa mutaxassis kerak.

– Bo'lmasa, men uni bugunoq telefonda qidirib topaman. Ertaga sizga uchrashtirsam bo'ladimi?

– Ertaga boshqa ishlar bor. Balki indin...

– Bo'pti, Vazira, indin.

Gaplari shu bilan tugadi-yu, Vazira go'shakni joyiga qo'yib, yana karavotga cho'zildi. Sherzod unga izmini o'tkaza olmay oxirida yon bergani uchun Vazira o'zidan mamnun bo'lib kulimsiradi-da, choyshabni ustiga tortdi va ozgina mizg'ib olmoqchi bo'lib, ko'zini yumdi.

Boshining allaqayeridan hali ham samolyot motorining g'uvillashi eshitilib turganga o'xshardi. Vazira shu g'uvillashga quloq solganga o'xshab yotib, uyquga ketganini sezmay qoldi. Qanday yotgan bo'lsa, o'n besh daqiqa qimir etmay uxladi-yu, keyin birdan ko'zini ochdi. Ochiq derazadan shahar shovqinini yorib o'tib kelayotgan Kreml soatining salobatli zang chalishlari eshitildi.

Vazira bilagidagi soatiga qarasa, ikki yarim. U qushday yengil bo'lib o'rnidan turdi. Apil-tapil yuvinib, kiyindi-da, qora g'ilofni yengil sumkasi bilan birga qo'lga olib, ko'chaga chiqdi.

Shu zahoti qandaydir juda ulkan va tezoqar bir hayot daryosi uni o'zining kuchli to'lqinlariga qo'shib ketayotgan-



day bo'ldi. Ko'chada ham, avtobus yoki metroda ham, Vazira borgan loyiha tashkilotlarida ham yurish-turish, gap, muomala – hammasi qandaydir ichki bir chapdastlikni talab qiladi. Uzoqdan kelgan odamga Moskvada maroqli tuyuladigan narsa ko'p. Lekin e'tibor darhol aniq bir narsa ustiga jamlanmasa, ag'rayib, ivirsib qolinadi.

Vazira har gal Moskvaga kelganda bu shahri azimning ichki ritmiga o'rganguncha qilaman degan ishlarini qilishga ulgurolmay qiynalardi. Bugun u kech soat to'qqizgacha mehmonxonaga qaytib, uyga telefon qilmoqchi edi. Lekin arxitektura boshqarmasida ish kuni tamom bo'lguncha qolib ketdi. Olib kelgan loyihalarini Kiyev, Boku va Tbilisida qurilgan metrolarning loyiha ishlariga qatnashgan mutaxassislar ko'rib chiqishdi. Toshkent metrosining yerosti saroylari boshqa shaharlarning tajribasini hisobga olib qurilishi, ayni vaqtda, ularning takrori bo'lmasligi kerak edi. Arxitekturadagi milliy o'ziga xoslik bilan ilg'or zamonaviy ruh Toshkent metrosida yangi bir tarzda uyg'unlashishi kerak edi. Bu ishda har kimning fikri har xil, munozarali gaplar ham bor edi. Shuning uchun ertaga tushdan keyin hamma mutaxassislar bir joyga to'planib, Vazira maslahat so'rab kelgan masala bo'yicha kengashib oladigan bo'ldilar.

Bu mutaxassislardan ikkitasi – zilzila paytida uch oy Toshkentga borib ishlagan, Vaziralarning uylarida mehmon bo'lgan er-xotinlar edi. Ular ishdan keyin Vazirani Arbatdagi «Praga» restoranining qahvaxonasiga kechki ovqatga taklif qildilar. Ovqatdan keyin uni Qizil Maydon orqali «Rossiya» mehmonasiga piyoda kuzatib keldilar. Vazira ularni qo'ymay o'n birinchi qavatdagi o'z xonasiga olib chiqdi va chamadoniga solib kelgan handalaklardan birini so'yib berdi. Ketayotganlarida, qolgan ikkita handalakni gazetaga o'rab, erining qo'liga tutqazdi.

Ularni pastga olib tushib, kuzatib yuborgandan keyin Toshkentga telefon qilmoqchi bo'lib, soatiga qarasa, o'n



yarim bo'libdi. Toshkentda tungi bir yarim. Hamma uyquda. Abrorning bir uyqusi buzilsa, tuni bilan mijja qoqmay chiqadigan odati bor. Vazira shuni o'ylab, telefon qilishni ertaga qoldirdi. Lekin ertalab turib, telefon stansiyasiga buyurtma berib, Toshkentni olguncha Moskva vaqti bilan to'qqiz bo'ldi. Abror ishda bo'lsa kerak, Malika – o'qishda, Zafar ham o'ynab ko'chaga chiqib ketganga o'xshaydi. Go'shakni hech kim olmadi. Vazira telefonchi qizga Abrorning ishxonasidagi nomerini berdi. Lekin o'sha topda Abrorni direksiyaga chaqirishgan ekan...

Vazira kuni bo'yi ish bilan bo'lib, kechqurun magazinlarga kirdi, Zafar tayinlab yuborgan o'ziyurar tankni oldi. Malikaga platformali tufli qidirib, katta univermaglar yopilguncha yurdi, lekin topolmadi. Juda charchagan va och qolganini sezib, Stolesnikov tor ko'chasidagi qahvaxonaga kirdi-da, ovqat kutib uzoq o'tirib qoldi. U yerdan to mehmonxonaga yetib kelguncha yana soat o'ndan oshdi. Vazira Abrorning telefon kutib tajang bo'lishini ko'z oldiga keltirdi-da, shaharlararo telefon stansiyasiga qo'ng'iroq qilib, ertalab Moskva vaqti bilan soat beshga Toshkentni buyurtma qildi. «Qo'shnimga malol kelsa-kelar, nima qilay?» – dedi ichida.

Soat beshda mast uyquda yotganda telefon jiringlab qoldi. Vazira uyquli ko'zlarini uqalab go'shakni oldi-da, Toshkent bilan gaplashishga chog'landi.

– Toshkentni siz buyurtma qilganmidingiz? – Telefonistka qiz «ha» javobini olgan zahoti davom etdi: – Liniya ishlaymayapti. Buyurtmani boshqa vaqtga ko'chirasizmi?

– Ha. – Vazira tushgacha band bo'lishini o'yladi, – kunduz soat uchga.

– Buyurtma soat o'n beshga ko'chiriladi, – dedi telefonistka va go'shakni qo'ydi.

Vaziraning hamxonasi bevaqt uyg'otgan qo'shnisidan norozi bo'lganday, yotgan joyida asabiy bir ag'darilib oldi.



* * *

Vazira soat o'n ikkilarda Sherzodni metrochi Pavel Danilovich Katinovning kabinetida uchratdi. Ular ertalab telefonda shunga kelishgan edilar.

Pavel Danilovichning chap qulog'i ortiga eshitish apparatining uchi o'rnatilgan, undan pastga osilib turgan chiroyli oq shurning oxiri chap cho'ntagiga solib qo'yilgan. Suhbat paytida cho'ntagidan qutichani olib, gapirayotgan odamga yaqin qilib tutadi. Ellik yoshlardagi salobatli bu odam metro tunnellaridan birini qazish paytida yer ostida bo'lgan portlashdan keyin yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan. Shunga qaramay o'zini xushchaqchaq tutib, Vaziraga lutf qildi:

– Sizday ko'hlik ayollar ham metroning ishi bilan shug'ullanayotganidan behad xursandmiz!

– Rahmat. Lekin baribir biz sizlarning yordamingizga muhtojmiz. Hali tajribamiz oz.

Vazira shunday deb, Bo'zsuvning tagidan metro liniyasini qanday olib o'tish to'g'risida gap ochdi.

– Albatta, siz o'zingiz borib ko'rishingiz kerak, – dedi Vazira. – Men faqat bir narsani bilmoqchiman. Bu masala kun tartibiga qo'yilgandan keyin sizni konsultatsiya berishga taklif qilsak, Toshkentga besh-o'n kunga bora olasizmi?

– O'ylab ko'rishim kerak. Borgim keladi. Toshkentni ellik beshinchi yilda bir ko'rgan edim. Yana ko'rgim keladi.

– Bugungi Toshkent juda boshqacha, – dedi Vazira, Sherzod gapga qo'shildi:

– Pavel Danilovich, menda bir taklif bor. Bizning hozirgi uchrashuvimiz rasmiy uchrashuv emas. Menga boya telefonda Vazira aytdi. Naryoqdagi ishlari ko'nglidagidek hal bo'lipti. Buni nishonlash kerak. Suhbatni ishdan keyin dasturxon atrofida davom ettirsak. Pavel Danilovichni «O'zbekiston» restoraniga taklif qilsak, a, Vazira?



Vazira kechqurun begona erkaklar bilan restoranda o'tirish tashvishidan ko'ngli bezovtalansa ham, yo'q deyishga mehmondo'stlik tuyg'usi yo'l bermadi.

– Yaxshi bo'ladi! – dedi.

– Bilaman, «O'zbekiston»ning ovqati juda totli, – dedi Pavel Danilovich. – Lekin doim odam tirband. Joy topilarmikin?

– Bunisini menga qo'yib bering, – dedi Sherzod. – Istagan joyimizni olamiz!

Pavel Danilovich soatiga qaradi. Vazira uning biror sabab ko'rsatib, yo'q deyishini istardi.

– Sherzod Islomovich, kechqurun men teatrga tushadiganman.

Vazira birdan yengil tortdi, lekin buni sezdirmaslik uchun:

– Afsus! – dedi.

Sherzod Katinovdan ham ko'ra Vazirani restoranga olib borishga ishtiyoqmand edi.

– Pavel Danilovich, – dedi u, – tushki ovqatni birga qil-sak-chi?

– Restorandami? Ulgurolmasak kerak.

Sherzod soatiga qaradi:

– O'n beshta kam bir. Restoran bu yerga yaqin.

Vazira soat uchda mehmonxonada bo'lishi va Toshkent bilan telefonda gaplashishi kerakligini esladi.

– Men soat ikki yarimda shu yerda bo'lishim kerak, – dedi Pavel Danilovich.

– Bo'pti, sizni ikki yarimga yetkazib kelish bizga tan, a, Vazira?

Vazira, «ulgurish qiyin», deb e'tiroz qilgisi kelsa ham, odob yuzasidan:

– Ha-ha, – dedi.

Sherzod ko'chaga oldinroq chiqib, taksi tutib turdi. Birpasda Neglinnaya ko'chasiga – «O'zbekiston» restoranining oynavand eshigi oldiga borib, mashinadan tushdilar.



Zarrin hoshiyali qora kostyum kiygan darbon yopiq eshikka «o'rin yo'q» degan yozuvni osib qo'yib, o'zi uning ortida savlat to'kib o'tiribdi. Yigirmata-o'ttizta odam tashqarida navbat kutib turibdi.

Sherzod taksining pulini to'lar ekan, Vaziraga shipshidi:

– Mehmon bilan eshikka yaqinroq borib turing, men hozir kirib chiqaman.

U restoranda ishlaydigan odamlar kirib-chiqadigan orqa tomondagi eshikni bilar edi. O'sha yoqdan tanish bo'lgan zal mudirining ismini aytib kirdi. Ichkaridan mudirning o'zini topib, kichik zalga uch kishilik o'rin hozirlatadigan qildi. So'ng mudirni zaldan ko'cha eshigi oldiga boshlab keldi va oynavand eshik ortida turgan Vazira bilan Pavel Danilovichni ko'rsatdi. Mudir darbonga o'sha ikki kishini kiritish haqida ishora qildi. Darbon bosh irg'adi-yu, eshikni ochib, Vaziralarga yo'l berdi. Navbatda turganlar u-bu de-yishgan edi, darbon:

– Bu kishilarning o'rni ertalab buyurtma qilingan, – dedi-da, eshikni yana bekitib oldi.

Vazira o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan ko'rkam zalga kirganda oshxona tomondan zira solingan palov hidi keldi-yu, birdan ishtahasini ochib yubordi. Xontaxtalar qo'yilgan, guldor gilam va beqasam ko'rpachalar to'shalgan, derazalari ham shunga moslab bezatilgan bo'lmalar oldidan o'tar ekanlar, Pavel Danilovich:

– Hayron qolarli darajada go'zal! – deb qo'ydi.

Ular odam kamroq bo'lgan kichik zalga kirdilar.

Shunda zal mudiri kelib:

– Xush ko'rdik! – deb yengilgina ta'zim qildi va Vazira o'tirayotganda chapdastlik bilan stolni surib berdi.

Sherzod mudirga «Mehmonlarim juda nozik, bir qoyil qilasiz!» deb qattiq tayinlagan edi. Chaqqon yosh ofitsiant ular buyurgan narsalarni birpasda muhayyo qildi. Stol ustida xushbo'y ko'k choy damlangan qirmizi choynak va piyolalar, zarhal hoshiyali paxta gulli laganda parrak qilingan



qazi, so'lgildoq tandir nonlar, Toshkent suvi, besh yulduzli o'zbek konyagi, «Hosilot» va «Gulob» vinolari paydo bo'ldi.

Sherzod Vaziraga konyak quymoqchi bo'lgan edi.

– Yo'q, «Gulob» durust, – dedi Vazira.

Pavel Danilovich eshitkich apparatini qulog'idan olib, cho'ntagiga solib qo'ygan edi, Vazira unga yuzini yaqinlashtirib, ovozini ko'taribroq dedi:

– Pavel Danilovich, e'tibor bering, «Gulob» vinosini Toshkentdan topib bo'lmaydi. Juda kamyob.

– Shundaymi? Bo'lmasa men ham shundan boshlay qolay.

– Marhamat! – deb Sherzod kattaroq qadahlardan biri-ga mehmon uchun vino quydi. So'ng birinchi qadahni Pavel Danilovich uchun, do'stlik uchun, bundan keyingi hamkorliklari uchun ichishni taklif qildi.

Pavel Danilovich vinodan bir ho'plab ko'r-di-da, zavq bilan boshini chayqab.

– Bojestvenno!² – dedi. – Men bunaqa ajoyib vinoni faqat Parijda ichganman.

Shundan keyin u bilan Sherzod ikkovi Fransiyaga qanday safar qilganlarini eslab ketishdi. Konyak ichgan Sherzod samolyotda Vaziraga aytganlarini Pavel Danilovichdan tasdiqlatib oldi-da, keyin Yaponiyaga borganini takror gapira boshladi. U sal kayf qilganda xorijiy mamlakatlarga ko'p borganini aytib maqtanishni yaxshi ko'rardi. Pavel Danilovich buni sezdi chamasi.

– Yaponiyaning juda yorqin bir o'ziga xosligi bor, bu rost, – dedi. – Lekin bizning respublikalarimiz ham o'ziga xosligi bilan kishini hayratga soladi. O'zbekiston – mening tasavvurimda, takrori yo'q go'zal bir mamlakat. Sizlardagi tabiat manzaralarini, tarixiy obidalarni, kiyimlarni, taomlarni, kuylarni men boshqa hech joyda uchratganim yo'q. Hatto mana shu zaldagi o'ymakorliklar-u naqshlar, chinnidagi gullar, beqasam ko'rpachalar – hammasi menga zavq

² Xudolar ichsa arziydigan, ilohiy ichimlik» ma'yusida.



beriyapti. Men mana shu qadahni O'zbekiston uchun, siz o'zbek do'stlarim uchun ko'taraman!

– Rahmat, Pavel Danilovich!

Chnnni kosalarda qaylali mastava keltirildi. «Gulob» juda mayin tuyulsa ham, uning ta'siridan Vaziraning yonoqlari qizarib, ko'zlari parpirab yona boshladi. Sherzod Vaziraga vino, Pavel Danilovich bilan o'ziga konyak quydi-da:

– Menda bir taklif bor, – dedi. – Mana shu qadahni Moskva uchun ichsak. Biz hozir O'zbekistonda – o'z Vatanimizda o'tirganday bo'lyapmiz. Holbuki, hozir biz ulug' Rossiyada, Moskva shahridamiz. Qalbi daryo qardoshlarimiz O'zbekistonning mana shu bir bo'lagiga bag'rini ochib, saxiylarcha joy berganida ulkan bir ramziy ma'no bor. Men shu qadahni siz moskvalik do'stimiz uchun ko'tarmoqchiman!

Pavel Danilovich Sherzodga minnatdorchilik bildirib, konyak to'la qadahni oxirigacha ichdi. U allaqachon Vaziraning ismi-sharifini bilib olgan edi.

– Vazira Badalovna, agar taklif qilsalaringiz, Toshkentga albatta boraman! – dedi. – Toshkent metrosining ishiga qatnashishni o'zimga sharaf deb bilaman.

– Albatta taklif qilamiz! – dedi Vazira.

Sherzod yana qadahlarni to'ldirdi-yu:

– Pavel Danilovich, – dedi. – Biz Vazira Badalovna bilan birga o'qiganmiz. Mana, talabalikdagi do'stligimiz haligacha davom etyapti. Sizning huzuringizda Vaziraga bitta «sir»ni aytib qo'yimoqchiman. Metro liniyasini Bo'zsuvi tagidan olib o'tish masalasi meni ham juda qiziqtiradi. Ko'ngilga tugib yurgan ijodiy rejam bor.

– Yangilik-ku, – dedi Vazira kulib.

– Ha, bu rejani amalga oshirishda men ham hali Pavel Danilovichdan maslahatlar olmoqchiman.

– Marhamat, Sherzod Islomovich, men tayyorman!

– Pavel Danilovich, – deb Sherzod mehmon yaxshi eshitadigan darajadagi ovoz bilan gapirdi. – Siz hozir



bizning yurtimiz haqida aytgan hamma go'zal fazilatlar Vazirada ham bor.

Vazira uyalib yerga qaradi-yu, o'zbekchalab:

– Uncha mubolaga qilmang! – deb shipshidi.

– Mening samimiy e'tiqodim bu, – dedi Sherzod.

– Siz meni ham sehrlab qo'ydingiz, Vazira Badalovna! – dedi Pavel Danilovich.

So'ng Sherzod Vazira uchun qadah taklif qilganda Katinov o'rnidan turib:

– Bunday ajoyib ayollar uchun tikka turib ichiladi! – dedi. Sherzod ham sakrab o'rnidan turdi-da, qadahni oxirigacha bo'shatdi.

Chinni laganda zira hidi anqib turgan palov keltirildi. Sherzod Vaziraning qadahi to'la turganini ko'rib:

– Iching, iltimos qilaman, Vazira! – dedi yalingan tovush bilan.

Vazira uning ko'ngli uchun bir ho'plab qo'ydi. Sherzod oshdan oldin yana qadahlarni to'ldirdi-yu. Vaziraga, «endi so'z navbati sizdan!» degan ma'noda qarab qo'ydi.

Vazira qadahni qo'lga olib, past tovush bilan gap boshladi:

– Boshqalardagi fazilatlarni payqash uchun... qadrlash uchun...

Pavel Danilovich uning so'zlarini yaxshi eshitolmadi-yu, darrov cho'ntagiga qo'l solib, apparatini oldi va bir uchini qulog'i ortiga qistirdi. Vazira so'zini boshidan takrorladi:

– Pavel Danilovich, menimcha, boshqalardagi fazilatlarni payqash, qadrlash uchun odamning o'zida ham qandaydir yuksak fazilatlar bo'lishi kerak.

– Juda to'g'ri.

– Men sizni bugun birinchi marta ko'rgan bo'lsam ham boshqa odamlarning, boshqa xalqlarning fazilatlaridan suyunadigan oqko'ngil odam ekanligingizni sezib juda quvondim...

– Axir, boshqa odamlardagi, boshqa xalqlardagi fazilatlar bizning ham qalbimizni boyitadi.



– Bu fikringizni mening erim eshitsa, jon deb quvvatlab chiqar edi. Chunki u kishi ham arxitektor.

– O', hamkasb ekanmiz, albatta tanishamiz!

Abror oraga tushganidan Sherzodning hafsalasi pir bo'lib, o'zini kresloning suyanchig'iga tashladi-yu, Vaziraga uzoqdan sovuq nigoh tashladi.

– Toshkentga kelsangiz, sizlarni albatta tanishtiraman, Pavel Danilovich.

Sherzod muzday qotib o'tirganini Vazira endi sezdi va buning sababini faqmlab, gapni unga burdi:

– Men hozir bir o'zim ikkovlaringizning oralaringizda o'tiribman. Talabalik davridan beri birga qadrdon bo'lgan Sherzod Islomovich haqida ham gapirmoqchiman. Ruscha «jentlmen» degani bizdagi «jo'mard» so'ziga yaqin. Sherzod Islomovichda ana shunaqa jo'mardlik borligi – bugun birpasda mana bu ajoyib o'ltirishni tashkil qilganida ko'rindi.

Sherzodning yuzidagi muz go'yo bir lahzada erib, ko'zlari ichki olovdan chaqnab ketdi. Vaziraning ikki og'iz iliq so'zi unga shunchalik ta'sir qilgani Pavel Danilovichni hayratga soldi.

– Ajoyib! – deb qo'ydi u Vaziraning so'zlarini ma'qullab.

– Demak, men bu qadahni Pavel Danilovich, siz uchun, Toshkentda siz bilan yana uchrashishimiz uchun, Sherzod Islomovich uchun, bu kishining bugun aytgan katta ijodiy rejalari amalga oshishi uchun taklif qilaman.

Vazira o'zi taklif qilgan qadah uchun oxirigacha ichdi. Sal o'tmay badani qizib, boshi yoqimli aylanayotganini sezdi-da: «Mast bo'lib qolmay yana!» deb qo'rqdi va oshdan ko'proq yeyishga intildi.

Uchovlari xushchaqchaq kayfiyat bilan o'rinlaridan turganda soat ikki yarim bo'lib qolgan edi. Katta zalda o'tirgan odamlar orasida O'zbekiston quyoshida qoraygan, do'ppi va atlas kiygan odamlar ham ko'p edi. Yuzi lovillab turganini o'zi sezib borayotgan Vazira: «Gap qiladigan tanishlar uchramasin-da», dedi ichida.



Sherzod hisob-kitob qilish uchun zal mudirining oldida ushlanib qoldi. Uni vestibyulda kutib turganlarida Pavel Danilovich Vaziraga zavq bilan ko'z tashlab dedi:

– Siz menga juda yoqdingiz. Sherzod Islomovich ham ajoyib yigit.

Sherzod yetib keldi. Eshikdan chiqayotganlarida Pavel Danilovich:

– Men ikkovlaringizni xotinimga bir tanishtirgim keladi, – dedi. – Bugun kechqurun bo'shmisizlar? Biz bilan birga teatrga bormaysizlarmi?

– Boramiz! – dedi Sherzod darhol.

– Qaysi teatr? – ikkilanib so'radi Vazira.

– «Sovremennik».

– Ho'-o', bu teatr juda mashhur, spektakllariga bilet topish qiyin, – dedi Vazira.

– Men yordam berishim mumkin, – dedi Pavel Danilovich.

Vazira yana noiloj qolib:

– Yaxshi bo'ladi, – dedi.

Taksi topib, avval Pavel Danilovichni ishxonasiga olib bordilar. Vazira Sherzodni shu yerda bilet topish uchun qoldirmoqchi, o'zi tezroq mehmonxonaga qaytmoqchi edi – Toshkentni telefonga chaqirgan vaqti o'tib bormoqda edi. Sherzod, «Pavel Danilovich bilan tushib qolaymi?» deb bir ikkilandi-yu, lekin Vaziradan ajralgisi kelmadi:

– Sizni o'zim olib borib qo'yaman, – dedi. – Pavel Danilovich, sizga mehmonxonadan telefon qilaman.

Taksida Kremlni aylanib o'tib, «Rossiya»ga qarab borar ekanlar, Sherzod oldingi o'rindagi Vaziraga orqadan yuzini yaqin keltirib gapirdi:

– Qalay, xursandmisiz?

Uning gap ohangidan: «Ziyofat siz uchun edi!» degan ma'no anglashilib turardi. Vazira unga o'girilib qaradi:

– Ancha tashvish chekdingiz-a?

– Men uchun bu tashvish emas! Aksincha... Meni hali bilmaysiz, Vazira.



– Nimaga?

– Men yoshlikda qilgan xatoimning jazosini tortib yuribman.

– Qaysi xatoni aytyapsiz?

– Sizni qo'ldan boy berganim... Boshqaga uylanib, armon qilib yurganim...

Vazira Sherzodning shunday armonlar qilishini yigirma yoshli talaba qiz ekanida juda-juda istar edi. Bu istak shuncha yildan keyin mana endi amalga oshdi-yu, uni bir lahza o'sha unutilmas qizlik davriga qaytarganday bo'ldi. Sherzod ham yigirma yoshida, Vaziraga endi oshiq bo'lib yurgan bo'z bola yigitdek ko'rindi. Vazira qalbiga quyulib kelgan bu yoqimli tuyg'uning tagida qandaydir xatar borligini sezdi-yu, e'tiroz uchun so'z qidirdi.

– Sherzod, siz... sizning ajoyib xotiningiz bor. Men u kishini sahnada ko'p ko'rganman. San'ati odamni sehrlab oladi. «Sahna yulduzi» deb maqtashlari bejiz emas.

– Yulduzning issig'i yo'q, Vazira. Sovuq!

Vazira kulib gapirdi:

– Xotinlarni «zaifa» deyishadi. Xotinidan shikoyat qilgan odam menga shu zaifadan ham zaifroq ko'rinadi.

– Men bu gapni uning o'ziga ham aytaman, Vazira. Uzoqdagi sovuq yulduz bo'lgandan ko'ra, shamday iliq bo'lib, bir bechoraning kulbasini yoritgan yaxshi emasmi?

– Nahotki siz o'zingizmi shunaqa bir bechora deb bilsangiz?

Sherzod o'rta yashar qo'ng'iroqsoch taksichiga qarab qo'ydi. O'zbekcha gaplashayotgan Vazira bilan Sherzodning so'zlarini taksichi tushunmas edi. Shuning uchun Sherzod yana ko'nglini ochib gapirdi.

– Tashqi ko'rinishdan bechora emasman, Vazira, hamma narsam bor. Lekin dilim, ichki dunyoim siz bilan birga bo'lganimda shunday ravshan tortib, haroratga to'lib ketadiki, o'zim ham hayron bo'laman. Sizda shunaqa bir joziba bor, yoningizda yurganimda men ham go'yo pokroq, yax-



shiroq bo'lib qolaman. Agar o'shanda men sizni boy bermaganimda, hayotim hozirgidan ming barobar go'zalroq bo'lishini mana endi tushunyapman, Vazira!

Vaziraning qora ko'zlari pirpirab yonib ketganini ko'rgan Sherzod so'zining bekor ketmaganini sezdi. Lekin Vazira o'zinn bosiq tutishga intilib:

– Sherzod, endi taqdirlarimiz hal bo'lgan, – dedi. – Bunga tan berishdan boshqa iloj yo'q.

– Tushunaman... albatta...

Vazira o'z javobining Sherzodga og'ir botganini sezib, gapini sal yumshatishga intildi:

– Lekin talabalik do'stligimiz yo'qolmaydi... Mana, hozir ham safarda birgamiz... Siz balki metroning tunnelini Bo'zsuvning tagidan o'tkazishga ko'mak berarsiz.

Sherzod gapning ish mavzusiga burilib ketganidan xiyol esankirab, yuzini ishqaladi-da, xayollarini boshqa nuqtaga yig'ishga tirishdi:

– Buni men sizga keyin aytib beraman, Vazira. Bo'zsuvga yangi o'zan qazish rejasi bor. Egri-bugri eski o'zanning o'rnida gulzor yo'lkalar bo'ladi. Katta yer maydoni tejab qolinadi.

Vazira Abrorning Bo'zsuvga oid loyihalarini esladi. Lekin Sherzod aytgan gaplar qirg'oqning biror chaqirim joyini o'zgartirishi mumkin. Qolgan qismlarini Abror o'z loyihalari bo'yicha obod qilaverishi mumkin.

– Fikringiz menga qiziqarli tuyulyapti, – dedi Vazira, – Anhor bo'yida hali qiladigan ishlar juda ko'p. Hammaga yetadi.

– Men sizning mana shu bag'rikengligingizga tan bera-man-da, Vazira!

Taksi ancha vaqt aylanib yurib, ko'prikning taglaridan o'tib, nihoyat, mehmonxona oldiga kelib to'xtadi. Vazira ichkariga kirayotganda devordagi katta soatning uchdan oshib ketganini ko'rdi va liftga tomon shoshildi. Vazira kalta yengli guldor kremplin ko'ylak kiygan edi. Sherzod sekin uning bilagidan oldi-da:



– Qani, endi maqtalغان xonangizga kuzatib qo'yaymi? – dedi.

U Vaziraning xonasiga kirib, taksida boshlagan armonli va sirli gaplarini davom ettirishni istardi. Vazira o'z bilagida Sherzodning qo'lidan chiqayotgan taftni his qildi.

– Aytmoqchi, siz bilelga bormoqchi edingiz-ku, – dedi Vazira va bilagini sekin uning qo'lidan chiqarib oldi.

Sherzod Vazira bilan teatrga birga tushishni ko'z oldiga keltirdi-da, mamnun jilmaydi:

– Ha, xo'p, bileltni olib kelgandan keyin kirarman. Unga-cha dam oling.

U Vazirani o'n birinchi qavatda tushirib qoldirdi-da, yuqorigi qavatning tugmasini bosdi.

Vazira xonasining eshigiga kalit solayotganda, ichkaridagi telefonning uzun-uzun jiringlayotganini eshitdi. Shosha-pisha kirib, go'shakni oldi. Telefonistka qiz:

– Toshkentni siz buyurtma qilganmidingiz? – dedi. Ha javobini olgach, jerkidi: – Nega buyurtma qilgan vaqtingizda xonada bo'lmaysiz? Toshkentni ikkinchi marta chaqiryapman!.. Allo, Toshkent!.. Bu – Moskva, gaplashing!

– Kim bu? – dedi Vazira. – Abrormisiz?

Go'shakdan ingichka ovoz keldi:

– Oyi, men Malikaman!

– Dadang yo'qmi?

– Yo'qlar. Nega ikki kun telefon qilmadingiz? Dadam ko'p kutdilar.

Ovoz aniq eshutilmoqda edi. Malika allanarsadan o'pkasi to'lib, yig'lamsirab gapirayotganga o'xshadi. Vazira tikka turgan ko'yicha o'zining band bo'lib qolganini, ertalab liniya ishlamaganini aytdi-da:

– Tinch o'tiribsanlarmi? – dedi. – Dadang ishdami? Zafar qayerda?

– Zafar... Zafarni, – deb Malika tutilib-tutilib gapirdi, – dadam... olib ketibdilar.

– Qayoqqa olib ketibdi?



– Anaqa... men maktabda edim... Qo'shnimiz Sohiba xola aytdilar... Oyi, qachon kelasiz?

Malika bu savolni yig'lamsirab berganday bo'ldi.

– Malika, nima gap o'zi? Zafar kasal bo'ldimi?

– Yo'q. Zafar dadamning gapiga kirmadi. Men ham yuz marta aytdim. Bizning hovlida qurilish. Zafar nuqul boshqa hovlilarga borib o'ynadi.

– Biron hodisa bo'ldimi?

– It qopipti.

– Egasi yo'qmish. Daydi it ekan. Zafar itning boshini silamoqchi bo'pti. Achchig'i chiqib turgan ekan, qopib olibdi.

– Qo'lidanmi?

– Yo'q, sonidan.

Vazira kalta shorti kiyib yuradigan murg'ak o'g'lining yalang'och oyog'idan daydi it qanday qopganini ko'z oldiga keltirdi-yu, tizzalaridan darmon ketib, oyog'i paxtadan qilinganga o'xshab qoldi. U to'shakning bir chetiga o'tirdi-da:

– Ahvoli og'irmi? – dedi.

– Bilmayman. Dadam doktorga olib ketibdilar.

– Kasalxonagami?

– Bilmadim. Dadam telefon ham qilmayaptilar. Ketganlariga uch soat bo'libdi. Sohiba xola aytdi.

– Nima, it quturgan emishmi?

– Hech kim bilmaydi. Tekshirisharmish.

– Qurib ketsin hammasi, – dedi Vazira. – Bu balo bizga qayoqdan qarab turgan ekan-a?!

– Qachon kelasiz, oyi? – deb Malika o'pkasi to'lib so'radi. U ham bir o'zi uyda juda yolg'izsirab o'tirgani va ukasini it qopganidan qo'rqib qolgani sezilib turardi.

Vazira mo'ljallagan ishlarini bitirgan, ertaga kunduzi magazinlarga borib, kechqurun aeroportga chiqmoqchi edi. Lekin hozir onalik tuyg'usi boshqa hamma narsadan ustun keldi-yu:

– Men bugun aeroportga chiqaman! – dedi. – Malika, dadangga ayt, yo kechasi, yo ertaga ertalab yetib boraman. Meni kutishga chiqib yurmasin. Zafarga ehtiyot bo'linglar!



Malika tetiklangan tovush bilan:

– Xo‘p, oyijon, hammasini aytaman, – dedi. – Zafar ham xursand bo‘ladi. oq yo‘l sizga! Tezroq keling!

Vazira go‘shakni qo‘yganda chanqab, og‘zida nam qolmaganini sezdi. Stol ustida yarim shisha «Borjomi» turgan edi. Shundan bir stakan quyib ichdi-yu, boyagi ziyofatni va Sherzodning taksida aytgan gaplarini esladi. Murg‘ak o‘g‘il-chasi u yoqda unaqa ahvolga tushsa-yu, Vazira restoranda vino ichib kayf qilib yursa... Uning o‘zini ham nimadir qopganday vujudi zirqirab ketdi. Chamadonini ochib, narsalarini tez-tez yig‘ishtirishga tushdi.

Bir vaqt eshik sekin taqilladi-yu, Sherzodning:

– Mumkinmi? – degan sho‘x tovushi eshitildi.

– Kiring.

Sherzod qo‘lida ikkita teatr biletni qilpillatib kirib keldi. Avval ochiq derazadan tashqariga qarab:

– O-o, shohona joylar-ku! – dedi. – Mana, biletlar tayyor!

Vazira chamadon yig‘ishtirishda davom etar ekan:

– Menga hozir samolyot bileti kerak, – dedi.

Sherzod uning avzoyi butunlay o‘zgarib ketganini endi payqadi. Ochiq turgan chamadonga bir qarab oldi-da, kayfi uchib:

– Nima bo‘ldi? – dedi.

Vazira hammasini aytib berdi.

– Siz xavotirlanmang, – dedi Sherzod. – Bolaligimda meni ham it qopgan. Hech nima qilmaydi. Bugun spektaklni ko‘raylik. Ertaga o‘zim kuzatib qo‘yaman.

– It quturgan bo‘lishi mumkin. O‘n yashar bola... Yo‘q, mening ko‘nglimga spektakl sig‘maydi. Pavel Danilovichga uzrimni aytsangiz tushunar, Men hozir aeroportga chiqaman.

– Samolyotga biletni qanday olasiz?

– Borib iltimos qilmoqchiman.

Sherzod Vazirani qaytarib bo‘lmasligini sezdi-da:

– Unday bo‘lsa, men birga boraman, – dedi. – Bilet topolmay qiynalasiz.



– Aeroport uzoq, spektaklga yetib kelolmaysiz. Siz qoling. Pavel Danilovich xafa bo'ladi.

Sherzod soatiga qaradi.

– To'rtidan oshibdi... Chatoq bo'ldi-da... Aytmoqchi, shoshmang! Pospredstvoda bir o'rtoq bor edi. Men qo'ng'iroq qilib ko'ray-chi.

– Marhamat, – deb Vazira havorang telefon apparatini Sherzodga tomon surib qo'ydi. Sherzod tikka turgan ko'yicha O'zbekistonning Moskvadagi vakolatxonasiga telefon qilar ekan, Vaziradan:

– Deputatsiz-a? – deb so'radi.

Vazira iymanibroq javob berdi:

– Rayon Kengashiga. Buni aytib o'tirmang.

– Nega? Toshkentning har bir rayoni oblast shaharlari-mizga teng keladi.

Sherzod vakolatxonadagi tanishini telefonda topib, uzoq so'rashdi, Toshkentdagi yor-do'stlardan salomlar topshirdi-da, keyin maqsadga o'tdi:

– Sizdan bir iltimosimiz bor. Deputat o'rtoq A'zamova shu bugun kechki reys bilan Toshkentga uchishlari kerak bo'lib qoldi. Siz ham eshitgan bo'lsangiz kerak, Vazira Badalovna A'zamovani ko'pchilik taniydi... Telefon qilib qo'ysangiz... Ha, Domodedovoga-da. Ha-ha... Deputatlar xonasigami?.. Juda soz! Rahmat!

Sherzod go'shakni qo'yib, Vaziraga yuzlandi.

– Bo'ldi, to'g'ri deputatlar xonasiga kirasiz.

– Hujjat so'rashsa qandoq qilaman? – dedi Vazira.

– Vakolatxonadan telefon qilishgandan keyin hujjat tekshirib o'tirishmaydi. Juda zo'r kelsa, rostini aytasiz, tushunishadi. «Zarur bo'lsa, ma'zur bo'lsin», degan gap bor-ku.

Vazira chamadonini bekitdi va toshoyna oldida turgan atir-upasiga qaradi. Sherzod uning oynaga bog'liq ishlari borligini, o'zi yolgiz qolishi kerakligini sezdi-da:

– Xo'p, pastda taksi tutib turaman, – dedi. So'ng chamadonni dastasidan oldi: – Men turganda buni siz ko'tarsangiz bo'lmas.



Vazira uning hushyorligi va mehribonligini yoqtirib:

– Rahmat, Sherzod! – dedi.

O'n daqiqa o'tar-o'tmas Vazira ham pastga tushdi. Sherzod ko'chada bitta taksini to'xtatib turgan edi. Vazira unga qo'l berib xayrlashar ekan:

– Borgandan keyin qo'ng'iroq qiling, Sherzod, – dedi.

– Bugun aytgan loyihangiz meni qiziqtirib qo'ydi. Rejaga kiritishimiz mumkin.

Loyihani reja kiritish oson emas, lekin bu Vaziraning qo'lidan kelishini Sherzod biladi. Shuning uchun Vaziraning so'nggi so'zlari uni quvontirib yubordi. U Vaziraning qo'lini qo'yib yubormay, yuziga zavq bilan tikildi. Vaziraning xushbichim panjasini lablariga bosib o'pdi-da:

– Yaxshi boring! – dedi. – Toshkentda ko'rishguncha xayr!

BESHINCHI BOB

Ustaxonada Abrorning ishlari tiqilinch kelib turganining ustiga ota-onasining ko'chishi-yu, uchastka olish muammosi qo'shilib, uydagi bolalariga durust qaray olmay qoldi. O'g'lini it qopganini ham rayijroqo'mning oldida uchrab qolgan hammahallasidan eshitdi. Abror ichkariga kirmay, darhol mashinasiga qaytib o'tirdi va uyga qarab shoshildi.


Kvartiralar berik, Malika hali o'qishda, Abror ro'paradagi qo'shnilarinikiga qo'ng'iroq qildi.

Ranglari oqargan Zafar o'sha yerda o'tirgan ekan.

Dadasini ko'rib, bolaning lablari pir-pir uchdi-yu, ko'zida yosh g'iltilladi. Tizzasining yuqorirog'iga – itning bitta tishi botib, qonagan joyiga qo'shnilar yod surtib, bint bog'lab qo'yishgan ekan. Abror o'g'lining ustiga engashib:

– Yomon og'riyaptimi? – dedi.

Zafar yig'lamsirab bosh chayqadi. Buning og'rig'idan ham ko'ra boshqa bir narsa bolani qo'rqitgan va ezgan edi.



U narigi hovlida uchta bola tosh otib quvlab yurgan silliqqi-na oq-sarg'ish itga rahmi kelgan, «Urmanglar, men buni boqib olaman», degan, so'ng itga yaqin borib, uni erkalatmoqchi bo'lgan. It esa tosh otgan narigi bolalarning alamini Zafardan olganday, birdan vovillab, uni qopib olgan, bola chinqirganda dumini qisib qochgan.

Abror o'g'lidan voqeani so'rab bilgach, uning boshini ushlab ko'rdi.

– Isitmang yo'q, qo'rqma, yarang tuzalib ketadi, – deb ko'nglini ko'tardi. – Uzing ham bolalik qilibsanda. Bobongning hovlisidagi it-mushuklarni erkalatsang mayli, ular seni taniydi. Begona itga yaqin borib bo'ladimi?

Itga yaxshilik qilmoqchi bo'lib shu ko'yga tushgan Zafarning ko'zlarida yana yosh halqalandi.

– Mayli endi, bo'lari bo'pti, – dedi Abror va qo'shni xotina murojaat qildi, – Sohiba opa, rahmat sizga. biz yo'gimizda Zafarga qarabsiz.

– Voy, arzimaydi. Bola bechora bugun endi kanikulga chiqqan edi-ya? Ishqilib, it o'lgur quturgan bo'lmasin deng!

– U la'natini siz ham ko'rdingizmi, Sohiba opa?

Semizligidan xiyol lapanglab yuradigan Sohiba opa:

– Ha, ko'rdim, laychadan sal kattaroq, – dedi-da, gapga tushib ketdi: – Otini aytib chaqiray desam, oti o'lgurni hech kim bilmaydi. Birov: «Qishloqdan kelgan», deydi. Birov: «Narigi mahalladan», deydi. Egasining hovlisi buzilgan-mishmi-ey. Domdan kvartira olib ko'chib ketgan bo'lsa, iti qolgandir-da. Uchinchi-to'rtinchi qavatlarda it asrab bo'ladimi? Biz ham domga ko'chganimizda itimiz ko'chada qolgan. Kerak bo'lmagandan keyin nima qilasiz? Bir vaqtlar eshak kerak bo'lmay qolib, hamma yoqda egasiz eshaklar sang'ib yurardi. Hozir egasiz itlar sanqib yuribdi. Kasal-mi-sog'mi, kim biladi? Siz Zafarjonni doktorga bir ko'rsating.



Itning kasali bo'lsa, qopgan joyidan Zafarga qanday yuqishini ko'z oldiga keltirganda Abrorning ko'ngli ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Lekin bolani qo'rqitmaslik uchun unga buni aytmadi-yu, qo'lidan olib, o'zlarining kvartiralariga boshlab kirdi.

– Zafar, sovutkichda qatiq bor, shuni olib ichib turgin. Men bir joyga telefon qilaman.

– Xo'p, dada.

Abror poliklinikadagi tanish vrachiga telefon qilib, hamma gapni aytib berdi-da:

– Endi nima qilay? – deb maslahat so'radi. Itning day-diligini eshitgan vrach:

– Yaxshi bo'lmapti-da, – dedi. – Bolaga qirqta ukol qilish-lari mumkin. Qornining ostiga qilinadi. Juda og'ritadi-da.

– Axir it quturgani ma'lum emas-ku!.. Boshqa yo'li yo'qmi?

– Boshqa yo'li – itni darhol tutib veterinarlarga ko'rsatish kerak. Agar ular tekshirib, kasal emasligini aniqlashsa, ukol qilmasliklari mumkin.

– Ungacha Zafarni bir ko'rasizlarmi?

– Bizmi? Yo'q, buni ko'radigan maxsus poliklinika bor.

– Qayerda?

– Samarqand darvoza orqali boriladi. Oqtepaga yet-masdan chap qo'lda. Tezroq olib boring. Avval stolbnyakka qarshi ukol qilishlari kerak. Lekin it yo'qolib qolmasin. Uni ushlab, bog'lab qo'yish kerak.

– Boshimiz rosa baloga qolipti-ku, a?

– Xatari yomon-da. Oldi olinmasa, keyin qutqarib bo'lmaydi.

– Xo'p, maslahat uchun rahmat.

– Abror go'shakni qo'yib, boshini changallaganicha birpas o'ylanib turdi. Veterinarlarni qayerdan topadi? Av-val itni ushlab bog'lab qo'yishi kerak. Naryoqda ishi qolib ketyapti. Abror yana go'shakni oldi-yu, ustaxonaga telefon



qildi. Tinchlik ekan, hamma o'z o'rnida Abror topshirib kelgan ish bilan band ekan.

– Men biroz ushlanib qolsam kerak, – deb Abror go'shakni olgan Farhodga voqeani aytib berdi.

– Bo'pti, bu yerdan xotirjam bo'ling, – dedi Farhod.

Abror oshxonada qatiq ichib o'tirgan o'g'lining oldiga keldi. Ko'ngli xufton bo'lsa ham, ovozigga quvnoq tus berishga tirishib:

– Qalay, durustmisan, mulla Zafar? – dedi.

O'zini endi sal bosib olgan Zafar uyalinqirab:

– Yaxshi, – deb qo'ydi.

Tushlik payti bo'lgan, lekin Abrorning hech narsa yegisi kelmas edi. Hali kechgacha yugur-yugur ko'p bo'lishini o'ylab, bir stakan qatichni tikka turganicha ichdi. Ustidan choynakda qolgan sovuq choyni piyolaga quyib simirdi. Keyin balkonga chiqib, kir yoyish uchun bog'langan pishiq chilvirni yechib oldi. Sovutkichdagi kolbasadan uch-to'rt parrak kesib qog'ozga o'radi.

– Qani, yur, Zafar, o'sha itni menga ko'rsat.

Zafar otasining niyatiga tushunolmay hayron bo'lib o'rnidan turdi. Ota-bola pastga tushib, mashinaga minishdi. Abror mashinasini katta yo'lning naryog'iga o'tkazib, to'rt qavatli uyning soyasiga qo'ydi, ikkovlari mashinadan tushib, o'sha uyning naryog'idagi hovliga kirdilar va daraxtlar soyasida o'ynab yurgan bolalardan so'rab-so'rab, itni axiyri topdilar. Quloqlari va dumi ingichka oq sarg'ish it asfaltda ko'llab yotgan suvni tili bilan «shilt-shilt» yalab ichmoqda edi. Undan sal nariroqda – birinchi qavatning derazasiga yaqin qo'yilgan chorpoyada kekxa bir odam o'zini teraklarning soyasiga solib o'tiribdi. Abror unga salom berdi-da:

– Otaxon, men shu itni ushlab bog'lab qo'yishim kerak, – dedi. – Hech kim buning otini bilmayapti. Mabodo siz eshitganingiz yo'qmi?



– Oq-sarg‘ish itchami? Bir eshitganday bo‘luvdim-a. Esim qursin! Orqa oyog‘iga qarang, panjasidan yuqorirog‘ida bit-ta ortiqcha tirnog‘i bormi?

Abror tikilib qarab:

– Bor, – dedi.

– Bo‘lmasa, oti Sirtlon bo‘lishi kerak, – dedi chol. – Bitta tirnog‘i ortiq itlarga shunaqa ot qo‘yishadi.

Abror itga yaqin borar ekan, iloji boricha mayin tovush bilan:

– Sirtlon, Sirtlon! – deb chaqirdi.

Qochib ketayotgan it birdan to‘xtab o‘girilib qaradi.

– Ma, Sirtlon, ma! – deb Abror unga ikki parrak kolbasa tashladi. It kolbasaga intildi. Shunda Abror chilvirni uning bo‘yniga to‘g‘rilab yaqiniga bordi Zafar uzoqdan turib:

– Dada, tegmang, sizni ham qopadi! – dedi.

Abror unga jim deganday, qo‘l siltadi. «Qopsa nima qilaman?!» degan o‘ydan Abrorning ham yuragi uvishib ketmoqda edi. Daydi itga qo‘l tekkizishdan juda jirkanardi. Lekin o‘g‘li uchun shuni qilmasa bo‘lmasligini sezib turardi. Itning nomi topilgani unga dalda berdi. Qayerdadir: «Quturgan it suvdan qo‘rqadi, hech narsa yemaydi», deb aytgani esiga tushdi. Sirtlon esa boya ko‘lmakdan suv ichdi, hozir Abror tashlagan kolbasani yeyapti. Abror shuni o‘ylab dadillandi:

– Sirtlon... Sirtlon... Mana hozir... Sirtlon... yot! Jim yot! Sirtlon...

Abror itni past tovush bilan avrab, bo‘yniga sekin chilvirni ikki qavat qilib bog‘ladi. Bir vaqt it o‘zini orqaga tashladi. Lekin Abror chilvirning ikkinchi uchini mahkam tutib turardi.

Chorpayada o‘tirgan mo‘ysafid Abrorning itni dadil tutib bog‘laganini yoqtirdi-da, kulimsirab so‘radi:

– O‘g‘lim, buni boqib olmoqchimisiz?

– Yo‘q, otaxon, bu it o‘g‘ilchamizni qopibdi. Endi buni vetvrach tekshirib ko‘rishi kerak ekan. Men hozir mashi-



nada borib vetvrachni olib kelmoqchiman. O'shangacha bu itni daraxtga bog'lab qo'ysam, bolalar bo'shatib yuborish-masmikin?

– Yo'q-yo'q, hech kim tegmaydi, men o'zim qarab tura-man, – dedi mo'ysafid Abrorga allanechuk qayishib.

– Rahmat, otaxon, – deb Abror chilvirning uchini chetki daraxtga mahkam bog'ladi-da, qolgan ikki parrak kolbasani ham itning oldiga tashladi.

Hovlining o'rtasida kichkina favvoracha bor edi. Abror o'sha yoqqa o'tib, qo'lini yuvayotganda Zafar dadasining oldiga chopib keldi:

– Dada, qo'rqmadingiz-a! – dedi bolalarcha hayrat bilan.

– Qo'rqsam ham bog'lashim kerak edi. Qandoq qilay?

– Yo'q, siz qo'rqmaysiz! – deb kuldi Zafar.

Shu bilan bolaning ko'ngliga it qopganda o'rnashgan qo'rquv endi tarqadi-yu, yuziga birdan qon yugurdi.

Buni ko'rib, Abror ham ancha yengil tortdi. Odam o'z bolasiga bu darajada bog'lanib qolishi uni xiyol taajjubga soldi. Go'yo Abrorga berilgan hayotning eng beg'ubor, eng sof va aziz bir qismi mana shu o'g'lida edi. Agar o'g'li og'ir ahvolga tushsa, Abror bolaning o'zidan ham ortiq iztirob chekar va qiynalardi. U faqat o'g'lini emas, o'zini ham shu ichki qiynoqdan qutqarishga jon-jahdi bilan intila bosh-lardi. Bunday paytda tashqi qiyinchiliklar va noqulayliklar ko'ziga ko'rinmay qolardi.

Abror o'g'lini yoniga o'tqazib, Chorsu orqali Samarqand darvoza ko'chasining past-u baland tor joylaridan o'tdi-da, bir necha marta to'xtab, odamlardan so'rab-surishtirib, ko'rimsiz eski binoga joylashgan poliklinikani topdi. Yo'lak-larining devoriga quturgan it va mushuklarning rangli su-ratlari osib qo'yilgan. Xushbichim vrach yigit bintni ochib, Zafarning yarasini ko'rdi-da, boshini chayqadi.

– Qoidaga binoan hozir biz ukolni boshlashimiz kerak.



– Qirqta ukolni-ya? Yo'g'-e? Bolani behuda qiynash nima-ga kerak? It kasal emas.

– Qani, vetvrachdan ma'lumotnomangiz bormi?

– Hozir yo'q, lekin shu bugun tekshirtiramiz. Ertaga ma'lumotnoma olib kelib berishim mumkin.

– Bir-ikki kunda hammasini aniqlash mumkin deb o'ylaysizmi? Yo'q, bu kasallikning inkubatsiya davri ikki hafta. Ungacha biz qarab turolmaymiz.

Zafar boshini xiyol qiyshaytirib, dadasiga najot so'ragan-day termilib turardi.

– Men sizga erta-indin hujjat olib kelib beraman! – dedi Abror. – Butun mas'uliyatini o'zimga olaman, ishoning!

– Bolani hozir ayayman deb, keyin armon qilib yurmang yana!

– Armondan Xudo saqlasin!

Sochlari oqargan kekxa hamshira Zafarning yarasiga dori qo'yib, bint bilan bog'lamoqda edi. Zafar dorining jizil-latib achitishidan labini tishlab:

– Ih! – dedi-da, ko'zi namlandi.

Kekxa hamshira vrachga qarab:

– Hozir Toshkentda quturgan it yo'q-ku, – dedi.

Vrach yigit qovog'ini solib:

– Bo'pti, hozircha stolbnyakka qarshi ukol qiling, – dedi.

– Dada! – dedi Zafar, ukoldan yuragi bezillab.

– Endi bunisiga chidaysan, Bitta! Faqat bitta! Sen ham yigitchasiga turib ber, axir! Katta bo'lib qolding.

Zafar hadeb xarxasha qilaversa, yaxshi bo'lmasligini sez-di-yu, indamay shortisini yechdi. Ukol qilishganda ovozini chiqarmadi, ih ham demadi.

– O'rtoq vrach, hammasi uchun rahmat, endi men bu... veterinariya punktini qanday topaman?

– Hali bilmaysizmi? Ilgari Turkman bozorining yonida edi. Hozir Qo'yliq tomonga ko'chgan. Beshinchi tram-vayning yo'lida.



Abror o'g'lini yana yoniga o'tqazib, mashinasini shaharning ikkinchi bir chekkasiga qarab haydadi.

Soat kunduzgi uchdan oshgan, ko'chalarda mashinalar tig'iz. Ayniqsa, Kuybishev shossesidan borayotganlarida og'ir yuk mashinalari shu qadar ko'p edi va bir-biriga xalaqit berib, shunday tutun burqsitib borishar ediki, Abror hamma derazalarini ochsa ham, havo yetishmayotganday bo'g'ilib ketdi.

Veterinariya punkti katta yo'ldan chetroqda – serdaraxt, tinch joyda edi, Abror bu yerda sal nafasini rostlab, vetvrachga murojaat qildi. Yumaloq yuzli, xipchagina qozoq ayol vetvrach ekan. Abrordan voqeani eshitgach:

– Itti ala keling, – dedi.

– Qanday olib kelaman, opajon? Meni ham qopishi mumkin. Iltimos. O'zingiz birga juring, – deb vetvrach ayolga hurmat yuzasidan so'nggi so'zni qozoqcha talaffuz bilan aytdi.

Vetvrach ayol uning yonida ko'zlari javdirab iltimoskorona qarab turgan bolaga qayishdi-yu, birga borishga rozi bo'ldi. Kattagina bir chiptaqopni gazetaga o'rab olib chiqdi. Ko'chada Abror unga mashinasininig old eshigini ochib berdi.

Kechki soat to'rt. Kuybishev shossesi boyagidan ham tiqilinch. Nafas olish boyagidan ham og'ir. Abror mashinani qiynalib haydab borar ekan, vetvrach ayolga o'g'lidan nolib gapirdi:

– O'yinchoqlari ko'p. Samokati ham bor. Shu itga teginib nima qilar edi deng-a!

Qozoq ayol orqada aybdorlarga o'xshab jim o'tirgan Zafarga ko'z qirini tashladi-da, so'zlarni o'zbekchaga yaqin talaffuz qilib:

– Bolalarga ham tushunuv mumkin, – dedi. – Temir, plassmass o'yinchaqdar bularga jaqmay qaladi, tirik jondor bilan o'ynagisi keledi. O'zingiz balaliqta qo'y, echki boqqanmisiz?



– Boqqanmiz. Biz Zafardayligimizda Toshkent ham boshqacha edi-da. Mana shu Bo'zsuv bo'ylari xuddi qishloqqa o'xshardi. Hamma bolalar sigir, qo'y-echki boqib, ot, eshak minib yurardi.

– Hozirgi bolalarga osi jetishpeydi-da. Toshkentda urbanizatsiya³ tezlashib ketdi. Hovlilar, uylarning o'rniga ko'p qavatli uylar tushdi. Egalari tashlab ketgan daydi it ko'p.

– Shularni tutib ketadigan «It quti» mashinalar bo'lar-di-ku? – so'radi Abror.

– Bor. Lekin shahar juda katta bo'lib ketdi. Jetispaydi. Zafar sekin so'radi.

– Dada, «It quti»da olib ketgan itlarni o'ldirishadimi? Abrorning «ha» degisi kelmadi:

– Biron narsa qilib yo'qotishadi...

Sirtlon o'sha bog'langan joyida turgan ekan. Abror mashinasini hovlidagi yo'lka bilan haydab o'tib, itga yaqinlashganda to'xtadi. Vetvrach «Sirtlon, Sirtlon» deb chip-ta qopning og'zini shimarib, itga yaqinlashdi. Keyin bir chaqqon harakat bilan chipta qopni itning ustiga kiydirdi-yu, qop og'zini yuqoriga ko'tarib tortdi. It qopning ichiga qanday kirganini Abror sezmay ham qoldi. Vetvrach ayol qopning og'zini bo'g'ib, itning bo'ynidagi chilvirning uchi bilan bog'ladi. It qop ichida tipirchilab, bir-ikki g'ingshigan edi, uning otini aytib:

– Jim jat! – deb buyurdi. So'ng Abrorga yuzlandi, – Qapti mana bu chetidan oling. Endi ko'taring.

Shu tarzda ikkovlashib qopni mashinaning bagajinigiga joyladilar. Zafar buni ko'rib, kulib qo'ydi.

Yana o'sha serharakat, tiqilinch Kuybishev shossesi. Lekin Abror yaxshi vetvrachga uchrab, ishi o'ylaganidan osonroq bitayotgani uchun yo'l mashaqqatlariga uncha e'tibor bermas edi.

³ Urbanizatsiya – katta shaharlarning tez o'sishi, sanoat va aholining ko'p yig'ilib, markazlashishi.



Veterinariya punktining hovlisida bostirmaga o'xshagan joy bor edi. Bostirma tagida kattakon qafaslarni eslatadigan temir panjarali it kataklari turibdi. Sirtlonni o'sha kataklardan biriga olib kirib qo'yishdi-da, uning temir eshigini bekitishdi. Sirtlon endi hayvonot bog'ida temir panjaralar ortida turadigan chiyabo'riga o'xshab qoldi.

Endi buning qonidan analiz olib, kasal yoki sog' ekanini aniqlashguncha to'rt-besh kun o'tishi kerak edi.

Abror manzil bilan telefonni qozoq ayolga yozib berdi. Mashinasiga o'tirayotib, soatiga qaradi. Besh.

Bir soatdan keyin ishxonalari yopiladi. Abror hech bo'lmasa hozir ishga yetib borishi kerak. Kunning ikkinchi yarmida o'g'lining tashvishi bilan bo'lib, qilolmagan ishini uyga olib ketib, kechasi qilishi mumkin.

Shu fikr bilan yana Kuybishev shossesiga chiqdi. Ish kunining oxiriga borib bu shosseda yuk mashinalari yerning tagidan qaynab chiqayotganday tirband bo'lib ketgan edi. Abror motor shovqini va benzin dudiga to'lib-toshgan ko'chadan tezroq o'tib olishga intilar, lekin tezlikni endi oshirganda oldini birorta «toshbaqaqadam» yuk mashinasi yoki telejkali traktor to'sib olardi. U baland kuzovlarning tagiga kirib ketay deganda tormozni chiyillatib, mashinani arang to'xtatardi.

Shu shossedan bugun to'rtinchi marta o'tishi. Spidometr-ga qarasa, tiqilinch shahar ko'chalari bo'ylab o'g'li bilan bir yuz-u yigirma chaqirim yo'l bosibdi. Olcharang «Jiguli» ham egasiga o'xshab bardoshi tugayotgandek asabiy harakatlar qilar, goh silkinib to'xtar, goh sakrab qo'zg'alardi.

Abror Zafarning lablari quruqshab, o'zi bo'shashib o'tirganini ko'rdi. Mashina yana bir to'xtaganda qo'lini cho'zib, uning peshanasini ushlab ko'rdi. Isitmasi yo'qqa o'xshaydi. Lekin bola bechora boshiga tushgan bu savdodan bir kunda bir necha yosh ulg'ayib qolganday ko'rinadi. Aksiga olib, shunday paytda hamma noxush narsalar xotiraning teshiklaridan kalamushlarga o'xshab chiqib kela boshlaydi.



Idorada direktor rad etgan takliflari, Moskvaga Bahromov bilan ketgan Vazira. Ustaxonada uni kutib turgan chala ishlari... Bu yoqda bolalar. U yoqda uyi buziladigan bo'lib, butun tashvishlarini Abror o'z ustiga olayotgan keksa ota-ona. Har uch avlodning yuki birvarakayiga Abrorning yelkasi-ga tushib, mana bu sershovqin, havosi bo'g'i-q ko'chada unga shunday og'ir tuyuldi, nafasi qaytib ketayotganday ko'ylagining old tugmalarini jonsarak bo'lib yulqib yechdi.

* * *

Yaxshiki odamga sal tinim beradigan tun bor. Uning sukunatida devor soatining chiqillashi eshitilib turadi. Uzoqda tramvay chinqirib burilgani quloqqa chalinadi. Abror kech soat o'nlarda Zafarni Vaziraning karavotiga yotqizdi. Bola dadasi bilan yonma-yon yotib birpasda uxlab qoldi. Yotoq bilan Abrorning kabineti ichma-ich edi. Abror o'rnidan tirib, vannada yuvindi. Kunduzgi charchoqlar tarqab ketganday tuyuldi. Oshxonaga chiqib, rux choynakka qora choy damladi. Malikaning darsxonasida chiroq yo'q. U hali uxlayotgan bo'lsa kerak.

Abror sekin kabinetga o'tdi. Uyning yotoqqa chiqadigan eshigini ochiq qoldirib, stol lampasini yoqdi. Chizmakashlik stoli ustida Markaziy maydonning sharq tomoniga yangidan quriadigan favvoralar xiyobonining ilk loyihalari ochiq turibdi.

Quruq chiziqlardan iborat bu umumiy sxema unga yoqmaydi. Ko'p narsa shoshma-shosharlik bilan yuzaki o'ylab chizilgan. Naryoqdagi sharshara-favvorada ishlatilgan usullar bu yerda ham takrorlangan. Abror shuni ko'rib, o'zi-cha «shablon!» deb g'ijindi.

Lekin taxrordan qutulishning yo'lini hali u o'zi ham bilmas edi. Manzarani aniqroq tasavvur etish uchun bir taxta oq qog'oz oldi-da, gajak bo'lib otilib tushayotgan favvorachalar rasmini chizishga kirishdi. Qalamning uch-to'rt



harakati bilan qog'oz yuzida bir-biriga qo'shilib otilayotgan o'nlab favvora kokillar paydo bo'lardi. Balandligi to'rt metrcha bo'lsa bas. Lekin suv kokillari tig'iz joylashishi va juda ko'p bo'lishi kerak. Yuz, ikki yuz, besh yuz, balki ikki ming!

Abror naryoqdagi katta favvoraning yo'g'on va uzun soch o'rimlariga o'xshaydigan uch yuzta qator favvorolari salkam o'n metr balandlikdan otilib tushishini esladi. Favvoralar xiyobonidagi favvorachalar esa ularga nisbatan besh-olti barobar kichik bo'ladi. Lekin son jihatidan bir necha barobar ko'p. Mayda o'rilgan kokillarday go'zal favvorachalardan ikki mingtasi oftobda yiltirab, hovuzdagi zilol suv ustiga shovullab tushib tursa, uning yoqimli to'vushi ko'cha shovqinini bosib ketishi aniq. Hordiq chiqarishga kelgan odamlarga shu kerak.

Bir vaqt Abror o'zi chizayotgan favvoralarining yoqimli shovullashini tun sukunatida aniq eshitayotganday bo'ldi. Hatto, suv pardasi orasidan katta ko'chaga qarayotganda, yuziga suv zarralarining yoqimli epkini tegib ketganday tuyuldi. Shundan so'ng kishiga zavq beradigan go'zallik olami uning butun borlig'ini chulg'ab oldi.

Abror o'zi qiladigan ijodiy ishning mana shu xususiyatini yaxshi ko'rardi. Bunday paytda butun vujudida ajoyib bir safarbarlik sezar, xotirasi, zehni, shuuri bir nuqta atrofiga inoq to'planar edi. Bu unga zo'r bir lupani eslatardi – quyosh nurlari lupadan o'tayotganda markaziy bir nuqtaga to'planib, kuchi va harorati beqiyos darajada oshadi-yu, tekkan joyini yondirishga qodir bo'lib qoladi. Abrorning zehni ham hozir qilayotgan ishiga mana shu ichki «lupa»dan o'tib borayotganga o'xshar va u istagan ijodiy olovni tobora yaxshi yondirardi.

Abror yana bir taxta qog'oz olib, favvoralar xiyobonining umumiy sxemasini qaytadan chizdi. Yer tuzilishi g'alati. Ilgarigi Injenerlar ko'chasining o'rni tekis. Lekin Xadicha Sulaymonova ko'chasining Markaziy maydonga tutashgan qismi ancha baland.



Abror favvoralar xiyobonini prospektidan ikki metrcha balandroqqa joylashtirib tasavvur qildi. Pastdan favvora sahniga chiqiladigan keng zinapoyalarni qog'ozga chizib ko'rdi. Bu zinapoyalardan ko'tarilgan odam oldinda shovullab turgan favvorani ko'rib ko'zi bir quvonadi. Favvora sahnidan turib pastga qaraganda esa prospekt panoramasi unga balanddan to'liqroq ko'rinib, yana bir zavq beradi. Favvoraning yuqorisi – tekis, keng maydon. Unga ham shunaqa zinapoyalar bilan ko'tarilish mumkin. Ikkinchi zinapoyadan ko'tarilgan odam oldinga qarasa, ufqi keng, ulug'vor maydonga ko'zi tushadi. Orqaga o'girilganda esa shu maydonga mos tushgan favvoralar silsilasini-yu, ularning pastidan o'tgan daryoday betinim ko'chani ko'radi.

Abror hali faqat o'zining xayolidagina gavdalanayotgan bu manzarani shunday aniq tasavvur qildiki, go'yo uning go'zalligidan ko'zlari quvonib, nafasi titray boshladi.

Ilhom deb ataladigan bir momaqaldiraq hozir go'yo uning qalbida yangrar, zehni va tasavvuri yashin tezligida ishlar, ko'pdan beri qidirib topolmayotgan narsalari shu ichki chaqmoq yorug'ida birdan ko'rinib ketar edi.

Abror uyda o'tirganini ham unutgan ekan. Bir vaqt yotoqning ochiq eshigidan Zafarning uyquda bosinqiragan ingrashi eshitildi:

– K-e... ket! Tur ket!.. A! A-a!..

Abror o'z uyiga uzoqlardan qaytib kelganday bo'ldi-yu, yugurib yotoqqa kirdi:

– Zafar! Tush ko'rdingmi? Zafar!..

Abror o'g'linig titrayotgan gavdasini to'shakdan ko'tarib, bag'riga bosdi. Zafarni tushida katta ko'ppak itlar o'rab olib, qopmoqchi bo'lishgan edi. Abror o'g'lining boshiga labini bosdi. Isitmasi yo'q.

– Kunduz qo'rqqaningdan tushingga kirgan, – dedi. – Hech nima qilmaydi.

– Dada, suv!



– Hozir.

Abror kabinetga chiqib, stol chetida turgan choynakni ushlab ko'rdi. Iliq. Yarim piyola choy quyib kelib, Zafarga ichirdi.

– Hech qayering og'rimayaptimi?

– Yo'q. Siz hali ham yotmadingizmi, dada?

Abror o'g'lining yolg'iz yotgisi kelmayotganini sezdi-da, soatiga qaradi.

– Ikki bo'pti. Mayli, endi men ham yotaman.

U qog'ozlarini naridan-beri yig'ishtirib, ustiga og'irgina temir chizgichni tashlab qo'ydi. Tungi pijamasini kiyib, chiroqlarni o'chirdi va Zafarning yoniga kelib yotdi.

Zafar tushida ko'rgan ko'ppak itlarning orasida Sirtlon yo'qligini esladi.

– Dada, Sirtlon nima bo'ldi?

– Temir qafasda o'tirgan bo'lsa kerak.

– Keyin-chi? «It quti» olib ketib o'ldiradimi?

Abror uning uyqusini qochirishi mumkin bo'lgan notinch gaplardan qochdi:

– Sirtlon sog' chiqsa, birov asrab olishi mumkin.

– Dada, o'zimiz olayli-ik!

– Abror uning bu qadar unutuluvchanligidan hayron bo'ldi:

– Tortgan azoblaring darrov esingdan chiqdimi?

– Sirtlon sizni qopmadi-ku. Oti ham yaxshi ekan. O'zi ham bizni tanib qoldi. O'ldirishsa, uvoliga qolamiz.

– Bu so'zni qayoqdan eshitding?

– Bobomdan. Olamizmi, dada?

– Kvartirada it asrab bo'lmaydi. Sirtlon hovliga o'rgangan.

– Bobomlarning hovlisida boqamiz.

– U hovli yaqinda buziladi.

– Nega?

– Buning tarixi uzoq. Yaxshisi uxlaylik. Xo'pmi?

Zafar birpas jim yotdi, lekin uyquasi kelmadi:



– Dada, Sirtlonni biz ushlab eltib berdik. Endi uni biz olmasak, o'ldirishadi. Uvoliga qolamiz.

Zafar bu so'zni ikkinchi marta aytgandan keyin Abror uning qalbi kuyrakligidan ta'sirlandi.

– Bo'pti, agar Sirtlon sog' chiqsa, qafasdan qutqarib olamiz. Mashinaning bagajnigiga solib, shahardan tashqariga olib chiqamiz. Hovlisi bor birorta odamga beramiz. Bo'ldimi? Endi uxlaysanmi?

– Ha! – dedi Zafar va ko'ngli tinchib, birpasda uxlab qoldi.

Abror ko'p ishlagani uchunmi, anchagacha ko'zi ilinmadi. Ertalab qattiq uxlab yotganda eshikning qo'ng'irog'i ustma-ust jiringlab uyg'otib yubordi. Abror ko'zini uqalab yo'lakka chiqar ekan, norozi tovush bilan:

– Kim? – deb so'radi.

Eshik ortidan Vaziraning ovozi eshitildi:

– Men! Oching.

Abror hushyor tortib, eshikni darhol ochdi-da, Vaziraning qo'lidan chamadonini oldi.

– Zafar qalay? – hansirab so'radi Vazira.

Sochlari hurpaygan Abror uning Bahromov bilan Moskvada nimalar qilganini yuzidan, hatto kiyimlaridan bilish mumkindek, xotiniga boshdan-oyoq sinchiklab qarab chiqdi. Vazira esa uning javob bermayotganidan xavotirlanib:

– Voy, nega indamaysiz?! – dedi. – Zafar uydami-yo'qmi?..

Vazira hozir o'g'lidan boshqa hamma narsani unutganini Abror endi sezdi.

– Ha uxlab yotipti. Malika telefonda sizni qo'rqitgan shekilli?

– Voy, yomon xabar o'lsin-ey! «Dadam doktorga olib ketuvdi, uch soatdan beri kelmayapti», dedi. «Kasalxonaga yotqizishgan bo'lsa kerak», deb kapalagim uchib ketdi.

Malika yotgan xona eshikka yaqin edi. U oyisining ovozidan uyg'onib ketdi-yu, devor orqali qichqirdi:

– Oyim keldilar! Zafar!.. Oyim!..



Malikaning o'zi dadasining oldiga ichki kiyimda chiqishga tortinib ancha kech qoldi. Lekin Zafar maykachan, yalangoyoq xobgohdan chopib chiqdi:

– Oyi! Oyijon!

Vazira engashib unga quchoq ochdi. Zafar oyisining bo'yniga osildi. Vazira uni ko'tarib uyga olib kirib ketdi. Kiyimlarini kiyib chiqqan Malika oyisining ketidan chopdi. Xonalar quvnoq g'ala-g'ovurga to'ldi.

Malika bilan Zafar nima hodisa bo'lganini oyilariga batafsil hikoya qila boshladilar. Abror vannaxonaga kirib, bet-qo'lini yuvdi. Bugun ishga ertaroq borishini o'ylab, gazni yoqdi-da, choy qo'ydi. Keyin Vazira bolalar bilan gaplashib o'tirgan xona orqali kabinetiga o'tib, kechasi chizgan xomaki loyihalarini taxlay boshladi.

Bolalarning hikoyasidan Abror juda ajoyib bir ota bo'lib gavdalanardi. Xususan, Zafar uning itni qanday tutib bog'lagani-yu, doktorlar bilan qanday gaplashganini oyisiga aytib berganda dadasidan astoydil faxrlanayotgani sezilib turardi... Vazira chamadonini olib, bolalarga sovg'alarini olib berdi-yu, Abrorning yoniga keldi.

– Kechasi yana ishlabsiz-da. Bu nimaning loyihasi?.. Favvorami?

– Ha. Yubileyga ulgurish kerak ekan. Yana shoshilinch.


– Lekin direktorlaringiz buni sizga munosib ko'rgani yaxshi bo'пти. Tabriklayman!

Vazira oyoq uchida ko'tarilib, erining labidan tezgina o'pdi. Abror qog'ozlarini taxlashda davom etar ekan, ancha muloyimlashgan tovush bilan:

– Safar durust bo'ldimi? — dedi.

– Ha, xayriyat, ishlarimni ertaroq bitirgan edim. Eshitdim-u samolyotga chopdim. O'lsin bu daydi it, kelib-kelib Zafarni qopadimi, a?

– Zafar o'zi it-mushuklarga suykalaveradi-da. «Suv aylanib, yorig'ini topadi» deganday, birda emas-birda qopadi.



– O‘zi, men bir yoqqa ketsam, biron hodisa bo‘lmay qolmaydi! Yo Malika angina bo‘lib, isitmasi qirqqa chiqadi, yo Zafarning o‘pkasi shamollaydi... Shu yil tinchroq yuribman deb quvongan edim-a. Zafaringiz biz yo‘g‘imizda narigi hovlilarga sandiraqlab bormasa, shunday bo‘lmasmidi!

Abror qog‘ozlarini portfeliga solar ekan, ovozi pasaytirib:

– Bola ham nima qilsin! – dedi. – O‘zimizning hovlidagi bolalar maydonchasini Bahromov qurilishga olib berdi. O‘shaning kasofati urmaganda balki Zafar narigi hovlilarga ketmas ham edi. Siz bo‘lsangiz, o‘sha odam bilan apoqchapoq bo‘lib, birga jo‘nab ketdingiz.

– Reysinuz tasodifan to‘g‘ri kelib qolsa, men nima qilay?

– Ming to‘g‘ri kelib qolganda ham, uning kimligini unutmasligingiz kerak edi.

– U kim bo‘pti o‘zi? Sinfiy dushmanmi?

– Lekin bizga do‘st emas. Men buni yaxshi bilaman.

– Do‘st bo‘lmasa, shunchaki yordamga muhtoj hamkasaba o‘rtoqdir. O‘zingizga dushman orttirib nima qilasiz? «Fil bo‘lsang ham, sichqonday dushmaning bo‘lmasin», degan gap bor. Stuning uchun men uning muomalasiga yarasha muomala qilib yuribman.

Abror portfelini yopib, soatiga qaradi.

– Sakki bo‘lyapti... Bu gapga kechqurun hali qaytamiz.

– Ishga shoshilyapsizmi? Bo‘lmasa nonushta tayyorlay...

Malika, ninalaring bor?

Televizor turgan katta xonada Zafar oyisi olib kelgan o‘ziyurar tankni tugmasidan bosib, gilam ustida goh to‘xtatib, goh choptirib o‘ynamoqda edi.

Malika oyisi bilan birga oshxonaga chiqib, sovutkichni ochib ko‘r-atdi:

– Pishloq bor, qaymoq bor. Sut...

Abror elektr ustarani shig‘illatib, soqol olmoqda edi. Malika uning oldiga keldi:



– Dada, oyim so'rayaptilar. Qaymoq yeysizmi? Yoki shirchoy ichasizmi?

– Shirchoy. Qahva ham qilinglar. Bosh xumday. Uyqu kam bo'ldi-da.

U soqolini olib, yuziga «Shipr» surtdi-da, kiyim javonini ochdi. Yengilroq ko'ylak va shim qidirdi. May oxirlab, kunlar isib qolgan, kvartira ertalabdan dim edi. Abror mayda teshikchalari gulga o'xshatib ishlangan pistarang tennis-kasini kiydi. Yo'l-yo'l kulrang shimini qo'lga olib qarasa, dazmoli buzilgan. Uni yo'lakdagi dazmol stolining ustiga chiqarib qo'ydi va elektr dazmolni qidira boshladi.

Oldiga guldor peshband bog'lagan Vazira olovdan yuzlari qizarib, oshxonadan yo'lakka chiqqanda Abror shimini dazmollamoqda edi.

– Shirchoy tayyor. Kiring, iching. Buni menga bering.

Vazira qo'lini sochiqqa artdi-da, dazmolni Abrordan oldi. Uning uzoq yo'ldan kelganiga qaramay, darhol ro'zg'or ishlariga kirishib ketgani Abrorning ko'nglida iliq bir mamnuniyat tuyg'usini uyg'otdi.

Nonushta mazali bo'lgan ekan. Abror ustidan qahva ichdi-yu, xiyla ta'bi ochildi. Kabinetga qaytib kelsa, Vazira silliq dazmollangan kulrang shimni stulga osib qo'yibdi. Abror kiyinib, portfelini qo'lga oldi. Vazira tankini o'ynayotgan Zafarning oldida o'tirgan edi. Abror unga iliq bir so'z aytgisi keldi:

– Qo'lingiz shirin-da. Nonushtani boplabsiz... Bugun ishga bormaysizmi?

– Malika maktabga ketyapti. U qaytguncha Zafar bilan o'tirib turay. Xizmat safarim hali tugagan emas. Siz mol doktoriga qachon uchraysiz?

– Tahlili yana uch kunda tayyor bo'lsa, keyin uchrarman.

– Ungacha biron kor-hol bo'lmasmikan?

– Kim biladi? Ko'ramiz-da. Xo'p, men ketdim.

Abror mashinasi qo'yilgan garajgacha piyoda borar ekan, o'zini kechagiga nisbatan xiyla yaxshi his qilar edi.



Ro'zg'or tashvishini va Zafarga bog'liq xavotirni Vazira o'ziga ko'proq olgani sari Abrorning og'iri yengillashganday bo'lardi. U endi uyga xayolini bo'lmay, butun kuchini ishga sarflashi mumkin edi. Vazira uning kechasi qilgan ishiga bir ko'z tashlash bilan ko'p narsani tushungani, hatto quvonch bildirgani hayotlarining ikkita eng muhim tomonini – oila bilan ishni – yaxlit qilib birlashtirishga yordam berganday bo'ldi. Abror mashinasini katta ko'chaga olib chiqar ekan, shahar markaziga yana bir borib, favvoralar xiyobonining o'rnini sinchiklab ko'rib chiqqisi keldi.

OLTINCHI BOB

Javzo issiqlari boshlangan. Toshkentda ertalabdan oftob qizdirgan sari odamlargina emas, mashinalar ham soya qidira boshlaydi. Haydovchilar katta-katta yuk mashinalarini, hatto uzun avtobuslarni ham sersoya chinorlar bilan emanlar soyasiga qo'yishga, hech bo'lmasa, o'zlari o'tiradigan kabinalarni daraxt salqiniga olishga intilishadi. Shaharda yil sayin mashinalarning soni ham, turi ham ko'payib boradi, lekin hamma joyda qurilish ketayotganligi, yangi uylar bino qilish uchun eski mahallalarni buzishga to'g'ri kelayotganligi sababli katta yoshli sersoya daraxtlar kamayib ketyapti. Shuning uchun mashina salqinda turadigan soya joy topish oson emas. Abror ko'pincha mashinasini oftobning tig'ida qoldirib ketib, biror soatdan so'ng uni kelib ochsa, qizdirilgan tandirning tafti yuziga gupillab urilar, rul chambaragi ham ushlab bo'lmaydigan darajada jizillab tegar, derazalarni ochib, mashinani xiyol sovutguncha uni azob bilan haydab borar edi. Biroq hozir Injenerlar ko'chasida keksa emanning tagida bitta mashina sig'adigan soya joy bo'sh turganini ko'rib quvonib ketdi va darhol mashinasini o'sha joyga qo'ydi.


Qo'lida loyiha solingan jild bilan Xadicha Sulaymonova ko'chasi tomonga o'tdi-da, yer tuzilishini kechasi chizgan



xomaki rejasiga solishtirib ko'ra boshladi. O'rdaning ko'pri-gi tomondan Abdulla To'qay ko'chasi bo'ylab tramvay kuchanib chiqib kelmoqda, chunki maydon balandlikda edi. Tramvay Xadicha Sulaymonova ko'chasiga burilgandan keyin pastga tomon shig'illab oson ketar, chunki yo'lning bu tomoni nishab edi. Bu ko'chalar bo'yida qancha binolar, dov-daraxtlar, hovlilar bor. Hammasining umri tugab bo-rayotganini, besh-olti oy ichida mana shu tramvay izi ham, Injenerlar ko'chasi ham, uning atrofidagi binolar ham qanday olib tashlanishini ko'z oldiga keltirganda, Abrorning ko'ngli g'alati bo'lib ketdi. Anhor bo'yidagi otasining hovlisi, gullagan toklar, Bo'zsuvning tungi sarin nafasi esiga tushdi. Mana bu hovlilarda ham qancha toklar hozir gullab turgan bo'lsa kerak. Shu atrofdagi qaysi bir hovlida ikki tup nodir daraxt – yapon magnoliyasi bor, Abror ularning gul ochgan paytini ko'rib, qanchalik mahliyo bo'lgani hech esidan chiqmaydi.

Mayli, eski uylar ketsin, mayda-chuyda daraxtlar ham noiloj kesilar. Lekin shuncha joyga soya berib turgan va os-monga azamatlarcha bo'y cho'zib, qulf urib ko'kargan ana u yuz yillik emanlar, chinorlar nima bo'ladi? Hu, ana, Kom-munistlar ko'chasi tomonda uch qavatli uy ortidan bo'y cho'zib, yana besh metrcha balandga ketgan va bo'yni uzun jirafaga o'xshab ko'rinadigan qarag'ay ham unga shu savolni berayotganday bo'ldi. Odamlar bu daraxtlarni to'qson-yuz yil sug'orib, parvarish qilgan, Abror bugun kechasi chizgan loyiha mana shu daraxtlardan ham go'zalroq, foydaliroq, muhimroq bir natija berarmikan? Bu daraxtlarni shu darajaga yetkazish uchun yuz yil vaqt ketgan. Abrorga esa yarim yil muhlat berildi...

Abror jild ichidagi loyiha – rejadan bu daraxtlarni qidirib ko'rdi. Rejada har bir ko'cha, uy, har bir quvur, hatto kanalizatsiya qudug'ining temir qopqog'i juda aniq ko'rsatilgan, lekin shunday katta daraxtlarda biror chiziq ifoda etilmagan. Chunki ular pulga qurilgan obyekt hisoblanmaydi, inventar sifatida baholanmaydi, yuz yil



oldingi ko'chatning narxi hammaning esidan chiqib ketgan, endi bu daraxtlar uchun hisob beradigan, ular qirqilsa, tovon to'laydigan javobgar odamning o'zi yo'q.

Shunday qudratli ko'ringan yuz yillik daraxtlar faqat inventar nomeri-yu, qog'ozdagi narxi bilan hisoblashadigan loqayd odamlardan o'zini qanday himoya qilsin? To'g'ri, bunday daraxtlarni avaylab saqlayotgan insofli odamlar ham bor. Bu yerdan sal naridagi moviy gumbazlar atrofida har birining atrofiga chiroyli qilib tosh qalangan va tabiat obidasiday asralayotgan chinorlar, emanlar Abrorning ko'z oldiga keldi. Tabiat har bir odamni aslida pok vijdon bilan birga yaratsa kerak. Shunday bo'lmasa, bolalardagi poklik qayerdan keladi? Kechasi ko'rgan qo'rqinchli tushidan keyin o'ziga ozor bergan Sirtlonni kechiribgina qolmay, hatto uni qutqarib qolishga intilgan Zafar «uvol» degan muqaddas tuyg'uni qayerdan olgan? Bobosi aytgan bo'lsa ham esidan chiqib ketishi mumkin edi-ku. Yo'q, odamda o'zi qilgan yaxshilik ham, yomonlik ham yo'q bo'lib ketmaydi, qayerdandir, nimadir bo'lib qaytadi, degan tabiiy bir e'tiqod azaldan bo'ladi. Abror bu e'tiqodni esi kirgan yillardan beri o'z qalbida olib yuribdi. Uning dilida ota-onalardan o'tgan, hayotida ko'p marta sinalgan shunday tuyg'ular borki, ularni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, faqat hayotda hali aniqlanmagan sirlar ko'pligi, shu sirlar orasida vijdon bilan bog'liq bo'lgan muqaddas bir hayiqish ham borligini biladi. Mas'uliyat tuyg'usining eng oliy shakli bo'lgan bu hayiqish uni, «O'zimdanda balandda hech kim yo'q» deb hovliqib ketishlardan asraydi. U o'zidan balandda hamma narsani ko'rib turadigan vijdon ko'zi, har bir so'zini eshitib turadigan va, hatto, ko'nglidan o'tgan har bir o'yni ilg'aydigan imon, e'tiqod quloqlari borligini ich-ichidan his qilib o'rgangan. Yomon bo'lishdan saqlanish, jonivorlarga yoki mana bu daraxtlarga zavol keltirishdan, ularning uvoliga qolishdan hayiqish ana o'sha pok vijdon va yuksak e'tiqodning yashash sharti-



ga aylangan. Qalbini ilitib, nurlantirib turadigan bu poklik va yuksaklik ta'bi tirriq, ko'ngli xira paytlarda uni tark etadi-yu, butun hayoti xuddi ko'rimsiz chiroqsiz uyday xufton bo'lib qoladi.

Biroq hozir uning qalb uyida barcha chiroqlar parpirab yonib turibdi. Kechasi kelgan ilhom hali qaytib ketgan emas. Abror bo'lajak zinapoyalar, favvoralar, hovuzlarning hammasini ko'z oldiga bir-bir keltirdi-da, so'ng nari-gi qarag'ay, beridagi chinor va emanlarning o'rnini aniqlay boshladi. Har bir metr masofa bexato hisoblanishi kerak edi. U ko'ziga eng yaxshi ko'ringan daraxtlarning bo'lajak favvoralar xiyobonidan qancha masofada bo'lishini qadamlab o'lchab ko'rdi. Baland va ko'rkam daraxtlardan to'rttasi favvora tufayli qir qilishi kerak ekan. Lekin agar favvora o'n metr janubroqqa olinsa, shular saqlab qolinishi mumkin ekan.

Yashnab turgan bu azim daraxtlar ham Abrorning o'z loyahasiga o'zgarishlar kiritish niyatini mustahkamlagan-day bo'ldi. U ustaxonasiga bordi-yu, darhol direktorning qabulxonasiga telefon qildi.

* * *

Sayfulla Rahmonovich ertalabdan shahar kengashiga va arxitektura boshqarmasiga ketib, Abrorni tushdan keyin qabul qildi.

– Yarim soatdan keyin shahar partiya qo'mitasiga boradiganman, – dedi u. – Shungacha ulguramizmi yo ertaga qoldiraylikmi?

Abror yana bir kun yutqazgisi kelmadi.

– Ulgurishga harakat qilaman, – deb, yangidan chizgan loyihalarini stol ustiga yoydi. Sayfulla Rahmonovich kreslosidan ko'tarilib, loyihalarga tikka turgan holicha ko'z yugurtirdi.



– Favvoraning kokillari juda ko‘payib ketibdimi? Muncha tig‘iz? Bizda sakkiz yuzta edi, chamasi.

– Sonini ko‘paytirib, sifatga aylanadigan nuqtasiga yetkazish kerak. Qudrati narigi sharshara favvoraga munosib bo‘lsin. Axir bu hammasi bir ansamblga kiradi. Biri biriga yarasha bo‘lishi kerak.

– To‘g‘ri-yu, lekin sizga ish ko‘payadi-da. Har bitta «kokil»ni millimetrigacha aniq hisoblab, chizib joylashtirishingiz kerak. Har bittasiga boradigan suvning yo‘lini loyihalashtirib chiqishni o‘yladingizmi?

– O‘yladim. Lekin go‘zalligi shuncha mehnatlarga arziydigan bo‘ladi, Sayfulla Rahmonovich. Ulkan maydonga yarasha ulug‘vor shovullab turadigan bo‘lsa, biz ishlab charchamaymiz.

– Injenerlarga ham ish ko‘payadi, ma‘dan ko‘p ketadi. Lekin... Mayli, qilish mumkin. Yaxshi o‘ylabsiz.

Abror dadillandi-yu, qiyinroq masalaga o‘tdi:

– Mana bu yerda yuz yillik emanlar bor. Maydon juda katta bo‘layotganini bilasiz. Sayfulla Rahmonovich. Bir aylanib chiqish uchun besh-olti kilometr yo‘l yuriladi. Yoz jaziramasida soya beradigan daraxt bo‘lmasa, maydondan o‘tishga odamning yuragi betlamaydi.

– Qarag‘ay bilan archani ko‘paytiramiz.

– Yaxshi! Lekin archalar soya bermaydi. Soya beradigan chinorlar, yasenlar, emanlar mana shu Kommunalchilar ko‘chasida ancha bor. Men bugun borib aylanib ko‘rdim. Bu ko‘chada ikkita yapon magnoliyasi bor ekan.

– Bularni, albatta, saqlab qolish kerak!

– Lekin loyiha topshiriqlarida daraxtlar mutlaqo hisobga olinmagan. Qo‘yib bersak, hammasi qirqiladi.

Sayfulla Rahmonovich soatiga qarab olib:

– Taklifingiz nima? – dedi.

– Favvorani prospektidan sal balandroqqa qursak deyman. – Besh-o‘n metr o‘ngga olinsa, besh-o‘nta ajoyib daraxt saqlab qolinadi.



Sayfulla Rahmonovich Abror chizgan zinapoyalarni endi ko'rdi-yu:

– Bu ancha jiddiy o'zgarish-ku, – dedi. – Zinapoyalar loyiha topshirig'ida yo'q. Bu loyiha qancha joyning tasdig'idan o'tgan. Bu o'zgarishlarni kiritish uchun ko'p joylarning ruxsatini olishimiz kerak. Bunga vaqt qani?

– Lekin ko'zimizga ko'rinib turgan kamchiliklarni hozir tuzatmasak, keyin ishimiz qiyinroq bo'lmaydimi? Qurilish boshlangandan keyin: «Tuzatilsin!» deb qolishsa-chi? Yoki qurilib bo'lgach, keyin tanqid eshitsak-chi? Hali hammasi qog'ozda turibdi. Hozir ishni mukammal qilish imkoniyati ko'proq. Shuni astoydil tushuntirib aytsak, boshqarma ham, boshqa joylar ham yo'q demaydi.

– Yana muhokama, munozara... Shu sizga juda kerakmi, Abror A'zamovich?

– Lekin mana bu yuz yoshli daraxtlarni saqlab qolish kerak-da, Sayfulla Rahmonovich. Buning soyasida qancha odam dam oladi, qanchasi sizga rahmat aytadi!

– Shu odamlarning yana qanchasi daraxtlarning tagiga qog'oz-pog'oz, bo'sh shisha, axlat tashlaydi! Bo'sh shishani urib sindirib ketadiganlari ham bo'ladi. O'shalarining rahmatisiz ham bir kunim o'tar!

– Rost, madaniyatsiz odamlar ham bor. Lekin biz bu maydonni yaxshi odamlar uchun quryapmiz-ku, axir!

– Odamlar soyalab o'tiradigan joylar shahar chetlarida ham oz emas. Ammo bizning markaziy maydonimizda Toshkentday poytaxtga munosib bir salobat-u tantanavorlik bo'lishi kerak. Bu yerda o'sadigan nodir gullar, noyob daraxtlar odamni hayron qoldirsin! «Bizning issiq iqlimimizda ninabargli daraxtlar yaxshi o'smaydi», degan aqida bor edi. Biz bu aqidani yolg'onga chiqaramiz. Men Kavkaz shaharlari bilan gaplashdim. Nalchikda, Kislovodskda o'sgan terakday baland kumushrang archalarni ko'rganmisiz?

– Ko'rganman... faqat...

– Shoshmang! Ana o'shalarining o'n yoshli ko'chatlaridan yuqtasini olib kelib markaziy maydonga o'tqazamiz. Tosh-



kent Dendroparkidan lola daraxtlarini olamiz. Amerika qit'asida o'sadigan bu nodir daraxtning bo'yi emanday baland, gullari xuddi oltinrang lolaga o'xshaydi. Rus o'rmonlaridan oqqayinlar, Ozarbayjondan Lenkoran akatsiyasi olib kelamiz. Qrim qarag'aylari bo'ladi. Gretsianing sofora daraxti, yaponlarning olhirotga o'xshash qizg'ish o'simligi – hammasi markaziy maydonimizni butunittifoq miqyosida bezaydi, unga olamshumul tus beradi. Siz esa soyani aytasiz!

– Sayfulla Rahmonovich, men ham maydonning olamshumul ziynatiga juda tarafdorman. Kumushrang archalar ham ajoyib, Qrim qarag'aylari ham go'zal, lola daraxtlari ham yaxshi. Lekin shular qatorida o'zimizda qadimdan mashhur bo'lgan sarv daraxtlarini, go'zal sadaqayrag'ochlarni ham o'stirsak, yomon bo'ladimi?

– Bu eski daraxtlarning davri o'tgan. Hozir ularni Toshkentda o'stirib bo'lmaydi.

– Nega? Sarv daraxti Toshkent Dendroparkida bor.

– O'lgunday sekin o'sarmish.

– Archaga o'xshab o'sadi-da. Lekin sarv ikki ming yil umr ko'radi. Tuyaga minib uzoqni ko'zlagan odamlar sarv ekan. Navoiylar, ulug'beklar davrida sarvlar juda ko'p bo'lgan. Men yaqinda Moskvadan, Kiyevdan kelgan mehmonlarni Samarqand, keyin Urganchga olib borib keldim. Ular: «Ulug'bek ekan sarvlar qani?» deb so'rab qolishdi. Topib berolmadik. Urgutga olib borib, buloq bo'yidagi ming yillik chinorlarni ko'rsatdik. Xursand bo'lganlarini ko'rsangiz. Xorazmdagi zo'r sadaqayrag'ochlar – gujumlar ham ularni qoyil qildi. Jiyda gullagan kezlar edi. Jiydaning kumush bargiga, oltinday gullagan ajoyib hidiga mahliyo bo'lib qolishdi. Nega shunday sadaqayrag'ochlar, jiydalar Toshkentda kam? – deb savol berishdi.

– Sadaqayrag'ochlarni Navoiy teatrining atroflariga ekan edik, qurib qolyapti-ku...

– Ularga kasal tekkan, Sayfulla Rahmonovich. Vaqtida dori purkab, suv berib, parvarish qilinsa, qutqarib qolish mumkin edi. Qayrag'ochlar suv bo'ylarida, kamqatnov joy-



larda, benzin dudidan uzoqroqda yaxshi o'sadi. Bunaqa no-dir daraxtlarimiz xuddi Samarqandning noyob obidalariga o'xshagan unutilmas bir tasavvur beradi. Shuning uchun odamlar Registon maydonida qancha ko'p rasmga tushsalar, ming yillik chinorlar, ajoyib sadaqayrag'ochlar tagida ham shunday ko'p surat oldirishadi.

– Nima, biz endi odamlarning qayerda ko'proq rasmga tushishiga qarab ish qilamizmi, Abror A'zamovich?

– Gapimni to'g'ri tushuning, men kishilarning talabini hisobga olaylik, tabiiy sharoiti bilan ham hisoblashaylik, demoqchiman, xolos. Mana bu loyihada kumushrang archalar bilan oqqayinlarga kuni bo'yi oftob tushib turadigan eng issiq joy tanlangan. Lekin bu daraxtlar salqin, nam havoni yaxshi ko'radi.

– Biz bu daraxtlarning har biriga yerosti quvurlaridan suv olib boramiz, har birining oldida maxsus purkagichlar ishlab, havoni namlab turadi.

– Shunday qilganimizda ham bu daraxtlar oftobning tig'ida kasallanib qoladi. Men bularning hammasini tajribadan o'tkazganman, Sayfulla Rahmonovich. Tabiat bilan hisoblashmay iloj yo'q. Garmisel shamollar bo'ladi. Oftobning tig'ida harorat ellikdan oshadigan saraton kunlari kumushrang archaga juda yomon ta'sir qiladi, chiroyli shoxlari qo'pollashib, shaklini yo'qotadi, durust o'smay, rangi, shakli o'zgaradi, ming parvarish qilsangiz ham, ba'zi shoxlari qurib qoladi. Oqqayin ham oftobning tig'ida tanasi sarg'ayib, xira tortadi, asli tabiat bergan toza rangi, nafasati keta boshlaydi.

Sayfulla Rahmonovich bu gaplardan sergaklanib, ovozi-ga rasmiy tus berdi:

– Xo'sh, taklifingiz nima?

– Taklifim shuki, kumushrang archa bilan oqqayinni oftobning tig'iga emas, imoratlarning yoniga, soyaroq joylarga o'tkazaylik.



– Qani, loyiha bo'yicha ko'rsating-chi? A-ha, demak, siz ularga maydonning chetidan joy bermoqchimisiz?

Sayfulla Rahmonovich o'z yonida qator turgan telefon apparatlariga ko'z tashlab qo'ydi. Telefonlar hammasi jim turgan bo'lsa ham, Sayfulla Rahmonovich ovozi ko'tarib dedi:

– Sizning bu taklifingiz g'oyaviy jihatdan noto'g'ri, o'rtoq A'zamov! Kumushrang archalar Kreml yonida o'sadigan faxriy daraxtlardir. Shuning uchun biz ularga maydonning markazidan joy ajratganmiz. Siz esa ularni maydon chetiga olib borib qo'ymoqchisiz, bu – sog'lom niyat emas!

Gapning kutilmagan tomonga burilib ketgani Abrorni esankiratib qo'ydi:

– Iye, a... Moskvada ham kumushrang archalar Qizil Maydon chetida, Kreml devorlari tagida o'sadi-ku. Men ularning tabiati bilan hisoblashaylik, demoqchiman, xolos!

– Tabiatni pesh qilavermang. Tabiat biz uchun xudo emas! Kumushrang archalar bilan oqqayinlarni qayerga ekish boshqarma bilan kelishilgan. Men bu masalani qaytadan muhokamaga qo'ymoqchi emasman!

– Unday bo'lsa, o'zingiz bilasiz...

– Lekin siz ham bundan keyingi ishlarni yaxshi bilib qilishingiz uchun bir narsani ochiq aytib qo'yay. Qrim qarag'ayi yoki Nalchik archasi o'rniga, deylik, chinor yoki sadaqayrag'och, jiyda ekishni taklif qilish xunuk bir mahalliychilik, milliy mahdudlikdir!

Abrorning ko'zlari olayib, ovozi qaltirab ketdi:

– Siz mening gapimni buzib talqin qilyapsiz, Sayfulla Rahmonovich! Insof bilan bir eslang: men, «qarag'ayning o'rniga», deganim yo'q, «uning yoniga, qatoriga» dedim! Maydon katta, hammasiga ham o'rin topiladi, dedim!

– Lekin men qayrag'och-u jiydalarni bunaqa markaziy maydonga munosib ko'rmayman! Sizga qo'yib bersa, har bir qishloq ko'chasida o'sadigan tol-u terakni ham mana bu loyihaga tiqmoqchisiz!



– Yana gapni buryapsiz. Men sarvni, chinorlarni aytdim! Hozir chinorlarning adl qomatli yangi navlari bor. Soyabon-day chiroyli o'sadiganlari bor.

– Paradlar yo'lkasidagi chinorlar yetadi bizga. Nodir ninabargli daraxtlar ko'proq kerak!

– Mayli, nodir daraxtlar ham bo'lsin! Lekin ninabargli nodir daraxtlardan tashqari yaxshi soya beradigan daraxtlar ham bo'lishi kerak emasmi? Amerika archasiga chatishtirib o'stirilgan tuya degan daraxt shaharning boshqa joylarida ham ko'p. Bu maydonda uni kamroq loyihalashtiraylik. Ba'zi joylarga majnuntol ekaylik. Anhor bo'yida bo'sh turgan joylarga chiroyli ko'kterak ekib qo'yish mumkin.

– Men terakka qarshiman!

– Nega? Axir terak ninabargli daraxtlarga nisbatan yetmish barobar ko'p kislorod beradi! Ishonmasangiz men kitobini olib kelib ko'rsataman. Yetmish barobar ko'p! Katta shaharlarda yashaydigan odamlarning kislorodga qanchalik tashnaligini bilasiz-ku!

Rahmonov Abror bilan teng bo'lgisi kelmaganday, uning gapini oxirigacha jim turib eshitdi-da:

– Bo'ldingizmi? – dedi. – Siz mutaxassis sifatida o'z ishingizni yaxshi bilasiz. Ammo nuqul qaltis muammolarni ko'tarib yurasiz!

– Sizga qaltis ko'ringan muammolarni hayotning o'zi kun tartibiga qo'yayapti. Biz bu dolzarb muammolardan o'zimizni olib qochsak, mardlikdan bo'lmaydi. Axir rahbarlar ham, xalq ham: «Murakkab muammolarni chetlab o'tmasdan dadil hal qilinglar», deb bizga aytib turibdi-ku.

– To'g'rilikcha aytilgan gaplarni siz bir dardga aylantirib yuboryapsiz. Holbuki, dard – sog'lomlik belgisi emas!

– E, axir, sog' odam ham biror muammoning hal bo'lishi uchun jon kuydirib dard chekishi mumkin-ku? Yaxshi ma'nodagi dard, bu – mehrdan, jonkuyarlikdan kelib chiqadi. Usmon Nosirning mashhur satrlarini eslang:



«Ishq bo'lmurmi dardi yo'q tanda? Dardimsanki she'rim, yaxshisan».

Sayfulla Rahmonovich sabrsizlanib soatiga qarab oldi. Ketadigan payti yaqinlashib qolgan edi:

– She'riy bahslar uchun mening vaqtim yo'q, o'rtoq A'zamov! Men direktor sifatida o'z qo'l ostimda ishlaydigan odamlarning mafkuraviy sog'lomligi uchun ham javobgarman. Shuning uchun sizni bir narsadan ogohlantirib qo'ymoqchiman.

– Qaysi narsadan?

– Sizni talabalik davridan beri biladigan bir o'rtoq mas'ul kishilar davrasida g'alati gap aytgan edi. «A'zamov sirg'an-chiq yo'llardan ko'p yuradi, milliy mahdudlik tomonga og'ib ketadi», deganda men sizni himoya qilgan edim. Ammo bugungi gaplaringizga qaraganda, o'sha o'rtog'ingiz haq ekan. Sizda mahdudlik tomonga og'ish bor!

– Bo'lmasa men ham ochig'ini aytay...

– Shoshmang! Siz bu illatdan tezroq qutulmasangiz o'zingizni ham qiynab qo'yasiz, bizni ham.

– Ruxsat bering, men ham ochig'ini aytay.

– Endi ayting.

– Meni talabalik davrimizdan beri kuzatib yurgan o'sha o'rtoq kimligini aniq bilmayman. Balki Bahromovga o'xshagan odamlardan biridir. Bular elliginchi yillarning boshlarida sog' narsalardan illat qidirib, hatto «Alpomish»day xalq dostonini xalqqa qarshi zararli narsa deb yurgan paytlari esimizdan chiqqan emas.

Sayfulla Rahmonovichning o'zi ham o'sha vaqtlarda yaxshi sovet arxitektorlaridan biriga noo'rin g'oyaviy ayblar taqab, uni «fosh» qilishga uringan, biroq ellik oltinchi yilda o'zi fosh bo'lib, uyatga qolgan, keyinchalik xatosiga iqror bo'lib, uni takrorlamaslik sharti bilan rahbariy ishga o'tgan edi. Shuning uchun bu to'g'rilarda gap ochilishidan yuragi doim bezillab turardi. Hozir ham birdan jahli chiqib Abror-ga o'shqirdi:



– Tuzatilgan kamchiliklarni kovlashtirish nimaga kerak? Biz hozir butunlay boshqa davrda yashayapmiz!

– Sizning bugun menga qo'ygan ayblaringizda o'sha eski hadixsirashlarning inersiyasi sezilib qolmaganda men bu gapni qo'zg'amas edim...

– Siz asossiz gaplarni qo'zg'ayapsiz!

– Asos keltiray bo'lmasa! Men faqat O'zbekistonda emas, butun mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning landshaft arxitekturasini o'rganib chiqib, dissertatsiya yoqladim, kitob yozdim. Moskva olimlari ham, o'zimizning respublika matbuoti ham bu ishga ijobiy baho berdi, meni butunittifoq miqyosida fikrlaydigan mutaxassis deb baholadi.

– Siz bu bahodan esankirab, hovliqib qolganga o'xshaysiz, o'rtoq A'zamov!

– Aksincha, agar men cheklangan loqayd bir odam bo'lsam edim, sizning hamma gapingizga ko'nardim, «Keyin nima bo'lsa-bo'lar, hozir topshiriqni bajarib, mukofotini olib ketaveray-da», der edim. Lekin men bunday qilolmayman, bunga vijdonim yo'l bermaydi. O'sha oqqayinlar, kumushrang archalar oftobning tig'ida qurib qolmasin, deb jon kuydirganim uchun siz bilan bahslashyapman, ularning tabiatiga to'g'ri keladigan yaxshi joy tanlaylik deyapman!

– Qayrag'och-u sarvlar haqidagi gaplaringiz-chi?

– Buning ham sababi bor. Har bir o'lkaning o'ziga xos daraxtlari, o'z tabiatiga munosib manzaralari bo'ladi. O'rol Tansiqboyevning suratlarini eslang. Tog'lar, mirzateraklar, gullagan o'riklar, ulug'vor chinorlar, sadaqayrag'ochlar. Rasom o'z o'lkasining eng go'zal daraxtlarini, eng ajoyib manzaralarni e'zozlab suratga olsa-yu, ularni jahonga ko'rsatsa, bu go'zalliklardan boshqa qardosh xalqlar ham bahramand bo'ladi. Axir bu go'zal daraxtlar-u manzaralarni pisand qilmay yerga urgan noshukr odamdan ko'ra ularni e'zozlab, boshqa xalqlarga ham ko'rsata olgan, shu bilan ularning dilida ham yangicha bir zavq uyg'ota olgan O'rol Tansiqboyev o'zining baynalmilal burchini yuz karra yaxshiroq ba-



jargan bo'lmaydimi? Men ham mana shuning uchun boyagi takliflarimni sizga aytgan edim. Lekin siz gapni kutilmagan tomonga burib yubordingiz. Agar hozir shu kabinetda ikkovimizdan birimiz noto'g'ri yo'lga og'ib ketgan bo'lsak, bu men emas, balki siz!

So'nggi gap Rahmonovga juda qattiq botdi. U rangi quv o'chib o'rnidan sakrab turdi, xuddi minbardan gapirgandek, ovozi ko'tarib:

– Bekorlarni aytibsiz! – dedi. – Men bunday ig'vo gaplarni qat'iyana supurib tashlayman! Safsata so'qishga vaqtim yo'q! Agar mening fikrimga qo'shilmasangiz, boshqarmaga arz qiling! Mendan aqlliyoq bo'lsangiz, balki sizni direktor qilib qo'yishar. Lekin hozircha men direktor ekanman, sizdan ish talab qilaman, g'oyaviy qing'ayishlarga ham yo'l qo'ymayman!

Abror qog'ozlarini shoshilmay yig'ishtirib oldi-yu, tishini tishiga qo'yib, boshqa hech narsa demay chiqib ketdi.

Kechagi charchoqlarga bugungi asabiy gaplar qo'shilib, Abror ishdan juda bo'shashib chiqdi. Ko'ngli xira, boshi lo'qillaydi, ko'kraging chap tomoni tosh osib qo'yilganday og'ir. «Agar mendan aqlliyoq bo'lsangiz balki sizni direktor qilib qo'yishar...» Abror bu gapni ichiga yutib indamay ketgani endi alam qilmoqda edi. Nahotki u amal talashgan bo'lsa? Xayolida hamon Sayfulla Rahmonov bilan bahslashar, rulda o'tirgani goho esidan chiqib ketar, mashinani parishonlik bilan haydab borardi. Tiqilinch bir chorrahada qizil kafgirchasi bilan yo'l ko'rsatayotgan militsioner qattiq hushtak chalib uni to'xtatdi. Shunda u xayolini sal yig'ishtirib, ko'cha qoidasini buzganini sezdi. Militsioner uning uzrlari va yalinishlariga qaramay, ogohlantirish talonini shartta teshib berdi. Talonda bulturgi teshik ham bor edi, yoniga yangisi qo'shilganidan Abrorning alami oshib, militsioner bilan g'ijillashib qoldi. Agar og'zidan qo'pol gap chiqsa, militsioner uni bezorilikda ayblab, yomonroq jazoga tortishi ham mumkin edi. Bir payt Abror buni sezdi-yu:



«Bas!» deb mashinasiga qaytib o'tirdi. Xayoli bu mojaroga alahsib, narigi dardlari birpasga esidan chiqqan edi. Qaytadan esiga tushganda ko'nglining allaqayerida hushyor torttiruvchi bir tuyg'u uyg'ondi. «Battaridan ehtist bo'l. Yaxshisi, biron chora topib, sal o'zingga kel, nafasni rostla. Uyda seni kutib o'tirganlar bor». Abror biroz yo'l yurgach, tanish gastronom oldida mashinasini to'xtatdi-da, unga kirib chiqdi. U o'z uylarining eshigi oldiga kelib, inglizcha qulfga kalit solayotganida portfelida ikkita shisha bir-biriga sekin urilib shiqirlab qo'ydi. Eshikdan kirayotganda Zafarni kecha it qopgani esiga tushdi. «Tinchlik bo'lsinda», deb, yo'lakda tufisini shippakka almashtirdi. Shunda oshxona tomondan taralayotgan yoqimli bir hid dimog'iga «gup» etib urildi. So'ng o'sha yoqdan chiqib kelgan Zafar dadasini ko'rgan zahoti orqasiga qaytib quvnoq tovush bilan xabar berdi:

– Oyi, dadam keldilar!

Abror o'g'lining chopqillab yurganini ko'rib, ichida xayriyat, deb qo'ydi va to'g'ri oshxona tomonga o'tdi.

– Hormang, xonim! Yaxshi hidlar kelyapti.

Dadasining varaqi somsani yaxshi ko'rishini biladigan Zafar:

– Bugun somsa! – dedi. – Siz kech qoldingiz, dada. Biz rosa yedik.

– Nima, menga qolmadimi?

Vazira kulimsirab duxovkani ochdi va hozirgina qip-qizarib pishgan somsalarni laganga terib ola boshladi.

– Gazak yaxshi bo'lishini sezgan ekanman-da! – dedi Abror va horg'in bir alpozda oshxonadagi silliq oq taburet-kaga o'tirdi. Portfelini ochib, ikkita shisha oldi. Vazira to'rt yulduzli gruzin konyagini darhol sovutkichga qo'ydi. Rangdor suratli katta shishani qo'lga olib qiziqib qarar ekan:

«Eski qasr», – deb o'qidi: – Voy, bu vinoni juda maqtashgan edi-ku! Ruminiyaniki ekan. Qayerdan topdingiz, Abror aka?



Abror tezda javob bermadi. Tashqi olamning ayovsiz to'qnashuvlari va qo'pol zarbalaridan keyin mana bu ichki olamda – oilasidagi muomala behad nafis va mayin tuyuldi, u issiq elitgan odamday xiyol karaxt bo'lib turdi.

– Ishda biron ko'ngilsizlik bo'ldimi, Abror aka?

– E... yo'lida... qoidani buzib, jazo oldim. Talon yana teshildi.

– Hah, shunga shunchami? Yaxshisi, mana bu vinodan gapiring. Buni qayerdan topdingiz?

– Bunimi? – Abror noxush o'ylarni xayolidan butunlay surib tashlashga intilib, Vaziraning sho'x ohangiga yarasha hazilomuz gap izladi: – E, bu «Eski qasr»ni harbiy hiyla bilan qo'lga kiritdik, xonim. Gastronomchi o'rtog'im o'ziga besh-oltita olib burchakka berkitib qo'ygan ekan. Tasodifan ko'rib qoldim.

– Ko'rib qolgan bo'lsangiz, ko'proq oling edi!

– Ho, ishtaha karnay-ku!

– Mehmonlarga demoqchiman.

– Biz o'zimiz qaysi mehmondan kammiz?.. Aytmoqchi, Zafar masalasi tinchmi?

– Tinch. Vetvrach qo'ng'iroq qilgani yo'q. Bola o'ynab yuribdi-ku.

– Ha, ko'rmaganday bo'lib ketadi... Keling, shu bugun dunyo g'amlarini bir unutaylik... Mana, pishloq. Vino bilan yaxshi ketadiganini oldim.

– Qo'l-po'l yuvasizmi?

– Hozir, – deb, Abror ichkari uydan yengil xonaki kiyimlarini kiyib chiqdi. Vannada bet-qo'lini yuvib, oshxonaga qaytib keldi. Ungacha Vazira stol ustiga ikkita qadah, bir likopcha qulupnay, ikkita yangi bodring va bir chinni lagan somsani tuzab qo'ygan edi. Abror vinoni ochib, qadahlarga quyar ekan, yo'lak orqali ichkari tomonga bir ko'z tashlab oldi.

Bolalar televizorda qandaydir sarguzasht filmni ko'rmoqda edilar. Abror oltinrang vino to'la qadahni qo'lga olar ekan:



– Keling, shu bugun yosh kelin-kuyov bo'lgan dam-larimizga bir qaytaylik, – dedi.

– O'n besh yil orqaga ketaylikmi? – deb kuldi Vazira.

– Yo'q, o'n besh yil oldin ko'tarilgan balandliklarimizga yana bir chiqaylik. Axir o'shanda biz hamma narsadan mamnun, nihoyatda baxtiyor odamlar edik.

– Hozir-chi?

– Hozir ham o'shanday bo'lishimiz uchun... Oling!

– Xo'p, – deb Vazira qadahini ko'zi barobar ko'tardi-yu, keyin labiga yaqinlashtirdi.

Ular ikkovi qadah urishtirishni lozim ko'rmas edilar. Abror kattagina qadahni oxirigacha bo'shatdi. Qulupnaydan bir donasini og'ziga soldi. So'ng yana bir qadahni to'latib, to'rt ko'z tugal bo'lishi uchun ichdi. Vazira vinodan bir ho'plab, qadahni yana qaytib qo'ydi. Abror och bo'lgani uchunmi, vino tez ta'sir qilib, kayfi ko'tarilib borayotganini sezdi. Bunday paytda u nimanidir ko'kka ko'tarib maqtagisi kelardi. Somsadan bitta yeb ko'r-di-yu:

– Bay-bay! – dedi. – kuyovlar yeydigan somsa bo'pti-da!

– Kelinlar ham yesin bo'lmasa, – deb Vazira somsadan bitta oldi.

Yo'lakda telefon jiringlay boshladi. Bolalar televizorning shovqini bilan qo'ng'iroqni eshitmas edilar. Abror shoshilib borib go'shakni oldi:

– Allo! Kim?.. Puf!.. – Go'shakdan kimningdir nafas olgani eshitilganday bo'ldi. – Nega indamaysiz? – dedi Abror go'shakga.

Nihoyat, ovozi endi yo'g'onlasha boshlagan o'smir yigitchaning tovushi eshitildi:

– Malika bormi?

– Bor. Siz kimsiz o'zi?

– Darsni so'ramoqchi edim.

Abror g'ashi kelibroq dedi:

– Darsga juda kech-ku!

– Kechirasiz. Kerak edi.



– Malika! – deb Abror qizini ichkaridan chaqirib oldi-da, ovozini pasaytirib ogohlantirdi: – Sinf doshingga aytib qo'y. Bunaqa bemahalda telefon qilmasin. Umuman... Yaxshi emas!..

Dadasining oldida uyalib qolgan Malika:

– Xo'p, – deb go'shakni oldi-da, – hozir! – dedi va uzun shnurli telefon apparatini sekin ko'tarib, darsxonasiga olib kirib ketdi.

Qizining o'n besh yoshga to'layotgani Abrorning esiga tushdi-yu, boshini chayqab qo'ydi va oshxonaga qaytib ketdi.

– Kim? – so'radi Vazira.

Abror Malikaga o'g'il bola telefon qilganini aytib:

– Siz ertaga bir jiddiyroq gaplashing, – dedi.

Bolalarining yaxshi kelajagi uchun qadah ko'tardilar. Abrorning kayfi yana sal oshdi-yu:

– Vino ajoyib ekan-da, a, Vazira? – dedi. – Men bunaqasini hali ichganim yo'q edi. Qaymoqday ketadi-ya!

– Yaxshi. Lekin o'zimizning «Gulob» ham bundan qolishmaydi.

– «Gulob»ning ovozasi bor-u o'zi yo'q. Bultur bir joyda ozgina ichgan edim, shundan beri magazinlardan so'roqlayman. Siz qayerda ko'rdingiz?

Vazira kecha restoranda Sherzod bilan «Gulob» ichganini xayolidan uzoqlashtirishga tirishib, dedi:

– Moskvaga olib borishar ekan.

Abror bu gapning davomini kutganday bir lahza jim qoldi. So'ng Vaziraning ko'zlariga qaradi-yu, xotini Moskvada bir sabab bilan shu vinodan ichganini, lekin hozir buni ochiq aytishga andisha qilayotganini sezdi.

– Men buni sizga keyin... butun tafsiloti bilan aytib berarman, – dedi Vazira. – O'sha... mehmondo'stligimiz sabab bo'ldi. Kecha tushlikni metrochi tanishlar bilan «O'zbekiston» restoranida yedik. Men «Gulob»ni o'sha yerda tatib ko'rdim.



Abrorning esiga ertalab tamomlanmay qolgan gap tushdi. Istehzoli jilmayib:

– Bunaqa ishlarga Bahromov juda chaqqon, – dedi.

Vazira: «Bahromov yo'q edi», deb yolg'on gapirishga tili bormadi. «Men nimadan qo'rqaman?» deb o'zidan o'zi so'radi. So'ng Abrorga dadil ko'z tikib, dedi:

– Xayolingiz bo'linmasin, Sherzod Bahromov har qancha chaqqon-u ustomon bo'lganda ham, men oilasiga xiyonat qiladigan ayollardan emasman.

– Xiyonat qilishingiz mening ko'nglimga kelgani yo'q. Har kimning o'ziga insof bersin... Men faqat o'sha korchalonga endi hech yaqinlashgim kelmaydi. Sizning ham undan uzoqroq yurishingizni istayman.

– Men sizning hamma istaklaringizga so'zsiz bo'ysunaverishim kerakmi? – so'radi Vazira muloyim jilmayib.

– Yo'q, nega? Siz ham mustaqil odamsiz.

– Xayriyat! Mustaqil odam eri yomon ko'rgan kishini albatta yomon ko'rishi shartmi? Men Sherzodning muomalasiga yarasha ish yuzasidan muomala qilib yuribman.

– Lekin bahromovlar muomalada, so'zda bir xil-u ishda, amalda butunlay boshqa xil. Siz ana shuni bilmaysiz!

– Bahromovlar? – tushunmay so'radi Vazira...

– Ha, Sayfulla Rahmonov ham uning sherigi!..

Abror direktor bilan bo'lgan dahanaki jangni hozir eslagisi kelmas, Vaziraga aytgisi ham yo'q edi. Lekin ichgan vinoning ta'sirida so'nggi gap og'zidan chiqib ketdi. Vazira erining ishdan xafa bo'lib kelganini boya sezgan edi, endi buning direktorga aloqasi borligini payqadi-yu:

– Nima, direktor bilan oralaringdan yana biron gap o'tdimi? – dedi.

Abror javob bergisi kelmay gapni Sherzodga burdi:

– Qalay, Bahromov meni milliy mahdudlikda ayblagani yo'qmi?



Sherzod samolyotda aytgan o'sha gap «lop» etib Vaziraning esiga tushdi.

– Nima, Sayfulla Rahmonov ham sizga shunaqa dedimi?

Abror bugungi to'qnashuvni endi yashirib bo'lmashligini sezdi-yu, hammasini boshdan oxirigacha batafsil aytib berdi.

– Ob-bo! – deb Vazira birdan ko'ngilsizlanib qoldi:

– Sizning xarakteringiz ham juda og'ir-da. Muomalada yo'qsiz! Direktor sizga katta bir loyihani ishonib topshirgan paytda u bilan xafalashib nima qilardingiz?

– Shunday adolatsiz gaplarni aytsa indamay ko'tarib ketaveraymi?

– Siz haq bo'lsangiz, buni yotig'i bilan tushuntiring edi.

– E, yotig'i bilan gapirsangiz quloq solmaydi! Faqat o'zining manfaatini o'ylaydigan odam-da. Rejani bir amallab oshirib bajarsa, raport berib, mukofot olsa bo'ldi, ekkan daraxtlarimiz o'sadimi yoki qurib qoladimi, bunisi bilan ishi yo'q. Cheklanganlik, mahdudlik deb mana buni aytsa bo'ladi! Lekin bular o'z ayblarini boshqalarga to'nkab o'rgangan. Ayniqsa, boshqalar bulardan iste'dodliroq bo'lsa, baloga qoladi. Bunaqa layoqatsiz odamlar iste'dodlarni tabiatan yomon ko'radi. Muz olov bilan chiqishmaganday, bular ham o'zlaridan qobiliyatliroq odamlar bilan chiqisholmaydi. Bironta ilmoq topib, iste'dodli odamga yomon ayblarni ilishga tirishadi. Yana bu ishni yashirib qilishadi, eshikni ichidan bekitib kimlarnidir sening yomonligingga ishontirishadi.

– Direktor bo'lgandan keyin uning gapiga quloq solishadi-da. Bahromov ham ariqning boshida o'tiribdi. Siz bular bilan gap talashib nima yutasiz? Nuqul o'zingizga tashvish sotib olasiz!

– Lekin bugun Rahmonov ochiq gapirgani durust bo'ldi, men ham ochiqchasiga olishdim. Birorta da'vosini isbotlab berolmadi. Men dalil keltirsam, inkor etolmay jahli chiqadi, zaifligidan o'shqiradi!

– Endi nima qilmoqchisiz?



– Boshqarmaga takliflarimni yozib bermoqchiman. Sadriyevlarning yangicha o'ylaydigan durust odam shekilli. Adolat qilsa kerak.

Boshqarmada ishlaydigan Vazira Sadriyev bilan yaxshi edi-yu, lekin uning eri Abror o'z direktori bilan kelisholmay arz qilib borsa, bu ikkovini ham noqulay ahvolga solishi mumkin edi. Shuning uchun Vazira Abrorni bu niyatidan qaytarmoqchi bo'ldi:

– Sadriyevning ishi boshidan oshib yotibdi. Bunaqa konfliktlarni yomon ko'radi.

– Yomon ko'rsa... bor-e, deb boshqa institutga ishga ketaman! Arxitektura fakultetiga borib dars beraman. Ilmiy darajam bor.

– Yangi kafedra ochilarmishmi?

– Qaysi, landshaft arxitekturasini bo'yichami? E, bahromovlar bu kafedraga ham tuya go'shti yedirishganga o'xshaydi. Rektor bosh qo'shib, masala sal yurishgan edi, keyin taqqa to'xtab qoldi. O'zim ishga borsam, iziga tushib, tezlatarmidim...

– Bu yoqda shunday ajoyib ishni boshlab qo'yib, qayoqqa borasiz? Markaziy maydondagi yangi favvoralarning loyihasi chiroyli chiqibdi-ku. Men boya ko'rdim...

– Sizga yoqdimi? Kechasi o'zimga ham... ilhom kelganday bo'luvdi.

Ular gapga berilib, yo'lakda telefon jiringlayotganini eshitishmagan ekan. Bir vaqt Malika oshxona eshigini ochdi-da:

– Dada, sizni so'rashyapti! – dedi.

Abror yo'lakka chiqdi. Go'shakni qulog'iga qo'ygan edi, ukasi Shokirning ovozi eshitildi:

– Aka, yaxshi o'tiribsizlarmi? Kelinoyim qaytibdi. Endi tinchib qolgandirsiz?

Abror uyni, ota-onasini so'radi, so'ng:



– E, baribir tinchlik yo‘q, uka, – dedi. – O‘tgan kuni raijyroqo‘mga kirgan edim.

– Ha, ko‘chishimiz aniq ekanmi?

– Aniq. Sen aytgan gap to‘g‘ri chiqdi.

– Uchastka masalasi-chi? Surishtirdingizmi?

– Hali unga vaqt topolganim yo‘q.

– Lekin «Beshqayrag‘och» tomonda uchastka bo‘lishi mumkin deyishadi.

– Ko‘ramiz. Ilinadigan joyi topilsa, men o‘zim borib ayta-man. Salom de hammalariga.

Abror Vaziraning oldiga qaytib borayotganda ota-onasini bu kvartiraga ko‘chirib kelish tashvishi xayoliga yana bosib keldi.

Vazira uning yuzi tundlashib qaytganini sezdi-yu:

– Nima gap? – dedi.

– He, shu Shokir bilan gaplashdik.

Abror bundan uch-to‘rt kun oldin Vaziraga aytib dardlashmoqchi bo‘lgan chigal muammoni hozir qo‘zg‘agisi kelmadi. Chunki ota-onasini bu yerga ko‘chirib kelish haqidagi gapdan Vazira ham tashvishga tushib qolishini, balki ikki orada mushkul bir bahs boshlanishi mumkinligini sezib turardi. «Hech bo‘lmasa, Zafardan ko‘nglimiz tinchisin, keyin gaplasharmiz, hali vaqt bor-ku», deb o‘yladi.

– Hol-ahvol so‘rab qo‘ymoqchi ekan, sizga salom aytdi, – dedi.

Vazira uning nimanidir aytgisi kelmayotganini sezdi. Lekin Sherzod Bahromov haqida boshlangan gap Abrorning xayolidan uzoqlashgani Vaziraga xiyol yengillik berdi. U Sherzod chizmoqchi bo‘lgan Bo‘zsuvga oid loyihani Abrorga hozir aytishni istamasdi. Chunki Abror «Bo‘zsuvning egri joylarini to‘g‘rilash»larga qarshi ekanini Vazira yaxshi bilardi. Xususan, bu ishga Sherzod Bahromov qo‘l urishini Abror eshitsa, hozir Vaziraga qattiq e‘tirozlar qilishi, balki u bilan xafalashib qolishi ehtimolga yaqin edi. «Uyda ham ish to‘g‘risidagi munozaralar bilan asabni buzish nima kerak?



– o'ylandi Vazira. – Mening ham faqat o'zim bilishim, o'zim mustaqil hal qilishim kerak bo'lgan ishlarim bo'lishi mumkin-ku. Vaqti kelganda, Abror ham buni bilar, e'tirozi bo'lsa, o'shanda aytar».

Noxush gaplar Abrorning vinodan olgan yengil kayfini tarqatib yuborganday bo'ldi. Sovutkichda gruzin konyagi bor edi. Abror o'rnidan turib shuni ochdi.

– Ha, vino-chi? – dedi Vazira.

– Vino chivin chaqqanday ham bo'lmayapti. Sizga qolsin.

Vazira bufetdan kichkina billur qadah oldi-da, toza sochiq bilan artib, Abrorning oldiga qo'ydi.

– Mast bo'lib qolmang yana. Somsadan oling.

Vazira ichilmagan qadahini qo'lga oldi. Yana bir qo'ldan ichdilar.

Abrorning yuzlari qizarib, ko'zlari o'ttiz yashar yigitlik paytidagidek cho'g'lanib ketdi. Vazira u bilan birga o'tkazayotgan umrlarining eng shirin damlarini eslaganday zavqli kulimsiradi-da:

– Shuni siz uchun olaylik, kuyov to'ram! – dedi.

– Rahmat, kelin poshsha!

Vazira oxirigacha ichdi. Abror ham qadahini bir ko'tarishda bo'shatdi-da, Vazirani belidan quchib o'ziga tortdi. Uni bir o'pib:

– Tobora shirin bo'lib ketyapsiz-da! – dedi-yu, yana o'pa boshladi.

Shu payt yo'lak tomondan Zafarning shikoyatomuz tovuhi eshitildi:

– Dada, Malika xokkeyni ko'rgani qo'ymayapti! Ikkinchi programmani olma desam, olyapti. Balet ko'rarmish! Oyi, ayting, xokkeyni qo'ysin!

Oshxona eshigi ochiq qolgan ekan. Vazira o'pishganlarini o'g'li ko'rganligini payqadi-yu, uyalganini yashirish uchun qovog'ini soldi:

– Soat o'n bir bo'lyapti. Endi o'chiringlar. Xokkey ham bo'lmaydi, balet ham! Malika, men senga nima degan edim?



Zafar televizor turgan xonaga qaytib kirdi-da, Malikaga shivirladi:

– O‘pishishayotgan ekan...

– Chaqimchi! – deb Malika ukasini urishdi.

Eshikda yuzi allanechuk yashnab turgan Vazira ko‘rindi:

– Men yo‘ldan charchab kelganman, qizim. Dadang ham kecha uxlay olmagan ekan. Shuning uchun bugun ertaroq yotamiz. Televizorni o‘chir. Qani...

Malika oyisi ko‘rsatgan vajlarning shunchaki bahona ekanini sezganday yelka uchirdi-da:

– Boshlandi, – deb qo‘ydi.

– Nima boshlanipti. A?.. Voy qiz qozi-ey!

Malika: «Nimaligini siz mendan yaxshiroq bilasiz-ku», deganday qilib televizorni o‘chirdi-da:

– Xayrli tun, – deb o‘zining bo‘lmasiga chiqib ketdi.

Vazira Zafarni odatdagiday televizor turgan xonaning divaniga yotqizdi. Keyin Abror ikkalovlari yotoqqa kirib ketishdi.

* * *

Oradan uch kun o‘tgach, Abror vetvrachga uchrab, Zafarga hech qanaqa ukol qilishning hojati yo‘qligini, Sirtlon sog‘ chiqqanini aniqladi. Shuning xursandchiligiga Sirtlonni qafasdan qutqarib, Qibray tomondagi yaxshi itga zoriqqan bir kolxozchiga eltib berishdi. Ertasi kuni er-xotin uydan birga chiqib, mashinalari turgan garajga tomon borayotganlarida Vazira Abrorning otasini eslab qoldi:

– Aytmoqchi, kecha Malika aytdi, dadamlar kelgan ekanlar. Nuqul «uh» tortar emishlar. Siz ko‘rishga borgan ekan-siz... Tinchlikmi? Nega aytmay-siz?

So‘nggi kunlarda Vazira Abrorga juda muloyim va allanechuk yuvosh ko‘rinar edi. O‘sha chigal muammoni hozir o‘rtaga tashlasa, gap osonroq ko‘chishini sezdi-yu, qator



turgan temir garajlarning oldiga yetgunlaricha hammasini birma-bir hikoya qilib berdi.


– «Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa boshqaga » degan gap bor, Vazira. Dadam: «Bu hovli senlar chizgan loyiha tufayli buzilyapti», deb achitib gapirdilar. Unday emas!» deyolmadim... Endi shunga bog'liq qiyinchiliklar uchrasa-yu, biz o'zimizni olib qochsak, mardlikdan bo'lmas, deb o'yladim.

Vazira anchagacha indamadi. Faqat yuzi birdan so'lg'in tus oldi. Bu orada ular tashlandiq bir joyni naridan-beri tekislab o'rnatilgan yigirma-o'ttizta temir garajning oldiga yetib bordilar. Abror qor-yomg'irdan zanglab, bo'yoqlari ko'chib ketgan chetki garajni ocha boshladi. Vazira bu temir shaharchaning hozircha bo'sh tashlab qo'yilgan joyda muvaqqat turganini bilardi. Kelgusi yilda bu yerga katta gastronom tushishi kerak. O'shanda Abror yana avtokran topib, garajini uchinchi bir joyga eltib o'rnatishi kerak bo'ladi. Temir garajni u yoqdan-bu yoqqa ko'chirib yurganlarida orqa tomoni urilgan, bir-ikki joyi mayishib, ichiga kirib ketgan, Abror bolg'a bilan urib tekislamoqchi bo'lganda yara iziga o'xshash chandiq paydo bo'lgan edi. Vazira shuni ko'rganda, negadir qaynonasi bilan birga yashagan yillarda boshidan kechirgan xafachiliklarni eslab ketdi. Eski dilsiyohliklarni eslash mana shu zanglagan temirga qarab turishday noxush tuyulardi. Arzimagan narsalar tufayli buzilgan asablar, toshday qattiq tekkan gaplar Vaziraning xotirasida xuddi shu garajning mayishgan va chandiqqa o'xshab qolgan joylaridek xunuk izlar qoldirgan edi.

Abror mashinasini tashqariga olib chiqib, garajni bekitdi. So'ng oldingi eshikning o'ng tomondagisini ochib, Vaziraga muloyim tovush bilan:

– Qani, o'tiring, – dedi.

Oldingi deraza changdan xiralashib qolgan edi. Vazira mashinaga chiqib o'tirguncha Abror o'rindiq tagidan doka olib, uni apil-tapil artidi. Erining jonsarak harakatlarida va



xotiniga qilgan mayin muomalasida qandaydir gunohkorlik tuyg'usi sezilayotganga o'xshardi.

Abror mashinasini o'nqir-cho'nqir joylardan sekin olib o'tdi-da, katta yo'lga burilayotganda radioning tugmasini bosdi. Ertalabki konsert hali tugamagan edi. Oraga tushgan noqulay jimlikni o'ynoqi rubob sadolari bilan bartaraf qilgisi kelgan Abror radioni balandlatib qo'ydi. Sho'x kuy Vaziraning asabini battar qo'zg'atganday bo'ldi. U ovozi radiodan balandroq ko'tarib:

– Lekin yaxshi qilmabsiz! – dedi Abrorga.

– Nimari?

– Shoki' ukangiz kvartira olaylik, degan ekan. Siz uning yonida qattiq tursangiz bo'lmasmidi? Kvartira olib, to'g'ri ko'chib bo'salar, o'zlari ham qiynalishmaydi. Biz ham tinch o'tiramiz.

– Aytdim-ku. Men ham shu fikrda edim. Bisotimda bor hamma dajillarni keltirdim. Lekin chol-kampirni ko'ndirolmadim.

– Bo'shlik qilibsiz! Oyingiz doim sizning bo'shligingizdan foydalanadi.

Abror termozni bosib, mashinani qizil chiroq oldida keskin to'xtatdi-yu, xotiniga o'girilib qaradi.

Ertalab unga muloyim va, hatto, yuvosh tuyulgan Vaziraning yuz-ko'zidan hozir zarda va g'ashlik yog'ilib turganga o'xshardi.

– Tavba! – dedi Abror. Radiodan berilayotgan sho'x kuy endi uning ham g'ashiga tegdi. U bir keskin harakat bilan radioni o'chirdi.

– Bo'lmasa siz qattiqroq turing, bir ko'raylik! – dedi Abror istekzo bilan.

– Bo'pti, ko'rasiz.

– Ko'rganda nima? Ularni biznikiga keltirmoqchi emas-misiz?



– Marhamat, kelib-ketaverishsin, eshigimiz ochiq. Lekin shuncha odam kvartiralarda turganda nega bu kishilar faqat uchastkada turishlari kerak? Bu qanaqa erkalik?

– Uchastkada turgan odamlar ozmi? Sizningcha, o'shalar hammasi tantiq odamlarmi?

Abror gap bilan bo'lib, ko'k chiroq yonganini payqamagan edi. Orqada turgan mashinalar asabiy dudutlab, uni hushiga keltirdi. Abror mashinani tez yurgizib, chorrahadan o'tkazayotganda, Vazira sal o'zini bosib gapirdi:

– Koshki uchastka tez bitsa! Bir-ikki yilgacha o'zlari ham loyga botib, bizni ham azobga qo'yishadi.

– Hovliga o'rganishgan bo'lsa, qandoq qilishsin? Keksa odamlar, umrlari g'animat.

– Umrlari g'animat... bo'lgani uchun ham behuda azob tortmasdan, kvartirada tinchgina turishsa bo'lmaydimi? Siz mehribon o'g'il bo'lsangiz, ularni bu xato yo'ldan qaytarishingiz kerak emasmi?

– Men qaytarolmadim, – dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. – Endi balki siz, mehribon kelin, qaynona-qaynotangizni to'g'ri yo'lga solib qo'yarsiz?

Abrorning kulib gapirganidan yana jahli chiqqan Vazira:

– Har holda men sizga o'xshab kurashmay taslim bo'ladiganlardan emasman! – dedi.

Mashinani Navoiy ko'chasi bo'ylab O'rda tomonga haydab borayotgan Abror indamay yelka qisdi. Vazira ham ishxonasiga yetguncha qayta og'iz ochmadi.

U qaynota-qaynonasi bilan bevosita gaplashib so'zini o'tkazolmasligini bilardi. Chol-kampir bilan dadil gaplasha oladigan odam – Vaziraning onasi – ilgari raykomlarda ishlagan Zumrad Sodiqovna edi. Vazira shuni eslar ekan, oyisini anchadan beri ko'rmaganini, undan bir xabar olib qo'yishi ham kerakligini o'yladi.

Abror mashinasini ko'prikdan o'tkazib, yo'l chetida to'xtatdi. Vazira doim shu yerda tushib qolardi va



ishxonasiga suv bo'yi bilan piyoda ketardi. U eshikni ochib, mashinadan tushar ekan, Abrorga qaramay:

– Men ishdan keyin oyimni ko'rgani bormoqchiman, – dedi.

Ular Vaziraning oyisini ko'rish uchun doim birga borishardi.

– Bir o'zingiz borasizmi? – so'radi Abror.

– Ha.

Abror Vaziraning onasidan yordam so'ramoqchi va qaynona-qaynotasini hozirgi niyatlaridan qaytarishga urinib ko'rmoqchi ekanini sezdi-da, sovuqqina qilib:

– Bo'pti, so'rasha, salom aytarsiz, – dedi.

Vazira eshikni yopgan zahoti Abror gazni bosdi.

Mashina ketidan tutun chiqarib, asabiy silkinib qo'zg'aldi.

YETTINCHI BOB

Vazira tashvishga botgan xomush qiyofa bilan suv bo'yidan borib, to'rt qavatli shinamgina binoning eshigini ochdi. Kiraverishda kichkina stolchasi ustiga telefon qo'yilgan xonada qorovul chol o'tirgan edi. U Vazirani tanib jilmaydi:

– Moskvalarga yaxshi borib keldingizmi? – deb so'rashdi.

Vestibyulda uchragan yigit-qizlar, zinapoyada duch kelgan erkak-ayollar ham Vazirani yaxshi bilishardi. Vazira ularning ba'zilar bilan qo'l berib ko'rishar, ba'zilariga uzoqdan panjalarini silkitib salomlashar, ba'zilariga bosh irg'ar, bir-ikki go'iz yaxshi so'zini aytib o'tardi.

Eshiklariga «Yo'llar guruhi», «Ko'priklar guruhi» deb yozib qo'yilgan xonalar ham unga yaqindan tanish. Uzun yo'laklardan o'tib borayotgan Vazira devorlarga osilgan yangi loyihalarga ko'z yugurtirdi.

Kelajakda Bo'rijar bo'yiga quriladigan Hayvonot bog'ining rangdor rejasi turibdi. Undan nariga «Baxt uyi» deb ataladigan nikoh qasrining konkursiga kelgan uch xil



varianti osib qo'yilgan. Mualliflarning imzosi yo'q, konkurs yopiq. Lekin loyihalardan birining yuqorigi chetiga qaldirg'ochning rasmi chizib qo'yilgan. Demak, muallifning yashirin imzosi «Qaldirg'och». Undan nariga osilgan loyihaning pastida oltin kalitning rasmi bor. Demak, bu loyihani chizgan odamning maxfiy imzosi – «Oltin kalit».

Bugungi Toshkentga ko'rk berib turgan Matbuot uyi, «O'zbekiston» mehmonxonasi, «Moviy gumbazlar» qahvaxonasi ham bir vaqtlar faqat qog'ozda bor edi. Vazira ularning ilk loyihalari mana shu devorlarda osig'liq turganini ko'rgan, muhokamalariga qatnashgan edi. Faqat ular emas, osmonga bo'y cho'zgan Matbuot uyi ham, yigirma qavatli ma'muriy bino ham, Toshkent sirkining g'alati imorati ham mana shu yerdan yo'llanma olgan hayotga.

Vaziraning sevgan kasbi bo'lmish me'morchilik doim kelajakka intiladigan, hayotdan orqada emas, balki oldinda yuradigan ijod sohasi ekanligi uning zavqini keltiradi. Ba'zi rassomlar hayotda bor narsani tasviriy san'atga olib kirganlari bilan faxrlanib yuradilar. Arxitektorlar esa o'z ijod mevalarini qog'ozdan hayotga olib kiradilar. Ya'ni, avval faqat arxitektorning qalbida tug'ilgan, so'ng qog'oz yuzida paydo bo'lgan bino me'morlik ustaxonasidan chiqadi-da, shaharning ko'zga ko'rinarli bir joyida qad ko'taradi. Me'mor bu bilan ikki barobar ortiq faxrlansa arzimaydimi?

Shunday o'ylar bilan ko'ngli ko'tarilib borayotgan Vazira o'zi ishlaydigan ikki xonali bo'limga kirdi. Uning ish stoli ichki xonaning to'rida edi. Stol ortidagi devorga yer ostida quriladigan marmar qasrning ayrim ko'rinishlari osib qo'yilgan. Vazira hozir boshqarmadagi bo'limlardan birining boshlig'i. Uning stoli ustida boshqarma boshlig'ining rezolyutsiyasi qo'yilgan har xil qog'ozlar turibdi. Rangdor blankalarga shaharning xilma-xil tashkilotlaridan tushgan iltimosnomalar, taklif va murojaatlar yozilgan. Ularning chetlarida boshqarma boshlig'ining: «O'rtoq V. A'zamova! Ko'rib chiqib, fikr ayting», yoki «O'rtoq V. A'zamova hal qilsin», degan rezolyutsiyalari bor edi. Vazira – boshqarma



boshlig'ining eng ishongan mutaxassislaridan ekanligi shu rezolyutsiyalardan ham bilinib turganga o'xshardi.


Chiroyli blankalardan biri Sherzod Bahromov ishlaydigan loyiha tashkilotidan edi. Unda metro tunnelini Bo'zsuvning tagidan qanday o'tkazishga oid takliflar batafsil yozilgan. Bu takliflar asosida loyiha ishlari olib borish Bahromovning bo'limiga topshirilishi iltimos qilingan. Boshqarma boshlig'i masalani o'rganib, aniq bir xulosaga kelishni Vaziraga topshirgan.

Vazira boshqa qog'ozlar orasidan shuni ajratib oldi-da, hali zehni charchamagan ertalabki salqinda uni sinchiklab o'qiy boshladi.

Sherzod Bo'zsuvning egilib-buralib oqadigan bir joyini butunlay o'zgartirib, sixday to'g'ri ketgan yangi o'zanga solishni mo'ljallamoqda edi. Uning taklifiga binoan, metroning mana shu yerdan o'tadigan trassasi ochiq usul bilan qurilishi kerak edi. Ya'ni, zo'r ekskavatorlar yerning yuzasini ochib, metro trassasiga zarur bo'lgan chuqurlikdagi yerosti yo'lini qazishi kerak edi. Ochiq usulda qurilgan trassa yer ostidan tunnel qazib o'tganga nisbatan ikki barobar arzon tushardi. Sherzodning xomcho'tiga binoan, uning loyihasi yarim million so'mdan ortiqroq mablag'ni tejab qolish imkonini berardi.

Vazira o'qiyotgan yozuvining shu satrlari tagiga yashil siyoh bilan chizib qo'ydi. U o'ziga yoqqan va qo'llab-quvvatlamochi bo'lgan dalillarnigina yashil siyoh bilan belgilari edi.

Avvalgi takliflarga binoan, metro tunneli Bo'zsuvning tagidan yopiq usul bilan qurib o'tkazilayotgan paytda anhorning suvi vaqtincha quritilishi, ya'ni yuqori oqimidan Chirchiq daryosiga tashlab yuborilishi kerak edi. Shunday qilinmasa, kanal tagidagi hali bitmagan tunnelga suv urib kirib ketish xavfi bo'lar edi. Bo'zsuv bir-ikki oy quritib qo'yilsa, uning bo'yidagi ikkita gidrostansiya to'xtab qolishi, qancha joylar suvsizlikdan qiynalishi mumkin edi.



Sherzod taklif qilayotgan loyiha bunaqa tashvishlarga o'rin qoldirmaydi. Metro trassasi hali suv quyilmagan yangi, quruq o'zan tagida bemalol qurib bitiriladi. Bu ish tugallangandan keyin Bo'zsuv yangi o'zanga solinadi. Eski o'zan bo'shaydi. Shundan keyin metroni eski o'zan taglaridan ham ochiq usul bilan qurib o'tkazish mumkin bo'ladi. Nihoyat, metro trassasi bu yerlardan o'tib bo'lgandan keyin eski o'zan soz tuproq bilan to'ldiriladi, tekislanadi. Keyin bu yerga daraxtlar, gullar ekiladi. Odamlar sayr qilib dam oladigan yangi bir oromgoh paydo bo'ladi.

Vazira Sherzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi. So'ng loyihaning e'tirozga uchrashi mumkin bo'lgan tomonlarini xayolidan o'tkaza boshladi.

Agar stadion yonida metro trassasi ochiq usulda quriladigan bo'lsa, katta bir maydon ag'dar-to'ntar qilib kovlanadi. Eni yetmish metr keladigan ikki oyoqli kattakon sariq kran borib-kelib turadigan joyda birorta ham daraxt qolmaydi. Bo'zsuvning mana shu qirg'oqlarida yaxshi ko'karib turgan daraxtlar bari ketadi. Ularning o'rnini temir-betonlar, tepa qilib uyilgan tuproqlarning chang-to'zoni egallaydi...

Vazira eri Abrorning bundan qay darajada norozi bo'lishini ko'z oldiga keltirdi. «Mening noroziligimga qaramay ota-onasini kvartiramizga ko'chirib kelmoqchi-ku, – dedi Vazira ichida, – endi men uning ko'ngliga qarab, Sherzod Bahromovning iqtisodiy jihatdan shu qadar samarador bo'lgan loyihasini rad etishim kerakmi?...»

Vazira o'zicha shu xulosaga keldi-yu, stoli ustidagi shahar telefonining go'shagini ko'tardi. Sherzodning telefon nomeri kalendarning o'tgan kungi varag'iga yozib qo'yilgan edi. Vazira o'sha varaqni ochdi-da, Sherzodning nomerini terdi. Qabulxonadagi kotiba Vaziraning boshqarmadan ekanini eshitib, darhol Sherzodga uladi.

Sherzod kimgadir ish buyurayotgan ekan, go'shakni qu-log'iga tutayotib:



– ... Ikki soatda tayyor bo'lsin, boring! – deb zarda qilib gapirganini Vazira eshitib qoldi. Sherzod go'shakni qu-log'iga bosib, Vaziraning salomini eshitgandan keyin esa:

– E, Vaziraxonmisiz? Salomalaykum! – deb ovozi butunlay o'zgarib ketdi. – Sog'-salomat yuribsizmi? Uylar tinchmi? O'g'ilcha tuzalib ketdimi? Ishlar joyidami?

Bunaqa so'rashishlarda nima deyishning uncha ahamiyati yo'q, savollar javobga qaralmasdan ustma-ust berilaveradi. Eng muhimi – quvonch va izzat-ikromni ifodalaydigan ohang. Bu ohang kuyga o'xshab, baland pardalariga ko'tarilguncha va avjidan o'tib, ma'lum me'yorga yetguncha so'rashish davom etaveradi.

– Takliflaringizni o'rganib chiqdim, – dedi Vazira gapni maqsadga yaqinlashtirib.

– Qalay? – sabrsizlanib so'radi Sherzod.

– G'oyasi menga yoqdi.

– Rahmat, Vaziraxon, rahmat.

– Lekin e'tiroz qilish mumkin bo'lgan joylari ham bor. Yangi o'zan kavlansa, ko'p daraxtlar ketadi. Ularning o'rnini oladigan obodonchilik ishlari batafsilroq belgilanishi kerak.

– Buni yaxshi aytdingiz. Darhol to'g'rilaymiz.

– Men buni avval o'zingiz bilan kelishib olib, keyin boshlig'imizning oldiga kirmoqchi edim.

– Bugun kirasizmi, Vaziraxon? Balki men ham o'sha yerda bo'lishim kerakdir?

– Yaxshi bo'lardi. Savol chiqib qolishi mumkin... Bo'lmasa shoshmay turing. Men hozir...

Vazira bu go'shakni stol chetiga sekin qo'ydi-yu, ichki telefonda boshlig'ining qabulxonasini oldi. Past tovush bilan kotiba qizdan so'radi:

– Valya, Nabi Sadriyevich o'zlaridami?.. U yoq-bu yoqqa ketadigan emasmi?.. Nechagacha?.. O'n ikkilardami? Bo'пти, rahmat.

Vazira ichki telefonni joyiga qo'yib, yana narigi go'shakni qulog'iga tutdi:



– Sherzod, eshityapsizmi?.. Nabi Sadriyevich o'n ikkilargacha bo'lar ekan. Siz o'n birga kela olasizmi?.. Yaxshi, bo'lmasa qolgan gapni o'shanda gaplashamiz.

Vazira go'shakni qo'ygach, bilagidagi soatiga qaradi. O'n bo'lyapti. Bir soatda xulosani yozib, mashinkada ko'chirtirib ulgurishi kerak.

Vazira boya yashil qalamda belgilab qo'ygan uchta asosiy dalilni mashinkaga og'zaki aytib yozdirdi.

Shu orada uni Sadriyevning huzuriga chaqirishdi.


Vazira qabulxona to'ridagi eshikka qarab o'tar ekan, o'ng tomon devorga tirab qo'yilgan toshoyna qarshisida bir lahzagina to'xtadi. Oq ipak koftasining yoqasini to'g'rilab, qo'ng'ir yubkasining etagini xiyol pastga tortib qo'ydi. Bir o'rim sochi peshanasiga qayrilib tushib turgan ekan – unga tegmadi, chunki shu turishi o'ziga ko'proq yoqardi.

Guldor turkman gilami to'shalgan katta kabinet. Telefonlar qo'yilgan to'rdagi stoldan tashqari devor tagida kengashlar uchun mo'ljallangan yigirma kishilik uzun stol ham bor. Nabi Sadriyevich ana shu uzun stolning yuqorisida o'tiribdi.

Stol ustiga katta bir loyiha yoyib qo'yilgan. Loyiha atrofiga o'tirgan besh kishining biri toza qog'ozga nimanidir yozmoqda, ikkinchisi logarifmli chizg'ichni loyiha ustiga qo'yib, uning allaqaysi joyini o'lchab ko'rmoqda, uchinchisi to'rt xonali raqamlarni bir-biriga qo'shib hisob-kitob qilm-oqda. To'ladan kelgan qirq besh yoshlardagi Nabi Sadriyevich eshikni ochgan Vaziraga bosh irg'ab, «kiring», degan-day qildi va o'rnidan turdi. Muoviniga:

– Siz bular bilan o'sha aytilgan joylarini aniqlab turing, – dedi-da, o'zi to'rdagi stolining yoniga o'tdi.

Boshliqning kabinetida odam hamisha ko'p bo'lishiga Vazira o'rganib qolgan. Har kuni beto'xtov hal etilishi kerak bo'lgan ishlar shu qadar ko'p ediki, Nabi Sadriyevich hammasini qilib ulgurish uchun hali ayrim detallari aniqlanishi



kerak bo'lgan katta loyihalar orasida boshqa osonroq masalalarni ham ko'rib chiqardi.

Hozir u Vazira bilan qo'l berib ko'rishdi-da, stolining tortmasidan qalamda chizilgan eskizlarni olib, stol ustiga qo'ydi. Bu – metro stansiyalaridan birining yerosti devorini bezashi kerak bo'lgan yirik-yirik nafarmon koshinlarning tasviri edi.

– Juda yaxshi topibsiz, Nabi Sadriyevich, – dedi. – Toshkent ustalarining eng yaxshi an'analarini davom ettiribsiz.

Nabi Sadriyevich Vaziraning zehn va farosatidan mamnun bo'lib dedi:

– Toshkent uslubini darrov tanidingiz-a!

– Albatta, bu uslub Samarqand, Buxoro ustalarining uslubidan farq qiladi.

– Siz chizgan marmar ustunlarning tepasidagi zarhal jim-jimlar ham Toshkent ustalarining uslubida-ku, to'g'rimi?

– To'g'ri. Bir stansiyaning butun bezaklariga bitta uslub izchil tatbiq etilsin, deb o'zingiz aytgan edingiz-da.

– Yaxshi. Izchillik yo'q joyda mukammallik ham bo'lmaydi. Endi mana shu eskizlarni aniq hisob-kitob bilan amaliy loyihaga aylantirish kerak.

Ishning eng ko'p vaqt va qunt talab qiladigan qismi amaliy loyiha chizish edi.

– Buni bizning bo'limimiz qiladi, – dedi Vazira va eskizlarni olib, papkasiga sola boshladi.

Ular tikka turib gaplashmoqda edilar. Nabi Sadriyevich Vaziraning papkasidagi o'zi rezolyutsiya qo'ygan blankani ko'rib qoldi.

– Nima, menga boshqa ishingiz ham bormidi? – dedi.

– Nabi Sadriyevich, metroni anhorning tagidan qanday o'tkazish masalasi yaqin kelajakda kun tartibiga qo'yiladi. Shuning uchun siz topshirgan mana bu loyihani men birinchi navbatda o'rganib chiqdim.

– Qalay, bo'ladiganmi?



– Menimcha, boshqa takliflarga nisbatan ancha durust. Men xulosalarimni batafsil yozib keldim. Kamchiliklarini ham ko'rsatdim.

Nabi Sadriyevich Vaziraning xulosasini o'qib bo'lgach, deraza tomonga qarab, qo'llari bilan stol chetini sekin chertib, birpas o'ylanib oldi. U Bo'zsuv anhorining Toshkent markazidan o'tgan har ikkala qirg'og'i ochiq sayilgoh bo'lishini istardi. Hozir «Bahor» konsert zali va uning yonidagi uch qavatli eski ma'muriy bino chap qirg'oqning ancha joyini bekitib turibdi. Yaxshi qurilgan bu ko'rkam binolarni olib tashlash mumkin emas. Lekin ular anhorning baland chap qirg'og'iga shunday yaqin keltirib qurilganki, odamlar sayr qilib o'tadigan xiyobon yoki yo'lkaga o'rin qolmagan. Endi agar Bo'zsuvning shu yerdan o'tadigan o'zani stadionga tomon ellik-oltmish metr surilsa, uning egri joylari to'g'rilanadi-yu, chap qirg'og'ining bekik joyi ham ochiladi. Odamlar O'rdadan Gagarin bog'igacha chap qirg'oq bo'ylab ham bemaol sayr qilib bora oladi.

Nabi Sadriyevich Vaziraga bu fikrni aytib berdi-yu:

– Meni mana shu tomoni ko'proq qiziqtiriyapti, – dedi.

Vazira birdan yengil tortdi:

– Bu fikr mening esimga kelmaganini qarang. Juda yaxshi aytdingiz-da, Nabi Sadriyevich! Men xulosani boshqatdan yozib, sizning fikringizni birinchi punkt qilib kirgizaman.

Nabi Sadriyevich Vazira bergan qog'ozlarga yana bir ko'z yugurtirib chiqqach:


– Yangi o'zan taxminan qanchaga tushadi? – dedi.

– Yetti yuz ming yoki sakkiz yuz ming.

– Katta pul. Agar loyiha ishlariga, qoidaga binoan, uch-to'rt foizi ketsa, yigirma-o'ttiz ming bo'ladi.

– Men chamalab ko'rdim, Nabi Sadriyevich. Buning loyihasi u qadar murakkab emas. Nazarimda, o'n besh ming yetib qoladi. Metrochilarning puli yetarli. Loyiha uchun bizga o'tkazgan mablag'laridan ajratishimiz mumkin.

– Demak, sizning bo'limingiz orqali o'tadimi?



Boshliqning bu savoli: «Butun javobgarligi sizning zim-mangizga tushadi», degan ogohlantirishday eshitildi, Vazira stolga yaxshiroq o'rnashib, qaddini tikladi-da:

– Bo'pti, mas'uliyati bizga tan! – dedi.

Vaziraning jozibasi ustiga dadilligi ham qo'shilib, Nabi Sadriyevichga juda yoqdi.

– Men sizga ishonaman, Vazira Badalovna!

– Muhokamaga qo'ymaymizmi?

– Hozir shart emas. Mana, ko'rib turibsiz, boshqa muhokamalar ham boshimizdan oshib yotipti. Loyiha tayyor bo'lsa, keyin muhokama qilamiz. Bahromovga shuni ayting, ishni puxta qilsin.

Vazira soatiga qaradi-yu:

– O'zi ham qabulxonada o'tirgan bo'lsa kerak, – dedi. – Men har ehtimolga qarshi chaqirgan edim.

Nabi Sadriyevich uzun stol yonidagilarning hozir bu to-monga ko'z tikib, boshliqning bo'shashini kutib turganlari-ni ko'rdi-yu, o'rnidan ko'tarildi.

– Mening nomimdan ham siz gaplasha qoling, Vazira Badalovna. Lekin talabni bo'shashtirmang!

– Xo'p, Nabi Sadriyevich. Rahmat!

Boshliq narigi stolga qarab ketdi. Vazira eshikka tomon yo'naldi.

U qabulxonadan chiqishi bilan devor tagidagi stulda o'tirgan Sherzod «dik» etib o'rnidan turdi. Vazira unga qo'l berib ko'rishdi:

Sherzod Vaziraning vaqti chog' ekanini sezib, past to-vush bilan:

– Bo'ldimi? – deb so'radi.

Vazira o'zini siporoq tutib:

– Yuring-chi, – dedi-da, uni o'zining xonasiga boshlab bordi. Sherzodni halitdan hovliqtirmaslik uchun, bosh-liq katta talablar qo'yganini biroz oshirib, o'zidan ham sal qo'shib aytdi.



– Ishqilib, shu ishni bizga ishonib topshirsalaringiz bo'ldi, – dedi Sherzod.

– Nabi Sadriyevich rozi, – dedi Vazira. – Lekin butun mas'uliyatini men o'zimga oldim.

– Rahmat, Vazira Badalovna, rahmat!

– Hali reja bo'limi bor. Loyiha takliflarini ko'rib chiqadigan mutaxassislar bor. Lekin boshliq rozi bo'lgandan keyin ular yo'q deymaydi. Shuning uchun yilning ikkinchi yarmidan hisoblaringizga pul o'tkazishimiz mumkin. Tayyorgarlikni ko'ravering.

Sherzod Vaziraning bu yaxshiligiga yarasha javob qidirganday bo'lib peshanasini uqaladi:

– Vazira, boya telefonda siz menga juda yaxshi fikr berdingiz. Yangi o'zanning qirg'oqlariga marmar ishlatish... Bu – chinakam ijodiy fikr. Siz, mana, metroning interyerlariga qimmatbaho toshlar bilan zeb berishda ancha tajriba o'rtirgansiz. Rostini aytsam, menda bunaqa tajriba yo'q. Ko'p yil turarjoylarning loyihalarini chizib yurdik. Bilasiz, biz qurgan turarjoylarga marmar ishlatilmaydi. Hozir yangidan loyihalashtirayotgan ariqlarimizning ishi ham beton bilan bitadi. Granit bilan marmar – juda nozik narsalar. Shuning uchun ishimizning bu qismini sizga topshirsakmikin, deb turibman.

Sherzod gapni sherikchilik masalasiga olib kelayotganini sezgan Vazira:

– Kamtarlik qilmang, Sherzod, – dedi. – Siz ham arxitektorsiz, marmar bilan granit qanaqa ishlatilishini institutda hammamiz barobar o'rganganmiz.

– To'g'ri-yu, lekin nazariy bilim boshqa, amalda orttirilgan tajriba boshqa. Sizning tajribangiz bor.

– Marhamat, zarur bo'lganda men maslahat berib turaman.

– Maslahat bilan ish bitmaydi, Vazira. Men iltimos qilardimki, siz ham shu loyihaning mualliflaridan biri bo'lsangiz.



Shahar markazida va granit ishlatilib quriladigan kattagina inshootning mualliflaridan biri bo'lish sharafi Vaziraning qalbiga juda iliq tegdi. Lekin Vaziraning Sherzod Bahromovga sherik bo'lganini eri Abror bilsa nima deydi? O'zi-ku, bu loyiha Abrorning eng jo'shqin istak-intilishlariga qarama-qarshi qilinyapti. Endi agar Vazira Sherzodga hamkor bo'lsa-yu, erta-kech u bilan birgalikda ijodiy ish qilsa, bu hammasi uni Abrordan battar uzoqlashtirib, ikki oraga tubsiz jar bo'lib tushmasmikin? Vazira bunaqa jarlardan juda cho'chir edi.

Uning qandaydir andishalarga borib, o'ylanib qolganini ko'rgan Sherzod:

– Bu sizdan ko'p vaqt talab qilmaydi, – dedi. – Ba'zi narsalarni bugungiday telefonda aytsangiz ham bo'laveradi. Mayda ishlarni mening odamlarim qiladi. Siz bilan biz yangicha yechimlar, g'oyalar berib turamiz... Yo'q demang, Vazira, o'ylab ko'ring. Javobini bir-ikki haftadan keyin aytsangiz ham mayli. Shoshilinch emas!

Vazira og'ir tin oldi-yu:

– Avval masala uzil-kesil ham bo'lsin, – dedi. – Men Nabi Sadriyevichga yana bir kirganimda maslahat so'rayman.

– Bo'lmasa, sizdan oldin men o'zim Nabi Sadriyevichga bir uchini chiqarib qo'yaman. Bizga qanday yaxshi ijodiy yechimlar berganingizni aytaman.

– Lekin meni noqulay ahvolga solib qo'yasiz-da, Sherzod.

– Nimasi noqulay? Ikkita loyiha tashkilotining arxitektorlari bir ish bo'yicha hamkorlik qilsa qaytaga yaxshi emasmi? Kattalar doim «Hamkor bo'linglar», deb nasihat qilishadi-ku.

– Har holda, bu gapga keyin yana qaytamiz, – dedi Vazira. – Hozircha oramizda qolsin. Sadriyevga ayt mang.

Vaziraning so'nggi so'zi Sherzodga sirdoshlik belgisiday juda yoqimli tuyuldi.



* * *

Yoz jaziramasi boshlanayotganini Vazira kechqurun onasi turadigan Shota Rustaveli ko'chasiga borganda as-toydil sezdi. Shaharning eng serharakat va sershovqin magistrallaridan biri bo'lgan bu ko'cha kechki dim havoda behisob mashinalarning olov aralash tutun purkashidan dudlanib, qizib ketgan edi. Vazira ko'chaning o'ng tomonidagi bozorchadan oyisi uchun meva-cheva olguncha, so'ng To'qimachilik institutiga yaqin turgan baland imoratning to'rtinchi qavatiga chiqquncha terlab-pishib ketdi. El-liginchi yillarda qurilgan bu uyning lifti yo'q, zinapoyasi tik, shiftlari baland, har bir qavatining balandligi hozirgi uylarning bir yarim qavatiga to'g'ri keladi. Vazira to'rtinchi qavatdagi tanish eshik oldida hansirab to'xtadi-yu, ko'zlari bilan qo'ng'iroq tugmasini qidirdi.

Eshik kesakisining tepasida qo'ng'iroq tugmasining o'rni qorayib ko'rindi. Elektr qo'ng'iroqning tugmasi tushib ketgan, simlari ko'rinib turibdi. Qog'ozxaltada bozordan olingan qulupnay va pomidor bor edi. Vazira uni chap qo'liga oldi-yu, o'ng qo'lining uchini qo'ng'iroq simlariga tegizdi. Eshik ortida jiringlagan tovush eshitildi. Lekin ichkarida baland qilib qo'yilgan jaz musiqa tovushi yangramoqda edi. Vazira ukasi Alibekning uyda ekanini sezdi-yu: «Nuqul jaz eshitguncha qo'ng'irog'ini sozlab qo'ysa bo'lmasmidi!» – deb uni o'zicha koyidi.


Nihoyat, oshxona tomondan shippagini sudrab bosib Zumrad Sodiqovna yetib keldi va eshikni ochdi. Tashqari nimqorong'i edi. Zumrad Sodiqovna Vaziraga tikilib, lekin uni taniyolmay:

– Kimsiz? – dedi.

– Voy, tanimayapsizmi?

– Iye, Vazirajon, kel, qizim!

Ona-bola quchoqlashib, o'pishib ko'rishdilar. Oshxona-ga o'tayotganlarida Vazira oyisining ko'zi ojiz odamlarga



o'xshab, oyog'ini ehtiyot bilan sudrab bosayotganini sezdi-yu, yana hayron bo'ldi. Hol-ahvol so'rashgandan so'ng Vazira qog'ozxaltadagi qulupnayning suv ochayotganini ko'rib:

– Oyi, sirlangan tog'orachangiz qani? – dedi.

Zumrad Sodiqovna oq javonning ustini paypaslab, tog'orachani oldi. Vazira qulupnayni unga solayotganda ikki qadamcha narida turgan oyisi:

– Bu nima, olchami? – dedi.

– Qulupnay-ku! Ko'zingizga bir gap bo'ldimi, oyi?

Zumrad Sodiqovna serajin peshanasidan ko'ziga oqib tushgan terni artar ekan.

– Ko'zim yomon bo'lib qoldi, Vazirajon, – dedi. – Sen ham bir oydan beri onangdan xabar olay demaysan. Bu yoqda ukangning tashvishlari jonimdan bezor qilyapti.

Oshxonaga qarama-qarshi xonadan «xippi» deb ataladigan, xirilloq ovoz bilan baqirib aytiladigan ashula eshiltimoqda edi. Vazira oyisining o'zini juda oldirib qo'yganini, lablari titrab ko'zi yoshlanganini ko'rdi-yu:

– Qani, munday o'tiring, – deb uni stolga o'tkazdi. Qulupnaydan bir likopchasini krاندagi sovuq suvda chayib, oyisining oldiga qo'ydi. – Oling, tomog'ingizni ho'llang...

Vazira oyisiga achinib, ko'ngli buzilib ketayotgan bo'lsa ham o'zini iloji boricha bosiq tutib, qulupnaydan bir donasini og'ziga soldi. Keyin gazni yoqib, choy qo'ydi. Bu orada Zumrad Sodiqovna o'zini sal bosib oldi.

– Kelganing yaxshi bo'ldi, – dedi. – Men shu bugun qo'shnilar nikidan senga telefon qilmoqchi edim.

– Tinchlikmi o'zi? – deb Vazira oyisining qarshisiga kelib o'tirdi.

– Ukang xotini bilan ajrashmoqchi.

– Iye! Hozir kim bilan musiqa eshitib o'tiribdi?

– E, o'ziga o'xshagan uch-to'rttasini topib olgan. Menga bu katta ko'chaning shovqini ozlik qilganday, yarim kecha-



gacha shu g'at-g'utdan qulog'im tinchimaydi. Xotini arazlab ketib qolgan.

– Nasiba durust qiz edi-ku.

– Durust qiz bunaqa er bilan qanday turadi?! – Zumrad Sodiqovna ovozini pasaytirib davom etdi. – Turmush qurganlariga to'rt yil bo'ldi. Nasibaning bola ko'rgisi keladi. Ukang: «Bola kerak emas», deb ikki marta qo'yarda-qo'ymay abort qildiripti.

– Voy ahmog'-ey! – dedi Vazira. – O'zingiz ham buni yolg'iz o'g'il deb erka qilib o'stirdingiz-da, oyi!

– Seni «yolg'iz qizim» deb erkalatmabmizmi? Mana, oy-day turmush qurib yuribsan-ku!

– Ob-bo, jinni-ey!.. Nasiba oyilarinikiga ketib qoldimi?

– Ha, men bilan yig'lab xayrlashdi-yu, ketdi. Bu ukangning parvoyi palak. O'rtoqlarini olib kelib shovqin-to'polon qilgani ozday, yana bitta katta chavkar itni ham uyga olib kelib olgan. Ishdan kelsa, o'shani ko'chalarga olib chiqib aylantiradi. Dog degan eshakday katta it. Men qo'rqaman. Ishga ketganda uyga bog'lab ketadi. It g'ingshiydi. Suv-puviga qaray deb oldiga borsam, sakraydi. Qopadi deb, yuragim taka-puka bo'lib ketadi. Bu yoqda – to'rtinchi qavatga tushib chiqish tashvishi. Ilgari issiqda ham uxlayverar edim. Ko'cha shovqini uncha bilinmas edi. Hozir issiqdan bo'g'ilib ketaman. Bu yoshlarga tinchroq xonalarni berib, o'zim ko'cha tomondagi uyni olganimni bilasan.

– Shunday qilmang deb men sizga aytmaganmidim? Ortiqcha erkalatib, taltaytirganingiz shu emasmi?

– Bilmay qoldim, Vazirajon. Kechasi shu Shota Rustavelidan o'tgan hamma tramvay-u trolleybuslar boshimning ustidan yurib ketayotganday bo'ladi. Tong otguncha uxlay olmay chiqaman. Besh-o'n kun ko'zim yomon achishdi.

Vazira oyisining bundan o'n besh yil oldin chitga gul boshish fabrikasida injener bo'lib yurgan paytlarida kimyoviy bo'yoq sachrab ketib, ko'zi bir og'riganini esladi. Keyin Zum-



rad Sodiqovna eri dotsent bo'lib ishlaydigan To'qimachilik institutiga amaliy mashg'ulotlarni olib boradigan injener-o'qituvchi bo'lib o'tgach, ko'zi tuzalib ketgan edi.

– Ko'zingiz hozir ham achishyaptimi? – dedi Vazira onasining yoshlanib turgan ko'ziga tikilib.

– Achishi qoldi-yu, lekin elak tutganday xira. Ko'nglim qop-qora bo'lib ketadi. Toliqaman.

Vazira o'rnidan turib, onasini deraza tomonga qaratdi. Tashqaridan kirgan yorug'lik ko'zning qorachig'i ustida chinni sinig'iga o'xshab turgan oq pardaga tushdi. «Oq tushiptimi, a?» Vaziraning yuragi «shuv» etib ketdi. «Balki shunday ko'ringandir?» deb o'zini bosishga tirishdi.

– Qani, o'ng ko'zingizni yoping-chi, oyi.

Zumrad Sodiqovna o'ng ko'zini kafti bilan bekitgach:

– Voy, hech narsa ko'rinmayapti-ku! – dedi. – Iye, bu ko'zimga nima bo'ldi, Vazira? Men ko'r bo'lib qolyapmanmi, a?

Vazira oyisining rangi oqarib ketganini ko'rdi-yu:

– Shoshmang! – dedi. So'ng oshxonaning shiftidagi elektr chiroqni yoqdi. – Yana o'ng ko'zingizni bekitib, tepadagi chiroqqa qarang-chi.


Zumrad Sodiqovna qizining aytganini qilib, oq tushgan ko'zi bilan tepadagi chiroqqa qaradi.

– Yorug' sal-pal ko'rinyapti, – dedi. – Bu qanaqasi bo'ldi-a, Vazira?

Vazira ko'z haqida kitoblardan o'qigan va odamlardan eshitgan gaplarini esladi-yu, oyisidan ham oldin o'ziga tassalli berganday bo'lib:

– Yorug' ko'ringan bo'lsa, uncha qo'rqmang, – dedi. – Ozgina oq tushibdi. Operatsiya qilib olib tashlashlari mumkin.

– Operatsiya? Aytishga oson! O'zimning darmonim ketib yuribdi. Bu ko'zim ham xira. Bunisiga ham oq tushmasa edi!.. Sho'rim bor ekan-da! Dadang meni nega yolg'iz tashlab ketdi. Birga olib keta qolsa, hamma tashvishlardan qutular edim-ku! Qariganda ko'zdan ayrilib, qandoq qilaman endi, a? Beoqibat o'g'ilning qo'lida qandoq kun ko'raman?



Onasining kuyunib yig'lashiga chiday olmagan Vazira:

– Bo'ldi, oyi, men o'g'lingiz bilan hozir gapni bir yoqlik qilaman, – dedi.

Shitob bilan yo'lakdan o'tib, magnitofon g'at-g'ut qilayotgan xonaning eshigini ochdi.

Derazalar lang ochiq bo'lsa ham, xonani tamaki tutuni qoplagan. Stol ustida uch-to'rtta stakan, biri bo'sh va ikkinchisi yarimlatilgan «Portveyn» shishalari. Kreslo va stullarda biri qoraqosh, biri qo'ng'irsoch, biri kalta yubka kiygan, biri yelkasiga gitara osgan uch-to'rtta yigit-qiz o'tirishipti. Musiqa juda quvnoq yangrayotgan bo'lsa ham, o'tirganlar go'yo bundan to'ygan, zerikkan va sovuqda qolganday karaxt ko'rinar edi.

Ostonada Vazira ko'rinishi bilan deraza oldida bag'rini gilamga berib yotgan kattakon chavkar dog sakrab o'rni-dan turdi. Sochi yelkasiga tushgan, soqol-mo'ylov qo'ygan Alibek o'girilib opasini ko'rdi-da, itga:

– Jek, jim yot! – dedi. So'ng shoshilmay o'rnidan turdi. O'rtoqlariga. – Bu – mening opam, – deb izoh berdi, so'ng Vaziraning oldiga kelib, qo'l berib ko'rishdi.

Vazira o'tirganlarga noxush nazar tashlab, istar-istamas:

– Salom, – dedi.

Kresloda oyog'ini chalishtirib, papiros chekib o'tirgan kalta yubkali qiz Vaziraning salomiga ovoz chiqarib alik oldi. Boshqa ikki yigit, bir qiz shunchaki bosh irg'ab qo'yishdi, lekin hech qaysisi o'rnidan turmadi. Bu, ularning eskicha yalpanglayverishni yomon ko'radigan va yangicha betakalluf muomalani suyardigan yoshlardan ekanini ko'rsatardi.

Vazira ham betakalluflik bilan ularga orqa o'girdi-da, ukasiga:

– Qani, bu yoqqa yur, – dedi.

Opasidan gap eshitishini sezgan Alibek:

– Nima gapingiz bor? – dedi. – Aytavering. Men mehmonlarim bilan o'tiribman.



– Men ham mehmonman. Senda zarur gapim bor. Aytaman-u ketaman. Qani...

Alibek ichkarida o'tirganlarga o'girilib, yelkasini qisib:

– Zerikmay o'tiringlar, men hozir!.. – dedi-da, opasining ketidan ergashdi.

U pochasi keng, yuqorisi tor shim kiygan edi. Shimi yer supurib bormoqda. Buning hammasi Vaziraning g'ashini keltirayotgan bo'lsa ham darrov asabiylashmaslikka tirishib, Alibekni onalari turadigan xonaga boshlab kirdi. Divanni ko'rsatib:

– Qani, o'tir-chi, – dedi-da, o'zi stulni olib, uning qarshisiga qo'ydi.

Oshxona tomondan sekin kirib kelgan Zumrad Sodiqovnaga stulni ko'rsatib:

– Oyi, siz ham o'tiring, – dedi. Keyin gapni uzoqroqdan boshladi. – Ishlaring qalay? Hali ham zavoddamisan?

– Yo'q. Institutda ishlayapman.

– Iye, qachondan beri?

– Yigirma kuncha bo'ldi.

Alibekning to'qimachilik mashinasozligi zavodida injener bo'lib ishlashi Vaziraga ancha ma'qul edi.

– Nega ketding?

– Boshliq bilan kelisholmadim.

– Uydagi yalqovligingni qilgandirsan-da... Institutda kim bo'lib ishlayapsan?

Alibek kalta soqolini chimchilab, o'zini eshitmaganga soldi. Vazira yana so'ragandan keyin:

– Kichik laborantman, – dedi.

– Seni oyim qancha azoblar bilan institutda o'qitdi. Kichik laborant bo'lish uchun oliy ma'lumot nega kerak edi?

– Bitta men shunaqami?

– Darrov o'zingni boshqalarning panasiga olasan. O'ninchi sinfni bitirgan qizchalar kichik laborant bo'lib ishlaydi. Oyligi yetmish so'm. Shu senga yetadimi?



Alibek oyog'ini chalishtirib oldi-da, ikki chinchalog'i-ning havasga o'stirilgan uzun tirnoqlarini bir-biriga ishqab tozalashga tushdi. Zumrad Sodiqovna:

– Nega javob bermaysan, gapir! – dedi. – Omonat kassaga qo'yib yiqqan pullarimni olib-olib tamom qilyapti. Har kuni uch so'm, besh so'm pul olmasa ko'ngli joyiga tushmaydi. Pensiyaga oladigan pulimni ham qo'ymaydi-ya!

– Yana g'urbatni boshlayapsizmi? – deb Alibek oyisiga o'shqirdi. – Shu uydan bosh olib ketsam qutulamanmi?!

Zumrad Sodiqovnaning eng qo'rqqan narsasi shu edi. U bir kun ham Alibeksiz turolmas edi. Institutni bitirgandan keyin Alibekni tengdoshlari qatori bir yilga armiyaga olishmoqchi bo'lganda Zumrad Sodiqovna voenkomatlarga borib: «Kasalmandman, yolg'izman, boshqa qaraydigan odamim yo'q», degan arz-u dodlar bilan o'g'lini olib qolgan edi. Alibek keksa onasini do'q-po'pisa bilan yengib olgan, nima istasa, shuni qilishga o'rgatib qo'ygan edi. Hozir ham Zumrad Sodiqovna darrov o'g'liga yon berdi:

– Men seni ket deyapmanmi? Yaxshi odam bo'lsang, o'zingga foyda! Yoshing yigirma beshdan oshdi. Sen tengi yigitlar kolxozda rais bo'lib ishlayapti. Zavodda sex boshlig'i bo'layotgan yoshlar bor.

– Men amalga qiziqmayman deb aytuvdim-ku sizga!

Dim uyda bo'g'riqib ketayotgan Vazira yana mumkin qadar sovuqqonlik bilan:

– Xo'p, seni nima qiziqtiradi o'zi? – dedi.

– Men erkin odam bo'lishni yaxshi ko'raman.

– Sen suygan «erkinlik»ka takasaltanglik ham kiradimi? Sen suygan «erkin odam» keksa onasining pensiyasiga portveyn ichib yurishdan uyalmaydimi?

– Men bu portveynni o'z pulimga olganman!

– Kechagisini-chi? O'tgan kungisini-chi? Egningdagi modniy kiyimlarni kimning puliga olgansan? Tokaygacha erka o'g'il bo'lib yurasan? Axir o'zing ham ota bo'lishing



kerak-ku. Xotining bilan: «Bola kerak emas», deb urishar emishsan.

– Bizning oilaviy ishimizga siz nega aralashasiz?

– Senga to'y qilamiz deb qancha mehnatlarimiz singgan! O'shanda bizning aralashishlarimiz senga yoqqan edi-ku! Qallig'ing sendan arazlab, «tegmayman» deb yurganda, biz oraga tushib yarashtirib qo'yganimizda jon degan emas-miding? Nega o'shanda bizni aralashtirding?

– Bu mening xatoim bo'lgan, – dedi Alibek. – Umuman uylanmasligim kerak edi. Hozir saviyasi baland odamlar oila-yu, nikoh degan narsalarning eskilikka aylanib qolayotganini sezishadi.

– «Saviyasi baland» ultramodniylarmi? – so'radi Vazira. – Shuning uchun senga farzand kerak emasdir-da, a? Sen uchun bola o'stirish ham eskilikka kiradi, chamasi?

– Siz o'zingizni ilg'or deb bilasiz. Lekin dunyoda aholining ko'payishi qanday oqibatlarga olib kelayotganini hech o'ylaysizmi?

– Demak, sen odamzodning g'amini yeb, bola ko'rmoqchi emassan, shundaymi?

– O'zimni ham bekorga qiynamoqchi emasman.

– Ha, ana, gap bu yoqda ekan-da! Sen faqat o'zingni o'ylaysan. «Odamzod», «aholining soni» sen uchun shunchaki bahona, xolos. Odamzod naryoqda tursin, sen yoningda yashayotgan mana shu onangga zig'ircha ham jon kuydirmaysan-ku. O'zingning rohating uchun onangni shunchalik qiynashdan uyalmaysanmi?

Alibek sakrab o'rnidan turdi va chiqib ketmoqchi bo'lib dedi:

– Bunaqa nutqlarni majlisga borib gapiring! Meni shuning uchun chaqirgan bo'lsangiz, bas!..

Vazira ortiqcha qizishib ketganini endi sezdi-yu, ukasi-ning ko'zlariga tikilib:

– O'tir! – dedi past tovush bilan. – Maslahatlashadigan boshqa gap bor.



Vazira qolgan gapini ukasining yolg'iz o'ziga aytmoqchi edi. Quruqshagan labini yalab:

– Oyi, choy qaynab ketgandir? – dedi.

– Voy, esim qursin! – deb Zumrad Sodiqovna oyog'ini ehtiyot bilan sudrab bosib, oshxonaga tomon shoshildi.

Vazira oyisining uzun xalatidagi tugmalar noto'g'ri qadalganini, xalat etagining biri baland, biri past bo'lib qolganini, yoqasining o'ng tomoni beo'xshov ko'tarilib turganini endi payqadi. Bir vaqtlar go'zal va mag'rur ayol bo'lgan onasining gavdasi hozir shalvirab, ayanchli ahvolga tushib qolganini yana bir marta butun vujudi bilan his qildi-yu, unga rahmi kelib, «qilt» etib yutindi.

Alibek divanga qaytib o'tirdi-da, norozi tovush bilan:

– Gaping tezroq, mehmonlarim qarab qoldi, – dedi.

– Qayoqdagi olifta ulfatlaringga shunchalik mehribon-san-ku, oyingga nega bag'ritoshlik qilasan? – dedi Vazira.

– Tavba! Yana nima qilibman?

– Nahotki hech narsani sezmasang? Oyimning bir ko'zi ko'rmay qolipti-ku!

Vaziraning ko'zlarida yosh yiltiradi. Buni ko'rgan ukasi:

– Aytdim-a! – dedi. – Ko'z doktoriga boring desam quloq solmaydi. Nuqul turtinib yuradi. Hamma narsani to'kib sochadi.

Vazira ukasi tomonga engashib, ovozini pasaytirib davom etdi:

– Oyim o'zini senga fido qilaverib, sog'ligi tamom bo'lyapti! Hozir bir ko'ziga oq tushib ko'rmay qolgan. Ikkinchi ko'zi ham xira. Shu ketishda unisi ham ko'rmay qolsa keyin qandoq qilasan? Yo onangni ko'chaga chiqarib tashlaysanmi? Qo'lidan yetaklab yurishni unda ko'r!

– Nega faqat men yetaklab yurishim kerak? Siz ham u kishining qizisiz!

Shuncha gapdan keyingi bu javob Vazirani bir lahza hang-mang qilib qo'ydi. Nahotki, ukasi shu darajada bezbet bo'lib ketgan. Go'yo uning terisi o'rnida o'qotmas zirhli



po'lat bor edi-yu, har qanday o'tkir so'z ham tig'i qayrilib, yerga yumalab tushardi. Vazira g'azabini arang bosib davom etdi.

– Men katta farzandlariman, buni sendan ko'proq o'ylayman. Shuning uchun oldini olaylik deyaipman, ahmoq!

– Tezroq doktorga olib borish kerak.

– Bu ishni men ertagayoq boshlayman. Lekin sen ham oyimning bironta og'irini yengil qilasanmi-yo'qmi?

Alibek yelka qisib:

– Men nima qilishim mumkin? – dedi.

Vazira hamma talablarini birdan aytsa kunmasligini sezdi-yu:

– Oyimga hozir osoyishtalik kerak, – dedi. – Sen ishga ketganingda bu it oyimning asabiga tegib, uni qiynaydi. Qayerdan olding buni?

– O'rtog'im berdi.

– O'sha o'rtog'ing hozir shu yerda bormi?

– Ha, gitara chalib o'tiribdi.

– Bo'lmasa, Alik, ukajon, hozir borgin-da, oyim kasal bo'lib qolganini o'rtoqlaringga ayt. Hammasini yaxshilikcha kuzatib qo'y. Itini ham egasiga ber, olib ketsin.

Alibekning yuzi bir tirishdi. Lekin oshxonadan choy ko'tarib kelayotgan onasining paypaslanib qadam tashlashi ko'ziga hozir tahdidli bir ma'no kasb etib ko'rindi-yu:

– Bo'pti! – dedi. – Shu bilan qutulamanmi?


– Qolgan maslahatni keyin qilamiz. Tezroq qaytib kel. Bor! – Vazira ham o'rnidan turdi.

– Oyi, bu yerdan oshxona salqinroqqa o'xshaydi, – dedi. – Yuring, choyni o'sha yerda ichamiz.

Alibek o'rtoqlari bilan yana birpas o'tirdi-da, keyin ularni kuzatib, itni ham yetaklab, pastga tushib ketdi.

– Oyi, xonangiz juda bo'lmay ketibdi. Men shu bugun sizni narigi tinch xonalardan biriga ko'chirib qo'yaman.

– Voy, ukangdan baloga qolasan! Uning narsalariga tegib bo'lmaydi. Janjal qiladi!



– Qo‘rqmang, – deya Vazira boya Alibek o‘rtoqlari bilan o‘tirgan xonaning eshigini ochdi. Tamaki tutunini chiqarib yuborish uchun eshik-derazalarni, hatto tashqi eshikni ham lang ochib qo‘ydi. Papiros qoldiqlarini va bo‘sh shishalarni yig‘ishtirib olib chiqarib tashladi. Anchadan beri qaralmay, iflos bo‘lib ketgan polni yuvdi, deraza tokchalarini arttdi. Bu uydan qo‘shni xonaga o‘tiladigan ichki eshik bor edi. Ichki xona Alibek bilan xotinining karavotlari turadigan yotoq edi. Rahmatli otalari har bir xonaning eshigi alohida bo‘lishini yaxshi ko‘rar, shuning uchun narigi xonadan koridorga alohida eshik ochdirgan edi. Vazira hozir bu kabinetdagi divanni oyisi uchun chamalab, ochib-yopib ko‘rdi.

Vazira xonani yuvib, artib bo‘lgan ham ediki, eshikdan Alibek kirib keldi. Uning itni egasiga berib yuborgani va ancha tez qaytganidan ko‘ngli iligan Vazira:

– Oyi, bu yoqqa keling, – dedi.

Uchovlari shamollatilgan va yuvib tozalangan kabinetda yumaloq stol atrofiga o‘tirishdi. Vazira oyisiga qarab so‘radi:

– Siz sezdingizmi, Alibek haligi itni egasidan berib yubordi.


– Voy, xayriyat-ey! – quvonib ketdi Zumrad Sodiqovna. – Qanday insofga kela qolding, Alibek?

Alibek indamay xo‘mrayib qo‘ydi. U oyisining bunaqa maqtovlarini suymas edi.

– Sizning sog‘ligingiz bizga ham kerak, oyi, – davom etdi Vazira. – Ertaga shanba. Men sizni ertalabdan ko‘z doktori-ga olib boraman.

– Ora uzoq, o‘zing ovora bo‘lasan-da. Abrorning mashinasi yurib turibdimi? Bugun nega kelmadi?

Vazira ertalab Abrorga aytgan achchiq-chuchuk gaplarini esladi. U onasidan yordam so‘ramoqchi edi-ya. Abrorning otasi quda xola bilan ancha hisoblashadigan odam edi. Vazira, «balki oyim borib, ularga xatolarini tushuntirar, uchastka olish fikridan qaytarar», deb o‘ylagan edi. Endi



oyisining o'zi bu ahvolda yordamga muhtoj bo'lib o'tirgani-ni ko'rib, yuragi battar ezildi. Lekin oyisiga hech narsani sezdirgisi kelmay:

– Abrorning bugun ishlari bor edi, ertaga keladi, – dedi.
– Ungacha Alik ikkovimiz oyim uchun bitta ish qilishimiz kerak.

Alibek sergaklanib:

– Yana nima ish? – dedi.

– Oyim yotgan xona juda ham shovqin. Uxlayolmay qiynalayotgan ekanlar. Yoz o'tguncha mana shu xonaga ko'chib o'tsinlar.

Yaxshi ko'rgan itidan ayrilib, kayfi buzilib o'tirgan Alibek:

– Bu xonani oyim menga bergan edi-ku! – dedi.

– Sen ichkarigi xonada turaverasan. Yo'lakka qaragan eshigini ochamiz. Mana bu ichki eshikni bekitib olishing mumkin.

– Bu xonada mening magnitofonim, narsalarim bor.

– Ular yotoqxonangga sig'masa, hozir onam turgan narigi xonaga olib chiq!

– O'rtoqlarim kelsa, yotoqxonaga olib kiranmanmi?

– Ular ham ko'cha tomondagi o'sha xonada o'tiraveradi.

– Bizga shovqin bo'lsa mayli ekan-da, a?!

– Yoshsanlar, senlarga hech narsa qilmaydi. Keksalarga qiyin.

– Hamma narsaning yaxshisi keksalarga berilsin-u yo-moni yoshlarga qolsinmi? Sharqning eskirgan odatlaridan biri ana shu! Yoshlar doim keksalarga ta'zim qilishi kerak, keksalarning oyog'iga qarab qadam tashlashi kerak, ulardan ortgan sarqitni «tabarruk» deb yeyishi kerak. Bunaqa-da kechagi kun doim bugungisidan ustun qo'yiladi. Oldinga ketib bo'lmaydi. Men bunga qarshiman!

Vazira ukasining bunaqa beandisha «nazariya»si ham borligidan xiyol taajjublanib:

– Axir sal insof qilgin! – dedi. – Sen bir o'zing ikkita tinch xonani egallagin-da, kasal oyim narigi do'zaxda uxlayolmay azob tortib yotsinmi?



– Azob tortmasin desangiz uyingizga olib keting, – dedi Alibek g’ashni keltiradigan bir sovuqqonlik bilan. – Sizning kvartirangiz ham juda tinch. Mening xonalarim ikkita bo’lsa, sizniki to’rtta.

– Shunchalik surbetmisan-a! Oyi, yuring, men sizni olib ketaman, bir o’zi moxovga o’xshab yolgiz turaversin! Besh-olti oy qo’yib bering. Sizning qadringizni ham bilsin! Uyal-may keksaligingizni yuzingizga soladi-ya! Voy, noinsof-ey!.. Oyi, qani turing!

Zumrad Sodiqovna o’rnidan sekin ko’tarildi. Zaif tovush bilan:

– Kechasi turtinib qayoqqa boraman? – dedi. – Vazira, senlar ham to’rt jonsanlar... Men o’z uyimga o’rganib qolganman.

– Bo’lmasa hozir sizni mana bu xonaga ko’chirib o’tkazaman!


– Uncha shoshma, qizim. O’zimiz keyin bir murosaga kelarmiz. Haligi itning ketgani ham men uchun katta yengillik bo’ldi. Ancha tinchib qoldim.

Zumrad Sodiqovna Alibekning ayovsiz, qo’pol muomalasiga o’rganib qolgan edi. «Men bo’lmasam, o’g’lim biron falokatga yo’liqadi», deb uni tashlab ketishga yuragi dov bermasdi. Vazira shuni sezdi-yu, chuqur tin olib, dedi:

– O’g’lingizni shunchalik toshbag’ir qilgan – sizning bo’shligingiz. Qattiq turing, axir, siz ham dunyoga bir marta kelgansiz!

Vazira xayrlashib ketayotganda oyisiga rahmi kelib, ko’ziga yosh oldi.

Tungi shahar bo’ylab uylariga qaytayotganda esa serzarda qaynonasi Hanifa xola esiga tushdi. «Kim bilsin, mening oyimga o’xshab ko’ngilchan, bo’sh bo’lgandan ko’ra, bolalarni o’shanaqa zarda bilan qattiq tutgani ham yaxshiroqmikin?» – degan gap ko’nglidan o’tdi.



SAKKIZINCHI BOB

O'g'li bilan televizor ko'rib o'tirgan Abror bir necha marta orqasiga o'girilib, devordagi soatga qaradi. Kechki o'n bo'lib boryapti. Malikadan hamon darak yo'q. Vazira onasinikiga ketib, bunchalik hayallagani ozlik qilganday, qizlari Malikaga ham dugonasining tug'ilgan kunini o'tkazib kelishga ruxsat beribdi. Abror ishdan qaytsa, Malika ukasiga shuni aytibdi-da, soat otilarda ketibdi. Shuncha vaqtdan beri nima qilib o'tirganikin? Abror goho telefon qilib turadigan o'g'il bolalarni esladi-yu, ko'ngli g'ash bo'lib, o'rnidan turdi. Yo'lakka chiqqan edi, kimdir eshik qulfiga tashqaridan kalit solib ochayotgani eshitildi. Abror eshik oldiga borganda Vazira kirib keldi. Ko'rinishi ertalabgidan xiyla boshqacha – horg'in va ma'yus.

– Qalay, tinchlikmi? – dedi Abror.

Vazira tufisini yechib shippak kiyar ekan:

– Ha, endi, o'tirishipti... – dedi. – Sizga oyim salom ayt-dilar.

Abror qulluq deganday bosh irg'adi:

– Malikaga siz javob berganmidingiz?

– Bir soatga ruxsat bergan edim... Keldimi?

– Yo'q. To'rt soat bo'lyapti.

Vazira, «hali bu tashvish ham bormidi?» deganday «uf» tortdi. Vannaxonaga kirib, qo'lini yuvdi. Charchab kelgan bo'lsa ham o'tirgisi kelmay, telefon daftarchasini qidirib topdi. Uni tikka turganicha varaqlab, Malikaning qo'li bilan yozilgan nomerlardan birini terdi:

– Allo!.. Kechirasiz... Bu Dildoralarning uyimi?.. Bugun qizlaringizning tug'ilgan kuni shekilli. Tabriklaymiz!.. Men Malikaning oyisiman... Qizimiz o'sha yerdami?.. Qorong'i tushib qoldi... Biz xavotir ola boshladik... Osh bo'lsa... Rahmat!.. Endi... Malikani chaqirib berolmaysizmi?.. Rahmat...

Go'shakni Malika olgandan keyin Vazira achchig'ini yashirolmadi:



– Men senga nima degan edim?.. Qo'ymayotgan bo'lishsa, oyimga va'da berganman demaysanmi? To'rt soat bo'lyapti. Bas! Hoziroq yetib kel!.. U yog'i bilan mening ishim yo'q! Tez bo'!

Vazira go'shakni shaq etkazib joyiga qo'ydi. Eshik ke-sakisiga suyanib turgan Abror xotinidagi qat'iyatni ma'qul-laganday bo'lib:

– Malika kelsa, o'rtaga olib gaplashishimiz kerak, – dedi,
– Men garajga mashinani qo'yib, maktabning oldidan o'tib kelayotsam, sinf rahbarlari uchrab qoldi. «Malikaning o'qishi yaxshi-yu, lekin o'zini tutishi meni tashvishga solyapti», dedi.

– Yana nima qilipti?

– Bular uch-to'rtta qiz bir bo'lib olib, o'zlarini haddan or-tiq erkin tutisharmish. O'qituvchilari hayo, odob to'g'risida gapirishsa pisand qilishmasmish.

– Bo'pti, hozir kelsin-chi, – dedi Vazira va xobgohga kirib ketdi. O'sha yerda yengil yozlik xalatini kiydi, karavotning atlas ro'yjasini yig'ishtirdi, so'ng yostiqaqa bosh qo'yib, cho'zildi-da, ko'zini yumdi.

Kuni bo'yi ko'rgan-kechirganlari xayolida shunday asabiy charx urar ediki, boshi aylanayotganday bo'lib, tez ko'zini ochdi. Shu payt eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Vazira og'rinib o'rnidan ko'tarildi. Xalatining tugmalarini solar ekan, sekin yo'lakka chiqdi.

Eshikni Abror ochmoqda edi.

Tashqaridan shoshilib kirib kelgan Malikaning yonoqlari qizargan, ko'zlari chaqnab turibdi. Tez yurib kelganidanmi yoki biror narsa ichganmi?

– Qani, bu yoqqa yur, – deb Vazira qizining oldiga tushdi.

Katta xonada Zafar televizor ko'rib o'tiribdi. Uning shovqini oshxonaga kamroq eshitilar edi. Vazira Malikani oshxonaga olib kirib, qarshisiga o'tqazdi. Abror ham oshxo-naga kirib, eshikni yopdi. Ota-onasining avzoyi yomonligini sezgan Malika:



– Men boya kelmoqchi edim, – dedi. – Dildora, «xafa bo‘laman, o‘tirishni buzasan», deb turib oldi.

– O‘tirish? – qaytarib so‘radi Vazira. – Nima, vino ham ichdilaringmi?

– Ozigina shampan. Dildoraning oyisi ruxsat berdi. Ovqatga kech unnashgan ekan. Sho‘rvasini ichdik. Oshini endi damlagan edi...

– Yosh qizchalarga quyuq-suyuq ziyofat, yana shampan! Abror gapga aralashdi:

– Faqat qizchalar emasdir? O‘g‘il bolalar ham bormidi, Malika?

Dadasining savolidan uyalgan Malika yerga qarab:

– Sinfdoshlarimiz bor edi, – dedi.

– Qizim, sen dugonangni xafa qilmayin deb, bizni shuncha kutdirib qo‘yding, – muloyimlik bilan davom etdi Abror. – Ota-onaning hurmati dugonangning hurmatidan past turadimi? Bo‘lmasa nega oying aytgan vaqtda kelmading?.. Bu yoqda yana shampan. Papiros chekadiganlar ham bordir.

Malika javob topolmadi.

– O‘g‘il bolalar necha kishi edi? – so‘radi Vazira.

– Uch kishi.

– Qizlar-chi?

– To‘rt qiz.

– Demak, yetti kishi bo‘ldilaring, – dedi Vazira. – Boshqa mehmondorchiliklarda ham shu yettoving birga bo‘lasanlarmi?

– Ha, bir-birimizni yaxshi tushunamiz. Bolalar ham odobli... Komsomol a‘zolari...

– Bizning uyga telefon qiladiganlar ham o‘sha bolalardir-da, – dedi Vazira.

Malika uyalib yerga ko‘z tikdi.

– Undan chiqdi, yettovlaring bitta kompaniya bo‘lib olib-sanlar-da? – dedi Abror. – Sinf raqbarlaring aytganda men hayron bo‘lgan edim. Tanaffuslarda ham besh-oltita yigit-qiz nuqul alohida bo‘lib olib, chaqchaqlashar emishsanlar.



Bu so'zlar Malikaga og'ir botdi:

– Nima, endi hech gaplashmay yuraylikmi?

Oyisi uni siltab tashladi:

– Kim senga shunday deyapti? Endi sakkizinchini bitiryapsan? Halitdan o'g'il bolalar bilan kompaniya bo'lib o'tirishlarda yursang, keyin nima bo'ladi?

– Hech qanaqa kompaniyani men bilmayman! – dedi Malika. Uning lablari alam bilan pir-pir ucha boshladi: – Hammamiz birga komsomolga kirdik. O'rtoqlarcha muomala qilib yuribmiz. Nega bunga yomon ko'z bilan qarashadi? Nega gap qilishadi?!

– Kim yomon ko'z bilan qarabdi? – so'radi Abror.

Malikaning ko'zida yosh yiltiradi.

– Karima opa degan o'qituvchimiz... «Qizlar klubi»ning majlisida Dildorani gap qildi.

– Keyin sen dugonangni himoya qilib, Karima opaga qarshi gapiribsan-a? – so'radi Abror.

– Gapirdim! Nega eskicha odatlarni yoqlaydi?

– Qanaqa eskicha odatni yoqlapti?

– Qizi biz bilan o'qiydi. Aytganini qilmagan ekan. Karima opa tanaffusda sinfga kelib, qizini bir shapaloq urdi. Hammamiz ko'rdik. Bizni ham qo'rqitib olaman deydi. Qo'rqib hurmat qilishi eskilik emasmi? Men shuni majlisda aytdim!

Qizlaridan bunaqa gaplarning chiqishini kutmagan Vazira unga hayron bo'lib tikildi. Malika ham majlislarda adolatni yoqlab gapiradigan komsomol qiz bo'lib qolgani unga go'yo endi sezilganday bo'ldi-yu, qalbining bir chetiga yoqimli tuyuldi. Lekin boya ukasi Alibek hatto oila qurish, farzand o'stirishni ham «eskilik» deb atagani yodiga tushdi birdan. Agar bo'sh qo'yib bersa, Malika ham borib-borib, o'shanaqa ko'chalarga kirib ketishi mumkin emasmi? Vazira qizini hozirdan qayirib olishga intilib:

– Sen avval o'zingni bil! – dedi. – Karima opang biron kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, uni aytadigan maktab direktori bor, pedkengash bor. Sen o'quvchisan, o'qituvchi-



ning ustidan hukm chiqarishga yoshlik qilasan! Majlisda o'qituvchining yuziga sapchib, uni behurmat qilganing menimcha ham odobsizlik! Behayolik! Bugun mendan bir soatga javob olib, to'rt soatga ketganing uchun jazo olishing kerak! Bundan keyin tug'ilgan kunlarga bormaysan! Bizning uyga telefon qiladigan bolalarga ham aytib qo'y. Seni telefonga ko'p chaqiravermasin! To'p-to'p bo'lib chaq-chaqlashishlarni ham bas qil! Odamlar gap qilayotibdimi, demak, shunga bir sabab bor! Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi!

Malika ko'ziga yosh olib:

– Siz nega ularga ishonasiz? – dedi. So'ng dadasiga najot so'raganday qilib qaradi: – Axir men nima qilibman?!

Abror bir narsa deguncha bo'lmay, Vazira qizini yana jerkidi:

– Sen «erkin» bo'laman deb tantiqlanib ketyapsan! Yoshing o'n beshda! Hayoni mahkam ushlaydigan payting. Shampn ichib, papiros chekadigan bugundaqa ziyofatlarga bormaysan endi, bilib qo'y! Agar borsang, shu uyga qaytib kelmaysan! Eshikdan kirgizmayman, uydan haydayman, qayoqqa borsang boraver! Gap tamom!

Malika oshxonadan yig'lab chiqib ketdi. Unga qattiq gapirib asabi buzilgan Vazira o'rnidan turdi-da, piyola olib, krandan sovuq suvga to'ldirdi. U suv ichayotganda labi titrab, ko'zi pir-pir uchayotganini Abror ko'rdi-da:

– Iye, sizga nima bo'ldi? – dedi. – Juda qattiq ketdingiz. Malikaning ko'nglida kiri yo'q. Bolalarcha sof muomala qilib yurgan bo'lsa, siz...

– Tarafini olmang!.. Dadam o'sha Alibekni ham qattiqroq tergasa, oyim darrov tarafini olar edi. Mana hozir shularning azobini tortib yuribdi. Bugun oyimning ahvolini ko'rib, ko'ngillarim vayron bo'lib kelyapman!

Vaziradagi asabiylikning boshqa sabablari borligini endi sezgan Abror allanechuk xavotirga tushib:

– Nima bo'пти! – dedi.



Vazira oyisining ko'ziga oq tushganini, ukasining oilasi buziladigan bo'lib turganini, o'zi yomon yo'llarga kirib ketayotganini Abrorga aytib berar ekan, endi bu ko'ngilsizliklarning hammasi bir joyga yig'ilib, juda katta bo'lib ko'rindi-yu, uni dahshatga keltirdi. U o'tirgan joyida bir nuqtaga tikilib:

– Endi qandoq qilamiz? – dedi. – Koshki oyim sal qattiqroq tursa!.. Nuqul yon beradi. Unga sari Alik tepasiga chiqadi! Bedavo bir dard!

Abror qo'llarini qo'ltig'iga asabiy qisgan bir holda oshxonaning u chetidan-bu chetiga bir-ikki borib keldi-yu:

– Hali bu ishkallik ham bizga qarab turgan ekan-da! – dedi dilgir bo'lib. U ertalab oyisiga orqa qilib zarda bilan ketgan Vaziraning xuftonda hovuri bosilib, ma'yuslanib qaytganiga nima sabab bo'lganini endi tushundi. Vazira hozir qaynona-qaynotasini uchastka olish fikridan qaytarishni o'ylamas, ularning bu yerga ko'chib kelishlariga noiloj ko'ngan, bu masalada eriga yon bergan edi. Abrorga bu yoqimli tuyuldi-yu, lekin naryoqda qaynonasi yordamga muhtoj bo'lib o'tirganini, ertagayoq uni mashinasida vrachlarga olib borib ko'rsatishi kerakligini, qaynisi Alibekning oilasini saqlab qolish uchun ham qancha harakatlarni qilishi kerakligini o'ylab xunobi ortdi. Naryoqda otasi uchastka qidiramiz deb uni kutib o'tiribdi. Ertaga uni Beshqayrag'och tomonlarga olib boradigan. Hali bu Malikaning maktabiga borib, o'sha Karima opa degani bilan gaplashib ko'rish kerak. O'qituvchisi bilan konfliktlashib yurishning keragi yo'q.

– Zafarning tashvishidan endi qutulganimizda bunisini ki chiqib o'tiribdi-ya! Tinchlik yo'q ekan-da! Ikkita bolaning g'alvasi shuncha! Besh-oltita bola o'stirayotganlarga to'zim bersin-e!

– Shunaqa paytda odamlarga ukalari kelib qarashadi, – dedi Vazira, – onalari kelib bola boqishadi. Otalarining



davlatida maza qilib yurganlar ozmi? Biznikilar hammasi yordamga muhtoj! Turib-turib odamga alam qiladi!

Abrorning ko'ngliga ham shu gaplar kelgan edi. Lekin ularni Vaziradan eshitganda nimasidir o'rinsiz minnatga o'xshab tuyuldi:

– Insof bilan aytganda, – dedi, – oltmish-yetmishga borgan ota-onalardan yordam kutish ham to'g'ri emas. Vaqtida ular bizni boqib oyoqqa turg'izishgan, bolalarimizga ham qarashgan. Buning hammasi oson emasligini mana endi – o'zimizning boshimizga tushganda bilyapmiz-ku. Siz bilan biz yetmishlarga borganimizda Zafar qirqlarga boradi. O'shanda ham o'g'lingiz bizdan yordam kutadigan bo'lsa yoqarmikin?

– Yoqadimi-yo'qmi, ishqilib, Alikka o'xshaganlar ellikka kirganda ham ota-onasining yelkasidan tushmaslikka tiri-shadi.

– Lekin siz bilan biz Alikka o'xshashni istamaymiz-ku, axir. Yo istaysizmi?

– Xudo saqlasin!

– Unday bo'lsa, ota-onaning ham, bolalarning ham butun tashvishlariga chidashga majbursiz. Qirq yoshning nari-berisida odam shunaqa bir katta dovonga chiqadi shekilli-da. Ota-onalar oltmish-yetmishga borib, yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bolalar o'sib-o'zgaradigan, har kuni bir hunar chiqaradigan yoshga kirarkan. Oldingi avlodning ham, keyingi avlodning ham butun og'irligi shu dovonda turganlarga tusharkan.

Vazira bu og'irlikni bir o'zi tortolmasligini, er-xotin bir tan, bir jon bo'lib harakat qilishmasa, ko'chkiday yopirilib kelayotgan ishlar, tashvishlarning uddasidan chiqolmasliklarini bugun astoydil his qildi.

– Yil o'tgan sari yashash qiyin bo'lib boryapti-ya, tavba! – kuyunib dedi Vazira.

Abror ham og'ir paytda suyanadigan va ko'nglini ochib gapiradigan Vaziradan yaqin sirdoshi yo'qligini bugun go'yo



yangitdan sezdi. U Vazira bilan dardlashgisi, ko'nglining chigilini unga aytib yozgisi keldi:

– E, xonim, suvga o'xshab nishabiga qarab oqadigan odamlarga yashash hamisha oson. Bolalariga ham, otalariga ham qayrilib qaramay, tarallabedod qilib yurganlar yo'qmi? Lekin biz... durust ota-ona bo'lgimiz keladi. Durust farzand, yaxshi aka, yaxshi pochcha bo'lmaguncha ko'nglimiz joyiga tushmaydi. Biroq har jihatdan yaxshi bo'lish – tog'ning qirrasidan yurib borishday qiyin. Odam goh u yonbag'irdan, goh bu yonbag'irdan noiloj pastga tushib ketadigan paytlari bo'ladi. Lekin baribir yana o'sha tog' qirrasiga – to'la-to'kislikka intilasiz. Chunki doim yaxshi bo'lish-u yaxshi yashashni xohlaysiz. Busiz chinakam baxt yo'q.

– Ahmoq Alibek ham shuni tushunsa ekan! Axir uning ham baxtli bo'lgisi keladi-ku. Buning o'rniga o'zini ham, onamni ham, xotinini ham xarob qilyapti!

– Alibek yomon bir muhitga tushib qolgan, Vazira. Siz uning ulfatlari bilan gaplashib ko'rdingizmi?

– Gaplashgim kelmadi. So'xtalari shunday sovuq!

– Xudbinlikning cho'qqisida yurishadi-da. Men o'tgan gal borganimda ularni birpas gapga solib ko'ruvdim. Ko'pchiligi – oilasi buzilgan yoshlar. «Oila bo'lib yashash eskiryapti, bola kerak emas», degan «nazariya»ni o'shanda eshitdim. Odam Xudodan ham, xalqdan ham, ota-onadan ham, mahalla-ko'ydan ham tap tortmaydigan bo'lsa, imon-e'tiqodi yemirilib, nuqul «erkin bo'laman» deb nafsini qo'yib berib, shu ko'yga tushar ekan-da. Hatto tuqqan onasi uchun qilcha ham jon koyitkilari kelmaydi. O'zlarining rohatlari-yu, lazzatlaridan boshqa hech narsani tan olishmaydi. Yana ularning qilganini «to'g'ri» deb ma'qullab turadigan buzuq muhiti bor.

– Alibekni shu muhitdan uzib olib, biron yoqqa jo'natish kerak! – dedi Vazira boya bedavo tuyulgan dardga endi davo topa boshlaganday tetiklanib.



– Bu ishni xotini bilan bamaslahat qilmasa bo'lmas, yosh oila buzilib ketsa... keyin Alibekni ham epaqaga keltirib bo'lmaydi.

– Rost, men avval kelinimizni topib gaplashay... Ertaga-yoq maktabiga boraman.

– Oyingizni qachon doktorga ko'rsatamiz?

– Ha, avval oyimning ko'zini qaratmasak bo'lmaydi, bu yoqda Malikaning o'qituvchisi...

– Naryoqda biznikilar ham ertani kutib turishibdi... Xullas, tong otgandan kun botguncha chop-chop...

– Bo'lmasa ertaroq yotib dam oling.

– E, dam qayoqda! Sadriyevga aytadigan gaplarimni bugun kechasi qog'ozga turishib qo'ymasam, erta-indin vaqt qani?

Abror kabinetiga kirib, soat ikkilargacha yozuv-chizuvini qildi. Vazira oshxonani yig'ishtirib bo'lib vannaxonaga kirdi. Ancha kir to'planib qolgan edi. Bu shanba-yakshanba bo'sh vaqt topolmasligini sezib, kirlarni yuvishga kirishdi.

U boya juda ko'ngli alg'ov-dalg'ov bo'lib kelgan edi: Abror go'yo uning hovurini bosdi. Taftini olib, xayolini tinitdi. Tinigan suv tagida ko'ringan g'adir-budur toshga o'xshab, Sherzodning hammualliflik haqidagi taklifi esiga tushdi. Vazira Bahromovning ishini rejaga kirgizib berganini Abror eshitsa, qancha tajang bo'ladi. Vazira buni sir tutishga majbur. Usiz ham tashvish yetarli. Yana hammuallif bo'lish... Vazira tungi soat ikkilargacha kir yuvib, ro'zg'or ishlarini qilar ekan, Bahromovga hammuallif bo'lish fikridan qaytdi. «Abror akam Sadriyevga murojaat qilsa, endi unga yordam berishim kerak», degan o'y bilan vannada cho'mildi-da, xobgohga, erining yoniga kirib yotdi.

Abrorlar bola ekanida Toshkent hozirgidan bir necha barobar kichik edi. Uning bir chetidan ikkinchisiga borib kelish ancha oson, turli joylarga bog'liq ish ham xiyla tez bitardi. Bir vaqtlar eski shahar bilan yangi shahar, Xadra bilan Inqilob xiyobonini oraliq – shaharning eng uzoq maso-



falaridan hisoblangan bo'lsa, endi shimoli Yunusoboddan nari Dendroparkkacha borgan, janubi Do'mbiroboddan o'tib, Yangiyo'lga yaqinlashib qolgan ulkan shaharda Xadraning o'zi ham eng yaqin markaziy maydonlardan biriga aylandi.

Abror qaynonasini to'qimachilik kombinatining yonidagi poliklinika vrachiga ko'rsatib, undan so'ng shaharning narigi chetida – Qoraqamish tomondagi ko'z kasalxonasiga olib borishini o'ylaganda bu katta masofani yelkasida ko'tarib yuradigandek bo'lardi. Shahar qanchalik ulkan bo'lsa, unda yashaydigan kishi doim shunchalik ulkan masofalarni bosib o'tishi kerakligi, mo'ljallangan ishlarini qilib ulgurishi uchun doim vaqtni tejab sarflashga va mudom tezkor bo'lishga majbur ekanligi Abrorga endi astoydil sezilmoqda edi. Ulug' shahar odamdan ulug' kuch va g'ayrat talab qilishini ham endi bilmoqda edi u.

Ular Vazira ikkalasi Zumrad Sodiqovnani ertalab poliklinika vrachiga ko'rsatganlaridan so'ng Chilonzorning Oqtepasi orqali Qoraqamish tomonga yo'l oldilar. Malika maktabda imtihon topshirib yurar, Zafar uyda yolg'iz qolib zerikar edi. Shuning uchun otasi uni ham mashinaga solib chiqqan edi.


Abror qaynonasi bilan ko'z kasalxonasiga kirib ketayotib o'g'liga:

– Mashinaning hech joyiga tegma, eshikni ham ochma, derazadan tomosha qilib o'tir! – deb tayinladi.

Zafar istar-istamas:

– Xo'p! – deb qo'ydi. Derazaning oynasini tushirib, birpas u yoq-bu yoqqa qaradi. Lekin oyisi bilan dadasi Zumrad Sodiqovnani qo'lidan olib, ichkariga kirib ketganlaricha uzoq vaqt qaytib chiqishmadi.

Zafar yolg'izlikdan zerikib, mashinaning eshigini besh-to'rt marta ochib-yopti. Keyin mayda-chuyda solinadigan qutichani ochib, dadasining ko'zoynagini oldi. Unitaqqandan keyin, rulga o'tirgisi keldi. «Dadam kelmayaptimikin?» deb,



abrorlar kirib ketgan eshikka bir qarab oldi. Yo'q, ular hali ham ichkarida. Zafar dadasining joyiga o'tirib, rulni bir-ikki aylantirdi, pedallarga oyog'i yetmasa ham, cho'zilib, ularni birma-bir bosishga tushdi...

Bu orada Abrorlar Zumrad Sodiqovnani ko'z kasalxonasi professorining qabulxonasiga boshlab kirdilar. Professor kasallarni ko'rish uchun palatalarga kirib ketgan ekan. Uning assistenti Abror bilan Vaziraning arzini eshitdi-da:

– Professorga kirishdan oldin yana bir narsani aniqlash kerak, – dedi.

– Nimani?

– Hozir, – deb assistent yigit Zumrad Sodiqovnani yo'lakning oxiridagi xonaga boshlab bordi. Sochini baland qilib turmaklagan hamshira qizga uni ro'para qilib:

– Oq tushgan ko'zlarini bir yuvib ko'ring-chi, – dedi.

Qiz katta shprisga qaynatilgan toza suvdan to'latib oldi. So'ng oq tushgan ko'zni yirib ochib, unga shprisdan suv yubora boshladi. Maqsad ko'zni yuvish emas, balki ko'zdan burunga suyuqlik o'tkazadigan yo'lning ochiqmi-yo'qmi ekanini bilish edi.

– Xola, burningizdan suv kelmayaptimi? – so'radi qiz.

Zumrad Sodiqovna burnini siypab ko'rdi:

– Yo'q, yaxshi.

– Aksincha, yaxshi emas! Ko'zdan burunga suv o'tkazadigan yo'l bekilib qolipti.

Hamshira buni assistent yigitga borib aytgan edi, u boshini chayqab:

– Chatoq-ku, dedi. – So'ng Abrorlarga tushuntirdi: – Ko'z doim namlanib, o'zini-o'zi yuvib turadi-da, ko'zni yuvadigan tabiiy suyuqlik burun orqali sirqib chiqib ketadi. Ana shu suyuqlikning yo'li bekilib qolsa, ko'z yaxshi yuvilmaydi. Shuning uchun operatsiya ham yaxshi natija bermaydi... Operatsiya yaxshi natija berishi uchun avval burun bilan ko'zning orasidagi suv yo'lini ochish kerak.

– Ochish mumkinmi, o'zi?



– Ha, operatsiya yo‘li bilan ochiladi. Ikkinchi bo‘limimizda shunaqa operatsiyalarni qiladigan mutaxassislar bor.

Zumrad Sodiqovnaning kayfi uchib:

– Yana bitta operatsiyami? – dedi. – Men qanday bardosh beraman?

– Busiz mumkin emasmi? – dedi Abror assistent yigitga.

U yigit yelkasini qisdi-yu:

– Mayli, professorni kutinglar-chi, u kishi ham aytarlar, – dedi-da, navbatda turgan boshqa bemorlarning arzini tinglashga tushdi.

Professor hali-beri keladiganga o‘xshamas edi...

... Tashqarida mashinani o‘ynab ovunayotgan Zafar rulni dadasiday qattiq burib, mashinani bir-ikki marta dudutlatib qo‘ydi. Lekin uning haqiqiy shofyorga o‘xshashi uchun yana nimadir yetishmayotganga o‘xshardi. Zafar dadasining o‘ng qo‘li tezlikni o‘zgartiruvchi richag bilan band bo‘lishini esladi. So‘ng u ham o‘ng qo‘li bilan richagning to‘rtburchak tutqichidan oldi-da, uni kuch bilan oldinga itardi, orqaga tortdi. O‘sha paytda oyog‘ini cho‘zib otasida ko‘rganday pedallarni bosib ham qo‘ydi.

Mashina sekin joyidan qo‘zg‘aldi. Abror uni soyaga qo‘yaman deb, yo‘lning chetidagi nishabroq bir joyni tanlagan edi. Mashinaning qo‘l tormozi bo‘shashib, ushlaymaydigan bo‘lib qolgan, uni faqat tezlikka solib qo‘yilgan richag tutib turgan edi. Zafar pedalni bosib, richagni tezlikdan chiqargandan keyin mashina nishabga qarab yurib keta boshladi. Zafar endi haqiqiy shofyorga aylanganday suyunib qo‘ydi. Lekin o‘z-o‘zidan qo‘zg‘alib ketgan mashina bir tomonga burilib, yo‘lning o‘rtasiga qarab bormoqda edi. Shu ketishda u qarshidan kelayotgan boshqa mashinalarga urilib, to‘qnashib ketishi mumkin edi. Zafar buni endi sezdi-yu, qo‘rqqanidan:

– Dada!! – deb qichqirdi. Lekin dadasi hali ham ichkari-da. Zafar sarosima bo‘lib atrofiga alangladi. Yo‘l chetida ustiga brezent yopilgan sariq gazik to‘xtab turibdi. Uning



shofyori mashinasidan tushib, yo'lga qarayapti. Zafar ochiq deraza orqali gazikning shofyoriga qarab qichqirdi:

– Amaki! Qarang! To'xtamayapti! Amaki!..

Gazikning shofyori nima hodisa bo'layotganini sezib, bu yoqqa qarab chopdi. Yugurib kelayotib, Zafarga qichqirdi:

– Tormozni bos! Oyog'ingning tagida! Bos!..

Zafar oyoqlarini cho'zib, har ikkala pedalni bor kuchi bilan bosgan edi, mashina to'xtadi. Gazikning shofyori:

– Qo'yvorma! – deb mashinaning orqasidan aylanib o'tdi va Zafar o'tirgan tomonning eshigini ochdi: – Qani, nariroq suril... Buning kaliti qani?..

– Dadam... dadamlarda.

– Richagga nega tegding!.. A?.. He, tirmizak!..

Kalit bo'lmagani uchun mashinani orqaga yurgizib bo'lmas edi. Gazikning shofyori uni yana nishabga yurgizib, yo'lning o'ng chetiga chiqardi-da, to'xtatib, richagni tezlikka soldi.

Oq ko'ylagining yoqasi va do'ppisining jiyaklari kirangan, yuzlariga tirishlar tushgan bu o'rta yashar amaki Zafarga allanechuk juda jozibali va salobatli ko'rinar edi. Shofyor amaki qo'l tormozni tortib ko'rib:

– Ishlamas ekan-ku! – dedi. So'ng Zafarga buyurdi: – Tush, tosh-posh topib kelib, g'ildiraklarning tagiga qo'y.

Zafar tez mashinadan tushdi, atrofiga alanglab, devor tagida yotgan yarimta-yurimta g'ishtlardan uchtasini ko'tarib keldi:

– Bo'ladimi, amaki?.. Qaysi tomoniga qo'yay?

– Ikkitasi bo'ladi. Oldi tomoniga qo'y. Ha, ana. Lekin endi ko'zingga qara, bola!

Gazikning shofyori mashinasiga qarab ketar ekan, Zafar uning ortidan:

– Rahmat, amaki! – dedi. Shofyor bir qayrilib qaradi-yu, kulib, qo'l siltadi.

Vaziralar chiqqanda sariq gazik jo'nab ketgan, ularning «Jiguli»si esa oftobning tig'iga chiqib qolgan edi. Abror qay-



nonasining tashvishi bilan bo'lib, mashinaning joyi o'zgarib qolganini avval payqamadi. Professor ham: «Ko'z bilan burun orasidagi suv yo'lini ochmasdan oldin qorachiqqa tushgan oqni olib tashlab bo'lmaydi», degan edi. Zumrad Sodiqovnaning qon bosimi ham baland ekan, uyda besh-olti kun ukol olib, bosimini tushirib, keyin kasalxonaga kelishi kerak ekan. Kasalxonada esa ketma-ket ikkita operatsiyaga tayyorlanishi va ulardan keyin tuzalib chiqishi uchun kamida uch oy ketishi ma'lum bo'ldi. Buni eshitib, Abror bilan Vazira ham, Zumrad Sodiqovna ham tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushganday xomush bo'lib chiqishdi.

Abror oldingi eshikni ochayotib Zafarning issiqda terlab-pishib o'tirganini ko'rdi. Rulga oftob tushib turar, ushlaganda qo'lni kuydirar edi.

– Men buni ana u daraxtning soyasiga qo'ygan edim-ku, – dedi Abror. So'ng mashinaning oldi tomoniga o'tib, g'ildiraklarning tagiga qo'yilgan g'isht siniqlarini ko'rdi: – Buni kim qo'ydi, Zafar?

– M... men...

– Nima, mashina yurib ketdimi?

– Ha... – Zafar dadasiga qo'l tormozni ko'rsatib: – Mana bu ishlamas ekan, – dedi.

– Tezlikka qo'yib ketgan edim-ku. Sen richagga tegdingmi?

Zafar indamay boshini solintirib o'tirardi. Abror qanday falokat bo'lishi mumkinligini endi ko'z oldiga keltirdi-yu, kayfi uchib so'radi:

– Mashinani kim to'xtatdi?

– Bir amaki... gazikning shofyori...

Abror atrofiga alanglab, bunday katta yaxshilik qilgan odamga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'ldi, lekin uni topolmadi.

– Bir asrabdi-da. Lekin sen xumkalla, – dedi Abror o'g'liga, – tegma degan narsaga tekkaning uchun yaxshilab kaltak yeyishing kerak!



Abror hamma derazalarni ochib, mashinani shamolga solib, tez haydab borayotganda Vazira Zafarga yon bosdi:

– Sizdan ham o'tgan-da. Qo'l tormozni tuzatib olsangiz bo'lmaydimi?

– Oson deb o'ylaysiz shekilli-da. Ustaxonaga borib, chuqurining bo'shashini kuni bo'yi kutasiz. «Jiguli» ko'payib ketgan, bir chaqirimlik navbat. Qani bunga vaqt? Naryoqda hali boboylar meni kutib o'tiribdi.

Zumrad Sodiqovna qudalarining uylari buzilishini Vaziradan eshitgan edi.

– Uchastka berishadiganmi, Abrorjon? – deb so'radi.

– Yo'q, bo'lmadi. Uchastkani o'n jondan ortiq odami bor katta oilalarga berishar ekan. O'n jonli oilani kvartiraga sig'dirib bo'lmaydi-da. Dadamlar bo'lsa uch jon. Shahar ijroqo'mida ham «kvartira oling», deyishdi. Ko'nishmadi.

– Endi nima qilishmoqchi?

– Chala qolgan uchastkalar bo'lar ekan... Beshqayrag'och tomonlarda bor, deb daragini eshitishgan ekan. Hali pe-shinda dadamni o'sha yoqqa olib borishim kerak.

Vazira o'tirgan joyida bir qimirlab oldi, «Dadangiz sizni shofyor qilib ishlatmasa nima bo'larkan?» demoqchi bo'ldi. Lekin Abror ertalabdan beri qaynonasiga shofyorlik qilib yurganini o'yladi-yu, tilini tiydi.

Abror mashinasini yana ertalab borgan poliklinikalarining oldiga haydab kelib to'xtatdi. Vazira onasini kasalxonaga yotqizishdan oldin qon bosimini tushiradigan ukollarni boshlash kerak edi. Abror soyaroq bir joyni topib, sershovqin, dim ko'chada yarim soatcha kutib o'tirdi. Vazira oyisiga birinchi ukolni qildirib, qolganlarini uyga qatnab qiladigan hamshira bilan kelishib, Zumrad Sodiqovnani boshlab chiqdi. Abror mashinani qaynonasi turadigan uyga qarab haydadi va ancha joylardan aylanib o'tib, podyezd eshigi oldiga keltirib to'xtatdi.



Zumrad Sodiqovna bugun kuyovining yordamida bitirgan ishlarini bir o'zi to'rt-besh kunda ham bitirolmastigini o'ylab, Abrordan astoydil minnatdor bo'ldi.

– Abrorjon, kirib tushlik qiling. Ovqat bor.

– Dadamlar kutib qolishmasin. Men kechroq yana kelaman.

– Rahmat, bolam! Sizni juda ovora qildim-da. Meni deb boshqa urinmang.

– Yo'q, men kelmasam bo'lmaydi. Alibek ishda ekan, uni ko'rishimiz kerak. Aytmoqchi, Nasiba bilan qachon gaplashamiz, Vazira?

– Hali u ham bor-a! – dedi Vazira. So'ng soatiga qarab oldi: – Endi siz ulgurmassiz, oyim bilan tushlik qilaman-u o'zim maktabga borib gaplashaman. Bu yerga uncha uzoq emas. Siz boravering. Zafar, qani, tush!

Zafarning mashinadan tushgisi kelmas edi:

– Dada, Beshqayrag'ochga men ham boray...

– Sen borib nima qilasan? Darrov nomini ilib olganini qarang! Mashinada senga joy bo'lmaydi. Oying bilan ikkovingni kechqurun kelib olib ketaman. Tush!

Bola yana imillagan edi, Zumrad Sodiqovna:

– Hoy, esimdan chiqibdi-ya, Zafar! – dedi. – Senga g'alati o'yinchoq mashinalar olib qo'rganman.

– Qayerda? – qiziqib so'radi Zafar.

– Yuqorida-da. Sandiqda.

Zafar endi mashinadan sakrab tushdi-yu, buvisi bilan oyisidan ham oldin zinapoyaga qarab shoshildi.

* * *

Kun qizigan sari yuqoridan oftobning tafti, pastdan asfaltning issig'i urib, olcharang «Jiguli» go'yo cho'g' bo'lib borar edi. Abror shoshilib tez haydaganda uning shinalari ham qizib, yeyilib, kuygan rezinka hidi taratar edi. Bu hid ayniqsa – havosi toza Bo'zsuv bo'yiga, tollarning soyasiga borib mashinadan tushgan Abrorning dimog'iga gupillab



urildi. Abror hovlilariga kirib, ayvonda naridan-beri choy ichdi. Otasi bilan ukasini mashinasiga o'tqazib, Ko'kchadan nari Shofayziga bordi. A'zam ota ko'rmoqchi bo'lgan joylarni yaxshi biladigan semiz, novcha odam bor ekan. Shokir uni uyidan chaqirib chiqdi. Abror bu odamni ham mashinasiga o'tqazib, Beshqayrag'ochga yo'l oldi.

Zilziladan oldin kolxoz dalalari bo'lgan past-u baland yerlarda shaharcha tig'iz hovli-joylar paydo bo'lgan edi. Qashqar mahallasidan, Labzak bo'ylaridan, Shayxontahur atroflaridan uyi buzilib ko'chgan juda ko'p odamlar mana shu yerlarda besh-olti yil ichida yangi uchastkalar qurishgan, dov-daraxt o'stirishgan, hafsalasi ko'proqlar hovlisiga jimjimador darvozalar o'rnatib, anvoyi gullar ham ekishgan. Lekin hali bitmay yotgan chala joylar, kavlab tashlangan serchang ko'chalar ko'p edi. Shofayzidan mashinaga chiqqan odam:

– Mana bu ko'chaga haydang, mahallaning bitta o'tog'asi bor, shuni olib olaylik, – dedi.

U o'tog'asi ham qorin qo'ygan yo'g'on odam ekan. Mashinaning orqa tomoniga chiqib o'tirganda nozik «Jiguli» mayishib, keti yerga tegay-tegay deb qoldi.

Narigi ko'chaning bir joyiga gaz o'tkazmoqchi bo'lishib, juda yomon kavlashgan ekan. Abror o'tolmasdan orqaga qaytayotganda mashinaning tagi tuproq orasida yotgan katta bir toshga tegib qasirlab ketdi. Abror, «nima bo'ldiykin?» deb tushib qarasa, tutun chiqadigan temir quvurning orqadagi uchi pachoq bo'lib, bir tomonga qiyshayib qolibdi... Abror mashinaga qaytib o'tirayotganda yuzi bo'zaribroq qolganini A'zam ota sezdi-yu:

– Ehtiyot bo'l, o'g'lim, sekinroq hayda, – dedi.

Abror har qancha ehtiyot bo'lganda ham, mashinaning yuki og'ir, buning ustiga yo'l yomon va notanish edi. Yana ikki marta yo'lning o'ynab ketgan joyidan o'tayotganda mashinaning tagi yerga taqillab tegdi. Abror xuddi o'zining badani toshlarga urilib lat yeyayotganday, ich-ichidan og'ri-



nar edi-yu, lekin «mashinasini muncha ayaydi», demasliklari uchun tishini tishiga qo'yib bormoqda edi.

Shu tarzda bir qancha buzuq ko'chalardan o'tib, chala yotgan bir uchastkani ko'rishdi. Joyi qiytiq, kirib-chiqishi qiyin deyishib, undan aynashdi. Yura-yura, Bo'rijarga yaqin bir joyga borishdi.

Yaxshigina poydevor olingan, uch-to'rt qator g'isht ham terilgan-u qolib ketgan. Egasi to'satdan vafot etgan, beva ayol qurolmay tashlab qo'ygan ekan. A'zam ota bu joyga as-toydil qiziqib, atroflarini aylanib ko'rdi.

– Ariqlari durust olinmagan, – dedi. – Suv qayoqdan keladi? Shohariq uzoqmi?

Shokir esa:

– Gazi yo'q ekan-da, – deb ko'ngilsizlandi.

Abror shoxlarida mevasi sarg'ayib pishib turgan sersoya o'rikning tagida gapga aralashmay turdi. Unga bu yerning havosi yoqmoqda edi. Dalani eslatadi. Tinch. Nafas olish yengil.

– Avtobusga juda uzoq ekan, – dedi Shokir, – Ada, yana boshqa joy bo'lsa ko'raylik.

– Yuramizmi endi! – dedi Abror norozi bo'lib.

– Boshqa obodroq joylar bormi? – deb so'radi A'zam ota yo'l boshlab kelganlardan.

– Topiladi... Qani, yuringlar-chi.

Yana o'nqir-cho'nqirlarda mashinaning tagi yerga urilib, Abrorning asabi qaqshab, uchinchi bir joyga borishdi.

U bunaqa ishlarni butun vujudi bilan yomon ko'rsa ham, kekxa otasi issiqda piyoda qiynalmasligi uchun o'zini majbur qilib, birga olib yurmoqda edi. Uchinchi joydan ham ko'ngillari to'lmagandan keyin yo'l boshlab kelgan tanishlar Qoraqamishning naryoqlarida, Qorasuv bo'ylarida, Lunacharsk tomonlarda ham ko'radigan joylar borligini aytishib, manzillar berishdi. Kun kech bo'lib bormoqda edi.

– Ada, – dedi Abror, – mening boshqa ishlarim bor edi.



– Bugun bo'lmasa ertaga borarmiz. Ertaga yakshanba-ku, bo'shdirsan? Bunaqa ishda yetti o'lchab, bir kesgan ma'qul-da, o'g'lim.

– Mayli, ertaga vaqt topilar.

Kun botayotgan paytda Abror otasini hovlilariga olib borib qo'ydi. Shokir:

– Aka, birpas turing, birga ketamiz, – dedi-da, ichkariga kirib, bayramlarda kiyadigan tufli va ko'ylagini kiyib chiqdi. Keyin Abror markazdan o'tayotganda Navoiy teatriga yaqin bir joyda mashinani to'xtatdi.

Abror sochlarini qo'li bilan tarab to'g'rilayotgan ukasining yuzida qandaydir nafis bir hayajon borligini sezib, kulimsiradi:

– Ha, visolgami?

– Endi... Shunchaki...

– Qalliq bo'ladigan qizmi?..

Shokir iymanibroq bosh irg'adi. Abror uning niyati jiddiyligini sezib, mashinasini yo'lning chetidagi soya ostida to'xtatdi-da, shoshilmay surishtira boshladi:

– Qachondan beri uchrashib yuribsan?

– Uch yilcha bo'ldi... Siz ham uni ko'rgansiz. Agronom bo'lib ishlaydi.

– Shaharda... agronom?

– Obodonlashtirish boshqarmasida-da...

– E, shoshma, shoshma! Otasi chet ellarda tarjimon bo'lib ishlagan. Havorang «Volga»lari bor. Oti nima edi?

– Nigora.

– E, bo'ldi, bo'ldi!.. Kelin bo'lsa arziydi...

Bu maqtovdan dadillangan Shokir Nigorani Vazira keli-noyisi ham bilishini aytdi.

– Siz ham Nigoraning tog'asi bilan birga o'qigan ekansiz, – deb qo'shib qo'ydi.

– Qaysi tog'asi?

– U ham mashhur arxitektor.

– Oti nima?



– Sherzod Bahromov!

Shokir akasini xursand qilmoqchi bo'lib bu gapni aytgan edi. Abror to'satdan xafa bo'ldi.

– Ob-bo! Aksiga olganini qara! Kelib-kelib eng yomon ko'rgan odamimga qarindosh bo'lamanmi, a?

Shokir sarosima bo'lib:

– Iye, axir, Sherzod degan nomi bor-ku... – dedi.

– Nomi yaxshi! Sherzod – ibrat bo'ladigan odamga yara-shadigan ot. Lekin Bahromov – chiroyli nomni ham o'ziga bir niqob qilib olgan qallob, sherning terisiga kirib yurgan tulki.

Abror ukasiga Sherzodning kooperativ uy masalasida ishlatgan nayrangini aytib berdi:

– Bahromov opasi bilan pochchasiga bizning hovlimizda qurilayotgan o'sha uydan kvartira olyapti, deyishuvdi. Hali shular bo'lsa-ya?

– Ha, shu Nigoralar... Men tog'asining bunaqaligini bil-mas ekanman. Hali onasi ham chatoq chiqmasa.

Abror ukasining xavotirga tushib qolganini ko'rib:

– Har qalay, oldindan bilib qo'yganing yaxshi, – dedi. – Nigora tog'asini juda yaxshi ko'rarkanmi?

– «Palonchi tog'amlar» deb faxrlanib gapiradi.

– Qiz uning ta'siriga tushib qolmagan bo'lsa durust-a.

– Nigora ancha mustaqil, lekin oyisi Bahromovning ta'sirida bo'lishi mumkin.

– Unday bo'lsa qiz bilan bir gaplashgin. Men senga ba'zi faktlarni aytib beray...

Abror o'zi bilan Sherzod orasida bo'lib o'tgan to'qnashuv-lardan yana bir qanchasini aytib berdi.

– Hali biz u bilan Bo'zsuv masalasida yana olishsak ke-rak, – dedi. – O'shanda jiyani haqni nohaqdan ajratolmasa senga ham qiyin bo'ladi.

– Buni aytganingiz yaxshi bo'ldi, aka. Men hech narsadan bexabar laqillab yurgan ekanman...



– Lekin behuda hadiklarga ham berilmagin, Shokir. Tog'asining illatini jiyanidan qidirib yurma. Agar qiz bilan ikkovlaring ahil bo'lsalaring hamma ishkalliklarni yengib o'tishlaring mumkin.

– Ko'ramiz... Xo'p, mayli, men boray.

Abror Navoiy teatri oldidagi ulkan favvoraga qarab ketayotgan xushqomat, durkun ukasiga orqadan birpas tikilib turdi-yu, o'ziga-o'zi gapirib:

– Yo alhazar! – deb qo'ydi. Naryoqda qaynisi xotini bilan ajrashmoqchi. Bu yoqda ukasi Bahromovning jiyaniga uylansa... Ilonning yomon ko'rgan o'ti inining og'zida o'sadi, deganlari ham rost chiqadimi?

Abror qaynonasining uyiga yetib borguncha shu o'ylar xayolidan nari ketmas, turib-turib na'sha qilar edi.

U mashinani hovliga – qaynonasining derazasidan ko'rinadigan joyga qo'yib, eshiklarini qulfladi. To'rtinchi qavatga chiqib borayotganda otasi-yu qaynonasiga oid chigalliklar ukasining va qaynisining muammolariga aralashib, chalkash bir kalava tobora ulkan bo'lib ketayotganday tuyuldi.

* * *

Yana o'sha tugmasi tushib ketgan qo'ng'iroq simlari... Eshikni ochgan rangpar juvon Abrorni quvonib kutib oldi.

Sochi kalta qirqilgan, tagi platformali yashil boshmoq kiygan bu juvon Alibekning xotini Nasiba edi. Abror u bilan ko'rishar ekan, ichida Vaziradan mamnun bo'lib: «Durust, arazlariga qaramay olib kelibdi», deb qo'ydi.

Zafar ko'chaga qaragan sershovqin xonada buvisi bergan o'yinchoq mashinani yurgizib o'ynab yuribdi.

Vazira kelini bilan manti pishirgan ekan. Bir chinni laganni zira hidi kelib turgan mantiga to'ldirib, alibeklar kabinet qilib olgan xonaga olib kirishdi.



Alibekning o'zi ichki xonadagi karavotda ustki kiyimi bilan chalqancha yotib, saqich chaynamoqda edi. Abror kabinetga kirganda Alibek uni qiya eshik orqali ko'rdi-yu, shoshilmay o'rnidan turdi. Shimining cho'ntagiga qo'lini tiqqan ko'yi chiqib keldi-da:

– Keling, pochcha, – deb, qo'l berib ko'rishdi. Abror uning saqich chaynashda davom etayotganini ko'rib qovog'ini uydi. Vaziraning ham g'ashi kelib ukasini jerkidi:

– Xotin kishiga o'xshab saqich chaynashni kimdan o'rgan-ding! Pochchang bilan gaplashganda olib qo'y, munday!

Alibek pochchasidan himoya kutganga o'xshab opasidan shikoyat qildi:

– Nuqul shunaqa nasihat! Nima qilishimni o'zim bilmay-manmi? Yosh bolamanmi?

– Bas! – dedi Vazira. So'ng yo'lak tomonga o'girildi. – Nasibaxon, oyi, kelinglar! Zafar, senga alohida suzdim, oshxo-nada o'tirib yeyqol... Qani!..

Nasiba stolning Alibekdan uzoqroq bir chetiga kelib o'tirdi. Er-xotin bir-birining yuziga qaramas edi. Abror ularning hali ham araz ekanliklarini, Nasiba qaynonasining kasalini eshitib, odamgarchilik yuzasidan xabar olgani kel-ganini shundan sezdi.

Vazira ovqatni ataylab bir laganga suzgan, endi ukasi bi-lan Nasibani amallab yarashtirib qo'yishni o'ylar edi. Buni undan Zumrad Sodiqovna ham iltimos qilgan edi.

... Vazira Nasiba bilan yakkama-yakka o'tirib, ko'p nar-sani so'rab oldi. Nasiba hali eridan ko'nglini uzmagan, un-dan ajralib yashashni istamas edi. Lekin Alibekni narigi ulfatlaridan qanday ajratib olishning boshqa yo'lini ham bilmasdi.

– Yaxshi bo'lgisi kelganda binoyiday mehribonchiliklar qiladi, – deb u eri bilan o'tkazgan yaxshi kunlarini ham esla-di. – Lekin ulfatlari mehribonchilikni «sentiment» deb kulgi qilishadi. Odam bunaqa narsalardan baland turishi kerak, degan nazariya chiqarishgan. Opajon, men ona bo'lishni



istayman, – deb Nasiba ko'ziga yosh oldi-yu, Vaziraga shivirlab gapirdi. – Hozir yana bo'yimda bo'lgan. Ukangizga bildirmay yuribman. Bilsa, meni yana... majbur qiladi!.. Shuning uchun oyimnikiga ketdim. Lekin oyimga ham qiyin... Odamlar hayron. Tushunmaganlar: «Pushti kuyib ketgan», deb har xil gap qilishadi.

Bu gaplarni eshitgandan keyin Vazira Alibekning birinchi bo'lib yon berishi kerakligini, aks holda, yarashishlaridan yaxshi natija chiqmasligini sezib qoldi. Hozir ukasining qovog'i sal ochiqroq ekanini sezib:

– Manti qalay! – dedi.

Saqichini og'zidan olib qo'yib, mantini ustiga-ust tushirayotgan Alibek:

– «Neshtyak»⁴, – dedi.

Mantini yeb bo'lganlaridan keyin Vazira yana unga yuzlandi:

– Yaxshi bo'lsa, rahmatini Nasibaxonga aytasan, – dedi. – Kelinimizning qo'li juda shirin ekan.

Alibek Nasibani pisand qilmagandek, kinoyali jilmaydi:

– Bo'pti. Manti qilganlarga mersi⁵.

Abror unga qo'shimcha qildi:

– Rahmat, kelin!

Nasiba past tovush bilan:

– Osh bo'lsin, – dedi va laganni yig'ishtirib olib ketdi-yu, choy damlab keldi.

– Xo'sh, mulla Alibek, – dedi Abror. – Endi jiddiy gapga o'taylik. Siz haqiqatan ham bola emassiz. Mana shu oilaning boshlig'i bo'ladigan paytingiz keldi.

Alibek yana kinoyali jilmaydi:

– Men boshliq bo'lishni yomon ko'raman. Kecha opamga ham aytgan edim.

– Boshliq bo'lishni istamasangiz, rulni kimgadir berishingiz kerak. Chunki, har bir oila – hayot dengizida su-

⁴ Neshtyak – jargon. «Yomon emas» ma'nosida.

⁵ Mersi – «rahmat» (fr).



zib borayotgan kichik bir kema. Agar bu kema o'z ahvoliga tashlab qo'yilsa, bebosh oqimlar toshlarga eltib urishi bor, birorta sayozlikka borib o'tirib qolishi bor. Yomon to'lqinlar kelib ag'aratib ketishi bor. Boshqarmay tashlab qo'yilgan kema hech qanaqa manzilga yetib borolmay g'arq bo'lib ketadi. Siz buni istamasangiz kerak?

Alibek pinagini buzmay chinchalog'ining uzun tirnog'i bilan soqolini qashib qo'ydi.

– Yo istaysizmi? – deb Abror qaytarib so'radi.

Ayollar nima bo'lishini kutib jim o'tirishipti.

Alibek chiroyli qilib qirqilgan uzun tirnog'ining tozalan-gan joyiga sekin puflab, g'uborini uchirdi-da:

– Pochcha, – dedi, – siz bugun oyimga shuncha qarashib-siz, rahmat. Endi bizning ichki ishlarimizga aralashmay qo'yaqoling. Kemamizni o'zimiz haydaymiz.

Abror ham kinoyali iljaydi-yu:

– Qani haydaganingiz? – dedi. – Kemangiz rulsiz qolib, sayozlikda tiqilib yotibdi-ku! Oyingiz bu ahvolda, xotinin-giz bilan oralaring buzilgan. Ishingiz orqaga ketgan. Shu turishda kemalaring hademay vayron bo'ladi, oila buziladi, uchovlaring uch tomonga qarab ketasizlar. Yana bir marta so'rayman: nahotki siz shuni istaysiz?

Alibek oyisiga qisqa bir nazar tashlab oldi-da.


– Oyim mensiz hech qayoqqa bormaydi, – dedi.

– Nega? Yaqinda oyingiz kasalxonaga yotadi. Ikkita ope-ratsiyaga kamida uch oy vaqt ketadi. Sizsiz hech qayoqqa bormaganlarimi bu?

Zumrad Sodiqovna o'g'liga qarab turib, ko'ziga birdan yosh oldi:

– Aqlingni yig', Ali! Sen shunday qilaversang, men narigi dunyoga ham vaqtdan oldin ketaman. O'zing qolasan ke-yin...

Bu gap Alibekning jahlini chiqardi. U onasiga zug'um qilib dedi:



– Endi hammasi uchun men aybdormi? Men nima yomonlik qildim o'zi?

Vazira birdan qizishib:

– Surbetlikni qarang! – dedi.

Abror uning bilagiga qo'lini qo'yib:

– Siz qizishmang! – dedi-da, Alibekka tikilganicha, bosiq tovush bilan so'zladi: – Keling, uka. Ochiqchasiga yurakdan bir gapirishaylik. Siz birpas o'zingizni mening o'rnimga qo'yib tasavvur qiling. Vazira opangiz ikkovimizning ishimizda kechalari uyqu bermaydigan muammolar bor. Ular bizdan bir dunyo vaqt, qunt, kuch talab qiladi. Buning ustiga, hali Zafar, hali Malika birorta tashvishni yelkamizga ortadi. Buni ham ko'taramiz. Mana bugun Malikaning maktabiga borib, o'qituvchilari bilan bir talay asabiy masalalarni hal qilib keldik. Keyin ikki marta poliklinika, bir marta Qoraqamishdagi kasalxona... undan so'ng Shofayzi, Bo'rijar... Minnat ma'nosida emas, lekin hozir kelayotib spidometrغا qarasam, shu bugun tiqilinch shahar bo'ylab bir yuz-u sakson chaqirim yo'l bosibman. Siz ayting-chi, Alibek, buning hammasini men nima uchun qilyapman?

Alibek pochchasining bunchalik jon koyitishini ko'pda pisand qilmay kulimsirab javob berdi:

– Nu, odamlar sizdan minnatdor bo'lishi uchun... ko'proq rahmat aytib maqtashlari uchun...

Uning ovozdagi kinoyani sezgan Abror:

– Siz, albatta, bunday maqtovlarga uchmagan bo'lar edingiz, Alibek. Bilaman, o'zingiz to'g'ringizda fikringiz juda baland. Siz bizga taraqqiyotning eng baland cho'qqisidan turib qaraysiz. Lekin men oddiy odamman, yaqinlarim uchun jon koyitishga o'rganib qolganman. Agar shu bugun qilgan ishlarimni qilmasam o'zimni o'zim yomon ko'rib qolar edim, yeganim ichimga tushmas edi...

– Nega? – hayron bo'ldi Alibek. – Axir siz ham dunyoga bir marta kelgansiz. Hadeb boshqalar uchun jon koyit-



guncha o'zingizga ham g'amxo'r bo'lib yashaganingiz to'g'ri emasmi?

– Mening o'zimga g'amxo'rlik qilishim tanamni parvarishlab, bekor ag'anab yotishimda emas. O'zingizni rohat-farog'atga urganingiz bilan muammo bo'lib yotgan ishingiz ko'z oldingizda tursa, ota-onangiz, bolalar-ingiz og'ir ahvolda bo'lsa-yu, siz ularga qarashmasangiz, ruhingiz azobda qoladi, ichingizni mushuk tatalaganday bo'ladi. Ana shu ruhiy azobdan qutulishga intilish ham o'zingizga g'amxo'rlik qilishning bir turi, Alibek! Shuning uchun ming jon koyitsak ham, mana, bugungiday yuzlab chaqirim yo'l bossak ham, birovlariga borib, iltimoslar qilib, izzat-nafsimizni qiynab bo'lsa ham... shu ishlarni qil-may turolmaymiz.

– Men ana shunday bosh egib iltimos qilishlarga ham qarshiman! – mag'rur turib luqma tashladi Alibek. «Qarindoshimga mehribon bo'laman» deb, insoniy g'ururini sentimentlarga qurbon qilib yurish ham – eskilik sarqiti. Biz bundan qutulishimiz kerak!

– Mulla Alibek, insoniy g'urning ham haqiqiysi bor, qalbakisi bor. Agar men shu bugun bir soat professorning qabulini kutib, unga qo'limdan kelganicha iliq muomala qilib, oyimizning ahvolini yaxshilab tushuntirmaganimda, ko'zlari-ni tuzatish uchun hozirgiday yaxshi yo'llarni topolmagan bo'lar edik. Bu kishi bir ko'zdan ayrilib qolar edilar. Bunday paytda g'ururim, izzat-nafsim, o'zimning kimligim esim-dan chiqib ketadi. Chunki yaxshilik qilish hech vaqt oson bo'lgan emas. Shu yaxshilik kutilgan natijani bersa, mana, oyimizning ko'zlari biz istaganimizdek ochilib ketsa, ana unda buni g'urur bilan eslasak arziydi. O'shanda ruhimiz rohat qiladi. Haqiqiy g'urur mana shunaqa ma'naviy rohat bilan qovushib kelsa kishiga tatiydi.

– Sen bo'lsang faqat tanangning rohatini o'ylaysan! – dedi Vazira ukasiga.



– Ha, nima, tana boshqa, ruh boshqami, o'zi? – qizishib so'radi Alibek.

– Qizishmang, uka. Tana bilan ruh aslida bir. Lekin tana cheklangan – bir yarim-ikki metr bo'y, yetmish-sakson kilo vazn. Inson ruhi bo'lsa cheksiz. Unga butun dunyo, butun odamzod, butun koinot sig'adi. Xalqimizdan bizga o'tgan barcha an'analar, jamiyatimiz bizga bergan barcha tarbiya-yu bilimlar, tabiat-u san'atda bizga yoqqan barcha go'zalliklar – hammasi ruhimizga jo bo'ladi. Ota-ona, qarindosh-urug', yor-do'st, mahalla-ko'y bizga juda ko'p yaxshiliklar qilishgan, ularning juda ko'p yordamlarini, odamgar-chiliklarini ko'rganmiz. Bu hammasi ruhimizga o'rnashgan, bizdagi burch, mas'uliyat tuyg'usini mehr-oqibat degan narsaga aylantirib, qalbimizga joylagan.

– Sen xuddi mana shuni tushunmaysan, Alik! – deb yana Vazira gap qo'shdi. – Bo'lmasa oilangni bu ahvolga solib, «farzand kerak emas», deb yurmas eding!

So'nggi gap Alibekka qattiq botdi. U o'rnidan turib ketmoqchi bo'lib bir yulqingan edi, Abror qo'lidani tutib:

– Shoshmang, Alibek, o'tiring, gap bor! – dedi.

– Nega bu opam nuqul mening oilaviy ishlarimga aralashadi?! Ota bo'lamanmi yoki ajrashib ketamanmi, bu mening shaxsiy ishim-ku!

– Yo'q, ukajon, oila bir kishining shaxsiy ishi emas, – yana bosiq gapirdi Abror: – Bitta yog'och uy bo'lmaydi, bitta odam oila bo'lolmaydi. Bu yoqda Nasiba, onangiz, qolaversa, men, Vazira – hammamiz birgalikda katta bir oila bo'lib yuribmiz. Yaxshi oila – odamni ichdan mahkam tutib turadigan bebaho bir kamar. Bilasiz, Toshkent zilzilalar ko'p bo'ladigan mintaqaga joylashgan. Shuning uchun biz turgan mana bu uylarga mustahkam po'lat kamarlar bog'langan. Zilzila paytida uylarni ana shu po'lat kamarlar ichdan mahkam tutib turadi. Yaxshi oilalarda ham odamni ichdan mahkam tutib turadigan ma'naviy fazilatlar kamari bo'ladi. Odam bolalik yillaridan boshlab ota-onasidan, ma-



halla-ko'ydan, butun xalqidan qanday yaxshi fazilatlarini meros olsa, qanday yaxshi odatlar-u an'analarni o'rgansa, hammasi olmos qirralariga o'xshab, mana shu kamarga yig'ilib boradi. Ayniqsa, avlodlar orasidagi mehr-oqibat – mana shu olmos kamarning eng yirik gavhari, Alibek!

– Pochcha, gavhar deganingiz – brilliantmi?.. Men yaqinda zargarlik magaziniga kiruvdim. Brilliant shunday qimmatki, menga o'xshab sakson so'm oylik oladiganlar uning yaqiniga ham yo'lay olmaydi.

Vaziraning birdan achchig'i kelib:

– Gapni surbetlik bilan hazilga burib qutulmoqchisan-a! – dedi.

– Ha, nima? Rost-da! – g'oliblarcha iljaydi Alibek.

Endi Abror ham xiyol qizishdi:

– Men aytgan gavhar magazinda sotilmaydi, uka! Kichik oylik olish, hatto kambagal bo'lish ayb emas, lekin ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib yashash – ayb! Men aytgan olmos kamarni birov sizga tayyor holda sovg'a qilolmaydi. Uni pulga olib bo'lmaydi! Uni har bir kishi o'z kuchi bilan umr bo'yi qalbida zarralab to'plab, ma'naviy boylik qilib yig'adi.

– Lekin men boylik to'plashga qiziqmayman.

– Siz yana gapni g'irromlik bilan buryapsiz!

– Nuqul meni yomon demoqchi bo'lasiz, pochcha! Men kimga yomonlik qildim?

– Xo'p, yomonlik qilmagan bo'lsangiz kimga nima yaxshilik qilyapsiz?! Bizga shuni ayting!

Bir lahza jimlikda Alibek jo'rttaga bosh qashib, o'ylangan bo'ldi. Abror unga: «Mana, umr yo'ldoshingiz Nasibaxon ona bo'lishni orzu qiladi, siz nega shu muqaddas orzuning yo'lini to'sasiz», demoqchi edi. Lekin Nasiba ko'zlari uyatdan pիրpirab, «buni ayt mang!» deganday iltimoskorona qarab turganini ko'rdi-yu, gapni Zumrad Sodiqovnaga burdi:

– Shu oyingizga biron yaxshilik qildingizmi? Soqol qo'ygansiz, tirnoq o'stirgansiz. Ko'rib turibman, doim tirnog'ingizga e'tibor berib «pu-pu»laysiz. Lekin sizga ha-



yot bergan, siz uchun jonini fido qilib yurgan onangizga nega hech e'tibor bermaysiz?

– E'tibor bermay nima qilibman, axir?

Vazira yana o'zini tutolmay gapga aralashdi:

– Kecha oyimni mana bu tinch xonaga ko'chiraylik dedim. «Bu xonada magnitofonim bor, o'rtoqlarim kelsa birga eshitaman», deb unamading. Senga o'sha ulfatlaring-u magnitofoning onadan ham azizroqmidi?

Alibek sakrab o'rnidan turdi:

– Hammang menga qarshisan! Bas! Jonimga tegdi!

Abror Vaziraga qarab:

– Bu ukangiz gap bilan insofga keladigan emas! – dedi.

Alibek qo'lini shimining cho'ntagiga solib, qo'shni xonaga chiqib ketdi. Uning bu qiligi hammadan ko'ra Zumrad Sodiqovnaga og'ir botganini Nasiba uning ko'karib ketgan yuziga qarab sezdi. Abror bilan Vazira ham nima qilishlarini bilmay hang-mang bo'lib o'tirishibdi. Shunda Nasiba sekin o'rnidan turdi:

– Gap kor qilmasa, ishga o'ta qolaylik, – dedi. – Men ham shu h-vartiraga doimiy yozilganman. Qonunga binoan, bu ikki xonadan biri meniki. Oyimni men o'zimning oldimga olaman.

– Juda to'g'ri! – dedi Vazira. – Mana shu o'tirgan xonamiz Nasibaniki bo'la qolsin. Hozir oyimni ko'chirib o'tkazamiz! Qani, turinglar.

– Bo'pti! – deb Abror ham o'rnidan turdi.

Narigi xonaning ochiq eshigi orqali bu gaplarni eshitib o'tirgan Alibek cho'ntagidan yana saqichini olib, og'ziga soldi-da, uni tajanglik bilan chaynay boshladi.

Bo'shashib o'tirgan Zumrad Sodiqovna:

– Qanday bo'larkin! – deb ikkilandi.

– Ko'pchilik ovoz bilan shu qarorga keldikmi, oyi, endi siz ham ikkilanishlarni bas qiling! – dedi Vazira.

Uchovlashib, divanni bir chekkaga surishdi-da, narigi xonadan Zumrad Sodiqovnaning karavotini ko'tarib kirish-



di. Alibek xobgohda u yoqdan-bu yoqqa asabiy borib kelmoqda edi. Vazira unga eshik orqali qarab:

– Magnitofoningni o'zing olasanmi bu yerdan yo olib kirib beraylikmi? – dedi.

– Bu yerda nega xo'jayinlik qilasanlar?! – deb o'zini tutolmay o'shqirdi Alibek Abror bilan Vaziraga. – Uylaringga borib xo'jayinlik qilinglar!

Abror uning do'qini pisand qilmay, kulib javob berdi:

– Biz xo'jayinlik qilayotganimiz yo'q. Oyingiz bilan Nasibaga yordam beryapmiz. Siz balchiqqa o'tqazib qo'ygan kemani tortib chiqarmoqchimiz.

Alibek eshikning oldiga kelib baqirdi:

– Agar aralashaversalaring men bu kvartiradan ketaman! Kvartirali yaxshi qizlar topiladi!

– Voy, sharmanda! – dedi Vazira. – O'zingni birovning kvartirasiga suqulishdan uyalmasang, bor, ketaver! Bor!

Alibek eshikdan yulqinib chiqar ekan, Vaziraga qarab:

– Yalmog'iz! – dedi. Yo'lakdan o'tib, tashqi eshikni ochdi-da, uni bor kuchi bilan sharaqlatib yopib chiqib ketdi. Zumrad Sodiqovnaning kayfi uchib:

– Voy, Vazirajon, bu janjal menga nima kerak edi? – dedi. – Qo'y, och qornim – tinch qulog'im!..

– Siz ham bir marta qattiqroq turing endi, oyi!

– Axir ukang o'zini bir narsa qilib qo'ysa qandoq qilamiz?

– Shu Alibek-a? – deb kuldi Vazira. – Tirnog'ini «pu-pu»lab yuradigan joni shirin xudbin o'zini bir narsa qilar-midi?

Nasiba ham Vaziraning gapiga qo'shildi:

– Hozir ulfatlarining oldiga borib, bir stakan portveyn ichadi-yu, kayfi yana joyiga tushadi... Qani, kelinglar, narigi eshikni ham ochaylik.

Xobgohdagi kiyim javonini nari surib, uning yo'lakka chiqadigan eshigini ochdilar. Alibekning narsalarini o'sha xonaga kiritib, oradagi eshikni bekitib tashladilar. Shu bilan berigi xonaning kirish-chiqishi alohida bo'ldi.



Vazira kelinini belidan quchib erkalatdi-da:

– Nasibaxon, jonim! – dedi. – Endi oyimni sizga topshirib ketamiz. Bugundan boshlab shu yerda birga turaveringizlar.

– Mayli-yu, lekin narigi uyda oyim meni kutayotgan bo'lsalar kerak. Bu yerdaligimni bilmaydilar-da. Telefon ham yo'q.

– Ancha uzoq-ku, a? – deb Vazira Abrorga qaradi. – Nasibaxon qorong'ida borib kelgunlaricha yarim kecha bo'lib ketadi.

– Yo biz yo'lakay kirib, oyilariga aytib ketaylikmi? – dedi Abror. – Mashinaga birpaslik yo'l.

– Ha, Nasiba uyiga qaytganini oyilari eshitsalar xursand ham bo'ladilar, – dedi Vazira.

Nasiba o'ylanib turib, shunga rozi bo'ldi-yu, Abror bilan Vazirani mashinalarining oldigacha kuzatib tushdi. U g'amgin edi, ulfatlarining oldiga ketgan Alibekni o'ylardi. Bu ulfatlarning orasida hech balodan qaytmaydigan qizlar ham bor. Agar Alibek o'shanaqalarning birortasi bilan topishib ketsa, Nasiba nima qiladi? U shuni o'yladi-yu:

– Opajon, ukangiz bilan murosa qilolmaydiganga o'xshaymiz, – dedi. – Bir umidim sizlardan edi. Sizlarning gaplaringizni ham olmadi. Zavodida yaxshi-yaxshi odamlar yo'lga solmoqchi bo'lib urinib ko'rishdi. Men borib iltimos ham qildim. Natija chiqmadi. Hammadan o'zini aqlli deb biladi. Faqat o'sha ulfatlarining gapini tan oladi.

Vazira Abrorga qaradi:

– Buni shu muhitdan tortib olishning hech iloji yo'qmikin, a? Boshqa biror shaharga ishga ketsa-chi?

– Ukangiz o'z ixtiyori bilan boshqa shaharga ketmaydi, – dedi Abror. – Bunaqa boyvachchalar mas'uliyat nima, burch nima – hammasini unutgan. Yengil hayotdan quturib ketgan. Bu yil armiyaga boradigan edi. Oyingiz: «Qaraydigan boshqa hech kimim yo'q», deb olib qoldi. Hali ham bo'lsa Vatan oldidagi burchini bajarsin – armiyaga borsin! Harbiy intizom, majburiy rejim buni tez hushiga keltiradi. Armiya-



da biz bunaqa tantiqlarni ko'rganmiz. Besh-olti oy xizmat qilgandan keyin uyning qadriga yetadigan, oilani sog'inadigan bo'lib qoladi.

Nasiba Vaziraga qarab:

– Nima qilay? – dedi-yu, ko'zida yosh g'iltilladi: – Boshqa hamma yo'lini qildik... Bo'lmadi... Mayli, pochcha... Men rozi...

Abror voenkomatga borib nima deyishini o'ylar ekan:

– Harbiy odamlar bilan muomala qilish oson emas, – dedi Nasibaga. – «Oyisiga qaraydigan kelinlari bor», deydiyan bo'lsam: «Qani?» deb so'rashlari mumkin. Dushanba kuni soat... uchlarda rayonlaringizning voenkomatiga borolmay-sizmi, Nasibaxon? O'zi bu yerdan uncha uzoq emas.

– Borardim-u, lekin Alik bilib qolsa battar o'chakishadi-da.


– To'g'ri. Nasiba bormagani yaxshi, – dedi Vazira.

– Bo'lmasa menga pasportingizni olib tushib bering. Ishlaydigan joyingizning guvohnomasi bo'lsa, uni ham ola keling.

Nasiba yuqoriga chiqib ketdi. U Abrorga pasport bilan guvohnomasini olib kelib berayotganda juda qaltis bir ishga bosh qo'shayotganday, eti junjika va qo'l-oyoqlari titrardi.

* * *

Abrorning direktor Sayfulla Rahmonov bilan tortishuviga sabab bo'lgan munozarali masalalar mana shu qistalang kunlarning birida boshqarma muhokamasiga qo'yildi. Nabi Sadriyevning kabinetiga – devor tagidagi uzun stol atrofiga o'ndan ortiq mutaxassislar yig'ilishdi. Yuqoriroqda – obodonlashtirish boshqarmasining mas'ul xodimi bo'lgan ko'zoynakli kishi o'tiribdi. Unga qarama-qarshi o'tirgan Abror nimanidir yozishga tayyorlanganday, oq taxta qog'oz ustiga avtoruchkasini ochiq qo'yibdi. To'planganlar orasida Vazira ham bor – u bunaqa muhokamalarga ko'p qatna-



shadi. Lekin Abrorni hayratga solayotgan narsa shu ediki, Sayfulla Rahmonov betobligini bahona qilib muhokamaga kelmagan, o'zining o'rniga muovini G'ayrat Yaminovni yuborgan edi. Abror bilmas ediki, Vazira boshqarma boshlig'ini xoli topib, Abror bilan Sayfulla Rahmonovning orasidan o'tgan gapni batafsil aytib bergan edi. Rahmonovning Abrorga taqqan noo'rin g'oyaviy ayblari Sadriyevga ham yoqmagan edi. Buni telefon orqali eshitgan Sayfulla Rahmonov eski yaralari yana tiralishidan cho'chib, bugungi muhokamadan o'zini olib qochgan edi.

Bir payt Sherzod Bahromov kirib keldi-yu, hamma bilan ko'rishib, yuqoriroqda turgan bo'sh stullardan biriga o'tirdi. Demak, u ham muhokamaga qatnashadi. Balki do'sti Rahmonovga yon bosish uchun kelgandir?

Kreslosi oldida tikka turib, «vertushka» deb ataladigan telefonda so'zlashayotgan Nabi Sadriyev gapini tugatib go'shakni joyiga qo'ydi-da, mikrofonning tugmasini bosdi. Engashib mikrofonga og'zini yaqinlashtirgach:

– Valya, – dedi qabulxonadagi kotibasiga. – Yarim soatgacha hech kimni kirgizmang. Telefonni ham ulamang.

Abror muhokamaning yarim soatda tugashi kerakligini shundan sezib, boshqarma boshlig'idan mamnun bo'lib qo'ydi.

– Qani, boshladik, – dedi Sadriyev. – O'rtoq Yaminov, siz institut direksiyasining vakilisiz, ayni vaqtda, loyihani chizgan mualliflardansiz. Gapning lo'ndasini sizdan eshitaylik.

Boshliq gapni qisqa qilish kerakligini ta'kidlayotgan bo'lsa ham, kattakon yozma doklad tayyorlab kelgan G'ayrat Yaminov Toshkentni qayta qurishning ahamiyatini, arxitektor va quruvchilar tomonidan qilingan ishlarning Moskvada yuksak baho olganini, Yaponiyada bo'lgan jahon ko'rgazmasiga dunyoning turli mamlakatlaridan borgan odamlar Toshkent markazining maketini ko'rib nimalar de-



ganini batafsil so'zlashga kirishdi. Nabi Sadriyevich uning bilagiga qo'lini qo'yib kuldi-da:

– Bu katta gaplarni kattaroq yig'inda aytarsiz, maqsadga o'ting, – dedi.

– Abror A'zamov bir qancha o'zgarishlar taklif qilyapti. Uning takliflarini qabul qilsak, maydonda soya beradigan jaydari daraxtlarni ko'paytirishimiz kerak bo'ladi. Bunday jaydari daraxtlar har bir eski mahallada ham o'sadi. Markaziy maydonimiz esa, respublikada yagona bo'lishi kerak! Balki butun O'rta Osiyoda ham bunday zo'r, go'zal maydon bo'lmas! Biz shuni o'ylab ish qilishimiz kerak. Shuning uchun men A'zamovning takliflariga qo'shilolmadim.

Abror oldidagi qog'ozga «jaydari» deb yozib qo'ydi-da, Nabi Sadriyevichga qaradi:

– Mumkinmi?

– Siz shoshmang, – dedi Sadriyev. – Obodonchilik boshqarmasining fikrini eshitaylik.

Obodonchilik boshqarmasining vakili issiqda terlab ketgan, ko'zoynagi ham hovurdan xira tortgan edi. U cho'ntagidan yaxshilab qatlangan oq ro'molcha oldi-da, ko'zoynagining shishalarini artib, yana taqdi. So'ng oldida ochiq turgan yozuvning ko'k qalam bilan chizilgan joylariga ko'z yugurtirdi.

– Mana bu yerda o'rtoq A'zamov maydonning juda katta bo'lib ketayotganini hisobga olib, soya beradigan daraxtlar tagiga besh-o'nta chiroyli skameyka ham o'rnataylik, deptilar. Umuman, men skameykaga qarshi emasman.

– Ammo xilvat joylarga qo'ygan skameykalardan ba'zi axloqsiz odamlar kechasi xunuk maqsadlarda foydalanadi! – deb luqma tashladi G'ayrat Yaminov.

Sherzod o'tirgan tomondan kulgi tovushlari eshitildi. G'ayrat Yaminov Vaziraga bir qarab olib:

– O'rtoq A'zamova meni kechirsinlar, lekin aytmasak bo'lmaydi, – dedi. – Shuni o'ylab, Bo'zsuv bo'ylariga ham skameyklar kamroq qo'yilgan. Endi bu maydon shunday



ulug' joy bo'lsa. Biz yaxshi niyat bilan skameykalar qo'ysakda, qandaydir axloqsizlar undan yomon maqsadda foydalansa. Qandoq bo'ladi? Shuning uchun men skameyka qo'yishga qarshiman, o'rtoqlar!

Nabi Sadriyevich Abrorga so'z berarkan:

– Iltimos, qisqaroq bo'lsin, – deb ogohlantirib qo'ydi.

– Bizda hamma narsa inson uchun qilinadi, – dedi Abror. Archalar qishda ham ko'karib turadi, odamning ko'zini quvontiradi, diliga zavq beradi. Bu juda yaxshi. Shu bilan birga Markaziy maydon zilziladan keyin qayta qurilgan paytlarda Paradlar xiyoboni bo'yiga chinorlar ekilgan edi. Hozir borib qarang: yetti-sakkiz yilda ikki qavatli uy balandligida o'sibdi, atrofiga quyuq soya berib turibdi. Bu chinorlar voyaga yetsa, shu ulug' maydonga munosib azim daraxtlarga aylanadi. Nega biz ularni yana ekmasligimiz kerak? Faqat jaydari bo'lgani uchunmi?

– Men chinorni jaydari deganim yo'q! – qizarib luqma tashladi G'ayrat Yaminov. – Terak bilan tolni aytdim.

– Terak bilan tolni «jaydari» deb kamsitishga ham qarshiman! – davom etdi Abror. – Qishloqlarda, mahallalarda, yo'l chetlarida ko'p mehnat talab qilmay o'sadigan bu qobil daraxtlar ming yillarning sinovidan o'tgan. Bundan besh-olti yil oldin «terak yomon», «tolning shirasi bor, tagini dog' qiladi», degan gaplar chiqdi. Bu daraxtlarni ekmay qo'ydik. Arg'uvon-u emanlarga zo'r berdik. Albatta, uzoq umr ko'radigan go'zal daraxtlar juda kerak. Lekin ular kuchga kirib, soya beradigan bo'lguncha o'n-o'n besh yil o'tadi. Eman bilan chinor niholi juda ham nozik, sal oftob ursa qurib qoladi, tirishib o'smay yotadi. Tol bilan terakning juda tezo'sar, chiroyli navlari bor. Bir yilda besh metr-gacha bo'y oladi. Chinor-u emanlar voyaga yetguncha tol-u teraklar shaharga soya berib turgani yaxshi emasmi? Shuning uchun men taklif qilyapmanki, maydonning biz hozir loyihalashtirayotgan qismida chiroyli archalardan tashqari chinor ham, sarv ham, sadaqayrag'ochlar ham bo'lsin.



O'rnini topib majnuntol bilan terakning yaxshi turlaridan ham o'tkazaylik.

Nabi Sadriyevich bu gapni ma'qullaganday bosh irg'ab qo'ydi. Abror dadillanib davom etdi:

– Endi skameykalar to'g'risida... Yaqinda men g'alati bir hodisaning guvohi bo'ldim. Eski Jo'vani bilasizlar. O'zi baland, ko'krakdor joy, shabadasi yaxshi. Bu yerda besh-oltita skameyka bor edi. Keksa pensionerlar, tungi smenada ishlab, kunduzi havo olish uchun chiqadigan ishchilar shu skameykalarda o'tirib dam olishadi, suhbatlashishadi, gazeta o'qishadi... Bir kun nima ish bilan shu yerdan o'tib qoldim. Hozirgiday kun issiq payt. Qarasam, keksa odamlar soyada daraxtning tanasiga suyanib yerda o'tirishipti. Skameyklar yo'q. Ularning temir oyoqlari yerga o'yib kiritilgan ekan, shunday sug'urib olib ketishgani shudgorga o'xshab turgan o'rnidan bilinib turibdi. Tagiga gazeta to'shab, yo'lkaning chetida o'tirgan ikkita boboydan, «Nima bo'ldi, skameyklar qani?» deb so'radim. Ma'lum bo'lishicha, qandaydir mast kishilar kechasi shu skameykalarda yotib qolar ekan, tartibni buzishar ekan. Shu yerdagi tartib-intizomga javobgar bo'lgan uchastkavoy amaki uch-to'rt marta ularni quvibdi, natija bermabdi. Shundan keyin bitta avtokranni olib kelibdi-yu, «mana senga!» deb skameykalarni joyidan sug'urib olib, boshqa yoqqa eltib tashlabdi.

Kulgi bo'lib ketdi. Nabi Sadriyevich kulgisini yashirish uchun kaftini og'ziga qo'ydi.

– U yog'ini eshiting, – dedi Abror. – Skameykada dam olib o'rgangan halol-u pok odamlar uchastkavoyning us-tidan arz qilib ijroqo'mga borishipti. «Tartib o'rnatgani shumi? – deyishipti. – Yomon odamlar qolib, bizga jazo berdi-ku! Ular axloqsizligini bu yerda bo'lmasa, parkda qiladi. Skameykada bo'lmasa, maysazorda o'tiradi. Zeb uchun o'stirilgan o'tlarni poymol qiladi. Uchastkavoy ularning alamini bizdan oladimi? Biz dam oladigan skameyklarimizdan ajralib, oyoqqa tikka turib qoldik. Bizga nega



jazo beradi?» Haqiqatan, tartibbuzarlar bilan bunaqa kurashib bo'ladimi? Ijroqo'mning buyrug'i bilan uchastkavoy skameykalarni qaytarib olib kelib, o'rnatib beribdi. Yaqinda borsam, avvalgidan mahkamroq qilib o'rnatishipti. Bo'yab, chiroyli qilib qo'yishipti. Bu faktdan xulosa chiqaradigan bo'lsak, skameykalarni yaxshi odamlar uchun o'rnataverishimiz kerak! Gapim tamom!

Abror joyiga qaytib o'tirdi. Uning gaplari ko'pchilikka yoqqanini Yaminov ham sezdi-yu, qog'ozlarini titkilab, qarshi gapirish uchun dalil qidira boshladi.

– Yana kim so'zlamochi? – deb Nabi Sadriyevich qatorlarga ko'z yugurtirdi. Vazira, «Men gapirsam noqulay bo'lar», degan ma'noda ko'zini stol ustidagi qog'ozdan olmay o'tiribdi.

– Nabi Sadriyevich, ruxsat bering! – deb Sherzod o'rni-dan ko'tarildi.

Abror sergaklandi. Yaminov Sherzodga umidlanib ko'z qirini tashladi.

– Marhamat, – dedi Nabi Sadriyev.

– Bu yerda G'ayrat Yaminovich Toshkent markazining zamonaviy shaharsozlikdagi juda katta ahamiyatini to'g'ri ta'kidladi, – deb gap boshladi Sherzod. U ko'zsiz tilla uzuk taqilgan qo'lining barmoqlari bilan silliq tarashlangan engagini siypab qo'ydi-da, Sayfulla Rahmonov boshliq institutni ancha maqtadi.

Vazira hozir uning Abrorga qarshi chiqishidan xavotirlanib, qoshlarini chimirib o'tiribdi. Lekin boshqarma boshlig'i Yaminovdan ko'ra Abrorga iliqroq munosabatda bo'layotganini Sherzod ham sezgan edi. U to'satdan Abrorni yoqlab:

– Soya beradigan daraxtlar, skameykalalar haqiqatan zarur, – dedi. – Biz Moskvaning tajribasini hisobga olishimiz kerak. Qizil Maydonning narigi yog'idagi Manejga tutashgan parkning daraxtzorini eslang. O'sha yerda qator



turgan skameykalar bor. U yerlarda ozodalik bilan tartibga kecha-yu kunduz qarab turadigan maxsus odamlar bor. Bizning Markaziy maydonimizda ham shunaqa xodimlar ishlab tursa kerak.

– Albatta, – dedi Sadriyev Sherzodning gapini ma’qullab.

Vaziraning ham chehrasi ochilib ketdi. Abror hayron. Lekin Yaminov Sherzodga qaramaslikka tirishib, xo’mrayib o’tirardi.

Sherzod Abrorga: «Mana, tantilik bunaqa bo’ladi!» deganday g’olibona ko’z tashlardi.

– Boshqa gapiruvchilar bo’lmasa, – dedi Sadriyev. – Mening Yaminovga bitta savolim bor. Abror A’zamov taklif qilayotgan o’zgarishlarni kiritsak, loyihaning xarajati oshadimi, yo’qmi?

– So’zsiz oshadi! – dedi Yaminov birdan jonlanib.

– Qanchaga oshadi? Hisoblaganmisiz?

– Aniq hisobini qilganim yo’q. Taxminan...

– Taxminan ketmaydi, – deb Sadriyev uning so’zini kesdi-da, Abrorga yuzlandi: – Siz hisoblaganmisiz, o’rtoq A’zamov?

– Ha, loyiha xarajatlari o’rtacha hisobda besh yuz so’mga ortadi.

– Qurilish xarajati-chi?

– Qurilish xarajatlari, aksincha, kamayadi. Chunki bor daraxtlar saqlab qolinsa, yangilarini ekishga ketadigan pul tejaladi. Katta emanlar bor, tomiri chuqur, sug’orishga muhtoj emas. Ularning tagiga yer ostidan quvur o’tkazib, suv olib borib yurilmaydi. Bu ham ancha mablag’ni tejaydi. Ikki ming so’m dan ortiq tejash mumkin degan xomcho’timiz bor.

– Bu o’zgaritishlar loyiha ishini qiyinlashtiradi, – dedi Sadriyev. – Muhlati cho’zilib ketmaydimi?

– Vaqtida topshirishga so’z berganmiz. So’zimizda turamiz, Nabi Sadriyevich.



Sadriyev protokol yozib o'tirgan ayolga «ulguryapsizmi» deganday qarab qo'ydi. So'ng protokolga yozsa bo'ladigan darajada dona-dona qilib so'zlay boshladi:

- Demak, xulosa bunday: favvora loyihasini o'rtoq A'zamov taklif qilgan to'ldirishlar bilan qabul qilamiz. Bu to'g'rida uncha munozara bo'lgani yo'q. Endi maydonni ko'kamlashtirish masalasida, o'rtoq Yaminov aytganiday, nodir archalarga o'rin berilishi to'g'ri. Shu bilan birga, maydonning shimoli-sharq tomonlarida soya beradigan daraxtlarni ham o'stirish maqsadga muvofiq. Biz bu haqda shahar rahbarlari bilan yana maslahatlashamiz. Kelajakda maydonning o'sha qismini g'alabaning o'ttiz yilligiga bag'ishlangan bir yodgorlik egallashi kerak. Noma'lum soldat qabrida mangu olov yonib turadigan bo'ladi. Menimcha, o'rtoq A'zamov aytgan majnuntollarni ana shu yodgorlikning atrofida o'stirishimiz mumkin. Sarvlar, qayrag'ochlar masalasini o'rganish kerak. Noaniq tomoni bor. Chinorlar, emanlar albatta bo'ladi. Ularning soyasiga dam olib o'tiradigan chiroyli skameykalar qo'yishimiz ham mumkin. Lekin xalqimiz suyib o'stiradigan tollarni, teraklarni «jaydari» yoki «qishloqi» daraxt deyish juda ham noto'g'ri. Bunday gapning o'zi jaydari gap, o'rtoq Yaminov! Siz faqat bir masalada haqsiz, Toshkentning Markaziy maydoni mumkin qadar salobatli, mumkin qadar ulug'sifat bo'lishi kerak. Bu yerda bachkana narsalarga mutlaqo o'rin berilmasligi kerak. Ayni vaqtda, maydonning sharq tomonida – anhor bo'ylarida hozircha o'zlashtirilmagan bo'sh yerlar bor. A'zamov to'g'ri aytadi: o'sha yerlarga terakning chiroyli nihollarini qator qilib ekib qo'yish kerak. Tez ko'tariladi. Besh-o'n yil xizmat qilib bersa ham harna. Terak bargining chapak chalganga o'xshab shitirlashini eshitganmisiz? Havo issiq, dim bo'lgan paytda boshqa daraxtlarning birorta navdasi qimir etmay qoladi. Shunday paytda ham terakning bargi jimir-jimir qilib o'ynab turadi. Chunki baldog'i uzun, havo salgina harakatlansa ham terak bargi darrov o'yinga tushadi. Shu-



ning uchun odamlar terakni «shamol chaqiradigan daraxt» deb atashadi. Terak bargi changni o'ziga olmaydi, hamisha artilganday toza turadi. Oq tolni oling. Bitta shoxini kesib yerga tiqib qo'ysangiz o'sib ketaveradi. Havo quruq paytda tol atrofidagi havoni namlab, yoqimli qilib beradi. Olimlar hisoblab chiqishibdi: bitta katta tol issiq paytda atrofidagi havoga o'nlab litr suvni mayda zarralarga aylantirib sohib turar ekan. Shuning uchun tolning soyasida odam juda yaxshi dam oladi. Albatta, tolni ham o'ziga yarashadigan joyga ekish kerak, bu jihatdan siz haqsiz, o'rtoq Yaminov.

Sadriyev bilagidan yechib stol ustiga qo'ygan soatiga qaradi. Belgilangan vaqtdan o'n besh daqiqa o'tgan, buni u sezmay qolgan edi. Sadriyev boshini chayqab qo'ydi-yu, gapini tezroq yakunlashga intildi:

– Demak, o'rtoq A'zamov loyihaning hamma chizmalarini muddatidan kechiktirmay amalga oshiradi. O'zgarishlarga ketadigan xarajatlarni boshqa rezervlar hisobiga tejab, qoplaydi, ishning iqtisodiy tomoni ham samarali bo'ladi. Shu shart bilan uning takliflarini qabul qilamiz. Loyihaning ayrim detallarini bundan buyon institutning o'zida ish davomida aniqlab berishni o'rtoq Yaminovga topshiramiz. Men Sayfulla Rahmonovichni ko'rsam aytib qo'yaman. Ayniqsa, bir-biriga har xil «yorliqlar» taqish – eskirgan bid'at. Bundan buyon munozaralarga haddan ortiq berilmasliklarinigiz kerak. O'rtoq A'zamov, siz ham... Me'yoridan oshmaslikka harakat qiling. Hamma narsaning o'z had-hududi bor. Hamma ish ittifoqlik bilan qilinsin. Ikkovlaringizga ham tilak shu!

– Rahmat, Nabi Sadriyevich! – dedi Abror.

Muhokama tugadi. Tashqariga chiqqanlarida Yaminov hech kim bilan xayrlashmay jo'nab qoldi. Uning xafa bo'lib ketganini Vazira ham sezdi. Er-xotin zinapoya oldida yakka-ma-yakka qolganlarida Vazira Abrorga qarab:

– Endi hadeb olishavermang. Bas! Nabi Sadriyevich to'g'ri aytdi. Hatto Sherzod bugun sizga yon bosib gapirdi.



– Shunisi g'alati bo'ldi. Bu yerda men bilmaydigan bir sir borga o'xshaydi.

– Balki jiyani bilan sizning ukangiz oila qurmoqchi ekanini eshitgandir.

– Shokir buni sizga ham aytdimi?

– Aytdi, niyati juda astoydil. Bir-birlarini yaxshi ko'risharkan. Hali bahromovlarga sovchi bo'lib borsak kerak.

– Shunisi odamni qiynaydi-da. Men bilaman, bu Bahromov baribir menga do'st bo'lmaydi. Buning xudosi – manfaat. Bugungi gapining tagida ham bironta manfaat, bironta g'araz bor.

Vazira manfaatning nimaligini bilardi-yu, lekin Abrorga aytolmas edi. Sherzod Bo'zsuvga oid loyihasini boshqarma tasdig'idan o'tkazishni o'ylab, hozirdan Sadriyevning ham, Vaziraning ham ko'nglini olishga harakat qilmoqda edi.

Vaqt o'n ikkidan oshib bormoqda edi.

– Voenkomatga bugun borasizmi? – so'radi Vazira.

Abror bugun ko'ngli quvnab turgan paytda qaynisiga oid noxush ishlar bilan shug'ullanishni hecham istamas edi. Lekin bu muammoni paysalga solish ham mumkin emas. Abror taraddudlanib, o'ng qo'lidagi portfelini chap qo'lga oldi, qo'ng'ir g'ilofga o'rog'liq eskizlarni qo'ltig'iga qisdi.

– Hozir ustaxonaga boray-chi, – dedi. – Xodimlarim kutib o'tirishgandir. Borib ularni bir xursand qilay. Tushdan keyin voenkomatga o'tarman.

Oliy ma'lumotli yoshlarni harbiy xizmatga chaqirish ishlari bilan o'ttiz besh yoshlardagi kelishgan mayor yigit shug'ullanardi.

Abror derazasidan oftob tushib turgan issiq kabinetda u bilan yuzma-yuz o'tirib:

– Kechirasiz, o'rtoq mayor, men g'alatiroq bir masala bilan keldim, – dedi-da, avval o'zini tanishtirdi, so'ng Alibekning tarixini qisqacha qilib so'zlab berdi.



Gimnastyorka ustidan enli kamar bog'lagan mayor harbiycha chaqqonlik bilan o'rnidan turib, Alibekning delosini javondan qidirib topdi.

Abror yupqa tenniska kiygan bo'lsa ham, issiqdan betoqat bo'lar, terlagan yuzini ro'molcha bilan dambadam artar edi. Etik kiygan, o'ng yelkasidan oshirib yana bir tasma bog'lagan yosh mayor esa issiqni mutlaqo sezmayotgan-ga o'xshardi; U kreslosiga qaytib kelib o'tirgach, Alibekning shaxsiy delosini varaqlab ko'r-di-da:

– «Kasalmand onasiga qaraydigan odami yo'q», degan ma'lumotnoma bor, – dedi. – Siz, «kelin qarashi mumkin», deyapsiz. Badalov qalbaki ma'lumotnoma bilan bu yilgi chaqiruvdan bo'yin tovlamoqchi ekan-da. Unda biz Badalovning ishini sudga topshirishimiz kerak.

Abror shu gapning chiqishi mumkinligini oldindan sezib, javobini o'ylab kelgan edi. Osoyishta tovush bilan:

– Gap bunday, o'rtoq mayor, – dedi. – O'sha Alibek Badalov xotini bilan ajrashadigan edi. Xotini onasinikiga ketib qolgan edi. Qaynonasi bilan birga turmas edi. Bu ma'lumotnoma o'sha paytdagi ahvolni to'g'ri ko'rsatgan. Keyin biz oraga tushdik, yosh oila buzilmasin, dedik. Kelin hozir qaynonasining oldiga qaytdi, eri armiyaga chaqirilsa, qaynonasiga qarab turishni zimmasiga oldi. Shunday qilib, mana, men keldim.

– Kelganingiz to'g'ri bo'lgan, o'rtoq..?

– ... A'zamov.

– O'rtoq A'zamov! Siz o'z fuqarolik burchingizni to'g'ri anglagansiz. Lekin Badalov... o'tgan oydayoq yo'l tayyorligini ko'rib qo'yishi kerak edi! Biz uning tengdoshlarini asosiy sostav bilan bundan besh kun oldin jo'natdik.

– Balki qo'shimcha sostav bo'lar?

Mayor harbiy rejalarini har kimga aytmasligi kerak edi. Abrorning savolini eshitmaganday bo'lib:



– Badalovni ogohlantirib qo'ying, – dedi. – Ertaga chaqiruv xati borsa, darhol yetib kelsin. Agar yana bo'yin tovlasa, qonun oldida javob beradi!

– O'rtoq mayor, yaxshisi Badalovga buni men aytmayman. Bu yerga yaxshi niyat bilan kelganimni siz tushunib turibsiz. Lekin qaynim bilan qaynonam tushunmasligi mumkin. Mendan xafa bo'lib yurishmasin. Shu sababli siz bilan uchrashganimni harbiy sir deb bilishingizni so'rayman.

Mayor kulimsirab so'radi:

– Armiyada bo'lganmisiz?

– Bo'lganman, o'rtoq mayor. Zaxiradagi leytenantman.

– Iltimosingizni qabul qilaman, o'rtoq leytenant. Xayr!

* * *

Oradan ikki kun o'tgach, mayorning kabinetiga chaqiruv xati bilan chaqirilgan Alibek kirib keldi. Mayor uning yelkasiga tushgan o'siq sochiga, yuzini qoplab yotgan soqoliga noxush nazar tashladi-da:

– O'tiring, – deb stulni ko'rsatdi. – Xotiningiz qayerda ishlaydi?

– Maktabda o'qituvchi.

– Oyingiz bilan uchovlaring turasizlarmi?

– Ha.

– Bo'lmasa nega: «Oyimga qaraydigan odam yo'q», deb ma'lumotnoma olib kelgansiz?

– Men olib kelganim yo'q. Oyim olib kelgan.

– Siz oyingizni ishga solib, o'zingiz panada turganmisiz?

Alibek xotini bilan arazlashib, ajrashmoqchi bo'lib yurganini aytishga tili bormadi. Mayorning so'nggi savoliga g'ashi kelibroq javob qaytardi:

– Men panada turganim yo'q!

– Soyada qolgan ekinga o'xshab soch-soqol-u tirnoqlar g'ovlab ketibdi-ku!



– Soch-soqol o‘stirish – mening shaxsiy ishim!

Mayorning ko‘zlari qahr bilan chaqnadi:

– Badalov! Turing o‘rningizdan!

Mayorning qat’iy qilib bergan komandasi uni darhol o‘rnidan turishga majbur qildi. Mayor ham tez oyoqqa tur-di-da, avvalgidan ham qat’iyroq ohangda komanda berdi:

– Smirno-o! Siz harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaganligingiz uchun sovet qonuniga binoan qamoq jazosiga hukm qilini-shingiz kerak!

Alibekning soqol orasidan yarim-yorti ko‘rinib turgan yuzi oppoq oqarib ketdi:

– O‘rtoq mayor! Men harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaga-nim yo‘q.

– Dezertirlarga xizmat qiladigan mana bu ma’lumotno-ma-chi?

– Men dezertir emasman!.. O‘rtoq mayor, men...

– Molchat!.. – deb mayor uning so‘zini kesdi. – Agar dezertir bo‘lishni istamasangiz, mening komandamga qu-loq soling!

– Eshitaman, o‘rtoq mayor...

– Ikki soat ichida soch-soqolingizni qirdirib, tirnoqni ham oldirib, harbiy xizmatga chaqiruvchilarning shakliga kirasiz! Qanday tushundingiz? Javob bering!


– Ikki soat ichida... harbiy xizmatga jo‘novchilarning shakliga kirish...

– Komandirga qanday javob berish kerak?

– Bajaraman, o‘rtoq mayor!

– Krugom!.. Komandani bajarish uchun shagom maarsh!

Alibek mayorning buyurganini qilishni butun vujudi bi-lan istamas edi. Lekin harbiy xizmatdan bo‘yin tovlashning jinoyat ekaniga, agar mayor yomonlikka olsa, uni qamatib yuborishi mumkinligiga aqli yetib turardi. Shuning uchun noiloj sarta-roshxonaga qarab ketdi. Shunday ardoqlab o‘stirgan soch-soqoli, tirnoqlari olib tashlanayotganda, ularni xuddi bittadan yulib olishayotganday og‘rindi. Sar-



taroshxonadan chiqayotganda oynadagi aksiga ko'zi tushdi-yu, alamidan yig'lab yuborayozdi. Sochsiz boshi xunuk bo'lib qolgan, yuzi avvalgi salobatini yo'qotib, bachkana tusga kirgan. U mayorning oldiga qaytib kelganda lablari alam bilan titrab turardi. Bunaqa o'zgarishlarni ko'p ko'rib, odatlanib qolgan mayor uning avzoyiga e'tibor bermay, yana kesib-kesib gapirdi:

– Badalov, sizga ikki kun muhlat. Barcha hisob-kitobni tugating. Narsalarni yig'ishtirib, indin ertalab soat o'nda armiyaga jo'naydigan bo'lib keling. Aks holda, siz bilan men emas, prokuror gaplashadi. Tushundingizmi?

– Tushunarli...

– Qanday javob berish kerak?!

– Tushundim, o'rtoq mayor!

– Boring, bajaring!

Shu vaqtgacha o'ziga-o'zi xo'jayin bo'lib, istaganini qilib yurgan Alibek endi ixtiyori qo'lidan ketib qolayotganini, bugundan boshlab, qanday komanda berilsa, shuni so'zsiz bajarishga majbur ekanini astoydil sezdi-yu, uyga ma'yus bo'lib qaytdi.

Eshikni ochgan Nasiba uni zo'rga tanidi.

– Voy! – deb avval bir cho'chidi. Alibekning popugi pasayib qolganini sezgandan keyin esa: – Yuzingiz ochilib, yosharib ketibsiz, – deb unga tasalli bermoqchi bo'ldi.

Alibek alamli tovush bilan:

– Endi qutulasanlar, – dedi. – Indin ertalab ketaman.

Alibek onasiga yaqin kelib, yuzi bilan boshini ko'rsatdi:

– Mana... mana... xursandmisiz?

Zumrad Sodiqovna o'g'lining silliqqina qishloq yigitiga o'xshab qolganini endi ko'rdi. Uning harbiy xizmatga ketish oldidan majburan soch-soqol oldirganini sezdi-yu:

– Qoldirishgan edi-ku! – dedi. – Men olib borib bergan ma'lumotnoma nima bo'ldi?



– Ma'lumotnomangiz boshimga bitgan balo bo'ldi! O'shani deb qamalishimga sal qoldi. Mayordan rosa do'q eshitdim!

– Haqlari yo'q! – dedi Zumrad Sodiqovna. – Mayor bo'lsa o'ziga! Men polkovnik bilan gaplashganman! Hozir boraman!

Zumrad Sodiqovna narigi xonaga chiqib, kiyimini almashtirish uchun xalatini yechmoqchi bo'lar, lekin qo'llari qaltirab, tugmalarini topolmas edi. Nasiba uning qarshisiga keldi:

– Oyijon, birpas shoshmang. Hozir Vazira opamlar kelib qolishadi, – dedi. – Pochcham bilan bamaslahat bir yo'lini toparmiz.

– Vazira kelaman deganmidi?

– Ha, boya telefonda gaplashgan edik. Ishdan keyin kelmoqchi edilar... Ukol olgansiz. O'tiring. Men choy damlab kelaman.

Oshxonada choy qaynaguncha bo'lmay eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Alibek ulfatlarini kutayotgan edi, shoshib chiqib eshikni ochdi. Biroq tashqaridan Vazira bilan Abror kirib keldi. Vazira ukasiga qarab, quvnoq tovush bilan:

– O'zgarish katta-ku, – dedi.

Abror ham qaynisi bilan ko'rishastib, g'olibona jilmaymoqda edi.


Vazira ichkariga kirib, oyisining iztirobga tushib o'tirganini ko'rdi.

– Shunga shunchami? – dedi. – Ko'p qatori bir yilga borib kelsa nima bo'пти? Urush vaqti emaski, qo'rqsangiz! Armiyaga borib kelayotgan yigitlarni ko'rdingizmi? Ranglari kirib, devday bo'lib qaytishyapti.

– Yo'q, men Aliksiz turolmayman bu uyda! Bitta-yu bitta o'g'il! Yumalab ketsam, kim meni qabrga eltib qo'yadi?

Zumrad Sodiqovna yig'lashga tushdi.

– Siz bizni xafa qilyapsiz, aya, – dedi Abror. U onasidan farq qilish uchun qaynonasini «aya» deb atardi. – Vazira siz-



ga farzand emasmi? Yo men o'g'lingiz emasmanmi? Nasiba sizga begonami?

– Yo'q-yo'q, Abrorjon, siz unday deb o'ylamang. Ham-malaring mening bolamsizlar, jigarbandimsizlar. Lekin shu Alikka men yomon o'rganganman... Nima qilay?.. Dadalari-ning qadrdon o'rtog'i bor. O'zi polkovnik. Men hozir o'sha-ning uyiga bormoqchiman.

– Bormasangiz hech bo'lmaydimi?

– Keyin armon qilib yurmayin, bolalarim!

– Bo'lmasa manzilini bering, biz Vazira bilan borib kela qolaylik.

– Polkovnik Vazirani ko'rgan, borsa taniydi.

Abrorlar bir piyoladan choy ichishdi-yu, Zumrad Sodiqovna bergan manzil bilan polkovnikning uyiga ketish-di. Oradan bir yarim soatlar chamasi vaqt o'tgandan keyin polkovnik bloknotidan uzib yozgan bir kichik varaqchani olib qaytib kelishdi. Nasiba polkovnikning yozganlarini qaynonasiga o'qib berdi:

«Qadrli Zumrad Sodiqovna!

Siz hamisha el-yurt oldidagi burchingizni yaxshi ado etib kelgan ajoyib kishilardansiz. Bu gal ham mardona tu-rib bering. Alibek armiyaga borib kelmasa bo'lmaydiganga o'xshaydi. Konstitutsiya hammaga barobar.

Lekin yaxshi kuyovingiz bor ekan, tanishganimdan xur-sand bo'ldim. Qolgan gapni uchrashganda gaplashamiz.

Sizga salom va ehtirom bilan polkovnik E. A.»

– Bu ham konstitutsiyadan kelipti-ku! – norozi bo'lib dedi Zumrad Sodiqovna. – Endi nima qilamiz, Alikjon?

Alibekning ruhi tushib, saqich chaynagisi ham kelmay qoldi. Nasiba bilan Vazira ma'noli ko'z urishtirib olishdi. Abrorlar polkovnikka hamma gapni aytib berganlarini va bu xatni Zumrad Sodiqovnaning ko'ngli uchun yozdirib kel-ganlarini Nasiba allaqachon tushungan, lekin eri bilan qay-nonasiga sezdirmas edi.



– Oyi, bu endi ko'pga kelgan to'y, Alibekni xush-u xursand kuzataylik, – dedi Vazira.

– Boshqa nima ilojim bor? Ko'zi ojiz g'arib xotin bo'lsam, dodim qayerga yetadi? – deb Zumrad Sodiqovna birpas ko'z yoshi qildi. Abrorlar Alibekka yo'l tayyorligini ko'rishda yordamlasha boshladilar. «U kerak, bu yetishmaydi», degan tashvishlar Zumrad Sodiqovnaning ham xayolini alahsitib, ancha ovuntirdi.

Kech soat o'nlarda abrорlar uylariga ketishdi.

Zumrad Sodiqovna o'g'lini xotini bilan xoli qoldirish uchun yana o'sha sershovqin xonaga ko'chib o'tdi. Alibek endi ketishi muqarrarligini sezib, avvalgidan o'ychanroq bo'lib qolgan edi.

Kechasi karavotda yonma-yon yotganlarida Nasiba unga bo'yida bo'lganini aytdi.

– Yanami? – dedi Alibek norozi tovush bilan.

– Yolg'iz o'tirishim qiyin, – dedi Nasiba. – Agar «kutma» desangiz, unda menga ham bolaning keragi yo'q...

«Kutma» deyishga Alibekning tili bormadi. Armiyada yurganida Nasiba unga sadoqat saqlab o'tirishini ich-ichidan istar, bunga bola yordam berishini sezardi.

– E, menga nima! – dedi u yotgan joyida qo'lini siltab. – Bola tug'sangiz, baribir o'zingiz boqasiz! Bilganingizni qiling!

Bu gal u ixtiyorni Nasibaning o'ziga bergani, har qalay, avvalgidan durust edi.

Ertasi kuni Alibekni kuzatishga Vazira bilan Abror kelishdi. Dasturxon tuzayotganlarida Vazira Nasibadan shivirlab so'radi:


– Gaplashdilaringmi?

– Ha, bilib ketsin dedim.

– Janjal qilmadimi?

Nasiba erining qo'l siltab nimalar deganini pichirlab aytib bergan edi, Vazira mamnun bo'lib kuldi:

– Ancha tushibdi-ku! Ho', shumtaka! Buni hali oyim bilmaydimi?



– Aytganim yo‘q.

Zumrad Sodiqovna yana nolib, ko‘ziga yosh olganda, Vazira kelinlarini oyisining oldiga boshlab keldi. Uchovlari eshitadigan past tovush bilan bo‘lajak boladan gap ochdi:

– Nasibaxon, Alibek qanday qo‘l siltaganini oyimga aytib bering.

Zumrad Sodiqovna qachonlardan beri o‘g‘lining farzandini boqish orzusida yurar edi. Nasiba uyalib-uyalib aytib bergan gapni katta bir xushxabarday suyunib eshitdi.

– Voy, aylanay kelinimdan! – deb Nasibani chakkalaridan ushlab, ko‘zlaridan, peshanasidan o‘pdi. Shu bilan ancha taskin topganday bo‘ldi-yu, ziyofat paytida yaxshi o‘tirdi.

Alibekni armiyaga kuzatganlaridan keyin oradan ikki kun o‘tgach, Abror qaynonasini ko‘z kasalxonasiga olib borib joylashtirdi.

TO‘QQIZINCHI BOB

Agar olcharang «Jiguli»ning tili bo‘lsa, shu yoz Abrordan dod deb shikoyat qilishi mumkin edi. Mashinaning qo‘l tormozi hamon buzuq, tagidagi urilgan joylari tuzatilmagan, yog‘lari kuyib qorayib qolgan, uni ustaxonaga olib borib ko‘rsatadigan muhlatlari bahor paytidayoq o‘tib ketgan. Lekin Abror bunga hech vaqt topolmas, o‘zini ayamagani kabi, mashinasini ham tindirmay haydagani-haydagan edi.

Qaynonasi va qaynisining ishlaridan ham ko‘ra otasining tashvishlari mushkulroq bo‘ldi. Abror dam olish kuni otasi bilan ukasini mashinaga mindirib, Beshqayrag‘ochda olgan manzillari bo‘yicha Qorasuv bo‘ylariga bordi. Sotiladigan chala uchastkalarining ko‘pi ilgari kolxoz-sovxozi yerlari bo‘lgan chekka joylarda, yo‘llari hali sozlanmagan. Biri-ning unisi yoqmaydi, birining bunisi yoqmaydi. Yana yangi manzillar berishadi. Ko‘ngildagi joyni izlab, shaharning bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga yo‘l olishadi. Shu tarzda bir yog‘i ToshGRESdan Ko‘kterakka, ikkinchi tomoni



Toshavtomashdan Yangiyo'l rayonining chegarasiga borib tutashgan mavzelarni aylanib chiqishdi. Abror so'nggi yillarda Toshkentning qanchalik katta bo'lib ketganini endi bildi. Spidometrqa qarasa, ertalabdan beri shahar oralab ikki yuz ellik chaqirim yo'l bosibdi, lekin hali ham manzilga yetgan emas. Aylanib-aylanib, axiyr yana Bo'rijar bo'yidagi bevaning joyini eslashdi:

– Hali ham bo'lsa, o'sha durust, ada, – dedi Abror.

– Ha, ko'krakdor joy edi. Qaytib boramizmi?

Shokir endi e'tiroz qilmadi.

Kechki payt Beshqayrag'ochga qaytib borib, beva ayolning o'zi bilan gaplashishdi. Hali ham eriga aza tutib, qoramtir ko'ylak kiyib yurgan mungli ayol A'zam otadan iymanib, ko'k ro'molining uchi bilan og'zini to'sib gapirdi:

– Bizga nasib qilmagan ekan. Qimmat so'rayotganim yo'q, ota. Men qog'ozlarini to'g'rilay olmayman. Olsalarinigiz o'zlaringiz to'g'rilaysizlar.

Avval kelganlarida orada turgan semiz o'tog'asini Abror mashinasiga solib olib keldi. Beva ayol supaga ko'rpachalar to'shab, choy damlab chiqdi. A'zam ota mahalla o'tog'asi bilan uzoq kengashib, nihoyat, joyni oladigan bo'ldi.

Abror bir yuki yelkasidan tushganday yengil tortdi. G'ira-shira qorong'ida otasi bilan Shokirni hovlilarining oldiga olib kelib qo'ydi-yu:

– Endi men boray, – dedi. – Qistalang ishlarim bor. Bolalarni ham erta-indin lagerga jo'natmoqchimiz. Uchastkani rasmiylashtirishni Shokir o'zi eplar.

– Ovora qiladigan joylar bor-da, – dedi Shokir. – Sizning tanishlaringiz ko'p.

– Adamni taniydiganlar ozmi?

– Mayli, o'g'lim, sen ishlaringni qilaver. Juda to'ppi tor kelganda Shokir telefon qilib aytadi, kelasan.

Abror mashinasini garajga qo'yib, uyga yetib borguncha kech soat o'n yarim bo'ldi. Bolalar, odatdagiday, televizor



ko'rib o'tirishgan ekan. Zafar dadasining ovozi eshitib yo'lakka chopib chiqdi:

– Dada, mening o'rtog'im Alisher «Birinchi may» lageriga borar ekan. Men ham o'sha lagerga boraman. Boshqasiga bormayman!

Vazira bolalar xonasida qandaydir ro'yxatga qarab mayda-chuydalarni yig'ishtirmoqda edi.

– Qaysi «Birinchi may?» – deb Abror o'g'lidani so'radi.

– Chimyondan narida. Oyim biladi.

– Bular Yusufxonadagi lagerga borishmoqchi, – dedi Vazira. – Bizning boshqarmada Toshkent yaqinidagi «Zorka»ga yo'llanma bor ekan, xolos. Unga Malika ham bormayman deb o'tiribdi.

Kuni bo'yi issiqda mashina haydab charchagan Abror bolalarini jerkib berdi:

– Gapni muncha ko'paytirmanglar. Lekin qaysi lagerga yo'llanma topsak, shunisiga borasanlar!

Otasiga ro'yirost e'tiroz qilolmagan Malika oyisiga yuzlandi:

– Agar shahar chetidagi o'sha jo'n lagerga borsak, uch kun turmay qochib kelamiz!

– Agar qochib kelsang, uyga kirgizmayman, shuni bilib qo'y! – o'shqirdi Abror.

Bolalar jim bo'lib qolishdi. Vazira erining asabi buzilib turganini sezdi-yu, choy qo'yish uchun oshxonaga o'tdi. Abror vannada yuvib chiqquncha Vazira choy damlab, dasturxon tuzab qo'ydi. Abror choy quyib ichar ekan, boshini chayqab:

– Tavba! – dedi. – Naryoqda ota-onalar joy tanlaydi. Bu yoqda bolalar lager tanlaydi.

Vazira bir kosa qatiqli ugrani erining oldiga keltirib qo'ydi-da:

– Qandoq qilasiz? – dedi. – Ma'murchilik bo'lgani sari odamlar hamma narsaning yaxshisini tanlashga o'rganar ekan-da. Yo'qchilik, qahatchilik zamonlarida qancha odam



qora nonga qorni to'ysa shukr qilib yurgan. «Boriga baraka» deb qanoat qilganlar. «Bersang yeyman, ursang o'lamana» deb, nima bo'lsa shunga ko'nikib o'tirganlar ozmidi? Hozir zamon butunlay boshqa. Odamlarning saviyasi oshdi, talabi o'sdi, turmush darajasi ko'tarildi. Endi hamma narsaning sifati yaxshisini tanlashga imkoniyat tug'ildi. Aslida bundan xafa bo'lish kerak emas, quvonish kerak.

Ugra ichayotgan Abror kinoya bilan so'radi:

– Xo'p, Yusufxonadagi lagerga «quvonib» yo'llanma izlaysizmi? «Quvonib» yana kimga yalinasiz?

– Chimyonning havosida bolalar qanchalik yaxshi dam olishini o'ylang. Birda-yarim o'zimiz ham ularni ko'rishga borib o'ynab kelamiz. Harakat qilsak, yo'llanma topiladi. O'ldimi!

– Yana harakat, yana yugur-yugur! Hali boyagi ro'yxat bo'yicha magazinlardan bir talay narsa qidirib topishimiz kerakdir?

– Lekin bunisi rost. Ertaroq kelsangiz bugun Bolalar dunyosiga borarmiz degan edim. Poxodlarda kiyiladigan kiyim. Parad forma. Kundalik kiyim. Oyoqlariga kedi, shippak...

– Xullas, bugun dam olish kunini «maza» qilib o'tkazdik. Ertaga yanayam «maza» qiladiganga o'xshaymiz!

Abror qatiqli ugraning yarmini ichdi, qolganini ko'ngli tortmadi. U qattiq toliqqan paytlarida ishtahasi qolardi.

Kuni bo'yi oftobda tandir bo'lib qizigan beton devorlar tunda ham issiqlik chiqarib, kvartirani dim qilib turibdi. Abror eshik-derazalarni ochib, ichkarini har qancha shamollatsa ham tungi soat ikkilargacha dimiqib uxlay olmadi. Beshqayrag'ochda bugun ko'rgan hovlilari – o'rikning tagidagi supa hozir qanchalik salqin bo'lsa? Bolalar bormoqchi bo'layotgan Yusufxonaning havosi qanchalik so'lim! Eng yaqin jigarbandlari shunday yaxshi joylarga – tabiat bag'riga intilganda, Abror nega ularga yordam bermasligi kerak?



Shu o'y uni oldinda turgan tashvishlar bilan go'yo yarashtirdi-yu, ko'ngli tinchib, uyquga ketdi.

Biroq ertasi kuni ishdan keyin magazinma-magazin yurib, bolalari uchun mayda-chuyda qidirganda yana asabi qo'zidi. Haydab borayotgan mashinasi ham uning o'zidek asabiy harakatlar qiladi. Goh yulqinib, sekinlaydi, goh sakragudek keskin qo'zg'aladi. Abror katta magazinlar atro-fida bo'ladigan to'polon gavjumlikdan betoqat bo'lib, pedalni aniq bosmaydi, keyin richag istagan tezligiga tushmay xiralik qiladi. Bir harakat bilan bo'ladigan ish goho to'rt-besh qayta urinishlardan so'ng azob bilan bitadi. Battar charchagan Abror mashinani avvalgidan ham pala-partishroq haydaydi. Go'yo ikki yillik tajribasi esidan chiqib ketadi. Yana qaytadan shofyorlik alifbesini qiynalib o'zlashtirayotgan g'o'r haydovchiga aylanib qoladi.

Shu tarzda yugurib-yelib, uch kun deganda lagerga kerakli hamma narsani taxt qilishdi. Lekin Yusufxonadagi lagerga yo'llanma bo'lish-bo'lmasligi hali ham noma'lum edi. Vaziraning tanishi ikkita yo'llanmani oxirgi kungacha qandaydir boshliqning bolalariga atab olib o'tirdi-yu, «kuyadigan» bo'lgan paytda temir sandiqdan olib, abrorlarga berdi. Lager boshqa tashkilotniki bo'lganligi uchun hali yo'llanmalarni kasabalar uyushmasi orqali rasmiylashtirish kerak edi. Abror kerakli qog'ozlarni to'g'rilab, yo'llanmalarni olguncha soat o'n bir bo'ldi. U ertalab bolalarni qoldirib, kelgan joyiga qaytib borsa, lagerga boradigan avtobuslar ketib bo'lgan, ota-onalar ham bitta qolmay tarqab ketgan ekan. Chetki daraxtning soyasida chamadonchalari oldida Malika bilan Zafar mung'ayib turibdi. Vazira ishxonasidan javob olmagani uchun progul bo'lishdan qo'rqib, bolalarning o'zini qoldirib ketishga majbur bo'lgan edi. Buning hammasidan ayanchli ahvolga tushib, xo'rliki kelgan Zafar ko'ziga birdan yosh oldi-yu, dadasiga orqa o'girib:

– Boring-e, – dedi. – Shuncha yurasizmi?



– Ha, «Birinchil may» lageriga joy topish oson deb o'ylaganmiding? – Abror bolalarning ko'nglini ko'tarish uchun hazil qildi: – Chidaganga chiqargan buni! Malika, oying nima dedi?

Malika dadasining qo'lida sirtiga qizil galstukning surati solingan yo'llanmalarni ko'rib jonlanib qoldi:

– Oyim lagerning boshlig'i bilan gaplashdilar, «O'zimizning mashinada kechroq borsak maylimi?» deb ruxsat so'radilar. Boshlig'i ruxsat berdi.

Abror Chimyon dovonidan oshib, Yusufxonaga borishni ko'z oldiga keltirdi. Butun kun ketadi. Lekin ustaxonada bugun qilmasa bo'lmaydigan ishlari bor.

Abror bolalarini mashinaga o'tirg'izib, ishxonalariga bordi va kunduzi qilish kerak bo'lgan ishlarini kechasi uyda qiladigan bo'lib, direksiyadan yarim kunga ruxsat oldi.

Bu orada Vazira ham boshqarmadan javob olib, katta yo'lga chiqib turgan ekan. Hammalari ikki soatda dovon oshib, Yusufxonaga yetib borishdi.

Bu yerda nafas olish allanechuk juda yengil. Daraxtlarning soyasi shahardagidan ko'ra so'limroq. Tog' yonbag'irlari ichidan nurlanib turganday ravshan ko'rinadi.


Vazira bolalarni guruhlarga joylashtirguncha Abror mashinaning bagajnidagi oyog'i qatlanadigan brezent stulcha oldi-da, terak soyasiga qo'yib o'tirdi.

Suv shildirab oqyapti. Oq g'ozlar shoshilmay bitta-bit-ta odimlab ketyapti. Uzoqda ulkan tog' cho'qqilari sukut saqlab turibdi.

Shosha-pisha dovon oshib kelgan Abror hali ham mashinaning tezligini o'z vujudida his qilayotganday bo'ladi. Bu tezlik uni o'tirgan joyida ham shoshirayotganday tuyuladi. Abror hamma narsani unutib, mana shu tog'larday os-oyishta bo'lgisi, go'zal tabiatga to'yib-to'yib qaragisi keladi.

Vazira bolalarni joylashtirib, mashinaning oldiga qaytdi-yu, bilagidagi soatiga qaradi:

– O, to'rtidan oshibdi. Qani, ketdikmi?



– Siz ham birpas tog'ni tomosha qiling, xonim. Bagajnik-da yana bitta stulcha bor. Oling, o'tiring.

– Men kela-kelguncha tomosha qilib keldim. Hali yana qaytishda ham ko'ramiz.

– Tez borayotgan mashinaning derazasidan nimani ko'rasiz? Kinoda ko'rgandan ham tez, lip-lip qilib o'tadi-ketadi. Ko'z to'ymaydi.

– Qo'yib bersam bugun shu yerda qolasiz shekilli? Balki yana kaklik oviga chiqarsiz?

– Qaniydi ovga chiqsam!.. Odam piyoda yurganda mana shu go'zal tabiatning bag'riga singib ketganday bo'ladi... Ilgari odamlar Toshkentdan Yusufxonaga otliq kelishgan. Ular ham ertadan kechgacha shoshmay yurib, tabiatning diydoriga rosa qonishgan. Biz bo'lsak mashinada chop-chop qilamiz. Bu tog'lar tushda ko'ringanday esimizda qolmaydi.

– Otda ikki kunlik yo'lni mashinada ikki soatda bosib kelganingizga jon deng!.. Qani, turing, oyimga bugun kech-qurun boramiz deganmiz. Kutadilar.

Abror o'rnidan turgisi kelmay:

– Muncha shoshasiz, ulgurarmiz, – dedi.

– Soat to'rt yarim bo'lyapti, qanday ulgurasiz? Hali kech-qurun uyda ish ham qilmoqchisiz!

Abror shu topda o'zidan ham norozi bo'ldi. Bir kunda ham ishga bordi, ham shuncha yugurib bolalariga yo'llanma topdi, ham ularni yuz kilometr joyga olib keldi. Yana bu yetmaganday, kechgacha shaharga qaytib, kasalxonadagi qaynonasini ko'rishi, so'ng oqshom uyda bugun chala qolgan loyiha ishlarini qilishga ulgurishi kerak.

– Odam g'alati-da. Tezyurar mashina bilan qancha ko'p joyga borib ulgursang, yana undan ham ko'proq ishlarni qilib ulgurishga tirishasan. Bo'lgan sari bo'lsin deysan! Bu ham bir ochko'zlikmi? Tog'larni qarang: yuz ming yillardan beri turibdi. Shoshilishni bilmaydi!



Abror istar-istamas mashinasiga kirib o'tirdi-yu, uni yana Chimyon dovoniga qarab haydadi.

Boya dovondan Yusufxonaga tushib kelguncha mashinaning tormozi juda ko'p bosilgan, g'ildiraklar qo'l tekizib bo'lmaydigan darajada qizib ketgan edi. Endi yana qaytadan dovon oshib, ikki ming metr balandlikdan Bo'stonliqqa tushib borayotganlarida tormozlarga avvalgidan battar zo'r keldi. Mashinaning kam-u ko'stini to'g'rilash muhlatlari allaqachon o'tib ketganining ustiga kun issig'ida shosha-pisha ikki qayta dovon oshishlari qo'shildi. Bo'stonliqqa kiraverishda mashinaning ruli o'ngga qarab qattiq tortadigan bo'lib qoldi. Abror oldingi g'ildirakning dami bo'shaganmikin deb, mashinani chetga chiqarib to'xtatdi. Tushib shinalarga qarasa, dami bo'shagan emas-u, lekin oldindagi chap g'ildirakdan yog' oqib tushyapti. Engashib, bir barmog'iga o'sha yog'dan surkab oldi, so'ngra burniga yaqin keltirib, hidlab ko'rdi. Tormoz moyining hidi. Demak, shlang deb ataladigan rezinka naycha ishdan chiqqan. Chap g'ildirakning tormozi ushlaymay qolgani uchun Abror pedalni bosganda rulning o'ngga qarab yulqinishi shundan edi.

– Bu shoshilishlarga temir ham chidamaydi! – dedi Abror xotiniga.

– Nima balo bo'ldi? Endi qanday qilasiz?

Abror indamay boshqa g'ildiraklarga qaradi. Narigi uch g'ildirak toza turibdi. Faqat ular ham juda qizib ketgan. Abror kapotni ochib, tormoz yog'i quyiladigan plastmassa silindrga qaradi. Ichidagi suyuq yog'i soyaga o'xshab qorayib ko'rindi – kamaygan, lekin hali bor. «Jiguli»ning har bir g'ildiragidagi tormozi mustaqil ishlashi, bittasi ushlaymay qolganda, boshqalari mahkam turishi Abrorning esiga tushdi. Bagajnikdagi shishadan tormoz silindriga yog' quyib to'ldirdi-da, tavakkal qilib, mashinani yana hayday boshladi.

U bir amallab Toshkentga yetib olmoqchi edi. Lekin yo'l daryoning baland qirg'og'i bo'ylab o'tadigan joyda bitta



g'unajin dumini xoda qilib chopganicha to'satdan yo'lga chiqdi. Abror unga urilib ketmaslik uchun tormozni jon-jahdi bilan bosdi. Bir g'ildirak majruh bo'lgan paytda tormozni qattiq bosib bo'lmasligi keyin esiga keldi. Mashina qattiq chayqalib, o'ng tomoni yerga qapishib pasaydi, chap tomoni yuqori ko'tarilib, buralib ketdi. Mashina yo'lga ko'ndalang bo'lib, daryoning jarlik qirg'og'iga qarab bormoqda edi. Xayriyat, shag'al to'kilgan joy g'ildiraklarni sal tutdi. Abror darhol tormozni qo'yib yuborib, rulga qaytatdan yopishdi. Mashinani tez o'ngga burib, yo'lga to'g'riladi-da, sekin-asta to'xtatdi.

Uning rangida qon qolmagan edi. Bo'shashib, rul chamberagiga bilaklari bilan suyandi-da:

– Sal bo'lmasa jarga ag'darilardik, – dedi. – Suvdan qolganmi?

Vazira qo'rqqanidan qalt-qalt titrar edi. U orqaga o'girilib, o'rindiq g'ilofning orqa cho'ntagiga tiqib qo'yilgan shishani oldi. Ertalab bolalar uchun olgan suvlaridan o'zgina qolgan edi. Shishaning tiqinini ochib, Abrorga uzatar ekan:

– Bu nima bo'ldi, a? – dedi.

Abror shishani ko'tarib suv ichdi-yu, keyin labini kafti bilan artib dedi:

– Tormozi ishlamaydigan g'ildirakning kasofati bu. Yana bir shunday bo'lsa tamom!

– Endi nima qilamiz?

– Bu ahvolda Toshkentga yetolmaymiz... Bo'stonliqda ustaxona topilarmikin-a?

– Rayon markazi-ku. Izlaylik. Oyimga ertaga borsak ham bo'ladi.

Abror mashinani ehtiyotlik bilan sekin haydab, Bo'stonliqqa kirib bordi. Odamlardan so'rab-so'rab, ustaxonani topguncha oftob botay deb qoldi. «Jiguli»ni tuzatadigan usta uyiga ketib qolgan ekan. Abror uning uyini biladigan yosh bir yigitni mashinasiga o'tqazib, ustaning uyini top-



guncha yana ancha yo'l yurdi. Ishdan charchab chiqqan o'rtayashar usta g'ildirakni istar-istamas ko'rib chiqdi-da:

– Men buni ochishim mumkin emas-u, – dedi. – Shaharda sizning xizmatangizni qiladigan ustaxona bo'lsa kerak. Ustangiz plomba urib qo'yibdi. Buni boshqa odam ochsa, keyin ular sizni qabul qilmaydi.

– Bilaman... Lekin men buni Toshkentgacha yelkamda ko'tarib boramanmi? Ular ham odamdir, axir. Uzoq yo'lda shunday bo'lganini aytsam tushunishar. Ochavering!

Usta ancha epchil odam ekan. Qorong'i tushguncha g'ildirakni ochib, yangi naycha qo'yib berdi. Abror mashinani ustaning oldida nari-beriga yurgizib ko'rdi. Tormoz berganda bir tomonga tortishi yo'qolgan edi. Shunday bo'lsa ham u endi mashinani juda ehtiyot bilan haydab borar, «Bas, jon kerak, shaharga eson-omon yetib borsak, shu shanba buni albatta ustaxonaga olib boraman», degan niyatni qayta-qayta ko'ngliga tugardi.

* * *

Lekin A'zam otalarning buziladigan hovlidan ko'chib chiqishlari shu shanbaga to'g'ri kelib qoldi. Hovlida necha o'n yillardan beri to'plangan lash-lush qanchalik ko'pli-gi endi bilindi. Eski chelaklar, qozonlar, kir tog'oralar, sim karavotlar, xontaxtalar, chorpoyalar, hatto ko'pdan beri ishlatil-may yotgan obkashlar – hammasi joyidan qo'zg'atildi. Hanifa xola hech narsasini tashlab ketishni istamas edi. Abror unga:

– Axir, obkashni nima qilasiz? Kerosin cho'va nima kerak? – desa,

– Sening ishing bo'lmasin, birda bo'lmasa birda asqotib qoladi, – deb hammasini mashinalarga yuklardi.

Abrorlarning kvartirasiga sig'maydigan katta jihozlarning bir qismini yuk mashinasiga ortib, boquvdagi qo'ylar bilan birga shahar chetida turadigan xolalarinikiga eltib



qo'yishdi. A'zam otaning iltimosi bilan hovlidagi katta chor-poyani va ikkita eski sim karavotni yangi olgan uchastka-lariga - bo'lajak qo'shnilarining hovlisiga olib borishdi. Chinni kosalar, piyolalar, choynaklar, taqsimchalar, turli xil kastryulkalar, idish-tovoqlar ham behisob edi. Hanifa xola ular dan ajralishni istamas edi. Abror ularning ko'pini qog'ozlarga o'rab, karton qutilarga solib, mashinasining bagajiga sig'maganlarini salonga joylab, juma kun erta oqshom dan kech soat o'n birlargacha ko'ch tashidi. Shanba kuni ertalabdan ko'rpa-to'shak tashishga kirishdi, «Jiguli» Bo'zsuv bo'yidagi hovli bilan Abrorning kvartirasi orasi-da kun bo'yi mokiday qatnadi. Yuklarni uchinchi qavatga ko'tarib chiqishda Abrorga mahalla yigitlari yordam be-rishdi. Shunday bo'lsa ham, tushga borib, u juda charchab, oyog'i kalovlanib qoldi, qo'llari, tizzalari titrashga tushdi. Ko'kragi ning chap tomoni og'irlashib, yurak ham borligi go'yo endi bilina boshladi.

Xona va yo'laklar mayda-chuydaga to'lib ketdi. Vazira Abrorga:

- Kvartirada odam turadigan joy qolmayapti, bo'ldi, boshqa olib kelmang! - dedi.


Abroi hovliga qaytib borib, qolgan narsalarni yuk ma-shinasiga ortishga va Ko'kchadagi singlisinikiga jo'natish-ga harakat qildi. Shunday bo'lsa ham, Hanifa xola yana bir talay tugunchalar va xaltalarni mayda-chuydaga to'ldirib, Abrorni mashinasiga ortdi.

- Endi o'zlaringizga joy qolsin, ada! Oyimga ayting!

Hanifa xola yana bir talay lash-lushlarni «Jiguli»ga qarab ko'tarib kelayotgan edi, A'zam ota hammasini uning qo'li-dan yulqib oldi.

- Bas, da, endi! - dedi-yu, hammasini yuk mashinasining kuzoviga qarab uloqtirdi.

Uy va hovli bo'm-bo'sh bo'lib, huvillab qoldi. Abror hovlini nariga chetiga borib, pastda limillab oqayotgan Bo'zsuvga tikildi. Qirg'oqdagi uylar va mahallalarning biri



buzilib, biri eskirib, har qancha ko'rimslashganda ham, Bo'zsuv mudom bir zaylda go'zal, musaffo va yosh ko'rinar-di. Mana shu musaffo go'zallikning yonida o'tgan umr endi qaytib kelmasligini, Bo'zsuv bilan qo'shnichiliklari tamom bo'lganini qolgan hayotlari Bo'zsuvni sog'inib, qo'msab o'tishini Abror ham, otasiga o'xshab ich-ichidan sezar va tomog'iga yosh tiqilib kelayotganday bo'lardi.

Hanifa xola esa ship-shiydam xonalarga o'girilib qara-di-yu:

– Voy, endi bu uydagi chirog'imizni kim yoqadi?! – deb yig'lab yubordi. – Arvohlar yo'qlab kelsa, bizni qayerdan topadi?

Hanifa xola yoshli ko'zlar bilan orqaga qaytib, o'choq boshiga bordi. U cho'pga paxta o'rab, bir juft pilik cho'p tayyorlab qo'ygan edi. Shishaning tagida qolgan yog'ni shu pilik cho'plarining ustidan quydi. Keyin pilik cho'plar-ni loysuvoq qilingan oshdonning yumshoqroq joyiga suqib qo'ydi. Gugurtni olib, bir narsalar deb pichirlab, pilik cho'plarni yondirdi.

– Ilohim arvohlar qo'llab-quvvatlasin! Borgan joyimizda chirog'imiz o'chmasin!

A'zam ota, Abror, Shokir – hammalari bir lahzaga cho'nqa-yib o'tirib, kampirning duosiga jim quloq soldilar. A'zam ota shu yerda yashagan ajdodlarning arvohiga bag'ishlab tilo-vat qildi. So'ng:

– Omin! – deb yuzlariga fotiha tortdilar-u o'rinlaridan turdilar.

O'choq boshidagi pilik cho'plar lipillab yonganicha qol-di. Tug'ilib o'sgan joyini umrbod tashlab ketayotgan Abror parishon va karaxt bir ahvolda rulga o'tirdi.

Mashina mayda-chuyda ko'ch-ko'ronga to'lib ketgan. Oldingi o'rindiqdagi A'zam otaning oyoqlari orasida va qo'llarida to'rxaltaga solingan lash-lushlar. Hanifa xola orqa o'rindiqda turli-tuman tugunlar, sumkalar, xaltalar orasida



o'tiribdi. Bagajnikda cho'yan obdastalar, qozonlar, kastryulkalar shaqir-shuqur qiladi.

Oftob endi oqqan, havo dim. Katta ko'cha chetlarida odam ko'p. Kechki issiqdan betoqat bo'lgan kishilar ko'chaning piyoda o'tiladigan joyiga aylanib borishga sabrlari chidamaydi-yu, mashinalarga chap berib istagan joylaridan qirqib o'tishadi.

Ko'chaning torroq bir joyida usti yopiq katta yuk mashinasi Abrorning oldiga tushib, imillab bormoqda edi. Mashinaning temir sirtiga va orqa tomoniga katta qilib «Mebel» deb yozilgan. Uning ketidan sudralib yurishga Abrorning sabri chidamadi. Mashinasini sal chaproqqa olib, burilish chirog'ini yoqdi. Oldinga ko'z yugurtirgan edi, qo'shaloq salonli «Ikarus» avtobusi ancha uzoqda bu yoqqa qarab kelayotganini ko'rdi. O'tib ulguraman deb o'ylab, gazni bosdi.

Aksiga olib, xuddi shu lahzada katak sumka ko'targan bir ayol oldinroqdan yo'lni kesib o'tmoqda edi. Shoshilmay kelayotgan mebel mashinasi ayolga uncha xatarli tuyulmagan, Abrorning «Jiguli»si esa mebel mashinasining panasida qolib, ko'rinmagan edi. Yo'l o'rtasiga kelib qolgan ayolni Abror ham juda yaqin borganda ko'rdi.

«Ikarus»ning orqadagi ikkinchi saloni chayqalib, katta tezlik bilan kelmoqda edi. Abror tormoz berib to'xtay desa, oraliq juda tor, «Ikarus» ham, mebel mashinasi ham keng, «Jiguli» ikkovining orasida qolib pachoqlanib ketishi aniq.

«Ikarus»ning shofyori ham buni sezdi shekilli, jon-jahdi bilan signal berdi.

Xayolni ishlatib ulgurib bo'lmaydigan shu lahzada birdan-bir najot – oldinga qarab intilish ekanini go'yo Abrorning o'zidan ham oldin qo'l-oyoqlari sezdi. U bor kuchi bilan yana gaz berdi.

«Jiguli» xatarli oraliqdan oldinga qattiq talpinib, mebel mashinasidan o'tay-o'tay deganda sumka ko'targan haligi ayol shunday ro'parasidan chiqdi. Abror uchun odam boshidan ortiq dahshat yo'q edi. Shu topda o'zining joni ham



ko'ziga ko'rinmay qoldi. Yonida o'tirgan ota-onasini ham unutdi. Mashinani ayolga tegizmaslik uchun rulni keskin o'ngga burib yubordi. Katak sumka ko'targan ayol Abror o'tirgan tomonga uriladiganday yaqin keldi, lekin mashina uning shundoqqina yonidan kiyimiga tegib-tegmay o'tib ketdi. Shu lahzada mashina o'ngga keskin burilib bordi-yu, mebel mashinasining old tomonidagi yo'g'on temiri – bamperiga qarsillab urildi. Allanarsa portlaganday va Abrorning badanidan o't chiqib ketganday bo'ldi.

U mashinani yo'l chetiga qanday olib borib to'xtatganini bilmaydi. Mebel mashinasi esa kelayotgan joyida to'xtadi. Abror avval ota-onasiga o'girilib qaradi. Ular qo'rqib ketgan bo'lishsa ham, sog'-omon o'tirishibdi. Abror mashinadan chopib tushdi-da, urilgan tomoniga o'tib qaradi. Orqa qanot majaqlanib ichkariga botib ketgan. Kuzov tagidagi ko'kish temirlar xunuk bo'lib ko'rinib turibdi.

Mebel mashinasining shofyori kabinasining eshigini ochdi-yu, pastga tushmay o'tiraverdi. Abror unga qarab qo'lini paxsa qilib gapirdi:


– Oldindan odam chiqib qolganini mendan oldin ko'rgan bo'lsangiz kerak! Nega tormoz bermadingiz?

Kabinadagi shofyor oq kepkasini kleyonka ayvonchasidan olib yuqoriga ko'tardi:

– Ho, aka, rahmat deyish o'rniga peshgirlik qilmang! Men tormoz bermaganimda butun o'ng tomoningiz o'pirlilib ketardi. Chaqiring melisani! Men qayerda tormoz berganimni izidan aniqlasin!

Abrorning majruh mashinasi atrofiga odam to'plana boshladi.

Mebel mashinasi chivin chaqqanday ham zarar ko'rmagan edi. Uning bamperi to'q ko'k rangga bo'yalgan ekan, yo'g'on temirning kaftday joyidan bo'yoq ko'chibdi, xolos. Yana bu ko'k bo'yoq «Jiguli»ning majaqlangan qanotiga – olcharang bo'yog'iga aralashib, enib qolibdi. Abror ko'proq



haligi ayoldan va o'zidan ayb o'tganini endi sezdi-yu, oq kepkali shofyorga qarab:

– Men militsiyaga arz qilmoqchi emasman! – dedi. – Bo'lari bo'ldi.

– Ha, omon qolganingizga shukr qiling, aka.

Shu payt qayoqdandir yelkasiga planshet osgan avtoinspektor paydo bo'ldi.

– «Jiguli»ning haydovchisi kim! – deb odamlardan so'radi.

Abrorning oyoq-qo'llari bo'shashib:

– Men, – dedi-yu, sekin inspektorga tomon yurdi.

Oftobda qorayib ketgan barvasta inspektor chiroyli oq shapkasiga qo'lining uchini tekkizib chest berdi.

– Serjant To'xtasinov! – deb o'zini tanitdi. – Qani, hujjatlaringizni bir ko'rib qo'yaylik.

Abror serjantga hujjat bersa, qaytib olishi qiyinligini sezdi:

– O'rtoq serjant, hujjatlar hammasi joyida. Kutilmagan paytda odam chiqib qoldi. Bu yo'lovchilar yo'lni xohlagan joyidan kesib o'tadi. Nega ularni tartibga chaqirmaysizlar? O'sha xotin qani?

Abror atrofga alangladi. To'polonda u xotinni tanib olishga ulgurmagan edi.

– Qo'lida katak sumkasi bor edi, – dedi mebel mashinasining shofyori kabinadan tushib kelarkan. Ikkovlashib atrofga ko'z yugurtirishdi. Lekin katak sumkali xotin ko'cha to'la odamlar orasiga kirib g'oyib bo'lgan edi.

– Mana, guvohlar bor, o'sha ayol sabab bo'ldi! – dedi Abror serjantga.

– Ha, xo'p, guvohlardan keyin so'raymiz. Siz avval hujjatlarni bering. Qani!..

Abror shimining cho'ntagidan qo'ng'ir g'ilofga solingan shofyorlik guvohnomasini va uning orasida turgan talonlarni olib inspektorga berayotganida A'zam ota ham mashinadan tushib keldi.



– Jon o'g'lim, ishoning, – dedi inspektorga. – Abror haligi ayolni bosib ketmayin deb o'zini urib oldi. Haliyam bu hushyorlik qildi, o'sha kasofat ayolning jonini saqlab qoldi. Men o'zim ko'rdim!

Inspektor ogohlantirishlar yoziladigan talonning teshilgan joyini aylantirib ko'rdi:

– Avval ham qoidani buzib jazo olgan ekansiz, o'rtoq A'zamov.

Inspektor planshetini ochib, sharik ruchka bilan kattagina bir blanka oldi. Blankaning tepasidagi «Avariya protokoli» degan yozuvga Abrorning ko'zi tushdi-yu, ichi muzlab ketdi.

Inspektor «Jiguli»ning oldi tomoniga o'tib, blankani uning silliq kapoti ustiga qo'ydi-da, yozishga hozirlandi. Abror yalingan tovush bilan:

– O'rtoq serjant, protokolni qo'ying, iltimos sizdan, – dedi. – Agar jazo berish kerak bo'lsa, mayli, shtraf qiling.

– Insof qiling, jon o'g'lim, ilohim mening yoshimga kiring! – deb A'zam ota serjantning qalam ushlagan qo'lidan tutdi.

Sariq jujuncha kitel-shim kiygan, oppoq cho'qqi soqoli o'ziga yarashgan A'zam ota serjantga juda nuroniy ko'rindi.

– Xo'p, xo'p, otaxon, xo'p! Siz avval qo'limni qo'yib yuboring.

– O'g'limiz xatga tushib yurmasin! Baraka toping, yozmang!

– Gap nimadaligini tushuning avval, ota. Mashinaning bir tomoni dabdala. Nariroqqa borganingizda boshqa inspektor to'xtatadi. «Bu avariya qayerda bo'ldi?» deb so'raydi. «Biron falokatni boshlab kelmayaptimi» deb surishtiradi.

– Surishtirsa javob topamiz, – dedi Abror. – Protokolni qo'ying, o'rtoq serjant.

– Ha, nega qo'yay? Nega?

– Bilaman-da. Bu protokol bilan men keyin GAIGA borib, uch-to'rt oyga haydash huquqidan mahrum bo'lib yurmayin. Iltimos!



– Axir men protokolga nima yozmoqchi ekanimni hali bilmaysiz-ku. Mashinani tuzatib minasizmi, yo shu ahvolda yuraverasizmi?

– Tuzatamiz, albatta! Ustaxonaga olib boraman.

– O'sha ustaxonalar ham bizning qog'ozimiz bo'lmaguncha ta'mirlashga olmaydi, shuni bilasizmi, yo'qmi?

Abror bunaqa qoida borligini avval bir eshitgandi, lekin o'zining ishi tushmagani uchun esidan chiqarib yuborgan edi. Hozir buni qayta eslab, birdan bo'shashdi.

– Bo'lmasa, protokolga avval o'sha yo'lni kesib o'tgan ayolni yozing, – dedi. – Butun ayb o'shanda. Mana, guvohlar turibdi.

Abror mebel mashinasining shofyorini ko'rsatdi. Lekin oq kepkali shofyor bunaqa janjallardan uzoqroq yurgisi kelib:

– O'rtoq serjant, men ketaveraymi? – dedi. – Ishim juda qistalang edi!

– Yo'q, – dedi serjant. – Mashinangizni yo'ldan chetga oling. – Oq kepkali shofyor uyday katta mashinasini yo'ldan chetroqqa chiqarib qo'ydi-da, qo'lida bir quti «Belomorkanal» papirosi va gugurti bilan qaytib keldi. U bitta papirosning tamakili tomonini ezib, og'ziga olib borganini va gugurt chaqib yondirganini Abror allanechuk suqlanib kuzatdi. Hozir butun alamini papirosdan olgisi va chekkisi kela boshladi. Lekin chekishni tashlaguncha qancha vaqt qiynalib yurganini esladi-da, o'zini alahsitdi.

Serjant biron qaltis gapni yozib qo'ymasin deb xavotirlanib turgan A'zam ota yo'lni kesib o'tgan ayolni unga yana bir eslatdi:

– Noinsof ayollar bor-da. Qilg'iliqni qilib qo'yib, qorasini ko'rsatmay ketganini qarang! Birov uning jonini saqlab qol-sa-yu, rahmat ham demay qochib ketsa-ya!

Og'zi-burnidan burqsitib tutun chiqarayotgan oq kepkali shofyor gapga qo'shildi:

– Qochib qolmasa mana bu avariyaning tovonini to'latardinglar-da, ota. Shunga haqlaring bor edi.



Nihoyat, protokol tayyor bo'ldi. Abror uni o'qib ko'rdi: serjant voqeani insof bilan yozibdi.

– Yana bir jumla qo'shsangiz-chi, o'rtoq serjant, – dedi Abror. – Qarshidan «Ikarus» ham kelayotganini aytsangiz. Mening shundan boshqa ilojim qolmagani protokoldan bilinsa...

– Bunisini endi o'zingiz yozasiz. Hali GAI sizdan yozma izoh so'raydi.

Abror GAIga borib izoh berishni ko'z oldiga keltirdi-yu, yuragi uvishdi. U hujjatlarini serjantdan qaytarib olish umidida edi. Shuning uchun ortiqcha e'tiroz bilan uning g'ashi-ga tekkisi kelmadi va protokolga qo'l qo'yib berdi. Keyin oq kepkali shofyor bilan A'zam ota ham guvoh bo'lishib, protokolga imzo chekishdi.

Serjant protokolni ikki buklab planshetiga soldi-da, boshqa kichikroq blanka olib, to'ldirib, Abrorga uzatdi:

– Buni ustaxonaga ko'rsatasiz.

– Rahmat, o'rtoq serjant. Endi hujjatlarni bersangiz...

– Pravangiz menda qoladi, buni protokol bilan birga GAIga topshiraman. O'sha yoqdan olasiz.

Abrorning eng qo'rqqan narsasi shu edi.


– Axir, o'rtoq serjant, men pravasiz qanday yuraman?

– Hozir, – deb serjant ogohlantirishlar taloniga qora qalam bilan bir narsalarni yozib Abrorga berdi, – mana shu bilan o'n besh kungacha pravasiz yurishingiz mumkin.

Abror talonga yozilgan so'zlarni o'qib, ruhi battar tushib ketdi. «Avariya qilganligi uchun shofyorlik guvohnomasi olib qolindi», degan so'zlar ko'ziga baloday ko'rindi.

Shu payt serjant cho'ntagidan sigareta olib yondirdi. Abrorning yana chekkisi kelib sigaretadan ko'zini ololmay qoldi. Serjant buni sezdi.

– Chekasizmi? – deb sigareta qutisini tutdi. Abror o'zi-ga-o'zi qarshi borayotganday keskin qo'l siltadi-yu, sigaretadan bitta olib tutatdi.



Birinchi tortishda tamaki tutuni og'ziga allanechuk noxush tuyuldi. Lekin ikkinchi tortishda uni bir narsa elitib kela boshladi, qandaydir loqaydlik paydo bo'ldi, barcha tashvishlar xayolidan sal uzoqlashganday tuyuldi.

Biroq mashinaga kelib o'tirganda, ko'zlari jimir-jimir qilib, qo'llari titrayotganini sezdi. Yarmi chekilgan sigaretani yerga tashladi-yu, yuzini hovuchiga olib, bir lahza karaxt bo'lib o'tirdi.

A'zam ota narigi eshikni ochgani, mashinaning ichida o'tirgan Hanifa xola nimalar bo'lganini cholidan so'rab bilgani, so'ng yo'lni kesib o'tgan ayolni:

– Yashshamagur! – deb qarg'agani Abrorga allaqayoqlardan eshitalayotganday bo'lardi.

Shu payt vazmin va g'adir-budur bir qo'l Abrorning peshanasi aralash boshini sekin siypaladi. A'zam otaning xavotirli tovush bilan:

– Abrorjon, biron joying og'riyaptimi? – degani Abrorga bexosdan bolalik paytlarini eslatdi. Yoshligida kasal bo'lsa yoki biron mushkul ahvolga tushsa, otasi uning peshanasini xuddi hozirgiday sekin ushlab ko'rar, boshini shu vazmin va mehribon qo'llar bilan silasa, Abror birdan yengil tortardi. Hozir ham A'zam otaning:

– Qo'y, o'g'lim, ko'p xafa bo'lma, battaridan asrasin! – degan so'zlari Abrorning sal taftini olganday bo'ldi.

U mashinasini qo'zg'atdi-da, yurishiga quloq solib ko'rdi. O'nqir-cho'nqirlardan o'tayotganda hilvirab qolgan orqa qanotning noxush shiqirlashi eshilib turardi. Abrorning nazarida, hozir mashina bilan birga o'zining ham allaqayeri qattiq jarohatlanganga o'xshar, orqadan eshitalayotgan shiqirlash – shu jarohatni tirnab og'ritayotganday tuyulardi.

Uylarining oldiga borib ko'ch tushirayotganlarida, bir mahallalik tanish-bilishlar, qo'ni-qo'shnilar mashinaning urilgan joyini ko'rishib:

– Ob-bo, attang-ey!



– Yomon bo'pti-ku! – deya boshlashdi.

– Koshki topilishi oson bo'lsa!

A'zam ota zinapoyadan chiqayotganda:

– Poyi qadamimiz yaxshi kelmadi-da, xotin! – dedi.

Hanifa xola esa:

– Kelgan balo shunga ursin, ketadigan xarajati – sadaqa!

– dedi.

Vazira ichkarida yuk joylashtirish bilan band bo'lib, hovliga tusholmagan edi. U qaynona-qaynotasini zinapoyadan pastga tushib qarshi oldi. Hanifa xolaning qo'lidagi og'ir sumkasini yuqoriga ko'tarishib chiqdi. Eshikni ochib:

– Qani, marhamat! – dedi.

A'zam otaning ketidan Hanifa xola ichkariga kirar ekan, baland tovush bilan:

– Bismillohir rahmonir rahim! – deb qo'ydi.

Vazira ularni avvalgiday orasta turgan katta xonalariga boshlab kirdi:

– Qani, endi o'tirib dam olingizlar. Ko'chlarni keyin joylashtiramiz.

A'zam ota televizor turgan bu shinam xonaning yarimyumshoq stuliga iymanibroq o'tirdi.

– Qadam yetdi, balo yetmasin, omin! – deb fotiha qildi.

Vazira qoidasini keltirib:

– Xush kelibsizlar! – dedi.

Abror ichida undan minnatdor bo'lib qo'ydi. Lekin mashina avariya bo'lganini aytishga tili bormadi.


Bst-qo'l yuvishib, choy ichganlaridan keyin Abror joyidan qo'zg'aldi:

– Men endi mashinani ustaxonaga olib boray.

Vazira Abrorning yuziga xavotir bilan qarab:

– Nima bo'ldi? – dedi. – Bir kunda o'zingizni muncha oldirib qo'ydingiz?

– Mashina sal... lat yedi. O'zini ustaga ko'rsatadigan vaqtim ham bo'lgan edi.



A'zam ota o'g'lining javoblarini yoqtirib, unga qayishib ko'z tashladi:

– O'g'lim, bugun juda charchading, – dedi. – Erta-indin olib borarsan. Damingni ol.

– Ertaga yakshanba. Ustaxona ishlamaydi. Indin o'zim ishdan chiqolmayman.

– Mayli, bora qolsin, – dedi Hanifa xola. – Buning hozir qirqqa kirib qirchillagan payti. Charchagan bo'lsa, keyin damini olar.

Hanifa xolaning o'g'lini uncha ayamasligi Vaziraga sal erish tuyulsa ham, lekin onasining gapi Abrorga dalda berdi. «Qirchillama payti» degan so'zlar uning o'ziga ishonchini xiyol oshirganday bo'ldi.

Mashinasini ustaxonaga olib borayotganda Vaja degan xushchaqchaq gruzin usta esiga tushdi. Abrorning mashinasiga ko'pincha shu yigit qarar, ish orasida qo'li ochiq ulfat odamlarni maqtab qo'yardi. Oldinda turgan mushkul ishning tezroq bitishi uchun Abror ham qo'li ochiq odam ekanini ustaga ko'rsatgisi va uning ko'nglini olgisi keldi. Yo'l bo'yidagi gastronom yonida to'xtab, bir shisha konyak, pishloq, kolbasa, non, to'rt shisha Toshkent suvi oldi.

Shanba kuni ustalar ishni ertaroq tugatishardi. Abror mashinani darvoza oldida qoldirdi-yu, o'zi portfeliga haligi narsalarni joylab, ichkariga kirdi.

Boshdan-oyoq asfaltlangan yarim gektarlik katta hovli qator-qator mashinalarga to'la. Ba'zilar Abrorning mashinasidan besh battar bo'lib majaqlangan. Ba'zilarining ichi buzuq – bostirmadagi chuqurga qo'yib, «ichak-chavog'i»ni chiqarib tashlashgan. Ba'zilar odatdagi sozlash va moylash bilan band.

Abror qo'ngir mo'ylovli Vajani beligacha yalang'och bo'lib kran tagida yuvinayotgan joyidan topdi. U artinguncha Abror soyaroq joyda kutib turdi. Vaja kelib Abror bilan ko'rishar ekan:

– Nega muncha kech kelding? – dedi.



- Bugun ishni tugatdingmi? – so‘radi Abror.
- Bo‘lmasa endi mana bu shishalarni ochamiz.

Abror portfelini Vajaga ochib ko‘rsatdi.

- O, katso⁶ sen ulug‘ odamsan! – deb Vaja Toshkent suvidan ikki shishasini oldi-da, birining temir tiqini bilan ikkinchisini ilib ochdi: – Rosa chanqadim-da bugun!

- O‘zi bugun harorat qirq ikki bo‘ldi.

Vaja bir shisha suvni bir ko‘tarishda ichib tamom qildi. Konyakning yulduzlariga qarab olib:

- Yaxshi, lekin ishxonada mumkin emas, – dedi.

- Tashqaridan yaxshi joy topamiz. Mashinang qani?.. Ur ib oldingmi? Yur, ko‘rsat.

Vaja Abror bilan birga darvozadan tashqariga chiqib, olcharang «Jiguli»ning lat yegan joyini ko‘rdi.

- Qanotni o‘zing qidirib topasan, – dedi Abrorga. – O‘n kunlarda qilib berishim mumkin. Istasang olib kirib qo‘y.

- Vaja, nahotki shu ishga o‘n kun ketsa?

- Nima, men sening kelishingni kutib ishsiz o‘tirganmim? Boshqa ishim to‘lib yotipti! Ana, bittasini boshliq topshirgan. Uni bitirgunimcha sen qanotni topib kelasan.

- Qo‘l tormozi buzuq. Boshqa mayda ishlari ham bor.

- Hammasini qilamiz.

Vaja idoraga kirib, kerakli odamlar bilan gaplashdi-da, Abrorning mashinasini ichkariga kiritib qo‘yish uchun ruxsat oldi.

Qorovul chol darvozani ochdi. Vaja qorovulga yaxshi ko‘rinadigan joyni tanlab:

- Mana shu yerga qo‘y, – dedi Abrorga. Abror mashinani qo‘yib, eshiklarini berkitdi. Vaja qorovulga tayinladi: – Bu – mening mashinam! Boshqa hech kimni yaqiniga keltirma!

Keyin u Abrorning qo‘lidan portfelini oldi-da, bitta sherigini chaqirib, o‘shanga tutqazdi.

Uchovlari ustaxonadan chiqib, ariq bo‘yidagi tollarning soyasiga kelishdi. Vajaning sherigi nariroqdagi suv do‘koni-

⁶ Katso – o‘rtoq.



dan ikkita stakan topib keldi. Konyak ichishar ekan, Vajaning sherigi hech narsa yemas, gazak o'rniga nuqul sigareta chekardi.

Vaja konyak ichib, pishloq chaynar, Toshkent suvidan simirar, ora-orada yana konyak ho'plab qo'yardi. Kayfi sal oshgandan keyin u Abrorni yelkasiga urib maqtadi:

– Sen ajoyib odamsan! Sen gruzinga o'xshaysan! Mashinani ko'p o'ylama! Hammasi asliday bo'ladi.

– Qanot, u-bularini topish qiyin-da, – dedi Abror.

– Sen qiynalsang, men o'zim yordam beraman. Bo'ldimi? Parvo qilma! Qani, ol!

Kayf bilan hamma ko'ngilsizliklarni unutgisi kelgan Abror bir stakancha konyak ichdi. Keyin buning kayfi ozlik qilayotganday bo'ldi-yu, Vajaning sherigi tutgan sigaretadan chekdi.

Mashinani qoldirib, tramvay bekatiga piyoda borar ekan, endi uzog'ini yaqin qiladigan «Jiguli»si yo'qligini juda og'rinib his qildi. Shu vaqtgacha mashina uning xizmatini qilgan bo'lsa endi Abror ehtiyot qismlar izlab topishi, bugungiday, ustaning ko'nglini olishga tirishishi, ya'ni mashinaning xizmatini qilishi kerak edi.

Shuni o'ylaganda uning diqqati battar oshdi-yu, Vajaning sherigidan ikkinchi sigaretani so'rab olib chekdi. Tamaki tutuni bilan birga butun vujudiga qandaydir irodasizlik va zaiflik tarqayotganday bo'lar, o'zi o'ziga jirkanch ko'rinar, lekin yaxshi bo'laman deb hadeb o'zini jilovlayverish undan ham nafratliroq tuyulardi.

* * *

Mashinaga o'rgangan odamlar ertalab-u kechqurun avtobus va trolleybuslarning tiqilinchligiga ko'nikolmay tajang bo'lishar, Vaziraning nazarida, piyoda bo'lib qolishlariga faqat Abror bilan uning ota-onasi sababchidek ko'rinar,



shuning uchun u eriga qovoq solib, gapiga durust javob bermas edi. Abror esa alamini tamakidan olganday, har diqqat bo'lganda cho'ntagidan sigareta qutisi bilan gugurtni olib, tutun burqsitishga tushar edi. Vazira tamakining hidini yomon ko'rar, Abror uyda cheka boshlasa:

– Darpardalardan ham tamaki hidi kelyapti, bas qiling shuni! – deb erini jerkir edi. – Odam tuf deb tashlagan narsasini qaytib og'ziga olmas edi-ku! Siz chekishni tashlab, yana qanday og'izga oldingiz? Sizda lafz bormi-yo'qmi?

Abror xotining haqligini sezsa ham, g'ashi kelib:

– Menga muncha aql o'rgatasiz! – derdi. – O'zim bila-man! Kerak bo'lganda chekaman, kerak bo'lmaganda tashlayman. Sizga nima?!

Ikkovining g'ijillashishlarini Hanifa xola bilan A'zam ota eshitmasin uchun Vazira indamay oshxonaga chiqib ketadi. Agar u erining kamchiligini ko'rsatayotganini Hanifa xola eshitib qolsa, darrov buni o'ziga oladi, «kelinim o'g'limga qo'shib meni ham yomonga chiqarmoqchi», deb o'ylaydi-yu, xafa bo'ladi... Hovlida birga turganda shunaqa mayda-chuyda gaplardan boshlangan dilsiyohliklar Vaziraning joniga tekkan edi. Shuning uchun endi bu kvartirada qaynonasidan juda ehtiyot bo'lib yurar edi.

Er-xotin ertalab ishga vaqtida yetib borish uchun ilgarigidan bir soat-qirq daqiqa oldin chiqishardi. Saraton jaziramasida ertalabdan a'zoyi badanni qizdirishga tushar, kun qiyomga kelganda harorat soyada qirq ikki-qirq uchga chiqib ketardi.

Ochiq eshik va derazalardan salqin havo o'rniga qirq uch darajali hovur kirib turganda odam tez toliqadi, kun kech bo'lishini zoriqib kutadi. Kechqurunlari ham shahar dim, benzin gazlariga to'yingan havoda nafas olish og'ir. Vazira ishdan chiqib oyisidan xabar olish uchun kasalxonaga shoshiladi. Abror esa goh mashinasini tuzatayotgan ustaning oldiga, goh GAlga hujjatini qaytarib olish uchun qat-



naydi. Ikkovi ham uyga xufton kech charchab, bo'shashib qaytishadi. Kunduzgi chanqoqliklar kechasi ham davom etardi. Abror yarim kechada og'zi qaqrab uyg'onadi-yu, choynakdagi sovuq choydan ichib yotadi.

Ertalabdan yana ustaxonaga shoshiladi.

Qirq darajali issiqlarda stol ustiga engashib loyiha chizish har qancha qiyin bo'lsa ham, lekin mayda-chuyda tashvishlardan afzalroq tuyuladi. Toshkentning tarixiga kiradigan ulkan maydonning loyihasi uning hayotiga salmoqli bir mazmun berayotganday bo'ladi, xayollari bir nuqtaga to'planib, ruhni sal ko'taradi. Sathi minglab kvadrat metr joyni egallaydigan ulkan maydonning har bir qarichi, har bir santimetri, hatto har bir millimetrida nimalar bo'lishi, har bir to'p gul qayerga, qanday o'rnatilishi loyihada bexatto chizib ko'rsatilishi kerak. Faqat yer ustidagi narsalargina emas, yer ostidagi quvurlar bir-biriga xalaqit bermay o'tishini ta'minlash ham ularning zimmasida. Maydonga ekiladigan barcha daraxtlar, gul va ko'katlar yerosti quvurlari yordamida purkalib sug'oriladigan bo'lgani uchun, ularning har biriga quvurni qay tartibda olib borish va yerdan qanchasini chiqarib qo'yish muammosini ham ular hal qilishi lozim.

Abror bu ishlarning ayrim bo'laklarini xodimlariga taqsimlab bergan, o'zi esa hammasini bir-biriga qo'shib, yaxlit loyihaga aylantirib boradi.

Endi bu katta ishning orasida goh ta'mirlash ustaxonasiga, goh GAlga borishi kerakligi juda ensasini qotirar edi. Agar ish soatlarida bormasa, kerakli odamlarni topib bo'lmaydi. Abror pulni ayamay, taksida borib kelishga intiladi. Lekin issiq qirqdan oshgan paytlarda bo'sh taksi topish ham amrimahol bo'lib ketadi.

GAlda unga o'xshab hujjatini oldirgan shofyorlar ko'p, hammasi har xil eshiklar oldida xomush qiyofa bilan navbat kutishadi. Abror kirishi kerak bo'lgan militsiya kapitani-



ning eshigi oldida ham ancha odam navbat kutib turibdi. Kapitanning o'zi esa hali tushlikdan qaytgan emas.

Abror yarim soatcha kutgach, diqqinafas bo'lib, shimining cho'ntagidan sigareta qutisini oldi. «Urgut» deb atalgan shu filtrli sigareta diqqinafaslik zahrini o'z tutuni bilan uning ichidan olib chiqib ketadigandek, xumori ortib cheka boshladi.

Kapitan kelib, to navbatdagilarni qabul qilib bo'lguncha yana bir soatdan ortiq vaqt o'tdi. Naryoqda ishi qolib ketayotgani va javob so'ramay chiqqani uchun ich-etini yeb o'tirgan Abror bu orada zinapoya oldiga borib yana ikki marta sigareta chekib keldi.

Yozli oq forma kiygan, oq furajkasi stol ustida turgan kapitan Abrorni hammadan keyin qabul qildi. Uning delosidagi yozma izohni va protokolni ko'rib chiqdi-da:

– Domla, o'zingiz tushungan odamga o'xshaysiz, – dedi.
– Nega tor joyda obgon qilasiz? To'g'ri, bu yerda obgonni taqiqlaydigan belgi yo'q. Lekin aql-farosat bilan o'zingiz bir o'ylang!..

Abror o'shanda o'zidan ham o'tganini esladi-yu, mulzam bo'lib javob topolmay qoldi. Bundan ikki-uch hafta oldin harbiy formadagi mayor Alibekni gap bilan boplaganda ich-ichidan mamnun bo'lgan Abror endi militsiya formasidagi bu kapitanning qarshisida o'zini xuddi qaynisiidek gunohkor sezdi.

– O'rtoq kapitan, men shu kunlarda juda tavbamga tayandim. Unutilmaydigan saboq bo'ldi.

Kapitan bu gaplarning samimiyligini sezib yumshadi:

– Hurmatli odam ekansiz, shuning uchun birinchi gal uncha qattiq jazo bermaymiz. Lekin bundan buyon ehtiyotni unutmasligingiz uchun taloningizga bitta belgi qo'yib beraman.

Kapitan stolining tortmasidan yiltiroq bir temirni oldi-da, talonni uning orasiga qo'yib shirq etkazdi. Talonda bekitib bo'lmaydigan teshikcha paydo bo'ldi.



– Avval teshilgan joyi ham bor ekan, – dedi kapitan.
– Lekin bu yog'i bir yilgacha taloningiz yana teshilsa, pravangizni olib qo'yamiz. Ana shu esingizda bo'lsin!

– Xo'p, o'rtoq kapitan. Rahmat sizga!

Kapitan talonini teshib bergan odamlardan kamdan-kam rahmat eshitardi. Shuning uchun Abrorga qarab beixtiyor jilmaydi-yu, qo'l berib xayrlashdi.

Bir tashvishdan qutulib yengil tortgan Abror ko'chaga chiqqanda quvonganidan sigareta chekdi.

Soat to'rt bo'lib bormoqda edi. U bitta taksini topib ishxonasiga yetib bordi va shosha-pisha uchinchi qavatga ko'tarildi.

Zinapoyadan burilayotganda yuqoridan bir ayol uni chaqirdi:

– Sizni G'ayrat Yaminovich so'rayaptilar. Kabinetlariga chiqar ekansiz.

Yaminovning o'tgan majlisda intizom to'g'risida gapirganlari Abrorning esiga tushdi. Ko'ngli xira tortib, yuqoriga ko'tarildi-yu, Yaminovning kabinetiga istar-istamas kirib bordi.

Kabinetning to'rida o'zini ventilyatorning shamoliga tutib o'tirgan G'ayrat Yaminov Abrorni tikka turgizib qo'yib:

– O'rtoq A'zamov, ish paytida qayerlarda yuribsiz? – dedi.

– Sayfulla Rahmonovich davlat intizomi to'g'risida nimalar degani esingizda yo'qmi?

– Bor. Men ham hozir davlat idoralaridan biriga borib kelyapman.

– Qaysi davlat idorasiga nima ish bilan bordingiz? Shu to'g'rida direksiyaga yozma izoh yozib bering. Siz ish vaqtida nuqul shaxsiy yumushlar bilan chiqib ketasiz. Meni bilmaydi deysizmi? Mashinangiz avariya tushgan bo'lsa, buning uchun institut aybdormi? Yozma izohni shu bugun keltirib bering. Direksiyada muhokama qilib, partbyuroga oshiramiz. Siz partiya a'zosisiz. Partbyuro ham bilib qo'ysin!



– Nimani bilib qo'ysin! Sizning mendan qasd olmoqchi bo'layotganingizni? O'shandagi tanqidlarning alamini olish uchun payt poylab yurganingizni bilib qo'yishsinmi? Bo'пти! Hozir men o'zim partbyuroga borib hammasini aytib beraman!

Abror shartta burilib kabinetdan shiddat bilan chiqib ketdi. Partbyuro kotibi to'rtinchi qavatda bo'lar edi. Lekin Abror uni xonasidan topolmadi. Bu ishini orqaga sur-sa, Yaminov havo boylab, g'alvani kattaroq qilib yuborishi mumkin edi. Abror shuni o'yladi-yu, yo'lakning oxiriga borib, ishlab chiqarish masalalari bilan shug'ullanadigan byuro a'zosi Dmitriy Adamyanning xonasiga kirdi. Qo'li-da ruchka tutgan holda qandaydir qog'ozni o'qib o'tirgan Adamyan:

– A-a, Abror, sen menga kerak eding! – dedi-da, o'tirgan ko'yicha bo'sh stulni ko'rsatdi.

Adamyan o'ttiz yashar yigit bo'lsa ham, soqol-mo'ylov qo'ygani uchun yoshi katta ko'rinardi. Kalta qo'ngir soqoli ikki jag'ining ustidan engagigacha chiroyli taralab qo'yil-gan. Sarg'ish-qo'ng'ir mo'ylov ikki labining chetini aylanib o'tib, pastga osilibroq turibdi.

– Dima, avval sen mening arzimni eshitolasanmi? – dedi Abror.

Adamyan Abrorning ta'bi tirriq ekanini sezdi-yu:

– Yana biron ko'ngilsizlik bo'ldimi? – dedi. U Abrorning hamma tashvishlaridan xabardor edi.

Abror hozir Yaminov bilan bo'lgan gaplarni va ularning sabablarini bir-bir aytib berdi.

– Bilasan, keyingi vaqtda mening shaxsiy tashvishlarim ko'payib ketdi. Lekin kunduz qilishga ulgurmagan ishla-rimni kechasi uyga olib ketib qilyapman. Loyihani direksi-ya tuzgan grafikka binoan chizyapman, haligacha grafikni buzganimiz yo'q. Vaqtda topshirmoqchimiz. Eng muhimi shu emasmi?



– To‘g‘ri-yu, lekin intizom ham muhim-da, Abror, – dedi Adamyan. Havo isib ketgandan beri ish joyida o‘tirgisi kelmay, soya-salqin joy qidirib qolganlar ham bor.

– Meni ham o‘shanaqalardan biri demoqchimisan?

– Yo‘q, albatta! Sening yo‘rig‘ing boshqa. Otangni ko‘chirish, qayningga qarashishing – buni faqat shaxsiy deb hisoblash ham to‘g‘ri emas. Chunki otangni ko‘chirishga mana shu yerda o‘zimiz chizayotgan loyihalar ham sabab bo‘lgan. Qayningni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun qilgan harakatlaring... Hammasini bilaman... Buni shaxsiy ish deb bo‘ladimi? Men buni kotibamizga aytaman. Kerak bo‘lsa u bilan ikkovimiz Yaminovning oldiga kiramiz, hammasini tushuntiramiz.


– Demak, mening izoh yozib o‘tirishim shart emas?

– Senga unaqa izohlardan muhimroq bir topshiriq bor. Sen Toshkentdagi kanallar-u ariqlarning taqdiriga qiziqib yurarding-a, to‘g‘rimi?

– Hozir ham juda qiziqaman, – dedi Abror.

Adamyan stolining tortmasidan katta jildga buklab solingan qog‘ozi qizg‘ish loyihani oldi. Loyihaning ustida mashinkada bosilgan kattagina qo‘lyozma, turli sxemalar va tushuntirish xatlari bor edi. Adamyan qo‘lyozmani varaqlar ekan:

– Toshkentning irrigatsiya tizimini qayta qurish muammosi mana shu yerda batafsil yozilgan, – dedi. – Shahar yangidan qurilayotgan sababli eski irrigatsiya tizimining yarmidan ko‘pi ishdan chiqib qolipti. O‘qib ko‘rasan. Bundan o‘n yil oldin Toshkent hozirgidan ikki barobar kichik edi, o‘shanda butun shaharni sug‘orish uchun soniyasiga oltmish uch kubmetr suv ketar ekan. Hozir shahar aholisi qariyb ikki barobar ko‘paydi, maydoni ham o‘n yil oldingiga nisbatan beqiyos darajada ulkanlashdi. Lekin butun shaharni sug‘orish uchun hozir soniyasiga faqat yigirma uch kubometr suv olinyapti. Tushunasanmi? Avvalgisidan qariyb uch baravar oz! Holbuki, shaharning suvga ehtiyoji avvalgiga nisbatan ikki baravar oshgan, soniyasiga to‘qson-



yuz kubometr suv talab qilinadi. Ammo buncha suvni joy-joyiga yetkazib beradigan ariqlar yo'q. Eskilari buzilgan. Yangilarini qurib ulgurmayapmiz. Tushunyapsanmi?

– Ahvol biz o'ylagandan ham jiddiy-ku, – dedi Abror.

– Shuning uchun hozir Toshkentda maxsus suv xo'jalik boshqarmasi tuzildi. Suv xo'jalik ministrligi bu boshqarmaning ixtiyoriga juda katta mablag', texnika, ishchi kuchi beribdi.

– Endi ishlar ancha tezlashsa kerak.

– Ha, sur'at avvalgidan ikki baravar oshishi mumkin. Hali mana bu materiallar bilan tanishganingda ko'rasan. Ishning sifati qanaqa bo'ladi? Shaharda arig'-u kanallar ham me'morchilik san'atining namunalari tarzida qurilishi kerak. Shoshma-shosharlik bilan xom loyihalar chizib, shahar arxitekturasini ko'rimsiz qilib qo'ymaylik tag'in. Arxitektorlar uyushmasi mana bu loyihalarni, shu nuqtayi nazardan muhokama qilmoqchi ekan. Sen ham shu muhokamaga qatnashishing kerak. Mana, olib yaxshilab o'rganib chiq.

Abrorning ishi boshidan oshib yotgan bo'lsa ham, Adamyen bergan katta jildni maroq bilan qo'liga oldi. Loyihani kim chizganligiga qiziqib, blankalarning tepasidagi rangdor yozuvlarga, so'ngra sxemalarning bir burchagiga injenercha mayda harflar bilan bitilgan familiyalarga ko'z yugurtirdi. Bu familiyalarning orasida «Sh. Bahromov» degani tanishdek tuyuldi. Abror Sherzodning imzosini bilar edi. Sherzod «Tasdiqlayman» degan so'z yoniga mutasaddi boshliqlardan biri sifatida imzo qo'ygandi. Loyiha esa qishloq va cho'l sharoitlari uchun katta-kichik kanallarning loyahasini chizib o'rgangan irrigatorlar tomonidan chizilgan edi.

– Dima, o'zing tanishib chiqdingmi?.. Qalay?

– Sening fikringga ta'sir qilmaslik uchun hozircha aytmay turganim ma'qulmikin?

– Bo'пти. Muhokama qachon?



- Kelgusi jumada.
- Vaqt oz ekan-da. Kechalari o'qishga to'g'ri keladi.

Abror jildni ko'tarib chiqib ketdi. Kechqurun ishdan keyin odam tirband avtobusga tushib uyga qaytayotganda uning katta charm portfelini shu jildning ichidagi qog'ozlar ham ancha shishirib, og'irlashtirib turardi.

* * *

To'qqiz qavatli binoning pastida birinchi va ikkinchi qavatning qo'shilishidan hosil bo'lgan shifti baland ko'rgazmalar zali bor. Unga kiraverishdagi devorni Toshkent markazining kattakon maketi egallagan. Boshqa devorlariga sirlangan yog'ochdan panel qilingan. O'rtada loyiha va suratlar osiladigan panellar bor. Ular derazadan tushgan oftob nurini to'sib, zal to'rini soya-salqin qilib turadi. Qalin oynalar qo'yilgan derazalardan shahar markazining shovqini eshitilib tursa ham, zalning kengligi va balandligi tufayli uning to'rt tomoni salqin va osuda tuyuladi.

Bu yerda soyaning quyuqligidan burchakdagi kunduzgi yorug'lik beruvchi chiroq yoqib qo'yilgan edi.

Adamyen qo'liga kichkina temir ko'rsatkichni olib, chiroq qarshisiga osib qo'yilgan kattakon loyiha yoniga keldi.

– O'rtoqlar, gap Qorasuv, Salor, Kaykovus kabi suv inshootlarining Toshkent shahridan – markaziy rayonlardan o'tadigan qismini qayta qurish haqida boryapti. Bu yerda maqsad – ekin sug'orish emas, shaharni go'zal qilish, toshkentliklarning yaxshi dam olishlari uchun sharoit yaratish. Mana shu maqsadga binoan, katta kanallarning shahardan o'tadigan o'zanlari, avvalo, go'zallik qonunlariga binoan yuksak estetik did bilan qurilishi kerak.

Raislik qiluvchining o'ng yonida Sherzod Bahromov qalam bilan nimanidir yozib o'tirgan edi. U qalamini qog'oz ustiga zarda bilan otib tashladi-da:



– O'rtoq Adamyan, go'zallik qonunlari juda mavhum, biz aniq iqtisodiy qonuniyatlarga asoslanib ish olib boramiz! – dedi.

– Unday bo'lsa, ayting-chi, Toshkentni sug'orish-u ko'klamlashtirish bizga qancha daromad beradi? – kulimsirab so'radi Dmitriy. – Buning iqtisodiy samarasini qanaqa qilib pulga chaqasiz! O'rtoq Bahromov go'zallik qonunlarini mavhum deb atadi. Lekin bu qonunlarning shu loyihaga tatbiq etish mumkin bo'lgan juda aniq tomonlari ham bor.

– Masalan? – so'radi Sherzod stul suyanchig'iga yelkasini tirab.

– Mana, qarang, – deb Dmitriy loyihadagi kanalning qirg'oqlarini ko'rsatdi, – nega bu qirg'oqlar taypoq bo'lishi kerak? Mirzacho'lda va Qarshi dashtida kanal qirg'og'ini taypoq qilib qurish o'rinli. Chunki bu quruvchilarga ma'lum bir yengilliklar beradi. Beton tezroq qotadi, suv kamroq bug'lanib oqadi. Bunday kanalni tozalash osonroq bo'ladi. Biroq Toshkent sharoitida mikroiklimning ahamiyati katta. O'zbek xalqining necha ming yillik tarixi davomida sinovdan o'tgan ajoyib an'analari bor. Men Toshkentda tug'ilib o'sganman. Yaxshi an'analarning odamga qanchalik qo'l kelishini bolalik paytlarimdan beri bilaman. Hamma katta ariqlarning qirg'og'ida doim tol, terak, tut, yana boshqa daraxtlar o'sib yotardi. Maysa o'tlar qirg'oqdan pastga osilib tushib, ariqdan oqayotgan suv bilan o'ynashadi. Bunday tirik qirg'oq odamni o'ziga tortadi. Iqlimimiz issiq. Suvning salqini urib turgan qirg'oqda daraxt soyasida odam tez hordiq chiqaradi. Endi buning o'rniga loyihadagi beton qirg'oqni qo'yib ko'ring. Bu betonda daraxt o'smaydi. O'lik qirg'oq. Yana tag'in mualliflarning taklifiga binoan, qirg'oq bo'ylab eni to'rt metr keladigan yo'l o'tishi kerak. «Inspektorlik yo'li» deb ataladigan bu chiziq Qorasuvga o'xshash katta ariqlarning ikki qirg'og'idan to'rt metrdan joyni egallaydi. Demak, suvga yaqin kelib dam olish mutlaqo mumkin bo'lmay qoladi. Beton qirg'oq xunuk bo'lishining ustiga qup-quruq cho'l bo'lib yotadi.



Abrorning qarshisida o'tirgan o'rtayashar ayol raislik qiluvchiga qarab qo'lining uchini ko'tardi.

– Mumkinmi?

Raislik qiluvchi ma'qullab bosh irg'adi-da:

– So'z loyihachi-injener Klara Nazarovna Nadejdinaga, – dedi.

Klara Nazarovna xinaga bo'yalganligi bilinib turgan qizg'ish sochini peshanasidan quloq orqasiga o'tkazar ekan, baland va ingichka tovush bilan:

– Dmitriy Adamyanning gapi meni juda taajjublantirdi, – dedi. – Yigirmanchi asrning yetmishinchi yillarida yashayotgan odamning: «Oh, tirik qirg'oqlar, oh, ariq suvi bilan o'ynashgan maysalar», deb o'tgan asr kishilariga o'xshab sentimental gaplar aytishi chindan ham taajjublanarli. Hozir hamma joyda odamlar qo'l mehnatidan voz kechyapti. Biz bugun loyihalashtirayotgan arig'-u kanallarni quradigan, keyin tozalab turadigan yangi avlod eskicha ish usullarini tan olmaydi. Ular bugun aqlli mexanizmlarning kabinasida o'tirib ishlashga o'rgangan. Bizning loyihamiz ana o'sha zamonaviy kishilarning talabiga javob berishi kerak. «Oh, go'zal ariqchalar, oh, gulchalar, bulbulchalar!» deydigan zamonlar o'tdi endi. Biz ilmiy-texnikaviy inqilob davrida yashayapmiz. Bu loyiha ana shuni ko'zda tutib chizilgan...

Klara Nazarovna joyiga kelib o'tirdi. Sherzodning chehrasi ochilib ketdi. Abror esa cho'ntagidan sigareta qutisini oldi, lekin qarshisida o'tirgan ayol kishining oldida tamaki tutatishdan ibo qilib, ikkilandi. Klara Nazarovnaga yuzlandi, sigareta qutisini ko'rsatdi-da, past tovush bilan:

– Cheksak, qarshi emasmisiz? – dedi.

Klara Nazarovna buni boshqacha tushundi shekilli, qo'l cho'zib, Abrorning sigaretasidan bitta oldi va labiga qistirdi. Abror gugurt chaqib, avval unga tutdi-da, so'ng o'zining sigaretasini yondirdi. Sherzod uning xumori ortib, tutun yutishidan hayajonlanayotganini va hozir gapirmoqchi ekanini sezdi.



Har qalay, boshqarmada Sherzod Abrorga yon bosgani-ni unutmagan bo'lsa kerak. Nadejdina Adamyanning gapini kinoyalar bilan chippakka chiqargandan so'ng Abrorning bu ayolga gugurt chaqib tutishlari Sherzodga bejiz emas-dek tuyuldi. Shu orada so'zga chiqqan bir quruvchi ham ko'proq Nadejdinaning so'zlarini yoqladi. Nihoyat, Abrorga navbat keldi.

– Men ham loyiha chizib yurgan odamman, bu yerdagi mualliflarning ahvolini tushunib turibman, – deb, Abror kulimsirab gap boshladi. – Quruvchilar, «texnikani ish-latishga qulay qilib chiz!» deb bir tomonga tortadi. Eksplua-tatsiyachilar, «foydalanish oson bo'ladigan qilib chiz!» deb ikkinchi tomonga tortadi. Jamoatchilik, «san'at asari yarat, yuksak didlarga javob beradigan bo'lsin», degan talabni qo'yadi. Pul sarflaydigan tashkilotlar, «qimmatga tush-masin, iqtisodiy tomonini o'ylab chiz», deydi. Ishning tez bitishidan manfaatdor tashkilotlar, «loyihani murakkab-lashtirmasdan, tez bitadigan qilib chiz!» deydi. Bunday o'ylab qarasangiz, hammasi ham o'zining talabini qo'yishga haqli. Bu talablar loyihachining qarshisida saf bo'lib turadi. Bilasiz, ipni bitta ignaning teshigidan o'tkazish uncha qiyin emas. Lekin bitta ipni qator turgan besh-oltita ignaning teshigidan birvarakayiga o'tkazishni tasavvur qiling. Bu juda qiyin-a? Biz ham har gal mana shu qiyinchilikni yengib o'tganimizdagina barcha haqli talablarga javob berishimiz mumkin.

Abror qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni bir-biriga ya-qinlashtirish uchun Nadejdinaning texnikaga oid ba'zi gaplarini ma'qulladi:

– Men aminmanki, Dmitriy Adamyan ham zamonaviy texnika tarafdori. Gap faqat texnikani tabiatga qar-shi qo'ymaslik haqida boryapti. Texnikadan foydalanib, ariqlarni tezroq quraylik. Lekin ariqlarning bo'yidagi tabiiy go'zalliklardan ham mahrum bo'lib qolmaylik. O'rtoq Na-dejdina, «ariqchalar, gulchalar, bulbulchalar», deb kinoya



qildi. Eskicha oh-vohlar, albatta, quloqqa chuchmal eshitiladi. Lekin bugun tabiatga yangicha bir munosabat paydo bo'lyapti, tabiiy go'zallikning qadri oshyapti, biz shuni hisobga olishimiz kerak. Urbanizatsiya juda kuchayib ketdi. Qayoqqa qaramang, temir, beton, asfalt, shisha! Behisob mashinalarning dudi ko'chalarni to'ldirgan. Lekin odamning o'zi ham o'sha gulchalar, bulbulchalarga o'xshash tirik tabiat zarralari. Urbanizatsiya kuchaygan sari toza havoga, tabiat bag'riga qarab talpinamiz. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish hozir odamni himoya qilish bilan barobar bo'lib qoldi.

Klara Nazarovna ikki barmog'i orasiga chiroyli qilib qistirgan yoniq sigaretining kulini chinni kuldonga qoqib tushirdi-da, luqma tashladi:

– Men tushunmayapman, tabiat muhofazasining Toshkent ariqlariga nima aloqasi bor? Yoki o'rtoq A'zamov ariqlar masalasini Baykal muammosi bilan tenglashtirmoqchimilar?

Ko'zoynakli irrigator bu kinoyani ma'qullab kulib qo'ydi. Abror ham istehzoli kulimsirab:

– Xayriyat, o'rtoq Nadejdina Baykal muammosini bilar ekanlar, – dedi. – Baykalni tog'lardan keladigan zilol suvlarsiz tasavvur etib bo'ladimi? Yo'q! Toshkentning Bo'zsuvi, Salorini, Kaykovusini, Qorasuvini, boshqa katta ariqlarni Chotqoldan, Oloydan oqib keladigan suvlarsiz tasavvur qilib ko'ring! Bu ariqlardan bizga faqat suv emas, balki go'zal tabiat oqib keladi. Ariqlar shahrimizga qon tomiriday tarqab ketgan. Odamlar buni qadim zamonlardan beri biladi. Ilgari birov hovli olmoqchi bo'lsa, «ichidan o'tadigan oqar suvi bormi?» deb so'rar ekan. Agar hovlidan suv oqib o'tmasa, uni hech kim olmas ekan. Chunki eski katak hovlilarda, tor ko'chalarda yashagan odamlar hech bo'lmasa mana shu ariq suvi orqali tabiat bilan bog'lanib turishni istagan. Katta ariqlarning bo'yidan joy olish-ku, juda baxti kulan kishilargagina nasib bo'lgan. Shu tarzda bizning



odamlar doim suvga yaqin bo'lishga intilgan. Chunki suv bizning sharoitimizda hayotning tabiiy bir asosi bo'lib qolgan. Tomiri nanga tegib turgan daraxt qurimaydi. Shahar kishisining «tomiri» ham obod kanal-u ariqlar orqali tabiatga tegib turmasa juda biqsib ketadi.

– Xo'sh, sizning taklifingiz nima? – sabrsizlanib so'radi Nadejdina.

Dmitriy Adamyan unga zarda qilib dedi:

– O'rtoq Nadejdina, siz gapirganda A'zamov jim o'tirib eshitgan edi. Endi siz ham sabr qilib quloq soling!

– To'g'ri, luqma tashlash bas! – dedi raislik qiluvchi ham.

– Loyihadagi «inspektorlik yo'li» ko'p jihatdan Toshkent sharoitiga to'g'ri kelmaydi, – deb davom etdi Abror. – Eni to'rt metrli yo'l o'n kilometr uzunlikda bo'lsa, to'rt ming kvadrat metr maydonni egallaydi. Holbuki, shaharda har bir kvadrat metr maydon hisobli. Yerni tejab sarflash haqi-da qattiq ko'rsatmalar bor, buni, ayniqsa, Sherzod Islomovich yaxshi biladilar.

– Buni hamma biladi, – dedi Sherzod.

– Hamma bilsa, «inspektorlik yo'li» uchun nega minglab kvadrat metr maydon isrof qilinishi kerak? Axir bu yer quruq yotgan cho'l emas-ku! Qorasuv, Kaykovus bo'ylarida uylar, hovlilar ipga tizilgan marjonday tig'iz turibdi. Shuning hammasini buzib, o'rniga «inspektorlik yo'li» qurish... kurakda turmaydigan gap!

– Ariq tozalaydigan texnika uchun yo'l kerakmi-yo'qmi? – so'radi Sherzod.

– Ariq tozalaydigan texnikani piyodarav yo'lkalardan olib o'tish mumkin. Texnika faqat ariq bo'ylab yurishi shart emas. Ariqqa ko'ndalang qilib qurilgan yo'lkadan kelishi mumkin. Men taklif qilardimki, Bo'zsuv, Qorasuv, Salor, Kaykovus kabi katta ariqlarning bo'yida faqat piyoda sayr qilinadigan yo'lkalar, xiyobonlar loyihalashtirilsin. Bu xiyobonlarning ba'zilar mashina qatnaydigan shossega aylanib ketmasin uchun baland-past joylariga zinapoyalar qurish



kerak. Chunki zinapoyadan odam yuradi, mashina yurolmaydi.

– Mashinaga shu darajada qarshimisiz? – o'smoqchilab so'radi Nadejdina.

– Gapni burmang, Klara Nazarovna. Men faqat odamlar dam oladigan oromgohlar mashina qatnaydigan yo'lga aylanishiga qarshiman, xolos. Mashinani ham inson yarata-di, o'ziga xizmat qildiradi. Hozir shunday kishilar paydo bo'lganki, odamni mashinadan past qo'yadi. Odamlar qiy-nalsa ham, mashina qiynalmasin, deydi. Yana buni ilg'orlik namunasi deb o'ylashadi. Aslida, mashinani bu darajada fetishga⁷ aylantirishning o'zi borib turgan qoloqlikdir!

– Juda to'g'ri! – deb muhokama raisi Abrorga qo'shildi: – «Aqlli» mashinalar juda ko'p, ularni har bir joyning sha-roitiga moslab takomillashtirish mumkin. Ariq qaziydigan, kartoshka kovlaydigan, ko'chat o'tqazadigan moslamalar bor. Shahardagi ariqlarni tozalaydigan moslamalar yasash nega mumkin emas? Ariq ichida mashina ishlab, uni toza-lab tursa, «inspektor yo'li»ning nima keragi bor? Shahar-dagi kanal-u ariqlarning arxitekturasini estetik talablariga albatta javob berishi shart. Shuning uchun ularni xuddi da-la-dashtdagi kabi taypoq qilib qurmaslik kerak. Bu jihatdan men Dmitriy Adamyanning fikriga qo'shilaman. Qimmat-ga tushsa ham, bezak materiallar ishlatish kerak. Bundan tashqari, ariqlarning hammasini boshdan-oyoq beton bilan qoplab tashlash kerak emas. Sement, beton, temir kons-truksiylar ko'chada hisobsiz sochilib yotgani yo'q. Bular hammasi pulga keladi, kamyob mollar hisoblanadi. Betonni ham tejash kerak. Shuning uchun ariqlarning faqat buzilib, hilvirab qolgan, suv urib ketishi mumkin bo'lgan joylari betonlashtirilsa bas. Ariqlarning yaxshi saqlangan qismlari bor. Ko'p yillar davomida oqim tagini shibbalab, mahkam qilib yuborgan. Qirg'oqlarida daraxtlar o'sib, tomirlari bilan

⁷ Fetish – ko'r-ko'rona ulug'langan va sig'inish darajasiga yetkazilgan narsa.



tuproqni mahkam tutib turibdi. Ariqlarning bunday joyini orasta qilib, dekorativ butalar ekib, ba'zi joyiga chim bosib, maysa o'stirib shinam qilib qo'yilsa bo'ldi. Betonlashtirishdan ko'ra bu bir necha marta arzonga tushadi. Ana sizga iqtisodiy samara!.. Toshkentdagi sug'orish tizimi obodonchilikka, aholining dam olishiga, insonning rohat-farog'atiga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun bu yerda o'rtoq A'zamov aytgan tabiiy muhofazasiga, tabiiy go'zalliklarga alohida e'tibor bermasak bo'lmaydi. Xullas, muhokamaga qo'yilgan loyihani tubdan qayta ishlab chiqish kerak. Kanal devorlarining taypoqligi, chetlarida daraxt o'sishiga imkon yo'qligi, «inspektor yo'li» – hammasi Toshkentday poytaxt shaharda to'g'ri kelmaydi. Biz bugungi muhokamaning protokolini Arxitektorlar uyushmasining rahbarlariga beramiz, toki loyiha bu ahvolda tasdiqdan o'tkazilmasin.

– Loyihani tasdiqlashga uyushmangizning haqqi yo'q! – dedi Sherzod noroziligini yashirolmay. – Sizlar faqat maslahat berishlaringiz mumkin. Bu loyihaga vazirlik pul ajratgan. Tasdig'i ham o'sha yerda bo'ladi!

– Kechirasiz, o'rtoq Bahromov, – dedi raislik qiluvchi istehzo bilan. – Vazirligingiz buni arxitektura boshqarmasining tasdig'iga yuboradi. Toshkentda quriladigan har bir inshoot o'sha boshqarmaning ruxsatisiz qurilmaydi. Bizning fikrimizga qo'yshlmasalaringiz, boshqarmaga aytamiz.

– Mayli, ayting, biz qo'rqmaymiz!

Raislik qilib o'tirgan keksa arxitektor protokol yozayotgan kotiba qizga yuzlandi:

– Bahromovning bu javobini ham yozib qo'ying. Tanqidga munosabat qanaqa bo'lganligi bilinib tursin.

– Men boya aytdim, asosli tanqidiy fikrlarni hisobga olamiz. Lekin «ur kaltak» ishlatganlarning gapini rad etamiz!..

– Bu yerda hech kim «ur kaltak» ishlatgani yo'q! – dedi Dmitriy Adamyan.

Sherzod yana bir narsa deb e'tiroz qilmoqchi edi, rais:

– O'rtoqlar, bahs tamom, muhokama tugadi, – dedi.



O'rinlaridan turib, eshikka yaqin borayotganlarida Sherzod bilan Abror yonma-yon kelib qolishdi. Sherzod Abrorga, «odamgarchilik shunaqa bo'ladimi?» deganday nafrat bilan qaradi. So'ng unga yo'l bermay, eshikdan tez chiqib ketdi.

O'NINCHI BOB

Hovliga o'rgangan Hanifa xola Abrorlarning kvartirasida ko'p o'tirolmaydi, charm kavushi bilan beton zinapoyalarni taqir-tuqur bosib, uchinchi qavatdan pastga tushadi.

Hovlida – sariq rangga bo'yalgan yog'och devor ortida qurilayotgan kooperativ uyning birinchi qavati bitgan, hozir ikkinchi-uchinchi qavatiga g'isht terishyapti. Hanifa xola yo'lkaning soyaroq joyida turib, peshanasiga qo'lini soyabon qiladi-da, ularning ishini boladay uzoq tomosha qiladi.

Yo'lkadan odam ko'p o'tadi. Atrofdagi uylarning derazalari ochiq, goh unisida, goh bunisida birov ko'rinib qoladi. Hanifa xola yo'lka chetida yolg'iz so'ppayib turishdan tortina boshladi. Sekin yurib, ko'cha tomondagi oziq-ovqat magaziniga bordi. Hech narsa olmoqchi bo'lmasa ham, uning ichiga kirib birpas aylandi. Oxiri yana orqasiga qaytdi.

Podyezdlar, zinapoyalar, kvartiralar bir-biriga juda o'xshash. Hanifa xola ba'zan adashib boshqa podyezdg'a kirib qoladi. Uchinchi qavatga chiqquncha adashganini sezmaydi. Xuddi abrorlarnikidan nusxa ko'chirilgan kvartiraning eshigi qarshisiga keladi, lekin uning nimasidir begona ko'rinadi. Yo eshikka boshqa xil dermatin qoplangan, yoki bo'sag'adan beriga oyoq artish uchun to'shab qo'yilgan ho'l latta boshqacha yoki qulfiga kalit solsa tushmaydi. Shunda Hanifa xola nomeriga qaraydi. Xayriyat, urushdan oldin savod chiqarish maktabida o'qib, raqamlarni bilib olgan. U paytdagi yozuvlar lotincha edi. Hanifa xola yangi alifbedagi




yozuvlarni o'qiy olmaydigan bo'lib qolgan. Faqat raqamlar lotinchada ham xuddi hozirgiday bo'lgani unga qo'l keladi. Adashib kirgan podyezdidagi kvartiraning nomeri butunlay boshqa ekanini raqamlardan biladi-da:

– Voy, sabil qolsin! – deb pastga qaytib tushadi. Yo'lkadagi daraxtlarga qarab-qarab, eshik oldiga ekilgan yoshgina o'rikdan o'zlarining podyezdlarini topib oladi. Yana uchinchi qavatga ko'tariladi. Nimchasining qo'yin cho'ntagiga igna tugma bilan mahkamlab qo'yilgan kalitni olib, eshikni ochadi.

To'rt xona – hammasi bo'm-bo'sh. Abrorlar ishda. Nevaralar lagerdan qaytgan emas. A'zam ota azonda uchastkaga ketib, xuftonda qaytadi.

Hanifa xola Abrorning kabinetiga kirdi. Devorlarda rangdor rasmlar. Kitob javoni ustida Vaziraning moyli bo'yoq bilan ishlangan chiroyli portreti. Qalin qora sochlari yelkasiga tushgan. Yirik-yirik ko'zlari odamga iliq bir mehr bilan qaraydi. Tarang yuzida va xiyol ko'pchib turgan lablarida yoshlik latofati. Bo'yni, quloqlari, peshanasiga qayrilib tushgan soch tolalari – hammasi nihoyatda jozibali. Bu suratni Abror chizganini Hanifa xola yaxshi biladi. Uning xotinini juda suyib tasvirlagani suratga bir qarashdayoq seziladi.

Devorning ikkinchi tomonida esa Abrorning rangdor surati turibdi. O'ttiz yoshlardagi juda ko'hlik payti. Ko'zlarida olov chaqnaydi. Qalin g'ayir sochlari qappayib turibdi. Yoqasi ochiq yozli ko'ylakda baquvvat, silliq bo'yni yaxshi ko'rinadi. Bu suratni Vazira mo'yqalam bilan qanday chizganini Hanifa xola ko'rgan. O'sha paytda abrorlar hali Bo'zsuv bo'yidagi hovlida turishardi. O'g'li bilan kelini bir-birini suyib tasvirlagani Hanifa xolaning kayfi yaxshi paytida ko'ziga iliq ko'rinadi. «Qo'sha qarishsin, bir-biriga juda mehribon, yulduzi yulduziga to'g'ri kelgan», deb qo'yadi. Lekin hozirgiday, xolaning mashqi pastroq bo'lsa, devorning ikki tomonida turib, xuddi bir-biriga muhabbat



izhor qilayotganga o'xshab qarayotgan o'g'li bilan kelini-ning suratlari unga allanechuk erish ko'rinadi. «Bo, muncha bir-biriga suzilib, oshiq-ma'shuqligini ko'z-ko'z qilmasa!» deydi g'ashi kelib.

U Abrorning chetlariga va taglariga murtigardonlar o'rnatilgan chizmakashlik stoli oldiga bordi. Qo'lidagi doka bilan stolning changini artar ekan: «Arxitekturligini qilavermaydimi?» dedi ichida. Bu gapga bir vaqtlar Vazira shunday javob bergan edi:

«Ayajon, har bir arxitektor rassom ham bo'lishi kerak, busiz mumkin emas. Biz ko'rkam binolarning rasmini chizamiz, tabiat manzaralarini suratga olamiz. Lekin bularning hammasidan ham jozibalirog'i – inson yuzi. Shuning uchun biz doim odamning rasmini chizib mashq qilamiz».

Hanifa xola kulib:

– Bo'lmasa, men bilan cholimning rasmini ham chizinglar, – deganda Vazira xo'p deb, darrov ko'ngan, Abror ham bir necha marta ota-onasining suratini chizmoqchi bo'lib urinib ko'rgan, lekin hech narsa chiqarolmagan edi. Vaqtmi, quntmi, qiziqishmi – nimadir yetishmagandi.

Lekin, mana, bir-birining suratini chizishga vaqt ham, qunt ham topilibdi-ku.

Hanifa xola hozir buni o'ylab turib: «Dunyo shu ekan-da, – deb qo'ydi. – Sening ko'ngling bolangda, bolangning ko'ngli – xotinchasida».

Hanifa xola derazaning pardasini ko'tarib, oftobga qaradi. Kun og'ibdi. U peshin namoziga tahorat olish uchun vannaxonaga qarab ketdi. Shunda Abror ularni bu yerga ko'chirib kelguncha qancha yugurib-yelganlari, mashinasi avariya bo'lib, qanday azob tortganlari esiga tushdi. «Ish-qilib, omon bo'lsin, dog'ini ko'rmayin», degan so'zlarni ko'nglidan o'tkazdi. O'tgan dam olish kuni qaynona-kelin ikkovlari qolganlarida Vazira Hanifa xolaga vannada cho'milishga yordamlashgan, yelkalarini mochalka bilan ishqab qo'ygan edi. O'shanda ko'ngli iyib ketgan Hanifa xola:



– Zumrad qudam sizga yaxshi tarbiya bergan-da, kelin, – degan edi. – Ko'ch-ko'ch bilan bo'lib, qudamdan haligacha xabar olganim yo'g'-a! Qachon ko'rgani borasiz?

– Bugun kechqurun.

– Bo'lmasa men ham birga boray, Vaziraxon. Somsa-pomsa pishiraylik.

O'sha kuni kechqurun qaynona-kelin qovoq manti va somsa pishirishib, ko'z kasalxonasiga bordilar. Zumrad Sodiqovnani hovlining soya joyiga chaqirib chiqib, ancha vaqt suhbatlashib o'tirdilar.

Hozir Hanifa xola o'zining xonasiga kirib, to'rdagi ko'rpa-cha ustiga joynamozni yozar ekan: «Noshukrchilik bo'lmasin, kelinim hozir durust», degan gapni xayolidan o'tkazdi. Boya ko'nglida qo'zg'algan qarama-qarshi tuyg'ular namoz o'qigandan keyin biroz bosilganday bo'ldi. U birpas ochiq deraza oldida o'tirib tikish tikdi-da, soat to'rtlarda kechki ovqatga unnadi.

Hanifa xola pishirgan qaylali moshxo'rdani kechqurun Vazira bilan Abror maqtab-maqtab ichishdi.

– Zafarjon ham moshxo'rdani yaxshi ko'rardi-ya! – dedi Hanifa xola. – Bolalarni lagerga bekor beribsangiz-da, Abror.

– Nega? Shaharda biqsib yurguncha dam olib kelishsin.

– Malika bo'y yetib, katta qiz bo'lib qolgan. Yaxshidan ko'p yomon...

– Yaqinda xabar olib keldik, murabbiyalari bilan gaplashdik, – dedi Vazira. – Xavotirlanmang, aya. Yaxshi yuribdi.

– Kuni buyi uyda bir o'zim tors yorilib ketguday bo'lib yurganimni aytmay sizmi, kelin!

Vazira Abror bilan ma'noli ko'z urishtirib oldi-da, uning ham fikrini aytayotganday bo'lib:

– Bolalarning to'poloni sizni qiynab qo'yar edi, aya, – dedi. – Kanikul paytida ertadan kechgacha bo'sh bo'lishadi, bularni eplash osonmi? Biz bir chekkasi shuni ham o'yladik. To bu kvartiraga o'rgangunizcha bolalar lagerda yursin, siz tinchroq bo'ling, dedik.



– Hay, kelinposhsha, men bolani endi ko'ribmanmi? Xudoga shukr, to'rttasini o'stirib katta qildim. Sizning bolalaringizni ham o'zim yo'rgaklaganman. Men bolabezor xotinlardan emasman!

– Yo'g'-e, ayajon, siz meni unaqa tushunmang-da!

– Bolalarni sog'inib turgan bo'lsangiz, hademay keli-shadi, – deb Abror oraga tushdi. – Ungacha boshqa biron ishingiz bo'lsa qilib turing. Tikish tikadigan odatlaringiz bor edi.

– Qilaman desam ishdan ko'pi bormi? Gap kelgani uchun aytdim-da. Singling Risolat tirnoqqa zor bo'lib yurib-yurib, qo'chqorday o'g'il tug'di. Bolaginamni tug'ruqxonada ko'rganimcha uyiga borolmay sog'inib yuribman. Ikki oy bo'ldi. Chaqaloqchaga bosh-oyoq kiyim tikib qo'ydim.

– Nega olib bormaysiz? – hayron bo'lib so'radi Vazira: – Yo o'g'lingiz mashinada olib borsinlarmi?

– Qaysi yuz bilan boraman, kelin? Beshik to'yi qilib berganim yo'q. Quda tomondan uyalib yuribman!

– Ob-bo, hali bunisi ham bor-a! – dedi Abror oyisini tushungan ma'noda.

Beshik to'yining daxmazasidan yuragi bezillagan Vazira:

– Ayajon, kolyaska, u-bu olib, tug'ilgan kuni bilan tabriklab kelaqolsak-chi? – dedi. Bola baribir beshikda yotmasa... Beshik o'zi eskirgan, keraksiz bir narsa bo'lsa...

– Voy, beshikni bilmasdan muncha yomonlamang, kelinposhsha! Shu suygan eringizni men beshikda katta qilganman! O'g'lingiz Zafarjon ham yozda kolyaskada tuni bilan bo'g'riqib uxlolmaydigan bo'lib qolganda, men beshikka o'rgatib, uxlaydigan qilib berganim esingizdan chiqdimi?

– Besh-olti kun beshikka belasangiz mayli, lekin doim beshikda yotsa bolaning oyog'i qiyshiq bo'lib qoladi, ayajon!

– Be-e, to'rtta bolani beshikda o'stirdim, hammasining oyoq-qo'li oyday! Belashni bilgan ona beshikdan baraka topadi. U kuni kinoda ko'rsatdi, Kapkazda ham xuddi biz-



nikidaqa beshik bo'larkan. Gurjilar, armanlar ham bolasi-ni beshikka belagan ekan. Mana, Abroringiz aytsin, yonimizdagi bilimdon tojiklar beshikning ta'rifini Maskopdagi kitoblarda yozib chiqibdi.

Vazira hayron bo'lib eriga qaragan edi, Abror unga izoh berdi:

– Kitobda emas, «Zdorovye» jurnalida beshikning xalq tomonidan ixtiro qilingan qulayliklarini tojik olimi maxsus tadqiq qilib yozibdi, Gavrapo'sh, sumak, qovuzloq haqiqatdan yaxshi o'ylab topilgan.

– Shular bo'lmasa, bolani kolyaskaga yotqizib, hamma yoqni ho'l lattaga to'ldirib yuborar edingiz, kelin.

– E, qo'ying, aya, beshikda bolani tervataverib, boshini po'la qilib qo'yish mumkin!

– Voy, Navoiyday, Ulug'bekday odamlar ham beshikda yotgan-ku. Nega ularning boshi gavharday to'la bo'lgan! Po'la bo'larmish-a!

Oyisining qizishi boshlaganini ko'rgan Abror gap janjalga aylanishidan cho'chib oraga tushdi:

– Oyi, Vazira! Shoshmanglar! Hozir, mana, gaz bor, is-siq-sovuq suv bor, uylar qishda isitiladi. Bolaning narsalarini yuvish ham, quritish ham oson... Shuning uchun, oyi, endi bolani kolyaskada o'stirsa bo'ladi. Lekin bunday qulayliklar bo'lmagan davrlarda beshik ham juda ish bergan, Vazira! Ilgari ko'p uylarda pol bo'lmagan. Go'dak zax yerda yotmasin deb, beshikni quruq tut yoki tol daraxtidan yasashgan, bola yerdan ancha balandda yotgan. Beshikning boshqa narsalari ham o'z davrining ajoyib kashfiyotlari bo'lgan. O'z vaqtida beshik onaga ham, bolaga ham juda katta xizmatlar qilgan.

– Ana shuning uchun ham beshikto'y rasm bo'lganda, bolam! – deb Hanifa xola yana o'zining gapini ma'qullab ketdi.

Abror onasining ko'nglini tushunib turardi. Beshikto'y – ona tomonning obro'sini oshiradigan marosim. Go'dak-



ning buvisi beshikni cho'g'day yasatib go'dakning o'ziga va ota-onasiga bosh-oyoq sarpo qilib, surnayda «alla bolam» kuyini chaldirib borganda, ona tomonning boshi osmonga yetadi, bir umr eslab yuriladigan oilaviy bayram bo'ladi. Abror o'z onasi va singlisi Risolatni e'zozlab, bola tug'ilishini yaxshi bir marosim qilib o'tkazishni istar edi-yu, lekin boshqa navbat kutib turgan ishlari ko'p bo'lganligi uchun mayda-chuyda tashvishlardan uning ham yuragi bezillardi. Shuning uchun oyisiga aniq javob bergisi kelmay:

– Dadam kelsinlar-chi, maslahatlashib ko'raylik, – dedi.

A'zam ota qorong'i tushganda charchab-horib kirib keldi. Kun bo'yi oftobning tig'ida devor urib charchagan keksa odamga Beshqayrag'ochdan Darxongacha bo'lgan yo'l juda uzoq tuyular, oxirida uchinchi qavatga ko'tarilish uchun madori yetmay qolardi. A'zam ota uh tortib ko'rpachaga o'tirdi-da, ancha vaqt nafasini rostladi. Bir piyola choy ichgandan keyin:

– Yo'li qurg'ur juda og'irlik qilyapti, – deb qo'ydi. – Devori bitsa, chayla qurib, o'sha yoqda yotib qoladiganga o'xshayman. Shokir bugun Ko'kchada, Risolatnikida qoldi. G'isht quyayapti.

Hanifa xola cholining oldiga bir kosa moshxo'rda olib kelib qo'ydi-yu:

– Risolatning beshik to'yini nima qilamiz? – dedi. Men beshikning gavrapo'shiga ketadigan mayda-chuydalarni oldim, chaqaloqqa ko'ylak-ishtonchalar tikdim.

– Kuyovga bosh-oyoq sarpo, qizga bosh-oyoq sarpo. Bunisini nima qilasan? Ellik-oltmish kishilik oshning xomi, besh-olti tog'ora yegulik.

– Nima, xarajatidan qochib, yuzimizga charm tortib yuraveramizmi? Bechora qizimiz umrbod ta'naga qolsinmi endi? Qaynonasi: «Ota-onang beshik to'yi qilib beribdimi?» deb tilini qisiq qilib olsinmi?

A'zam ota ham kichik qizi farzand ko'rsa, beshik to'yi qilib berishni ko'pdan beri ko'ngliga tugib yurar edi.



– Iloji qancha, xotin! Naryoqda uchastkaning tashvishi tinkani qurityapti. O‘zimiz uydan ayrilib, sig‘indi bo‘lib o‘tiribmiz.

– Nega sig‘indi bo‘larkanmiz? O‘g‘limizning uyiga biz begonamizmi?

– Aslida-ku, bu ham o‘z uyimiz-a. Lekin...

– Odamlar eshitsa nima deydi? Yonida ikkita devday o‘g‘li bor, Abrori mashina minib yuribdi, bitta beshik to‘yi qilishga yaramadi, deb ustimizdan kulishmaydimi?

A‘zam ota moshxo‘rdaning yarmini ichdi-yu, kosani nari surdi.

– Ob-bo! Odamni tinch qo‘ymaysan-da!.. Abrorni chaqir bo‘lmasa. Gaplashaylik.

Hanifa xola yo‘lakka chiqdi. Abror qo‘shni xonada o‘tirgan edi. Vazira oshxonada kosa-tovoq yuwardi. Hamma eshiklar ochiq. Vazira hangomani eshitayotgan bo‘lsa kerak. Hanifa xola «mayli, eshitsin!» dedi-yu, xonalarning eshigini ataylab ochiq qoldirdi.

Abror xontaxtaning bir chetiga o‘tirib otasi bilan so‘rashdi-da, beshik to‘yidan gap ochilganda:

– Hozir bunaqa ish bizga juda ortiqcha emasmikin, ada? – dedi.

A‘zam ota do‘ppisini orqaga surib, ustarada qirilgan boshini qashir ekan:

– Onang ikkovimiz niyat qilgan edik-da, o‘g‘lim, – dedi...

– Risolat besh yil farzand kutdi. Shu qizimiz o‘g‘il ko‘rsa, bitta qo‘y so‘yamiz deb ahd qilgan edik. Endi so‘zimizdan qaytsak bo‘lmas.

– Shu qo‘yni uchastka bitgandan keyin so‘ysak-chi, ada?

– E, ungacha bir yil o‘tib ketadi, – dedi Hanifa xola. – Beshik to‘yini qilaman degan odam uch oyda qiladi. Keyin qizig‘i bo‘lmaydi.

– Xo‘sh, xotin, qachon o‘tkazmoqchi eding?

– Hozir ayni pishiqchilik payti, dadasi. Yaqin qarindoshlarni mana shu yakshanbaga maslahatga chaqiraylik. Kim nimasini ko‘taradi, hammasini gaplashinglar.



– Hali bu yakshanbada yig'iladigan qarindoshlar uchun o'n besh-yigirma kishilik dasturxon tuzab, quyuq-suyuq qilish ham kerakdir? – ozorlanib so'radi Abror.

– Mehr ko'zda, deydilar, o'g'lim, – javob berdi A'zam ota.

– Yaqin-yiroq qarindoshlar bilan ko'rishib turish ham kerak. Hozir odamlarda bir-biridan yotsirash odatlari paydo bo'lyapti. Mana bu ko'p qavatli uylarda oylab-yillab yonma-yon turgan ba'zi odamlar bir-birini tanimaydi, bordi-keldi qilmaydi. Undan ko'ra to'planishib, bir-biriga qarashib, katta bir oilaga o'xshab yashagan yaxshi emasmi?

– Yaxshi-ku, lekin... Vaqt masalasi...

– E, vaqt topiladi, Abrorjon. Ko'ngilni keng qilaver.

– Ungacha Abror kuyovga yaxshiroq bir tufli bilan kostyum topsa bo'lar edi, – dedi Hanifa xola.

– Muncha sarponing nima keragi bor, ada? Kuyov yana qaytadan chimildiqqa kirmaydi-ku!

– Yo'q, Abrorjon, kuyovimiz ham endi ota bo'ldi. Biz uning otalik hurmatini joyiga qo'yishimiz kerak. Risolatga ham yaxshi sovg'a olamiz. Buni xalq bekorga o'ylab topgan emas. Yosh ota-onaga yordam kerak... Hukumatimiz ham bola tug'ilganda bekorga nafaqa bermaydi. Ota-ona yana farzand ko'rsin deydi. Xalq ham mana shu to'y-sarpolar bilan yosh ota-onani farzand ko'rishga rag'batlantiradi. E, o'g'lim, biz bu ishlar bilan ota-onamizdan olgan qarzimizni uzamiz! Mana, sen tug'ilganingda rahmatli bobong bilan katta onang qanaqa to'y qilib bergan edi! Bizga qancha sarpolar qilishgan edi! Sen buni bilmaysan, chaqaloq eding. Keyin olti yoshga kirganingda o'g'il to'yi qildik. Shunda bobong bilan amming chiroyli toy yetaklab kelib, seni qanday mindirib yurganlari esingda bordir?

Abror bu voqeani eslaganda butun borlig'iga bexosdan iliq bir tuyg'u tarqalganini sezdi. Olti yashar Abrorga atab, mahallaga kamtargina osh berishgan, qizil ipak matodan jul yopilgan, peshanasiga chiroyli bezaklar taqilgan jiyron toychoq sovg'a qilishgan edi. Beqasam to'ncha, amirkon



etikcha kiyib yurgan kichkina Abror shu yuvvosh toychoqqa mingan paytida ko'ngli qanchalik o'sganini, o'zining qay darajada baxtiyor sezganini umrbod unutmaydi. Mingminglab yog'och va temir o'yinchoqlar bu tirik toychoqning o'rnini bosolmasligini u o'shanda sezgan edi. Bu toychoqni sotib olish o'sha paytda ammasi va buvisiga qanchalik qiyin bo'lmasin, Abror uchun ular shu qiyinchilikni bo'yinlariga olishgan, uni otga mindirib, ko'nglini o'stirib, aziz bir inson farzandiga aylantirishgan edi. Buning qanchalik katta bir yaxshilik bo'lganini keyinchalik Abror o'zi ham ota bo'lganda tushundi. Uning qalbida kattalarga nisbatan paydo bo'lgan ehtirom, keksalarni astoydil e'zozlash tuyg'usi, oqibatli farzand bo'lishga intilish hissi, mana shunga o'xshash unutilmas yaxshiliklar, odamgarchiliklar tufayli ichki dunyosiga chuqur ildiz otganini va doimiy bir odatga aylanganini u endi astoydil fahmlayapti. Bugun A'zam ota bilan Hanifa xolalar, o'zlari qiyin ahvolda ekanliklariga qaramay, yangi tug'ilgan nevaralariga va uning ota-onalariga nisbatan qilmoqchi bo'lgan odamgarchiliklari va avlodlar orasida mana shunday bir mehr-oqibatni mustahkamlashga qaratilganini Abror endi yurakdan his qildi-yu, otasiga rozilik berdi.

– Bo'lmasa qog'oz-qalam olib kel, o'g'lim. Kerakli mayda-chuydalar ko'p, yozib olmasang esdan chiqadi.

Abror qog'oz-qalam izlab kabinetga kirganda Vazira uning ketidan kirdi. Avzoyidan, Vazira hamma gapni ochiq eshik orqali eshitgan edi, Abrorning ketidan kirdi-yu, eshikni yopib, past tovush bilan so'radi.

– Darrov yon berdingizmi, a?

– U-bu deb ko'rdim, bo'lmadi.

Abror stoli ustida turgan sigaretadan bitta oldi, gugurtni ochdi, lekin yondirishdan o'zini tutdi. Vazira uning kashandaligi qaytalaganidan juda norozi. Abrordan hech bo'lmasa uy ichida chekmaslikka so'z olgan edi.



– Irodangizga nima bo'ldi? – dedi Vazira unga achinganday tikilib. – Qiyin paytda qattiq turmoqchi edingiz-ku. Beliga olmos kamar bog'lagan odam shunaqa bo'ladimi?

– Nima qilibman muncha?

– Ishda hech kimga so'zingizni bermaydigan odam ota-onangizni oldida itoatkor bolaga o'xshab qolasiz.

Abror o'ziga go'yo chetdan qaradi-yu, bir qo'lida bloknot bilan qalam, ikkinchi qo'lida sigareta – o'ziga-o'zi ayanchli ko'rindi. Sigaretani chekkisi keladi, lekin Vaziraning g'ashiga tegmaslik uchun o'zini tiyib turishga majbur. Hozir stol yoniga o'tirib, kattaroq bir ijodiy ish qilgisi keladi. Lekin buning o'rniga beshik to'yining mayda-chuyda rejasi-yu, xarajatlarini yozishga majbur.

– Dilsiyohlik bo'lmasin deyapman-da, Vazira. Uyimizda mehmonga o'xshab turishibdi. Ra'ylariga qarashga majburman.

– Ra'ylariga qarayman deb oyingizni erkalatib, tepangizga chiqarib yuboryapsiz. Mehmonday hurmat qilib yurib-mizmi, endi oyingiz ham mehmonlik izzatini saqlab, tinch o'tirsinlar. Beshik to'yining butun daxmazasini biznikiga kelib qiladilarmi?

– Men shuni tushuntirolmadim. Yuring bo'lmasa, siz tushuntiring.

Vazira hozir qaynonasiga qarshi gapirsa, qirpichoq bo'lib urishib qolishini sezib turardi.

– Mening janjalga toqatim yo'q. Onangizga o'zingiz o'tkazing gapingizni. Qachongacha itoatkor o'g'il bo'lib yurasiz? Eshitganlar nima deydi? Partiya a'zosi, ziyoli odam, beshik to'ylari o'tkazib yurishingiz yaxshimi?

Abror gugurt cho'pini jahl bilan qutisiga urib yondirdi-da, sigaretasini tutatdi.

– Majlisda nutq so'zlayapsizmi, xonim? Beshik to'yini men o'tkazarmidim? Onamlar o'tkazadi. Keksa odamlar mendan yordam so'rasa, yo'q deb, chetga chiqib turaymi? Axir bular g'animat!



– Bizning jonimiz ko'chada qolganmi? Yoz o'tib ketyapti, shaharda qovrilib yotibmiz, biror yakshanba shahardan chiqib dam ololganimiz yo'q!

Abror mashina tuzalsa, shanba-yakshanbada Vazirani olib Chimyonga chiqmoqchi, Yusufxonada bolalardan xabar olgach, Ko'ksuvda cho'milib, ikki kecha o'sha yoqda yotib, hordiq chiqarmoqchi edi. Endi beshik to'yining tashvishi boshlanadigan bo'lsa, bu yaqin shanba-yakshanbalarda ishga borgandan battar charchashlari aniq. Shuni o'ylab, Abrorning ham ta'bi tirriq bo'ldi-yu, lekin endi so'zidan qaytishning ilojini topolmadi.

– Keling, Vazira, bunisiga ham chidab beraylik. Avgustda bolalar bilan birga Xumsonga boramiz... «Beshik to'yi» degan so'z balki eskicha eshitar. Balki, buning yaxshiroq shakli keyin topilar. Lekin... inson tug'ilishi – shunday bir to'yga, xursandchilikka arziydigan voqea emasmi? Tug'ilgan kunni nishonlash – hamma xalqlarda bor odat-ku. Bu bir diniy marosim emas. Bizning o'zimiz ham hamma narsani taroziga solib yomon o'rganganmiz-da. Bo'lmasa, birinchi farzand ko'rgan yosh ota-onaga yordam berish, ularning yana farzand ko'rishga rag'batlantirish – daxmaza emas, juda muhim bir olijanob ish.

– Mening oyim Zafar uchun beshik to'yi qilib bermagan edi. U kishi olijanob emas ekan-da?

– Men unday deyayotganim yo'q. Oyingizning e'tiqodlari boshqacha. U kishi ham o'zlaricha haq bo'lishi mumkin. Lekin oyingiz bizdagi juda ko'p yaxshi odatlarni «eskilik sarqiti» deb, nohaq ayblar edilar. Shu narsa Alibekning tarbiyasiga yomon ta'sir qildi, chamamda. Axiyri, mana, ukan-giz mehr-oqibatni ham «chuchmal bir sentiment» deb rad etadigan bo'ldi.

– Men Alibekni oqlamoqchi emasman. Lekin sizning oyingiz ham bekorchilikdan zerikib, har xil urf-odatlarni ko'paytiryaptilar.



– Yomon urf-odatlardan men ham bezorman, Vazira! Lekin odam odam uchun beg'araz jon koyitib yaxshilik qilishi, birov birovni e'zozlab, ko'nglini olishi... bular butun dunyoda kamyob bo'lib borayotgan fazilatlar emasmi? G'arbiy Yevropaga qilgan safarimizni eslang. Odamlar bir-biriga shunday loqayd! Hamma narsa pul bilan, manfaat bilan o'lchanadi. Birov-birov uchun tekinga jon koyitishi u yoqda tursin, uzatgan oyog'ini yig'gisi kelmaydi. Bizdagiga o'xshab, oddiy bir tanish kelsa ham, dasturxon yozib, quyuq-suyuq qilishlar, doshqozonlarda osh damlab, hatto notanish odamlarga ham tekinga osh berishlarini ular tasavvur qilisholmaydi. Ota-bola, qarindosh-urug' orasidan mehr-oqibat butunlay ko'tarilib ketsa, qanchalik yomon bo'lishini ana o'sha yoqlarga borib ko'ring ekan! Biri biridan yotsiraydi, bordi-keldi qilish yo'q. Har biri o'z chig'anog'iga berkinib olgan. Bizda biron ish chiqsa darrov qo'shni yordamga keladi, to'y-ma'raka bo'lsa, butun mahalla qarashadi, har qanday mushkul ish ham hasharga aylanib, o'yin-kulgi bilan bitib ketadi. Biz ham qarindosh-urug'larga, yor-do'stlarga xabar beramiz. Qarashishar, axir. Qani, yuring. Siz ham maslahatga qatnashing. Irimiga kichikroq qilib o'tkazib yuboramiz. Yuring.

– Men bormayman! – dedi Vazira. U hozir borsa, qaynonasiga qattiqroq gapirib, g'ijillashib qolishi mumkin edi. Buni Abror ham sezdi-yu:

– Bormasangiz mayli, lekin sizdan iltimos, – dedi. – G'urbat bo'lmasin. Bular yana bir-ikki oy turishar, chidab bering!

– Siz ham oyingizga ayting. Biz bekorchi emasmiz. Menga rahmlari kelmasa, sizga rahmlari kelsin!

Abror alamini tamakidan olayotganday, tutunni ustma-ust ichiga tortib, burunlaridan chiqarar ekan:

– Men ikki o't orasida qolyapman-da, Vazira, – dedi. – Siz meni oyimdan ko'ra yaxshiroq tushunasiz. Shuning uchun yana bir marta iltimos qilaman. Kengroq bo'ling, asabiy-lashmang. Bu kunlar ham o'tar.



Abror bloknot bilan qalamni olib sekin chiqib ketdi.

U hozir borib onasiga ham «janjal qilmang, iltimos» deb yalinadiganga o'xshardi. Abror ham, otasiga o'xshab, ayollarning janjalidan juda qo'rqardi. A'zam ota doim dilsiyohlikdan qochib xotiniga yon berardi. Eriga shu tarzda so'zini o'tkazib o'rgangan Hanifa xola bolalarini ham, kelinini ham izmidan chiqarmaslikka intilardi. Abror otasidan ko'ra onasidan ko'proq hayiqar, bu unga ona suti bilan birga kirgan odatdek uncha sezilmas, lekin Vaziraga juda erish ko'rinardi. Uning nazarida, Abror goh oyisiga moslashib, xushomad qilayotganday, goh Vaziraga moslashib, uni tinchitishga intilayotganday nosamimiy ko'rinardi.

Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Abror bloknoti orasiga avtoruchkasini solib, xomush ahvolda qaytib kirdi. Avzoyiga qaraganda, onasi bir talay ishni uning zimmasiga yuklagan. Lekin Abror buni xotiniga aytsa, yana asabiy gaplar qo'zg'alishi mumkinligini o'ylab, hammasini ichiga yutdi. Kechasi esa Vaziraning onasidan gap ochdi:

– Ertaga mashinani olsam, kechqurun oyingizni ko'rgani boraylikmi?

– Beshik to'yidan vaqtingiz ortadimi axir?

– Orttiramiz-da, siz bilan oyingiz uchun.

Olcharang «Jiguli»ning kam-u ko'stlari to'g'rilangan, orqa chiroqlari va qanoti yangidan qo'yilgan edi. Faqat usta yangi qanotni bo'yashga ulgurmagan ekan. Zanglaganga o'xshash qizg'ish qanotning u yer-bu yeriga «shpaklyovka» deb ataladigan sariq narsa surib qo'yilgan ekan. Abror bo'yatishni shanba kuniga qoldirib, mashinani shu ahvolda minib chiqdi.

* * *

Kasalxonaning o'ngib ketgan yo'l-yo'l xalati Zumrad Sodiqovnaga kattalik qilib, yelka va etaklari osilibroq turibdi. U bir oydan beri shu yerda yotib, ancha et tashlagan.



Ko'zdan burunga suv o'tadigan yo'lni ochish uchun qilingan operatsiya uni qattiq qiynaganini Abror bilan Vazira yaxshi biladi. O'tgan hafta operatsiya bo'lgan kuni ular uch soat hovlida kutib o'tirishdi. Ingichka, novcha jarroh operatsiyadan horib, oyog'i kalovlanganday bo'lib chiqdi. Aksiga olib, burun suyagini parmalaydigan elektr asbob buzilib qolgan, jarroh hammasini qo'lida qilgan, og'riqdan Zumrad Sodiqovnaning ko'ngli ozib, hushidan ketgan, ukollar bilan uni o'ziga keltirib, operatsiyani bir amallab tugatishgan edi.

Operatsiyadan keyin kasal ko'zga qon quyulib, qizarib ketgan, yuzining bir tomoni burun aralash shishib do'ppaygan edi.

Abror qaynonasining yuziga qarab, shishning hali borligini, ko'zi ham yoshlanib turganini ko'rdi. Daraxt soyasidagi skameykada birpas gaplashib o'tirganlaridan so'ng Abror vrach bilan gaplashish uchun ichkariga kirdi.

– Yuzlaridagi shish qaytsin, keyin uyga olib ketasizlar, – dedi operatsiya qilgan jarroh.

– Ko'zlaridagi pardani qachon olasizlar?

– Ketma-ket ikkita operatsiyani ko'tarishlari qiyin. Keksada odam-da.

Zumrad Sodiqovnaning o'zi ham kasalxonadan juda to'ygan, tezroq kelinining oldiga qaytishni istardi.

– Alibekdan xabar yo'qmi? – so'radi Vazira.

– Bitta xat keldi. Novosibirskdan naridagi o'rmonzorga borib tushibdi. Chivini yomon emish. Sapyorlar batalyoniga olishganmish. Bolam bechoraga qiyin bo'ldi-da. Esimga tushsa kechalari uyqum qochib ketadi.

– Sapyor bo'lsa juda o'rnini topibdi, – dedi Abror. – Xavotirlanmang, endi ko'zi ochiladi.

– Kim biladi, Abrorjon. Alik juda mo'rt-da. Biron kor-hol bo'lmasin deb qo'rqaman.

– Mo'rt emas, devday yigit, – dedi Vazira ham oyisini tinchitishga harakat qilib. Bozordan olishgan uzumni, shaftolini, sedanali nonlarni oyisining palatasiga kiritib berdi.



Ikki-uch kunda yana xabar oladigan bo'lib xayrlashib chiqishdi.

Vaziraning ko'ngli xiyla joyiga tushganini sezgan Abror yo'lda mashinani haydab kelayotib:

– Chorsuda univermagga kirib o'tamizmi? – dedi.

– Nima olmoqchisiz?

– He, o'sha beshik to'yiga u-bu kerak ekan. Kuyovga bitta durustroq tufli. Risolatga bir kiyim velyur.

– Sizning zimmangizga tushgani shumi?

– Ha, siz-u bizdan sovg'a shu. Kostyum bilan kolyaskani Shokir oladigan bo'ldi. Qolgan narsalarini boshqa qarindoshlar qilsa kerak.

Abror bu gapni kecha yashirib yurib, bugun Vaziraning onasini borib ko'rganlaridan so'ng aytayotganida qandaydir, «mendan bugina, sizdan ugina», maqolini eslatuvchi ma'no borday tuyulardi.

Chorsuga borgunlaricha Vazira indamay sukut saqladi. Kech kirib qolgan bo'lsa ham GUM hali ochiq edi. Er-xotin qavatdan-qavatga o'tishib, tufli bilan velyur qidirishdi.

Sovg'aga olsa bo'ladigan ko'rimli tuflilarning qirq to'rtinchi, qirq beshinchilari bor. Abrorlarning kuyovi esa o'ttiz to'qqizinchi kiyar edi. Bunaqa kichik tuflilarning yaxshisi juda kam bo'lishini Abror endi bildi.

Abror ertasi kuni tushki tanaffusda markazdagi magazinlarga kirib chiqdi. Kechqurun ishdan keyin Chilonzordagi yarmarka-yu, Savdo markaziga bordi. U qidirgan tagi charm Chexoslovakiya tuflisi Shota Rustaveli ko'chasidagi nikohlanuvchilar magazinida bor ekan. Biroq bu magazin faqat nikoh uyining taklifnomasini ko'rsatgan kuyov-ke-linlargagina mol sotar ekan. Abror magazinga kirayotgan yoshgina yuvoshgina bir kuyov boladan iltimos qilib, o'sha yaltiroq qora tuflining o'ttiz to'qqizinchisidan oldi.

Lekin velyurni hech qayerdan topolmadi. Abrorning mashinada to'rt tomonga chopib ovora bo'layotganini ko'rgan Vazira:



– Qidirmang, hozir velyur topolmaysiz, – dedi.

– Bo‘lmasa nima qilamiz? Qo‘lda ikki barobar qimmat emish.

– Men topib beraman, – dedi Vazira va komodning qulflanadigan tabaqasini ochdi-yu, nafis och qizil rangli go‘zal matoni oldi: – O‘zim uchun Moskvadan olgan edim. Mana!..

Abror xotinidan minnatdor bo‘lib, u yuzidan, bu yuzidan o‘pdi-da:

– Keyin o‘zim sizga bundan yaxshirog‘ini olib beraman, – dedi.

Shanba kuni ertalabdan Abror otasini Eski Jo‘vaga olib bordi. A‘zam ota bozorning orqasidagi do‘konda kamalak rangiga bo‘yalgan bitta yaxshi beshik tanladi. O‘sha joydan sumak bilan tuvak ham topildi. Ungacha Abror bozor qildi. Maslahatga to‘planadigan qarindoshlarini kutish uchun kerak bo‘ladigan masalliqni olib chiqdi.

Bu orada Vazira uylarni yig‘ishtirib, pollarni yuvib, ertaga keladigan mehmonlar uchun dasturxonni bezaydigan narsalarni tayyorlab qo‘ydi.

Hanifa xola Shokirga buyurib, odamni ko‘p ayttingan ekan. Abrorlarnikiga uch-to‘rt yilda bir keladigan amma-xolalar, tog‘a va tog‘avachchalar to‘planishib, bir uyga sig‘may ketishdi. Ayollar xontaxta qo‘yilgan xonada ko‘rpachalar ustida, erkaklar mehmonxonadagi stol atrofida kechgacha hangomalashib o‘tirishdi.

Kun issiqligi ustiga hamma komforkalari tinimsiz yoqilayotgan gazning tafti qo‘shilib, Vazira qizarib, bo‘g‘riqib ketgan. Oshxonadan mehmonlar o‘tirgan xonaga hali choy tashiydi, hali mastava, hali meva. Erkaklar o‘tirgan xonaga Shokir va Abror kerakli narsalarni olib borib turishibdi. Lekin ayollarga nuqul Vaziraning o‘zi qaradi. Qarindosh juvonlardan bir-ikkitasi o‘rnidan turib, Vaziraga yordamlashmoqchi bo‘lgan edi, orqasiga yostiq qo‘yib, savlat to‘kib o‘tirgan Hanifa xola:

– O‘tir, tasaddiq, damingni ol, mehmonsan, – deb qo‘ymadi.



U katta o'g'lining uyida qanchalik izzat-ikrom bilan yashashini qarindoshlarga ko'z-ko'z qilgisi kelar, goh Abrorga, goh Vaziraga ish buyurardi:

– Hoy, kelin, hind choyidan damladingizmi?.. Sadag'asi ketay, mastavaning go'shti uncha pishmabdi-da. Qayla qilsangiz bo'lar ekan-da, tasaddiq!

– Bu gal shoshilib qoldim. Kelgusi safar qaylasini o'zingiz qilib berasiz, ayajon.

– Sizga ham qayla qilishni o'rgatgan edim, tasaddiq. Endi oshga ehtiyot bo'ling-a. Guruchingiz suv ko'tarmaydi. Lanj bo'lib qolmasin tag'in.

Shu payt yo'lakda Abror ko'rindi.

– Hoy, bolam... beriroq kel. Muncha qizarib ketding?

– Endi... Issiq-da... Yaxshi o'tiribsizlarmi, amma-xolalar?

Hanifa xola Abrorni tergab:

– Ichkilik ham qildilaringmi, a? – dedi.

– Ha, endi... ko'pdan beri ko'rishmagan qarindoshlar... Chaqaloqqa umr tilab qittay-qittay olishdi.

– Lekin o'zing ichmagin, bolam. Hali mana bu katta xolang bilan ammingni mashinangda olib borib qo'yasan.


– Voy, qo'ying, o'zimiz ketamiz, – dedi kekxa ayollardan biri.

– Issiqda halpillab yurasizmi? Abrorjon birpasda olib borib qo'yadi. Duoingizni oladi!

– Mayli, xo'p, – dedi Abror yerga qarab.

Osh tortildi, ustidan qovun-tarvuz yeyildi. Yana choy ichildi.

Maslahat bo'yicha, qarindoshlardan biri kelgusi yakshanbaga usti ochiq yuk mashinasi topib keladigan bo'ldi. Birov karavotcha, birov «Raketa» degan pedalli mashinacha (bola uni faqat uch-to'rt yoshga kirganda minishi mumkin), birov kattakon yog'och ot olib keladigan bo'ldi. Buning hammasi yasatilgan beshik bilan birga yuk mashinasining ustiga qo'yib olib boriladi. Amakivachchalardan birining «Moskvich» mashinasi bor edi. Abrorning «Jiguli»si bilan bu «Moskvich»ga savlatliroq ayollar minadigan, qiz-juvon-



lar esa yuk mashinasining ustiga gilam to'shab o'tirishadigan bo'lishdi.

Gap shunga qaror topgandan keyin mehmonlar qo'zg'alishdi. Keksaroq ayollarni kuzatib pastga tushgan Hanifa xola Abrorga:

– Qani, mashinangni olib kel, bolam, – dedi.

Abror nihoyatda charchagan, buning ustiga, ozroq ichgan edi. Vazira ko'pchilikning orasida unga, bormang, deyishning ilojini topolmadi. Abror keksa ayollardan to'rttasini mashinasiga solib, markaz orqali Ko'kcha tomonga olib ketdi.

U hayallagan sari Vazira xavotirlanardi. Dasturxonni yig'ishtirib olayotganlarida Vazira Hanifa xolaga qarab:

– Ayajon, o'g'lingizni bekor yubordingiz-da, – dedi. – O'zlari yaqinda avariya qilib, mashinani endi tuzatgan edilar.

– Hechqisi yo'q. Qaytaga ayagan ko'zga cho'p tushadi. Mashoyixlar, «tashlaganga tosh tegmas», degan.

«Ona ham shunchalik beshafqat bo'ladimi?! – dedi Vazira o'zicha. – Hech achinmaydi-ya. Nega bunday? Yo uyda bekor o'tirgani uchun Abrorning ishi qanchalik qiyinligini tasavvur qilolmaydimi? «O'g'lim obro'li arxitektor», deb maqtanadi-yu, yana shu o'g'lini yugurdakka aylantirib beobro' qiladi. Tavba!»

Vazira janjal bo'lmasin deb, qaynonasiga ochiq aytolmaydigan bunday noroziliklar qalbida kun sayin ko'payib bormoqda edi.

Xayriyat, o'sha oqshom Abror beshikast qaytdi.

– Ichib haydadingiz-a! – dedi unga Vazira. – Qo'llariga uch so'm berib taksiga solib yubora qolsangiz bo'lmasmidi?

– O'zim ham ignaning uchida o'tirganday bo'lib borib keldim-da, – dedi Abror. – Yo'q deyishdan andisha qildim.

– Oyingiz andishani bilmaydilar-ku. Biroz o'rgansangiz bo'lmaydimi?

Abror indamay sigareta tutatdi-da, balkonga chiqdi. Kech soat o'nlar bo'lganda kirib yotib oldi. Lekin ichib



mashina haydaganda xavotirlik tuyg'usidan asablari nihoyatda tarang bo'lib ketgani uchunmi, soat uchlargacha uxlay olmadi. Bir necha marta balkonga chiqib, sigareta chekdi, vannaxonaga kirib dush oldi.

U har o'rnidan turganda Vazira ham uyg'onardi. Sahar palla Abror tinchib uyquga ketganda Vaziraning ko'zi ilingan ekan. Hanifa xola yo'lakdan kavushini tapillatib o'tib, uyg'otib yubordi.

Vazira qaynonasiga tagi yumshoq shippak olib bergan, lekin Hanifa xola charm kavushini qo'ymas edi. O'zi kunduz hech kim yo'qligida uyquni pishirib olar, keyin saharlab turib, vannada bor narsalarni taqirlatib yuvinar, tahorat qilar, eshiklarni ham qattiq ochib yopar, bu hammasi Vaziraning asabiga tegib, uyqusini o'chirib yuborardi.

Vaziraning o'zi esa qaynona-qaynotasining hurmatini qilib, ular kelgandan beri uyda lozim kiyib yurar, Abror bilan qattiqroq so'zlashmoqchi bo'lsa, eshiklarni bekitib, ovozi iloji boricha pasaytirib gapirardi. Keling odob saqlab, tortinib-qimtingani sari Hanifa xola o'zini qo'yib berardi:

– Abror, tur, ishga ketmasingdan bozorga tushib chiq, bolam! Qazining yaxshirog'ini salqinda sotishadi. Beshik to'yiga norin qilib boramiz.

A'zam ota ichkaridan ovozi pasaytirib xotini urishdi:

– E, norining boshingdan qolsin! Jim bo'l, bola sal damini olsin! Kecha uni kirakash shofyorga o'xshatib yugurtirding. Insofing bormi? Tuni bilan uxlayolmay chiqdi. Hali yana ishga boradi. Senga o'xshagan bekorchixo'jami?

Odatda o'zini bosiq-vazmin tutadigan A'zam ota bir ach-chig'lansa, juda yomon bo'lishini Hanifa xola biladi. Shuning uchun:

– Muncha bobillamasangiz... xo'p, mana, uyg'otmayman! – dedi-da, xonasiga qaytib kirdi.

Lekin uning shang'illab gapirishlaridan Abror allaqachon uyg'onib ketgan edi. U o'rnidan boshi og'rib, og'zi ta-



xir bo'lib turdi. Odatda, nonushtagacha chekmas edi, hozir beshik to'yiga bog'liq tashvishlar esiga tushib, diqqati oshdi-da, balkonga chiqib, sigareta tutatdi.

Bozordan ellik-oltmish kishilik oshning xomini olish, shahardan tashqaridagi qo'yni so'yib, go'shtini bu yerga keltirish, uning nimtasini guruch, sabzi-piyozlar bilan birga Risolatnikiga jo'natish, yana uch-to'rt tog'orani somsa, norin, bo'g'irsoqlarga to'ldirib, yoniga bozordan dasta-dasta non, patir, shirmoy olib qo'shish... Abror har kuni necha martalab bozorga, magazinga borib, kerakli narsalarni mashinasida tashib kelardi. Kunduzi ishda bo'lgan kunlari bozorni azonlab, ishdan oldingi soatlarda qilar, magazinlarga esa ishdan keyin odam tirband paytida kirib, uzun navbatlarda turib, un, yog', boshqa mayda-chuydalar olardi.

Kunlar issiq, Abror ko'chadan kuyib kelib, sovutkichdan sovuq narsalarni olib ichadi. Tomog'i shamollagani tamaki chekishi ustiga qo'shilib, nuqul yo'taladi. Kechqurunlar:

- Tomog'im qirilganday bo'lyapti, - deb issiq sut ichib yotadi.

Lekin kunduz kunlari yana yugur-yugur, yana terlab sovuq narsalar ichish, ustma-ust chekish davom etadi.

Vazira ishga borganda sal osuda o'tirar, uyda esa allama-halgacha qatlama-bo'g'irsoq pishirardi. Hanifa xola xamir yoyishda unga biroz qarashadi-da, keyin o'z xonasiga kirib, beshik bilan andarmon bo'ladi.

U ichiga xushbo'y ambar solingan uchburchak tumorcha tikib, unga ikkita ko'zmunchoqni qadadi-da, beshikning tepasiga osib qo'ydi. Gavrapo'shning yozligini parchadan, qishligini qizil baxmaldan tikib astariga mayin chit qildi. Bolaning tagiga to'shaladigan qovuzloqni qadimgi odatga binoan tariq bilan to'ldirib tikdi. Paxta solib tiksa, bir-ikki oy o'tmay qotib ketadi, ho'l bo'lsa, qurishi qiyin. Oqlanmagan tariq esa mayin bo'ladi, doim bir zaylda turadi. Bir tomoni ho'l bo'lsa, qurug'i yuqori tomoniga, ho'li past tomoniga o'tadi-yu, tez quriydi. Hanifa xola hamma bolalarini mana shunaqa qovuzloqda yotqizib katta qilgan.



Lekin hozirgi bolalar beshikda yotmasligi yomon. Uning fikricha, beshik ko'rmagan, chaqaloqligida qulog'iga surnayning tovushi kirmagan bola beboosh bo'ladi. Aytmoqchi, abrorlar surnaychi qidirishayotgan edi, topdimikan?

– Hoy, dadasi, surnaychi nima bo'ldi?

– E, surnayching boshingdan qolsin! Abror bilan bir emas, ikkitasining uyiga bordik, yo'q. To'yga ketganmish. Axiyri bittasini to'ydan topdik. O'n kungacha bo'shamayman deydi. Har kuni ikki-uch joyda chaladigan bo'lib, zakalagini olib qo'ygan emish. Ilgari qo'sh surnayli to'y juda kamdan-kam bo'lar edi. Hozir qo'sh surnay, qo'sh karnay qilib, qo'sh nog'ora ham chaldiradigan bo'lishipti. To'qlikka sho'xlik deb shuni aytisa kerak-da.

– Odamlar qo'sha-qo'sha qilganda, siz bitta surnayga ham yaramaysizmi endi? – dedi Hanifa xola.

– O'pkasini qo'ltiqlagan odamlarga tenglashib bo'ladi-mi? Surnaychidan, «Beshik to'yga necha pul olyapsiz?» deb so'rasam, «sakson so'm», deydi. Bir soat borguncha chalsa, besh-o'n daqiqa bu yerda, besh-o'n daqiqa u yerda – hammasi bo'lib ikki soatga borar-bormas ishi uchun sakson so'm. Buncha pul uchun bir oy ishlaydigan odamlar bor-a!

Hanifa xola yasatig'liq beshik yoniga surnaychini o'tqazib, butun shahar bo'ylab «alla bolam» kuyini chaldirib o'tishni qachonlardan beri orzu qilib yurar edi.

– Abror, sen ham pulidan qochyapsanmi, a? Unday bo'lsa, pulni men katta kuyovdan so'rab olib beraymi?

– Topib olgan gapingiz «katta kuyov!» – dedi Abror. – Gap pulidami? Keraksiz narsa?

– Yo'q, kerak! Surnay bo'lmasa, men beshik to'yi qilmayman. Tamom!

Vazira Abrorning qattiq turib, «qilmasangiz qilmang!» deyishini kutdi. Lekin Abror uh tortdi-yu, sigareta tutatdi. Uning yana yon bermoqchiligini sezgan Vazira:

– Ayajon, bitta arzimagan surnay uchun bularni shuncha yugurtirganimiz ham yetar, – dedi. – Otam ham, o'g'lin-



giz ham juda qiynalib ketishdi. Sal rahmingiz kelsin, endi! Abror akam shamollaganlar, yo'talib yuribdilar.

– Qiynalib nimasiga qiynaladi? Tagida mashinasi bor! Biz, mana, eringizni kaftimizda ko'tarib katta qilganmiz. Ana uni qiynalish desa bo'lardi! Bir parcha etni odam qilguncha ne-ne azoblarni tortganman!

– Biz ham bola o'stiraypmiz-ku, ayajon! Sizlardan olgan qarzimizni o'zlaringizga uzolmasak, bolalarimizga uzamiz.

– Voy, menga minnat qilganingizmi bu, kelinposhsha? «Uyimda sig'indi bo'lib turibsan, izzatingni bil!» demoqchimisiz?!

Abror onasining ko'zlari chaqchayib ketganini ko'rdi-yu, hozir janjal boshlashini sezdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Oyi, shoshmang, oyi! – dedi. – Sizga hech kim minnat qilgani yo'q. Siz bu yerda sig'indi emassiz, o'z uyingizda turibsiz.

– Xotiningni gapini qara! Bu kishi endi senga mendan mehribonroq bo'lib qolibdilar-da, ob-bo!

Vazira indamay orqasiga burilib, oshxonaga qaytib ketdi. Abrorning:

– Oyi, xafachilikni qo'ying, surnay bo'lsa, mayli, topamiz, adam bilan hozir yana bittasining uyiga boramiz, bo'ptimi? – degani Vaziraga eshitilib turardi.

Abror otasini mashinaga solib chiqib ketdi-yu, kech soat o'nlarda qaytib keldi.

– Oyi, bo'ldi, bittasini sakson so'mga gaplashib keldik.

Shu bilan ko'ngli joyiga tushgan Hanifa xola beshikning ustiga baxmal gavrapo'shni yopib ko'rib, kam-u ko'stlarini tuzatishda davom etdi.

Vazira hamon oshxonada bo'g'irsoq qovurmoqda edi. Kuni bilan terlab-pishib mashina haydagan Abror vannaxonaga kirib dush oldi-da, maykachan Vaziraning oldiga chiqdi. Uzoq yo'talgach:

– Uf-f! – dedi. – Tomoq qirilyapti.

Vaziradan sado chiqmadi. Uning qovog'i osiqligini ko'rgan Abror:



– Keling, endi siz ham meni qiynamay qo'ya qoling, – dedi.

– Ona-bola meni qiynasalarining maylimi?

– Qiynab nima qilibmiz?

Qozondagi bo'g'irsoqlar yog' ichida bijillab qovrilmoqda edi. Vazira ularning qizarib pishganlarini kafgir bilan olib sirlangan tog'oraga solar ekan:

– Oyingizning shuncha ishlarini qilyapman, – dedi. – Rahmat deyish o'rniga nuqul kinoya, zarda eshitaman. Nima, men bu uyda cho'ri bo'lib yuribmanmi?

Abror oyisining boyagi gaplari Vaziraga qanchalik og'ir tekkanini endi sezdi.

– Lekin men sizdan minnatdorman, Vazira, shu o'zi yetarli emasmi?

Vaziraning nazarida, Abror yana unga moslashayotganday, xushomad qilayotganday tuyuldi.

– Siz avval o'zingizga munosib bo'ling! Oyingiz balanddan kelsa, u kishiga borib posangi bo'lasiz. Men norozi bo'lsam, menga kelib posangi bo'lasiz!

– Lekin posangi bo'lish ham juda jonimga tegdi-da!

– Menga posangi kerak emas, tushundingizmi? Oyingiz sizni posangiga aylantirayotganidan mening xo'rligim kela-di, bilasizmi shuni?!

Abrorning og'zi quruqshab ketdi. Yo'tala-yo'tala qirmizi choynakni qo'liga olib, tagida qolgan choyni piyolaga quydi.

– Hammasini tushunaman, Vazira. Oyimning fe'lini o'zgartirib bo'lmaydi. Murosa qilishdan boshqa iloj yo'q.

– Murosa qilaman deb, hamma xarxashalariga yon beryapsiz. Adolatsizlik qilsalar ham taraflarini olasiz! Kun sayin orqaga ketyapsiz!

– Ishqilib, qiyin kunga qoldim-da, – dedi Abror. – Oyimga yoqsam, sizga yomon ko'rinaman. Sizga yoqsam, u kishiga yoqmayman. Onasi bilan xotinini barobar quvontiroladigan baxtiyorlar qanaqa bo'larkan?

– Nahotki men sizning oyingizga o'xshab tantiqlik qilayotgan bo'lsam?



Onasiga nisbatan kinoya bilan aytilgan «tantiqlik» so'zi Abrorning qulog'ini tirnab o'tganday bo'ldi. U sovuq choydan bir ho'plab, piyolani qaytib qo'yayotganda qo'li qaltirayotganini ko'rdi. Yana o'zini bosishga tirishib, oshxona-ning eshigini zichlab yopdi.

– Qo'ying, shu mashmashani bas qilaylik, – dedi.

Lekin Vazira shuncha kundan beri qaynonasiga ayto olmay ichiga yutib yurgan gaplarini Abrorga aytib, ko'nglini bo'shatgisi kelardi:

– Hamma mashmasha oyingizdan chiqyapti. «Qo'ying», deb u kishiga ayting! Mening oyim Alibekning tantiqliklarini kechirib yurib, oxiri nima bo'ldi? Buning Alibekka ham zarari tekkanini o'zingiz ko'rdingiz-ku! Nima talab qilsa «xo'p»! Aytganini qilgan sari minnatdorchilik o'rniga xudbinlik! Yon bergani sari tepasiga chiqadi, rahm-shafqatni unutadi. Oyingiz ham sizga shunday qilmayaptilarmi? U kishini «pu-pu»lab erkalatganimiz uchun ikkovimizning ham qadrimizni yerga urmayaptilarmi? Alibekka shunday talabchan bo'lgan odam nega oyingizga bunchalik bo'shlik qilyapsiz?

Vaziraning bu gaplari butunlay nohaq bo'lganda Abrorga uncha qattiq botmas edi. Abror onasining erkalikdan chiqib kelgan shafqatsizligi Alybekni eslatishi mumkinligini endi sezganday bo'ldi. Ammo kayvoni onasini o'sha takasaltang qaynisiga teng ko'rish unga haqoratday tuyuldi.

– Sizga bir gap bo'lipti! – dedi Vaziraga ko'zini chaqchaytirib qararkan. – Menday to'rtta bolani o'stirib katta qilgan kayvoni nahotki sizning o'sha olifta ukangizga o'xshasa?

– «Beshik to'yiga mana shuncha narsa qilyapman», deb xo'jako'rsinga kerilish – oliftachilikka kirmaydimi?

– Bekor gap! Siz keksalarning orzu-havasini...

– Alibekning soqol qo'yib, tirnoq o'stirishlari ham orzu-havas emasmi.

Abror gap topolmay qoldi-yu, titrayotgan qo'lini sovuq choynakning ustiga qo'ydi.



– O‘zim qiynalib yurgan paytimda siz ham dard ustiga chipqon bo‘lyapsiz-da, lekin!..

– Kim chipqon?!

– E, gaplaringiz chipqondan battar achchiq!

– Chipqon deb oyingizni ayting! O‘sha kishi tur-mushimizni zaharga aylantiryapti!


– E, sen o‘zing zaharsan!! – deb Abror qirmizi choynakni g‘azab bilan changallab, Vaziraga qarab otmoqchi bo‘ldi-yu, lekin so‘nggi lahzada uni yerga qarsillatib urdi. Choynak chilparchin bo‘lib, ichidagi shamalari otilib ketdi. Abror-ning rangi oqarib, ko‘karib, qo‘rqinchli tusga kirdi.

Vazira choynakning siniqlarini oyog‘i bilan bir chetga tepib tashlab:

– Berdim shu uyni sizlarga! – dedi-da, fartugini yechib, deraza tokchasiga otdi. Gazni o‘chirdi. Boshqa hamma narsani shu ahvolda qoldirdi-yu, ichkari xonaga kirib, kiyimlarini almashtirdi. Sumkasiga kerakli narsalarini soldi. Endi uning ertaga bo‘ladigan beshik to‘yiga qatnashmasligi aniq edi. «Sovg‘asidan qochdi», deb o‘ylamasliklari uchun eriga ko‘rsatgan velyurni komoddan oldi-da, stol ustiga qo‘ydi. So‘ng ko‘cha eshigiga yo‘naldi.

Abror havo yetishmayotganday, bo‘g‘ilib balkonga chiqqan edi. Kuni bo‘yi yurib charchagan A‘zam ota yotib qolgan. Shokir uyda yo‘q edi.

Hanifa xola esa beshikni yasatishga berilib, oshxonada nima hodisa bo‘lganini payqamay qoldi. Hozir u o‘z ishiga mahliyo bo‘lganday, beshikka zavqlanib tikildi. Hammasi ko‘ngildagidek. Ertaga mahallaning dasturxonchisini bir kunga yollaydi. Ikkita yengil mashinaga Hanifa xola boshliq kayvonilar o‘tirishadi. Yosh-yalanglar, dasturxonchi va surnaychilar beshik va sovg‘a-salomlar bilan birga usti ochiq katta mashinaga chiqishadi. Keyin uch mashina ketma-ket signalini dudutlatib, surnayni yangratib shahar bo‘ylab o‘tadi. Hanifa xola buning hammasini qachondan beri o‘ylab, rejasini ko‘nglida pishirib yuribdi.



Beshik to'yiga erkaklar qatnashmaydi. Abror mashinasiga onasini, opasini, xotinini va ammasini solib olib borib qo'yadi-da, qaytib ketadi. So'ng kech bo'lganda kelib, yana ularni mashinasida olib ketadi. Surnaychi ham ichkariga kirmaydi. Xotinlar Risolatnikiga kirib joylashguncha surnay uydan tashqarida chalib turiladi. Dasturxonchi ayol cho'g'day yasatilgan beshikni boshiga qo'yib, «alla bolam, alla-yo» deb alla aytib, bola yotgan uyga yo'naladi. Tashqarida surnay yangrab turadi. Mashinadan hamma sovg'a-salomlar, yeguliklar tushirib olinadi. Shuncha narsa olib kelgan Hanifa xolani cheksiz izzat-ikrom bilan kutib olishadi, boshlariga ko'targuday bo'lib ziyofat qilishadi. U ertaga qanchalik katta obro' bilan qudasinikiga kirib borishini ko'z oldiga keltirganda o'zini baxtiyor sezadi...

Hamon hovuri bosilmayotgan Abror balkonda turib ketma-ket sigareta tutatadi. Vazira esa tungi shahar bo'ylab, onasining kvartirasiga – kelinlari Nasibaning oldiga ketib borardi.

O'N BIRINCHI BOB

Yer ostidagi metro bekatiga tushib boradigan marmar zinapoya loyihasi Vaziraning ish stoli ustida ochiq turibdi. U logarifmli chizg'ichni qo'lga olib, qoramtir zinapoya o'rtasidan havorang poyandozga o'xshab ketadigan marmar zinalar sahni qancha kvadrat metr bo'lishini aniqroq hisoblashga ikkinchi marta urinib ko'rdi. Xayoli parishon, ko'ngli g'ash bo'lgani uchunmi, hisob yana noto'g'ri chiqdi. Yo loyihada biron xatolik bormi? Vazira hammasini boshqatdan sinchiklab ko'rib chiqayotgan edi, stol chetidagi telefon jiringlab qoldi. «Abrormikin?» degan o'y singan choynakni va oraga tushgan dilsiyohlikni eslatib, vujudini yana bir qattiq zirqiratdi. U telefonga ozorlanib ko'z tashladi-yu, go'shakni olgisi kelmadi.

Abrorning ko'zlari g'azabdan chaqchayib: «O'zing zaharsan!» degandagi payti Vaziraning xayolidan nari



ketmasdi. O'sha topda Abror juda ham onasi Hanifa xolaga o'xshab ketgan edi. «Ona-bola ikkovi bir!» degan fikr Vaziraga erini behad xunuk ko'rsatar va nafratini qo'zg'ardi.

Shu bilan birga, dilini timdalayotgan alam tuyg'usi Abrorning telefon qilibmi, kelibmi, uzr so'rashi va aybiga iqrar bo'lishi bilan tarqab ketadiganday bo'lardi. Vazira o'zi tan olmagan holda, Abrorning qo'ng'irog'ini kutmoqda edi.

Telefon yana ikki qayta jiringlagandan keyin Vazira go'shakni oldi-da, noxush ovoz bilan:

– Allo! – dedi.

– Vazira Badalovna, men Komissarovman, – deb qoldi metropoliten qurilishi bilan shug'ullanadigan tanish injener. – Zinapoya masalasi hal bo'ldimi-yo'qmi? Smetachilar ishni chigallashtiryapti. Loyihada gabbro⁸ ko'payib ketganmish.

– Men ham shu fikrdaman. Gabbroning qanchalik qimmatligini o'zingiz bilasiz.

– Osh tagiga ipak gilamni poyandoz qilib to'shaganimizda ham bundan arzonroq tushadi. Bu ketishda pul yetkazib bo'ladimi?

– Lekin granit poyandoz yuz yillarga ketishini ham o'ylang-da, Aleksey Gerasimovich, – dedi Vazira. – Sevasoyning gabbrosi bilan Nurotaning ko'k marmari bir-biriga juda yarashib tushishini bizga aytishgan edi Moskvadagi mutaxassislar ham.

– Bo'lmasa zinapoyani torroq qilib loyihalash kerak. Gabbro kamroq ketadigan bo'lsin.

– Bundan ensiz qilinsa, bachkana bo'lib qoladi. Keng yo'lakka to'shab qo'yilgan torgina poyandozni tasavvur qiling. Kiyevda yangi qurilgan qaysi bir madaniyat saroyining zinapoyasiga oq marmar bilan gabbro qo'shib ishlatilgan ekan. Menda fotografiyasi bor. Ularda mutanosiblik yaxshi. Bizda undan yomon bo'lmasligi kerak.

⁸ Gabbro – qora granit.



– Xullas, Vazira Badalovna, loyihada sizlar ko'rsatgan gabbro smetaga sig'mayapti. Boshqa biron materialdan tejash hisobiga bo'lsa ham sig'dirish kerak.

– Men hozir shuning harakatidaman, Aleksey Gerasimovich.

– Menga ikki kunda javobini aytmasangiz, ishimiz to'xtab qoladi.

– Aytaman. Indin men o'zim sizga telefon qilaman, Aleksey Gerasimovich.

Vazira go'shakni qo'ygach, kaftini chakkasiga tirab, stoli ustidagi zinapoya loyihasiga tikildi. Gabbrodan tejashni o'ylab, uning sathini o'lchab o'tirish endi keraksizdek tuyuldi. Marmarni ham tejab bo'lmaydi. Nima qilish kerak? Boshiga yangi bir fikr kelishini kutib, qo'lini chakkasiga qo'yib o'tirganida yana Abror va kecha yakshanba kuni o'tishi kerak bo'lgan beshik to'yi esiga tushdi.

Eri va qaynonasiga achchiq qilib indamay chiqib ketgani, bitta-yu bitta kelinlari bo'la turib, beshik to'yiga bormagani uylariga to'plangan qarindosh-urug'larni qanchalik hayratga solganikin? «Vazira nega yo'q? Voy, nega ketib qoldi?» degan savollar Abrorni ham, uning ota-onasini ham qanchalik o'ng'aysizlantirganikin? Hanifa xola: «Shuncha orzu-havas bilan tayyorlagan beshik to'yimni buzdi kelinim, burnimdan chiqardi!» deb dod solmayotganmikin?

Vazira shuni o'ylaganda, shanba kuni yuz bergan dilsiyohlik ko'ziga tubsiz bir jardek ko'rina boshladi: bu jar uni eridan, qaynona-qaynotasidan umrbod ajratib qo'yishi mumkindek tuyulardi. Abrorning bir necha marta: «Kengroq bo'ling, mashmashani qo'yaylik» deb uni murosaga chaqirgani yodiga tushardi-yu, «O'zim ham qattiq ketdimmi?» derdi. Lekin hammasini qayta boshdan eslab: «Qanchasiga chidadim, pichoq borib suyakka tekkandan keyin har kim ham dod deb yuborsa kerak», deb o'zini oqlardi.

Ilgarilari Vazira uydan arazlab chiqib ketsa, bir kun o'tar-o'tmas Abror xavotirga tushib, ketidan izlashga



tushardi. Bugun ikkinchi kun o'tyapti, «Xotinim nima bo'ldi, o'zini bir narsa qilib qo'ymadimi?» deb, hatto telefon ham qilmayapti. Onasi «To'yimni ataydan buzib ketdi», deb Vazirani yomonlayverib, Abrorni ham ishontirganmi?

Endi nima qilish kerak? Bolalar ham yo'q. Vazira ularni eslaganda yuragi sog'inchdan ezildi-yu, telefon go'shagini oldi. U Malikalarning ikki kundan keyin lagerdan qaytishlarini aniq eshitgan bo'lsa ham, yana biron o'zgarish bo'lmadimikin, deb nomer tera boshladi. Lagerning mustasaddisi bo'lgan ayol telefonda dona-dona qilib:

– O'zgarish yo'q, indin soat uchda bolalar jo'nab ketgan o'sha maydonga kelishadi, – dedi.

Vazira rahmat aytib go'shakni joyiga qo'ydi-yu, xayoli boshqa bir boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Bolalarni kutib olgandan keyin qayoqqa olib boradi? Abror ota-onasining tashvishi bilan bo'lib, bolalarning qachon kelishini ham bilmasa kerak. Vazira Malikalarni uyga olib borsa, qaynonasi: «O'l-a, baribir o'zing qaytib kelibsan-ku!» deganday qilib qaramaydimi? Vazira bolalarini ham onasinikiga olib boray desa, yana bo'lmaydi. Abror bilan urishib, arazlab yurgani bilinib qoladi.

Vazira esa buni na onasiga, na keliniga bildirgan emas. Chunki Nasiba doim ularning turmushiga havas qilar, «Qaniydi, bizning oilamiz ham sizlarnikiday bo'lsa», deb Vaziralardan ibrat olishga intilardi. Endi ikki orada bo'lgan xunuk gaplarni eshitsa, «bular ham shu-ku», deb ixlosi qaytadigandek va yaxshi bir intilishidan voz kechadigandek bo'lardi. Shuning uchun Vazira kechasi bemahalda Nasibani yo'qlab borganiga yolg'on vaj ko'rsatgan edi:

– Abror oxirgi reys bilan Samarqandga uchdi, kuzatib qo'ydim-u qaytishda siz bilan yota qolay deb keldim.

– Ha, bu yer aeroportga yaqin, juda yaxshi qilibsiz! – deb kelini uning gapiga darrov ishondi. Chunki avvallari ham, «Siz yolg'iz bo'lib qoldingiz, bir kecha-yarim kecha yoningizda yotolmayapman, lekin yotadigan bo'lib bir bormoqchiman», deb yurardi. Nasiba buni juda istardi.



Onasi Nasibani yolg'iz qoldirmaslik uchun o'n ikki yashar kichik qizini birga yotishga yuborardi. Nasiba singil-chasi bilan Alibek ikkovi turadigan xonada yotdi-da, Vazira uchun onasi turgan o'sha divanli xonaga joy solib berdi.

Yangi joy bo'lgani uchunmi yoki bu yerning havosi og'irroq ekanmi, Vazira tuni bilan uxlayolmadi.

Ertasi kuni ertalabdan Nasiba ikkovlari ko'z kasalxonasiga yo'l olishdi. Zumrad Sodiqovnaning yuzidagi shishi qaytgan, operatsiya jarohati tuzalgan, uyga qaytishiga ruxsat berishib, qog'ozlarini shanba kuniyoq tayyorlab qo'yishgan edi.

– Kecha nega kelmadilaring, Vazira? – dedi onasi. – Abrorjon qani?

– Xizmat safariga ketdi. Men kecha uydan chiqolmadim... Nasibaxon bilan narsalarni yig'ishtirib turingizlar, men ko'chadan taksi topaman.

Bugun xuddi shu soatlarda Hanifa xola Abrorning mashinasiga o'tirib, beshikni yasatib va surnayni chaldirib, Darxondan Chorsuga kelishini, undan Ko'kchaga qarab o'tishini bilardi Vazira. Qoraqamish tomondagi ko'z kasalxonasidan Shota Rustaveliga boradigan eng yaqin yo'l ham Chorsudan o'tardi. Vazira ancha ovora bo'lib, bitta bo'sh taksi topdi. Chorsuning nari-berisida Abrorlarga duch kelib qolishlari mumkinligini o'yladi-yu, taksichiga:

– Shofayzi orqali Chilonzorga haydang, – dedi. – Keyin Muqimiy ko'chasidan Shota Rustaveliga burilasiz.

– Aylanish bo'lsa maylimi?

– Mayli, tomosha qilib ketamiz.

Operatsiya va dori-darmonlar Zumrad Sodiqovnani ancha zaiflashtirib qo'ygan ekan. Zinapoyadan to'rtinchi qavatga ko'tarilguncha nafasi tiqilib, uch-to'rt marta to'xtab oldi. Vazira bilan Nasiba uni ikki qo'ltig'idan suyashib, asta-sekin kvartiraga chiqib borishdi.

Onasi shu ahvolda Vaziraning uyidan arazlab kelgani ni bilsa, nechog'lik iztirob chekishini o'yladi-da, beshik to'yidan ham, qaynonasidan ham gap ochmadi ataylab. Na-



siba singlisiga javob berib yuborgan edi. Bir uyda uch ayol chuchvara pishirishib, choy ichishib, rosa hangomalashishdi. Hamma to'g'rida gap bo'ldi-yu, lekin Vazira uyidagi xafachilikdan og'iz ochmadi. Faqat kechasi uning uxlayolmay chiqqanini, bir necha marta og'ir uf tortganini sezgan onasi ertalab:

– Vazirajon, qaynonang xafa qilgani yo'qmi? – deb so'rab qoldi.

– Bolalarni sog'indim, oyi.

– Uch kundan keyin kelishadimi? Abror ham yo'q. Ular kelguncha biznikida turaver.

Boya Vazira ishga ketayotganda Nasiba ham:

– Kechqurun albatta keling, somsa qilamiz, menga o'rgatasiz, xo'pmi, opajon? – deb tayinlab qolgan edi.

Vazira soatiga qaradi. Uchdan oshyapti. Oldida ochiq turgan loyiha undan hamon yangi bir fikr, yangi yechim kutyapti. Lekin Vaziraning xayollari parishon bo'lib, sochilib ketgan, fikrini bir nuqtaga to'plashga kuchi yetmaydi.

Bir payt stol ustidagi shahar telefoni yana jiringladi. Vazira sergaklanib, uning qayta jiringlashini kutdi. Uchinchi martasida go'shakni iztirob bilan ko'tardi. Tovushi olinib:

– Allo... – dedi.

– Vazira Badalovna, assalomu alaykum! Sog'-salomat yuribsizmi? Uylar tinchmi? Ishlar bilan hormang!

So'zlashga navbat bermay, quyuq so'rashayotgan bu odam Sherzod Bahromov edi. Vazira u bilan o'tkazgan beg'am talabalik yillarini va bu yilgi Moskva safarini eslar ekan, o'zini boyagidan tetikroq sezdi.

– Siz bilan maslahatlashadigan ishim bor edi, Vazira Badalovna. Hozir borsam xonangizda bo'lasizmi? Uncha band emasmisiz?

– Yo'q, kelavering.

Oradan o'n besh daqiqa o'tar-o'tmas Sherzodning opoq lyuks «Jiguli»si belidagi po'lat hoshiyalarini oftobda yiltirاتب, Vazira ishlaydigan boshqarmaning oldiga kelib



to'xtadi. Sherzod mashinani besh qavatli binoning soyasiga qo'ydi-da, Vazira o'tirgan xonaga chiqib keldi.

Egnida nafis yo'l-yo'llari bor ipak tenniska. Yuzlari dam olib kelayotgan odamnikidek tiniq. Chap qo'lida loyiha solingan jild. U o'ng qo'li bilan Vaziraning nozik panjasidan ushladi-da, qo'lini o'pib ko'rishdi.

– O'tiring. Qalay, yaxshi yuribsizmi? – deb Vazira unga stol surib berdi.

– Rahmat, Vazira Badalovna. Siz hali otpuskaga chiqmabsiz-a? Jonining rohatini biladigan odamlar hozir kurortlarda maza qilib yuribdi. Irrigatsiya ishi tobora qiyinlashib ketyapti. Suv tanqis. Buning ustiga, Toshkentda ariqlar chatoq. Har kuni katta idoralarga chaqirib qattiq talablar qo'yishadi.

Sherzod jildni ochdi-yu, Arxitektorlar uyushmasida abrorlar muhokama qilgan katta ariqlarning loyihasini va ularga taalluqli qog'ozlarni ko'rsata boshladi.

– Vaziraxon, men sizni talabalik do'stim deb qanchalik e'zozlashimni bilasiz. Siz tufayli Abrorning ba'zi qo'pol gaplarini ham ichimga yutdim. O'tgan gal u kishining takliflari mana shu boshqarmada muhokama bo'lganda men yaminovlarga qarshi borib, Abrorni yoqladim. Oramizda g'ubor qolmasin, dedim.

– Ha, siz o'shanda tantilik qildingiz, men buni haligacha minnatdor bo'lib eslayman, Sherzod.

– Lekin... ochig'ini aytganimga xafa bo'lmang-ku, xo'jayiningiz tantilik qilmayapti-da, Vaziraxon.

– Yana nima bo'ldi?

– Hali eshitganingiz yo'qmi? Mana, ishonmasangiz protokolni ko'ring. Uyushmadagi muhokamada bizning mana bu loyihani abrorlar «bo'lmaydi»ga chiqarishdi. Insof ham kerak-da, axir!

Vazira protokolga ko'z yugurtirib «A'zamov» degan joyida «tubdan qayta ishlanishi kerak» degan jumlanı topdi. So'ng loyihalarga ko'z tashlar ekan:



– Yaxshi bo'lmapti-da, – dedi.

– Nima qilamiz endi? Nabi Sadriyevich yo'qlar. Muovini-lari meni uncha tanimaydi.

– Nabi Sadriyevich kelguncha kutolmaysizmi?

– Yo'q-da! Har kuni chaqirib, «loyiha qani?» deb siqish-tirishadi. Sizlar tasdiqlamaguncha quruvchilar ish boshla-yolmas ekan. Shaharda ko'chatlar qurib ketyapti. Har bir kun g'animat!

Vazira qog'ozlarini yig'ishtirib o'rnidan turdi.

– Mayli, men bir aytib ko'ray-chi, – dedi-yu, Sherzod bi-lan birga qabulxonaga qarab ketdi.

Boshqarma boshlig'ining muovini endi o'ttiz besh yosh-larga kirgan bo'lsa ham, peshanasining ustlarida sochi to'kilib, tepasi yaltirab qolgan, engagining chap tomonida kattagina qora xoli bor yigit edi. Vazira bilan Sherzodni o'rnidan turib, kutib oldi, o'tirishga taklif qildi.

– Turg'un Ibrohimovich, men sizga Sherzod Islomovich Bahromovni tanishtirib qo'ymoqchiman.

– Marhamat.

– Bu kishi metro tunnelini Bo'zsuvning tagidan olib o'tishga aloqador bo'lgan bir loyihani ishlashlari kerak. Nabi Sadriyevichning o'zlari qo'l qo'yib, bu loyihani rejaga kirgizgan edi.

– Bilaman, – dedi Turg'un Ibrohimovich.

– Lekin oraga boshqa loyihalar tushib qolibdi. Kaykovus bilan Qorasuvni qayta qurib betonlashtirish juda tez qilini-shi kerak bo'lgan ish ekan. Bular loyahasini chizishgan ekan. Arxitektorlar uyushmasida muhokama bo'lib, «qayta ish-lansin» degan ortiqcha talablar qo'yishib, ishni juda cho'zib yuborishibdi. Shuning natijasida biz Sherzod Islomovichga topshirgan loyihamizning kechikib ketish xavfi tug'ilyapti. Men irrigatsiya sohasining mutaxassisi bo'lmasam ham, shu sababdan aralashishga majbur bo'lyapman. Masalani tezroq hal qilib berishingizdan biz ham manfaatdormiz.

Turg'un Ibrohimov stolining yon tomonidagi tortmalari-ni ochib, bitta papka oldi. Uni stol ustiga qo'yib ochar ekan:



– Xabarim bor, – dedi. – Menga ministrlikdan ham ikki-uch marta telefon qilishdi.

– Chunki Toshkentning irrigatsiya tizimini tezroq qayta qurmasak hammadan dakki eshitaverib bezor bo'ladiganga o'xshaymiz-da, Turg'un Ibrohimovich, – dedi Sherzod muloyim va iltimoskorona tovush bilan. – Mana, hatto Moskvada chiqadigan markaziy gazeta ham Toshkentda oqar suv yetishmasligini, odamlar shlang bilan ko'chat sug'orishga majbur bo'layotganini tanqid qilib chiqibdi. Shu munosabat bilan biz yana qancha gap eshitdik.

– Bilaman, kechiktirib bo'lmaydigan ish bu, – dedi Turg'un Ibrohimovich papkadagi qog'ozlarni ko'zdan kechirarkan. – Lekin shoshma-shosharlik bilan shahar arxitekturasini buzib qo'ymasligimiz kerak-da. Mana, Arxitektorlar uyushmasidagi muhokamada juda ko'p to'g'ri fikrlar aytishibdi.

– Biz bu fikrlarni hisobga olib, loyihani tuzatib chiqdik. Marhamat, ko'ring.

Turg'un Ibrohimovich Sherzod ochib ko'rsatgan loyiha-da Kaykovus arig'i qirg'og'iga betondan to'lqinsimon bezak ishlatish mo'ljallanganini ko'rdi-yu:

– Tuzatganlaringiz shumi? – dedi. – Kanal devorlari taypoq bo'lmasin deyilgan ekan. Buni qilmabsizlar-ku.

– Turg'un Ibrohimovich, bunga... Suv xo'jaligidagi o'rtoqlar ko'nmadi. Chunki tik devor juda qimmatga tushar ekan. Texnikani ishlatish qiyinlasharkan. Mablag' yetishmaganining ustiga qurilish uzoqqa cho'zilib ketadi.

Vaziraning nazarida, Turg'un Ibrohimovichning tili bilan Abror e'tiroz qilayotganday bo'ldi. Abror g'azab bilan choynakni changallab otmoqchi bo'lgan paytda ko'zlari chaqchayib, xuddi onasiga o'xshab ketgani yana Vaziraning esiga tushdi. Abror Sherzodning yaxshiligiga yomonlik qilgani ham fe'lida onasiga tortgan yomon xislatlar borligidan dalolat berayotganday bo'lardi. Shuning uchun hozir Vazira Sherzodga eri qilolmagan yaxshilikni qilishi kerakdek, ayni



vaqtda, eriga qarshi borib, bir alamdan chiqadigandek tuyuldi.

– Menimcha, – dedi Vazira, – agar loyiha yana bir-ikki oyga cho‘zilsa, biz ham yuqoridagilardan gap eshitishimiz mumkin.

Ibrohimovga vazirlikdan telefon qilganlar ham xuddi shu gapni aytishgan edi. Bu loyihani hadeb to‘xtataversa, boshi g‘alvaga qolishi mumkinligini sezgan Ibrohimov birpas sukutga ketdi. Sherzod uning yon berishi mumkinligini payqab:

– Turg‘un Ibrohimovich, siz bu yerda aytgan fikrlarni amaliy ish paytida albatta hisobga olamiz, – dedi. – Turg‘un Ibrohimovich, iltimos masalani operativ tarzda hal qilib bering. Turg‘un Ibrohimovich...

– Buni men ham iltimos qilaman! – dedi Vazira.

Turg‘un Ibrohimov qo‘liga ruchkasini oldi:

– Men bir shart bilan rozilik berishim mumkin. Agar loyihani amaliy chizmaga aylantirgan paytlaringda arxitekturaga oid mana bu jiddiy nuqsonlarni tuzatsalaring...

– Albatta tuzatamiz, sizga so‘z beramiz, Turg‘un Ibrohimovich!

Sherzod o‘zidan yosh yigitni ikki gapning birida «Turg‘un Ibrohimovich», deb xushomad ohangida gapirishlari Vaziraga xiyol o‘ng‘aysiz tuyuldi.

Turg‘un Ibrohimovich Sherzodga aytgan shartini boshqarmaning tasdig‘i yoziladigan joyga yozib qo‘ydi-yu, imzo chekdi. Shu bilan mas‘uliyatni o‘zidan bir qadar soqit qilganday bo‘ldi.

– Agar bu shart bajarilmasa, javobini siz berasiz, o‘rtoq Bahromov, – dedi.

– Xo‘p bo‘ladi, Turg‘un Ibrohimovich, xo‘p! Rahmat sizga!

Vazira ham so‘zini yerda qoldirmagan Turg‘un Ibrohimovga minnatdorchilik bildirdi. Sherzod kabinetdan yo‘lakka chiqqanda Vaziradan astoydil minnatdor bo‘lib:

– Lekin jonimga ora kirdingiz-da, – dedi.



– Yaxshilikni boshqalar unutsa ham biz unutmaymiz.

«Boshqalar» degan soʻzda Abrorga qarshi qaratilgan achchiq borligini sezgan Sherzodning quvonchi yana bir daraja oshdi:

– Yashang, Vaziraxon! Ochigʻini aytganda, siz eringizdan oʻn barobar tantiroqsiz! Abrorni siz epaqaga keltirib odam qilib yuribsiz. Boʻlmasa...

Vaziraning koʻnglida ham shunga yaqin fikrlar bor edi. Lekin buni chetdan – boshqa odamning tilidan eshitganda nimasidir yolgʻondek tuyuldi.

– Maqtov uchun rahmat, Sherzod. Lekin men erini yomonlaydigan xotinlarni ham yoqtirmayman.


Sherzod uchun Vaziraning eriga qarshi borib, loyihani shu turishida tasdiqdan oʻtkazishga yordamlashgani ham katta gap edi. Sherzod unga mahliyo koʻzlar bilan tikilib:

– Oʻgʻil bola juvonsiz-da, Vazira! – dedi. – Olijanobligingizga qoyilman!

U xayrlashayotib, yana Vaziraning qoʻlini lablariga bosdi. Bugun Vazira uning bu qiligʻiga monelik koʻrsatmas edi.

Sherzodni qoyil qila olgani Vaziraning koʻnglini koʻtarib, oʻziga ishonchini oshirganday va fikrini ravshanlashtirganday boʻldi. U kabinetiga qaytib borayotib, yoʻlakka ochiladigan oynavand bir eshikning shishasiga yopishtirib qoʻyilgan naqshin qogʻozni koʻrdi. Metroga oid boyagi oʻylari yangi bir kuch bilan qaytib keldi. Moskvadagi «Novoslobodskaya» metro bekatida rangdor shishalardan ishlangan chiroyli bezaklar borligi esiga tushdi. Rangdor shisha marmardan bir necha bor arzonga tushishini oʻyladi.

Stoli yoniga qaytib kelgandan keyin boya yigʻishtirib ketgan zinapoya loyihasini ochdi-yu, marmar oʻrniga rangdor shisha ishlatilishi mumkin boʻlgan joylarini chamalab koʻrdi. Stol tortmasidan bezak materiallarining xususiyati va qiymati yozilgan kitobni qidirib topdi. Xomchoʻt qilib qarasa, gabbroga ketadigan ortiqcha xarajatni rangdor shishadan chiqarib olish mumkin ekan.



Vazira telefon go'shagini ko'tarib, Komissarovning nomerini terdi:

– Aleksey Gerasimovich, eshityapsizmi?.. Ha, men. Xayolimga bir g'oya keldi... Devorlarga qimmatbaho G'ozg'on marmaridan ishlatadigan joylarimiz bor-ku. Shuning ba'zi joylariga, masalan, devor bilan zinapoya burilib yuqoriga ko'tariladigan joyiga, marmar emas, rangdor shisha ishlat-sak. Ichiga chiroq yoqilsa, naqshin pannoga o'xshab nurla-nib tursa...

– Maroqli taklif! Rangdor shisha milliy naqshlar uslubi-da berilsa, a?

– Ha, uning fonida marmar zinapoya ham ancha ochilib ketadi. Eng muhimi, shisha marmardan bir necha barobar arzonga tushadi. Shu yo'l bilan tejalgan mablag'ni gabbroga sarflasak, smetaga bemalol sig'ar ekan.

– Sig'ar ekanmi? Hisoblab ko'rdingizmi? Vazira Badalov-na, unday bo'lsa, rangdor shishadan qilinadigan pannoning eskizini chizishga kirishing. Eskiz rangdor bo'lsin. Chunki ko'p joylarga ko'rsatib, tasdiqdan o'tkazishimiz kerak.

– Xo'p, shu bugunoq boshlaymiz.

Vazira go'shakni qo'ygach, oq qog'oz va rangli qalam-lar olib, stol ustiga terdi. U rangdor naqshlar chizishni kichikligidan yaxshi ko'rardi. Milliy naqshlardan juda ko'p namunalar berilgan serbo'yoq suratlari bor bir kitobni shu yerga olib kelgan edi. Vazira kitobni stolining tortmalari-dan qidirib ko'rdi, o'rnidan turib, shkafni izladi. Lekin to-polmadi.

Kitobni o'tgan hafta uyga olib ketgani esiga tushdi. Bu kitob hozir unga nihoyatda kerak. Lekin oraga tushgan dil-siyohlik uning uyiga boradigan yo'lini to'sib turibdi.

Abror hamon qo'ng'iroq qilmayapti. Butunlay onasining tomoniga o'tib olganga o'xshaydi. Vazira qasdma-qasdiga bir narsa qilgisi keldi-yu, go'shakni olib, Sherzodning no-merini terdi. Qabulxonadagi qiz uni ancha kuttirgandan ke-yin telefonni Sherzodga uladi. Vazira allanechuk iymangan tovush bilan:



- Sherzod Islomovich, yaxshi yetib bordingizmi? – dedi.
- Men bir... kitob tufayli telefon qilyapman...

Vazira hamma arxitektorlar yaxshi biladigan milliy naqshlar to'plamini aytgan edi.

- Siz uchun albatta topamiz, Vazira Badalovna! – dedi Sherzod. Vaziraning unga ham ishi tushgani juda yoqimli edi: – Qachonga kerak?

- Qancha tez bo'lsa, shuncha yaxshi. Ishim shunga qarab turibdi.

- E, unday bo'lsa, men hoziroq toptiraman. Bolalar bor... Keyin o'zim eltib beraman.

- Men o'zim borib olarman, Sherzod...

- Mashinangiz yo'q, Vaziraxon, ovora bo'lasiz.

- Bo'lmasa, topilganda telefonlashaylik. Men pastga tushib turaman.

- Bo'pti, mening qo'ng'irog'imni kuting.

Vazira go'shakni qo'yib soatiga qaradi. Kech soat to'rt yarim. U bir soatcha telefon jiringlashini kutdi. Nihoyat, ish soatlari tugay deganda Sherzod telefon qildi:

- Vaziraxon, kutib qolgan bo'lsangiz kechiring. Uydan toptirib olib keldim. Hozir yo'lga chiqyapman.

- Bo'lmasa men pastga tushib turaman.

Vazira shundan nari uyga ketmoqchi bo'lib, jajji oq sumkasini ham qo'liga oldi. U oq ipak kofta va oq sumkaga mos qilib, oyog'iga chiroyli oq bosonojka kiygan, faqat yubkasi qizg'ish rangda va bu hammasi unga juda yarashib turar edi. Pastga tushayotib, oynaga bir qarab oldi-da, yuziga ozroq upa surtib silliqhladi.

Sherzod allaqachon yetib kelib, bino soyasida uni kutib turgan ekan. Vazira yaqinlashishi bilan mashinasidan rangdor muqovali kitobni olib tushib keldi va uni Vaziraga ikki qo'llab tutdi. Vazira uning ko'zlariga mayin tikilib, sidqidildan rahmat aytdi.

- Ish kuni ham tugadi, endi kechki salqinda uyda ishlarman, – deb Vazira kitobni avaylab qo'ltig'iga qisdi.



– Uyga ketyapsizmi? – so‘radi Sherzod undan.
– Yo‘q, hozir... oyimning uylariga bormoqchiman...
– Mashinada olib borib qo‘yay?
– Yo‘g‘-e, men uchun shuncha ovora bo‘lganingiz ham yetar!

– E, nima, ovoragarchiligi bor? Qani, o‘tiring!..

Sherzod Abrorning ham mashinasi borligini va xotini-
ni ishdan olib ketishga kelishini bilardi. Vazira hozir shuni
aytib, Sherzodning mashinasiga chiqmasligi mumkin edi.
Lekin Vaziraning avzoyi bugun boshqacharoq. Balki eri
bilan xafalashib qolgandir? Sherzod buni aniqroq bilish
uchun mashinasining oldingi eshigini ochib, Vazirani yana
o‘tirishga taklif qildi. O‘tirsas, demak, bugun erining mashi-
nasini kutmaydi.

– Qani, Vaziraxon, bir marta bizning mashinada ham yu-
rib ko‘ring? – takrorladi Sherzod.

– Odatga binoan, – kulimsirab dedi Vazira, – oldindagi
o‘rinda mahramingiz o‘tirishi kerak.

– Shundaymi? Bo‘lmasa, marhamat, orqa o‘rindiqqa
chiqing, – deb Sherzod keyingi eshikni ochib berdi.

Mashinaning ich-tashi yaltiratib artib tozalangan,
o‘rindiq g‘iloflari ham ozoda va yangi. Sherzodning o‘zi ham
bugun juda ochilib ketgan. Vazira orqa o‘rindiqning o‘ng
tomoniga chiqib o‘tirgach, Sherzod u kirgan eshikni sekin
yopdi.

Markazdan o‘tib, Shota Rustaveli ko‘chasiga qarab bo-
rayotganlarida Vazira undan:

– Turmush o‘rtog‘ingiz yaxshi yuribdilarmi? – deb so‘radi.

– E, so‘ramang! Uyda kam bo‘ladi. Hozir Olmaotaga
gastrolga ketgan. Uyda bir o‘zim. Bizning kvartirani hali
ko‘rmagansiz-a?

– Yo‘q.

– Mana shu markazda. Bir kirib o‘tamizmi?

Sherzodning hech kim yo‘q kvartirasiga borish – juda
haddan oshish bo‘lishini sezgan Vazira:



– Rahmat, hozir oyim meni kutib o'tirgan bo'lsa kerak, – dedi.

U Abror to'g'risida ataylab gapirmasdi. «Balki er-xotin urishib, Vazira oyisinikiga ketib qolgandir?» degan taxmin Sherzodning xayoliga endi keldi. Agar shunday bo'lsa, Vazira ham Sherzodga o'xshab yolg'izsirab yurgandir?

– Vazira, men uyda o'sha Bo'zsuvga oid loyihamizni ishlayapman. Siz bizga hammuallif bo'lishingiz kerakligini Nabi Sadriyevichga aytib qo'yanman.

Vazira bu gapga qiziqib so'radi:

– Nabi Sadriyevich nima dedi?

– Qarshi emasman deganday qildi. Endi faqat o'zingizning rozi bo'lishingiz qoldi. Biz og'iz roziman deya qoling, a, Vazira?

Vazira ikkilanardi. Ko'nglini hali ham Abrorga bog'lab turgan rishtalar go'yo tarang tortilib, qandaydir xatardan ogohlantirayotganga o'xshadi. So'z bilan izohlab bo'lmaydigan allaqanday xavotir va hayiqish hissi unga erk bermayotganday bo'lardi. Vazira hozir erkin va dadil bo'lishni istardi, Sherzod ham uni shunga undamoqda edi. Abror uni shunchalik xafa qilib, yana ikki kundan beri o'z holiga tashlab qo'ygani ozmi? Nega endi Vazira undan bunchalik hayiqib, ipsiz bog'lanib yurishi kerak?

Sherzod ham Vaziradagi ikkilanishning sababini sezganday mayin kulimsiradi. Mashinasini qizil chiroq oldida to'xtatar ekan:

– Yo eringizdan ruxsat so'raysizmi, Vazira? – dedi.

Vaziraga o'zidagi ikkilanish va hayiqishlar erkakning cho'risi bo'lib o'rgangan ilgarigi mute ayollarning ko'r-korona itoatkorligiday xunuk ko'rindi. Mutelik sarqitlarini qalbidan butunlay quvib yuborgisi keldi. Shuning uchun Sherzodning yuziga dadil boqib:

– Men boshqa narsadan ikkilanyapman, – dedi.

– Nimadan?

– Hammualliflikning yukini tortishga kuchim yetmasa kerak.



Sherzod birdan yengil tortib:

– Kamtarlik qilmang, Vazira! – dedi. – Siz hech qanday og'ir yuk tortmaysiz. Hamma mayda ishini o'zimiz qilamiz. Siz loyiha bo'yicha yaxshi fikrlar berdingiz. Shuning o'zi yetadi. Endi hammuallif bo'lish uchun bir og'iz «ha» desangiz bas!

Svetoforda yashil chiroq yondi. Orqadagi mashinalar sabrsizlik bilan dudutlay boshladi. Lekin Sherzod bularning hech biriga e'tibor bermay, Vazira tomonga yarim o'girildi-yu, o'ng qo'lining kaftini ochib unga tutdi:

– Xo'p, deng, Vazira. Mana, mening qo'lim!

Dudutlash bilan ham Sherzodni qo'zg'atolmagan orqadagi shofyorlar mashinalarini asabiy burib, uni aylanib o'tar ekanlar, Vazira ikkoviga olayib qarab, bir narsalar deb jerkishdi. Lekin bu jerkishlar Vaziraning qulog'iga ham kirmas, uning xayoli boshqa yoqda edi.

Sherzod uning uyqusiz tunlardan ancha so'lib qolgan yuziga, yoshi qirqlarga yaqinlashganini bildirib turgan baqbaqasiga, tomiri bo'rtgan qo'llariga kulimsirab tikilar ekan, kecha tunda kimsasiz uyiga olib borib, azongacha birga yotgan yigirma bir yashar ko'hlik qiz esiga tushdi. Bugun ham uy bo'sh, lekin naryoqda bitta telefon qilsa keladigan badani tarang yosh qiz turganda, Vazira bugun Sherzodnikiga borishga ko'nmagani yaxshiyam bo'ldi. Sherzodga uning tanasi kerak emas, ruhi kerak, Abror A'zamovga qarshi chizilgan loyihaga sherikligi kerak. Shuning uchun hamon yarim o'girilgan holda kaftini tutib, iltimoskorona kulimsirardi:

– Xo'p deng endi, Vazira!

Vazira uni yana bir qoyil qilgisi keldi-yu, qo'lining uchi bilan Sherzodning kaftiga yengilgina urdi:

– Ha, xo'p! Bo'ldimi endi?

Sherzod uning qo'lini qo'yib yubormay, bo'ynini cho'zdi-da, Vaziraning barmoqlarini labiga bosdi:

– Rahmat, Vazira! Men sizga bosh egib ta'zim qilaman. Botir juvonsiz!



Shundan so'ng Sherzodning mashinasi ham egasidagi quvonchdan ruhlanganday joyidan yengil qo'zg'al-di-yu, ko'cha bo'ylab g'izillab ketdi.

Vazira orqa o'rindiqqa yastanib jim borar ekan, ko'chadan emas, katta bir daryodan o'tib borayotganday bo'lar, Abror ham, beshik to'ydan chiqqan xafachiliklar ham daryoning narigi qirg'og'ida qolib ketayotganday tuyulardi. Daqiqa sayin uzoqlashayotgan narigi qirg'oqdagi arazlar, dilsiyohliklar tobora kichrayib, go'yo o'z ahamiyatini yo'qotib borardi. Endi Sherzod bilan hamkorlikda amalga oshirishlari kerak bo'lgan Bo'zsuvga oid loyiha uning ko'z oldini qoplab, butun xayollarini band qila boshladi. U hamon mutelik alomati deb qalbidan quvishga tirishayotgan hayiqish va iymanish tuyg'ulari xira tortib, chigal bir g'ashlikka aylanganday bo'ldi.

* * *


Abror kechadan beri o'rnidan turolmay qattiq isitmalab yotibdi. Bugun kechqurun uni ko'rishga kelgan ukasi Shokir:

– Aka, nima bo'ldi sizga? – deb peshanasiga qo'lini qo'yib ko'rdi. Harorati juda baland. Abror bir narsa demoqchi bo'lgan edi, ovozi chiqmadi. Shokir uning ustiga engashdi. Abror qattiq gapirsa ham ovozi shivirlaganday chiqdi:

– Vaziraga nohaq baqirganim uchun... ovozdan ayrildim... Jazo yomon bo'ldi, uka!

Abror kulimsirashga tirishar, lekin lablari jilmayishga kelmay titrardi. Shokirning ko'zlari namlanganday bo'lib, yiltirab ketdi. Abror yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin yo'tal tutib, gapirolmadi. Butun gavdasi yo'taldan silkinib, lablari ko'karib ketdi.

Shokir eshik-derazalar lang ochiq turganini ko'rdida, yopmoqchi bo'ldi. Shunda Abror qo'li bilan yopma ishorasini qildi. Shivirlaganday past, xirri tovush bilan:



– Havo yetishmayapti... – dedi. Uning ahvoli yomonligini ko'rgan ukasi nima qilishini bilmay sarosimaga tushdi:

– Yelvizak bo'lyapti-ku... Nima qilay bo'lmasa?..

Abror qo'li bilan stol ustida turgan qizg'ish shishadagi dorini ko'rsatdi. Shokir shishachani ochayotganda dimog'iga valerianka hidi urildi. Qattiq shamollashga qo'shilgan yiringli angina va baland harorat Abrorning yuragini juda behalovat qilmoqda edi. Boshini ko'tarsa, ko'ngli behuzur bo'lardi. Doktor boshqa dorilardan tashqari yurakni sal tinchlantiradigan «Zelenin tomchilari»ni ham buyurgan edi.

Shokir retseptga qarab, choyqoshiqqa yigirma tomchi dori tomizdi-da, iliq suv bilan birga Abrorga ichirdi.

– Adam ukol qiladigan... hamshira izlab ketuvdi, – dedi Abror eshitilar-eshitilmas tovush bilan. – Topolmadi, chamasi.

– Men borib, qo'shni hamshirani chaqirib kelaymi? – dedi Shokir.

Abror tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Stol ustida ukol qilinadigan dorilar qator bo'lib turibdi.

Hanifa xola bir piyola iliq sut olib kirdi. Lekin Abror sut hididan ko'ngli behuzur bo'lib, bosh chayqadi. U ikki kunda o'zini shunchalik oldirib qo'ygani, o'pkasiga bir narsa bo'lganday qiynalib nafas olishi, juda yomon yo'talishi Hanifa xolani qattiq xavotirga solmoqda edi.

Ko'p o'tmay Shokir ukol qiladigan hamshirani boshlab keldi. To hamshira shprisga dori olguncha Abrorni ichki xonadagi toza choyshab to'shalgan karavotga o'tkazmoqchi bo'lishdi. Ikki tomonidan oyisi va ukasi suyab borayotgan bo'lsa ham, bir necha qadamlik masofani bosib o'tguncha ko'zi tinib, boshi aylanib ketdi. Hanifa xola o'g'lining ko'karib, sarg'ayib ketgan peshanasidan, bo'ynidan sovuq terni doka bilan artib olar ekan, «Yigit kishining munkillagan cholga aylanib qolishi hech gap emas ekan», degan gap ko'nglidan o'tdi. Hanifa xola o'g'lining bunaqa qattiq kasallanishini yigirma-o'ttiz yildan beri hech ko'rmagan edi.



Abror tomoq og'rigini tan olmas, virus grippning eng og'ir epidemiyalari paytida ham bir kun-yarim kun aksirib yurib, isitma chiqarmay, tuzalib ketaverardi. «Kasal bo'lmay yurib qattiq uchingan odam mo'rt bo'ladi, Xudo o'zi asrasin-da!» deb qo'ydi xola ichida.

Abrorga avval yurakni bardam tutadigan doridan, keyin penitsillin bilan streptomitsindan ukol qilishdi. Hamshira:

– Endi isitmaları pasaysa kerak, – deb ertalab yana ke-ladigan bo'lib ketdi.

Lekin Abror kechasi ham kuyib-yonib, uxlay olmay chiq-di. Shokir unga yana bir marta termometr qo'yib, issig'ini o'lchab ko'rdi. O'ttiz to'qqiz-u olti. Ukasining bezovtalan-ganini sezgan Abror xirillab:

– Nechchi? – deb so'radi.

Shokir uni xavotirlantirmaslik uchun:

– Sal tushibdi, o'ttiz sakkiz-u olti, – deb yolg'on gapirdi.

Narigi xonada Hanifa xola bilan A'zam ota ham uxlay olmasdan o'tirishgan edi. Shokir chiqqanda ko'zlari bilan «qalay?» degan savolni berishdi. Shokir Abrorga eshitil-maydigan past tovush bilan ukol ham foyda bermayotgani-ni aytdi.

– Endi nima qilamiz? – dedi A'zam ota. – Vazirani chaqir-sakmikan? Tanmahrami-da. Bizdan yaxshiroq qararmidi?..

– Yaxshiroq qaragani shumi? – g'azab bilan shipshidi Hanifa xola. – Beshik to'yimni pisand qilmay tashlab ket-di! «Kelinlaring qani?» deb hamma so'raydi. Bolam bechora nima deyishini bilmaydi! Uyat o'limdan yomon! Abror uyal-ganidan kasal bo'ldi! Bolamni xotinchasi shu ko'ygga soldi!

– E, qo'y shu g'urbatni! O'zing ham Abrorni to'rt tomon-ga yugurtirib, kirakash shofyordan battar qiynading! Kelin bechora ham aytdi, «Oyijon, menga rahmingiz kelmasa, o'g'lingizga rahmingiz kelsin!» dedi.

– O'zi rahm qilibdimi, juda? Shunday paytda «bor-e!» deb tashlab ketgani rahm qilganimi?

– Ayol zoti o'zi shu!



A'zam ota Shokirga:

Sen ertalab ishga borasan, kirib mizg'ib ol, – dedi-da, o'zi Abrorning oldiga kirib, tong otguncha mijja qoqmay chiqdi. Abror ko'zini yumib yotgan bo'lsa ham, isitmaning balandligidan uxlay olmas, har zamonda suv so'rar edi. A'zam ota termosdagi iliq objo'shdan piyolaga quyib unga ichirar, ko'ngli behuzur bo'lganda chakkalarini qo'li bilan tutib turar, shunda Abror xiyol yengil tortardi.

Hanifa xola Abror kichikligida kasal bo'lsa qiladigan dori-darmonlarini eslab, isiriq soldi, keyin suv qaynatib kelib, Abrorning yelkasiga, tomog'iga, ko'kraging yurakdan uzoqroq joylariga issiq gorchichnik qo'ydi. Abror endi ko'zini ochib:

– Ada, men durustman, borib uxlang, – dedi.

Ammo uning isitmasi baland, nafas olishi hamon og'ir ekanini ko'rib turgan A'zam ota tuni bo'yi Abrorning oldidan ketmadi. U Abrordan: «Vazirani chaqiring!» degan gapni kutardi. Tong otdi hamki, Abrordan bu gap chiqmadi. Ertalabki ukoldan keyin u ozgina sut, asal ichdi, ovozi xiyol ochilganday bo'ldi. Shunda Malika bilan Zafarni esladi.

– Bugun bolalar lagerdan keladigan edi, ada.

– Bo'lmasa, men borib kutib olay, – deb A'zam ota o'rni-dan turdi.

* * *

Tush paytida to'qqiz qavatli ulkan binoning oldidagi keng maydonga qator avtobuslar kirib keldi.

Derazalardan qo'l siltab, kulib o'tayotgan bolalarni g'uj-g'uj ota-onalar kutib turar, ularning orasida Vazira ham bor edi. Ko'zi ham, xayoli ham avtobuslar to'la bolalarda bo'lgani uchun, Vazira maydonning bir chetida, ko'pchilikdan chetroqda xomush turgan A'zam otani ko'rmadi. Oftobda qorayib pishgan Zafar bilan Malika oyilarini ikki yonidan quchib, o'pishib ketishdi. Keyin chamadoncha bilan buyum



xaltalarini qo'llariga olishib, yengil mashinalar turgan tomonga burilganlarida Zafar birdan:

– Oyi, qarang, bobom ham keptilar! – dedi-yu, o'sha tomonga yugurdi.

Sariq jujunchadan kitel-shim, qo'ng'ir brezent etik kiygan oppoq mo'ylovi va kalta oq soqoli o'ziga yarashgan xipchabo'y, barvasta A'zam ota chopib kelayotgan nevarasiga intildi. Cho'kkalaganday bo'lib, bo'yini Zafarga teng qilib, quchog'ini unga ochdi. Malikani yelkasidan quchib, peshanasidan o'pib ko'rishdi.

Vazira qaynotasidan allanechuk hayiqqanday bo'lib, ikki-uch qadam narida turib so'rashar ekan, A'zam ota uning yuzida qandaydir so'lg'inlik va mahzunlik borligini sezdi.

Zafar yengil mashinalar orasida otasining olcharang «Jiguli»sini ko'zlari bilan qidirdi, lekin topolmadi. A'zam ota ularni ko'kish rangli taksiga qarab boshladi.

– Dadam qanilar? – deb so'radi Malika oyisidan. Vazira qovog'ini uyib yerga qaradi-yu, hech narsa demadi. Zafar bobosiga savol nazari bilan tikildi.

– Bolalarim, Abror qattiq uchinib yotib qoldi, – dedi. – Isitmasi qirqqa chiqdi. Ovozi yo'qolib, telefonda ham gaplasholmaydigan bo'lib yotibdi.

A'zam ota bu gaplarni aytayotib, Vaziraga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Vazira jahl ustida ko'p narsani xayolidan o'tkazgan, lekin erining bunaqa kasal bo'lishini ko'z oldiga keltirmagan edi. Abrorning «tomog'im qirilyapti» deb, yana sovutkichdan sovuq narsalar olib ichib yurganini endi esladi. Eri bu ahvolda yordamga muhtoj bo'lib yotgan paytda Vazira Sherzodning mashinasida qanaqa xayollar bilan yurganidan endi xijolat bo'ldi.

Mashinaga kirib o'tirganlaridan keyin:

– Dada, men bolalarni oyimning oldilariga olib ketmoqchi edim, – dedi Vazira. A'zam ota darhol rozi bo'ldi:

– Xo'p, qizim, Zumradxonning uylari ham bizga begona emas. Boraveramiz.



Lekin bolalar narigi buvilarining sershovqin uylarini uncha suymas edilar. Zafar aftini burishtirdi:

– Oyi-i, o‘zimizning uyga boraqolayli-ik!..

– Dadam kasal bo‘lsa, avval u kishini borib ko‘raylik! – dedi Malika ham.

Vazira javob beravermagach, A‘zam ota yana uning ko‘ngliga qarab dedi:

– Bolalarim, buvilaringning yoshi katta, mayli, avval u kishini borib ko‘raylik. Taksi birpas kutib turar.

Mo‘ylovdor semiz taksichi:

– Ota, kutishga vaqtim yo‘q, boshqa taksi tutarsizlar, – dedi.

Vazira endi o‘ng‘aysizlandi:

– Xo‘p, dada, bo‘lmasa uyga boraveraylik.

A‘zam ota taksichiga abrorlarning manzilini aytdi.

Eshik ochilib, uyga kirayotganlarida Vazira uchun eng mushkul ish – qaynonasi bilan yana yuz ko‘rishish edi. Shuning uchun u avval bolalariga yo‘l berdi.

Nevaralarini sog‘inib yurgan Hanifa xola ularni bag‘riga bosib:

– Voy, aylanay Zafardan, voy, Malika qizga jonim tasaddiq! – deb quvonib ketdi.

Erga qarab salom berib kirgan Vaziraga:

– Qayerlarda yuribsiz, kelinposhsha!.. – dedi. – Beshikto‘yni buzishingizga sal qoldi-ya.

A‘zam ota oraga tushdi:

– Beshikto‘y buzilgani yo‘q, juda yaxshi o‘tdi. Endi nevaralaringga qara! Abror qalay?

– Azob tortib yotibdi, bolam bechora! Doktor kelib kasalxonaga olib ketmoqchi bo‘ldi! Bir kunga zo‘rg‘a ruxsat oldik.

Bu gaplarni eshitgan Vazira uchun Abror yotgan xonaga kirib borish benihoya og‘ir edi. Lekin bu gal ham bolalar uning ahvolini yengillatishdi – dadalarining oldiga chopib borishib, tog‘ havosiga qo‘shib olib kelgan musaffo quvnoq-



liklari va ma'sumliklari bilan ikki oradagi xafagarchilik g'uborini tarqatib yuborganday bo'lishdi...

O'sha kuni kechasi Abror durust uxladi, ertasi kuni isitmasi tushib, ovozi ochildi... Oradan yana o'n kuncha o'tgandan keyin mashinasiga minib ishiga ketdi. Ertasi kuni kechqurun karton qutiga solingan bir narsalarni ko'tarib qaytib keldi.

– Bu sizga, xonim, – deb kulimsirab qutini Vaziraga berdi.

Malika oyisi bilan qutini ochib qarashsa, undan chiroyli qirmizi choynak, o'sha rangdagi oltita piyola, bitta kosa va bitta lagan chiqdi.

– Endi gunohimizdan o'tarsiz?! – dedi Abror.

Vazira ko'pdan beri bunaqa servizga havas qilib yurar edi.

– Mayli, o'tdik, yana chinni sindiraman desangiz, mana, endi lagani ham bor!

Shu bilan ular yarashganday bo'ldilar. Lekin Vazira bu yarashishning yuzakiroq ekanini sezardi. Ikkovining yuragida ham o'shandagi janjalning asorati qolgan, uni butunlay yo'qotish uchun ko'ngillarini ochib gaplashishlari kerak edi. Lekin Vazira endi Abrorga ilgarigiday ko'nglini ochib gapirrolmas, chunki Sherzod bilan sherikchilik ish qilayotganini eri bilib qolsa, yana xafachilik boshlanishi mumkin edi.

Busiz ham Abrorning yuragida noxush o'zgarishlar yuz bergan, qilingan elektrokardiogramma uch marta ham yomon chiqqan, vrach unga ichish, chekishlarni qat'iyan man qilgan edi. So'nggi paytlarda Vaziraning qon bosimi ham ko'tarilib ketgan ekan. Boshining orqasi og'rib, ko'zi allanechuk jimirlab, tinadigan bo'lib qolganini vrachga aytgan edi, qon bosimini tekshirib ko'rib, darhol ukol buyurdi.

– Ayniqsa pastkisi yomon, yuz o'nga bir yuz-u oltmish, ehtiyot bo'ling! – deb ogohlantirib ketdi.

Er-xotin ikkovining boshqa tashvishlari ustiga endi mana bu kasalliklarga chap berish, tanalariga kirib joylashib olgan va a'zolar bo'shashganda yana yiqitishga tayyor turgan bu ichki dushmanga qarshi chora topish tashvi-



shi ham qo'shildi. Bu choralardan eng birinchisi – asabiy gaplarni qo'zg'amaslik, urush-janjallardan uzoq yurish edi. Shuning uchun Vazira murakkab narsalarni Abrorga ataylab aytmas edi.


Naryoqda Shokir hali ham Nigora bilan uchrashib yuribdi, ikkovining turmush qurishi aniq ekanini, ertami-kechmi Abror Sherzodga qarindosh bo'lishini Vazira biladi. Ana o'shandan keyin Vaziraning Sherzod bilan hammuallif bo'lgani Abrorga uncha qattiq botmasligi mumkin. Shu sababli Vazira Shokir bilan Nigoraning to'yi tezroq bo'lishini istardi. Lekin bu to'y nuqul orqaga surilmoqda edi – Bo'rijar bo'yidagi uchastka hamon bitmay yotar, kelin tushiradigan uy yo'q edi.

O'N IKKINCHI BOB

A'zam ota to'rt kundan beri abrorlarning uyiga kelmaydi, kunduzlari uchastkada ishlab, kechasi o'rikning tagidagi supada yotib qoladi. Sumbulaning yarmi o'tib, tunlar sovib qoldi. Otasidan xavotirlangan Abror ishdan so'ng uni ko'rgani bordi.

Avval tashlandiq bo'lib yotgan hovlining atrofiga xom g'ishtdan odam bo'yi devor ko'tarilgan. Shokir yoz bo'yi quygan xom g'ishtlar quritilib, devor taglariga terib qo'yilgan. A'zam ota sersoya o'rik tagiga yangi suvoqdan chiqqan supa qurib olgan. Supadan naridagi yer pol qilinib, ukrop, kashnich, petrushka ekilgan. Hozir hammasi gulf urib ko'karib turibdi. Yangi olingan ariq bo'ylariga hafsala bilan qator qilib suqilgan tol tayoqlari allaqachon ko'karib, bir qarich keladigan nozik novdalar chiqargan.

Abror buni ko'rib, otasining qo'ligulligiga ichida qoyil bo'lib qo'ydi. U boya kelayotib, otasiga uydan issiq somsa olib chiqqan, yo'lakay bozorga kirib, uch-to'rtta non, bir kilo qo'y go'shti olgan edi.



Supadan nariroqqa o'choq qurib olgan A'zam ota payrahadan olov yoqib, goh o'ziga choy qaynatar, goh dekchani qo'yib, sho'rva pishirardi.

Bugun Abror borsa, A'zam ota endi ishdan bo'shab, supaga belbog'ini yozib, namoz o'qiyotgan ekan. Abror o'choqqa o't yoqib, darrov choyga unnadi.

– Kelganing yaxshi bo'ldi, Abrorjon, maslahatlashadigan gap bor edi, – dedi A'zam ota namoz o'qib bo'lgandan keyin: – Bu uchastkani tezroq bitirmasak, qish kelib qolyapti. Eshik, deraza, rom – hammasiga pul kerak... Narirog'imizda bitta qurilish bo'lyapti. Shunga tungi qorovul kerak ekan... Oyiga sakson so'm... Ishga kirmoqchiman.

– Kechasi-yu kunduzi tinim bilmay, o'zingizni urintirib qo'yasiz-da, ada. Pensiya olasiz-ku, bo'ladi-da. Qolganiga mana... biz bormiz.

– Sening ham yuking og'ir, o'g'lim. Pensiyaning ustiga har oyda sakson so'm topib tursam, bitta eshikmi, derazami olishga yaraydi-ku. Harna-da. Men ketmon choparmidim. Bu yerda yotmayman-u qurilishga borib yotaman.

– Mayli, tag'in o'zingiz bilasiz.

Abror otasidagi bag'rikenglik va fidoyilik onasida yo'qligini hozir yana bir marta sezdi-yu, o'zicha taajjublanib qo'ydi.

A'zam ota mehnatdan qorayib, ozib, yonoqlari ichiga botib ketgan, soch-soqoli oppoq oqargan. Hanifa xola unga tengdosh bo'lsa ham hali juda bardam, sochining oqidan qorasi ko'p, hamma tishlari butun. Choli yukning og'irini o'ziga olib, fidokorlik ko'rsatgani sari, kampiri erkalanib, jonining rohatini o'ylaydigan bo'lib qolarmikin?

– Ada, ishga ham boradigan bo'lsangiz, sizga juda qiyin bo'lib ketsa kerak. Oyim bekorchilikdan zerikib g'idi-bidi gapni ko'paytiradigan odat chiqaryaptilar. Birda-yarim kelib, sizga qarashib tursalar durust bo'larmidi. Ertaga oyimni olib kelib qo'yib ketaymi?

A'zam ota ajin bosib, terlab ketgan bo'ynini qashidi-yu:



– Yo‘li uzoq, – dedi. – Hali boshpana yo‘q. Ayol kishi loyga aralashib yursa yaxshi emas. Oyingni qo‘y.

A‘zam ota xotiniga og‘ir yuk ko‘tartirmaydigan, suv tashitmaydigan, o‘tin yordirmaydigan ilgarigi olijanob yigitlardan bo‘lgani Abrorning esiga tushdi. Otasi shu yigitlik odatini yetmish yoshida ham saqlab qolganini ko‘rib, ich-ichidan unga nisbatan iliq bir hurmat va mehr sezdi.

– Yakshanba kuni bo‘shmisan? – so‘radi A‘zam ota undan.

– Nima, ish bormidi?

– Shokirning birga ishlaydigan quruvchi o‘rtoqlarini hasharga aytsak degan edim. Haligi ikkita qo‘ydan bittasi turibdi. Shuni so‘yamiz. Ana o‘shanda oying bilan kelinimiz ovqat-povqatlariga qarashgani kelishsa, yaxshi bo‘ladi.

– Bo‘pti, ada, biz hammamiz hasharga kelamiz.

Maslahat bilan hasharchilarga ayollar katta kastyulka-da qatqlik ugra osh pishirib keladigan, palovni shu yerda qiladigan bo‘lishdi.

Abror yakshanba kuni azonlab oyisini, Vazira bilan Zafar – uchovlarini mashinasiga solib, avval Ko‘kcha bozoriga bordi. Yigirmatacha yopgan non, uzum, qovun-tarvuz, kartoshka, piyoz, ziravor – hammasini shu yerdan oldi-da, yo‘lakay magazinga ham kirib o‘tdi.

Hasharchilar yig‘ilgandan keyin A‘zam ota qo‘yni kullikladi.

– Yigitlar, shu jonivor sizlarga nasib qilgan ekan, – dedi-da, fотиha uchun qo‘lini ochdi: – Qani, omin, shu yangi joyda yomonlik ko‘rmaylik! Bu yerdan o‘tgan arvohlarni Xudo rahmat qilsin! Ollohu akbar!

Ota qo‘yning bo‘g‘ziga pichoq tortayotganda Zafarning ko‘zi javdirab ketganini Abror sezdi-yu, o‘g‘lini qo‘lidan ushlab, naryoq tomonga burdi:

– G‘ishtlarni ko‘rdingmi? Hozir uning hammasi devorga aylanadi, – deb uni alahsitdi.

Shokir bilan birga kelgan o‘n to‘rt yigitning faqat ikkitasi qurilishda g‘isht teruvchi bo‘lib ishlar, qolganlarining biri



elektrpayvandchi, biri tunukasoz, biri bo'yoqchi, uch-to'rt-tasi marmar bilan ishlaydigan sangkorlar ekan. Ular ilgari san'at saroyini qurishda ishtirok etishgan, hozir Shokirning brigadasida Xadra maydonida sirkning yangi binosini qurmoqda edilar. O'ta zamonaviy qurilishlarda katta malaka orttirgan va nozik texnika bilan ish ko'radigan bu yoshlarga xom g'ishtdan devor ko'tarish g'alatiroq tuyulardi. Shunday bo'lsa ham, ularni hurmat qilib qo'y so'yg'an nuroniy mo'ysafidning astoydil ko'nglini olgilari keldi-yu, ba'zilar oyoqyalang bo'lib, loyga tushishdi, ba'zilar g'isht tashishga va devor ko'tarishga kirishdi.

Abror chelakka ketmon bilan loy solib bera boshladi. Shokir g'isht termokda edi. Bu ish qo'lidan keladigan yana uchta yigit topildi. To'rt kishi to'rt tomonning devoriga shipillatib g'isht tera boshladi. Ularning hazil-huzul bilan kulib ishlayotganlariga Zafarning ham havasi keldi-yu, g'isht tashishga tushdi.

Abror uchiga tosh bog'langan kanop ip bilan devorlarning qanchalik to'g'ri bo'layotganini har zamonda bir tekshirib qo'yar edi. Bundan yuz chandon nozik ishlarni qilib o'rgangan quruvchilar eshik va derazalarning o'rnini bexato belgilab, devorlarni sixday to'g'ri qilib ko'tarmoqda edilar.

Hovlining brezent tutilgan narigi chetida Vazira bilan Hanifa xola qo'yning go'shtidan to'g'rab, qovurdoq qilayotgani va sabzi to'g'rashayotgani kafgirning shaqirlashidan va pichoqning taxtaga tiq-tiq urilishidan bilinib turardi. A'zam ota esa supaning naryog'idagi kichik o'choqda choy qaynatar, yoshlarning g'ayratidan zavqlanib:

– Barakalla, o'g'illarim! Qo'llaring dard ko'rmasin! Otalaringga rahmat! – deb qo'yardi.

Yigitlar tushga yaqin birpas dam olishdi. Abror mashinasining bagajnigiga solib kelgan kattakon qo'ng'ir kast-ryulka muzday qatiqli oshi bilan soyada turgan edi. Vazira sochiqqa o'ralgan kosa-tovoqlarni katta sumkaga joylab, hammaga yetadigan qilib olib kelgan ekan. Kosani to'ldirib,



qoshig'i bilan Abrorga berdi. Abror uni supada chordana qurib o'tirgan otasiga uzatdi. Keyin boshqalar ham supa chetida loy oyoqlarini pastga qilib o'tirib, suyuq osh icha boshladilar. Sovutilgan qatiqli ugra qizishgan odamlarning taftini olar, ba'zi yigitlar kula-kula «dabavka» so'rab ichishardi.

Zafarga kosa va qoshiq yetishmay qoldi. Keyin u Shokir amakisi bilan birga kosaning labidan ichishga tushdi. Shunda uzun ugra xamirining uchidan sachragan qatiq burniga va yuziga tegib, hammani kuldirdi. Suyuq oshdan keyin bir-ikki piyoladan choy ichishdi.

– Qani, jo'ralar, bugun shu devorlarni bitirib ketmasak bekor! – dedi barzangiday qop-qora bir yigit. – To'rt g'isht teruvchi to'rt tomonini baravar bo'lib olamiz. Odamlarning hammasi to'rt komandaga bo'linsin. Kim g'isht yetkazib beradi, kim loy yetkazib turadi, hammasi aniqmi?

– Aniq! – dedi Shokir. – Abror aka, siz loyihachisiz, o'lchovga ustasiz, har bir g'isht teruvchining chegarasini belgilab bering.

– Bo'pti! – Abror kulib, uchiga tosh bog'langan ip bilan devorlarni to'rtta teng bo'lakka bo'ldi.

– Ana endi kimo'zarga o'ynaymiz, jo'ralar, – dedi qora yigit.

– Yutganlarga palov, yutqazganlarga karam sho'rva! – dedi Shokir. Hammalari gurr etib kulishdi.

– Palovning yonida qirq darajaligidan ham bo'ladi, yigitlar! – dedi Abror.

– Unday bo'lsa, yutqazganlar limonad ichar ekan-da!

Yana «gurr» kulgi. Odamlarning vaqti chog'. Tamasiz, beg'araz bir ish qilayotganlarini sezishib, bayram kayfiyati bilan ishlashadi.

Kechga borib to'rt tomonning devori ham odam bo'yi ko'tarilib, eshik-derazalarning o'rni tayyor bo'lib qoldi. Bu orada ozroq dam olib, kartoshka aralash qovurdoq ye-yishdi, choy ichishdi-yu, osh damlanguncha yana bir zo'r



berishdi. Kun botguncha devorlar uy shakliga kirib, ichiga odam kirs, ko'rinmaydigan bo'lib qoldi.

– Rahmat, o'g'illarim, baraka topinglar, endi bo'ldi qila qolinglar! – dedi A'zam ota.

Yigitlar bir-birlariga suv quyib yuvinishdi, korjomalarini yechishib, toza kiyimlarini kiyishdi va supa atrofiga tizilib o'tirishdi. Soyada turgan yashil sumkada shishalar bor edi. Abrorning ishorasi bilan Shokir sumkani supaning oldiga ko'tarib keldi va otasiga iymanibroq qarab qo'ydi.

– Bahuzur xursandchilik qilaveringlar, – dedi A'zam ota.

– Sizlarday paytimizda biz ham bu zormandadan otib turganmiz.

Yana gurr etib kulishdi-yu, oshdan oldin bir piyola-yarim piyoladan oq ichishdi. Lekin naryoqda ayollar, bu yoqda A'zam ota ularni ancha bosib turganday bo'lar, yana ichgisi kelganlar ham o'zlarini tiyishar, mast bo'lishdan qo'rqishar edi.

Devorlar deyarli bitgan, yana ikki-uch qatordan g'isht terib, keyin starapilga unnasa bo'laverar edi. A'zam ota tomini yopish va eshik-derazani qo'yishga usta yollamoqchi edi.

– Olamjahon ish bir kunda bitdi-ya! E, ko'pchilikka balli! – deb hatto Hanifa xola ham bugungi hashardan juda mamnun bo'lmoqda edi.

Shokirning quruvchi o'rtoqlari esa kuni bo'yi bir qo'yning go'shtidan ziyofat yeb, katta izzat-ikrom ko'rganlaridan shod edilar. Shu tarzda ikki tomon ham bir-birlaridan xursand bo'lib tarqay boshlashdi.

Shokir shu hovlida qoldi. A'zam ota kechasi qorovullik qiladigan joyiga ketdi. Abror ayollar yig'ishtirgan idish-tovoqlarni va qo'yning go'shtidan qolganini kalla-pochasi bilan birga mashinaga joyladi.

– Zafarjon ham rosa qarashdi-ya, buving aylansin sendan! – deb Hanifa xola nevarasini quchib, chakkasidan o'pdi. Bugun kuni bo'yi hovlida yurib, uning bahri dili ochilgan, ko'ngli iyib, kelinini ham xursand qilgisi kelardi.

Abror xotiniga ma'noli ko'z tashlab:



– Qalay, hashar yaxshi bo'lar ekanmi? – dedi.

Vazira unga yon berganday bo'lib:

– Bilamiz, – dedi. – Katta Farg'ona kanali ham hashar yo'li bilan qurilgan.

– Ana o'sha hasharni kinorejissyor Eyzenshteyn o'z ko'zi bilan ko'rib, shunday ta'sirlangan ekanki, bu to'g'rida katta bir film qilmoqchi bo'lgan ekan, xonim.

– Qaysi Eyzenshteyn? «Aleksandr Nevskiyini» olganmi?

– Ha, «Bronenosets Potyomkin» ham o'shaniki. Uni dunyoning eng ulug' kinorejissyori deb tan olishgan. Ana shu Eyzenshteyn yozuvchi Petr Pavlenko bilan birga Katta Farg'ona hashari to'g'risida film yaratishga kirishgan ekan. Urush boshlanib qolib, Eyzenshteyn bu filmini bitirolmagan ekan. Lekin shu ulug' niyatlarining o'zi uchun Eyzenshteyn bilan Petr Pavlenkoga ming rahmat aytsak arziydi. Chunki bu dono odamlar bizning xalqimizdagi ulug' an'analarning kuchini, yaxshi odatlarning go'zalligini ko'pimizdan oldinroq ko'rgan, yaxshiroq qadrlagan. Biz bo'lsak hali ham oldimizdan oqqan suvning qadrini bilmaymiz.

Abror so'nggi gapni xotiniga tegizibroq gapirdi. Vazira uning yuziga tikilib so'radi:

– Menmi o'sha... qadrbilmas?

– O'shanda mendan ham o'tdi, xonim. Buning uchun uzr so'radim. Lekin siz beshik to'yining oilaviy bir hasharga o'xshab o'tishini haligacha tushunganingiz yo'q.

Beshik to'y tufayli tortgan azoblari Vaziraning esiga tushdi-yu, avzoyi keskin o'zgardi:

– Unaqa berahm odatni men yomon ko'raman! Sizni kasal qilib, mening boshimga balo bo'ldi-ku!

– Ayb beshikto'yda emas, o'zimizda. O'zimiz bugungiday ahil bo'lsak, yaxshi o'tardi!

«Ayb menda emas, siz bilan oyingizda» – demoqchi bo'ldi Vazira, lekin shu payt o'choq boshida turgan Hanifa xola baland tovush bilan:

– Hoy, Vaziraxon! – deb uni chaqirdi. – Mana bu shokosada oyingizga osh bilan qovurdoqdan tegish olib qo'ydim.



Qo'y so'ydik-a! Qudam bechoraning og'zi tegib qolsin! Abror, qaytishda Zumradxonni ko'rib o'taylik!

Vaziraning xayoli yana kasalxonaga tushgan onasiga alahsidi. Abror unga «Qalay, tegish olib qo'yish ham yomon odatmi?» demoqchi bo'ldi-yu, lekin o'zini tutdi.

* * *

Zumrad Sodiqovnaning ko'zidan oqini kesib olib tashlash uchun, uni avval bu operatsiyaga tayyorlash kerak edi. Qoramag'izdan kelgan o'rta yashar professor Mansur Kamolovich undan:

– Ona, sabr-bardoshingiz yaxshimi? – deb so'radi.

– Bilmadim, ko'nglim... bo'shroq.

– Unday bo'lsa, operatsiya foyda bermaydi.

– Nega?

– Men ko'zingizdagi pardani o'n daqiqada olib tashlashim mumkin. Lekin jarohat bitguncha uch kecha-yu, uch kunduz boshni qimirlatmasdan chalqancha yotishingiz kerak bo'ladi. Agar shunga bardosh qilolmay, u yoq-bu yoqqa ag'darilsangiz yo boshni ko'tarsangiz, ko'zga qon quyiladi-yu, avvalgidan battar bo'ladi. O'ylab ko'ring, ona, toqat qila olasizmi-yo'qmi?

– Uch kun, xolosmi? Bir amallab chidarman.

– Uch kun operatsiyadan keyin. Ammo undan oldin ikki hafta sinab ko'ramiz.

Bu gap abrorlar avvalgi gal kasalxonaga borganda bo'lgan edi. Bu gal borishsa, Zumrad Sodiqovna sinovdan o'tolmay xit bo'lib o'tiribdi. Ko'zi bog'liq holda chalqancha yotqizib qo'yishsa, bir kunga ham bardosh berolmapti. Yuragi hapriqib turib ketibdi.

– Birinchi marta hamma ham shunday bo'lsa kerak-da, – dedi Abror unga tasalli bermoqchi bo'lib.

– Yo'q, Abrorjon, men uch kun bu ahvolda yotolmayman! Ko'zni tuzataman deb, yuragim yorilib o'laman.



– Agar sinovlaridan yaxshi o‘tsangiz, shu haftaning oxirida operatsiyaga yotqizishmoqchi edi-ya! – afsuslanib dedi Vazira.

Hanifa xola qudasiga yon bosdi:

– E, operatsiyalari qurib ketsin! Qancha odam operatsiyadan keyin o‘rnidan turolmaydi! Bu doktorlarga hadeb ishonavermanglar!..

– Oyi, siz darrov «chappa tashviqot»ga o‘tmang! – kulib gapirdi Abror. – Biz professor Mansur Kamolovich bilan gaplashganmiz. Bu ko‘zlarini hozir ochishmasa, narigi ko‘zlari ham xiralashib qolyapti. Bir yildan keyin ahvollari nima bo‘ladi?

Ular yo‘lakda davra tortib turgan edilar, oq xalat kiygan o‘ttiz yoshlardagi juvon oldilariga kelib salom berdi:

– Men navbatchi vrachman. Sizlar Zumrad xolaning yaqinlarimisizlar?..

Vazira o‘zini va Abrorni vrachga tanitdi.

– Bo‘lmasa men Zumrad xolaning oldilarida sizlarga bir narsani aytmoqchiman. Ochiq aytganimga xafa bo‘lmanglar, lekin Zumrad xola sal vahimachi ekanlar. Yuraklari yaxshi. O‘zlariga ishonishlari kerak. Biz qarab turibmiz.

– Qon bosimim oshib ketgani-chi? – dedi Zumrad xola.

– Bunday paytda hammaniki ham sal-pal oshadi. Siz uchun biz javobgarmiz. Bizga ishonavering! Mana, sizlarga bitta voqeani aytib beray... Bundan ikki yil oldin yetmish yashar kampirni yetaklab kelishdi. Ko‘ziga oq tushib, ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan. Yana bo‘ynida kosaday keladigan bo‘qog‘i bor. Bo‘qoq shunaqa narsaki, chalqancha yotganda odamni yomon bo‘g‘adi, yurakni siqadi. Sog‘ odamga qaraganda bo‘qog‘i bor odamning qimirlamay yotishi o‘n barobar qiyin. Professorimiz shuni aytib, «Bu ayolni operatsiya qilish mumkin emas», dedi. Lekin kampirni yetaklab kelgan o‘g‘li bolalar doktori ekan. Mansur Kamolovichga qarab, «Bizga olti oy muhlat bering, shungacha oyim uch sutka bemalol qimirlamay yotishga o‘rganadilar», dedi. Professor



ko'ndi. Olti oydan keyin o'g'li kampirni yana yetaklab keldi. Mana shu Zumrad xola yotgan palataga yotqizib, ko'zlarini bog'lab, sinab ko'rdik. Ishonasizmi, o'sha bo'qog'i bilan ikki kecha-yu ikki kunduz chalqancha yotib, bir og'iz ih demadi. Keyin ko'zlari operatsiya bo'ldi. Uch kecha-yu uch kunduz ko'zlari bog'liq holda qimir etmay yotdi. Hammamiz qoyil bo'ldik. O'g'illaridan, bu kishi yotishga qanday o'rgandilar?» deb so'rasak, hammasi mashq bilan bo'libdi. Birinchi kun uch daqiqa, ikkinchi kun olti daqiqa, uchinchi kun o'n daqiqa, o'ninchi kunga borib bir soat, bir oyda o'n olti soat... Ana shunaqa qila-qila, olti oyda uch sutkaga yetkazibdilar.

– Kampir oxiri tuzalib chiqib ketdimi? – so'radi Abror.

– Ha, albatta. Yaqinda ko'chada ko'rib qoldim. Yetakchisiz bir o'zi bemalol ketyapti.

Hanifa xolaning kayfiyati bolanikiday tez o'zgarar edi. Bu hikoyani eshitgandan keyin:

– Hoy, qudajon, sabr-bardoshda hikmat ko'pligi rost, – dedi.

– Nima, men ham olti oy mashq qilamanmi? – yuragi bezillab so'radi Zumrad Sodiqovna.

– Xudoga shukr, sizning bo'qog'ingiz yo'q, – dedi Hanifa xola.

– O'n-o'n besh kun chidab bersangiz, oyday bo'lib chiqasiz, – dedi Vazira.

Zumrad Sodiqovnani hammalari o'rtaga olib qo'llaridan kelgancha ko'nglini ko'tardilar va sabr-toqat bilan mashqni davom ettirishga ko'ndirib chiqib ketdilar.

* * *

Bir vaqtlar faqat qog'ozdagina bor bo'lgan va uyqusiz tunlarda Abrorning xayolidagina shovullab turgan qator favvoralar endi Toshkent quyoshi tagida yaltirab, ming-ming odamlarni o'ziga torta boshladi.



Osmonda mezonlar uchib yurgan kuz kunlarida Toshkentning yubiley obyektlari birin-ketin tayyor bo'lib, safga kira boshladi. Bo'zsuv ustiga qurilgan eng katta ko'priki bitib, eni yuz metrdan ortiq shohko'cha ochildi. Markaziy maydondagi yigirma qavatli ma'muriy bino pardozdan chiqib, bayram bezaklarini taqishga tushdi. Marmar minorasiga ulkan soat o'rnatilgan yigitlarday xipcha va azamat Matbuot uyiga tahririyatlar ko'chib o'tdi. Inqilob xiyobonida qadimiy me'morchiligimizning go'zal jimjimalari bilan bezangan «O'zbekiston» mehmonxonasi mehmonlarni qabul qilishga kirishdi. Ikki yildan beri qurilish maydoniga aylanib, bekilib qolgan Pushkin ko'chasining bosh qismi to'y arafasida birdan ochilib ketdi-yu, juda ko'p shofyorlar qatori Abror ham bundan katta yengillik seza boshladi. Chunki bu uning har kuni ishga qatnaydigan ko'chalaridan biri edi.

Yubiley kuni Markaziy maydondan yasan-tusan bo'lib o'tgan namoyishchilar orasida Abror, Vazira, Zafar, Malika – hammalari bor edi. Vazira bolalariga maydondagi yangi yo'lkalarni, favvoralarni, har biriga alohida quvurdan suv olib borilgan kumushrang archalarni ko'rsatar:

– Bilib qo'yinglar, mana shularning loyihasini dadanglar chizgan, – derdi.

– Bitta men emas, ko'pchilik chizgan, – deb qo'yardi Abror.

Lekin shu ko'pchilikning orasida o'zi ham borligi uning ko'nglini yorug' va iliq tuyg'ularga to'ldirib turardi.

* * *

Yubiley o'tgandan keyin Abror Sadriyevning bo'shroq paytini topib, uning kabinetiga eskizlar solingan kattakon bir jildni ko'tarib kirdi.

– Sizdan iltimos, mana shu narsalarni bir ko'rib bersangiz.



Sadriyev jildni ochib, uning ichidagi eskizlarni ko'ra boshladi.

Qirg'oq bo'yida soyasi quyuq qoramtir sadaqayrag'ochlar bilan qurshalgan go'zal bir imorat tasviri. Imoratning tekis tomi tunuka yoki shifer bilan emas, yam-yashil ko'katlar va lolalar bilan yopilgan. Buning nimasidir eski uylarning tomida o'sadigan lolaqizg'aldoqlarni esga soladi. Sadriyev tomi ko'katlar bilan bezangan binolarni chet elda ham ko'rgan. Hozirgi beton konstruksiyalar bunaqa tomlarni suv o'tkazmaydigan qilib qurish imkonini beradi. U shuni o'ylab:

– Tomni yaxshi topibsiz, – dedi Abrorga.

U ikkinchi eskizni qo'liga oldi. Bunda Bo'zsuvning tezoqar joyiga o'rnatilgan charxpalak tasvirlangan edi. Odatdagi charxpalaklarning parraklari xunuk. Suv oladigan idishlari zanglagan konserva bankalaridan qilingan, temirlari ham bir-biriga naridan-beri ulangan bo'ladi. Eskizdagi charxpalak esa qirg'oqni bezaydigan shaklda juda chiroyli bo'yoqlarga bo'yalgan, har bir detali estetik did bilan ishlangan edi. Charxpalak muttasil chiqarib berib turadigan suv qirg'oq bo'yidagi chinorlar, emanlar, sadalar tagidan qanday jildirab oqib turishi ham ko'rsatilgan edi.

– Butun bir kompleks shekilli? – deb Nabi Sadriyevich qolgan eskizlarni ham ko'zdan kechirishga tushdi. – Bu nima, suv tegirmonimi? Bunisi objuvozga o'xshaydi-ku.

– Topdingiz.

– G'alati narsalarni topib yurasiz-da, Abror A'zamovich.

– Men ularni o'zimcha o'ylab topganim yo'q, Nabi Sadriyevich. Bo'zsuv, Qorasuv, Salor bo'ylaridagi tegirmonlar, objuozlar esingizda bormi? Arpapoya arig'ining bo'yida qirqinchi yillarda ham tegirmonlar bor edi, a, to'g'rimi?

– To'g'ri-yu, lekin endi ularning nima keragi bor? Hozir unni elevatorda tortilsa, guruch zavodda oqlansa...

– Lekin bir majlisda siz o'zingiz aytgan edingiz. Mehnatkash xalq ijod qilib yaratgan g'alati-g'alati inshootlarni



yangi bir shaklda qayta tiklab, Toshkent arxitekturasining tarixini ham ko'rsatishimiz kerak degan edingiz. Charxpalak chiroyli qilib ishlansa-yu, Bo'zsuvning tabiiy oqimi bilan aylanib tursa yomonmi?

– Bunga qarshilik yo'q. Lekin tegirmon bilan objuvoz...

Abror eskizda faqat ularning tashqi ko'rinishini saqlab qolgan edi. Bo'zsuvdan chiqarilgan suv chim bosilgan, badiiylashtirilgan ko'tarma ariq bilan tegirmonning novasiga keladi. Parraklar tegirmon toshini aylantirishi kerak. Bu yerda tegirmon toshiga o'xshagan, lekin yengil plastikadan ishlangan narsa bor. Uning ustida karusel bo'ladi. Besh-olti ta odam o'tiradigan o'rindiqlar qo'yiladi. Hamma narsa aslida tok bilan ishlaydi. Suvni ham Bo'zsuvdan damba ariqqa elektr nasoslar chiqarib beradi. «Tegirmon toshi» ustidagi karuselni ham tok aylantiradi. Lekin bu hammasi ko'zga tashlanmaydi. Knopka bosilgandan keyin suv oqib kelib, novadan pastga shovillab tushadi, «tegirmon toshi» karusel bilan birga aylanadi. Uni xuddi Bo'zsuv aylantirayotganday bo'ladi. Karuselda o'tirganlar bundan zavq oladi, hordiq chiqaradi.

– Fantaziyaga juda erk berib yuboribsiz, Abror.

– Ha, endi fantaziyasiz ijod bo'lmaydi-ku.

– Xo'sh, objuvozingiz qanaqa bo'ladi? Ikkita yog'och gurzisi gupura-gupur urilib, sholini oqlab turadigan odati bor-ku. Uni qanaqa ishlatmoqchisiz?

– Unga ham suv badiiylashgan ko'tarma bilan keladi. Nova, parrak – hammasi bor. Bilasizmi, bultur Germaniyaning bir shahriga borsak, ularda objuvozga o'xshab, suv bilan ishlaydigan qadimiy bolg'a bor ekan. Bu bolg'a ham objuvozning gurzisiga o'xshab, suvning kuchi bilan ko'tarilib tushib turadi. Faqat yog'ochdan emas, po'latdan. Vazni, albatta og'ir, shuning uchun ikkita emas, bitta. Olovda qizigan temirni shunday tagidagi bosqonga qo'yib tursa, suv bilan ishlaydigan bolg'a ko'tarilib-tushib, birpasda toblab berarkan. Ishonasizmi, germaniyaliklar



o'sha bolg'ani qayta tiklash uchun ikki yuz ming pul sarflashibdi... Mana bu eskizdagi objuvoz undan ikki barobar arzonga tushadi.

Buni Abror yozgi palovxonaning yoniga qurishni taklif qildi. Objuvoz bilan palovxona bir-biriga ichkaridan bog'langan bo'ladi. Ko'zga ko'rinmaydigan transportyor lentasi ikki orada elektr kuchi bilan yurib turadi. Lekin transportyor objuvozning gurzilari bilan harakatga keltirilayotganday ko'rinadi. Oshxo'rlar chek o'rniga jeton oladi, uni objuvozning ma'lum bir joyiga tashlaydi. Naryoqda oshpazlar issiq palovni kosalariga solib, tayyor qilib turgan bo'ladi. Jeton tashlanishi bilan objuvozning gurzilari tasiratusir ishga tushib, transportyor lentasini «urib», aylantirib boshlaydi. Lentaning narigi chetida oshpaz kosaga solib, transportyorga qo'ygan palov objuvozning ichidan «suzib» chiqadi-da, sekin oshxo'rning oldiga kelib to'xtaydi.

– Objuvoz guruch oqlash o'rniga birato'la tayyor palov chiqarib beradi deng! – xoxolab kuldi Sadriyev. – Niyat yaxshi. Kelajakda biz Toshkentning tarixiy qiyofasini ko'rsatadigan mana shunaqa narsalarni ham qurishimiz kerak. Lekin yaqin yillarda qiladigan boshqa dolzarb ishlar ko'p! Hozir bo'limingiz g'alabaning o'ttiz yilligiga oid ishni qilyaptimi? Bu ham yubiley obyekti, a, bilarsiz?

Abror o'zining bugun taklif qilayotgan ijodiy rejalari yana bir-ikki yilga kechiktirilishi mumkinligini sezdi-yu, oldindan xayolida pishitib kelgan gaplarini ayta boshladi:

– Nabi Sadriyevich, har holda, biz avvalgi yubiley obyekti-ning loyihalarini vaqtida topshirgan edik.

– To'g'ri, Abror A'zamovich, biz bo'limingizga buyruq bilan rahmatnoma e'lon qildik, sizni bir qancha me'morlar qatori mukofotga taqdim etdik, hali laureat bo'lib ketishingiz mumkin.

– Hammasi uchun rahmat! Boshqarmaning bundan keyingi topshiriqlarini ham kechiktirmay bajarishga harakat qilyapmiz. Kelgusi bahorda g'alabaning o'ttiz yilligi



nishonlanadi. Oradan bir yil o'tgandan keyin Toshkentning zilzilada ko'rsatgan jasoratiga o'n yil to'ladi. O'shangacha episentr o'rnida katta monument quriladi. Bu ishga ham biz o'z hissamizni qo'shamiz. Oradan yana bir yil o'tgandan keyin Oktyabr inqilobining oltmish yilligi bo'ladi. Bu tarixiy sanaga atalgan yubiley obyektlari uchun biz yana yangi loyihalar chizamiz.

- Hammasini oldindan ko'radigan bo'lib boryapsiz-a, Abror A'zamovich!

- Chunki tajriba bizni shunga o'rgatyapti-da. Yubileydan yubileygacha bo'ladigan ishlarnigina o'ylab yashab bo'lmaydi-ku, kundalik hayotimizda hal etilishi kerak bo'lgan masalalarni ham unutish kerak emas. Har bir me'morning qalbiga tugib yurgan o'z ijodiy rejalari bo'ladi. Bular ham odamga tinchlik bermaydi. Bu rejalar ham hayotda bor ehtiyojlardan kelib chiqadi. Men Bo'zsuv haqidagi takliflarimni bundan ikki yil oldin institutimiz direktori Sayfulla Rahmonovichga yozib bergan edim. Haligacha aniq bir javob olganim yo'q. Nuqul «kuting», deydi. Umr o'tib ketyapti. Shuning uchun bugun sizning huzuringizga keldim.

- Kelganingiz yaxshi, lekin Bo'zsuv bo'ylarini obod qilish boshqa katta obyektlarning bitishiga qarab turibdi-da.

- Menimcha, Nabi Sadriyevich, Bo'zsuv bo'ylarini go'zal oromgohga aylantirish - landshaft me'morchiligining mustaqil hal qiladigan juda katta bir muammosi. Chunki, Bo'zsuv - ming yillardan beri Toshkentning belini baquvvat qilib turgan ajoyib bir olmos kamar. Uning qirg'oqlarini ulkan bir san'at asariga aylantirish payti keldi.

- Faqat siz emas, biz hammamiz Bo'zsuv haqida ko'p o'ylaymiz, o'rtoq A'zamov, - deb Nabi Sadriyevich ovozigani endi rasmiyroq tus berdi. - Metro tunnelini Bo'zsuvning tagidan o'tqazish masalasi kun tartibida turibdi. Shu munosabat bilan yaqinda biz yangi bir loyihani tasdiqdan o'tkazdik. Balki eshitgandirsiz? Rafiqangiz Vazira A'zamova aytganlari yo'qmi?



– Vazira menga bu to'g'rida gapirgani yo'q.

– Direktoringiz Sayfulla Rahmonov ham o'sha loyiha-ning hammuallifi ekan. Sherzod Bahromov, Vazira Badalov-na – hammalari birga stadion yonida Bo'zsuvning bir kilo-metrlik yangi o'zanini o'tkazishmoqchi.

– Iye, eski o'zan nima bo'ladi?!

– Eski o'zan tekislanib, gulzor qilinmoqchi.

– Nabi Sadriyevich, – men bunday loyihaga mutlaqo qarshiman! – to'satdan katta boshliqning oldida o'tirganini ham unutib xitob qildi Abror.

– Rafiqangiz sizga nega aytmabdi desam... qarshi chi-qishingizni bilib aytmagan ekan-da.

– Axir Bo'zsuv – tarixiy inshoot-ku, Nabi Sadriyevich! Uni huda-behudaga qayta quraverish to'g'rimi?

– Behudaga emas, o'rtoq A'zamov! Metroning tunneli-ni Bo'zsuvning tagidan o'tkazish – davlat ahamiyatiga ega bo'lgan katta vazifa. Shu vazifani bajarishga qaratilgan lo-yihani biz qabul qildik. Bu bir zarurat!

Nabi Sadriyevich Abrorning eskizlarini taxlab jildga sol-di-da, egasiga tomon surib qo'ydi. Abror bo'shashib o'rni-dan turdi. U jildni yopib, qo'lga olayotganida Sadriyev unga achinganday bo'lib qaradi-da:

– Bu masalaga kelajakda yana qaytamiz, – dedi.

– Hozir butun kuchni qo'lingizdagi yubiley obyektiga sarflang. Endi g'alabaning o'ttiz yilligini munosib sovg'a bi-lan kutib olaylik. Xo'pmi?

Abror xomush bosh irg'ab, kabinetdan chiqar ekan: «Nahotki Vazira shunchalikka borgan bo'lsa?» degan o'y vujudini mushuk bo'lib tatalayotganday tuyuldi.

* * *

Vazira ishdan keyin katta yo'l bo'yiga chiqsa, Abrorning olcharang «Jiguli»si belgili joydan sal narida – daraxt tagida turibdi. Ko'pincha Vazira oldinroq chiqib, Abrorning



kelishini kutib qolardi. Bugun erining ertaroq kelganidan mamnun bo'lgan Vazira oldingi eshikni ochar ekan, quvnoq tovush bilan:

– Voy, xayriyat-ey, oftob qayoqdan chiqdi! – dedi.

Abror esa unga sovuq bir nazar tashlab:

– Qalay, Sherzod Bahromovni xursand qilib kelyapsizmi? – dedi.

Vazira uning savolidan ham ko'ra tovushidagi achchiq izg'iringa hayron bo'lib so'radi:

– Bu nima deganingiz?

– Siz unga hammuallif bo'lgan emishsiz-ku. Loyihasini tasdiqdan o'tkazgan emishsiz. Sizga oshiq bo'lib yetisholmagan Bahromov... endi tantana qilib yurgandir?!

Abror Vaziraga ko'zlarini qadab, qahr aralash umid bilan tikilib turardi. Shu topda u buning hammasi yolg'on bo'lib chiqishini, Vaziraning: «Bekor gap, kim aytgan bo'lsa, ig'vo qilibdi!» deyishini istardi. Agar bu yolg'on bo'lib chiqsa, Abror ichini mushukday tatalayotgan o'ylardan birato'la qutulgan bo'lardi.

Lekin Vazira uning ko'zlaridan ko'zini olmay:

– Siz nimalarni o'ylayapsiz o'zingiz? – dedi. – Odamlar bir-birlari bilan to'g'rilikcha hamkorlik qilishi mumkin emasmi? Nima, men Bahromovga hammuallif bo'lsam, uning o'ynashiga aylanib qolamanmi? Siz shunaqa bir shubhaga boryapsizmi?!

Abror o'n sakkiz yillik umr yo'ldoshi to'g'risida bunaqa shubhalarga borish qanchalik xunuk va bachkana bo'lishini endi sezdi. Lekin Bahromov bilan o'zining orasida bo'lib o'tgan to'qnashuvlar, Abrorni Sherzod haligacha yomon ko'rishi, iloji bo'lgan joyda to'g'anoq solishi, shunga qaramay xotining hozir shu odam bilan sheriklikda ish qilgani uni tutoqtirib yubordi:

– Men anig'ini bilmoqchiman. Nega shunday bo'ldi? Nega buni mendan sir tutib yuribsiz?!

– Shoshmasangiz, vaqtini topib aytib berar edim!



– Sherzod deb atalgan o'sha tulki endi meni sizning yordamingiz bilan yengmoqchi bo'lsa kerak!

– Yana adovat! Go'yo hamma faqat sizni yengishni o'ylaydi! Axir bu loyihaning sizga aloqasi yo'q-ku!

– Nega aloqasi yo'q ekan? Men kecha-yu kunduz Bo'zsuv haqida o'ylab, loyihalar chizib yurganimni boshqalar bilmasa ham siz bilasiz-ku!

– Lekin Bo'zsuvni o'ylash – sizning monopoliyangiz emas. Uni boshqalar ham o'ylaydi. Biz ham shu suvning bo'yi go'zal bo'lsin deb loyiha chizdik!

– Qani, tushing-chi, siz aytgan «go'zal» qirg'oqlar qayerda bo'lishini bir ko'raylik.

Er-xotin suv bo'yi bilan oqimga qarab yurib ketishdi. Bo'zsuvning tiniq to'lqinlariga xazonlar qo'shilib oqmoqda edi. Baland-baland daraxtlarning shoxidan ham chirt-chirt qilib, qovjiroq barglar uzilib tushar va oyoq tagida shitirlardi.

Vazira sixday to'g'ri ketadigan yangi o'zanning qayerdan o'tishini ko'rsata boshladi:

– Qirg'oqlarga granitdan qanot qilinadi. Qirg'oq bo'ylab keng trotuar ketadi, unga chiroyli beton plitalar yotqiziladi.

– Demak, o'zanni mana shu yerdan o'tkazmoqchisiz? – deb Abror tanasi quchoqqa sig'maydigan ulkan chinorlarni va emanlarni ko'rsatdi. Qirg'oq bo'yida kattakon bir yong'oq daraxti ham bor edi. Abror o'shanga ishora qildi: – Mana buning o'rniga beton plitalar yotqizasiz? Nahotki shunday ajoyib tabiatga ichingiz achimaydi?

– Achisa nachora? Yana o'n-o'n besh yilda bulardan ham go'zal daraxtlar o'stirish mumkin-ku.

Abror Vaziraning tabiatga juda loqayd ekanini ilgarilari ham sezar edi. Oqtoshga yoki Xumsonga dam olishga borganlarida Vazira mashinadan tushib, birpas u yoq-bu yoqqa ko'z tashlar edi-yu, darrov zerikardi. Yo mashinaga qaytib kirib olar, yoki salqinroq joyga o'tirib, tranzistorning qulog'ini burashga tushardi. Abror unga: «Radioni shaharda ham eshitaverasiz, lekin bu yerdagi jimlikni hech qayerdan



topolmaysiz, tabiatning nafasini tinglang!» desa, Vazira qo'l siltardi. U tabiat bag'rida allanechuk juda tez zerikib qolar, «Bo'ldi endi, shaharga qaytaylik», deyaverardi. Balki Vazira bolalikdan ko'p qavatli uylarda o'sgani va doim asfaltda yurib o'rgangani uchun shundaydir?

Mana hozir ham Bo'zsuv qirg'oqlaridagi kuzgi daraxtlarning go'zalligini u Abror his qilganchalik zavqlanib his qilmas edi. Bu daraxtlarning tagiga xazon to'kilib ivirsiyotgani uning ko'ziga yomon ko'rinardi. Qirg'oqlarning katta daryolar o'zaniga o'xshab ketgan past-u baland joylari, burilishlari Abror uchun tabiiy bir jozibaga ega edi. Vaziraga esa bu hammasi axlat va ifloslik to'planadigan pastqam joyday ko'rimsiz tuyulardi.

– Sankt-Peterburgdagi Neva bo'ylarini eslang! – dedi Vazira eriga. – Butun qirg'oqlari granit libos kiygan. Hamma yoq silliq, yog' tushsa yalagudek toza, ozoda.

– Nahotki siz Sankt-Peterburg bilan Toshkentning iqlimidagi farqni bilmaysiz? Sankt-Peterburg suv ustida turibdi. Hamma yog'i daryo-yu, dengiz. Shuning uchun unga doim quruq turadigan granit libos kerak. Bizda iqlim quruq, yoz issiq, odamlar mudom suvga yaqinroq bo'lishga intiladi.

– Zinapoyalar bo'ladi, juda istagan odam o'shalardan yurib, suv bo'yiga tushaveradi.

– Lekin Bo'zsuv – tarixiy obida. Uni buzib tashlashga haqqingiz yo'q!

– Biz faqat tarix yo'l qo'ygan xatolarni buzib, to'g'rilamoqchimiz, xolos!

– Siz avval o'zingizdagi kamchiliklarni to'g'rilang, xonim!

– Qaysi kamchiligimni aytyapsiz?

– Sizni Bahromovga maslakdosh qilgan kamchiligingizni!..

– Tushunmadim?

– Siz ham o'sha odamga o'xshab nuqul temir-betonga sig'inasiz, tirik tabiatni pisand qilmaysiz. Sizga yasama go'zalliklar bo'lsa bas. Axir Bo'zsuv ming yillar davomida yer relyefiga moslashib, tabiiy daryodan egilib-burilib



oqadigan bo'lgan. Siz uni tayoqday to'g'ri beton o'zanga solishning loyihasini chizibsiz. Shuning o'zi – sizning tabiat yaratib qo'ygan go'zalliklar zavqidan bebahra ekaningizni ko'rsatmaydimi? Odamdagi bu kamchilik – ma'naviy ko'rlikka o'xshaydi, shuni bilib qo'ying!

Abror qo'llarini sermab, zardasi qaynab gapirar, qirg'oq bo'yida sayr qilib yurgan odamlar er-xotin ikkovlariga o'g'irilib qarayotganlarini sezmas edi.

– Mana endi ko'r ham bo'ldik! – dedi Vazira ma'yus tovush bilan. – Bir vaqtlar siz shu anhorning bo'yida muhabbat izhor qilib, meni ko'klarga ko'tarib maqtaganlaringiz esingizdan chiqdimi? Bo'zsuvning tili bo'lsa aytsin!..

– U vaqtlarda men sizning bunaqa ishlar qilishingizni qayoqdan bilibman? Siz hozir mening eng yomon ko'rgan odamimga qo'shilib, yelkamdan pichoq urganday bo'lyapsiz, bildingizmi?

O'tkinchilar ularni janjallashyapti, deb o'ylab, o'g'irilib qarayotganini Vazira endi payqadi.

– Mana shunaqa janjal qilishingizni bilib aytmay yurgan edim-da! – dedi past tovush bilan. – Siz, nima, bu yerda hammaga tomosha bo'lib urishmoqchimisiz?

Abror atrofida begona odamlar yurganini go'yo endi ko'rdi va indamay mashinasi turgan tomonga burildi. Vazira u bilan yonma-yon borar ekan.

– Men sizga o'zimning fikrimni zo'rlab o'tkazayotganim yo'q-ku, – dedi. – Siz ham meni o'z holimga qo'yishingiz kerak emasmi? Men faqat siz istagan loyihani chizsam – tinch yursam, siz suymagan mavzuni ishlaganimda bunaqa xafachilik bo'lsa, unda men doim sizga qaram bo'lib yashashim kerakmi? Nima, faqat siz arxitektorsiz-u men arxitektor emasmanmi? Yo mustaqil ijodkor emasmanmi?

Mashinaga o'tirganlaridan keyin Abror alamli tovush bilan dedi:

– Mustaqil ish qilsangiz, men bunchalik kuymas edim. Siz o'sha Bahromovning aravasiga tushib, uning ashulasini aytib yurganingizdan tutoqib ketyapman!



Abror gazni qattiq bosib, mashinani asabiy hayday boshladi.

– Sizdan iltimos, shu gapni bas qilaylik, – dedi Vazira. – Men hech kimning ashulasini aytib yurganim yo‘q. Siz xotirjam bo‘lishingiz uchun bolalarim haqqi qasam ichamanki, men oilamga sodiqman! Tamom!

– Oilaga sodiqligingiz – boshqa masala, Vazira, – deb Abror sal hovuridan tushdi: – Lekin men hozir tabiatga sodiqlik haqida so‘zlamochiman. Bilasiz, tepamizda havoning ozon qatlami bor. «Yerning ozon shapkasi» deyishadi. Men suratini ham ko‘rganman. Nafis oq ipak pardaga o‘xshaydi. Ana shu musaffo parda Yerdagi hayotni saqlab turarkan. Quyosh nurining hayotga foydali qismi ozon pardadan bemalol o‘tib kelarkan, lekin atom radiatsiyasiga o‘xshagan zararli nurlarni ozon parda o‘tkazmay tutib qolarkan. Agar shu ozon parda yirtilib tamom bo‘lsa, quyosh radiatsiyasining o‘ziyoq yerdagi barcha tirik jonni o‘ldirishi mumkin ekan. Men o‘ylaymanki, har bir yaxshi odamning qalbida ham osmondagi ozon qatlamiga o‘xshagan pok bir halollik pardasi bo‘ladi. Halollik pardasi xuddi osmondagi ozon pardasiga o‘xshab, ma‘naviy hayotimizni obod qiladigan nurlarga yo‘l beradi, ammo odamni harom yo‘lga boshlaydigan, tabiatni uvol qiladigan, ma‘naviy dunyoni o‘ldiradigan zararli narsalardan bizni himoya qiladi. Lekin halol-haromni farq qilmaydigan, faqat o‘zining foydasini o‘ylaydigan manfaatparast odamlar tabiatni ham, ma‘naviyatni ham pisand qilmaydi. Ular hamma dardga texnika bilan temir-betondan davo topamiz, deb o‘ylaydi. Atom radiatsiyasidan ham bizni qalin beton devor himoya qiladi, deb ishonadi. Shuning uchun osmondagi ozon qatlamining yirtilishi ham, odamlarning dilidagi halollik pardasining yo‘qolishi ham bahromovlarni tashvishga solmaydi. Vijdon azobi nimaligini bilmaydigan, gap o‘tmaydigan bunday terisi qalin odamlarni bizda «suvyuqmas» deyishadi. Beton



ham suvni o'ziga yuqtirmasligi tufayli Bahromovning didiga mos kelsa kerak. «Temir odam» degan ibora bor. Men Bahromovni «beton odam» degim keladi.

– Ob-bo, betonga muncha qarshisiz? – dedi Vazira.

– Siz meni tushunmayapsiz.

– Avval o'zingiz bir narsani tushuning: hozir birorta qurilish betonsiz bitadimi?

– Bitmaydi. Agar o'rnida ishlatilsa, beton juda yaxshi narsa. Men betonning o'ziga mutlaqo qarshi emasman! Lekin bu Bahromov vijdonining o'rniga ham beton qo'yib olgan, men ana shunga qarshi gapiryapman!

– E, qo'ying-e! Bahromov ham siz-u bizga o'xshagan tirik odam-da!

Vazira so'zidan adashmay, ichki bir ishonch va e'tiqod bilan gapirganiga qaraganda, o'zini haq deb bilmoqda edi. Abror uni so'z bilan yengib bo'lmasligini sezdi-da, indamay mashinasini Usmon Yusupov ko'chasiga tomon burdi.

Uylarining yo'li boshqa yoqda qolib, Labzakka tushib borayotganlarida Vazira eridan:

– Qayoqqa bormoqchisiz? – deb so'radi.

– Chizgan loyihangizning kelajagiga! – dedi Abror istehzo bilan.

Ko'p o'tmay yo'lning kun botish tomonida Kaykovus arig'ining qurib yotgan o'zani va betonlashtirilgan qirg'og'i ko'rindi. Abror mashinasini o'sha tomonga burdi-da, og'ir beton plitalar yoniga kelib to'xtatdi Vaziraga o'girilib:

– Ko'ryapsizmi? – dedi. – Bu ham o'sha bahromovlar chizgan loyiha. Biz muhokama paytida aytgan edik. Qirg'oqlarda daraxt o'sadigan bo'lsin, taypoq bo'lmasin degan edik. Mana, baribir taypoq qilib qurishyapti. Qirg'og'ida giyoh o'smaydigan quruq beton plitalar. Shahar arxitekturasiga bu yamoq bo'lib tushishini nahotki sezmaysiz?

– Men... aytganman!.. Hali o'zan qurib bitirilganda chetlariga chiroyli parapetlar qilinadi. Atrofi ko'rkamlashtiriladi...



– Demak, siz loyihaning boshqarma tasdigʻidan qanday oʻtganini bilasiz? Balki bu ishda Bahromovga yordam bergandirsiz?!

– Bahromov siz oʻylagan darajada yordamga muhtoj odam emas!

– Bilaman, u – aylanma yoʻllarni topishga usta. Oʻz manfaati yoʻlida hech narsadan qaytmaydi!

– Nima, Kaykovusni betonlashtirish ham Bahromovning shaxsiy manfaatiga aylanib qoldimi endi?

– Ha, bu qadimiy kanalni did bilan sanʼat asariday qayta qurishdan koʻra maʼlum shablonlar asosida taypoq qilib betonlab chiqish osonroq. Bahromov doim oson yoʻlni tanlaydi, «mendan ketguncha, egasiga yetguncha», deb ish tutadi. «Muncha ming soʻmlik qurilish qildik, rejani oshirib bajardik», deb raport bersa bas. Naryogʻi bilan ishi yoʻq. Keyin reja bajarganidan kerilib nutq soʻzlaydi, mukofotlar oladi!

– Yomon koʻrgan odamingizga dunyoda bor ayblarni taqaverar ekansiz-da!

– Nahotki siz oʻzingiz Bahromovning tashi yaltiroq, ichi qaltiroq ishlarini koʻrmagansiz? Bahromov rayijroqʻmda ishlab yurgan paytda qilgan ishi esingizdan chiqdimi?

– Yana qaysi ishi?

– Bitta maydonchani tezda gulzorga aylantirish kerak boʻlib qoldi. «Ertaga shahar rahbarlari kelib koʻrarmish», deyishdi. Odamlar hasharga chiqqan. Lekin maydonchada ikki tonnalik siniq beton plitalar yotgan ekan. Biz koʻtargich kranlar topib kelib, bu plitalarni mashinalarga ortib yubormoqchi boʻldik. Lekin texnika tezda topilavermadi. Shundan keyin soz tuproq ortgan samosvallar kelib qoldi. Bahromov oʻylab-netib oʻtirmay, beton plitalarning ustiga soz tuproq toʻktirdi-da, tekislatdi. Gullab turgan qizil kannlarni ektirdi. Shahar rahbarlari kelib-ketguncha bu gullar ochilib turdi-yu, keyin tagidagi betonga tomiri tegib qurib qoldi... Bu orada Bahromov kerakli odamlarga yaxshi



ko'rinib, boshqa kattaroq lavozimga ko'tarilib ketdi. Bechora obodonlashtiruvchilar qurigan gullarni ko'chirib, beton plitalarni olib tashlab, maydonchani qaytadan obod qilguncha qancha azob tortishdi... Bu-ku, kichik bir maydoncha edi... Bahromov bilan birga chizadigan loyihalaring Bo'zsuv bo'ylarini ham xunuk qilib qo'yadigan bo'lsa, uni qaytadan obod qilguncha qancha kuch ketadi, qancha vaqt ketadi! Mana Kaykovusning shu ko'rimsiz joyi ham siz uchun achchiq bir saboqqa o'xshab turibdi.

– Bizning loyiha butunlay boshqacha! – dedi Vazira. – Avval amalga oshiraylik. Undan keyin ko'rasiz!

– Keyin kech bo'ladi!

– Qani, mashinangizni haydang. Uyda bolalar bizga qarab o'tirgan bo'lsa kerak.

Abror mashinani katta ko'chaga haydab chiqqanda Vazira unga:

– Munozara bas, ish to'g'risidagi gap ishxonada qolsin, – dedi. – Uyda ham, ko'chada ham ishning janjalini qilib yuradigan er-xotinlarni jinimdan battar yomon ko'raman. Uyda uyning tashvishi ham yetib ortadi odamga!

Abror jim bo'lib qoldi. Mashinani garajga qo'yib, uylariga yaqin borguncha ikkovlari ham churq etishmadi.

Podyezd qarshisidagi kooperativ uy Abrorga yana Sherzod Bahromovni eslatdi. Bultur kuzda bu uyning devorlari va tomi bitdi, bahorda uyning eshik-derazalari qo'yildi, atrofidagi yog'och devor olib tashlandi, yon-veriga yo'lkalar qilindi, ko'chatlar ekildi. Shu bilan hovli yuzi ancha ochilib, bolalar bemalolroq o'ynaydigan bo'lib qoldi.

Yangi uydagi hamma kvartiralarga odamlar ko'chib kirgandan keyin hovli yanada gavjum, yo'lkalar yanada serqatnov bo'lib ketdi. Yozda derazalar lang ochilib, odamlar hovli tomondagi balkonlarga chiqadigan bo'lganda ikkita ko'p qavatli uyning biri biriga juda taqab qurilgani ko'p noqulayliklarga sabab bo'lar, narigi uyning ochiq derazalaridan uchib chiqqan shovqinlar bu uydagilarga tinchlik ber-



mas, odamdar bir-birlarining ko'zlaridan panalaydigan joy topolmay qiynalishardi.

Arxitektura jihatidan o'rinsiz tushgan bu uyni Abror har ko'rganda bir g'ijinsa ham, oylar o'tishi bilan unga xuddi yuzga chiqqan so'galga o'rganganday o'rganib, ko'nikkan va ko'pdan e'tibor bermaydigan bo'lib qolgan edi.

Lekin bugun bo'lgan hodisa eski dardlarni yana yangiladi. Sherzod Bahromovning yuzaki, nursiz ijodi Abror yashayotgan hovlini ko'rimsizlashtirgani ozlik qilganday, endi uning navbatdagi yasama loyihasi Vazira orqali oilalariga kirib kelib, turmushlariga ham xol qo'yadiganday tuyula boshladi.

Abrorlar Sherzod qilgan ishlarning barcha nuqsonlarini to'g'ri ko'rsatsa ham, gap gapligicha qolaveradi. Bahromov ishini bitirib, maqsadiga erishib ketaveradi. Nahotki bu gal ham shunday bo'lsa? Agar bu safar ham Bahromov g'olib chiqsa, keyin Vazira uning yo'lga kirib ketishi aniq.

Er-xotin uyda ishga oid kelishmovchiliklardan og'iz ochmasalar ham, lekin bu kelishmovchiliklar ikkovlarining orasida ko'zga ko'rinmas bir devorga o'xshab turar va hovlida o'rinsiz qurilgan uydan beshbattar xalaqit berardi. Hatto kechalari er-xotin qo'sh karavotda yonmayon yotganlarida ham bu devor ularning qalblarini bir-birlaridan to'sib turganday bo'lardi.

Abror bu devorni bir o'zi qulatolmasligini bilar, Sherzodning ko'pdan beri zimdan ko'targan bu devorini undan ham yaxshiroq tayyorgarlik bilangina yiqitish mumkin edi.

– Vazira, shuni bilib qo'ying, – dedi Abror kechasi qorong'i xonada uxlayolmay yotganlarida. – Ikkovimiz tor bir joyda yomon to'qnashishimiz mumkin.

Vazira Sherzod bilan chizgan loyihalari boshqarmaning tasdig'idan o'tgani uchun ko'ngli to'q edi.

– Yaxshisi, siz bu ishga aralashmang, foydasi yo'q, – dedi.

– Ko'ramiz! – deb Abror narigi yoniga ag'darilib oldi.



U ertasi kuni tushdan keyin metropolitenning injenerlik inshootlarini loyihalaydigan tanishlarining oldiga bordi. Ular «Bolalar dunyosi»ning qarshisida ilgari mehmonxona bo'lgan va hozircha buzilmay turgan bir qavatli binoda ishlashardi. Abror uzun yo'lakning oxiridagi xonadan Farid Galiyev degan qo'ng'irsoch ko'kko'z yigitni qidirib topdi-da, metroni Bo'zsuvning tagidan olib o'tish to'g'risida gap ochdi.

– A-a, boshqarma bizga Bahromov deganning loyihasini bergan, – dedi Farid.

– Bo'zsuvga yangi o'zan qurishmi? Qabul qiladiganmizlar?

– Hozircha bunga qo'limiz tegmaydi. Masala kelasi yil ko'rilsa kerak.

– Shunaqami hali?

– Ha, muhlatlar yana cho'zilgan. Beton yetishmayapti. Bular bo'lsa, bir kilometrlik yangi o'zanni beton bilan qoplashni taklif qilishyapti. Beton tanqis paytda bu nima kerak?

– Demak bu loyihaga qarshimisizlar?

– Qarshilar ko'p. Men irrigatorlar bilan gaplashdim. Yangi o'zan qurish kerak emas, deyishadi. Bo'zsuvni o'rnidan qo'zg'atish hazilmi? Daryoday katta.

– Farid, og'ayni, men ham xuddi shunday fikrdaman!

Abror ko'ngliga tugib kelgan gaplarini Faridga bir-bir aytib berdi:

– Agar masala kelgusi yilda ko'rilsa, hali vaqt bor ekan. Bahromovning loyihasini quruq gap bilan inkor etib bo'lmaydi. Uning o'rniga o'tadigan boshqa loyiha tayyorlashimiz kerak. Men ham institutda suv inshootlari bilan shug'ullanaman. Yaxshi irrigatorlardan birini yonimizga olaylik. Sen metrochi injenersan. Uchalamiz birgalikda shu ishni qilaylik!

– Bo'lmasa, ertaga ishdan keyin bir uchrashamizmi? Men irrigator o'rtog'imni chaqiraman.

– Durust odammi?



– U ham Bahromovning loyihasiga qarshi. Fikrlari senikiga yaqin.

– Qayerda uchrashamiz?

– Biznikida-da. Manzilni yozib ol...

Ertasi kuni oqshom Abror mashinasida Farid bergan manzil bilan Yunusobod tomonga yo'l oldi.

O'N UCHINCHI BOB

A'zam ota, Shokir va Hanifa xola uchovlari yangi uchastkaga ko'chib borganlarida shiftdan qamishning popugi osilib yotar, devorlar endi qorasuvoqdan chiqqan, uch xonaning faqat bittasiga pol yotqizilgan edi. Suv tashqaridan chelakda tashib kelinadi. Gaz yo'q. Ho'l o'tinni puflab, tutun yutib ovqat pishirguncha Hanifa xolaning ko'zlari necha marta yoshlanadi.

Uchovlari bir xonaga tiqilib, tanchada isinib o'tirishganda Abror ularni ko'rgani keldi. Hanifa xola unga:

– Jonlaring rohatda, biz o'lib qolsak ham ishlaring yo'q!
– deb gina qildi.

– Uchastka deb qo'ymadingiz. Mana, uchastka. Agar yo-qmasa, hali ham domga yuring, olib ketay!

– E, domlaringni yelkamning chuquri ko'rsin!

Kuzda A'zam ota ekan nihollar bahorda qiyg'os ko'kar-di, ulkan o'rik daraxtining oppoq guli hovlini to'ldirib yuborganday bo'ldi. A'zam ota yengil las to'nining etagini bar urib, hovlini tekis qilib chiqdi. Oftob yaxshiroq tushadigan joydan chiroyli jo'yaklar olib, oz-ozdan kartoshka, pomidor, piyoz, sarimsoq ekdi. U nokni yaxshi ko'rar edi. Devor taglariga to'rt tup nok ko'chati ekdi. Lekin nok tez hosilga kirmasligini o'ylab ularning ora-orasiga shaftoli ko'chatlari o'tqazdi.

– Shaftolining umri qisqa, bu hosilini berib bo'lib, qari-guncha, noklar kuchga kiradi, – deb tushuntirdi u kampiriga.



– Hosili boshidan qolsin, ungacha men bormanmi-yo'qmanmi? Avval mana bu isqoti uylarni pol qiling. Gaz tushirtiring! Tutun yutaverib jonimdan to'ydim-ku!

– Sabr qil, xotin, hammasi bo'ladi.

A'zam ota hovlida kaftday ham bo'sh joy qoldirmay, qulupnay, kashnich, ukrop ekdi, laxtak bo'lib qolgan ozgina yerga arpa aralash beda urug'idan sepib qo'ydi. «Yozda bedaning nafasi yaxshi bo'ladi», deb qilgan ishidan o'zi mamnun bo'ldi.

U suv yoqalab, yerda ishlab dehqonchilik qilganda ko'ngli yayrardi. Lekin temir quvurlar o'tkazib, gaz tushirishni, yog'och randalab, pol qilishni jini yoqtirmas edi. Bu ishlarining hammasi nuqul pul yeydi. Narigi hovli uchun olgan pullari tamom bo'lyapti. Shokirning topgani hisobli. Abror ham har oyda uncha-muncha yordam berib turibdi. Lekin qo'ldan berganga qush to'ymaydi.

A'zam ota qishi bilan qurilishda qorovullik qildi. Bahordan qurilish ancha kengaydi-yu, yana bitta qorovul kerak bo'lib qoldi. A'zam ota kampirini ikkinchi qorovul qilib ishga o'tkazdi, so'ng uning vazifasini ham o'zi bajara boshladi. U endi kech soat oltidan ertalabki to'qqiz-o'ngacha – har kuni o'n besh-o'n olti soat qorovullik qilar, kunduz kunlari esa uchastkaning tashvishi bilan bo'lib tinim bilmas edi.

Hamma uylarni pol qilib, devorlarni ganch suvoqdan chiqargunlaricha kuz kelib qoldi. Hali shiftlar turibdi. Hanifa xola har kuni, «gaz tushiringlar!» deb zorillaydi. Lekin bu ko'chaga hali gaz kelgan emas. Abror bir qancha idoralarga borib, allakimlarning va'dasiga ishonib, kech kuzgacha kutdi, bo'lmadi. Shundan keyin u yonidan pul chiqarib, suyuq gazning asbob-uskunasini sotib oldi-da, oshxonaning tashqarisiga ikkita qizil ballon qo'ydirib berdi. Gazda ovqat pishira boshlagan kuni Hanifa xola Abrordan astoydil xursand bo'ldi:

– Baraka topgin. Abrorjon, iloyo sen ham bolalaringning rohatini ko'rgin, jonim kirib qoldi!



Abror otasining ham og'irini yengil qilmoqchi bo'lar ediyu, lekin A'zam ota o'zini ayamas, ozib-to'zib ketsa ham shikoyat qilmasdi. Shanba kuni ertalab Abror ulardan xabar olgani mashinada borayotsa, A'zam ota qurilish tomondan qo'lini orqasiga qo'yib, munkillab chiqib kelyapti.

Abror mashinani uning oldida to'xtatib, orqa eshikni ochdi. A'zam ota mashinaga chiqib o'tirguncha hansirab, go'yo darmoni ketib qoldi.

– Zab kelding-da, o'g'lim. Uh!.. Bilmadim, menga nima bo'ldi? Boya qorovulxonadan chiqsam, boshim bir yomon aylandi. Nafasim tiqilib keldi. Yiqilib qolamanmi, deb qo'rqdim. Darrov taxlab qo'yilgan yog'ochlarning ustiga o'tirdim. Xayriyat, o'tib ketdi.

Abror otasining ikki yonog'i ichiga botib yuz suyaklari bo'rtib turganini, rangi sarg'ayib qolganini ko'rdi-yu:

– Sizga bir emas, ikki qorovulning ishini qilish nima kerak, ada? – dedi. – Qo'ying shu ishni. Uyda tinchgina o'tiring.

– Qorovulxonada ham o'tiraman, yotaman. Har zamon-da bir aylanib chiqaman. Zo'riqadigan ish emas.

– Uyqudan qolasiz-da. Keyin kunduz uchastkaning ishini qilib tinmaysiz. Dam olish yo'q sizda.

– Nima qilay, Abrorjon! Ro'zg'or g'or, uchastka ajdaho bo'larkan. Sen ham berib turibsan. Shokir ham durustgina topyapti. Baribir pul yetmaydi. Hali bu ukangni uylantirishimiz kerak. Kelin tushirish osonmi? To'y o'tsin. Keyin ish-pishni tashlayman.

Shokirning to'yi bultur bo'ladigan edi. A'zam ota uchastkani shu kuzgacha bitirmoqchi edi. Lekin hali taxta-yu, fanner topilmay, hali usta ishni cho'zib, hali boshqa tashvishlar oraga tushib, shift bu yil bahorning oxiriga borganda bitdi. Bo'yoq-bezak ishlari va boshqa mayda-chuydalari hamon chala edi.

O'rik endi pishgan kunlarning birida Abror yana ota-onasini ko'rgani bordi. A'zam ota avvalgidan battar ozib, munkayib qolgan. Hanifa xola lag'mon qilgan ekan. A'zam ota o'g'illari bilan lag'mon yeb o'tirganda birdan:



– Ih! – dedi-yu, og'zidagi bir tuyur go'shtni tili bilan u yoq-bu yoq qildi. So'ng qo'lini sekin og'ziga soldi-da, sarg'ayib ketgan tishsimon suyak oldi: – Uchtagina tishim qolgan edi. Shuning ham bittasi sug'urilib chiqdi-ya. Bo'lmasa lag'monga ham tish sinadimi.

Ovqatni yeb bo'lib choyga o'tganlarida A'zam ota g'amgin tovush bilan:

– O'g'illarim, – dedi, – men ham endi pishib qolganga o'xshayman. Yetmish uchga kirypman, armon qiladigan joyim yo'q. Uchastkaning qolgan ishi keyin bo'laverar. Endi tezroq Shokirning to'yini o'tkazaylik. Agar men yumalab ketsam, keyin bu to'y yana suriladi.

– Niyatni yaxshi qiling, adasi, – dedi Hanifa xola. Xudo xohlasa, hali Shokirjonning bolalarini ham o'ynatasiz.

– Sen hali baquvvatsan, xotin. Lekin mening mazam yo'q. Ko'zim ochiqligida buning ham boshini ikkita qilib ketay. Abrorjon, kelin tomonni ukangdan so'rab olgin. Kelasi hafta sovchilikka boringlar. To'yni kuzga qoldirmay o'tkazib yuboraylik.

Shokir ota-onasining oldida qallig'i to'g'risida gapirishdan tortinar edi. Abror ketmoqchi bo'lib o'rnidan turganda ukasi uni mashinasining oldigacha kuzatib chiqdi.

Qorong'i tushib qolgan edi. Abror ukasining yuzini ko'rmasa ham, unga tikilib turib:

– Qalay, sovchilikka boraversak bo'ladimi, Shokir? – dedi.

– Bo'ladi shekilli. Ota-onasi «kelishsin» debdi.

– Kimlar borarkanmiz?

– Kelinoyim ikkovlaring borsalaring bo'lar edi. Lekin ular qoidasini keltirishmoqchi emish. Avval erkaklar ikki-uch kishi bo'lib borisharkan. To'n kiydirib, rozi bo'lganlarini bildirib yuborisharkan. Keyin ayollar palov pishirib, «ma'lum oshi» olib borisharmishmi-ey...

– Tashvish juda ko'payib ketadi-ku, a? – dedi Abror. – Bu naqa rasm-rusumlari bizdan ham ko'ra qiz tomonni ko'proq qiynaydi. Chunki biznikilar besh-oltita tog'orani osh, som-



sa, norinlarga to'ldirib borsa, ular buni qo'ni-qo'shnilar-ga ulashadi. Yana mahalla-ko'ydan besh-o'nta ayollarni chaqirib, mehmonlarga qo'shib, quyuq-suyug'i bilan ziyo-fat qiladi. Oxirida o'sha tog'oralarni osh-poshlarga to'ldi-rib, ustiga sarpolar qo'yib, qaytarishadi. «Bor tog'oram, kel tog'oram» degan bu rasmiyat kimga kerak? Undan ko'ra, «ma'lum oshi» degan keraksiz rasm-rusumlarni qisqartirib tashlab, hamma kuchni bitta chiroyli to'yga sarflasak yaxshi emasmi?

Shokir taraddudlanib, mo'ylovchasining uchini chimchi-laganicha o'ylanib qoldi.

– Uka, sen Nigoraga tushuntirib ayt. Ortiqcha rasm-ru-sumlar o'z'laringni ham qiynab tashlaydi. Yangi bo'lsa, chi-nakam yangicha bo'lsin. Eskichani ham qo'shib, arosatda qolib o'tirmaylik.

– Lekin u ham shuni istaydi.

– Juda yaxshi, oyisi bilan gaplashib, bir qarorga kelsin-da javobini senga aytsin.

* * *

Shanba kuni tush paytida Abror otasi va katta poch-chasi bilan Nigoralarnikiga qarab borar ekan, ilgari hovli o'rtasida qaqqayib, juda xunuk ko'rinadigan kooperativ uy endi nimasi bilandir iliq tuyg'ular uyg'otayotganday bo'ldi. Ukasining sevimli qizi, bo'lajak kelinlari shu uyda istiqomat qilishi bu uyni allanechuk jozibali qilib ko'rsatayotganday tuyuldi.

Uchinchi qavatdagi kvartiraning oldida ularni tavoze bi-lan kutib olganlarning biri Sherzod Bahromov bo'ldi. To'rda-gi xonaga kirishdi. Bir devorga chiroyli ipak gilam osilgan. Ikkinchi devor tagiga qo'yilgan servant chinni va billurga to'lib turibdi. Yumshoq stullarga qizil barqut qoplangan. Stol ustidagi oppoq dasturxonda uzum, o'rik, nok, butun qovurilgan tovuqlar, ustiga qazi parrak qilib terilgan norin. Va «Borjomi» suvi, arman konyagi, «Ekstra» arag'i.



Ikki tomon ham bir-birlaridan tortinib ancha vaqtgacha gap qovushmadi. Sho'rva tortilgandan keyin Sherzod A'zam otaga yuzlandi:

- Otaxon, ruxsat bersangiz... qittay-qittay quysam...

- O'zlaringizga bermalol quyavering, o'g'lim. Biz choy ichamiz. Tortinmanglar... Ishqilib to'y-tomosha bo'lsin.

Ikkinchi, uchinchi qadahdan keyin hammalari ancha daddillanib, to'ydan gap ochdilar.

- Yoshlarning yulduzi yulduziga to'g'ri kelibdi, - dedi Abror qizning otasiga qarab. - Bo'lmasa, sizlar qayoqda edilaringiz-u biz qayoqda edik? Nasib qilsa, mana endi qarindosh bo'lamiz.

Qizning otasi - qirq besh yoshlardagi o'rta bo'y, jingalak soch kishi - qo'lini uyalinqirab ko'ksiga qo'ydi:

- Xayrli bo'lsin.

Oshni yeb bo'ldilar. Laganlar olib ketildi. Shundan keyin qizning katta tog'asi bo'lgan keksa odam:

- Mahallaga osh bermasak bo'lmaydi, - dedi. - Bular yangi ko'chib kelishgan. Atrofdagilar bilan kirishib ketishi uchun ham osh berishi kerak. Bir qop guruch, bir qo'y, shunga yarasha: un, masalliq, meva-cheva.

- Biz rozi, - dedi A'zam ota. - Yana nima talablaringiz bor? Bermalol aytingizlar.

Yana o'sha keksa tog'a:

- Onasi shu qizni ne umidlar bilan katta qilgan, - dedi. - Irimi bor. Sut puli... Ko'p emas... To'rt yuz.

Oraga bir lahza noqulay jimlik tushdi. Abror yer tagidan Sherzod Bahromovga ko'z qirini tashladi. Sherzod uning ko'nglidan o'tgan gapni payqaganday bo'lib:

- Bu nimasi, aka, qalin so'rayapsizmi? - dedi.

- Yo'g'-e, faqat onani rozi qilish uchun-da. Qalin to'rt yuz bo'ladimi? Ba'zi qishloqlarda o'n besh-yigirma ming qalin olisharmish-ku!

A'zam ota Abrorga gapir, deganday qilib qaradi.

- Boshimizdan o'tgan, bilamiz, to'yning xarajati ko'p bo'ladi, - dedi Abror. - To'rt yuzni shunaqa xarajatlar uchun



bir sovg'a tarzida bajon-u dil beramiz. Lekin iltimos shuki, buni sut puli deb atamaylik. Chunki onaning suti pulga chaqiladigan narsa emas.

Qizning otasi ko'zlari uyatdan yiltirab:

– To'g'ri aytdingiz, rahmat, – dedi. – Endi mehmonlarning talabini eshitaylik... «Oq o'rash», «Ma'lum oshi» degan odatlarimiz bor ekan. Shularni qilamizmi-yo'qmi?

Bu gaplar Shokir orqali allaqachon qizga va uning ota-onasiga yetib borganini sezgan Abror:

– Biz uchun bunaqa rasm-rusumlarning keragi yo'q, to'g'rimi, ada? – dedi.

A'zam ota tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Shunda qizning otasi darhol bu fikrga yon berib:

– Biz qarshi emasmiz, ixtiyor sizlarda, – dedi.

Abror ichida mamnun bo'lib: «Bo'lajak kelinimiz durust, ota-onasiga yaxshi ta'sir o'tkazibdi», deb qo'ydi.

Lekin Sherzodning keksa akasi:

– «Ma'lum oshi»siz qanaqa bo'ladi? – dedi. – Kelinning kiyim-kechak, sarpolari ma'lum oshi bilan birga olib kelinmaydimi? Bosh-oyoq kiyimlarni ham qiz tomon o'shanda berib yuboradi-ku.

Abror kulimsirab:

– Mana, oramiz yaqin-ku, – dedi. – Ellik metr narida biz turamiz. Beriladigan, olinadigan sarpolar bo'lsa, ularga tog'oradagi oshlarni aralashtirib yurmasdan, ayollar to'g'ri bir-birlariga yetkazaverishsin-da.

Qizning keksa tog'asi salfetkani ezg'ilab indamay o'tirgan Sherzodga yuzlandi:

– Juda jo'nlashib ketadimi deyman? Odamlar gap qilib kulmasin tag'in?

Sherzod tezda javob bermadi. Qizning otasi ham unga ko'zi javdirab qarab turardi. Hozir Sherzod nima desa shu bo'lishini Abror ham sezdi. Sherzod Abror bilan A'zam otaga xuddi qarz berayotgan odamday xiyol minnat qilib qaradi:



– Sizlar shuni istar ekansizlar, mayli, biz yo‘q deyolmaymiz. Lekin jiyanimiz Nigora – har qancha obro‘ qilsa arziydigan qiz.

– To‘g‘ri, Nigora – to‘ng‘ich farzand, ota-onasining orzu-havasi ko‘p, – deb kekxa tog‘a gapni ilib ketdi. – To‘yda qo‘sh karnay, qo‘sh surnay, qo‘sh nog‘ora bo‘lishi kerak. Yaxshi hofizlardan bir-ikkitasini sozandalari bilan olib kelishga hozirdan harakat qilingani yaxshi.

Buning hammasi qanchalik sertashvish, serxarajat ishlar ekanini yaxshi biladigan Abror Sherzodga yana savol nazari bilan ko‘z tashladi. Bir vaqtlar Sherzod qo‘shqavatli yangi uylarning hovlisida karnay-surnaylar chalib, radio-karnaylardan aljib, minglab odamlarning tinchini buzishga qarshi gapirganlarini eslatgisi keldi.

– Bu yog‘i qandoq bo‘ladi, Sherzod Islomovich? Biz hammasini qilishimiz mumkin. Lekin mikrofondan ortiqcha shovqin-suron...

Sherzod bu gal chap berdi:

– Karnay-surnay masalasini keyin hal qilamiz. Hali vaqt ko‘p. Yoshlar ZAGSga ariza bergandan keyin bir yarim oy kutadi. Boshqa tayyorgarliklar bilan ikki oyga borsa, to‘yni avgustning o‘rtalariga belgilash kerak.

U cho‘ntagidan qizil muqovali jajji kalendarchani olib, avgustning oxirlariga to‘g‘ri keladigan yakshanba kunini tanlagan edi, qizning otasi va katta tog‘asi darrov rozi bo‘lishdi. Abrorlar ham bu muhlatni qabul qilishdi.

Nihoyat, Sherzodning ishorasi bilan uy egasi ichkaridan uchta zira beqasam to‘n olib chiqdi. Kekxa tog‘a o‘rnidan turib, avval A‘zam otaga, so‘ng qolgan ikki mehmonga to‘n kiygizdi-da:

– Muborak bo‘lsin! – dedi.

– Mana endi qarindosh bo‘ldik, ota! – dedi Sherzod A‘zam otaga qarab.

Bu uyni eng obro‘li tog‘asi Sherzod ekanini sezgan A‘zam ota unga qulluq qilib:



– Kam bo'lmang, o'g'lim, rahmat! – dedi. – Qani, omin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lishsin, hami-sha baxtlari kulib, tolelari yor bo'lsin!

Yuzlariga fotiha tortib o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Kvar-tiradan tashqariga chiqib, xayrlashayotganlarida Sherzod Abrorga: «Yomon niyatlaringdan ham xabardorman», de-ganday tagdor qilib:

– Endi oxiri baxayr bo'lsin, – deb qo'ydi.

– Eng muhimi shuki, – dedi Abror, – yoshlar bir-birlariga ko'ngil berishgan.

– Lekin ularning baxti siz bilan bizga ham bog'liq.

Sherzod yomonlikka olsa, ko'p narsa qo'lidan kelishini sezdirib qo'ymoqda edi. Hozirgina ularning ziyofatlarini yeb, to'nini kiyib chiqqan Abror: «Bizning oramizda bo'ladigan to'qnashuvlarning bu to'yga aloqasi yo'q», deb aytolmadi.

– To'g'ri, bizga ham bog'liq, – deb Sherzodning gapini ma'qullashga majbur bo'ldi.

Ichida esa: «Naryoqdagi loyihalar ikki-uch oy beharakat tursa-yu, Sherzod Bahromov bilan bo'ladigan olishuvlar boshlanmasdan to'yni o'tkazib olsak qaniydi! – deb qo'ydi. – Hech bo'lmasa, ZAGSdan o'tishga ulgurishsa edi! Keyin Bahromov bilganini qilsin edi»...

Vazira to'yning avgustga belgilanganini Abrordan eshitib:


– Chatoq qilibsizlar-da, – dedi. – Yo iyulda yoki sent-yabrda bo'lsin edi. Avgust – Malika institutga imtihon top-shiradigan payt. Konkursi bir balo. Shuning tashvishi bizga yetib ortadi-ku.

Abror boshqa o'ylar bilan bo'lib buni unutgan edi.

– Hali bu ham bor-a! – dedi ustma-ust kelayotgan mush-kulotlardan yuragi bezillab. – Siz haligi prorektor bilan gaplashdingizmi?..

Malika o'ninchi sinfni ko'proq «besh», bir-ikkita «to'rt» baholar bilan tugatgan, matematika to'garagiga qatnashib yurib, shu fan bo'yicha faxriy yorliq ham olgan edi.

So'nggi yillarda bo'yi tez o'sib, oyisidan xiyla baland bo'lib ketgan Malika erta-yu kech tinmay imtihonlarga



tayyorlanardi. Uni g'am-tashvish bosganday bo'lib, juda vazminlashib qolgan, ilgari o'yin-kulgilari endi yo'qolgan edi. Yuzlari qorayib, bo'yni ingichkalashgan. Ko'zlari allanechuk katta-katta, odamga xomush qaraydi. Unga ba'zan Abrorning rahmi keladi. Vazirani esa, «kirolmay qolsa-ya!» degan o'y vahimaga soladi.

Qizlarining tayyorgarligi yaxshiligini bilsa ham, Vazira ba'zi bir ehtiyot choralari ko'rib qo'yishga tirishib, Malika kirmoqchi bo'lgan institutning prorektoriga uchrashmoqchi edi. Bu prorektor yangi o'quv korpuslarning loyihasini boshqarmaning tasdig'idan o'tkazolmay ovora bo'lib yurganda Vazira unga qarashib, ishning tez bitishiga yordam bergan edi. O'shanda prorektor unga: «Bu yaxshiligingizni albatta qaytaraman», degan edi.

– Telefon qildim, prorektor kabinetida ekan, – dedi Vazira eriga. – Lekin bunaqa gapni telefonda aytish noqulay. Borishimiz kerak.

Abror gardanini qashidi:

– Hali bu yoqda to'y tayyorligi turibdi. Yakshanba kuni Beshqayrag'ochdagi hovliga qarindoshlar maslahatga to'planisharkan. Biz ertaroq borib, qarashib turmasak bo'lmas.

Vazira avvalgi beshikto'yning g'alvalarini esladi-yu:

– Juda jonga tegdi-da! – dedi, – Bu yoqda odam o'z tashvishidan ortmay turgan paytda naryoqda yana biron dahmaza chiqadi.

– «Qo'sha keladi» deb bejiz aytishmagan-da.

Er-xotin o'ylashib-kengashib, Shokirning to'yiga to'rt yuz so'm pul beradigan bo'lishdi. Hanifa xolaning sandig'ida bo'lajak kelinga atab yig'ilgan besh-o'n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi. Buning hammasini qiz o'zi mashinachiga olib borib, qaddi-bastiga to'g'rilab tiktiradigan, mashinachining haqini kuyov tomon to'laydigan bo'ldi. Kelinga qilinadigan bosh-oyoq sarponing bir qismini – palto, plash, koftalarini Shokirning opalari oladigan bo'lish-



di. Hozir topilishi qiyin bo'lgan poshnasi baland kelin tufli bilan platformali modabop etikcha Abrorning zimmasiga tushdi.

– Mashinang bor-da, o'g'lim, senga osonroq, – dedi A'zam ota.

Platformali etikcha hozir shunday moda bo'lgan ediki, qishda kiyiladigan bu poyabzalning yaxshisi yozda ham birorta magazinda topilmas edi. Kelinlarining bo'yi pastroq bo'lgani uchun etikchaning poshnasi baland, ajnabiysini istar ekan. Axiyri bo'lmagandan keyin Otchoparning oldidagi bozorga borishib, o'shanaqa poshnasi balandini qo'ldan to'qson so'mga olishdi. Oq kelintuflini esa Shokir nikoh uyi-dan olgan taklifnoma yordamida Shota Rustaveli ko'chasi-dagi kelin-kuyov magazinidan topishdi.

Shu bilan to'y «solig'i»ni bir qadar uzganday bo'lishdi-yu, Malika kiradigan institutning prorektorini izlab ketishdi. Qabul imtihonlari yaqinlashgani sari bu odamning oldiga iltimoschilar ko'p kelar, prorektor ulardan qochib, kabinetida kam o'tirar edi. Vazira uni koridorda uchratib qoldi, o'zi-ni va Abrorni tanitgach:

– Kechirasiz, bir og'iz aytib qo'ymoqchi edik, – dedi. – Qizimiz Malika A'zamova institutlaringizga kirish uchun hujjat topshirdi. Halol kirishga kuchi yetadi. Faqat konkurs-da vahimaga tushib, o'zini yo'qotib qo'ymasin, deymiz. Dekanmi, domlalarimi, sal dalda berib turishsa bas.

Prorektor cho'ntagini qidirib, bir parcha oq qog'oz topdi, lekin ruchka topolmadi. Shunda Abror unga o'zi-ning avtoruchkasini uzatdi. Prorektor Malikaning ism-familiyasini, kiradigan fakultetini bir parcha qog'ozga yozib oldi-da:

– Xo'p, men dekaniga tayinlab qo'yaman, – dedi.

Ikki kun o'tgach, er-xotin dekanni izlab topishdi. Vazira prorektorga aytgan gaplarini yana bir bor takrorladi. Dekan shu payt jiringlab qolgan telefon go'shagini ko'tarar ekan, Vaziraga:



– Bilimi yaxshi bo'lsa, albatta o'tadi, – dedi.

– Biz hamma kiruvchilarga iloja boricha yaxshi sharoit yaratamiz, dalda berib turamiz. Bu jihatdan xotirjam bo'lingizlar. Xayr!

U «gap tamom» deganday, o'ng tomonga o'girilib, telefonda shoshilmay gaplasha boshladi. Abror Vaziraga shivirlab:

– Bo'ldi, yuring, – dedi.

Tashqariga chiqqanlarida Vazira undan norozi bo'lib:

– Muncha shoshirasiz? – dedi. – yozib olmadi-ku. Esidan chiqib ketadi.

– Yozib olganida ham, tashlab yuborishi qiyinmi? – dedi Abror.

Prorektorning Malikani bloknotiga emas, alohida qog'ozchaga yozib olganida boshqa ma'no borligini – u buni dekanga aytgandan keyin, qog'ozchani tashlab yuborganini Vazira endi fahmlaganday bo'ldi.

– Odam hech kimga zor bo'lmasin ekan-da? – dedi u.

– Bularga ham qiyin. Bizdaqalar oz emas. Haliyam o'zimizdan qolmaylik. Malikani durustroq parvarish qiling. Vaqtida yotib, vaqtida tursin.

Vazira eng tinch xonani Malikaga bergan, erta-yu kech uning ovqatidan xabar olib turar, kechasi u uxlagandan keyin uxlar edi. Birinchi imtihonga Abror qizini mashinasida olib borib qo'ydi. Matematikaning yozmasi edi, natijasini to'rt kun kutishdi. Vazira xavotirlanganidan ikki kecha uxlamay chiqdi.

Malika yozmadan o'tgan edi-yu, lekin «uch» olgan edi. Endi qolgan imtihonlarni «to'rt» va «besh»ga topshirmasa, kirolmasligi aniq edi.

Vazira bundan shunday xafa bo'ldiki, boshining orqasi tortishib og'rib, ko'zining oldida yana qora chiziqlar jimir-jimir qila boshladi. Qon bosimi oshganini sezib, avvalgi gal vrach buyurgan tabletkalardan ichib ko'rdi, lekin foyda bermadi. Vrachga borishga esa vaqti yo'q edi.



* * *

Bulturidan beri papkalarda jimgina yotgan Bo'zsuvga oid loyiha xuddi mana shu kunlarda birdan harakatga tushdi. Chunki metro qurilishi Bo'zsuvga yaqinlashib qolgan, tunnelni o'zan tagidan o'tkazish masalasi kun tartibiga qo'yilgan edi.

– Vaziraxon, eshitdingizmi? – deb Sherzod Vaziraning ish joyiga telefon qilib qoldi.

– Nimani?

– A, bu... xo'jayiningiz metrochilar bilan birga bizning loyihaga qarshi boshqa loyiha tayyorlayotgan emish-ku!

Vazira Abrorning Farid degan metrochi injener bilan telefonda ko'p gaplashishini, kechqurunlari unikiga borib, yo'q bo'lib ketishlarini esladi. U nima ishlar qilib yurganini Vaziraga aytmas edi. Vazira bir marta: «Muncha sir saqlaysiz?» deb ranjiganda, Abror: «O'zingiz Bahromov bilan hammuallif bo'lib nimalar qilganingizni menga aytgan-midingiz?» deb, uni siltab tashlagan edi. Shundan beri ikkovlarining gapi uy-ro'zg'or, bolalar va qarindosh-urug'lar mavzusidan nariga o'tmaydigan bo'lib qolgan edi. Vazira buning yomon bir oqibati bo'lishi mumkinligini, Abror qasdma-qasdiga nimadir tayyorlayotganini sezib yurardi. Hozir Sherzodning gapini eshitgach, mumkin qadar bosiq tovush bilan:

– Loyiha tayyorlashgan bo'lsa, baribir boshqarmaga olib kelishadi, – dedi. – Nabi Sadriyevich bizning loyihani ma'qullagan. Nimasidan muncha xavotirlanasiz?

– Metro quruvchilari bizning ishni ma'qullamayapti-da. Ularning huquqi juda katta. Boshqarma bilan ham hisoblashmay, to'g'ri shahar rahbarlariga murojaat qilishlari mumkin. Metrochilarning gapiga eng katta rahbarlarimiz ham quloq solishadi.

– Bo'lmasa nima qilamiz?

– Menimcha, moskvalik katta mutaxassislarni yordamga chaqiradigan payt keldi endi.



– Pavel Danilovichnimi?

– Ha, men hozir unga telefon qildim. Shu oy ichi Moskva-da bo'lar ekan. «Chaqirsalaring borishim mumkin», dedi.

– Familiyasi Katinov edi-a?.. Buni yaxshi aytdingiz, Sherzod. Men hozir Nabi Sadriyevichga kirib aytaman.

Vazira go'shakni qo'yib, qo'lga qog'oz-qalam oldi. Boshqarma hisobiga Moskvadan mutaxassis chaqiriladigan bo'lsa, buning zaruratini yozma ravishda asoslab buyruq loyihasini oldindan tayyorlab kirish kerak edi. Vazira kerakli gaplarni chiroyli harflar bilan shoshilmay yozib, «Kdokladu» degan muqovali papkaga soldi-da, boshliqning huzuriga kirdi.

Nabi Sadriyevich uning gapini eshitib bo'lib, pastki labini o'ychan tishladi.

– Loyihalaring chindan ham metro quruvchilarga yoqmayapti, – dedi Vaziradan ko'zini olib qochib.

– Ularni chalg'itayotgan boshqa loyiha bor emish-da, Nabi Sadriyevich.

Sadriyev endi Vaziraning yuziga qaradi:

– U loyihani kimlar chizibdi?

– Anig'ini hali bilmayman. Bittasi metrochi injenermish. Bittasi irrigatorlardan ekan...

Vazira Abrorni aytishga tili bormadi, ko'zini qo'lidagi qog'ozga tikib:

– Nabi Sadriyevich, – dedi, – agar Moskvadan obro'li mutaxassis kelsa, masalani xolis turib hal qilib beradi.

– Siz chaqirmoqchi bo'lgan mutaxassis bizni yoqlashiga ishonasizmi?

– Ishonaman. Katinov bilan gaplashganmiz.

Nabi Sadriyevich Vaziraning qo'lidagi buyruq loyihasini oldiga olib, ko'zdan kechirib chiqdi-da, yuqori chetiga qo'l qo'ydi.

O'sha kuni Moskvaga – Katinovning nomiga chaqiriq telegrammasi jo'natildi.

Bu ishlar ta'sirida Malikaning imtihonlari ham Vaziraning xayolidan uzoqlashgan edi. Uyga borayotganda bugun



qizining ikkinchi imtihonni topshirishga ketgani esiga tushdi. Vazira kvartiraning qulfini o'zining kaliti bilan ochib kirgan zahoti yo'lakda shimini cho'tkalayotgan Abrorni ko'rdi.

– Malika keldimi? – deb entikib so'radi.

Shu payt oshxona tomondan Malika horg'in kulimsirab chiqib keldi. Abror Vaziraga:

– Tabriklashingiz mumkin, – dedi.

Vazira «besh» deyishdan hayiqib:

– «To'rt»mi, – dedi.

– Yo'q, «besh», – dedi Malika.

Vazira qizini quchoqlab, yuzlaridan, ko'zlaridan o'pa boshladi.

Shokir ham shu yerda ekan – televizor qo'yilgan xonadan yo'lakka chiqib, kelinoyisi bilan so'rashdi. So'ng qo'lidagi charm papkani ochib, muqovasiga atirgulning rasmi solingan, ichiga esa zarhal harflar bilan to'y taklifi yozilgan chiroyli qog'ozni ko'rsatdi.

– Iye, taklifnomani tarqatyapsizmi? Hali erta emasmi?

Vazira Abrorga qaramas, u bilan arazlashganga o'xshardi. Lekin Abror buni sezmaganday bo'lib:

– Shu bugun boshlamasak, keyin shoshib qolamiz, – dedi. Besh kundan keyin bular ZAGSga boradigan. Shokir, qani yur...

Abrorning mashinasi ko'cha chetida turgan edi. Aka-uka pastga tushib, mashinaga o'tirib ketgunlaricha Vazira derazadan ularni xomush kuzatib qoldi.

Uyda Malikaning imtihonlari-yu, ukasining to'y taraddudi to'g'risida ochiq-sochiq gaplashib yurgan Abror naryoqda xotinining ishini yo'qqa chiqaradigan loyiha chizgani va buni yashirib yurgani Vaziraning xayolidan nari ketmas edi. Vazira ham bugun erining shu loyihasini chippakka chiqarish harakatida nimalar qilganini unga bildirmoqchi emas edi. Zimdan keskin tus olayotgan bu ichki ziddiyat Vazirani allanechuk karaxt qilib qo'ygan. U qizining bugun «besh» olib kelganidan quvonmoqchi bo'ladi, lekin bu quvonch



unga tatimaydi, ko'ngliga sig'maydi. Uyda bir xil, ishda boshqa xil bo'lish mumkin emasligini u astoydil sezyapti endi. Abror bilan ikkovining orasidagi yashirin ziddiyat uyda ham uning butun borlig'ini to'ldirib, vujudini torday tarang tortib turibdi.

Bu tor hadeb tortilaversa, biror joyidan uzilib ketishi muqarrar. Lekin uni bo'shatibroq qo'yish endi Vaziraning ixtiyoridan ketgan, Sherzod bilan birga qilgan ishlari, unga boshqarmaning yon bosayotgani, Moskvaga ketgan telegramma – hammasi birgalikda go'yo Vazirani o'z oqimiga bo'ysundirib olib ketayotgan zo'r bir daryoga aylangan edi.

U shuni biladiki, endi Abror ham orqaga chekinolmaydi – mutaxassis irrigator, metrochi injener bilan uchovlashib taklif qilgan loyiha metro quruvchilariga ma'qul bo'lgan, lekin Sadriyev hamon Vaziraning loyihasini o'tkazishga intilib, oyoq tirab turibdi. Bu katta masaladagi qarama-qarshi nuqtayi nazar, axiyri, shahar rahbariyati tomonidan ko'riladigan bo'ldi.

Vazira buni eshitgan kuni iztirobi yana bir darajada oshdi. Go'yo u kuchli bir daryoning oqimida, Abror esa boshqa bir zo'r daryoning oqimida bir-birlariga qarshi suzib borayotgan alohida-alohida kemalarga chiqib qolganga o'xshardi.

O'N TO'RTINCHI BOB

Ular shahar rahbariyatining kengashlar zaliga ham xuddi begona odamlardek, har biri o'z to'pi bilan kirib borishdi. Eshigi oldida xushmuomala militsionerlar hujjat tekshirib kiritadigan, parketlari va marmar zinapoyalariga ozoda poyandozlar to'shalgan bu salobatli binoda Vazira o'zini odatdagidan xiyla kichik sezayotganday bo'ldi.

Zalning yog'och panelli devoriga loyihalar va eskizlar osib qo'yildi. Sherzod bilan Vaziraning loyihasiga nafis rang berilgan, eskizlari chiroyli ramkalarga solingan.



Abrorlarning loyihasi hali xomaki variant bo'lganligi uchun rangsiz ishlangan. O'tgan kuni Moskvadan yetib kelgan Pavel Danilovich kecha Sherzodning mashinasida shahar aylandi, Bo'zsuv bo'yiga borib, metro tunneli o'tishi kerak bo'lgan joyni ko'rdi, boshqarmaga kirib, loyiha bilan tanishdi. Sadriyevning huzurida uzoq o'tirdi. Uning gap avzoyiga qaraganda, Vaziralarga yon bosgisi kelar va kuchli dalillar izlardi.

Bunday dalilni qarshi tomondan qidirganday, Pavel Danilovich abrorlarning loyihalarini ham sinchiklab ko'rib chiqdi. Farid bilan Abrorga savollar berdi. Ularning izohini eshitayotganda esa cho'ntagidan jajji qutichani oldi va uning oq shnurini tez qulog'i ortiga qistirdi. Buni uzoqdan ko'rib turgan Vazira Pavel Danilovichning nimanidir ma'qullab bosh irg'aganini, so'ng birdan qo'lini «yo'q-yo'q!» degan kabi harakatlantirganini ko'rdi.

Shu payt metro qurilishining boshliqlaridan biri – Moskvadan Toshkentga kelib ishlayotgan taniqli injener – Pavel Danilovichga quchoq ochib:

– Pavel! Senmisan! – degani Vaziraning qulog'iga chalindi. Hamshaharlar o'pishib ko'rishdilar. – Pavka, qaysi shamol uchirdi bu yoqlarga?

Shu payt eshikka yaqin turgan Nabi Sadriyevich:

– Tsh-sh, o'rtoqlar, tsh-sh, – deb qoldi.

Eshikdan shahar rahbariyatidan O'ktam Rahimovich o'z yordamchisi bilan kirib keldi. Unga Sadriyev bilan metro qurilishining boshlig'i peshvoz chiqishdi va ikkovi ikki yonida turib, devorga osilgan loyihalarni ko'rsatishdi.

Odamlar nima bo'lishini kutib, jim turishibdi. O'ktam Rahimovich loyihalarni bir-biriga solishtirib, ikki-uch qaytadan sinchiklab ko'rdi, noaniq joylarini so'rab oldi. So'ng to'planganlarga murojaat qildi:

– Loyihalar bilan hamma tanishganmi?

– Tanishgan, tanishgan...

– Bo'lmasa, marhamat, o'rtoqlar, o'tiringlar... Oldinroqqa o'tinglar. Qani...



O'ktam Rahimovich prezidium stoli yoniga bir o'zi o'tdi-da, odamlar joylashib o'tirguncha tikka turdi. U o'rta bo'yli, qovoqlari qalin, qoshlari yo'g'on, miqti odam edi.

Birinchi so'z metro qurilishining boshlig'iga berilganda Vazira bir sergaklandi. Chunki metro quruvchilari Abrorlarning loyihasiga tarafdor ekanini hamma bilardi. Nahotki O'ktam Rahimovich ham ularga yon bosmoqchi bo'lsa?

– Nabi Sadriyevichning maqsadini tushunaman, – deb gap boshladi metro qurilishining boshlig'i. – Bu kishi metro bahonasida Bo'zsuvning egri-bugri joylarini to'g'rilab olmoqchilar. Bir kilometr uzunlikdagi yangi o'zanning atrofini bizning mablag'imiz bilan obod qilmoqchilar. Agar fursatimiz bo'lganda biz bunga qarshilik qilmas edik. Lekin hozir bunaqa ishlarga vaqtimiz yo'q. Berilgan muhlatlarni busiz ham cho'zib yuboryapmiz. Grafikdan chiqib ketishimiz mumkin. Shuning uchun yangi o'zan qurish-u uning atrofini ko'rkamlashtirish – shahar obodonlashtirish boshqarmasiga topshirilsin. Biz uchun Bo'zsuvning faqat metro tunneli o'tadigan joyini mustahkamlashga qaratilgan mana bu ikkinchi loyiha ma'qulroq.

Metro qurilishining boshlig'i ikkinchi loyihaning birinchisiga nisbatan ikki barobar kam mablag' sarflashga imkon berishini, demak, metro qurilishi o'shanchalik tezlashtirilishini isbotlaydigan raqamlarni qalashtirib tashladi.

Bu raqam va dalillar Vaziraga qor ko'chkisidek beayov tuyulardi.

Nabi Sadriyevichga so'z berildi.

– O'rtoqlar, Bo'zsuv – ulkan bir daryoday katta kanal. U oqib turgan paytda tagidan tunnel qazib bo'lmaydi. Agar tunnel o'tib bo'lguncha Bo'zsuvni to'xtatib qo'ysak, o'nlab kolxoz-sovхозlar suvsiz qoladi. Ekinlar quriydi. Bo'zsuv bo'yiga qurilgan GESlar bor. Ular to'xtab qoladi. Buning iqtisodiy zarari bir kilometrlik o'zanning qimmatidan kattaroq bo'ladi.



Nabi Sadriyevich ham turli-tuman raqamlar keltirdi-yu, oxirida:

– O'ktam Rahimovich, biz Moskvadan shu ishlarning maxsus mutaxassisi Pavel Danilovich Katinovni konsultatsiya uchun taklif qilganmiz, – dedi. – O'rtoq Katinov Moskva metrosining tunnellarini Moskva-reka daryosi bilan Yauza kanalining ostidan o'tkazishda katta tajriba orttirgan. Hozir shu kishiga so'z berishingizni so'rayman.

Sadriyev oldingi qatorda minbarga yaqin o'tirgan Pavel Danilovichni ko'rsatdi-da, joyiga qaytib borib o'tirdi:

O'ktam Rahimovich o'rnidan turib:

– Marhamat, o'rtoq Katinov, so'z sizga, – dedi.

Pavel Danilovich o'rnidan turdi, lekin minbarga chiqmay:

– O'rtoq Rahimov, sizdan bir narsani so'rab olsam mumkinmi? – dedi.

– Marhamat.

– Suv ostidan metro tunnelini o'tkazish paytida Bo'zsuvni bir oy-yarim oyga to'xtatib qo'yish mumkinmi-yo'qmi? Bu masalaga shahar rahbarlari qanday qaraydi?

Vazira nafasini ichiga yutib, O'ktam Rahimovichga tikildi.

– Qish payti bo'lsa, mumkin, – dedi O'ktam Rahimovich. – Chunki Bo'zsuv – katta bir kanal. Ko'pgina katta kanallarimizda qish paytida suv deyarli oqmaydi.

– GESlar bor ekan, ular to'xtab qolsa shahar elektrsiz qolmaydimi? – dedi Pavel Danilovich va javob kutib eshitkich qutichasini to'g'riladi.

– Ikkita kichkina GESimiz to'xtashi mumkin, lekin ular beradigan ozgina tok Toshkentni elektr bilan ta'minlashga unchalik katta ta'sir qilmasa kerak. Bu haqda yana mutaxassislarning fikrini eshitamiz... O'rtoq Katinov, hozir so'z navbati sizniki.

Pavel Danilovich biroz sarosimaga tushib:

– Men hali tayyor emasga o'xshayman, – deganda, Vaziraning yuragi shig' etib ketdi. Uning butun umidi Katinovdan edi. Nahotki bu odam ham chekinayotgan bo'lsa?



– O'rtoq Rahimov, meni keyingi navbatga qo'yishingizni so'rayman, – o'ng'aysizlanib davom etdi Katinov. – Boshqa o'rtoqlarning ham fikrini eshitay.

– Mayli, bemalol, – deb O'ktam Rahimovich zalda o'tirganlarga ko'z yugurtirib chiqdi-da, Abrorning yonida o'tirgan sersoch, qoramag'iz irrigator yigitga murojaat qildi: – Qani, o'rtoq Xolbekov. Hozir tilga olingan masalaga aniqlik kiritasizmi?

– Xo'p, – deb Xolbekov qalin qora sochini qo'li bilan ortga qayirib, minbarga chiqdi-da, daftarchasini ochib qo'yib gapira boshladi: – Bu yerda Nabi Sadriyevich Bo'zsuvning bir oy-yarim oyga to'xtatib qo'yilishidan keladigan chiqimni taxminiy tarzda aytdilar. Lekin men shu sohaning mutaxassisi bo'lganim uchun suv xo'jaligi tashkilotlarida bo'lib, aniq hisob-kitob tuzib chiqdim. O'ktam Rahimovich, agar Bo'zsuv qish paytida, deylik, yerlar muzlagan qahraton chillada bir oyga to'xtatilsa, iqtisodiy yutqizish minimal darajada oz bo'ladi.

Irrigator yigit ham raqamlar keltira boshladi. Bu raqamlar yana Vazirani qor ko'chkisiday bosib, ezib tashlaganday bo'ldi. Chunki keltirilayotgan raqamlar Sherzod bilan Vazira chizgan loyihadan ko'ra Abrorlarning loyihasi bir necha barobar arzonga tushishini va iqtisodiy jihatdan afzal ekani- ni isbot qilmoqda edi. Doim o'z loyihalarining iqtisodiy foydasini chertib gapiradigan Sherzod o'zining eng zo'r ko'ziri qarshi tomonga o'tib ketganini sezib bezovta bo'lib qoldi. Shu payt O'ktam Rahimovich u o'tirgan tomonga qarab:

– Qani, birinchi loyihaning mualliflaridan... kim gapiradi?.. O'rtoq Bahromov?

– Avval Sayfulla Rahmonovich gapirsinlar! – dedi Sherzod.

– Mayli, qani o'rtoq Rahmonov, siz institut direktorisiz...

Sayfulla Rahmonovich minbarga bir dasta qog'oz ko'tarib chiqdi. Oltin gardishli ko'zoynagini shoshilmay taqdi-da, oldindan tayyorlab yozib kelgan nutqini o'qib bera boshladi:



– O'rtoqlar, biz Sherzod Bahromov, Vazira A'zamovalar bilan birga tayyorlagan loyiha bugungi texnika taraqqiyotining eng ilg'or industrial ish metodlariga mo'ljallab chizilgan. Yangi o'zanni qurish ham, ekspluatatsiya qilish ham mexanizmlar yordamida qilinadi, ishchi kuchi tejaladi. Abror A'zamov boshliq guruh nima qilib bo'lsa ham Bo'zsuvning egri-bugri eski o'zanini saqlab qolmoqchi. Mana shu maqsadda ular bizning loyihamizga qarshi boshqa loyiha tayyorlashgan. O'ktam Rahimovich, agar Bo'zsuvning o'sha egri-bugri o'zani saqlab qolinsa, u yerda mexanizmlarni ishlatib bo'lmaydi, Abror A'zamovga ana shu kerak. Bu odam doim eski konservativ ish usulini yoqlaydi. Texnika taraqqiyotiga ola qaraydi. Men o'z qo'l ostimda ishlaydigan bu odamning uncha sog'lom bo'lmagan kayfiyatlariga avval ham zarba berganman, Hozir ham...


– O'rtoq Rahmonov, – deb O'ktam Rahimovich unga luqma tashladi: – Biz sizlarning oralaringizdan o'tgan eski gaplarni muhokama qilayotganimiz yo'q, hozir metro tunnelini Bo'zsuvning tagidan qanday olib o'tish haqida so'z boryapti. Nima, a'zamovlar chizgan mana bu tunnel loyihasi ilg'or texnikani ishlatishga to'sqinlik qiladimi? Qani, dalil keltiring-chi?

Kutilmagan bu savol Sayfulla Rahmonovichni dovdiratib qo'ydi. U qog'ozlarini asabiy titkilab, dalil topilmagandan so'ng, birdan metro qurilishining boshlig'i qo'l ko'tardi:

– O'ktam Rahimovich, mumkin bo'lsa, men bitta izoh beray!

– Marhamat.

– Biz, metrosozlar, ikki tomonga ham barobar xolis odamlarmiz. Shuning uchun aytmoqchimanki, a'zamovlar chizgan ikkinchi loyihaning barcha ishi mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ilg'or texnikaga to'sqinlik qiladigan birorta nuqtasi yo'q! Aksincha, a'zamovlarning loyihasi industrial ish metodiga asoslangani uchun ham vaqttni tejaydi, ham arzonga tushadi.



Minbarda qizarib-bo'zarib turgan Sayfulla Rahmonovich:

– Ehtimol, – dedi, – A'zamovning bu loyihasi ilg'or texnikaga qarshi emasdir. Ammo boshqa loyihalari...

– Boshqa loyihalarini boshqa joyda gapirasiz! – deb O'ktam Rahimovich uning so'zini kesdi va o'rnidan turdi. «O'tiring!» degan ma'noni uning qat'iy qarashidan sezgan Rahmonov mulzam bo'lib minbardan tushib ketdi.

Shundan so'ng, Pavel Danilovich minbarga chiqdi-yu, to'satdan:

– Sherzod Islomovich, Vazira Badalovna, azizlarim, – deb ularga uzr so'raganday qilib qaradi. – Men Moskvadan sizlarni himoya qilmoqchi bo'lib kelgan edim. Lekin masalani chuqurroq bilganim sari fikrim butunlay o'zgarib ketyapti. Samimiy do'stligimiz hurmati, haqiqatni aytishim kerak. Men Bo'zsuvning qirg'oqlarini ko'rib, uni tabiiy daryo deb o'yladim. Aslida o'sha tabiiylikni saqlab qolganlaringiz yaxshi. Agar Bo'zsuvni bir oy-yarim oyga to'xtatish mumkin bo'lganda boshqa o'zan qazish kerak edi. Chunki Bo'zsuvning oqimi nihoyatda zo'r, tagidan metro tunneli qazilayotganda butun og'irligi bilan bosib tushishi ehtimoldan uzoq emas. Metro quruvchilari uchun mutlaqo bexatar ish sharoiti yaratish – birinchi darajali vazifa. Shuni o'ylab, men bahromovlarning loyihasini qattiq yoqlash niyatida edim. Lekin kengash davomida ma'lum bo'ldiki, Bo'zsuvni qishda vaqtincha to'xtatib qo'yish mumkin ekan. O'rtoqlar, bu ajoyib imkoniyatdan albatta foydalanish kerak! Biz Moskvada metro qurganda bunaqa imkoniyatlar doim ham bo'lavermaydi. Chunki metro uchun Moskva-rekani biror oyga quritib qo'yish mumkin emas. Shu sababli biz tunnelni katta chuqurliklardan qazib, juda qimmatga tushadigan ehtiyot choralari bilan uni daryo tagidan o'tkazguncha behad ko'p qiyinchiliklarga duch kelamiz. Sizlar uchun esa shaharning rahbar tashkilotlari katta o'ng'aylik yaratib bermoqchi ekan. Bundan faqat minnatdor bo'lish kerak. Agar Bo'zsuvni qishda biror oyga to'xtatib qo'yish mumkin bo'lsa, unda



boshqa o'zan qazib, ming yillik tabiiy qirg'oqlar o'rniga shosha-pisha sun'iy qirg'oq yasash mutlaqo kerak emas. Ikkinchi loyihaning yechimi menga yoqdi...


Pavel Danilovichning bundan keyingi gaplari Vaziraning qulog'iga kirmay qoldi. Uning boshi g'ovlab, ko'z oldi xirala-shib ketganday bo'ldi. Anchadan keyin xayolini yig'ishtirib, minbarga qarasa, obodonlashtirish boshqarmasining vakili bo'lgan – qo'ng'ir gardishli katta ko'zoynak taqqan kishi gapiryapti.

– O'rtoqlar, Toshkentda daraxt o'stirishning qanchalik qiyinligini bilasizlar. Yaqindagina stadionning temir panjarasini Bo'zsuvning bo'yidan nariroqqa surib, odamlar sayr qilib yuradigan ko'kalamzor joy qilgan edik. Suvi qurtlab yotadigan katta bir ko'lmakni quritib, tekislab, ko'chatlar ekan edik. Eni besh metrli, bo'yi yarim kilometrli keng asfalt yo'lka qurgan edik. Bahromovlarning loyihasi amalga oshsa, bular hammasi ostin-ustun bo'ladi. Qishda Bo'zsuvda cho'miladigan sportchilar uchun qirg'oqning balandroq bir joyiga – suvga qaratib bejirim bino qurilyapti. Hali uning suvog'i qotgan emas. Agar o'zan boshqa yoqdan o'tkaziladigan bo'lsa, bu binoni ham buzish kerak, chunki suvga orqa o'girib, juda kulgili bo'lib qoladi.

Vazira yangi o'zanning loyihasini boshqarmaning rejasiga kiritayotganida va keyin uni tasdiqdan o'tkazgan paytida yashil siyoh bilan «birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan, to'rtinchidan», deb birma-bir sanab ko'rsatgan va o'shanda behad zo'r tuyulgan dalillar endi mana bu yerda keltirilayotgan boshqa zo'rroq dalillarning shamolida chirpirak bo'lib uchib ketayotganday ko'rindi. Vazira mag'lub bo'layotganlarini, tushgan kemalari toshga urilib chilparchin bo'layotganini va cho'kib ketayotganini endi his qildi.

Shu payt kengashni boshqarayotgan O'ktam Rahimovich Sherzodga murojaat qildi:

– Xo'sh, o'rtoq Bahromov, bu gaplarga qanday javobingiz bor?



Sherzod dik etib o'rnidan turdi. Boshini quyi solib o'tirgan Vazira unga yer tagidan ko'z tikdi. Nazarida, Sherzod hozir Vaziraning ahvolini yengillatadigan biror narsa deydi, loyihalarini mardona himoya qiladi.

– O'ktam Rahimovich, avvalo, bizning ishimizga shunchalik vaqt ajratib, e'tibor berganlaringiz uchun rahmat aytmoqchiman, – deb Sherzod minbarga chiqmay, odamlar orasida tikka turib gapirdi: – Bugungi muhokama hammamiz uchun katta bir... maktab... achchiq saboq. Shaxsan men bu loyihani boshqarmaning topshirig'i bilan chizganman. Shu yechim boshqarmaning rejasiga kiritilgan edi, tasdig'idan o'tgan edi. Bo'lmasa shaxsan men uni bugungi muhokamaga olib kelib, vaqtlaringizni olishga jur'at etmagan bo'lardim. Adashgan bo'lsam, shahar rahbarlarini ishontirib aytamanki, bugungi tanqidlardan, albatta, to'g'ri xulosa chiqarib olaman...

Sherzodning butun gapi aybni boshqarmaga to'nkab, o'zini qutqarib qolishga qaratilganiga Vaziraning ishongisi kelmasdi. Lekin uning: «Boshqarma rejaga kiritib, tasdiqdan o'tkazmasa, shaxsan men... jur'at etolmas edim», degan so'zlari Vaziraning bo'yniga bog'langan tosh kabi, uni cho'ktirib yuborayotganday tuyuldi. Vazira Sherzodning yuziga: «Shunchalik ablahmisan» demoqchi bo'lib tikildi. Sherzod esa O'ktam Rahimovichga yana bir marta minnatdorchilik bildirdi-yu, boshqa hech kimga qaramay, joyiga qaytib o'tirdi.

Vazira navbatdagi zarbani kutib, boshini beixtiyor egniga tortdi va ko'zini polga tikdi. Shu payt O'ktam Rahimovichning:

– O'rtoq A'zamov, gapirasizmi? – degan so'zlari qulog'iga chalindi.

Qatorning narigi chetida o'tirgan Abror o'rnidan turdi-da:

– Loyihalar bo'yicha, hamma gaplar aytili, – dedi. – O'ktam Rahimovich, ruxsat bersangiz, Sherzod Bahromovning so'ngi gapiga oid bitta mulohazani aytsam.



– Marhamat, ayting.

– Biz ijodkorlarmiz. Biz yaratgan birorta loyihani Nabi Sadriyevich rejaga kiritisa, tasdiqdan o'tkazsa, bu bilan u bizga katta ishonch bildirgan bo'ladi. Bordi-yu, deylik, mening loyiham shu ishonchni oqlamasa, buning uchun boshqarmadan ham oldin men o'zimni javobgar sezishim kerak emasmi? «Menda ayb yo'q, boshqarmaning topshirig'i bilan chizgan edim», deb qutulib ketish insofdanmi, o'rtoq Bahromov?

– E, men unday deganim yo'q, siz noto'g'ri tushunibsiz! – deb Sherzod qo'lini Abrorga qarab silkitdi.

– Har holda, shu yechim, shu g'oya birinchi marta Bahromovdan chiqqan. To'g'rimi, Nabi Sadriyevich?


– Albatta-da, – dedi Nabi Sadriyevich. – O'rtoq Bahromov bu loyihagini rejaga kiritguncha atrofimizda girdikapalak bo'lib yurganlarini hali unutganimiz yo'q.

– Lekin siz boshqa narsani unutgansiz, o'rtoq Sadriyev! – deb O'ktam Rahimovich o'rnidan turib uning so'zini bo'ldi. Hamma jim bo'lib qoldi. Abror joyiga qaytib o'tirdi. – Yana so'zlovchilar bo'lmasa, muhokamani yakunlaymiz. Bilasizlar, o'rtoqlar, respublikamizning rahbarlari Toshkentni qayta qurishga juda katta ahamiyat beryapti. Metro qurilishi ham Toshkent mehnatkashlariga qulaylik yaratish uchun qilinayotgan katta bir g'amxo'rlik. Bo'zsuv bo'ylari ham toshkentliklarning yaxshi dam olishiga xizmat qilishi kerak. Qurilishning ko'lami juda katta, yechishimiz kerak bo'lgan muammolar ko'p, ularning hammasi bir-biriga bog'liq. Shuning uchun O'zbekiston hukumati maxsus qaror qabul qildi. Toshkentni qayta qurish kompleks ravishda har tomonlama puxta olib borilishi kerakligi qayta-qayta uqtirildi. Siz, o'rtoq Sadriyev, mana bu loyihaning mualliflari bilan birga masalaga bir tomonlama yondashgansiz. Gapirgan o'rtoqlar to'g'ri aytishdi. Siz ming yillik tarixiy yodgorlik bo'lgan Bo'zsuvning mana shu yerdagi o'zanini ko'mib tashlamoqchi bo'lgansiz. Bunga nima hojat bor? Qarang:



yaqindagina qurilgan asfalt yo'lkaning eni besh metr, bo'yi bir kilometr bo'lsa, unga kamida besh ming kvadrat metr asfalt yotqizilgan. Bahromovlarning loyihasini qabul qilsak, shuning hammasini buzish uchun ham pul sarflab, vaqt ketkazishimiz kerak. Bu yerda qishki suzish sportiga o'rin ajratib, bino qurdirsak, endi buni ham yo'q qilmoqchi bo'lasiz. Koshki buning biror tiyinlik iqtisodiy samarasi bo'lsa! Aksincha, bir necha yuz ming so'mni havoga sovurmoqchi bo'lgansiz, o'rtoq Rahmonov! Siz loyiha institutining direktorisiz! Masalaga kompleks yondashish o'rniga shaxsiy xusumatga berilib, A'zamovga asossiz, isbotsiz ayblarni taqaysiz! Holbuki siz o'z qo'l ostingizdagi iste'dodli me'morlarni asossiz qoralashlardan himoya qilishingiz kerak edi! Sizning o'rningizga bu ishni, mana, metrosozlar qilishdi. Metro quruvchilariga rahmat, masalani to'g'ri hal qilishda bizga astoydil yordam berishdi. Ikkinchi loyiha chindan ham katta iqtisodiy samara beradi, keraksiz vayrongarchiliklarga yo'l qo'ymaydi, eng muhimi, shu obyektning bir necha oy tezroq qurib bitirilishini ta'minlaydi. Mana bu masalani kompleks ravishda hal qilishning namunasi bo'la oladi! Siz, o'rtoq Sadriyev, ikkinchi loyihani qo'llab-quvvatlashingiz kerak edi. Bu ishni boshdayoq Abror A'zamovga o'xshagan arxitektorga topshirishingiz kerak edi. Biz sizdek boshqarma boshlig'idan masalaga doim mana shunday donolik bilan yondashishni talab qilishga haqlimiz!

Boshqalar qilgan xato uchun ham Nabi Sadriyevichning bunchalik qattiq gap eshitgani Vazirani battar qiynab, ezib tashladi. U muhokama tugagandan keyin zaldan qanday chiqqanini bilmaydi. Tush ko'rayotganday, atrofida kimlar yurganini elas-elas payqardi. Faqat boshining tobora qattiq og'riyotganini, ko'zi ustiga bir narsa bosib kelayotganini aniq his qilmoqda. Bir vaqt u vestibulda ko'zlari bejo chaqnab turgan Sadriyevga ro'para kelib qoldi. Vazira butun aybni o'ziga olib, uning ahvolini yengillatmoqchi bo'ldi.



– Nabi Sadriyevich, siz men tufayli gap eshitdingiz... Men...

To'lib borayotgan Sadriyev ovozi tahdidli pasaytirib:

– Ha, siz meni jodiga qo'yib qirqdingiz! – dedi. – Siz bu Bahromovni qaysi go'rdan topib kelgan edingiz? O'zingizning eringiz unga qarshi loyiha chizib yurganini nega mendan yashirdingiz? Balki biz eringizning loyihasini reja-ga kiritgan bo'lardik?

Vazira Abrorning loyihasi ancha keyin – avvalgi loyiha tasdiqdan o'tgandan so'ng chizilganini aytmoqchi bo'lib og'iz ochdi. Lekin Sadriyev unga gap bermay, zahrini to'kishda davom etdi:

– Bugungi muhokamada bizga sal yon bosgan odam – hali ham shu eringiz bo'ldi! Nega siz uning ishini rad qilib, Bahromovnikini o'tkazishga tirishdingiz?! Moskvadan himoya uchun chaqirgan mutaxassisingiz o'zingizga qarshi gapirib o'tiribdi-yu! Bu qanaqa bema'nilik?! Sizga ishonib men rasvo bo'ldim! Bas!..

Sadriyev asabiy qo'l siltadi-yu, ko'cha eshigiga qarab ketdi. Vazira umrida bunchalik mulzam bo'lmagan edi. U ko'chaga chiqib, zinapoyadan sekin tushayotganida atrofi-da hech kim qolmaganini sezdi. Odamlar go'yo undan hazar qilib qochayotganday tuyuldi. Baland poshnasi zina chetiga ilinib, qoqilib ketdi va gandiraklab yiqilishiga sal qoldi.

Ko'z oldida mayda chiziqlar har qachongidan ham ko'payib ketgan, xuddi bijirlab qaynayotganday. Borayotgan yo'lini ko'zi zo'rga ilg'aydi. Dunyo allanechuk tor bo'lib qolgan. Qo'l-oyoqlari esa madorsiz. Ehtiyot bo'lmasa, yiqilib tushadigandek, imillab, qaddini oldinga egib yura boshladi.

Shu payt uning chap yoniga olcharang «Jiguli» sekin kelib to'xtadi. Abror chap qo'lini rulga tirab, o'ng qo'li bilan oldingi eshikni ochdi.

– O'tiring!

Vazira mashinaga yaqinlashishga jur'at etolmagandek o'zini ikki-uch qadam nariga oldi. Shunda Abror ochiq deraza orqali uning yuziga tikildi.



Vazira bir kundayoq so'lib, kampirday munkillab qol-ganga o'xshardi. Yuziga qarab bo'lmaydi. Ko'zlari to'kilib tushadigandek qalqib turibdi.

Abror sakrab mashinadan tushdi-da, Vazirani yelkasi-dan olib mashinaning eshigi oldiga olib keldi.

– Qo'ying, endi bo'lari bo'ldi, – deb uni mashinaga chiqardi-yu, ketidan eshikni yopdi. Rulga o'tirib, mashinani katta ko'chaga chiqarar ekan:

– Ishxonagami? – dedi.

Vaziraning qulog'i shang'illab, bitib qolayotganday bo'ldi. Ahvoli tobora og'irlashayotganini sezib, bosh chay-qadi-da:

– Uyga, – dedi.

Abror ko'zini bir lahzaga yo'ldan olib, xotiniga nazar tashladi-da, xavotirlanib so'radi.

– Nima bo'ldi? Doktorga olib boraymi?

– Yo'q, uyga, – dedi Vazira xasta tovush bilan.

Abror mashinasini iloji boricha tez haydab, podyezdla-rining oldiga yaqin keltirib to'xtatdi. Vazira o'zini juda yo-mon his qilmoqda edi. Zinapoya qanotiga suyanib sal na-fasini rostlaganday bo'ldi. Abror uni o'ng qo'ltig'idan oldi. Uchinchi qavatga chiqqunlaricha Vaziraning nafasi tiqilib, havo yetishmay qoldi. Bolalar eshikni ochiq qoldirish-gan ekan. Vazira divanga zo'rga yetib bordi. Keyin birdan chinqirib yubordi. Chap ko'krigidan og'ir bir narsa bosib, shunday og'ritib qisdiki, nafas ololmay qoldi. Divanga o'zini tashlab, yoqasini yulqib ochdi-da:

– Suv!.. – dedi. – Voy-y!

Abror sarosimaga tushib, oshxonaga qarab chopdi. Qo'shni xonada Malika dars tayyorlab o'tirgan edi. Oyi-sining chinqirig'idan qo'rqib, uning oldiga yugurib chiq-di. Abror piyolani sovuq suvga to'ldirib, orqasiga chopib qaytayotganda suvning anchasi to'kilib ketdi. U divanda og'riqdan to'lg'anib yotgan Vaziraning boshini bir qo'li-ga oldi-da, ikkinchi qo'li bilan unga suv ichirdi. Suvning



bir qismi Vaziraning bo'yniga, yoqasiga to'kildi. U suvning salqinidan xiyol yengil tortdi-yu, lekin quloqlaridagi shang'illash va boshining ortidan chap ko'kragiga bosib tushayotgan dahshatli og'riq yangi bir kuch bilan qaytib keldi. Og'riqning zarbi bilan ko'zidan duvillab yosh to'kila boshladi. Yuzi azobdan qiyshayib, teri tagidan suyaklari bo'rtib ko'rinayotganday bo'ldi.

– Og'rig'i yomon! Voy o'laman!.. Voy-y!..

Abror yana oshxonaga qarab chopdi. Aptechkadan valerianani olib, titrab-qaltiragan holda piyoladagi suvga yigirma-o'ttiz tomchi tomizdi-da, yana yugurib Vaziraning oldiga qaytdi.

Bir qo'li bilan oyisining qo'lini mahkam ushlab, ikkinchi qo'li bilan uning ko'kragini silayotgan Malika nuqul:

– Oyi! Oyijon! Oyi! – der va unga achinganidan ko'z yoshini to'xtatolmay yum-yum yig'lardi.

Abror Vaziraga valerianka ichirib ko'rdi. Lekin bu ham foyda bermadi. Keyin u yo'lakdagi telefonga qarab chopdi. Nol uchni terib go'shakni ko'tarishgunicha o'zini-o'zi koyidi:

– Padariga la'nat bu olishuvlarning!.. Allo!.. Allo! «Tez yordam»mi?

Abror ovozi ichkarida ingrab yotgan Vaziraga eshittirmaslikka tirishib, go'shakni qo'li bilan bekitgan holda:

– Infarkt bo'lmasin deb qo'rqyapman! – dedi. – Ahvoli juda yomon! Dori kor qilmayapti! Iltimos, vrach tezroq yetib kelsin!

Abror ism-familiyalar, manzillarni aytdi-da, go'shakni qo'ydi.

Shu payt tashqaridan «Orlyonok» velosipedini yetaklab, terlab-pishib Zafar kirib keldi. U bulturdan beri dadasidan iltimos qilib yurib, tug'ilgan kuniga shu velosipedni oldirgan, har kuni unda uchish uchinchi qavatning zinapoyasidan bir necha marta pastga ko'tarib tushib, yuqoriga ko'tarib chiqardi.



Hozir Zafar dadasining hang-mang bo'lib turganini ko'rdi, so'ng oyisining ingraganini eshitdi. Velosipedini polga yotqizib, Vazira yotgan xonaga yugurdi. Abror uning ketidan kirdi.

– Hozir vrach keladi, – dedi. – Biror narsa beraymi, Vazira! Hech yengillashmayaptimi?

Vazira hamon og'riqdan vujudi to'lg'anib bosh chayqadi. Abror o'g'lining ko'zida ham yosh yiltillaganini ko'rdi-da:

– Zafar, sen bu yoqqa yur, – dedi uni biror narsa bilan alahsitgisi kelib. – Ana, velosipedingni yo'lakdan ol. Hozir odamlar kelsa, xalaqit beradi.

Abror tashqariga chiqiladigan eshikni ochib qo'ydi. «Tez yordam»ga qoyil bo'lish mumkin edi: o'n besh daqiqa o'tar-o'tmas kattagina yog'och quti ko'targan ayol vrach hamshirasi bilan Abrorlarnikiga yetib keldi.

Abror ularni Vaziraning oldiga boshlab kirdi-yu, sekin qaytib chiqdi.

Birozdan keyin Vaziraning ingrashlari to'xtadi. Oradan yana o'n besh daqiqalar o'tgandan so'ng vrach ayol qo'lini yuvish uchun yo'lakka chiqdi.

Abror, Zafar, Malika – uchovlari uch tomondan ko'zlari mo'ltirab turganini ko'rgan vrach:

– Qon bosimi birdan ko'tarilib, yurakni iskanjaga olib-di-da, – dedi.

Vrach vannaga kirib, qo'lini sovunlab yuvdi. Abror unga toza sochiq tutdi. Vrach Abrorning yuziga tikilib:

– Ayol kishining ham ishlab, ham oilani eplashi oson emas-da, – dedi. – Ishda biron ko'ngilsizlik bo'lganmidi?

– Ha, bo'lgan... Men... qo'rqib ketdim.

– Qo'rqqaningiz bejiz emas... Gipertonik kriz bo'lgan. Oldi olinmasa, falokat bo'lishi mumkin edi. Biz hamma dori-darmonlarni qildik.

– Rahmat sizga... Endi durustmi?

Abror eshik oldida o'zini aybdor sezgandek iztirob chekib turar edi. Vrach uning yuziga ma'noli ko'z tashladi-yu:



– Hozir zamon tinch, – dedi. – Urush yo‘q. Lekin endigi janglar odamlarning ichki dunyosida boryapti. Asabni tarang torttiradigan tashvishlar ko‘p. Bir-biriga qo‘shilib, «stress» degan narsani keltirib chiqaradi. Yurak bilan asabga haddan ortiq katta yuk tushgan sari stress kuchayib ketaveradi... kuni bo‘yi shaharning u yog‘idan-bu yog‘iga «Tez yordam» mashinasida chopamiz. Bir joyda insult... boshqa joyda infarkt... yil sayin ko‘p.

– Nega shunday bo‘lyapti-ya?

– Sababi har xil. Tog‘larda yurganda bir narsani sezganmisiz? Hamma yoq tinch, sokin turgan paytda bir qichqirsangiz, ovozingiz o‘nlab yonlardan aks sado bo‘lib, aslidan bir necha barobar ko‘payib qaytadi.

– Rost, tog‘da shunday bo‘ladi.

– Tinchlik paytidagi stresslar ham ana shu tog‘dagi aks sadolarday ko‘payib ketarkanmi? Orzu-havas, to‘y-ma‘raka, boshqa yuz xil tashvish, intilishlar hammasi ilmiy-texnika inqilobining katta yukiga qo‘shilib, yopirilib kelaversa, asab chidaydimi? Infarktlar, insultlar xuddi dushman snayperlariga o‘xshab qulay paytni poylab yotadi-yu, goh yurakka, goh boshga bexato uradi.

Abror bu gaplarni yomon bir xabarning muqaddimasi emasmikin, deb xavotirlandi:

– O‘rtoq vrach, ochig‘ini ayting... Ahvoli qalay?

Biz hozir besh xil doridan ukol qildik. Agar omadlaring kelsa, tinchib uxlab qolishlari kerak. Yo‘q, agar, uxlay olmasa-yu, ahvoli og‘irlashsa, unda yana nol uchga qo‘ng‘iroq qiling. Men nazoratga olib turaman.

– Yana o‘zingiz kelasizmi?

– Yo‘q, unda reanimatsion mashina kelib darhol kasalxonaga olib ketadi.

So‘nggi gap Abrorning ko‘ngliga g‘ulgula soldi.

Vrach aptekadan olinadigan bir-ikkita dori yozib berdi-yu, ketdi. Abror Vazira yotgan xonaga kirishdan o‘zini tutdi – Malika hali ham oyisining yonida. Agar uxlayotgan



bo'lsa, uyg'onib ketmasin, deyishib, Abror o'g'li ikkovi birpas oshxonada kutib o'tirishdi. Nihoyat, ichkaridan Malika oyoq uchida yurib chiqib keldi. Bir kunda bir necha yoshga ulg'ayganday jiddiy qiyofali Malika xuddi bolasini uxlatgan onaday shivirlab:

– Uxlab qoldilar, – dedi. – Vrach nima buyurdi, dada?

– Mana, dori... Uyg'onsa, ozgina shirin choy, qatiq, tovuq sho'rva ichsin ekan.

Malika sovutkichdagi muzlagan tovuqni olib, iliq suvga solib qo'ydi.

– Oyinga men o'zim qarab turaman, – dedi Malika.

Abror Zafar bilan birga mashinaga o'tirib, bozorga ketdi. Meva-cheva olib, kefirni gastronomdan topib, qaytishda aptekaga ham kirib o'tdi.

Hozir ish ham, muhokama ham, ukasining to'yi ham xayolidan uzoqlashib ketgan. Qizi Malikaning institutga kirish-kirmasligi ham ko'ziga ko'rinmay qolgan, xotining hayoti, tirik, sog' yurishi boshqa hamma narsadan muhimroq ekani unga endi sezilmoqda edi. Vazira berahm bir kurashning iskanjasiga tushib, hayoti xavf ostida qolganida Abror buning uchun o'zini ham gunohkor his qilgan, agar shu holatda xotinidan ayrilib qolsa, umrbod o'zini kechirolmasligini endi payqagan edi.

Shu tuyg'ular bilan uyiga qaytsa, Vazira hamon uxlab yotibdi. Abror bolalari bilan past tovushda gaplashib, yo'lakdan oyoq uchida yurib, oshxonaga o'tdi. Keyin Malika ikkovlari tovuq sho'rva pishira boshlashdi.

Vazira kech bo'lganda uyg'ondi va zaif tovush bilan Malikani chaqirdi. U yotgan xonaga Malikaning ketidan Abror bilan Zafar ham kirishdi. Uchovlashib, Vazira yotgan divanning bosh tomoniga jurnal stolchasini qo'yishdi, ustiga dasturxon solishdi-da, vrach buyurgan shirin choy, qatiq va tovuq sho'rvalarni birin-ketin olib kirishdi.

Vazira boyagi og'riqlardan qutulgan bo'lsa ham, butun vujudi bo'shashgan, karaxt. Qo'l-oyoqlari birovnikiga



o'xshaydi. Hamma narsaga loqayd qaraydi. Shu ahvolda Abror tutgan choydan bir-ikki ho'pladi. Badaniga issiq yugurganda go'yo xotira ham ishlay boshladi-yu, bugungi mag'lubiyati va Sadriyevning so'nggi gaplari yana xayoliga bosib keldi. O'zi o'ziga behad ayanchli ko'rindi. Atrofida girdikapalak bo'lib yurgan Abror esa Vazira qilgan yomonlikka shuncha yaxshiliklar bilan javob berib, uni urib-so'kkandan battar mulzam qilmoqda edi, Vazira yosh to'la ko'zlarini Abrorga tikdi:

– Men nima degan odam bo'ldim endi?.. Men... arzimayman! Hech narsaga arzimayman!...

Abror uning ko'zidan so'lg'in yuziga oqib tushgan yirik yosh tomchilarini qo'lining uchi bilan sekin artib oldi.

– Hozir siz menga avvalgidan ham azizroqsiz, Vazira. Oramizda yomon bir devor paydo bo'lgan edi. Bugun o'sha qulab tushdi. Men uchun eng muhimi shu.

Vazira Sherzodning ilgarigi muomalalarini va bugungi qallobligini yana bir esladi-yu, qanchalik aldangani va sharmanda bo'lganini endi astoydil sezib, o'kirib yubordi:

– Bu kunimdan yer yorilib, meni yutib ketsa bo'lmasmidi?

Oyisining ko'zidan duv-duv yosh to'kilayotganini ko'rgan Zafarning lablari himarilib, kiprigi birdan namlandi. Malika ota-onalarini yolg'iz qoldirishlari kerakligini sezdi-da, ukasini sekin qo'lidan ushlab, olib chiqib ketdi.

– Mayli, yig'lab oling, balki yengil tortarsiz, – dedi Abror. So'ng xotinining yoniga o'tirib, yelkasidan quchdi. Vazira, butun vujudi alam bilan silkinib yig'lamoqda edi. Abror ortiq chiday olmadi: – Endi bas! O'zingizni qo'lga oling, Vazira! Bas. Bolalar xavotir olyapti. Malika ertaga imtihonga boradigan. Hech bo'lmasa, shuni o'ylang. Naryoqda Shokirlarning to'yi turibdi.

So'nggi gaplar Vazirani sal hushiga keltirdi. Ko'z yoshidan bitib qolgan burnini tortib, qo'lining orqasi bilan ho'l kipriklarini artdi. Abror unga sumkasidan ro'molchasini olib berdi. Stol ustidagi qatiq va tovuq sho'rvani ko'rsatib:



– Hozirgi yoshlar yaxshi kiyinishga, mana bunaqa qimmat narsalarga juda o'ch-da, Abrorjon, – dedi.

– Yaxshi yashash ham kerak, – deb Alibek darrov hi-moyaga hozirlandi.

Abror divanga o'tirar ekan:

– Ishqilib mo'may pul topishning payiga tushib, sirg'an-chiq yo'lga kirib ketmasalaring bo'ldi, – dedi.

– E, pochcha, zavod magazin emas! Men faqat qilgan mehnatimga yarasha pul olaman. Ko'proq ishlasam, ko'proq tegadi. Yaxshiroq ishlasam, sifati uchun ustama mukofot beriladi. Nasiba ham maktabda necha soat dars berishiga qarab oylik oladi. Oz-ozdan orttirib, qarzlarni uzamiz. Keyin mashina uchun pul yig'amiz. O'lmasam, men ham «Jiguli» olaman!

– Kitob-chi? – so'radi Abror. – Ma'naviy boylik ham kerakmi yo faqat buyum bo'lsa basmi?

– Men kutubxona qilaylik desam, Alibek unamayapti, – dedi Nasiba.

– Avval mashina olaylik, undan keyin kitob yig'ishga tushamiz... Chiroyli polkalar yasatamiz. Oynavand javonlar...

Alibekni hali ham hayotning tashqi bezaklari ko'proq qiziqtirishini sezgan Abror: «Odamning butunlay o'zgarishi qiyin ekan-da», deb qo'ydi ichida. Lekin, har qalay, Alibekning ilgari bekorchixo'jaligidan hozirgi harakatlari durustdek ko'rinardi.

Abror qaynonasiga yuzlandi. Uning ko'zlariga tikilib:

– Siz qalaysiz, aya? – dedi. – Ko'z durustmi?

– Bittasi butunlay ko'rmay qoldi.

– Iya! Yana oq tushibdimi?

– Ha, Abrorjon, operatsiyani juda vaqtida qilgan ekanmiz. Agar bir ko'zim o'shanda ochilmaganda, hozir ikkovi ham ko'rmay, tamom o'tirib qolarkanman! Shuni o'ylaganimda biram suyunaman, Vazira ikkovlaringni biram alqayman! O'sha professor ham kam bo'lmasin! Operatsi-



yani juda yaxshi qilgan ekan. Hozir ko'zoynak taqsam, shu bitta ko'z bilan gazeta o'qiyman-a! Tikishimni ham o'zim tikaman!

Narigi xonaga Zafar Temurbek bilan chug'urlashib o'yinchoq mashinalarini yurgizmoqda edi.

– Opam nega kelmadilar, pochcha? – so'radi Alibek.

Abror ishda bo'lgan ko'ngilsizlikni aytmaslik uchun Malikaning imtihonlari va to'y tashvishlaridan gapira boshladi.

– Vazira qattiq charchabdimi, boshi... og'rib yotibdi.

– Qon bosimi ko'tarilibdimi? – xavotirlanib so'radi Zumrad Sodiqovna.

– Ha, vrach ko'rdi. Unchalik xavotirlanadigan joyi yo'q. Lekin bir kun-yarim kun osoyishta yotib tursin deyapti. Malika indin fizikadan topshirishi kerak.

Bir vaqtlar institutda fizikadan dars bergan Zumrad Sodiqovna:

– Bo'lmasa men borib Malikaga ko'maklashaymi? – dedi.

– Yaxshi bo'lardi-da, aya!

Nasiba do'lma ko'tarib kirdi. Kuni bilan hech narsa yemagan Abror ishtaha bilan ovqatlandi, choy ichdi.

– Falakning gardishi g'alati ekan, – dedi Alibekka qarab. – Bir-ikki yil oldin biz sizlarga ko'maklashar edik, hozir o'zimiz sizlarning yordamlaringga muhtoj bo'lib o'tiribmiz.

– Armiyaga ketishimga ko'maklashganingizmi? – o'smoqchilab so'radi Alibek. – O'lmasam hali buni sizga qaytaraman!

– Nima, armiyaga ketganingiz yomon bo'ldimi?

– Ha, taygada, sovuqlarda adabimni yeb, sizdan juda minnatdor bo'ldim!

– Biz shu yerda ham adabimizni yeb yuribmiz, mulla Alibek. Bu yoqda Malikaning tashvishi. U yoqda Shokirning to'yi. Ginaxonlikni bas qilib, Nasiba ikkovlaring to'yga sal qarashasizlarmi-yo'qmi?

– Jon deb qarashamiz, – dedi Nasiba.

Biroq Alibek qovog'ini solib:



– Eskicha to'ydir-da? – dedi. – Qo'l qovushtirib xizmatkorlik qilishga mening toqatim yo'q, pochcha.

– Obbo, hali ham osmondan kelasiz-a, mulla Alibek... Xo'p, mayli. Siz xizmat qilmang. Faqat indin shokirlar bilan ZAGSga boring. Bo'ldimi?

– Indin shanbami? Bunisi mayli, Nasiba maktabidan javob olar... Birga boramiz.

Temurbekni Nasiba ikki kunga oyisining hovlisiga olib borib qo'yadigan bo'ldi. Abror qaynonasini pastga boshlab tushib, mashinasiga o'tqazdi-yu, uyiga olib ketdi.

* * *

Vazira xobgohda uxlab yotgan ekan. Uni uyg'otib yubormaslik uchun Zumrad Sodiqovna Malika bilan oshxonaga o'tdi. O'sha yerda ikkovlari allamahalgacha fizikadan mashq qilishdi, keyin balkonga joy solib yotishdi.

Ertalab soat yettilarda Abror eshik qo'ng'irog'ining jiringlashidan uyg'onib ketdi. Zumrad Sodiqovna eshikni ochdi. Shokirning bezovta tovushi eshitildi. Abror yana biron hodisa bo'lganini sezib, o'rnidan turdi, bet-qo'lini apil-tapil yuvib, kabinetga kirdi.

– Tinchlikmi, Shokir?

– E, tinchlik qayoqda? Kelin tomon birdan to'nini teskari kiyib olibdi! Nigoraga yuborgan sovg'alarimizni yomonlab, tugun qilib qaytarib yuborishibdi.

Sherzod Bahromov kechagi mag'lubiyatning alamiga to'ydan biron ishkallik chiqarishi mumkinligi Abrorning xayoliga kelgan edi. Lekin uning bunchalik tez – bir kechaning o'zidayoq hujumga o'tishini kutmagan edi. Nahotki u to'yni buzmoqchi bo'lsa?

– Nigora nima deydi? Bu ishdan uning xabari bormikin?

– Shuni bilolmayapman. Kecha kechqurun uchrashadigan edik. Kurantning tagida bir yarim soat kutdim. Kelmadi. Uni ham birov aynityaptimi?



– Ehtimol shundaydir, – dedi Abror va kecha Bahromov bilan qanday olishuv bo'lganini bir-bir aytib berdi.

– Endi nima qilamiz, aka?

– Taklifnomalar tarqatilgan. Agar Bahromov to'yni buzsa, butun shaharga kulgi bo'lamiz deyaver!

– Adam shuni o'ylab, tuni bilan yurib chiqdi. Keksa odam bunaqa sharmandalikni ko'tarishi qiyin. Biron falokat bo'lmasin deb qo'rqaman!

Abror o'ylanib turdi-yu:

– Bizga faqat Nigora yordam berishi mumkin, – dedi. – Balki bugun ishxonasidan toparsan?

– Ishdan javob olib ketgan ekan. Kasalmi yo uyga qamab qo'yib, chiqarishmayaptimi? Bilib bo'lmaydi.

Abror deraza orqali hovlidagi kooperativ uyga ko'z yurgurtirdi-yu, bu binoning yaqin joyda turganidan endi beixtiyor yengil tortdi. Ukasiga qog'oz-qalam berib:

– Nigoraga bitta xat yoz, – dedi. – Ertaga ZAGSga boradigansanlar. Nega bunday bo'lyapti? Aytsin!

Shokir xat yozguncha Abror xobgohga kirib chiqdi. Vazira o'rnidan turgan, ahvoli kechagidan sal durust, lekin majoli yo'q, yuzi sarg'aygan.

– Siz hali qo'zg'almang, xonim. Uy ishiga onangiz qarashyapti.

Abror oshxonaga o'tdi. Malika buvisi bilan nonushta tayyorlamoqda edi.

– Qizim, sen Shokir akangning qallig'i Nigorani taniysan-a?

– Taniyman.

– Uylarini ham ko'rganmisan?.. Bo'lmasa, bitta xatchani tez Nigora opangga olib borib ber. Iloji bo'lsa, javobini ham olib kel.

Malika chiqib ketdi-yu, Abror bilan Shokir bir-ikki piyoladan choy ichar-ichmas ma'yus bo'lib qaytdi:

– Nigora opamlarning oyisi meni eshikdan kirgizmadi. «Obor xat-patini, bizga unaqa qudalar kerak emas», – deydi.



– Nigoraning o'zi chiqmadimi?

– Yo'q. «Chaqirib bering» desam, «chaqirmayman!» deb eshikni yopib oldi.

Shokir ham to'satdan izzat-nafsga borib sakrab o'rnidan turdi:

– Menga ham bunaqa qaynonaning keragi yo'q! Bas! Oyisining chizig'idan chiqolmasa, o'zidan ko'rsin! Kerak emas to'y-po'yi!

Abror uni yelkasidan bosib:

– Uka, endi sen sal og'ir bo'li! – dedi. – Boshida men aytuvdim. Bahromov – hech balodan qaytmaydigan makkor odam. Bu hammasi o'shaning nayrang bo'lsa kerak.

– Siz ham kelib-kelib shunaqa paytda u bilan olishib yuribsiz!

– Endi bo'lari bo'ldi, uka. Yo'lbars izidan qaytmas, dey-dilar. Rasm-rusumga binoan men hozir kelinning uyiga bormasligim kerak. Lekin Bahromov shunchalik bor-gandan keyin biz ham rasm-rusumlarga qo'l siltaymiz. Sen meni kutib tur. Hozir o'zim borib bir yoqlik qilib kelaman.

Shokir joyiga qaytib o'tirdi. Abror kiyinib, soqol olib pastga tushganida kooperativ uyning oldida turgan oq «Jiguli»ni ko'rdi. Bu Sherzod Bahromovning mashinasi ekanini nomeridan tanidi-yu, to'xtadi. Demak, Sherzod ertalabdan Nigoralarnikiga yetib kelgan. U bilan yuz ko'ri-shish Abrorga nihoyatda noxush tuyuldi, birdan orqasiga qaytib ketgisi keldi. Lekin to'yni shu Sherzod buzmoqchi bo'lsa, u bilan yuzma-yuz turib ochiqchasiga gaplashgani ma'qul emasmi? Tavakkal! Abror tez-tez yurib, uchinchi qavatga ko'tarildi-yu, Nigoralarning eshigi tepasidagi qo'ng'i-roq tugmasini ustma-ust bosdi.

Eshikni Nigoraning otasi Muxtor aka ochdi. U kutilma-gan mehmonga qanday muomala qilishini bilmay, ko'zla-rini pirpiratib, bir lahza ag'rayib turdi. Abror ostona hatlab ichkariga dadil qadam qo'ydi-yu, mezbonga qo'l berdi:

– Ostona orqali ko'rishsak, yaxshi bo'lmas, Muxtor aka! Mana endi salom!



Muxtor aka beixtiyor uning qo'lini olib ko'rishar ekan, gunoh ish qilayotgan odamday orqaga olazarak bo'lib qaradi. Yo'lakning to'rida Sherzod bilan uning onasi Abrorga o'qrayib turibdi.

– Men bu uyga sovchi bo'lib kelgan edim. Endi ishkallik chiqqanini eshitib yana kelishga majbur bo'ldim. Qanday javobgarligi bo'lsa, bo'ynimga olishga tayyorman!

Abror ovozini xiyol ko'tarib, ataylab dona-dona qilib gapirmoqda edi. Yopiq eshiklardan birortasining ortida Nigora turgan bo'lishi kerak. Ikki orada bo'ladigan gapni qiz, albatta, eshitishi kerak.

Qizning onasi Shezodnikiga o'xshab ketadigan yupqa lablarini nafrat bilan burib dedi:

– Siz sovchi bo'lib kelganingizda biz izzat-ikrom bilan kutib olgan edik, to'n kiydirgan edik. Biz sizning yaxshilikka yomonlik qiladigan odatingiz borligini bilmagan ekanmiz!

– Iye, men sizga nima yomonlik qildim, kelinoyi? – so'radi Abror hazilomuz kulimsirab.

– Mening eng yaxshi ko'rgan inim mana shu – Sherzod. Hamma og'ir kunimizga shu ukam yaraydi. Siz shu birgina ukamga doim baxillik qilasiz. Davlatdan mukofot oladigan bo'lganda siz qarshi chiqib, o'rniga boshqa odamni o'tkazmoqchi bo'libsiz. Men buni ham bugun eshitdim. O'shanda niyatingizga yetolmagan ekansiz. Kecha tag'in Sherzodni kattalarga yomon ko'rsatib, lavozimidan yiqitishga urinib-siz. Siz mening bittagina ukamga shunchalik dushmanmiz? Bunchalik baxil, ichiqora odam bo'lsangiz bizga qarindosh bo'lib nima qilasiz? Bizning qizimiz ko'chada qolgani yo'q!

Abror eshiklardan birortasining to'satdan ochilib qolishini va Nigora chiqib kelishini kutdi. Lekin yo'lakdagi to'rtta eshikning hammasi yopiq, ichkaridan bironta sharpa sezilmaydi. U ovozini yana xiyol ko'tarib:

– Kelinoyi, – dedi, – siz menga bunaqa ayblarni taqashdan oldin gap nimadaligini surishtirib biling! To'xtang,



mening arzimni ham eshiting! Suyukli iningiz Sherzod Bahromov bilan biz tengdoshmiz, birga o'qiganmiz. Tengdoshlarning bir-biriga g'ayirligi kelishi – hayotda bo'ladigan gap. Lekin odatda qobiliyatsiz, nursiz odam o'zining iste'dodli tengdoshiga g'ayirlik qiladi. Agar men ana shunaqa g'ayirlik qiladigan qobiliyatsiz, baxil odam bo'lsam, buni hozir mana shu yerda o'tirib bo'yninga qo'yishlaringiz mumkin. Biz Sherzod ikkalamiz ham me'mormiz, rasm chizishni bilishimiz kerak. Ikkovimizga ikkita qalam, ikki varaq oq qog'oz beringizlar. Derazaning oldida o'tirib, hovlidagi daraxtlarni, odamlarni, uylarning suratini solaylik. Qani, kimning chizgan surati qanday chiqarkin, shunga qarab kimning qobiliyati qanaqaligini bilasizlar!

Sherzod nafrat bilan qo'l siltadi:

– Bunaqa bachkana o'yinlarga mening vaqtim yo'q!

– Ochiqchasiga bellashishga yurak yo'q sizda, janobi Sherzod! Talabalikda ham surat chizish qo'lingizdan kelmas edi. Sizda me'morlik iste'dodi o'zi yo'q, bu sohaga adashib kelib qolgansiz, oshnam! Me'morlik iste'dodi – takrorlanmas bir go'zallik yaratadigan ma'naviy kuch. Siz esa faqat takror bilan, shablon bilan, standart bilan kun ko'rasiz! Faqat konveyerdan chiqadigan g'ishtning, beton plitaning rasmini chiza olasiz, xolos. Tirik borliqning o'ziga xos go'zalligini badiiy haqiqatga aylantirib qayta tiriltirish qo'lingizdan kelmaydi! Tasvirga jon ato qilish faqat iste'dodli odamgagina muyassar bo'ladi. Sizda ana shu yo'q!

Abror boshqa hech kimga so'z navbati bermasdan jo'shib, qizishib gapirayotganda harir parda tutilgan oynavand eshik ortida qandaydir sharpa sezildi. Balki Nigoradir? Abror u eshitadigan qilib, hech kimga so'z bermay davom etdi:

– Muxtor aka, mening gapimni to'g'ri tushuninglar. Tabiat tomonidan iste'dod berilmagan bo'lsa, buning uchun hech kimni ayblab bo'lmaydi. Lekin iste'dodsiz odam ichiqoralikni, baxillikni o'zi qilib qo'yib, buni boshqa oqko'ngil odamga to'nkasa, jim qarab turib bo'lmas ekan-da!



– Voy-bo'y, sen o'zingni bunchalik oppoq qilib ko'rsatishdan uyalmaysanmi? – deb Sherzod Abrorni qahr bilan sensiradi. – Gapingga qaraganda, sen, A'zamov, yorqin bir iste'dodsan-u men – keraksiz bir to'nka!

– Men sizni to'nka deganim yo'q. Siz, shubhasiz, kerakli odamsiz. Ilgari oddiy odamlarni juda zarur vintchalarga o'xshatishardi. Siz oddiy odam emas, vintcha emas, katta bir vintsiz, Sherzod. Bu vintlarning qulay tomoni shuki, biri ishdan chiqsa, boshqasi bor. Shunday o'rnini almashtirib qo'ysang, ishlab ketaveradi. Siz ham shu tufayli juda ko'p lavozimlarni almashtirdingiz. Bir joyda ishingiz yurishmasa, boshqa lavozimda ishlab ketaverasiz. Bir vaqtlar hatto rayijroqo'mda ham mas'ul ishda ishlab, beton plitalarni tuproq bilan bekitib, ustiga qizil gul ektirgan edingiz. Agar siz mas'ul xodim bo'lish bilan qanoat qilsangiz edi, ikkovimiz kechagiday olishib yurmasligimiz mumkin edi. Lekin siz mansabingizga qanoat qilmaysiz, iste'dodli odamlar yaratgan eng yaxshi asarlar uchun mukofot berilsa, siz o'z mansabingizdan foydalanib, ana o'sha mukofotni hammadan oldin olishga intilasiz. Esingizda bo'lsa, siz iste'dodli me'mor Habibulla Ergashevni ro'yxatdan surib chiqarib, uning o'rniga mukofot olmoqchi bo'ldingiz. Agar men uni himoya qilib sizga qarshi chiqmaganimda, ehtimol, men ham mukofot olar edim. Shu gap rostmi yoki yolg'onmi, qani opangizga ayting-chi?

– Faqat bir nuqtasi rost, sen menga chuqur qaziding-u...

– ... Lekin o'zim o'sha chuqurga quladim... Siz bu maqolni ham shablonga aylantirib yuz marta takrorladingiz. Xo'p, men mukofot olmadim. Lekin mening o'rnimga Habibulla Ergashev mukofot oldimi-yo'qmi? Aytgingiz kelmaydi-ya? Iste'dodli yosh me'mor Ergashev mukofot oldi, Muxtor aka. Endi o'zingiz ayting, kelinoyi, agar men iste'dodlarini ko'rolmaydigan ichiqora, baxil odam bo'lsam, shunday qilarmidim?



Muxtor aka boshini xijolatdan xam qilib jim turibdi. Avvalgi hovuri ancha pasaygan kelinoyi esa:

– Boshqalarga yaxshilik qildim deb maqtanasiz, kecha nega mening ukamga to'g'anoq bo'ldingiz? – dedi. – Biz bilan quda bo'lgisi kelgan odam shunday qiladimi?

– Kechagi to'g'anoq ham asli ukangizdan chiqdi-ku, kelinoyi. Siz ham toshkentliksiz, Bo'zsuvni bilasiz. Ukangiz uning ming yillik o'zanini buzdirmoqchi bo'ldi. Buning uchun gap tegadigan bo'lganda, butun aybni boshqarmada ishlaydigan bizning xonimga to'nkab, suvdan quruq chiqib ketdi. Bechora Vazira hammadan baloga qolib, infarkt bo'ladigan ahvolga tushdi. Kecha «Tez yordam» chaqirib, zo'rg'a qutqarib qoldik. Bu ozlik qilganday, ukangiz endi yoshlarning to'yini buzmoqchi...

Shu payt birdan oynavand eshik qiya ochildi-yu, Nigora ning qo'li ko'rindi. Kelinlik libosi bilan yuzini Abrorga ko'rsatishdan uyalayotgan Nigora titroq tovush bilan:

– Bizni kechiring, Abror aka, – dedi. – Sizlarni shunchalik azobga qo'yibmiz... Men bilganim yo'q... Shokir akamga ayt... Ertaga ZAGSga boraman...

– Biz ruxsat bersak borasan! Kir, uyda o'tir! – deb o'shqir-di onasi unga.

– Oyijon! O'zingiz hozir hammasini eshitdingiz. Sovg'alari-ni nega qaytardilaring? Men uyatga qoldim...

– Bular senga nega bunchalik ko'rimsiz kiyimlar olishadi? Paltosi ham, koftasi ham, ko'ylaklari ham mestniy. Biz kuyovga yapon kostyumidan oldik. Import parchadan to'n tikdirdik. Kuyov shunday yasansin-da, bizning qizimiz qishloqiday kiyinsinmi?

– Xo'p, boshqa yoqadigan kiyimlar topib beramiz! – dedi Abror. – Gap shundami, xolos?

– Uyat, oyi, uyat! – deb Nigora yig'lab yubordi. – Mening hamma kiyimim bor-ku! Nega savdoga aylantiryapsiz, oyi? Meni bozorga soladigan bo'lsalaringiz, hozir ketaman bu uydan!



– Hech yoqqa ketmaysan! – dedi oyisi. – Eshikni qulflab olaman!

– Bas qiling! – deb Nigora endi o'kirib yig'ladi. – Men qanday bosh ko'tarib yuraman? Hozir derazadan o'zimni tashlayman! Jonimdan to'ydim! Bas!

Ichkarida allanarsa polga tushib sindi; deraza taraqlab ochildi. Muxtor aka bilan xotini o'sha tomonga yugurib ketishdi. Sherzod ham o'sha uyga shoshilib kirib ketdi.

Ichkarida ular uchovi Nigorani tinchitishga urinayotganlarini Abror yo'lakda eshitib turardi. Onasi qizga mu-loyim gapirib:

– Xo'p, qizim, xo'p o'zingni bos, sening aytganing bo'ladi, mayli, – dedi.

Muxtor aka ichkaridan sarosima bir ahvolda chiqib keldi:

– Abror A'zamovich... Haqiqatdan... yaxshi bo'lmadi... gap kiyim-piyimda emas. Umr savdosi qiyin ekan... Kelganingiz yaxshi bo'ldi. Lekin... Yo'lakda turib qoldingiz... Qani, ichkariga marhamat...

– Boshqa kuni kelarman, Muxtor aka. Hozir ishga boradigan edim.

Ichkarida ovozlar tindi-yu, Sherzod ham qaytib chiqdi.

– Sherzod Islomovich, – dedi Muxtor aka, – Endi... taklifnomalar tarqatilgan. To'y buzilsa, bizga ham uyat bo'ladi...

Sherzod qoshini g'oliblardek chimirib:

– Nigora mardlik qildi, – dedi. – Bularning yomonligiga yaxshilik bilan javob berdimi, jiyanimizning mardligi ana shu!

Abrorning shuncha gapini o'ziga yuqtirmaslikka harakat qilayotgan Sherzod Muxtor akaning oldida yana Abrordan balandroq kelishga intilmoqda edi. Buni sezgan Abror miyig'ida kulimsirab:

– Ha, bizning ukamiz o'ziga munosib qalliq tanlagan ekan, – dedi.

Sherzod zarda qilib dedi:



– Endi to'yni durustroq qilinglar! An'analarni pesh qilasalar. Xalqimizning odati xasislikni yomon ko'radi. Qo'li ochiq, bag'rikeng odamlarni hurmat qiladi el-yurt ham!

– Bag'rikenglik faqat to'yda ko'p pul sarflashdan iborat emas, Sherzod. Men an'alarimizdagi insoniy iliqlikni yaxshi ko'raman. Yeb-ichish, latta-putta hammasi o'tkinchi. Qoladigani – haqiqiy mehr-oqibat asosiga qurilgan yangi bir oila. To'g'rimi, Muxtor aka?

Muxtor aka bosh irg'ab, Abrorni hovligacha kuzatib tushdi.

To'xtab qolgan to'y «mashina»si yana yurib ketdi. Shanba kuni kelin-kuyov bilan ZAGSga borish uchun alibeklar kelishdi. Vazira o'rnidan turib, uy ishlarini qilayotgan bo'lsa ham, hali ko'chaga chiqishga madori yetmas edi. Shuning uchun kuyov tomondan ZAGSga boradiganlarga Abror o'zi bosh bo'ldi. Qirq darajali issiqda qora kostyum kiyib olgan Shokir terlab-pishib, ishxonasidan ajratilgan «Latviya» mashinasida ikkita o'rtog'i bilan yetib keldi. Avval kelishilganiga binoan, ZAGSga kuyov tomondan to'rt-besh kishi, kelin tomondan ham shuncha odam borishi kerak edi. Lekin nigoralarning uyiga o'n beshga yaqin qiz-yigit to'planishibdi. Hammalari oq qarir kiyimdagi kelinni qurshab olib chiqishganida: «Mashinaga sig'ishmaydi-ku!» – deb Abrorning kayfi uchdi, – «Zarafshon» restoranining banket zaliga boramiz, deb hammasi yopirilib kelibdi-da. Borib bo'libsalar!» U ichida g'ijindi-yu, Alibekka shipshidi.

– Katta ko'chaga chiqib, bitta taksi topib keling. Tez!

Kelinni kuzatib chiqqanlarning orasida qovog'i soliq Sherzod ham bor edi. U Abrorga tund yuz bilan bosh irg'adida, kuyovga yuzlandi:

– Mashinaning bo'lgani shumi? Sig'ishmaydi-ku. To'ymi bu yo... boshqa narsami? Bezaklari qani? Mana bu mashinaga lenta bog'langlar! Bunisining ustiga baxmal yopinglar!

Nigoraning otasi o'zining yangi «Volga»sini yuvib, artib, soyaga qo'yib qo'ygani ekan. Sherzodning buyrug'i bilan



«Volga»ning ustiga lentalar tortishdi, oldiga bir qizcha tasvirlangan qo'g'irchoq bog'lab qo'yildi.

Abrorning eng yomon ko'rgan narsalaridan biri shu – bo'yab qo'yilgan siyqa plastmassa qo'g'irchoq. Uylanishning ma'nosini chidab bo'lmas darajada bachkanalashtirib ko'rsatayotganday bo'lardi. Yana bu bachkanalikni hamмага ko'z-ko'z qilib ko'chalardan o'tish Abrorga o'taketgan didi pastlikning namoyishidek tuyulardi.

Lekin hozir Sherzod bilan bu haqda bahslashib o'tirishni Abror o'ziga munosib ko'rmadi. Alibek bo'sh taksi topib keldi. Yig'ilgan odamlar mashinalarga bemalol sig'di. Nigoraning otasi «Volga»sining kalitini Sherzodga berdi. Kelin-kuyov o'sha «Volga»ga chiqishdi. Sherzod mashinaga o'tirishdan oldin shofyorlarga buyurdi:

– Mening ketimdan yuringlar. Qo'zg'algan zahotim hammalaring signalni ayamay bosasanlar. Hovlidan katta ko'chaga chiqqunimizcha signal o'chirilmasin! Hamma qayrilib qarasin, katta hodisa bo'layotgani shu signaldan ham bilinsin! Tushunarlimi?

Shofyorlar kulib:

– Tushunarli, – deyishdi.

Abrorning mashinasiga Nasiba bilan kelin tomondan bir yosh er-xotin chiqib o'tirgan edi. U «Volga»dan keyinda borar ekan, oldinda Sherzod, orqada boshqa shofyorlar uzluksiz signal berayotganidan va o'tkinchilar qayrilib qarayotganidan uyalgan Nasiba:

– Bu yangi odat qayoqdan chiqibdi? – dedi. – Ilgari bi-rorta taksichi vafot qilsa boshqa taksichilar uni qabristonga olib ketayotganda shunaqa uzluksiz dudutlab vidolashar edi.

– Dabdabaga berilgan odamlar bu odatni yangi chiqqan bir bid'atga aylantirishibdi, – dedi Abror. – Hozir bu ham maqtanchoqlikning bir turi bo'lib qolibdi. Tavba!

Orqa o'rindiqda o'tirgan er-xotin Abrorning signal bermayotganidan noroziroq edilar, endi Sherzodga tegadigan gapni eshitgan yigit achchiq bilan bir-ikki yo'talib qo'ydi.



Shokirlar ZAGSdan o'tguncha, Abror tishini tishiga qo'yib, Sherzodning hamma qiliqlariga chidadi. Nikoh uyining fotografi Sherzodning buyrug'i bilan kuyov-kelinni va ularni kuzatib kelganlarni yigirma-o'ttiz joyda qirq-ellik marta suratga oldi. Abror hammasi uchun bir talay pul to'ladi. So'ngra kuyov-kelin bilan ularning mehmonlarini nikoh uyining ichidagi qahvaxonaning shinamgina zaliga boshlab kirdi. Odam kam, ko'pchilik stol-stullar bo'sh edi. Abrorning iltimosi bilan ofitsiant ayol Alibekning yordamida to'rtta stolni birlashtirib, bitta uzun joy qildi. Kelin-kuyovni to'rga o'tqazishdi. Nasiba Nigoraning qo'llarini band qilib turgan katta guldastani olib, vazaga soldi-da, stolning o'rtasiga qo'ydi. Zal to'rida bufet bor edi. Undan ikki shisha shampän, bir shisha konyak, bir shisha «Ekstra» araq oldilar. Stol ustida taqsimchalar, pirojniylar, buterbrodlar, Toshkent suvlari paydo bo'ldi.

Hali restoranda ziyofat quyuq bo'lishiga ishongan Sherzod Abrorga qarab:

– Yetar endi, bu yerda irimiga bir lahza o'tirilsa bo'ladi, – dedi.

– Yo'q, mayli, – dedi Abror va ofitsiant ayolga bitta o'n so'mlikni berib, qahvaxonadan tashqarida manqalidan tutun burqsitib ishlayotgan kabobpazning oldiga yubordi.

Kelin-kuyovni tabriklab, bir-ikki qo'l ichganlaridan so'ng uchta laganda kabob keldi. Buterbrodni yegilari kelmay o'tirganlar har tomondan kabobga qo'l cho'zdilar. Uchinchi marta qadah ko'targanlaridan keyin, shishalar bo'shab qoldi. Abror ofitsiant ayolni chaqirib, yana ichkilik buyurmoqchi bo'ldi. Ammo tezroq «Zarafshon» restoranining banket zaliga borgisi kelayotgan Sherzod e'tiroz qildi:

– Abror A'zamovich, rahmat, bu yerda endi bas, qani turdik!

Hamma gurr etib o'rnidan ko'tarildi. Abror kinoyali kulimsirab:

– Sal shoshdingiz-da, Sherzod Islomovich, – dedi-yu, kelin-kuyovning oldiga keldi. Ular bilan pichirlashib olgach,



ovozini ko'tarib: – Aziz mehmonlar! – dedi. – Shunday unutilmas kunda xursandchiligimizga sherik bo'lganlaringiz uchun rahmat! Xush ko'rdik! Endi ertaga to'yga marhamat qilingizlar! Ertalab mahallaga osh. Kechqurun ikki joyda – avval kelin tomonda, keyin bizning hovlida katta ziyofat, bazm! Hammalaringizni taklif qilamiz!

Sherzod lablari gezarib, «Zarafshon» restoranining banket zalini eslatmoqchi bo'ldi-yu, lekin ko'pchilikning oldida buni tilab olganday ko'rinishdan tortindi.

– Nima... bugun endi... bo'shmizmi? – deb g'udrandi.

– Bo'sh bo'lsangiz, sizga to'yxonada ish ko'p, Sherzod Isomovich! – kulib dedi Abror. – Hozir mana shu soatlarda qudamiznikiga to'y kelgan bo'lishi kerak. «Qozon qurdi»si bo'ladi. Siz kelinning eng mo'tabar tog'asi, shu ishning tepasida bo'lishingiz kerak!

Sherzodning birdan qahri keldi:

– Men qayerda bo'lishim kerakligini o'zim bilaman, Abror A'zamovich! Mehmonlar, men hozir hammalaringizni «Zarafshon» restoraniga taklif qilaman! Jiyanim Nigoraning sharafiga o'sha restoranda men sizlarga ziyofat beraman!

Hamma bir lahza jim bo'lib qoldi. Nigora boshini quyi solib, Sherzodning qarshisiga keldi, hayajonli mayin tovush bilan:

– Tog'ajon, rahmat! – dedi. – Lekin men borolmayman.

– He, nega?

– Abror A'zamovich ham o'sha restoranda ziyofat bermoqchi edilar. Men iltimos qilib qoldirdim... Bunchasi... nima kerak? Hozir bo'ldi... Hovlida bo'lyapti. Ertaga ikki joyda...

Nigora bilan bir joyda ishlaydigan o'ttiz yoshlardagi yigit:

– To'g'ri-da! – dedi. – Sal me'yori bilan bo'lgani durust. «Qozon qurdi»si bo'lsa, hozir o'shanga bora qolaylik.

– Kelin-kuyov ham ozroq dam olsin! – deb qo'shib qo'ydi Alibek.

Sherzod cho'ntagiga asabiy qo'l tiqib, «Volga»ning kalitini oldi-yu, alimini ichiga yutib uyiga qaytdi. Lekin ertasi



kuni A'zam ota katta kuyovi bilan birga kelin tomonga to'y oshiga borganda Sherzod zahrini unga sochdi:

– Ota, bu sizlar bizni juda... uyatga qoldiryapsizlar-ku!

A'zam ota kecha ertalab o'zlarining mahallasiga ikki yuz kishilik osh bergan edi. Undan oldin Abay bozoriga borib, kelin tomonga beriladigan osh uchun ham qo'y oldi, xarajatning hammasini mashinaga solib berib yubordi. Ota besh-olti kundan beri tinim bilmay o'zini juda oldirib qo'ygan, bugun kechasi uxlay olmay chiqqanidan ko'zlari yoshlanib turar, badani zirqirab, tizzalari titrar edi. Shuning uchun Sherzodning gapini yaxshilikka burib:

– E, o'g'lim, to'y yuborish taomil-da! – dedi.

Sherzod bugun bo'ladigan to'y oqshomi uchun mikrofon va ovoz kuchaytirgichlar olib kelgan, shuni mashinasining bagajnididan tushirar ekan:

– Taomilga binoan kelinga shunchalik ko'rimsiz kiyim olinadimi? – deb istehzo qildi: – Bunisini kechirgan edik, kecha ZAGSdan keyin o'g'illaringiz yana boplashdi. Taomil bo'yicha restoranda o'tirish bo'lishi kerak edi. O'g'illaringiz pulidan qochib bu o'tirishni ham qilishmadi!

A'zam ota hang-mang bo'lib:

– Unday demang, o'g'lim, bu yerda pulidan qochadigan nomard yo'q! – dedi. – Mana, to'y yubordik. To'rt yuz so'm sut haqi dedilaringiz, berdik.

– Kampiringiz, «Kuyovning jig'asi bo'lsin, ukpar qadalsin», deb buyuribdilar. Bilasizmi, biznikilar o'sha ukparni topguncha qancha ovora bo'lishdi? Eski shaharning tor ko'chalarida yurib, lo'li xotinlardan so'roqlab ukking bitta parini o'n besh so'mga olib keldik! Kuyovga importniy palto-tolar, plashlar qildik!

– Kampirim ukpar demay o'lsin! Shunga sizlarni ovora qilmasa ham bo'lar edi. Biz kelin istaydigan yaxshi paltoni hozircha magazindan topolmadik. Qiyomatli qarz, keyin albatta topib beramiz!



– Bugun kechqurungi o'tirishga mashhur hofizlardan olib kelamiz degan edilaringiz. Endi eshitsak, o'g'lingiz qayoqdagi havaskorlik to'garagining ashulachilarini olib kelmish. Shu ham odamgarchilik bo'ldimi? Bizning jiyanimiz kimning qizidan kam?

– Bizga va'da bergan hofiz kasal bo'lib qolipti-da. Qanday qilaylik endi!..

– U bo'lmasa, boshqa hofiz qurib ketibdimi? Pulini aya-magan odamlar eng zo'r hofizlarni to'yiga olib kelyapti. Yo biroz puldan qarashaylikmi, ota?

A'zam otaning rangi oqarib ketdi:

– Men sizga qancha pul desangiz beray, o'zingiz istagan hofizingizni olib keling, bo'lmasa!

– O'sha pulingizni katta o'g'lingizga bering! Topsin!

A'zam ota bor pullarini sarflab bo'lib, kecha kichik kuyovidan uch yuz so'm qarz olgan edi. Endi bugun katta kuyovidan qarz olishni o'yladi-yu:

– Bo'pti! Topadi! – dedi.

– Bugun kelinni olib ketishga kelganlaringizda, – deb buyruq ohangida davom etdi Sherzod, – qo'sh karnay, qo'sh surnay, qo'sh nog'ora bo'lmasa kuyovni qabul qilmaymiz! Shuni ham bilib qo'ying, ota!

A'zam ota etagini qoqib o'rnidan turdi-yu:

– Mol bozorda savdo qilayotganga o'xshab gapirasiz-a, inim! – dedi. – Mayli, biz, kelinimiz uchun shuning hammasini qilamiz! Pul-u buyumning yuziga qaraydigan odam emasmiz!

Azam ota qalt-qalt titrayotgan sertomir qo'lini ko'ksiga qo'yganicha, sherzodlar bilan xayrlashgan bo'ldi-da, Abrorlarning podyezdiga qarab ketdi. Lekin ikkinchi qavatga chiqquncha oyog'idan darmon ketib, ko'zi tina boshladi...



O'N OLTINCHI BOB

Abror kecha kechqurun soat o'nlarda mashinasini garajga qo'yib uyga qaytsa, Vazira telefonda allakim bilan ruschalab gapirishyapti.

– Ha, mana keldilar... Hozir go'shakni beraman. U go'shakni Abrorga berar ekan, o'zbekchalab shivirladi: – Moskvalik mehmon!

Abror o'ziga yaxshilik qilgan bu odamning ovozi eshitib quvonib ketdi:

– Aziz Pavel Danilovich, men sizni qidirib yurgan edim... «Toshkent» mehmonxonasidasiz?.. Kech demasangiz, hozir borib olib kelaman! Biznikida mehmon bo'lasiz!

Go'shakdan Pavel Danilovichning yo'g'on, guldirak tovushi aniq eshitilmoqda edi:

– Rahmat, Abror A'zamovich! Men hozirgina metrochi o'rtoqlarnikidan mehmondan keldim. Vazira Badalovna ning toblari bo'lmay qolibdi. Shuni eshitdim-u bir chekka-si bunga men ham sababchi bo'ldim, deb o'yladim, o'zimni gunohkor sezib, telefon qildim.

– Vaziraning kasaliga sizmas, Bahromov bilan men sababchiman, Pavel Danilovich! Bir uchrashsak, buni sizga aytib berardim-da!

– Men ham uchrashishni juda istayman, biroq bugun endi kech, Vazira Badalovna dam olsinlar..

– Bo'lmasa... Ertaga bizda to'y. Ukamizni uylantiryapmiz. Ertalab osh, kechqurun bazm. Sizni har ikkalasiga taklif qilamiz, Pavel Danilovich!

– Qanday bo'larkin! O'zbek to'yini ko'rgim keladi. Lekin... yo'lni bilmayman.

– Men o'zim mashinada borib olib kelaman.

– Siz to'y tashvishlari bilan banddirsiz. Vaqtingizni olish noqulay, Abror A'zamovich!

– Hech unday emas, Pavel Danilovich! To'yga kelsangiz biz astoydil xursand bo'lamiz.



Mehmon, nihoyat rozi bo'ldi. Abror nonushtani u bilan birga to'yxonada qilish uchun azonda Pavel Danilovich turgan mehmonxonaga yo'l oldi.

* * *

Sunbularning tonggi sarin nafasini Abror anchadan beri bugun ertalabkiday rohatlanib his qilmagan edi. O'rdadan o'tayotib, Bo'zsuvning tiniq to'lqinlariga suqlanib qarab o'tdi. Mashinaning derazalari ochiq. Markaziy ko'chadan borayotganda o'ng tomondagi minglab favvoralar salqini, ayniqsa, sharshara-favvoraning qudratli shovullashi suv shabadasiga qo'shilib kelib, vujudga bir lahza orom berdi.

So'nggi kunlarning yugur-yugurlari va yuz xil to'y tashvishlariga bo'linib, sochilib ketgan xayollari hozir ulkan bir ohanrabo atrofiga to'planib kelayotganday bo'ldi. Bu ohanrabo – Abror farzandlik mehri bilan sevadigan Toshkentning jozibasi edi.

Marmarlari tong nurida zarhal ipakdek tovlanib turgan xushqomat yangi binolar, Navoiy teatrining ulug'vor pesh-toqlari unga suyuqli bir kuyday zavq berdi. U Pavel Danilovichni mehmonxonadan topib chiqib, mashinasiga o'tqazar ekan, to'satdan:

- Shaharni bir tomosha qildiraymi? – deb qoldi.
- Kecha biz shahar aylangan edik.
- «Moviy gumbaz»larni ko'rdingizmi?.. Chorbog'ni-chi?
- Yo'q. Qanaqa chorbog'?
- Hozir, – deb, Abror mashinasini xiyobon bo'ylab haydab bordi-yu, «Moviy gumbaz»lar qahvaxonasi yonida to'xtatdi.

Qahvaxonadan nariroqdagi tekis tomli naqshin bino va uning ayvonida kandakorlar yog'ochga kashta solib ishlagan ustunlar Pavel Danilovichni qiziqtirib qo'ydi. Bu choyxona edi. Oq yaxtak va chust do'ppi kiygan, beliga shohi belbog' bog'lagan choyxonachilar choyxo'rlarga parvarda,



novvot, kunjut holva ham ulashmoqda edilar. Buning hammasini Pavel Danilovich hali hech joyda ko'rmagan edi.

Choyxona oldida marmar hovuz, yo'lkaning chetida baland tok so'rilari va mirzateraklar. Abror mehmonni kunchiqish tomonga boshladi. Pavel Danilovich hafsala bilan parvarishlangan oqqayinlarni, «prud» deb ataladigan ko'lchani, «Divo – mo'jiza» nomli yog'och haykalni ko'rdi-yu:

– Bular menga yoshlikdan tanish! – dedi.

– Ha, bu – rus bog'i. Avval ko'rganimiz – o'zbek bog'i edi. Endi men sizga fransuz bog'i bilan yapon bog'ini ko'rsataman.

Ular o'ng tomonga burilib, keng yo'lka bilan yuz qadamcha yurdilar-da, zinapoyadan xiyol yuqoriga ko'tarildilar. Shunda Pavel Danilovich osmonga suv purkab turgan favvoraning chiroyli shaklini, xuddi shu shaklda oro berib o'stirilgan butalar va daraxtlarni ko'rdi-yu:

– Tanidim! – dedi. – Parij, Versal. Juda o'xshaydi! Ayniqsa favvora!

Yana yo'lka bo'ylab yurib, xarsang toshlar qalanib yotgan bir joyga keldilar. Toshlar orasidan tiniq suv shovillab otilib chiqyapti. Bu suv nova orqali xushmanzara ko'lchaga otilib tushadi. Ko'lchaning o'rtasidan ko'prik o'tgan, ikki chetida qandaydir o'ychan daraxtlar o'sgan. Bog' darvozasi narigi tomonda. Darvoza nimasi bilandir yapon xati – ieroglifni eslatadi. Pavel Danilovich buning yapon bog'i ekanini darvoza atrofini o'rab turgan chirmoviqdan ham tanidi.

– Yaponiyadan kelgan bir mehmon yurtini juda sog'inib yurgan ekan, – dedi Abror. – Shu yerga boshlab kelib, mana bu bog'chani ko'rsatgan edik, ta'sirlanganidan ko'zlariga yosh oldi.

– Haqiqatan, juda ajoyib. Demak, chorbog' deganingiz shu!

– Ha, o'zbek klassik me'morchiligida chorbog' – to'rt bog' degani. Ya'ni, bir bog' ichida ham gulzor, ham mevazor, ham daraxtzor...



– Klassik an'anaga bu yerda yangicha yo'nalish berilibdi-da. Shimol, janub, sharq, g'arb – dunyoning to'rt tomonidan to'rt xil bog' olinib, chorbog'ga aylantiribsizlar.

– Topdingiz, Pavel Danilovich.

– Lekin g'oyasi ham ajoyib, ijrosi ham, – deb Pavel Danilovich chorbog'ni uzoq maqtadi: – To'rt xil milliy shakldan bitta yorqin baynalmilal asar yaratibsizlar, men Toshkent me'morlariga qoyil bo'ldim! Meni bu bog'ga olib kelganingiz uchun sizdan benihoya mamnunman, Abror A'zamovich!

Mehmonni quvontira olganidan o'zining ham ko'ngli ko'tarilgan Abror Pavel Danilovichni Bo'zsuv bo'yidagi Gagarin bog'iga olib bordi, olti qavatli ma'muriy bino yonidagi go'zal sohillarni ko'rsatdi, Beshyog'och orqali o'tib, so'ng Shota Rustaveli ko'chasi bo'yida, To'qimachilar saroyi oldida gruzin me'morlari misga zeb berib ishlagan do'stlik haykali qarshisida to'xtadi. Uch qardosh tilda uch daho shoir – Navoiy, Pushkin, Rustaveli – hozirgi avlodlarni do'st bo'lishga undab otashin so'zlarni aytgan, bu hammasi uch qirrali baland obidaga o'zbekcha, ruscha, gruzincha harflar bilan go'zal qilib bitilgan edi.

Pavel Danilovich zavqli ko'zlarini obidadan olib Abrorga tikdi:

– Siz bilan biz maslakdoshga o'xshaymiz, Abror A'zamovich.

– Qayerdan bildingiz?


– Siz yoqtirgan joylar mening ham bahri dilimni ochyapti.

– Unday bo'lsa, bizning hovlilar ham sizga yoqishi mumkin, Pavel Danilovich. Hozir borib nonushta qilib olsak... Keyin yana tomoshani davom ettiramiz.

– Yaxshi!

Abror mehmonni o'zlarining ko'p qavatli uylari hovlisiga boshlab kirar ekan, uni hashar yo'li bilan qanday obod qilganlarini, ilgari bu yer qanaqa daha bo'lganini, mahalla-ko'y bo'lib yashash an'analari hozir qanday davom etayotganini aytib berdi.

Kooperativ uy tushgandan keyin hovli xiyla torayib qolgan bo'lsa ham, mahalla o'tog'alari ikki uy oralig'idagi sahni



tekislab, to'y-ma'rakada yuz-ikki yuz kishi o'tirsa bo'ladigan shinam joy qilishgan edi. Yangi ekilgan toklar, teraklar tez o'sib, quyuq soya beradigan bo'lib qolgan, eski tandir chekkaroq joyga ko'chirib o'tkazilgan. «Polivayka» haydaydigan novvoy yigit kechasi xamir qorib, sahar palladan tandirga o't yoqib, osh pishguncha ikki yuz-uch yuzta sedanali non yopdi.

Oqshom mahallaning yigitlari shu yerga to'planishib, allamahalgacha sabzi to'g'rashdi. To'ydan-to'yga ko'chib yuradigan mustahkam temir oyoqli uzun stollar va kursilar kecha kunduziyoq hovli sahniga o'rnatilgan edi, tunda unga dasturxonlar yozilib, noz-ne'matlar qo'yildi. Bir chetda qirq litrli oq rux samovar qaynab turibdi. Istaganga ko'k, istaganga qora choy rux choynaklarda tashilyapti.

Ertalab oftob chiqmasdan mahalla mo'ysafidlari birinchi bo'lib oshga keldilar. Qizning otasi bilan ko'k do'ppili katta tog'asi bir tomonda, A'zam ota bilan uning katta kuyovi ikkinchi tomonda kelib-ketuvchilarni qo'l qovushtirib qarshi olishar va kuzatishardi.

Abror mehmoni bilan borganda uning kasbdoshlari Habibulla Ergashev, Dmitriy Adamyan, Farid Galiyev bir to'p bo'lib osh yeb o'tirishgan ekan. Ular Pavel Danilovichni to'rga – palak va gilamlar osilgan so'ri tagiga o'tqazishdi.

Mahalla yigitlaridan biri mis obdasta bilan dastsho' ko'tarib kelib, mehmonning qo'liga suv quymoqchi bo'ldi.

Pavel Danilovich bunaqa narsani birinchi ko'rishi edi, gap nimadaligini tushunmay xiyol o'ng'aysizlandi. Shunda Abror dastsho' ustida qanday qo'l yuvilishini unga tushuntirdi. Mehmon endi kulib qo'l yuvdi-da, mezbon tutgan yangi sochiqqa qo'lini arttdi.

Mayin surnay tovushi va nokka o'xshash nog'oraning takatumi ham Pavel Danilovich uchun yangilik edi. Abror is-siq sedanali nondan uning oldiga sindirib qo'ydi. Mehmon nonning sedanali joyidan yeb ko'rib:

– Hidi juda ajoyib! – dedi.



Oldin kelganlar oshni yeb, choyni ichib bo'lib, turib keta boshladilar.

– Men hozir, – deb Abror o'rnidan turib, hamkasblarini kuzatib keldi-yu, mehmonga izoh berdi. – Nahorgi oshda ko'p o'tirilmaydi. Odat shu. Yigirma-o'ttiz daqiqada osh yeb, choy ichiladi-yu, ishga ketiladi.

Bir laganda mehmon bilan Abrorga oltinday tovlanib pishgan palov keldi. Uning ustida go'shtdan tashqari bir parcha qazi ham bor edi.

– Odatga binoan osh ikkovora yeyiladi, – dedi Abror. – Lekin buni siz oldingizga oling. Men o'zimga boshqa chaqiraman.

– Yo'q-yo'q, Abror A'zamovich, qoidani buzmaylik. Ikkovora bo'lsa, birga yeymiz. Mana qoshiqlar bor ekan. Men sog'lom odamman.

– Men ham shundayman. Bo'pti, mana, go'shtini to'g'rab qo'yamiz... To'g'ri, yoz kunida ertalabdan yog'liq oshni har kim ham ko'tarolmaydi. Ayniqsa biz, ziyolilar, nahorgi oshga chaqirib tinchimizni buzganlardan shikoyat qilamiz. Yog'li oshning hazmi og'irligidan noliymiz. Lekin nahorgi osh ketmon chopadigan mehnatkash odam uchun chiqarilgan odat bo'lsa kerak-da. Yer chopib, ekin sug'orib, paxta, bog' o'stirish uchun juda ko'p kuch kerak. Ana shunaqa kuch beradigan palovni mehnatkash odam ertalab azonda yeb, keyin ishiga ketishi bejiz bo'lmasa kerak.

– Vrachlar bizga ham kaloriyasi zo'r ovqatni ertalab yeyishni tavsiya qilishadi, Abror A'zamovich.

– To'g'ri aytasiz. Unday bo'lsa, qani, dadil-dadil olaylik. Mana bu qazidan ham yeng.

– Qazini men Moskvada «O'zbekiston» restoranida tatib ko'ruvdim. Ta'mi juda yaxshi. Lekin bu issiqda qanday bo'larkin?

– Bir parragi hech nima qilmaydi. Konyak, araq ichmaypmiz-ku. Ertalabki osh o'zi ichkiliksiz bo'ladi. Odat shunday.



– Ana bu yaxshi odat ekan.

Pavel Danilovich to‘p-to‘p bo‘lib osh yeb ketuvchilarning xiyla ko‘p ekaniga e‘tibor berdi.

– Shular hammasi sizga qarindosh yoki yor-birodar bo‘lsa kerak-da, Abror A‘zamovich? – deb so‘radi.

– Bir qismi qarindosh. Oshga butun mahalla taklif qilindi. Biz ham ba‘zilarining to‘yiga borib, oshini yeganmiz yoki kelajakda boramiz. Bu ishda eng muhimi odamlarning boshi qovushib, bordi-keldi qilib yashashi, Pavel Danilovich. Birgalashib hashar qilishamiz, bir-birimizga qarashib to‘y-ma‘raka o‘tkazamiz. Ba‘zan bu ma‘rakalarning tashvishi haddan oshib, bizni qiynab qo‘yadigan payti ham bo‘ladi. Lekin me‘yorida qilinsa, odam yolg‘izsiramaydi, o‘zini ikkovoradan chiqib qolganday noxush sezmaydi.

– Ayniqsa hozir odamlarning bir-biri bilan qovushib, katta oiladay inoq yashashi juda muhim bo‘lib qoldi, Abror A‘zamovich. Jahonda odamni odamdan begona qiladigan, uni jamoatdan bezdirib, yolg‘izlik azobida qiynaydigan viruslar ko‘payib ketyapti. Odamda o‘sha viruslarga qarshi immunitet bo‘lsa, qanday yaxshi!

Oshni yeb bo‘lishlari bilan Muxtor aka hozirgina so‘yilgan qip-qizil shirin tarvuzdan bir laganini parrak qilib olib keldi. Mehmon bilan Abror tarvuz yeb, ketidan ko‘k choy ichdilar-da, o‘rinlaridan turdilar.

Kun issiq bo‘lsa ham, havo quruq, nafas olish yengil. Pavel Danilovich o‘zini yaxshi his qilmoqda edi. Abror uni shu hovlining narigi chetidagi kvartiralariga boshlab chiqdi.

Eshik oldida ularni kutib olgan Vazira mehmonni dasturxon tuzab qo‘yilgan katta xonaga boshladi. Atlas ko‘ylak, zarrin shippak kiygan, boshiga yengil gaz durra o‘ragan Vazira so‘nggi kunlarda ancha ozib qolgan bo‘lsa ham, ko‘zlaridagi nurning jilosi, yuzidagi nazokat, hayo Pavel Danilovichga xuddi Moskvadagiday jozibali ko‘rindi. Mehmon do‘stona bir iliqlik bilan avval Abrorga, so‘ng Vaziraga qaradi-da:



– Bir-birlaringga o'xshaysizlar! – deb qo'ydi.

Uchovlari ham yengil bir kulib olishdi. Stol ustida muzga solingan shampan vinosi turibdi. Vazira bozordan tanlab-tanlab olgan oltinrang husayni, qoradona shivilg'oni, qirmizi tusli Rizamat ota uzumlari, anjir, nok, shaftoli – hammasi bir-biridan chiroyli edi.

Abror shampan vinosini muzdan olib ochar ekan:

– Pavel Danilovich, siz Toshkentga ish yuzasidan kelgan bo'lsangiz ham, bizning oilaviy hayotimizga g'alati ta'sir ko'rsatdingiz, – dedi. – Vazira meni kechirsin. Oilaviy hayot o'yning ko'zga ko'rinmaydigan orqa tomoniday yashirin kechadi. Lekin Pavel Danilovich bizning dilimizga yaqin bo'lib qoldi, yashirishning hojati yo'q... Mayli, Vazira, o'zingiz ayting.

Vazira uyalganidan yuzi xiyol qizarib qadahni qo'liga oldi:

– Eslash ham og'ir... Pavel Danilovich ko'p narsani o'zlari payqagan bo'lsalar kerak. O'sha hammualliflik tufayli oramizga yomon bir sovuqlik tushgan edi. Bu sovuqlik bir yildan ortiq bizni qiynadi. Lekin o'sha kuni muhokamada Pavel Danilovich adolatni shunday harorat bilan yoqlab chiqdiki, bizning oramizga tushgan sovuq muz beixtiyor erib ketganday bo'ldi. Uning toshqinida men g'arq bo'lib ketishim mumkin edi, lekin Abror akam qutqarib qoldi. Pavel Danilovich, siz o'zingiz bilmagan holda bizni yarashtirib qo'ydingiz. Men sizday chin do'st uchun, uning odilligi, yaxshiligi uchun qadah taklif qilaman!

– Yashang, xonim!

Pavel Danilovich oshdan keyin xiyol chanqab turgan edi, muzday shampan juda yaxshi ketdi. Abror uning likopchasiga xushbo'y hidi anqib turgan oltinrang shaftolidan, anjir va husaynidan solib qo'ydi.

– Stol ustidagi bu noz-ne'matlar menga afsonaviy ochildasturxonni eslatyapti, Vazira Badalovna. Men bu yerga kelayotganimda sizdan o'pka-gina eshitaman deb o'ylagan



edim. Har qancha gina qilsangiz haqqingiz bor edi. Lekin buning o'rniga siz shunday yoqimli gaplarni aytdingizki, mening boshim yetti qavat osmonga yetganday bo'lyapti. Afsonaviy bir uyga kelib qolganday, hayotda kam uchraydigan saxiy, dilbar odamlar ertaklardan chiqib kelib, meni mehmon qilayotg'anday tuyulyapti.

Abror Pavel Danilovichning qadahiga yana vino quyib, uning alyorini eshitmoqchi bo'lib turgan edi, eshik qo'ng'irog'i ustma-ust jiringlab qoldi. Malika eshikni ochgan edi, A'zam otaning ovozi eshitildi:

– Abror, uydamisan? Bu yoqqa bir chiqqin, o'g'lim!

Abror mehmondan uzr so'rab, otasining oldiga chiqdi:

– Qani, ada, yuring, mehmon bilan choy iching.

– Keyin, o'g'lim... Hozir bu yoqqa kir-chi.

A'zam ota uchinchi qavatga chiqquncha hansirab qolgan edi, eshik oldidagi xonaga kirib, divanga o'zini tashladi-da, og'ir uh tortdi.

– E, bu Sherzod degan tog'asi jonga tegdi-ku! Sen boringda qorasini ko'rsatmaydi. Hozir sen mehmoning bilan bu yoqqa chiqding-u yana paydo bo'ldi u. «Biz mana muncha sarflab restorandan odam chaqirdik, uch yuz kishilik bazm qilmoqchimiz, kuyov tomon atigi yuz kishilik bazm qilmoqchi emish, uyat emasmi?» deb qoldi.

– Ada, siz uning gapiga nega muncha e'tibor berasiz? «Xo'p!» deng-da, menga qo'yib bering. Yuz kishilik bazm bizga yetadi.

– Bular uch yuz kishilik bazm qilganda, a?!

– Bularni pul quturtirgan, ada! Ko'k do'ppili katta tog'asi restoranlar trestida yog'li ishda ishlarkan. Mehnat bilan obro' orttirolmagandan keyin to'y dabdabalariga katta-katta pul to'kib obro' orttirmoqchi bo'lishadi. Biz bularning yo'liga yurib nima qilamiz? Mehnatdan topgan obro'yimiz yetadi o'zimizga!

– Lekin bular obro'yimizni to'kib qo'yadigan ko'rindi-da, Abrorjon! Anu Sherzod degani...



– E, siz undan qo'rqmang, dedim-ku. Qani, yuring, mehmon bilan birpas o'tiring.

– Yo'q, mening ishim ko'p. Bir piyola suv ber...

– Qizib keldingiz, suv ichmang. Yuring, choy bor.

Abror otasini qo'yarda-qo'ymay katta xonaga boshlab kirdi. A'zam ota Pavel Danilovich bilan ikki qo'llab ko'rishdi, yarmi ruscha, yarmi o'zbekcha so'zlar bilan hol-ahvol so'rashdi, yaxshi tilaklar aytib, yuziga fотиha tortdi.

– Pavel Danilovich, boya men ham siz bilan birga afsonaviy bir olamga borib qolganday bo'luvdim, – deb izoh berdi Abror. – Mana hozir otam kelib, to'y tashvishlaridan gap ochdi-yu, men afsonadan yana voqelikka qaytganday bo'ldim.

– Nima, biron muammo chiqdimi? – so'radi Pavel Danilovich.

A'zam ota mehmonga to'y tashvishlaridan og'iz ochmoqchi emas edi. Lekin Abror:

– Do'stimizdan yashirishning hojati yo'q, qiz tomon dabdaba zo'r berib, bizni qiynab qo'yayapti, – dedi.

– Ha, o'sha Sherzodi menga aytdi, – dedi A'zam ota, – ular uch yuz kishilik bazm qilarmish, kelin! Shundan bir yuz-u eliktasi qizni kuzatib bizning hovlidagi bazmga borar emish!

Bu gaplar Vazirani ham bezovta qildi. Kuyov tomonda bo'ladigan bazm dasturxonini Vazira bosh bo'lib tuzashi kerak. Ertalabki an'anaviy oshning ishi uncha qiyin emas. Lagan, choynak-piyola bo'lsa bas. Kechqurungi bazmga ikki yuz kishilik likopcha, qadah, vilka, boshqa yana ming xil narsani qayerdan topadi? Uyda bori yetmasa. To'y ko'p, prokatlardan ham buncha odamga asbobni topib bo'lmaydi.

– Ilgarigi to'ylarda ichkilik bo'lmas edi, – dedi A'zam ota. – Ikki yuz-uch yuz kishiga ichkilik bazmi qilib berish – yangi chiqqan bir bid'at bo'lyapti-da!

– Bahromovlarga oson, tog'asi restoranlar trestida, kerakli asbobni ham, odamni ham o'sha yerdan olib kelib o'tkazadi-qo'yadi, – dedi Abror. – Biz ular bilan bas boyla-



shib nima qilamiz! Men Alibekni mutasaddi qilib qo'ya-man, ada. Kelin tomondan bizning bazmga ellikta odam borsa bas.

– Qaydam? Boraman deganini qaytarib bo'lmasa!

– E, boraman deganlarining orasida yosh-yosh o'smirlar, tekintomoq bekorchixo'jalar bo'ladi. Men ular uchun vil-ka-yu tarelka qidirib, prokatlarda ovora bo'lib yuramanmi? Axir sal me'yor bo'lish kerak-da, ada! Kuyov turgan mahal-lada ikki yuz kishilik osh. Kelin turgan mahallada yana ikki yuz kishilik osh. Kechqurun yana ikki joyda shuncha odam-ga ziyofat. To'rt marta-ya! Bu qanaqa isrofgarchilik?

To'y-ma'arakalarda yangi odatlarga eskilari aralashib, dahmaza ikki-uch barobar ko'payib ketayotganidan Vazi-ra ham juda bezgan edi. Chunki har hafta besh-olti joydan yo to'yga taklif keladi, yoki yaqinlari vafot qilgan odam-lar yigirmasigami, yil oshigami aytib ketishadi Abrorni. Bormasa, xafa bo'lishadi, deb rioya-andisha qiladi. Borsa, shahar juda katta bo'lib ketgan, takliflar shaharning goh u chetidan, goh bu chetidan keladi. Borib kelguncha ham yo'lga bir dunyo vaqt ketadi. Mudom shoshilib, sarosima bo'lishga to'g'ri keladi. Yana tag'in ko'p to'ylarda mikrofon qo'yib ovoz-kuchaytirgichni baqirtirish odat bo'lgan. Majlis-dagidan battar charchatadigan uzun-uzun nutqlar. Qancha vaqt ketkazib borgan to'ylarining ko'pidan toliqib, horib qaytishadi. To'y egalarining ming-minglab pullarni havoga sovurishlari-yu, mashaqqat chekishlari-chi? Ikki tomonni ham bunday behuda qiynaydigan dabdabalar nimaga ke-rak o'zi?

Vazira mehmonning oldida bu gaplarni aytib o'ltirma-di-yu:

– Dadajon, – dedi A'zam otaga. – Sizda rioya-andisha kuchli, biz ham mehr-oqibatga o'rganganmiz. Lekin eng yaxshi odatlarimizni o'z manfaatiga bo'ysindirib, obro' ort-tirmoqchi bo'lgan g'arazli odamlar bor ekan. Ularga bo'y bermang, Abror akam to'g'ri aytyaptilar.



– Qandoq qilay, kelin, qizi borning nozi bor! Nozini ko'tarmasak, mardlikdan bo'lmaydi. Palonchi mashhur hofizni olib kelasizlar degan. Abror, borib gaplashdingmi, o'zi?!

– U hofizingiz bir to'y oqshomiga ming so'm olarmish! Hofizni pul bilan yo'ldan ozdirib nima qilamiz? Yerni suv buzsa, odamni pul buzadi! Bu ham yangi chiqqan bir bid'atku, ada?

– Men va'da berganman, – dedi A'zam ota to'satdan xafa bo'lib. – Agar sen hofizga bormasang, hozir o'zim boraman. Uyimni garovga qo'yib bo'lsa ham olib kelaman!

Abror ham o'rnidan turib, otasining yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Mayli, ada, men hoziroq o'sha hofiz bilan gaplashaman! Albatta to'yga olib kelamiz. Xo'pmi! Siz sal dam oling.

– Dam olib bo'ldim! Mening ishim ko'p! Mehmon, kechqurungi bazmga albatta boring!

A'zam ota yana kulimsirab, Pavel Danilovich bilan qo'l berib xayrlashdi-yu, qotib qolgan belini tiklay olmay, xiyol munkayib chiqib ketdi.

Abror uni kuzatib, xomush bo'lib qaytdi. Bu orada Vazira mehmonga oradan o'tgan gaplarni tarjima qilib bergan edi.

– Abror A'zamovich, endi siz mashhur hofizni qidirib topishingiz kerakdir? – dedi mehmon.

– E, bu ming so'mlik bid'atning menga nima keragi bor? Otamni tinchitish uchun aytdim-da. Meni shu Sherzod Bahromov bilan bir aravaga qo'shib qo'ygan ukamizdan ham xafa bo'lib ketyapman, Pavel Danilovich! Quda bo'lganingizdan keyin to'y aravasini birga tortishga majbur ekansiz.

Abrorning Sherzod Bahromov bilan quda bo'lganini endi bilgan Pavel Danilovich boshini bir chayqab qo'ydi-da:

– Unday bo'lsa, men sizga bahromovlarning uyida qanday mehmon bo'lganimni aytib berishim kerak, – deb Moskvadan kelgan kuni ko'rgan bir hodisani aytib berdi.



Kechqurun Sherzod Bahromov mehmonni mashinasiga solib uyiga borsa, kvartiraning eshigi yopiq. O'n yashar qizchasi bilan xurjuniga qimiz kadi solib olgan keksa xolasi zinapoyada bir-birlaridan xafa bo'lib turishipti. Qizcha kalitni yo'qotib qo'ygan ekan. Xola kelib uyga kirolmagandan keyin unga bir narsalar deydi. Qizcha o'zbekchani durust bilmas ekan, xola ruschani mutlaqo tushunmaydi. Anglashilmovchilik bo'ladi-da, qizcha eshikni mix bilan ochishga urinadi. Inglizcha nozik qulf mixga bo'y bermaydi, qizcha battar zo'r beradi. Mixning yarmi sinib, qulfning ichida qoladi. Sherzod Bahromov o'zining kaliti bilan ham eshikni ocholmaydi. Sindirib ochay desa, chiroyli zeb berilgan eman eshikka achinadi. Shundan so'ng qo'shnining kvartirasiga kirib, oradagi balkondan zo'rg'a o'z uyiga oshib o'tadi. Uchinchi qavatdan yiqilib ketishiga sal qoladi. Shunaqa sarguzashtlar bilan eshikni ichkarisidan ochib, mehmonni uyiga olib kiradi. Bu orada Sherzodning xotini ishdan keldi, dasturxon tuzashib, yaxshigina ziyofat berishadi. Pavel Danilovich og'ziga archadan tiqin qilingan kadining qimizini juda yoqtiradi. Bu kadini olib kelgan keksa xola hali ham qizcha bilan arazlashib o'tirishibdi.

Pavel Danilovich voqeaning davomini aytar ekan:

– Sherzodning xotini xolasi bilan bemalol gaplashadi, – dedi. – Faqat qizcha haligiday. Men Sherzoddan: «Qizingiz nega ota-onasining tilini o'rganmagan?» deb so'radim. Sherzod kulib turib: «O'zimiz o'rgatishga hafsala qilmadik, – deydi. – Bitta asosiy tilni yaxshi bilsa biz uchun yetarli». Shunday deb menga tahsin kutganday qarab qo'ydi. Bilmadim, u meni kim deb o'yladi ekan? Albatta, bizda hamma tillar barobar. Kim qaysi tilni bolasiga o'rgatsa ixtiyor o'zida. Mana... sizlar ruscha ham, o'zbekcha ham juda erkin so'zlayapsizlar.

– Chunki odam qanchalik ko'p til bilsa, ichki dunyosi shunchalik boy bo'ladi. Ayniqsa, ona tilimiz bizning ma'naviy dunyomizga oziq beradigan o'q ildizimiz emasmi?



– Xuddi shunday Abror A'zamovich! Har bir til – uni yaratgan xalqning dil boyligini ochadigan kalit. O'z ma'naviy uyining kalitini yo'qotgan odam Bahromovga o'xshab kvarsitasiga qo'shnining balkoni orqali o'tib yuradi. Xullas, o'sha kuni men Bahromovning uyida o'zimni juda noqulay sezdim. Balandparvoz maqtovlaridan badbo'y bir xushomadning hidi kelib turganday bo'laverdi. Nima ish qilsa, biron manfaat kutib qilishi muhokamadan keyin ochiq oshkor bo'ldi. Men uning loyihasini yoqlagan kunlarim abadiy do'stlig-u sodiqlik to'g'risida rosa ko'p lof urdi. Muhokama o'tgandan keyin ko'ngil so'ray desam, qayrilib qaragisi kelmaydi. Birpasda meni tanimaydigan bo'lib qolipti!

Abror bu gaplardan ta'sirlanib chuqur tin oldi:

– E, Pavel Danilovich, manfaatparastlar, g'arazgo'ylar bizning eng muqaddas tuyg'ularimizni qay darajada suiiste'mol qilishini men so'nggi yillarda o'z boshimdan kechirdim. Mana biz, Vazira ikkalamiz uchun internatsionalizm – muqaddas bir tuyg'u, ulug' bir e'tiqod. Shu tuyg'uni ham ba'zi qalloblar o'zlari uchun goh niqob qilmoqchi bo'lishdi, goh kaltakka aylantirib, yomon ko'rgan odamlarini u bilan urishga intilishdi. Bilasiz, san'atda haqiqiy internatsionalikka teran milliylik orqali boriladi. Men mana shu fikrni o'z ishimga tatbiq etmoqchi bo'lsam, bahromovlar meni mahdudlikda aybladi-da.

– O'z aybini sizga to'nkapti, chunki eng yomon mahdudlik shaxsiy manfaatning qobig'iga o'ralib olgan qallob odamlarda bo'ladi. O'z xalqining qadrini bilmaydigan ma'naviy qashshoq meshchanin o'zga xalqlarning qadrini qayoqdan bilsin! O'z xalqining farzandi bo'lib o'rgangan odam internatsionalizm cho'qqisiga bunaqa manfaatparastlardan ming hissa yaqinroq turadi. Ming marta tezroq ko'tarila oladi! Vazira Badalovna, Abror A'zamovich, men sizlar bilan samimiy maslakdosh bo'lib chiqqanimdan juda xursandman!

Abror hayajonlanib gap qo'shdi:



– O‘zi samimiy maslakdoshlik bo‘lmagan joyda chin do‘stlik ham bo‘lmaydi!

– Ayni shunday! Boya mashinada kelayotib, bitta majoz keltirgan edingiz, Abror A‘zamovich. Yaxshi oilani ichdan mahkam tutib turadigan olmos kamar haqidagi gap...

– Buni darrov sizga ham aytdilarmi? – kulib so‘radi Vazira.

– ... Ha, men hozir shu gapni davom ettirmoqchiman. Oila!.. Keng ma‘noda bizning mamlakatimiz xalqlari ham ulug‘ bir oila bo‘lib yashayapti. Boya shahar aylanganda ko‘rdik, zilzila paytida bu ulug‘ oila vakillari Toshkentni zo‘r g‘ayrat-shijoat bilan qayta qurishipti. Har bir xalq o‘z qalbining eng qimmatbaho gavharini Toshkentning do‘stlik xazinasiga keltirib qo‘shibdi.

– Ana shu ma‘naviy gavharlar ulug‘ bir olmos kamarga aylanib, eng og‘ir zilzila kunlarida Toshkentni ichdan tutib turdi-da, Pavel Danilovich! Buni biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik.

– Bu kamardagi olmos qirralarining qanday musaffo nur sochishini men bugun sizning oilangizda, mana shu kichik davrada ham ko‘rib turibman, – deb Pavel Danilovich qadahini qo‘liga oldi: – Men bu qadahni sizlar uchun, kelajakda Moskvada mening rafiqam bilan to‘rtovlon yana uchra-shishimiz uchun olaman!

Abror bu gaplardan rosa yayradi. Pavel Danilovichni kuzatib, uyga qaytib kelganda, ukasi Shokir telefon qilib, to‘y bazmining ko‘p ishlari o‘lda-jo‘lda yotganini, A‘zam ota bu ishlarni bitirilmay qiynalib yurganini aytdi-yu, Abror yana bir lahzada osmondan yerga tushganday bo‘ldi va Beshqayrag‘ochdagi hovliga yo‘l oldi.

O‘N YETTINCHI BOB

A‘zam otaning ikki yillik mehnatlari tufayli bu hovli ko‘m-ko‘k bo‘lib yashnab ketgan, uy va ayvonlar bezakdan chiqib, havorang bo‘yoqlari yaltirab turibdi. Lekin hozir hovli va uy ichi to‘y tashvishidan to‘s-to‘polon bo‘lib ketgan. Bir necha



kishi kuyov-kelin o'tiradigan tomonning devoriga baxmal so'zana va gilam osishyapti. Montyor yigit daraxtlarning shoxlari orasidan oq shnur o'tkazib, elektr tushiryapti. Hovli chetiga o'rnatilgan doshqozon tomondan bug' aralash tutun tarqayapti. Ayvon chetidagi oshxonadan jaz-juz tovushi keladi. Hovliga yuz ellik kishilik stol-stul o'rnatilgan. Endi Vazira bilan Nasiba uzun stollar ustiga dasturxon yozib, meva-cheva qo'yish bilan ovora. Abror prokatdan topib kelgan asbob-anjomlarini Vaziraga topshirdi.

Shu payt oshxonadan terlab-pishib Hanifa xola chiqib keldi.

– Hay, Abror, muncha yo'q bo'lib ketding? Dadang bechora adoyi tamom bo'ldi! Dadangni mashinangda olib yuray ham demaysan! Endi tezroq hofizlardan top! Bo'lmasa kechqurun yana janjal chiqadi!

– Chiqmaydi! – dedi Abror gapni cho'rt kesib. – Bu yog'ini menga qo'yib bersinlar dadam!

Abror Alibekni bir chetga chaqirib oldi. Uning armiyada vzvod komandiri bo'lganini esiga soldi-da:

– Tartibni qattiq tutasiz, – dedi.

Shokir ichkarida soqol olmoqda edi. Uning qurilishdagi o'rtoqlaridan uchtasi kelgan, yana besh-oltitasi kelishi kerak ekan. Kuyov navkarlar va birga boradigan yaqin-yiroqlar o'ttiz kishi atrofida edi.

– Bitta kichik avtobus bilan ikkita yengil mashinaga bemalol sig'ishadi, – dedi Abror Alibekka. Shu mashinalarning hammasiga siz javobgar. Boshqa tasodifiy odamlar bu yerdan ham ilashmasin, kelin tomondan ham!

Bir payt ichi odamga to'la taksi darvoza qarshisiga kelib to'xtadi. Oldinda A'zam ota o'tiribdi. U shunchalik charchagan ediki, taksining ichidan yerga tusholmay, ancha vaqt g'ivirladi. Abror tez borib, uni suyab tushirib oldi.

Orqa o'rindiqdan nog'ora ko'targan ikkita yigit va bitta kekxa surnaychi tushdi. A'zam ota ularning uchovini allaqayoqlardan topib, odatdagidan ikki baravar ortiq zakalat



to'lab olib kelgan edi. U Abrorning yonida og'ir nafas olib, munkillab darvoza tomonga borar ekan:

– Nuqul shunday paytda seni topolmayman-a! – dedi.

– Meni prokat ko'p ovora qildi-da.

– Hofizlar nima bo'ldi?

Abror rostini aytsa, otasiga og'ir tegishini sezdi:

– Hammasi to'g'ri bo'ldi, – dedi.

– Qani, shu yerga olib keldingmi?

Bugun «To'ylar muborak»ni aytadigan havaskor xonandalar avtobusda o'tirishibdi. Bittasining qo'lidagi rubobning dastasi avtobus derazasidan ko'rinib turardi. Abror otasiga shuni ko'rsatib:

– Ana! – dedi. – Ada, siz muncha o'zingizni urintirasiz?

– Hofizlar topilgan bo'lsa, endi ko'nglim tinchidi, – deb A'zam ota darvoza oldidagi beqasam ko'rpacha to'shab qo'yilgan kursiga sekin o'tirdi. U og'ir hansirar edi. Darvoza oldida turgan yosh yigitchaga:

– O'g'lim, bir kosa suv olib chiq, – dedi. – Juda ichim kuyib ketdi.

– Qizib keldingiz. Choy ichsangiz durust emasmi, ada?

A'zam ota quruqshab ketgan lablarini yalab:

– Yo'q, suv ichgim kelyapti, – dedi-yu, chinni kosada olib chiqilgan suvni titrab-qaltirab simirdi.

– To'y o'tsa sizni bir doktorga qarataman shekilli, – dedi Abror. – Endi bu yog'iga xotirjam bo'ling. Biz hozir jo'naymiz. Qani, Alibek, boradiganlar hammasi mashinaga chiqsin... qattiq turing!

Shokir ichkaridan chiqdi. Uni ikkita o'rtog'i bilan Abrorning mashinasiga o'tqazishdi. Nasiba, Vazira, Risolat, yana bir nechta qarindosh ayollar avtobusga chiqishdi. Surnaychi va karnaychilar uchun ustidan brezenti olib qo'yilgan ochiq gazik mashina tayyorlangan edi.

Naryoqdagi usti ochiq yuk mashinasiga mahallaning yosh-yalanglaridan yigirma-o'ttiztasi chiqib, tiqilishib turar edi. Ulardan biri belbog'ini darra qilib olgan:



– Yo'lda qiyqir degan paytimda bir ovoz bilan qiyqirasanlar! – derdi, – Kim erinib qiyqirmasa, mana shu darra bilan aylantirib solaman!

Alibek buni eshitib qoldi-yu, Abrorning oldiga keldi:

– Pochcha bularni olib borib nima qilamiz? – dedi. – Ichib to'polon qiladigan chapanilari bor.

– Qoldiramiz! – dedi Abror.

Yuk mashinasidagi yigitlar esa nog'orachilarning gazikka sig'ishmaganini ko'rishib:

– Nog'orani buyoqqa beringlar! – deb qolishdi.

– Nog'orani u yoqda chalib bo'lmaydi, – dedi A'zam ota. – Bitta karnaychi bilan bitta surnaychi katta mashinaga chiqa qolsin.

– Ha, karnay-surnayni tikka turib chalib ketishaveradi, – deb bu gapni kursida o'tirgan bir odam ham ma'qulladi. Shunda Abror:

– Ada, – dedi. – Mahalla yigitlari shu yerdagi bazmga qatnashsa ham yetadi. Ochiq yuk mashinasida odam tashish xatarli. Biron kor-hol bo'lsa...

– Hech narsa qilmaydi! – dedi semiz o'togasi. – Ko'chalardan har kuni bunaqa to'ylarning qanchasi o'tadi.

– Mayli, ko'proq odam borsa, kuyovning izzati, o'g'lim! – dedi A'zam ota. – Kelin tomon oltmish-yetmish kishi bo'lib kelishsin degan. Boraverishsin.

Abror kasalga o'xshab hansirab o'tirgan otasining so'zini qaytarolmadi. Alibekka qaradi-da:

– Iloji yo'q! – dedi. – Endi qaytishda mahkam bo'lasiz.

Alibek ensasi qotib qo'l siltadi va avtobusga chiqdi. Mahalla o'tog'asi karnaychi-surnaychilarga qarab qichqirdi:

– Qani, chalinglar hammang! To'y-to'yga o'xshasin! Ha-a!

Mashinalar qo'zg'alar ekan, oldinda borayotgan gazikning ustida nog'oralar taka-tumini boshladi. Karnayning uzun mis halqumi gazikning kabinasi osha oldiga cho'zildi-yu, ha-ha-huvv, ha-ha-quvv qilishga tushdi. Unga mayin, o'tkir surnay tovushi jo'r bo'ldi.



Usti ochiq yuk mashinasi eng orqada kelmoqda edi. Ikkinchi karnay uning kabinasi ustidan oldiga cho'zilib qah-qaha urar, surnay «Navo»ni chalar, har zamonda yigitlarning qiyqirig'i ularning ovozi bosib ketar edi.

Kelin turadigan ko'p qavatli uyning hovlisiga karnay-surnay chalib yaqinlashdilar. Mashinalar to'xtab, odamlar yerga tushib olguncha karnaylarning biri tinsa, biri hayqirib turdi. Kuyov o'z jo'ralari bilan ichkariga kirib kelinni to'y stoliga boshlab chiqishi kerak edi. Peshvoz chiqqan va atrof uylardan to'plangan izdihom orasidan o'tib borayotganlarida karnay-surnaylar rosa shovqin-suron ko'tardi. Ularga nog'oralar jo'r bo'ldi. Tagi ingichka, usti keng, yumaloq nog'oralarning belga bog'laydigan ipi bo'lmaydi. Shuning uchun ularni beqasam to'nli ikki o'smir bola qovunga o'xshatib quchoqlab, orqasi bilan yurib borar, nog'orachilar ham yurib borayotib, har qadamda nog'ora cho'plarini besh-o'n martadan ko'tarib-tushirib jazava bilan chalishar edi.

Ko'p qavatli uylar orasiga uch yuz kishilik stol-stul qo'yishib, dasturxonlarni noz-ne'mat bilan bezashgan, bir necha joyga mikrofonlar va ovozkuchaytirgichlar o'rnatilgan edi. To'yga aytilgan odamlar kelib bo'lgan, yon tomondagi joylar hammasi band, faqat to'rda kelin-kuyovlarga va ularning jo'ralari-yu, dugonalariga mo'ljallangan qator bo'sh edi.

Ichkaridan oq harir kiyimdagi kelin va boshiga ukpar qadalgan jig'a, egniga zarbof parcha to'n kiygan Shokir chiqib kelishdi.

Shunda karnay-surnaylar tinib, xonandalar «To'ylar muborak» ashulasini boshlashdi.

Odamlarga ish buyurib, to'yboshilik qilib turgan Sherzod bu ashulani yosh-yosh havaskor xonandalar aytayotganini ko'rdi-yu, uzoqdan Abrorga yeb qo'ygudek o'qrayib qaradi. Abror ham unga javob qarash qilib: «Mana senga mashhur hofizlar, ol!» deganday, istehzoli kulimsiradi. Sherzod hozir



qattiqroq gapiradigan bo'lsa, shunga yarasha javob olishini, qiz tomonning noz qiladigan payti o'tganini sezdi-yu, almini ichiga yutdi.

* * *

Kechasi soat to'rtlarda Abror mast uyquda yotganda telefon ustma-ust jiringlab uyg'otib yubordi. U qorong'ida turtinib kabinetga chiqdi-da, ish stoli ustida jiringlayotgan apparatning go'shagini paypaslab topdi.

– Allo? Kim bu?

– Aka... Tezroq yetib keling... Adamlar...

Abror Shokirning yig'lamsiragan ovozini zo'rg'a tanidi:

– Shokirmisan? Nima bo'ldi? Nima?!

– Adamlar... Soppa-sog' yuruvdilar... Kecha qorovullikka borib kelgan edilar... Bugun tunda... birdan...

Abror xayoliga bosib kelgan dahshatli o'yga ishongisi kelmay:

– Doktor chaqirdingmi? – dedi. – Men doktor olib boraymi?

Shokir o'pkasi to'lib:

– Doktor... bor... o'zingiz keling! – dedi.

– Hozir yetib boraman... Hozir!

Vazira ham uyg'onib o'rnidan turgan edi, kabinetning chirog'ini yoqdi. Abrorning qalt-qalt titrayotganini ko'rib, stol chetidagi choynakdan sovuq choy qo'yib uzatdi:

– Iching... sal o'zingizni bosing!..

Abror ukasidan, «Adam tirikmilar?» deb so'rashga yuragi betlamagan, lekin ko'ngli yomon falokat bo'lganini aytib turardi.

Er-xotin kiyinib chiqqunlaricha Malika ham o'rnidan turdi. Vazira kvartirani va uxlab yotgan Zafarni unga topshirdi. Er-xotin qorong'ida temir garajga qarab borar ekanlar, Abror:

– Ishqilib, tirik bo'lsinlar-da, – deb qo'ydi.



Otasi Shokirning to'yi paytida o'zini qanchalik qattiq urintirgani Abrorning xayolidan nari ketmas edi. To'y o'tganiga endi to'rt kun bo'ldi. Abror otasini doktorlarga qaratmoqchi bo'lgan kuni qizi Malika institutda mandat komissiyasidan o'tadigan bo'lib qoldi. U keyingi imtihonlarni yaxshi topshirgan bo'lsa ham, dastlabki «uch»dan ancha xavotirlari bor edi. Yana o'sha Vazirani taniydigan prorektorga uchrashishlari kerak bo'ldi.

Abror to'y tashvishlari bilan andarmon bo'lgan kunlarida ustaxonasida ancha ish to'planib qolgan edi. Bu ishlarning bir qismini uyiga olib borib qilib, kechqurunlari ham band bo'ldi. Lekin hozir tungi ko'chalardan mashina haydab borar ekan:

– Ish-pish qochib ketmas edi-ku! – deb o'zini koyidi. – Avval adamni doktorga olib borsam bo'lmasmidi!

– O'zlari borsalar ham bo'lardi-ku, – dedi Vazira. – Dadam doktorni tan olmaydilar-da.

Vazira qaynotasi to'g'risida xuddi tirik odam haqida gapirgani Abrorga allanechuk iliq tuyuldi. «Unda, hali qutqarib olarmiz» degan bir ilinj bor edi.

Lekin Beshqayrag'ochdagi hovlining darvozasi oldiga kelib mashinadan tushayotganda ichkaridan Hanifa xolaning bo'g'ilib yig'lagani eshitildi-yu, Abrorning bo'g'inlari bo'shashib ketdi...

A'zam ota to'ydan keyin o'zini yomon his qilib yurgan bo'lsa ham, «Charchaganman, o'tib ketadi», deb yana qurilishdagi qorovulligiga borgan edi. Odatdagiday, ikki qorovulning ishini qilib, sutkasiga o'n olti soat qurilish maydonchasida bo'lardi. Shokir, «endi ishni qo'ying, damingizni oling», deganda, «Hali qo'yolmayman, pochchalaringdan ancha qarz oldim, shuni uzaman-u keyin ishni bas qilaman», degan edi. Kecha tunda u qurilishni aylanib yurganda birdan ko'zi tinib gindiraklab ketdi. G'ishtlarning ustiga o'tirib, nafasini rostlamocqi bo'ldi. Qandaydir lohaslik o'tib ketmay turib oldi. A'zam ota sekin o'rnidan qo'zg'alib,



uyga qarab yo'l oldi. Ora uzoq bo'lmasa ham nafasi yetmagan-day, bir-ikki marta to'xtab dam oldi. Bir amallab uyga yetib keldi-da, Hanifa xolani uyg'otdi:

– Xotin, mening juda mazam bo'lmayapti.

Hanifa xola turib o'zlarining bo'lmalaridagi chiroqni yoqdi. A'zam ota gilamning ustida – polda yotishga o'rgan-gan edi. Hanifa xola unga joy solib berdi. Cholining rangi allanechuk juda o'chib ketganini ko'rib:

– Sizga nima bo'ldi? – dedi. – Shokirni uyg'otaymi? Doktor chaqirsin!

– Yo'q, vahima qilma. O'tib ketar. Shu... ko'kraginga bir narsa tiqilayotganday bo'lyapti...

– Choy damlab beraymi?

– Mayli.

Hanifa xola gazda qaynatgan choydan A'zam ota bir pi-yola zo'rga ichdi. Ko'ngli choyni ham ko'tarmas edi. U hali ham o'zini juda lohas sezmoqda edi. Shunday bo'lsa ham kampiriga:

– Endi tuzukman, – dedi. – Keksalik-da... Chiroqni o'chira qol. Bir uxlasam... durust bo'larman.

Hanifa xola chiroqni o'chirdi. Qorong'ilikda A'zam ota-ning bexosdan inqillaganini eshitib uyqusi qochib ketdi. O'n-o'n besh daqiqa jim yotdilar. Keyin A'zam otani hiqichiq tutganday bo'lib, yomon bir tovush eshitildi. Hanifa xola qo'rqib:

– Hoy, adasi, qalaysiz? – dedi.

Javob bo'lmadi. Hanifa xola o'rnidan turib chiroqni yoq-sa, A'zam ota jon berib bo'lgan, faqat ko'zlari hali nimochiq turar edi.

Hanifa xola o'kirib o'zini uning ustiga tashladi... Keyin Shokir narigi ko'chada turadigan tanish vrachni olib keldi...

Voqeaning tafsilotlarini eshitgan vrach:

– Yonib tamom bo'lgan shamday jon beribdilar-da, – dedi. – yetmish uchga kirgan bo'lsalar, yaxshi umr ko'ribdi-lar... Endi buncha kuyunmanglar!..



Abror kechagina tirik yurgan otasining bir kunda jonsiz jasadga aylanib qolganini ko'rdi-yu, uni quchoqlaganicha ho'ngrab yubordi:

- Adajon!.. Ulgurolmadim!.. Adajon!..

Abrorning bu o'rtanib yig'lashiga A'zam ota bir lahza bo'lsa ham qayta ko'z ochishi kerakdek, suyukli o'g'liga nimadir deb tasalli berishi kerakdek tuyulardi. Axir eng og'ir paytlarda otasi uni qanotining ostiga olardi-ku. Boshini silab, ko'nglini ko'tarardi-ku!

Lekin oq yaktakda chalqancha yotgan mo'ysafid qimir etmasdi. Bu endi - A'zam otaning ruhsiz tanasi, jonsiz surati edi, xolos. Ilgarigi tirik, mard, fidoyi ota endi yo'q. Abror undan abadiy judo bo'lganini vujud-vujudi bilan his qilganida butun borliq ko'ziga jalloddek berahm ko'rindi.

Hayot bilan o'limning naqadar ulkanligini his qilishdan kelib chiqqan hayot-mamot tuyg'usi oldida boshqa hamma tashvishlar mayda va ahamiyatsiz bo'lib qoldi.

Dafn marosimining xarajatlari uchun pul kerak bo'ldi. Qarzdor bo'lib uylangan Shokirning ahvoli ma'lum. Abror ham omonat kassada bor pullarini avval otasining uchastka qurilishiga, so'ng ukasining to'yiga sarflab qo'ygan edi. Faqat har ehtimolga qarshi Vaziraning omonat daftarchasida saqlab yurilgan besh yuz so'm bor edi. Vazira taksida borib, shu pulni olib keldi. Yo'lakay uyga kirganda yaqin odamlarga telefon qilib chiqdi.

Tushga borib hovlining ich-tashi janozaga yig'ilgan izdihomga to'lib ketdi. A'zam otaning jasadi solingan to'rt dastali tobut ustiga marhumning yangi to'ni yopilgandi. Tobutni uydan ko'tarib chiqayotganlarida ayollarning uvvos solib yig'laganlari Abrorning bag'rini tilib o'tganday bo'ldi-yu, yana ko'zidan yosh tirqirab ketdi.

Hovlidan chiqqanlarida A'zam otaning tobuti ortidan uch yuzga yaqin odam ergashdi. Ular tobutni yelkalarida navbatma-navbat ko'tarishar, har o'n besh-yigirma qadamda bir-biri bilan almashinib borar edi.



Beshqayrag'ochdan Ko'kcha mozorigacha bo'lgan uch chaqirimcha yo'lda tobut yelkadan-elkaga, qo'ldan-qo'lga o'tib, bir lahza ham yerga tushmadi.

Yupqa to'n, do'ppi kiygan, beliga belbog' bog'lagan Abror, Shokir va boshqa yaqin qarindoshlar tobutdan besh-o'n qadam oldinda borishar, qarshidan chiqqan mashinalar, hatto tramvaylar tobut ko'tarib ko'chani to'ldirib kelayotgan xaloyiqqa yo'l berib, to'xtab qolishar edi.

Mo'ysafidlar rasm-rusumlarni qilishib, marhumni yerga qo'yayotganlarida A'zam otaning kuyovlaridan biri qabrdan chiqqan tuproqdan belbog'iga besh-o'n hovuch oldi-da, tobut ko'tarib kelganlarning hammasiga ulashib chiqdi. Keyin ularning siqimidagi tuproqni yana shu belboqqa yig'ib olib, A'zam otaning qabriga to'kdi. Marhumni e'zozlab, so'nggi makoniga ko'tarib kelganlarning kaftidagi iliqlik go'yo shu tuproqqa qo'shilib, otaning yonida abadiy qoldi.

Lahadga g'isht qalangandan keyin, uning tashidagi odam bo'yi chuqurlik tuproq bilan to'ldirilishi kerak edi. Rasmga binoan, qabrga tuproqni birinchi bo'lib o'g'illari tortishi kerak bo'ladi. Abror ketmonni olib, qabrga tuproq tashlayotganida xuddi bu tuproqning changi otasining ko'ziga kiradigandek ko'ngli yomon bo'lib ketdi. Lahad naryoqda ekanini, uning og'zi g'isht bilan bekitilganini, tuproq berigi yoqqa tushishini bilsa ham, otasini o'z qo'li bilan qora yerga ko'mish – chidab bo'lmaydigan bir shafqatsizlikdek tuyuldi. Ko'zlari yoshlanib, ketmonni pochchasiga tutqazdi-da, chetga chiqib ketdi...

Hovliga qaytgunlaricha ayollar patnislarga konfet va meva-cheva qo'yib, dasturxon tuzashgan, ellik-oltmish kishili joy hozirlashgan edi. Mahalla odamlari bir hafta avval to'yda qaynab turgan o'sha katta oq samovarni yana olib kelib, qaynatishmoqda edi. O'sha rux choynakchalarda ko'ngil so'rashga kelganlarga choy damlashar, Ko'kcha bozoridan olingan issiq tandir nonlarni odamlarning oldiga sindirib qo'yishar edi.



Hamma bor, faqat A'zam ota yo'q, endi hech qachon qaytib kelmaydi. Abror odamlarning orasidan otasini umrbod qidirib topolmasligini his qilgan sari musibat tuyg'usi bag'rini o'rtardi. Farzandlarini deb o'zini fido qilgan ota... Buzilgan uydan ko'chish, yangi joy qurish, o'g'il uylantirish, boshqa yuz xil tashvish, yangicha talablar, eskicha urf-odatlar – hammasi bir-biriga qo'shib selga o'xshab kelgani xayolidan o'tardi. Vazira bu selda qolib bir yiqildi. Abror uni bir amallab oyoqqa turg'azdi. Abror o'zi yiqilganda ota-onasi suyab olishdi. A'zam otaga kelganini nega qaytarisholmadi? Ajal degani bilintirmay kelar ekanmi? Yo'q, Abror otasining ahvoli yomonligini sezgan edi. Nega oldini olmadi? Nega o'tkinchi narsalar bilan bo'lib ketdi? Bu achchiq armonlar uning diliga tig'day sanchilardi.

Ta'ziyaga kelgan yor-do'stlar unga tasalli berishga harakat qilishadi. Endi ko'nikishdan boshqa chora yo'qligini aytishadi, iroda va bardosh tilashadi.

Direktorlari Sayfulla Rahmonovich o'zi kelolmagan edi, o'rniga qarindoshi Karim Mahmudovni yuboribdi. Abrorning ustaxonasida ishlaydigan Farhod bilan shu Karim Mahmudov kelib-ketuvchilarga choy tashib xizmat qilishyapti.

To'n kiyib belbog' bog'lab yurgan qarindoshlar orasida Sherzod Bahromov ham bor edi. U chiroyli ipak ko'ylagi ustidan shohi belbog' bog'lab olgan, shu bilan o'zini azadorlardan biri qilib ko'rsatadi. Ta'ziyaga keluvchilarni kutib olganda va kuzatganda yuziga musibatli tus berishga urinsa ham buning zo'rakiligi bilinib turardi. Ayniqsa, Sherzod Abrorga zimdan ko'z tashlaganda bir alamdand chiqayotgani sezilib qolardi. G'amdan qiynalib go'yo to'kilib turgan Abror, Sherzodning nazarida, o'z qilmishlarining jazosini tortayotganday ko'rinardi. Sherzod uning qarshisida o'zini g'olib sezar, ichki bir surur uning ko'zlari tubida va lablari qatida yashirinib yotardi.

Abror Sadriyevni darvozadan kirayotgan paytida ko'rdi va unga tomon sekin kela boshladi. Sadriyev tez borib



Abror bilan ko'rishdi, hamdardlik bildirdi. Bu orada Sherzod ayvondagi ayollar orasidan Vazirani topdi-yu, imlab, Sadriyevni ko'rsatdi.

Qora ko'ylak kiygan va boshiga yupqa qora ro'mol o'ragan Vazira ayvondan horg'in yurib tushdi, o'rik soyasiga o'tib o'tirayotgan kasbdoshlariga yaqinlashdi. Nabi Sadriyevich bir vaqtlar unga qattiq gapirgani uchun hozir o'zini gunohkor sezganday bo'lib:

– Vazira Badalovna, dunyo shu ekan endi... – dedi. – Og'ir paytda yonlaringizda bo'lgimiz keldi...

– Rahmat...

Ko'p yig'lab, ko'zlari shishinqiragan Vazira Abror bilan yonma-yon turgan Sherzodga bir qarab oldi.

Bahromov Abrorga ham, Vaziraga ham xuddi og'ir bemorlarga qilinadigandek yumshoq muomala qiladi, lekin o'zining ko'zlarida toshdek bir qattiqlik bor. Hozir u Nabi Sadriyevning oldida o'zini gina saqlamaydigan oqko'ngil odam va oqibatli qarindosh qilib ko'rsatishdan manfaatdor, lekin bu «oqibatli» qarindosh to'y paytida kekxa A'zam otani qanchalik shafqatsizlarcha qiynagani Vaziraning yodidan chiqqani yo'q hali. Undan oldin hamma aybni Sadriyev bilan Vaziraga to'nkab, suvdan «quruq» chiqib ketgan Bahromov bu ishlari uchun kechirim ham so'ragan emas, vijdoni ham azoblanmaydi, xijolat ham bo'lmaydi. Abror bir vaqtlar uni «suvyuqmas», «vijdoni o'rniga ham beton quyib olgan» deganda qanchalik haq bo'lganini Vazira endi bilyapti. Bu beton-odamning yonida turgan Abror boshiga tushgan og'ir judolikdan qanchalik o'zini oldirib qo'yayapti! Vazira xavotirini eriga aytolmadi-yu:

– Nabi Sadriyevich, Abror akamga ayting, o'zlarini sal qo'lga olsinlar, – dedi. – Endi qolganlarni ham o'ylasinlar!

Vazira sekin yurib ayvondagi ayollar oldiga qaytib ketdi. Nabi Sadriyevich Abrorni yoniga olib o'tirib, bir-ikki piyola choyni birga ichdi. Sherzod mehribonchilik qilib ularga choy quyib berib turibdi.



- Abror A'zamovich, og'ir paytda ishdagi xushxabar odamning ko'nglini ko'taradi, - dedi Sadriyev. - Bitta yangilikni Vazira Badalovna ikkovlaringizga aytmoqchi edim.

- Yangilik?

- Ha, Ganchtepani obod qilish bo'yicha yaxshi fikrlar bergan edingiz. Endi shu rejalar amalga oshadigan bo'ldi. Tepa ustiga chiroyli bir doirashakl bino quriladi. Muzey bo'ladi. Atrofidagi hamma joylar landshaft arxitekturasining eng so'nggi yutuqlari asosida obod qilinadi. Bu nozik ishni siz, kabi me'morlarga topshirmoqchimiz.

Abror boshqa bir olamdan qaytib kelayotgan kabi o'zining ish mavzuidagi rejalarini elas-elas xotirladi va tasdiq ma'nosida bosh irg'ab qo'ydi.

- Esingizda bo'lsa, - deb davom etdi Sadriyev. - Vazira Badalovna hammuallif bo'lgan bir loyihada Bo'zsuvga yangi o'zan qazish rejasi bor edi. Bu rejadan ham shu o'rinda qisman foydalanadigan bo'ldik. Ya'ni Ganchtepa, aylanib o'tgan eski o'zan siz aytganday saqlanib qoladi. Ayni vaqtda, tepaning kunchiqish tomonidan yangi o'zan o'tkaziladi, suv har ikki o'zandan oqib tursa, orada chiroyli bir orol paydo bo'ladi.

Sherzod o'zining o'shandagi loyihasi qisman bo'lsa ham amalga oshishini sezib suyunib ketdi. Ammo buni ochiq aytolmay:

- Haqiqatan, Vazira Badalovna uchun bu - ajoyib xushxabar! - dedi. So'ng jim xayol surib turgan Abrorga qarab davom etdi: - Bilaman, Abror A'zamovich hozir ish to'g'risida o'ylaydigan ahvolda emaslar. Lekin Anhorning tarixiy o'zani saqlab qolinadigan bo'lsa, bu juda yaxshi-ku! Abror A'zamovichning aytgani ham bo'lar ekan, Vazira Badalovnaning aytgani ham bo'lar ekan! Bu - juda dono yechim!

Insomning umri hisobli ekanini muttasil eslatib turgan hayot-mamot tuyg'usi oldida: «Faqat mening aytganim



bo'lsin!» deb, boshqalarni, hatto umr yo'ldoshini ham qiy-nash Abrorga endi o'rinsiz tuyulardi. Abror bo'g'iq tovush bilan:

– Rahmat, Nabi Sadriyevich, – dedi.

– Eng muhimi, – qo'shimcha qildi Sherzod, – Nabi Sadriyevich ijodiy kuchlarni birlashtiradigan yaxshi yechim topibdilar. Axir biz hammamiz bir avlodmiz, tengdoshmiz!

Hozir Sherzod Abrorga qarindosh va tengdosh bo'lish-dan qochmas, aksincha, unga iste'dodli me'morlar bilan aralashib ketish, ularning ishiga teng sherik bo'lish, «uravni-lovka»ni inoqlik deb atash ko'proq manfaat keltirardi. Buni sezgan Abrorning ensasi qotib, undan yuzini o'girib oldi. Nabi Sadriyevich uning holatini tushunganday bo'lib:

– Iloj qancha, Abror A'zamovich! – dedi. – Mana, Sherzod Islomovich bilan quda-anda bo'lib olibsizlar. Biz hammamiz Me'morlar uyushmasiga a'zomiz, katta jamoada xuddi bitta bog'ning daraxtlariday birga yashaymiz. Yonma-yon ekilgan daraxtlar istasa-istamasa umr bo'yi birga o'sadi.

– Daraxt yaxshi narsa-yu, lekin inson... bir umr o'rnidan jilolmaydigan daraxtday turg'un hayot kechirolmaydi, Nabi Sadriyevich. Menga shuncha to'g'anoqlar bergan, Vazirani kasal qilib tinchigan ba'zi qarindoshlarim qaysi yuz bilan ertaga menga hammuallif bo'ladi?

Bu gapdan Sherzodning ranglari oqarib ketdi. Gap jan-jalga aylanmasin uchun Nabi Sadriyevich tez Abrorni bilagidan olib bir chetga boshlab chiqdi. Ovozi pasaytirib:

– Hozir siyosat shuni talab qilyapti! – dedi. – Kelishib ishlashimiz kerak, Abrorjon! O'zingizni vazmin tutsangiz, Bo'zsuvga oid o'sha katta rejalarangiz ham amalga oshib qoladi.

– Lekin men Bahromov bilan kelishib ishlay olmayman.

– Unda yana o'zingizni qiynaysiz...

– Nega xato qilgan odamlar ishdan chetlatilmaydi? Qachongacha halol bilan haromni aralashtirib, yaxshi bilan



yomonni tenglashtirib yashaymiz? Bundan faqat qallob odamlargina yutadi-yu, mening otamga o'xshagan pok odamlar ajalidan oldin o'lib ketaveradi. Men bunday siyosatga qarshiman!

– O'zingizni bosing, Abror A'zamovich! Keyin yana gaplashamiz. Qarang fotihaga kelishyapti... Xayr, men ketdim!

Fotihaga kelib-ketuvchilarning keti kechqurun qorong'i tushganda uzildi. Xizmatda bo'lgan qarindoshlar hovlidagi stol atrofiga yig'ilib, yigirmada beriladigan xudoyi oshning maslahatini qila boshlashdi.

– Ko'kterak bozoriga borib, bitta novvos olish kerak, – dedi katta pochcha. – Ikki-uch qop guruch. Shunga yarasha sabzi.

– Yordam kerak bo'lsa, biz tayyormiz! – dedi Sherzod.

Moddiy olamga bog'liq bu ishlar Abrorni musibat tuyg'usidan alahsitadigandek, uni ezayotgan judolik toshini mayda-chuyda tashvishlar ustiga sochib, ko'ngliga bir qadar yengillik beradigandek bo'lar edi. U qarzga botib yoki mashinasini sotib bo'lsa ham otasi uchun hamma kerakli ishni qilishi mumkin edi.

Lekin birdan xotira uyg'ondi-yu, mana shu Sherzod Bahromov yaqiningada A'zam otani qo'sh surnay va qo'sh nog'ora uchun qanchalik yugurtirgani esiga tushdi. Keksa odam bu keraksiz dabdaba uchun qarzga botib, keyin qarzini uzish uchun ikki kishining qorovulligini qilgani Abrorning alamini keltirdi.

Abror boshini changallab jim qoldi. Agar u otasining yigirmasiga yoki yil oshiga besh yuz kishilik palov damlaydigan bo'lsa, shunga yarasha odam taklif qilishi kerak. Hozir mana shunaqa yigirmalar yoki yil oshilarga soatini, kunini qog'ozga yozib, shaharning turli chekkalaridagi tanish-bilish, qarindosh-urug'larga tarqatish odati chiqqan. Odamlar azonda turib (bir chuqum osh uchun emas, chun-



ki hozir to'qchilik, har kim nonushtasini qiynalmay topib yeya oladi) marosimga aytganlarning yuzidan o'tolmay, ulkan shaharning u chetidan bu chetiga borib keladi.

Yuzlab keluvchilarning shuncha vaqtini oladigan bu dab-dabali marosimga bir dunyo pul kerak. Abror uni Sherzod-dan so'rasa, keyin bu qarzlarni uzish uchun otasiga o'xshab o'zini beayov qiynashi kerakmi?

To'yda ham, azada ham tashqi hashamga zo'r berish bahromovlarning qonida bor. Otasining xudoyisiga olti yuz-yetti yuz kishilik osh damlab, hatto motam marosimi-ni ham obro' orttirishning bir vositasiga aylantirish – mana shu toifa odamlarga kerak. «Menga nima zaril?» dedi Abror o'zicha.

Xayolidan o'tgan achchiq gaplarni davrada o'tirganlarga aytib o'tirmadi. Chunki, bu masalada gap kor qilmasligi-ni, odam o'z e'tiqodini safsata sotmasdan, qat'iy ish bilan amalga oshirishi kerakligini endi bilib qolgan edi. U poch-chalariga va Sherzodga bir-bir qarab:

– Mana bugun yonimizda bo'lganlaringiz uchun rahmat, – dedi. – Endi ertaga ertalab kelsalaringiz bo'ldi.

– Iye, bu xudoyi uchun xarid-parid... – dedi Sherzod.

– Hammasini o'zimiz qilamiz... Rahmat...

Abror hammani kuzatib qo'ygandan keyin ukasini qar-shisiga o'tqazdi:

– Otamning xotirasi uchun har qancha qilsak oz, Shokir! Lekin men buni qozon qaynatish-u odamlarning qornini oshga to'ydirish ma'nosida aytayotganim yo'q. Bu eskicha rasm-rusumlarning anchasi nuqul yeyish-ichish, kiyish-ga o'xshagan jig'ildon dardi bilan cheklangan. Mayli, uchi, yigirma, qirqi – hammasini qilaylik. Lekin butun shaharga ovoza qilib, qog'oz yozib, tanish-bilishlarni bezovta qilib yurmaylik. Kimki o'zi eslab, hurmat qilib kelsa, shularga yarasha osh-non tortamiz. Bo'ldi!

– Odamlar keyin gap qilishmasmikin?



- Gap qiladiganlarning gapini pisand qilma! Bunaqa gaplar mudom moddiy boylig-u jig'ildon dardida yurgan odamlardan chiqadi. Haqiqiy ziyolilar boshqa yog'iga qaraydi. Biz otamning xotirasi uchun ma'naviy qimmatini bor bitta yodgorlik qilishimiz kerak. Tushundingmi?

- Qabrlarining ustigami?

- Ha! Qabristondagi temir panjaralarni ko'rdingmi? Do'ppayib turgan tuproq uyumining atrofida nuqul zanglagan temir panjaralar. Qarab bo'lmaydi! Besh yuz-olti yuz kishiga osh berish bilan bo'lib marhumlarining yotgan joyini sal munday obod qilib qo'yishni o'ylashmaydi-ya! Axir jig'ildondan oldin bu tomonni o'ylash kerak emasmi... Sening sangtarosh o'rtoqlaring bor. Adam uchun bir-ikki parcha marmar bilan granit topiladi. Loyihasini men o'zim chizaman. Adam qirq yil Toshkent uchun jonini ayamay mehnat qildi. Oxirida mana shu tashlandiq yerni bog' qilib, hovli qilib, yashnatib ketdi. Bu ham shaharning bir kichik zarrasi. Endi agar uning qabriga yaxshi bir yodgorlik o'rnat-sak, shu ham Toshkentning arxitekturasiga kichkina bir ulush bo'lib kiradi. Axir mana, Boku yoki Riga shaharlari-dagi qabristonlarda marhumlar uchun qanday ajoyib yodgorliklar o'rnatilgan...

- Bizda ham bor-ku, lekin... To'g'ri aytasiz, aka. Hadeb oshxo'rlikka zo'r bergandan ko'ra, siz aytganday qilish ming marta afzal. Toshini tarashlashni, yaxshilab qurishni men o'zimga olaman.

- Qolgani mendan.

Abror otasining yettisi va yigirmasini xuddi ukasi bilan kelishgandek qilib o'tkazdi. Keyin uning uyidagi chizmakashlik stoli ustida yangi bir loyiha paydo bo'ldi.

Shu vaqtgacha quvnoq favvoralar, sayilgohlar va maydonlar loyihasini chizib o'rgangan qo'llar endi A'zam otaning qabri ustiga o'rnatiladigan mo'jazgina marmar yodgorlikning tasvirini chiza boshladi... Bu ish davomida otasi



bilan birga o'tkazilgan eng mas'ud damlar xotirasidan bir-bir o'tardi.

Shunday damlardan biri Abror bola ekanida bahor paytida Bo'zsuv bo'yida bo'lgan edi. Tuman aralash mayda yomg'ir yog'ib turgan paytda osmondan turnalarning mayin quruv-quruvlari eshilib qoldi. Yomg'ir pardasi orasidan yer yaxshi ko'rinmay qolgan bo'lsa kerak, turnalar juda past uchmoqda edi. O'n yashar Abror otasining yonida turib, turnalarning qanotlari va bo'yinlari qanchalik uzun bo'lishini, ular qay daraja tez uchishini o'shanda birinchi marta yaqinginadan ko'rgan edi. Turnalar nega buncha bezovta uchgani uni hayratga soldi. Qanotlarini tez-tez sermashadi. Turnalar arg'amchisi goho o'rtasidan uzilib ketganday ikkiga ajraladi. Goh bir cheti burilib sharqqa intiladi. Goh butun arg'amchisi birlashib shimolga burilib ketadi. Bu orada bitta-ikkita turna safdan uzilib chiqib, orqada qoladi-da, keyin jadallab safga yetib boradi.

– Ada, bular nega bunday uchyapti? – deb Abror otasidan so'radi.

– Hayronman. Tumanda yo'lni yo'qotishganmi? Yomg'ir tagida qanotlari ho'l bo'lib og'irlashganmi?


– Tushib dam olishsa bo'lmaydimi, ada?

Osmondan ko'zini olmay turnalarga tikilib qarayotgan A'zam ota:

– Ana, – dedi, – Bo'zsuvga qarab burilishdi. Tinchroq joy topilsa, tushishadi.

Turnalar yomg'irda ho'l bo'lib og'irlashgan qanotlarini tez-tez sermab, saflari goh o'ngga, goh chapga buralib, bezovta uchayotgan bo'lishsa ham, lekin quruv-quruvlari odatdagiday osuda va siyrak edi. Har zamonda bittasi past va horg'in tovush bilan quruv deb qo'yar va yomg'ir ichida uchishini davom ettirar edi.

Ular uzoq safar davomida bunday qiyinchiliklarga go'yo o'rganib qolishgan. Endi har qancha azob tortishsa ham



asabiylashmasdan, taqdirga tan bergandek, osoyishta to-vush bilan goho quruv deb qo'yishar va parvozni davom ettirishardi...

Abror otasi bilan birga ko'rgan bu hodisa hozir qayta-qayta esiga tushadi. Chunki otasining butun hayoti unga turnalarning mana shunday kuch va bardosh bilan qit'adan qit'aga uchib borishlarini eslatadi. Abror otasiga tortgan o'g'il bo'la olsa, bu uchish davom etadi. U endi faqat o'zi uchun emas, otasi uchun ham yashay bilishi kerak. Ana shunda ota shahri Toshkentning ko'rkiga ko'rk, obro'siga obro' qo'shish istaklari yangi bir kuch bilan qaytib keladi.

1976-1982

MUNDARIJA

BIRINCHI BOB.....	3
IKKINCHI BOB.....	28
UCHINCHI BOB.....	50
TO'RTINCHI BOB.....	82
BESHINCHI BOB.....	102
OLTINCHI BOB.....	120
YETTINCHI BOB.....	146
SAKKIZINCHI BOB.....	170
TO'QQIZINCHI BOB.....	218
O'NINCHI BOB.....	256
O'N BIRINCHI BOB.....	282
O'N IKKINCHI BOB.....	305
O'N UCHINCHI BOB.....	331
O'N TO'RTINCHI BOB.....	346
O'N BESHINCHI BOB.....	364
O'N OLTINCHI BOB.....	382
O'N YETTINCHI BOB.....	396

Adabiy-badiiy nashr

PIRIMQUL QODIROV

OLMOS KAMAR

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir

Dilfuza SALIXODJAYEVA

Kompyuterda sahifalovchi

Nigora UMARQULOVA

Tehnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsyenzia raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 01.02.2019-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 13.0. Shartli bosma tabog'i 21.84.

Garnitura «Cambria». Ofset qog'oz.

Adadi 10 000 (I zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 19.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMM da tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJ da chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72;

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43; (93) 397-10-87

faks – (71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru veb-sayt: www.book.uz